

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TARIX FAKULTETI

IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

**“O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI” fanidan**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA



Bilim sohasi:	<i>100000 – Gumanitar</i>
Ta'lim sohasi:	<i>110000 – Pedagogika</i>
Ta'lim yo'nalishi:	<i>Barcha yo'nalishlar</i>

JIZZAX – 2018

O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 17 sentyabrdagi 392-son buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: A.To'rayev – Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi
J.Toshboyev – Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar: A. Saidqosimov – siyosiy fanlar nomzodi
S.Nazarqosimov – Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

O'quv-uslubiy majmua ijtimoiy fanlar kafedrası yig'ilishida (2018-yil _____-sonli qarori) va institut ilmiy kengashida (2018 yil _____ - sonli qarori) muhokama qilingan va ishlatishga tavsiya etilgan.

© O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv-uslubiy majmua. – Jizzax.:JDPI, 2018. – B.465

© A.To'rayev, J.Toshboyev.– Jizzax.: JDPI, 2018.

MUNDARIJA		
KIRISH.....		5
I BO'LIM - O'QUV MATERIALLAR. "O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI" FANI BO'YICHA MARUZA MATNI VA TA'LIM TEXNOLOGIYASI.....		6
1-MAVZU	“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari.....	6
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	15
2- MAVZU	Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari.....	31
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	46
3-MAVZU	Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “O'zbek modeli”.....	49
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	58
4-MAVZU	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari.....	68
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	79
5-MAVZU	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari.....	85
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	93
6 -MAVZU	Qonun ustuvorligi – demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi.....	96
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	121
7-MAVZU	Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish.....	131
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	131
8-MAVZU	Fuqaro erkinligi, huquq va manfaatlar ustuvorligini ta'minlash.....	153
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	167
9-MAVZU	Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish.....	176
	Ma'ruza mashg'ulotlarini o'qitish texnologiyasi.....	197
10-MAVZU	Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari.....	207
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	225
11-MAVZU	Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish institutlarini demokratiyalashuvi.....	232
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	248
12-MAVZU	Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.....	253
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	270
13-MAVZU	Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash....	286
	Ma'ruza mashg'ulotlarini o'qitish texnologiyasi.....	286

14-MAVZU	O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi.....	294
	Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi.....	329
II BO'LIM - SEMINAR MASHG'ULOTLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI...		342
1- MAVZU	“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari.....	342
2 -MAVZU	Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari.....	345
3 - MAVZU	Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “O'zbek modeli”.....	348
4 -MAVZU	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari.....	350
5 -MAVZU	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari.....	352
6- MAVZU	Qonun ustuvorligi – demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi.....	357
7-MAVZU	Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish.....	357
8-MAVZU	Fuqaro erkinligi, huquq va manfaatlar ustuvorligini ta'minlash.....	360
9-MAVZU	Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish.....	363
10-MAVZU	Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari.....	366
11-MAVZU	Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish institutlarini demokratiyalashuvi.....	370
12-MAVZU	Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.....	373
13- MAVZU	Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash	386
14-MAVZU	O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi.....	394
Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.....		397
Glossariy.....		398
III BO'LIM - ILOVALAR.....		421
Fan dasturi.....		425
Ishchi dastur - Sillabus.....		334
Mavzularni mustahkamlash uchun nazorat va test savollari.....		453
Reyting tizimi asosida baholash mezoni.....		463
Oraliq nazorat savollari.....		465

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

K I R I S H

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o'qitilishi bir tomondan mamlakatimizning mustaqillikka erishishining samarasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mustaqillik tufayli O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'lining ustuvor yo'nalishini demokratik jamiyat qurish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Demokratik jamiyat qurish maqsadlari esa ko'p qirrali jarayon bo'lib, ko'pgina muammolarni o'z ichiga oladi. Bunda asosan ikki muhim jihat: demokratik jamiyat qurishda dunyo mamlakatlari erishgan yutuqlar, umum e'tirof etilgan tamoyillar, ikkinchidan har bir mamlakat yoki xalqning o'ziga xos, milliy-ma'naviy xususiyatlarini hisobga olish bu fanni o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillik tufayli demokratik jamiyat qurishni asosiy maqsad qilib belgilab oldi. Uning milliy-ma'naviy merosimizga, milliy davlatchilik sohasidagi qadriyatlarimizga tayangan holda «o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanladi». Hamda fuqarolik jamiyati qurilishi bilan bog'liq vazifalarni aniqlab oldi. O'zining ma'naviy qadriyatlariga, merosiga tayanmagan, uni hisobga olib umumbashariy qadriyatlar, tamoyillar bilan uyg'un qurilmagan jamiyatni haqiqiy demokratik jamiyat deb bo'lmaydi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani ham, ijtimoiy-gumanitar, siyosiy fanlarda e'tirof etilgan fanni o'rganish ob'ekti, predmeti xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni demokratik jamiyat qurish qonuniyatlarini o'rganishga tatbiq etadi. Ayni paytda bu fanning o'ziga xos xususiyatlari, ob'ekti, predmeti va qonuniyatlari, tushunchalari borligini e'tirof etadi. Mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti to'g'risida o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikmalar hosil qilishni nazarda tutadi.

Bu fanni o'rganish jarayonida o'quvchilar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining nazariy asoslari, u to'g'risidagi qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lsalar, ayni paytda O'zbekiston jamiyati to'g'risida, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini erkinlashtirish, demokratiyalashishi bilan bog'liq xususiyatlar, yo'nalishlari hamda unga erishish mexanizmlari to'g'risidagi yaxlit tasavvurga ham ega bo'ladilar. Bu - O'zbekistonning tutgan yo'li, maqsad va yo'nalishlarini bilishga hamda boshqa davlatlar, mamlakatlardan farqli jihatlarini ko'rishga imkoniyat beradi.

O'zbekiston to'g'risida, O'zbekistonda kechayotgan demokratik jamiyat bilan bog'liq bir tomonlama ilmiy asosga va xolislikka tayanmagan ayrim qarashlarni cheklanganligini bilib olishlarida ham yordam beradi.

O'QUV MATERIALLAR

I – BO'LIM

“O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI” FANI BO'YICHA MARUZA MATNI

1- MAVZU : “O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI” FANINING PREDMETI, OB'YEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining obyekti, predmeti, o'ziga xos xususiyatlari
2. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsad va vazifasi
3. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining asosiy tushunchalari va qonuniyatlari
4. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o'rganishni nazariy va amaliy ahamiyati

Tayanch so'z va iboralar: *demokratiya, demokratik davlat, demokratik jamiyat, demokratik dunyoqarash, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish, huquqiy davlat, siyosiy ong, demokratik ong.*

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining obyekti, predmeti, o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti mamlakatda demokratik jamiyatning shakllanishi, fuqarolik jamiyati qurilishi, qaror topishi va amal qilishi qonuniyatlarining dunyoda e'tirof etilgan umumbashariy prinsiplari va milliy tamoyillariga asoslanadi. Ayni paytda uning o'ziga hos va mos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda erkin, demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'llari va qonuniyatlarini o'rganish, bu fanning predmetini tashkil etadi.

Shuningdek, O'zbekiston ijtimoiy hayotining barcha sohalarini fanning ob'ektidir. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti bir tomondan, demokratik jamiyat to'g'risidagi mavjud qarashlarga, nazariyalarga hamda mamlakatimizning davlatchiligi tarixiy merosi bilan bog'liq mutafakkirlarning g'oyalarini hisobga olsa, ikkinchidan, mustaqillik tufayli demokratik jamiyat qurilishi to'g'risidagi muhim konseptual g'oyalar va qarashlarning ishlab chiqilishi, unda O'zbekistonning o'ziga hos mustaqil rivojlanish yo'li xususiyatlariga tayanadi. Uchinchidan, bu sohada mustaqillik yillarida erishilayotgan yutuqlarni, demokratik jamiyat qurish tajribasi yutuqlariga tayanib, uni o'rganadi. O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni, o'zaro manfaatli hamkorlik asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish qonuniyatlarini bilish ham muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurilishi ijtimoiy hayotimizning biron-bir sohasi bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning barcha jabhalaridagi o'zgarishlarning negizlarini o'z ichiga oladi va o'rganadi. Bunda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti demokratiyalashuvining va siyosiy hayotining erkinlashtirilishi, davlat suvereniteti, halq hokimiyatchiligi, uning manbai, fuqaro-jamiyat va davlat munosabatlari asosiy negiz hisoblanadi. Mamlakatda konstitutsiya va qonunning ustunligi, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari bilan bog'liq umumiy qoidalar va demokratik tamoyillar, jamiyat va shahs munosabatlari, jamoat birlashmalari, oila, davlat hokimiyatining tashkil etilishi bilan bog'liq sohalar demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o'rganadigan sohalarini hisoblanadi. Bu tushunchalarning ayrim jihatlarini boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar ham o'rganadi. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani ongning demokratik shaklini, ya'ni demokratik ongning o'ziga hos jihatlari, uning qadriyatlarini, shakllanish asoslari hamda jarayonini umuminsoniy demokratik qonuniyatlarining muhim omili sifatida o'rganadi.

«Demokratiya» yunoncha soʻz boʻlib, tarjimada halq hokimiyati – (demos-halq, krotos-hokimiyat) maʼnosini bildiradi. Demokratik jamiyat deb oliy hokimiyat bevosita halqqa tegishli boʻlgan va halqning hohish-irodasi bilan amalga oshadigan davlat va jamiyatga aytiladi. Albatta demokratiya atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyliigi, yashashga qobilligi muhimdir. «Binobarin, - deb taʼkidlaydi I.A.Karimov - biz oʻz istagimizdagi demokratiyaga qanday mazmun bahsh etmaylik, agar u hayotimizning har bir sohaga singib ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va taʼriflar yo mazmunsiz baqir-chaqir yoki hech narsani anglatmaydigan soʻz oʻyini boʻlib qolaveradi»¹. Demokratiyaning vazifasi - fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iborat. Lekin hozirgacha hech qaysi davlat bunga mukammal erishmagan, faqat unga harakat qilib kelmoqda. Demokratik boshqaruv jarayonida siyosiy hayotda ishtirok etish nafaqat fuqarolarning muhim siyosiy faollik belgisi boʻlibgina qolmasdan, bu ularning huquqlari, balki burchlari ekanligini ham anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jixatlarni ham hisobga olish muhimdir.

Demak, birinchidan demokratik jamiyat - davlatchilik sohasida har bir mamlakat va xalqning demokratiyada umumeʼtirof etilgan qadriyatlari va tamoyillari hisobga olinadigan, milliy-madaniy merosi xususiyatlariga tayaniladigan, fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan boshqaruvda fuqarolar faol ishtirok etadigan jamiyatdir.

Ikkinchidan, umumiy tarzda demokratiya deganda, hammaning manfaatlari yoʻlida koʻpchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi.

Uchinchidan, uni batafsil tahlil qilganda esa demokratiya halqning oʻz erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shahsning manfaatlari va huquqlarini oʻzboshimchalik bilan cheklashlar va shu yoʻsindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning oʻz-oʻzini boshqarish shakli ham ekanligi ayon boʻladi.

Aytish mumkinki, Oʻzbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini oʻrganish, mamlakat hayotida keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirish bilan bogʻliq qonuniyatlarni bilish va oʻrganishda, demokratik taraqqiyot yoʻlida «Oʻzbek modeli»ni tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Bu demokratiyaning milliy va umumbashariy tamoyillarini aniq tasavvur etish, ijtimoiy hayotni u bilan bogʻlab olib borishga oʻrgatadi. Mamlakatimizda demokratiyaning qaror topib borishi, Oʻzbekistonning dunyo hamjamiyatida oʻzining nufuzli oʻringa ega boʻlishiga, yoshlarda demokratik ong va tafakkurni shakllantirish, milliy-maʼnaviy merosni qadrlash, vatanparvarlik tuygʻularini mustahkamlashga koʻmaklashadi. Mamlakatda erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati asoslari va uning nazariyasi hamda amaliyoti bilan chuqurroq tanishtiradi. Shu maqsadni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Oʻzbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini oʻrganishning oʻziga xos zarurat va sabablari mavjud.

Birinchidan, bugun dunyoda demokratiya, demokratik jamiyat toʻgʻrisida muayyan moʻtadillashgan ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ularda demokratik jamiyatning qiyofasi, asoslari, yashash va rivojlanishining umumeʼtirof etilgan qonuniyatlari hamda uning har bir davlat, xalqning milliy-maʼnaviy xususiyatlari bilan bogʻliq jihatlari tobora keng miqyosda oʻz ifodasini topmoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoning 160 dan ortiq davlatlarida demokratik tuzumlar umumbashariy va milliy qadriyat sifatida barpo qilinganligi eʼtirof etilmoqda. Aynan hozirgi davrga kelib, demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yoʻli ekanini deyarli barcha eʼtirof etayotganligi va uning jahoniy koʻlam kasb qilayotganligi demokratiyani fan sifatida oʻrganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir.

Ikkinchidan, Oʻzbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat, uning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash, oʻrganish zarurati ham shu qonuniyat bilan bogʻliqdir. Ijtimoiy-gumanitar va ijtimoiy-siyosiy fanlar qatorida uning maxsus fan sifatida oʻqitilishi dunyodagi

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хафсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6. –Т.: «Ўзбекистон», 1998, 180-бет.

demokratik o'zgarishlar bilan bog'liq umumiy qonuniy asoslarga ham ega. Va uni hisobga olishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Har bir mustaqil mamlakat, o'zining taraqqiyot yo'lini va qurayotgan jamiyatini bilishga, uning qonuniyatlarini aniqlab olishga ehtiyoj sezadi. Shu nuqtai nazardan, hozirgi paytgacha ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga bevosita taalluqli bo'lgan masalalarni ilmiy jihatdan aniq bir voqelik sifatida, yaxlitligicha o'rganuvchi fan vujudga kelmagan. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani doirasidagi o'ziga xos jihatlar aynan shu jarayonni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega. Negaki, bu fan eng avvalo – jahon sivilizasiyasining tarixiy tajribalariga asoslangan holda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, adolatli demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning nafaqat nazariy masalalarini, balki uning amaliy jihatlarini yaxlit tarzda o'rganadi. Bu fanni yana shuning uchun ham o'rganish zarur-ki, Sharq va Farb sivilizasiyalari tutashgan makonda tarixda birinchi bor umume'tirof etilgan demokratiya tamoyillari milliy qadriyatlar bilan to'ldirilmoqda. Jamiyatimizdagi bu jarayonni atrofimizda ro'y berayotgan ijtimoiy hodisalar, voqealar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni aniq voqeligimiz bilan chambarchas o'rganish, tahlil etish zarurdir. Bu zarurat I.A.Karimovning: **«Pirovard maqsadimiz – ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir»**² deb ta'kidlagan umumstrategik vazifani amalga oshirish bilan bog'liqdir. Bu fikrni 2005 yili 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma yig'ilishida yana bir bor ta'kidlagan edi. **«Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir»**³. Bu vazifa O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganishni zarur qilib qo'ygan **uchinchi asosiy sabablardan biridir**, deyish mumkin.

Shuningdek, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan, odamlarga munosib turmush kechirishini ta'minlay oladigan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan chinakam demokratik jamiyat qurishdek murakkab vazifani hal etish bilan bog'liq umumiy zaruratning mavjudligidir. O'zbekiston ham ana shunday davlatlar jumlasiga kirganligi bois mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti masalalarini o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi. Demokratik taraqqiyot yo'lidan sobit qadam bilan rivojlanishda nimalar hisobiga erishish mumkinligini bilish uchun ham uni fan sifatida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish dunyoda e'tirof etilgan demokratik tamoyillar va qadriyatlarga tayanish bilan birga, uning o'ziga xos xususiyatlarini milliy-madaniy merosi, qadriyatlari va milliy davlatchilik an'analariga tayangan holda yangi jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq.

Mamlakatning oldida turgan maqsadni ta'kidlar ekan, I.A.Karimov shunday degan edi: «Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishini; insonning ma'naviy axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak»⁴.

Mamlakatimizda demokratik jarayonlarning mohiyatini bilish, unga ijodiy yondashish uchun yosh avlod demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanish bosqichlarini chuqur o'rganishi zarur. Bu strategik vazifani faqatgina ushbu fan bajaradi.

O'zbekistonda demokratik dunyoviy davlat qurish yo'lini tanlanishining ham o'ziga hos sabablari mavjud. Buning uchun dunyoviy davlatga hos jixatlarni, uning afzalliklarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoviy davlatning muhim jixatlari quyidagi yo'nalishlarda o'zining ifodasini topgan:

²Каримов И.А. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997, 3-бет.

³И.А.Каримов. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.13. – Т.: “Ўзбекистон”, 2005. – 177.

⁴O'sha joyda.

- Qonun ustuvorligi;
- Inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqlik;
- Demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat;
- Halqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olish;
- Respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlash;
- Insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etish;
- O‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanish;
- Diniy tashkilotlar va birlashmalarni davlatdan ajratilganligi hamda qonun oldida tengligi. Davlatning diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmasligi;
- Fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash;
- hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglash;
- O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining huquqiy asoslari uning Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilganligini va unga tayanib ish olib borishini anglatadi.
- O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish yo‘lining asoslari sobiq totalitar tuzumdan quyidagi jixatlari bilan farq qiladi:
 - Yagona kommunistik mafkuraga tayanilmaganligi bilan;
 - Sinfiylik, partiyaviylik tamoyillaridan mutlaqo begonaligi bilan;
 - Inson - eng ulug‘ ne‘mat, degan fikrga asoslanilganligi bilan;
 - Siyosiy institutlar xilma-xilligi;
 - Fikrlar va mafkuralar xilma-xilligi;
 - Mulkning xilma-xilligi.
- «Davlat - jamiyat - fuqaro» munosabatidan tubdan farq qiladigan «fuqaro - jamiyat - davlat» o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy asosga qo‘yilganligi bilan ajralib turadi.

Ayni paytda demokratiyaning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan erkin va adolatli saylovlar, ochiq va hisobot beruvchi ijro hokimiyati, siyosiy va fuqarolik huquqlarining mavjudligi, adolatli, fuqarolik jamiyati qurilishi qonunlariga amal qiladi.

O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixida adolatli jamiyat qurish asosiy konsepsiyalardan biridir. qariyb 3000 yillik tarixga ega bo‘lgan bugungi O‘zbekistonning ko‘rinishlari demokratik, adolatli jamiyat tamoyillarining negizlari, o‘ziga hos jixatlarda, qarashlarda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «dunyoviy davlat» degan atamaning ma‘nosi, mohiyati va tamoyillari asosan uning quyidagi moddalarida o‘z ifodasini topgan: «*Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi*» (61 –modda).

«Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlilik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yahlitligi va havfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, halqning sog‘lig‘i va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashlarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi». Mahfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi. (57-modda).

«O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning hilma-hilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas» (12-modda).

Hozirgi zamonda milliy «demokratik davlat», “milliy davlatchilik va demokratik jamiyat” tushunchalari ko‘proq ishlatilmoqda. Unga hos bo‘lgan jixatlar quyidagilarda o‘zining aniq ifodasini topadi:

- Demokratik normalarga tayanadigan huquqiy davlat;
- Demokratiyaga zid bo‘lmagan holda tarixiy an‘analar va jamiyat hayotining muhim sohalaridagi milliy hususiyatlarning saqlanishi;
- Barcha fuqarolarning tengligiga asoslangan milliy siyosat olib boradi;

- Uning geosiyosiy mavqei iqtisodiy, ma'naviy va harbiy texnik imkoniyatiga, salohiyatiga mos bo'ladi;
- Fuqarolar ijtimoiy ongida demokratik tafakkurga amal qiladi;
- Mustaqil ichki va tashqi siyosat olib boradi;
- O'z taraqqiyot yo'lini mustaqil tanlaydi va amalga oshiradi;
- O'z qobig'ida yashash mumkin emasligi qoidasiga tayanadi. Ochiq demokratik davlat hisoblanadi. Bu milliy davlatchilikni demokratik jamiyatga zid emasligini ko'rsatadi.

XX asrning so'nggi choragi butun dunyo bo'yicha demokratiyaning g'olibona tarqalish davri bo'ldi. 1998 yilda mavjud bo'lgan 191 mamlakatdan 117 tasi, yoki 61,3% da erkin, yashirin, umumiy teng va nisbatan adolatli saylovlar o'tkazildi. 1974 yildan keyin 89 ta avtokratiya mamlakatlarida demokratik tartibotga o'tildi⁵. Bu milliy davlatchilik negizlarini demokratiya bilan bog'lagan holda amalga oshirilgan paytdagina kutilgan samarani beradi, deyish mumkin. Bu demokratiya sohasida ular bir hil bosqichda turibdi, degan ma'noni bermaydi. Ayni paytda muammolar mavjudligini ham inkor etmaydi. V.Markel asarlarida noliberal demokratiya sifatida (nuqsonli, kamchiliklarga ega demokratiya) ko'rsatiladi.⁶ Saylov rejimi vositasi bilan hokimiyatga ega bo'lishni qonuniylashtirish tizimi ham tushuniladi.

Huquqiy, demokratik davlatda: 1) Fuqarolar huquqlari qonun bilan kafolatlanadi; 2) Davlat organlari va mansabdor shahslar qonunga itoat etadi; 3) SHahs erkinligini qonun asosida kafolatlanishi va himoyalanihi amalga oshirib boriladi.

Har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olishda umume'tirof etilgan demokratik prinsiplariga tayanadi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Xalq hokimiyati;
- Hukumatga tobelar roziligiga tayangan hokimiyat;
- Ko'pchilik ovoz qoidasi;
- Kamchilik huquqlari;
- Asosiy inson huquqlarining kafolati;
- Erkin va adolatli saylovlar;
- Qonun oldida hamma tengligi;
- Odil sud yurtish;
- Hukumat faoliyatining konstitutsiya tomonidan cheklashnishi;
- Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy plyuralizm;
- Chidamlilik, omilkorlik, hamkorlik va o'zaro kelishuv qadriyatlar va boshqalar.

Demokratiya uchun inson huquqlari va erkinliklarining muhim ahamiyatga egaligini alohida ta'kidlash lozim. Ana shunday kafolatlangan huquq va erkinliklarsiz demokratik siyosiy jarayon amalga oshirilishi mumkin emas.

«Mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartirishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirshimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor»⁷.

Har bir halqning milliy ongida shu halqqa hos va mos bo'lgan, tarihan shakllangan asosiy jixatlar borki, u shu halqning ruhiyatini, mentalitetini, harakterini ifodalaydi va ular mamlakatning siyosiy tizimida o'zining izlarini qoldirmasligi mumkin emas. Albatta dunyo taraqqiyotida demokratiya umuminsoniy qadriyat sifatida turli halqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singgan, e'tirof etilgan va shunga mos e'tibor berilayotgan, amal qilib kelinayotgan boshqarish uslubidir. Bu umumiy qonuniyat. Ayni paytda, ana shu umumiy qonuniyatning ikkinchi muhim bir

⁵ Социология. Маърузалар матни. Т. 2000, 125 б.

⁶ Маркель В. Формальные и неформальные институты в дефектных демократиях// Полис.2, 2002, с.7

⁷ Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь/ И.Каримов. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2010.-566.-Б.ц.

jixatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir halqning hayot tarzi, mentaliteti, demokratiyani his etish, anglash va unga amal qilish hususiyatining mavjudligi bilan bog'liq. hamma halqlar uchun yagona siyosiy idora etish uslubi ham, yagona jamiyat andozasi ham yo'q. Birini ikkinchisidan afzal ko'rish ham mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan demokratiyaning hamma uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan jixatlarini tan olib, uni har bir halqning milliy-ma'naviy ruhiyati asosida qaror topishi va umuminsoniy hodisaga aylanishini e'tirof etmaslik jamiyat rivojiga, demokratik taraqqiyot mantig'iga to'g'ri kelmaydi. Demokratiya qanchalik umuminsoniy ma'no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini, unga ruhiy kuch-quvvat beradigan, uni boyitib turadigan, rang-barangligini ta'minlaydigan "milliylik", "milliy ruhiyat" milliy-ma'naviy qadriyatlardir. Demokratiya milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa, unga tayanmasa, o'z mohiyatiga zid bo'lib qoladi.

Fanning maqsadi, vazifalari va uni o'rganishning ahamiyati.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani ham o'z oldida bir necha **vazifalarni** qo'ygan. Bular ko'proq mamlakatda demokratik fuqarolik jamiyati qurishning o'ziga xos va umume'tirof etilgan qonunlarini bilish, nazariy xulosalar va umumlashmalar chiqarishdan iboratdir. **Xususan, fuqarolarda demokratik jamiyat talablariga javob beradigan dunyoqarash, fikrlar xilma-xilligi, erkinlikni qadrlash, inson qadr-qimmati, sha'ni va or-nomusini hurmat qilish bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantirish asosiy vazifalardandir.** Bu vazifalar fuqarolarimizni mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, demokratik qadriyatlarni hurmat qilish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Aytish mumkinki, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganish, mamlakat hayotida keng ko'lamli tub islohotlarni amalga oshirish bilan bog'liq qonuniyatlarni bilish va o'rganishda, demokratik taraqqiyot yo'lida «O'zbek modeli»ni tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Bu demokratiyaning milliy va umumbashariy tamoyillarini aniq tasavvur etish, ijtimoiy hayotni u bilan bog'lab olib borishga o'rgatadi. Mamlakatimizda demokratiyaning qaror topib borishi, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'zining nufuzli o'rniga ega bo'lishiga, yoshlarda demokratik ong va tafakkurni shakllantirish, milliy-ma'naviy merosni qadrlash, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga ko'maklashadi. Mamlakatda erkin, demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish nazariyasi hamda amaliyoti bilan chuqurroq tanishtiradi. Shu maqsadni amalga oshirishda hizmat qiladi.

Ma'lumki o'tgan XX asrning so'nggi o'n yilligi dunyo haritasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lganligi bilan harakterlanadi. "Ular hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o'tmishga ega bo'lgan, o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ydi"⁸. Ana shunday mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan davlatlar turli mintaqalarda joylashgan bo'lib, ular Markaziy Evropaning (5 ta), Boltiq bo'yi davlatlarining (3 ta), Bolgariya va Ruminiya, G'arbiy - Sharqiy Evropa mamlakatlarining (5 ta), mustaqil hamjamiyatdagi davlatlarning G'arbiy qismidan (4 ta), Kavkaz orti davlatlaridan (3 ta) va Markaziy Osiyo davlatlaridan (5 ta)tasini o'z ichiga oladi.⁹ Ana shu mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan va dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilayotgan, tenglar orasida teng bo'lishga, jahon maydonida o'ziga hos nufuzli o'ringa ega bo'lishga harakat qilayotgan davlatlardan biri, O'zbekiston Respublikasidir.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'ygan. Bular ko'proq mamlakatda demokratik fuqarolik jamiyati qurishning o'ziga hos va umume'tirof etilgan qonunlarini bilish, nazariy hulosalari va umumlashmalar chiqarishdan iboratdir. Hususan, fuqarolarda demokratik jamiyat talablariga javob beradigan dunyoqarash, fikrlar hilma-hilligi, erkinlikni qadrlash, inson qadr-qimmati, sha'ni va or-nomusini hurmat qilish bilan bog'liq qadriyatlarni shakllantirish asosiy vazifalardandir. Bu vazifalar fuqarolarimizni mamlakatda

⁸ Ўша ерда.

⁹ ЮНИСЕФ, ижтимоий мониторинг. 2003 йил, 2-бет.

ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, demokratik qadriyatlarni hurmat qilish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etishda yaqqol namoyon bo'ladi. U fan sifatida ana shunday ulug' va bunyodkorlik ishlariga xizmat qiladi. Buning uchun u turli hil uslublardan foydalanadi. Bular dunyo fanlari foydalanib kelayotgan, tajriba, qiyosiy tahlil, empirik-sotsiologik va ilm-fanning boshqa zamonaviy uslublaridir.

Demak, jamiyatimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni ilmiy tafakkur orqali tahlil etish, ularni mantiqiy asoslash, mazkur fanni yoshlar ongiga dunyoviy davlat tamoyillarini singdirish kabi vazifalar uni yanada chuqurroq o'qitilishini taqozo etmoqda.

Bu fanning o'rganish uslubi: metodi falsafa fanining uslubi-metodi. Chunki falsafa fanining metodi va kategoriyalari mazkur fan uchun ham asosiy metod hisoblanadi, masalan, dialektik, nazariy metod, taqqoslash, qiyoslash metodi, mantiqiy metod va hokazo. Metodologiyasi: 1) falsafiy ong, tahlil, 2) nazariy tahlil, 3) ijtimoiy borliqni o'rganadi.

Fanni o'rganishning manbalari:

1. **Falsafiy manbalarga:** demokratik jamiyat haqidagi G'arb, Sharq va hozirgi zamon falsafasiga asoslanadi.

2. **Tarixiy manbalar:** davlatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, davlatlararo munosabatlar.

3. **Dunyoviy ildizlarga ega:** ilmiy-ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar.

4. **Diniy manbalar:** Avesto (Zardushtlarning muqaddas kitobi), Qur'oni (musulmonlarning) Karim, Tavrot (Yahudiylarning diniy ta'limoti haqidagi qonun), Injil (nosroniylarning) muqaddas kitobi va h.k.

5. **Siyosiy manbalar:** mustaqillik haqidagi qonunlar, Konstitutsiya (Asosiy qonun).

6. **Iqtisodiy manbalar:** bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkchilikning xilma-xil shakllari.

7. **Ma'naviy-ma'rifiy manbalar:** umumbashariy va milliy, diniy, axloqiy qadriyatlar va h.k.

8. **Prezident farmoni,** qarorlari, asarlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani 1) ijtimoiy-siyosiy, 2) ijtimoiy-gumanitar, 3) aniq-tabiiy fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, u mazkur fanlar qarashlarini e'tirof etgan holda, bu fanlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti bilan ham nazariy ham amaliy xususiyatlariga e'tibor qaratadi. O'zbekistonda demokratik erkin, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiy islohotlarni yanada liberallashtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Fanining asosiy tushunchalari va uning qonuniyatlari, kategoriyalari.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» haqidagi fan bilan bog'liq tushunchalar mavjud. Uning shakllanishi ko'p asrlik tarixga ega.

Ijtimoiy hayotni tashkil etishning demokratik me'yorlari qadimgi dunyoga borib taqaladi. Bugungi kunda jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida demokratiyaning asosiy va etakchi tamoyilga aylanguncha uning umuminsoniy qadriyat sifatida o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida murakkab, ziddiyatli, ba'zan esa fojiali o'zgarishlarga uchradi. SHu nuqtai nazardan, insoniyatning yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarning asosiy tushunchalarini to'la-to'kis o'zlashtirib olish jamiyatda islohotlarni chuqurlashtirishning muhim shartidir. Bu borada O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida qo'llaniladigan tushunchalarni bilish muhim o'rinni egallaydi. Ularni o'rganishda quyidagi uchta jihatni alohida hisobga olish lozim:

1. **Ijtimoiy gumanitar fanlarga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalar:** Masalan: jamiyat, sivilizatsiya, erkinlik, huquq, qonun, madaniyat, taraqqiyot, demokratiya.

2. **Ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan yaqin bo'lgan tushunchalar:** huquqiy davlat, xususiy mulk, fuqarolik jamiyati, siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy tashkilotlar, siyosiy tizim, siyosiy rejim, siyosiy plyuralizm, siyosiy ong, siyosiy madaniyat v.b..

3. **Ko'proq O'zbekiston bilan bog'liq holda ishlatiladigan, ya'ni, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti fani o'rganadigan tayanch tushunchalar:** «O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li», erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi, «demokratik davlatchilik», «demokratik jamiyat», «demokratiya», «demokratik jamiyat to'g'risidagi qarashlar», «demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari»,

«milliy-ma'naviy qadriyatlar». O'zbekiston iqtisodiy hayotining erkin demokratiyalashuvi, ijtimoiy hayot va demokratiya, siyosiy hayotning demokratik tamoyillari, «demokratik qadriyatlar», «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot», «O'zbekiston va jahon hamjamiyati», «Milliy davlatchilik va demokratiya v.b.».

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» haqidagi fan bilan bog'liq tushunchalar ham mavjud. Uning shakllanishi qadimgi dunyoga borib taqaladi. Demokratiya g'oyasi jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida asosiy va etakchi tamoyilga aylanguncha ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida murakkab, ziddiyatli, ba'zan esa fojiali o'zgarishlarga uchradi. Bugungi kunda demokratik qadriyatlarning asosiy tushunchalarini to'la-to'kis o'zlashtirib olish jamiyatda islohotlarni chuqurlashtirishning muhim sharti bo'lib qolmoqda. Ularni o'rganishda quyidagi uchta jixatni alohida hisobga olish lozim:

1. Ijtimoiy gumanitar fanlarda ishlatiladigan umumiy tushunchalar. Masalan: jamiyat, sivilizatsiya, erkinlik, huquq, qonun, madaniyat, taraqqiyot, demokratiya;
2. Ijtimoiy-siyosiy fanlarda ishlatiladigan tushunchalar bilan yaqin bo'lib tayanadigan tushunchalar: huquqiy davlat, hususiy mulk, fuqarolik jamiyati, siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy tashkilotlar, siyosiy tizim, siyosiy rejim, siyosiy plyuralizm, siyosiy ong, siyosiy madaniyat v.b.;
3. Mahalliy shart-sharoitlar bilan bog'liq ya'ni, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti fani o'rganadigan tayanch tushunchalar: «O'zbekistonning o'ziga hos va mos taraqqiyot yo'li», erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi, «demokratik davlatchilik», «demokratik jamiyat», «demokratiya», «demokratik jamiyat to'g'risidagi qarashlar», «demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari», «milliy-ma'naviy qadriyatlar». O'zbekiston iqtisodiy hayotining erkin demokratiyalashuvi, ijtimoiy hayot va demokratiya, siyosiy hayotning demokratik tamoyillari, «demokratik qadriyatlar», «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot», «O'zbekiston va jahon hamjamiyati», «Milliy davlatchilik va demokratiya» “O'zbek modeli” va boshqalar.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o'rganish jarayonida yana quyidagi tushunchalar: “liberal demokratiya”, “demokratiya va bozor iqtisodiyoti”, “demokratiya sharoitida inson huquqlari va erkinligi”, “demokratiya va millatlararo munosabatlar”, “davlatni demokratik boshqarish”, “demokratiyaning asosiy unsurlari” ko'proq ishlatilishi tabiiy. Bu tushunchalarning har birini o'ziga hos ma'nosi va mazmuni bor.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti» fanida amal qiladigan qonuniyatlarni bilishda quyidagi jixatlarni alohida hisobga olish kerak. Birinchidan, «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani dunyoda e'tirof etilgan umumiy qonuniyatlarni hisobga oladi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning o'ziga hos hususiyatlari bilan bog'liq hususiy, alohida qonuniyatlariga tayanadi.

Masalan: “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o'ziga hos va mos rivojlanish qonuni”, yoki «Demokratik jamiyat qurilishida milliy mentalitet hususiyatlarini hisobga olish qonuni», «Demokratik jamiyat qurilishining milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqligi qonuni», «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining o'ziga hos hususiyatlarining O'zbekiston davlatchiligi tarihi, milliy-madaniy merosi, iqtisodi, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan aloqadorligi qonuni» va boshqalar.

Ma'lumki, bu qonuniyatlar nihoyat darajada ko'pqirraliligi, murakkabligi va nozikligi bilan alohida e'tiborni talab qiladi. Shu o'rinda, birgina demokratik qarashlar bilan milliy qadriyatlar o'rtasidagi munosabat masalasiga to'htalsak. Demokratiyaning yashovchanligi uning turli sharoitlarga moslashib ketishi va milliy hususiyatlarni inkor etmasligi, milliylik bilan uyg'unlasha olishi bilan belgilanadi. Aslida bag'rikenglikni qadrlaydigan demokratiya milliy hususiyatlarga nisbatan ham o'z bag'rikengligini namoyish etadi. Shu bois, biz yangi demokratik taraqqiyot yo'lini tanlaganimizda ham O'zbekonalikdan voz kechish evaziga demokratik qarashlarni o'zlashtirishni aslo maqsad qilmaganmiz. Boshqacha qilib aytganda, ming yillik ildizlarga ega davlatchilik negizlarini qo'porib tashlash evaziga mavhum qadriyatlarga e'tiqod qo'yish bizning a'molimiz emas. Zero, bizning yo'qotadigan narsamiz – mustahkam ma'naviy tomirlarimiz, ne-ne suronli

asrlar to'fonlaridan bizni millat sifatida eson-omon olib o'tgan o'lmas qadriyatlarimiz bor. Demokratiyani esa biz mana shu ko'hna tarihgaga ega ma'naviyatimiz darahtiga payvand qilish imkoniyati borligi uchun ham tanlaganmiz. Shu bois, demokratiya darajasini milliy hususiyatlardan chekinish bilan o'lcayotgan ayrim kishilarning fikriga qo'shilib bo'lmaydi.

O'zlarini diniy aqidaparastlik va terrorizmga qarshi kurashayotgan, dunyoviy demokratik tuzum tarafdorlari deb ko'rsatayotgan ba'zi halqaro tashkilotlar va jamg'armalar, horijiy tashkilotlarning ba'zi vakillariga halqning milliy qadriyatlari, urf-odatlar, o'y-fikrlari, odob-ahloqi, or-nomusini hisobga olmay, bu qadriyatlarni G'arb demokratiyasiga qarshi qo'yib, o'zlarini go'yoki inson huquqlari himoyachisi qilib ko'rsatmoqchi bo'lmoqdalar. Bunday holatni ayrim millatlar va halqlarning demokratiyaga bo'lgan ishonchini so'ndirishga intilish, deyish mumkin.

Ma'lumki, bizda mahalla instituti kecha paydo bo'lgan emas. Afsuski, sho'ro zamonida bu tuzulma jamiyat boshqaruvidan mutlaqo ajratib qo'yilgan edi. Mahallani mayda-chuyda masalalar uchun masalan, har qanday sho'ro idorasi talab qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotnoma (spravka) yozib berish punktiga aylantirdilar. Buning natijasi esa - tarihimizda umuman uchramagan tirik etimlarning ko'payishi, kishilar o'rtasidagi mehr-oqibatning ko'tarilishi, "sen menga tegma, men senga tegmayman", degan qarashning keng tarqalishi bilan o'zini namoyon etdi.

"O'zbekistonning yangi mustaqil davlatchiligi murakkab sharoitlarda qaror topmoqda. hozir biz bu yillar mobaynida milliy davlatchilikka poydevor qo'yilganligini ishonch bilan ayta olamiz. Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va unga mos bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham topdi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish hamda tartibga solishning ko'pgina tuzilmalari va organlari tugatildi. Mamlakatimizda o'tish davri vazifalarini amalga oshirishda **birinchidan**, fuqarolar jamiyati va huquqiy davlatni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini amalga oshirish. Uning qonunchilik asoslari va yangi demokratik tashkilotlarini shakllantirish.

Ikkinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning ta'sirchan vositalarini ta'minlashga doir aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'ldi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanni o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosini mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jamiyat qurishning maqsadlari, uning shakllanishi va rivojlanishining milliy-ma'naviy negizlari, demokratik jamiyat to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar bilan tanishtiradi. Fuqarolarning ong va tafakkuriga singishida, ishonch va e'tiqodlariga ko'chishida muhim o'rin tutadi. Demokratik jamiyat qurishning qonuniyatlarini bilishda, uning jahonda e'tirof etilgan tamoyillarini har bir mamlakat va xalqning milliy va ma'naviy xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshirish zarurligini his etish va unga amal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. haqiqiy demokratiya bilan soxta demokratiyaning farqini ko'rishda, uni baholab, munosabat bildirishda, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o'rganish orqali erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishi bilan bog'liq uning nazariy asoslarini, dunyoda demokratik jamiyat qurish bilan bog'liq umumiy qonuniyatlarni bilish bilan birga, demokratiyaning o'ziga xos milliy ko'rinishlari, «milliy modellari»ning ma'no-mazmunini to'g'ri tushunib olishga muvaffaq bo'lish mumkin.

Fanni o'rganish orqali fuqarolarda O'zbekiston Respublikasining demokratik jamiyat qurishdan iborat oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni aniq bilib olish mumkin. O'zbekiston jamiyati hayotining barcha jabhalari to'g'risida: davlati, xalq hokimiyatchiligi, inson va fuqarolarning demokratik jamiyatda ishtiroki, asosiy huquq va erkinliklari, burchlari, demokratik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizlari, unga xos xususiyatlar, jamoat birlashmalari, davlat hokimiyatining tashkil etilishi va fuqarolik jamiyati qurilishining asoslari, uning milliy va umumbashariy negizlari to'g'risida bilimga ega bo'lish muhim siyosiy va ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Fuqarolarda vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishga ham xizmat qiladi. SHu nuqtai nazardan, muhim **tarbiyaviy vazifalarni** ham amalga oshiradi. Milliy istiqlool g'oyasining asosiy tamoyillariga tayanadi va

demokratik jamiyat qurilishi bilan bog'liq qadriyatlarni keng jamoatchilikning ishonch va e'tiqodiga aylanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani siyosatining bosh maqsadi – jamiyatning faqat iqtisodiy yoki ma'naviy-ma'rifiy sohasini rivojlantirish va moddiy, ma'naviy boyliklarni tobora ko'proq ishlab chiqarish emas, balki uning beistisno barcha sohalarini taraqqiy ettirish va mustahkam bir butunligini, xavfsizligini, barqarorligini, tinch-totuvligini, osoyishtaligini ta'minlashdan iboratdir.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. «Fuqaro – jamiyat davlat» o'rtasidagi o'zaro munosabatni bayon eting?
3. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosiy tushunchalari, uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang?
4. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning umumjahon e'tirof etgan qonuniyatlari va uning o'ziga xos taraqqiyot yo'li mavjudmi?
5. Demokratik jamiyatni barpo etishda siyosiy institutlarning qanday roli mavjud?

1.1. MA'RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni -	O'quv vaqti – 2 soat
Mashg'ulot shakli -	Kirish -mavzu bo'yicha vizuallashtirish ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining obyekti, predmeti, o'ziga xos xususiyatlari 2. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsad va vazifasi 3. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining asosiy tushunchalari va qonuniyatlari 4. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o'rganishni nazariy va amaliy ahamiyati
O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'quv fani haqida umumiy tasavvurni hosil qilish O'zDJQN va amaliyoti fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari, tushunchalari, qonuniyatlari hamda usullari haqida tushuncha hosil qilish	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari
Fanning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish;	Fanning maqsad va vazifalarini aytib bera oladi;
Fanning tuzilmasi, o'quv faoliyati, baholash mezonlari hamda tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yhati haqida ma'lumot berish;	Fanning tuzilmasi, o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va baholash shakllarini, fanni o'rganishda zarur adabiyotlarni aytib bera oladi;
O'z DJQN va amaliyoti fani haqida tushuncha beradi;	O'z DJQN va amaliyoti fani xususiyatlarini aytib bera oladi
O'z DJQN va amaliyoti fanining maqsad va vazifalarini yoritib beradi;	O'z DJQN va amaliyoti fani maqsad va vazifalarini ajratib bera oladi;
O'z DJQN va amaliyoti fani predmeti, ahamiyati va mohiyatini yoritib beradi	O'z DJQN va amaliyoti fani mohiyatini to'liq tushunadi
O'z DJQN va amaliyoti fanining o'tilish	Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan

zaruriyati va ahamiyatini tushuntirib beradi	o'zgarishlar mohiyatini tushunib etadi
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Vizuallashtirilgan ma'ruza, blis-so'rov, "Klaster", "Aqliy hujum" texnikasi
<i>O'qitish vositalari</i>	Vizuallashtirilgan ma'ruza, shakllar, ko'rgazmali qurollar, kompyuter texnologiyasi
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoaviy ishlash, guruh-guruh bo'lib ishlash
<i>O'qitish nazorati</i>	Texnik ta'minlangan auditoriya
<i>Manitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, bahs munozara, reyting nizomi asosida baholash

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Fanga va mavzuga kirish (20 minut)	1.1.O'quv faninining nomini aytib, fan doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	1.2. Fanni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yhati bilan tanishtiradi	Yozib oladi
	1.3.Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi bilan tanishtiradi va uning maqsadi, o'quv faoliyati natijalarini bayon etadi	Mavzu nomini yozib oladi
	1.4. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar va adabiyotlar bilan tanishtiradi (1-ilova)	Tinglaydilar
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. Ma'ruza rejasining 1-4 savollari bo'yicha tushuntiradi, har bir savolni nihoyasida umulashtirib boradi. (1-14-shakllar). Mavzuni yoritish jarayonida jonlantiruvchi savolar beradi va ular bo'yicha talabalarning javoblari tinglanadi. 1-savol. Demokratik jamiyat barpo etishning zaruriyati va ahamiyati nimada? 2-savol. O'z DJQN va amaliyoti fani bahs mavzusi? 3- savol. O'z DJQN va amaliyoti fanining xususiy tushunchalarini ajrating 4- savol. O'z DJQN va amaliyoti fani vazifasi nimadan iborat? Talabalar diqqatini shakllarga qaratadi va umumlashtiriladi. Mavzuning asosiy qismlariga e'tibor qaratadi va kerakli joylarni yozib borishni ta'kidlaydi. Va 1-2-3- o'quv topshiriqlarni bajarishni aytadi (2-ilova).	O'z fikrini erkin bayon etadi. Tinglaydi Kerakli joylarini qog'ozga tushiradilar Topshiriqlarni bajaradilar "Klaster"ni to'ldiradi

	2.2. Mavzuning umumiy chizmasi doskada namoyon qilinadi. Fan o'atilishining nazariy va amaliy ahamiyati tushuntiriladi(15-18-shakllar).	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. Barcha axborotni tizimlashtiradilar
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1. Blis –so'rov o'tkazadi (4- o'quv topshiriv) (3-ilova)	Savollarga javob beradi
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishidagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	O'zini qiziqtirgan savollarni beradi
	3.3. Mavzuni mistahkamlash uchun savollar beriladi va Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (5 – o'quv topshiriq)(4-5-ilova)	Javob beradi va yozib oladilar

1-ilova

Tayanch tushunchalar


Mustaqillik – 1) tazyiqdan, nazoratdan holi bo'lish, erkinlik; 2) iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy tobe bo'lmaslik.

Suverenitet (frants. – oliy hokimiyat) – davlat mustaqilligining umumiy hamda ajralmas maqomi bo'lib, boshqa davlatlar bilan teng ekanligini, ichki va tashqi siyosatda boshqa mamlakatlarga qaram emasligini ifodalaydi.


Demokratiya (yunon. – xalq hokimiyati) – fuqarolarning erkinligi, tengligi tamoyillarini e'lon qilishga, ko'pchilik xohish irodasiga asoslangan tuzum shakli.

Fuqarolik jamiyati – mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy turmushini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim


1-shakl




2-shakl



3-shakl







Fanning predmeti va ob'ekti

5-shakl

O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti mamlakatda demokratik jamiyatning shakllanishi, fuqarolik jamiyati qurilishi, qaror topishi va amal qilishining dunyoda e'tirof etilgan umumbashariy va milliy tamoyillariga asoslanadi. Ayni paytda uning o'ziga xos va mos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda erkin, demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'llari va qonuniyatlarini o'rganish, bu fanning predmeti va ob'ektini tashkil etadi.



Ko'proq O'zbekiston bilan bog'liq holda ishlatiladigan, ya'ni, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi nazariyasi va amaliyoti fani o'rganadigan tavanah tushunchalar

«O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li»

erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi

«demokratik davlatchilik»

«demokratik jamiyat»

«demokratiya»

«demokratik jamiyat to'g'risidagi qarashlar»

«demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari»

«milliy-ma'naviy qadriyatlar»

O'zbekiston iqtisodiy hayotining erkin demokratiyalashuvi, ijtimoiy hayot va demokratiya, siyosiy hayotning demokratik tamoyillari

«demokratik qadriyatlar»

«O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi»

«Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot»

«O'zbekiston va jahon hamjamiyati»

«Milliy davlatchilik va demokratiya»

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o'rganish jarayonida **yana quyidagi tushunchalarning** o'ziga xos ma'nosi va mazmuni bor

“liberal demokratiya”

“demokratiya va bozor iqtisodiyoti”

“demokratiya sharoitida inson erkinligi va huquqlari”


“demokratiya va millatlararo munosabatlar”

“davlatni demokratik boshqarish”

“demokratiyaning asosiy unsurlari”


O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHIDA QO'LLANILADIGAN TUSHUNCHALARI :

9-shakl




10-shakl

Fan amal qiladigan qonuniyatlar




1

ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy hayotida amal qiladigan qonunlar



2

xalqaro munosabatlarda iqtisodiy , ijtimoiy, siyosiy va madaniy ma`rifiy aloqalar bilan bog`liq bo`lgan qonunlar



O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani o`rganadigan qonuniyatlarning guruhlari:

1

Demokratik davlat, fuqarolik jamiyati haqidagi kontsepsiyalar va nazariyalarning paydo bo`lishi, amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlari;

2

Davlat hokimiyatining mazmuni va xarakterining o`zgarishi, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o`tish qonuniyatlari


3

Mamlakat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish qonuniyatlari


4

Milliy-ma`naviy negizga tayanish qonuniyatlari


O`zbekiston jamiyati hayotidagi voqea va jarayonlarni o`rganishda O`zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani turli **tadqiqiy usullaridan foydalanadi:**



Qiyosiy taqqoslash usuli jamiyat hayotida ro`y beradigan voqea va hodisalarni o`zaro taqqoslash ularni bir biriga solishtirish asosida ilmiy xulosalar qilishni ko`zda tutad



Empirik sotsiologik usul so`rov, anketa, tajriba o`tkazish, statistik tahlili qilish, matematik modellashtirishga asoslangan.



Dialektik usul jamiyat hayotida bo`ladigan o`zgarishlarni umumiy aloqadorlik va o`zaro ta`sir etish natijasiga asoslangan holda taxlil etishga asoslanadi

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda



u fan sifatida o'zining asosiy e'tiborini mustaqillik yaratgan imkoniyatlar sharofati bilan mamlakatimizda inson manfaatlari, tinchligi va farovonligiga xizmat qiluvchi erkin, ochiq ijtimoiy-siyosiy tizim barpo etishni ta'minlovchi huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlarini o'rganadi.



O'zbekiston milliy huquqiy davlat fuqarolik jamiyati qurilishida xalqaro tan olingan demokratik tamoyillarga, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga hamda ko'p ming yillik o'zbek davlatchiligi tarixi va o'ziga xos milliy ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga tayangan holda, bir butunlikda o'rganadi.



ushbu fan ko'p qirrali va xilma xil xususiyatga ega. U bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish, mamlakat xavfsizligi, barqarorligini ta'minlash ya'ni mamlakat taraqqiyotining faqat bir tomonigagina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganada.

2-ilova

1- o'quv topshiriq

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kursi predmetiga ta'riflarni keltiring


1.

2- o'quv topshiriq



O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kursning otilish zaruriyati, maqsadi vazifasi va ahamiyatini aniq bir misollar orqali tushuntiring

3-o'quv topshiriq - "Klaster"ni to'ldiring



15-shakl

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani

Fanning o'tilish zaruriyati

- O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat – uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tushunishga ko'maklashish;

- Aynan hozirgi davrga kelib demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini deyarli barcha e'tirof etayotganligi va uning jahoniy ko'lam kasb etayotganligi demokratiyani fan sifatida o'rganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir.

**O'ZDJQNA fanni o'rganish jarayonida
o'quvchilar:**

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining nazariy asoslari, u to'g'risidagi qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar

O'zbekiston jamiyati to'g'risida, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini erkinlashtirish, demokratiyalashishi bilan bog'liq xususiyatlar, yo'nalishlari hamda unga erishish mexanizmlari to'g'risidagi yaxlit tasavvurga ham ega bo'ladilar.

Bu -

O'zbekistonning tutgan yo'li, maqsad va yo'nalishlarini bilishga hamda boshqa davlatlar, mamlakatlardan farqli jihatlarini ko'rishga imkoniyat beradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganishning o'ziga xos zarurat va sabablari mavjud:

Birinchidan

bugun dunyoda demokratiya, demokratik jamiyat to'g'risida muayyan mo'tadillashgan ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan

Aynan hozirgi davrga kelib, demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini deyarli barcha e'tirof etayotganligi va uning jahoniy ko'lam kasb qilayotganligi demokratiyani fan sifatida o'rganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir

Ikkinchidan

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, o'rganish zarurati ham shu qonuniyat bilan bog'liqdir

Har bir mustaqil mamlakat, o'zining taraqqiyot yo'lini va qurayotgan jamiyatini bilishga, uning qonuniyatlarini aniqlab olishga ehtiyoj sezadi. Shu nuqtai nazardan, hozirgi paytgacha ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga bevosita taalluqli bo'lgan masalalarni ilmiy jihatdan aniq bir voqelik sifatida, yaxlitligicha o'rganuvchi fan vujudga kelmagan


bu fan eng avvalo – jahon sivilizasiyasining tarixiy tajribalariga asoslangan holda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, adolatli demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning nafaqat nazariy masalalarini, balki uning amaliy jihatlarni vaqt tarzda

Uchunchidan

«Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir»
I.Karimov

Shuningdek,

zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan, odamlarga munosib turmush kechirishini ta'minlay oladigan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan chinakam demokratik jamiyat qurishdek murakkab vazifani hal etish bilan bog'liq umumiy zaruratning mavjudligidir



3- ilova


4-o'quv topshiriq

**Blits –
so'rov**


1. Jamiyat va demokratik jamiyat tushunchalarining o'zaro farq va bog'liqligi nimada?
2. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish qachondan boshlangan?
3. O'zbekistonda DJQNA fanining kategoriyalari?
4. O'zDJQNA fanining amaliy va nazariy xususiyatlari?

5- o'quv topshiriq

Ushbu shaklni to'ldiring



5.2.-topshiriq. "Klaster"ni to'ldiring



2-MAVZU: DEMOKRATIK JAMIYAT TO'G'RISIDAGI DASTLABKI QARASHLAR VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Reja:

1. O'zbekiston zaminida demokratiya va adolatli jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar. "Avesto"
2. IX-XV asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida va Temur va temuriylar davrida davlatni boshqarish va adolatli jamiyatga doir g'oyalar
3. XV-XX asrlarda O'rta Osiyoda davlat va jamiyat qurilishini haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar
4. Sobiq sho'rolar davrida markazlashgan ma'muriy boshqaruv va uning demokratik jamiyatga zidligi

Tayanch so'z va iboralar: *jamiyat, davlat, "Avesto", adolatli jamiyat, fuqarolik jamiyati, Forobiyning demokratik qarashlari, Temur tuzuklari, jadidchilik, ma'rifatparvarlik g'oyalari*

O'zbekiston zaminida demokratiya va adolatli jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar. "Avesto"

Har qanday davlat o'z jamiyatining tarixiy, madaniy va axloqiy merosi negizlari asosida rivojlanadi. Bunday uyg'unlik xalqning rivojlanishida yangi bosqichlarga ko'taradi. Uning istiqbol omillarini kengaytiradi. Ajdodlarimiz tomonidan O'zbekiston hududida yaratilgan «**Avesto**» **ana shunday davlatchiligimizning nazariyasi** sifatida insoniyat tarixini anglashda alohida o'ringa ega.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tarixchi olim va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvda - "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan"¹⁰ degan edi. Darhaqiqat, Movarounnahr oralig'ida paydo bo'lgan ulkan davlatchilik madaniy merosi insoniyat tarixi ibtidosida eng dastlabki hamda qadimiy davlatchilik madaniyati sifatida ma'lum. Mustaqilligimiz sharofati bilan bunday merosni milliy, demokratik qadriyatlarimizning muhim zamini bo'lgan o'rganish imkoniyatlari ochildi.

Ma'lumki, O'zbekistonda milliy davlatchiligimiz to'g'risidagi eng qadimgi manba "Avesto"dir. U eramizdan oldingi 3 minginchi yillarda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk davlatchilik to'g'risidagi ijtimoiy qarash hisoblanadi. Agar "Avesto"da ilgari surilgan g'oyalarga e'tibor beradigan bo'lsak, bugungi adolatparvar - demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan g'oyalimiz bilan hamohang ekanligini ko'ramiz.

Davlatchilik asoslarini shakllantirish borasida "Avesto" deyarli barcha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, davlat tuzumi asoslari, zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan. Manbada avvalo, inson erki, uning ruhiy komilligi masalalari ustuvor qo'yiladi. Masalan; "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman" deyiladi Yasna (14) kitobida. Axuramazda, insonlar o'rtasida bo'layotgan munosabatlar o'zaro samimiylik, hurmat beg'arazlik, yordam va oqibatli bo'lish zarurligiga, yomon fikrlardan holi bo'lishga chaqiradi. Kattaga hurmat va kichikka izzat, sabr-bardosh, halollik, mehr-oqibat va boshqa bir qator tamoyillar borki, bular milliy g'oyamizning asosiy tamoyillariga uyg'un keladi.

Foyalarning bunday tarzda qo'yilishi dunyo ana shu kuchlarning yonma-yon yashashidan iborat, degan falsafaning mohiyatini anglashga undaydi¹¹. Shu tariqa "Avesto" o'sha zamonda yashagan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish, davlatga bo'lgan ehtiyoj va zaruriyati o'laroq yuzaga kelgan manba bo'lib hisoblanadi.

¹⁰ Каримов И.А. Асарлар тўплами 7 жилд. -Т.: Ўзбекистон, 1999, 132-бет.

¹¹ Отамуродов С. "Авесто" миллий ғоямиз манбаи. Жамият ва бошқарув. 2002, 1-сон, 34 бет.

“**Avesto**”da eng muhim masalalardan biri - bu huquqiy munosabatlarning nazariy jihatdan shakllanganligidir. Unda inson hayoti va odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar huquqqa asoslanganligi haqida ma’lumotlar bor. Haqiqat, yaxshi so‘z va maqsad, poklik va ezgulikka intilish, suv, er, olov, xonadon va chorvani asrab-avaylash axloqiy burch bo‘lib sanalgan. Inson o‘zining ishlari va fikrlari bilan yaxshilik, yorug‘lik va baxt keltiruvchi, hayot va haqiqat beruvchi oliy tangri Axuramazdaga yordamchi bo‘lib xizmat qiladi.

Oila va jamoada berilgan so‘zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o‘rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh hisoblangan: “O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur etkazadi. O Spitama, ahdingni buzma...” (“Yasht”, X bob.)¹²

Tarixiy hujjatlar asosida aytish mumkinki, “Avesto”ning “Yasna”, “Visprat”, “Yasht”, “Videvat” kitoblarida ilgari surilgan huquqiy ta’limotlar Rim huquqidan qadimiyroq hisoblanadi. Boz ustiga, ular keyinchalik tashkil topgan davlatlar siyosiy tizimining shakllanish manbasi bo‘lib ham xizmat qilgan. Shu tariqa “Avesto” Grek mutafakkirlari va Rim huquqshunoslari ijodiga o‘zining har tomonlama mukammalligi bilan ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, inson huquqi, jismoniy va huquqiy shaxs erkinligi, inson erkinligi, erkak va ayolning tengligi masalasi, ozchilikning huquqi, voyaga etmaganlar huquqi, vijdon, e’tiqod va din erkinligi, jamoa va guruhlarning huquqi, mol-xol huquqi, oila huquqi, shartnomalarning majburiylik huquqi, jinoyatning qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan turlari ishlab chiqilgan. Shuningdek «Avesto»da o‘g‘rilik yoki bosqinchilik farqlari tasniflangan, himoya huquqi va sud ishlarini yuritish hamda tashkil etish kabi boshqa huquqiy tamoyillar ham o‘z ifodasini topgan¹³.

Ma’lumki, demokratik jamiyat asoslari davlatda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tamoyillarning tizimiy yaxlitligi mavjudligida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, ular umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda bo‘lishiga asoslanadi. «Avesto»da bunday qadriyat va tamoyillar shakllantirilganligining guvohi bo‘lamiz.

IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish haqidagi g‘oyalar

Inson tabiatan erkinlikka, ezgulikka intilib yashaydi. Bunday ehtiyojlarning barcha uchun umum bo‘lgan qoidalarini va ularning tartibotlarini tashkil etishda davlatga bo‘lgan ehtiyoj vujudga keladi. Mana shunday ehtiyoj umuminsoniy qadriyatlarning nazariy mezonlarini shakllantirgan. Ayni paytda, kishilik jamiyatining o‘zaro urushlar va ixtiloflar bilan bog‘liq davrlarida yangi ma’rifiy ta’limotlar xaloskor g‘oya sifatida ham vujudga kelgan. Aynan IX va XII asrlar O‘rta Osiyo tarixida shunday murakkab davr bo‘lgan. Xalqning o‘z mustaqilligi uchun kurashi va bunda hurriyat va inson erkinligi bilan bog‘liq g‘oyalar millatni ma’naviy yuksalishga chaqiradi. Dunyoga mashhur Xorazmiy, Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, YUsuf Xos Hojib, Nizomulmulk kabi faylasuf, siyosatchi, tarixchi olimlar, shu davrda yashab ijod etdilar. Bu davr o‘z mazmuni, salmog‘i jihatidan O‘rta Osiyo Uyg‘onish davri deb tarixga kiradi. Uyg‘onish davri madaniyatining o‘ziga xos tomonlari mavjud bo‘lib, ular davlatchiligimiz nazariyasining vujudga kelishida quyidagilarga asoslangan holda talqin etiladi:

1. **Dunyoviy ma’rifatga intilish**, bu yo‘lda o‘tmish va qo‘shni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy-falsafiy, diniy, tarixiy hamda ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish.

Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji, ratsionalizm, aql kuchiga ishonish, asosiy e’tiborni haqiqatni topishga qaratilgan fanlarga berish, haqiqatni inson tasavvuri, ilmining asosi deb hisoblash.

Insonni ulug‘lash, uning aqliy, tabiiy, ruhiy badiiy, ma’naviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori axloqiy qonun va qoidalarni namoyon etish, komil insonni tarbiyalash.

¹² Сагдуллаев А, Аминов Б, Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистоннинг тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. Т.: Академия, 2000, 31 бет.

¹³ Абдукамилов Р. Авестийские текст о государственности и праве: вопросы генезиса и эволюции структур. Ўзбекистон тарихи, 2000, 3 сон, 22 бет.

Universallik - qomusiylik, barcha tabiat hodisalari bilan qiziqish va uning mohiyatiga intilish¹⁴.

Davlat qurilishi va boshqaruvining nazariy negizlari adolat, axloq tamoyillarida shakllantirish, ularning huquqiy hamda amaliy asoslarining rivojlantirilishi.

Davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, mas'uliyati mezonlari tizimining nazariy negizlarining yaratilishi.

Milliy davlatchilik negizlari haqida fikr yuritar ekanmiz, qadimgi Turon, Movarounnahr, Turkiston hududida dastlabki davlatlar vujudga kelgan muqaddas makonlardan biri sifatida hattoki qadimgi dunyo olimlari tomonidan e'tirof etilgan. Masalan, bundan 2000 yil avval yashagan rimlik tarixchi Pompey Trog Turkiyazon xalqlarning eng qadimgi ajdodlari haqida shunday yozgan: «Baqtriyaliklar, so'g'dlar va xorazmliklar kelib chiqishining qadimiyligi bo'yicha misrliklar bilan bemalol bellasha oladi». Bunday fikrni yunon tarixchilari Strabon, Herodat, Hikatiylar yozib qoldirgan ma'lumotlarda ham uchratish mumkin¹⁵.

IX-XU asrlarda yashagan O'rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish g'oyalari o'zining o'ziga xos ilmiy mazmun kashf etishi bilan bog'liq. Bu g'oyalar Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, YUsof Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temur, Navoiy va boshqa buyuk zotlar ijtimoiy-siyosiy qarashlarida chuqur bayon etilgan. Al-Xorazmiy "Algebra" faniga asos solib, dunyo ilmiga aniq fanlarni har tomonlama rivojlantirdi.

MUSO AL-XORAZMIY (783-850). Buyuk matematik, astronom va geograf. U algebra fanining asoschisi. «Algebra» so'zi uning «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» asaridan olingan. Bizgacha etib kelgan «Hind hisobi haqida kitob», «Qo'shish va ayirish haqida kitob», «Kitob surat-ul-arz», «Zij», «Asturlub bilan ishlash haqida kitob» kabi o'nga yaqin asari mashhurdir.

Beruniy o'zining "Hindiston", "Geodeziya", "Mineralogiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlarida jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash zarurligini, qonun ustuvorligini talqin etgan. Beruniy davlat shakli mamlakatni shohlar - mutloq hokimlik emas, balki ma'rifatparvar shohlar boshqarishi tarafdori edi.

ABU NASR FOROBIY (873-950). «SHarq Aristoteli» nomini olgan qomusiy olim. 160 dan ortiq asar yaratgan. «Mantiqqa kirish kitobi». «Isbot kitobi», «Falsafaga izohlar», «Musiqqa haqida katta kitob», «Inson a'zolari haqida kitob». «Lug'atlar haqida kitob», «Shaharni boshqarish», «Fazilatli hulqlar» kabi asarlari jahon madaniyatiga qo'shilgan katta hissadir.

Shu davrning yirik namoyondalardan biri Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy - davlatga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishini, unda adolat va axloqning shakllanishi qonuniyatlarini nazariy tamoyillarini yaratganligi bilan mashhurdir. U - «Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladi, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi»¹⁶. Shu tariqa olim bugun bizning tasavvurimizdagi demokratik davlat shakllari va unda boshqaruvning siyosiy va falsafiy mohiyatini yaratishga erishadi. Masalan, fozillar shaharining (davlat nazarda tutilgan) tarkib topishi va unda qanday axloqiy sifatdagi shaxsning rahbar bo'lishi tasniflari bugungi demokratik jamiyat qurishning bevosita nazariy talablari bilan uyg'un keladi. Bu borada Abu Nosir Forobiy - «Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladi. SHuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar»¹⁷, deb davlat boshqaruvida

¹⁴ Ўзбекистонда ижтимоий - фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. Хайруллаев М. таҳрири остида. -Т.: Ўзбекистон, 1995, 11-12 бетлар.

¹⁵ Иброҳимов А. Бизким, ўзбеклар. -Т.: Шарк, 1999, 13-б.

¹⁶ Абу Носир Форобий.. Фозил одамлар шаҳри. Т, 1993, 190 бет.

¹⁷ Ўша асар, 190 бет.

demokratik tamoyillarni ta'minlash bilan bog'liq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi. E'tiborli jihati shundaki, Forobiy qarashlaridagi «hokimi mutloq bo'lmasligi», «saylovchilar irodasi», «ozodlik» kabi fikrlari nafaqat shu davrda, balki, bugunda ham insoniyat madaniyati noyob mahsuli hisoblangan - demokratiyaning bosh g'oyasi bo'lib xizmat qiladi.

FOROBIY “Shaharni boshqarish”, “Fazilatli hulqlar”, “Fozil odamlar shahri” kabi bir qancha asarlarida yangi ideal jamiyati elementlari, fazilatlarini haqida gapirib o'tgan. Forobiy jamiyat boshqaruv san'atini 2 ga: 1) nazariy (boshqaruvning asosiy usuli va qonun haqida), 2) amaliy (davlatni idora etish) haqida gapirib o'tadi. Forobiy jamoani 3 turga bo'ladi: buyuk, o'rta va kichik jamoalarga ajratadi. Forobiy shahar davlatini 2 toifaga: fazilatli Madina shahri va fazilatsiz Madina shahriga bo'lib, ularning har biriga izoh berib o'tadi. Forobiy davlatning asosiy vazifasini 2 ga bo'ladi: 1. Davlatning ichki vazifasi fuqarolarning baxtli hayotini ta'minlash, 2. Tashqi vazifasi bosqinchilardan himoya qilishdir, deydi. Forobiy taxt otadan bolaga meros bo'lib o'tishini qoralaydi, davlat boshlig'i 12 fazilatga ega bo'lishini asoslab beradi.

Davlat va uning boshqaruviga daxldor masalalar **Yusuf Xos Hojib** ijodida ham katta o'rin tutgan. U “Qutadg'u bilig” dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalar va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga qaratilgan qarashlari bilan e'tiborlidir. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, «Shohlikka da'vogarlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshiyomonni ajratish fitratiga ega bo'ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o'quvi bilan ham siylaydi»¹⁸ deb ko'rsatgan. Shuningdek Yusuf Xos Hojib o'z asarida ko'rsatgan barcha ishlarda tajribali, yomonlikni darhol sezuvchi, oqillik bobida ibratli, zakovatli, ma'rifatga tashna, kichiklarga tayanuvchi, adolatparvar, sadoqat kabi sifatning sohibi bo'lishi shartligini ta'kidlaydi. Buyuk alloma faqat bu bilan chegaralanib qolmaydi, balki jamiyat rivoji va taqdiri uchun mas'ul bo'lgan shaxslarning davlat boshqaruvidagi sifatlarini tasnifini rivojlantirishning adolatli tamoyillarining muhimligiga qaratgan. Ayni paytda, u jamiyatda ilmiy va madaniy salohiyatni adolatli davlat asoslarini yaratuvchi omil deb bilgan. Masalan, u, ziyolilar to'g'risida shunday deydi: - «Haqiqiy ziyoli haqiqat tayanchi bo'ladi. Agarki olamda donishlar bo'lmaganda, erda rizq-ro'z unmas edi. Ularning ziyosi xalq yo'lini yorituvchi mash'aldir. Donishlarga shirin so'z bilan bahra ber, moddiy manfaatini qodirishga harakat qil».¹⁹ Zero, agar biz demokratiyani jamiyatning yuksak madaniy shakli deb qaraydigan bo'lsak, unda ajdodlarimiz yaratgan meros bevosita adolatli davlatning poydevoriga asos bo'la oladi.

ABU ALI IBN SINO (980-1037). Ibn Sino 57 yil umr ko'rgan. “Tib qonunlari” kitobi XI asrda arab tilidan lotin tiliga o'g'irilgandan so'ng butun dunyoga tarqaldi. 1493 yilda fransuz tiliga, 1593 yilda italyan tiliga, XV asrda rus tiliga o'girildi. XII asrdan XVIII asrgacha u 40 marta qayta nashr etildi. IX-XI asrlarda “Tibbiyot qonunlari”ni yaratganligi boisdan ham uni G'arbda Avitsenna nomi bilan tan olishadi. Ibn Sino jamiyat aholisini 1) boshqaruvchilar - ma'muriy ishlar bilan shug'ullanuvchilar, 2) mehnatkashlar - ishlab chiqaruvchilar, 3) harbiylar - jangchilarga ajratadi. Uning fikricha, davlatsiz qonun-qoidalar bo'lmaydi.

Ibn Sino O'rta Osiyo tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarning buyuk namoyondasi, tibbiyot, falsafa, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ta'limot tarixiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirdir. Uning “Ishorat va Tanbixot”, “Risolutu tadbiri manzil”, “Qush tili” kabi asarlari bevosita davlat boshqaruvining adolatparvar va axloqiy asoslariga bag'ishlanadi.²⁰

Ibn sino yozgan 450 dan ortiq asardan: «Tib qonunlari», «Donishnoma», «Najot kitobi», «Turar joyning tuzulishi», «Insof kitobi», «Tibbiy ko'rmatmalar haqida» kabi 160 ga yaqini bizgacha etib kelgan.

Adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros qoldirgan o'rta asrlar mutafakkiri, davlat arbobi **Nizomulmulkning “Siyosatnoma”** asari muhim manba hisoblanadi. U amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni

¹⁸ Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг Т. Фан, 1971, 329-б.

¹⁹ Ўша асар, 649-бет.

²⁰ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Ўзбекистон, 1995, 67-бет.

oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralastirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to'g'risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning «Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va shunday yo'l tutish kerak»²¹ degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlariga katta e'tibor berganligidan dalolatdir.

O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik ta'limotida erkinlik va adolat. Ma'lumki, islom dini ijtimoiy dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan uning nazariy, falsafiy, huquqiy tomonlarini ishlab chiqishga e'tibor ham tobora ortib borgan. Shu tariqa IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, islom falsafasining nazariy jihatdan yuksak darajada rivojlangan davri bo'ldi. Ulardan Imom Al-Buxoriy, Imom At-Termiziy, Al-Motrudiy, Muhammad Imom-Fazzoliy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhonuddin al-Marg'iloniy, Ahmad YAssaviy, Najmiddin Kubro, Abdulholiq Fijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy kabi buyuk allomalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan jahon madaniyatiga ulkan xissa qo'shdilar. Diniy-ilmiy tadqiqotlarda borliq, ilohiy qudrat, inson komilligi, adolat, insof, diyonat, vijdon kabi g'oyalar inson ruhiyatini poklash orqali erkin jamiyatga chorlanadi. Bu borada **J.Rumiy** shunday deydi: "Inson buyuk bir mo'jiza va uning ichida hamma narsa yozilgan. Biroq zulmat va pardalar bor-ki, ular yozuvlarni o'qishga imkon bermaydi. Zulmat va pardalar, turli-tuman mashg'ulotlar insonning dunyo ishlari borasida olgan tadbirlari va ko'ngilning so'ngsiz orzularidir."²² Darhaqiqat, J.Rumiyning qarashlarida insonning farqi uning komilligiga asoslanadi. U dunyoga irqi, dini, millati, tabaqasidan qat'iy nazar, barcha insonlarga barobar murojaat qiladi. "Menga vahdai mayini tutgil, o'zgalarni ham ondin bahramand etgil, toki jamoat jam bo'lib, faqat suvratda bo'lmish tafovutlarni bartaraf etaylik. Biz hammamiz yagona og'ochning butoqlari, yagona qo'shinning navkarlarimiz". Jaloliddinning bashariyat birligi haqida gapirishi o'sha davr uchun mislsiz jasorat edi²³.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivojining ma'naviy asoslarini o'rganishda O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o'rin tutadi. Tasavvuf garchi islom bag'rida nish urib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda shariat ahkomiga suyangan bo'lsada, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu-ishratlarga g'arb turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o'laroq, mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Ushbu ta'limotning el orasida yoyilib, fikriy yangilanishlarga qanoat bergani, haq va haqiqatga tashna ziyolilar yuragini band etganiga sabab shu²⁴. Tasavvuf ta'limoti asosida adolat, haqiqat, to'g'rilik, mehr-shafqat, insof, iymon, e'tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ibot qiluvchi futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo'ladi. Ular jamiyatning axloqsiz unsurlariga g'oyaviy kuch sifatida qarshi qo'yiladi. Bu borada, O'zbek milliy davlatchiligimiz negizlarining qadimiyligi haqida buyuk bobokalonimiz YAssaviyning hikmatlarida jamiyatda etakchi shaxslarning sifatleri to'g'risidagi talqinlar, ayni paytda, achchiq tanqidiy munosabatlari ijodining asosini tashkil etadi. Chunki shu davrda shayxlar siyosatga bevosita aralashib kelganlar.

Bu borada Amir Kulolning o'g'li **Amir Umarning qarashlari** (1406 y.o'lgan) siyosatning nazariy va amaliy mohiyatini ochishda e'tiborlidir. Unda siyosatga shunday nisbat beriladi: "Bilgilkim siyosat - tutib turish va tartibga solishdir..., yomon kishilarni qo'rqinch va titroqda tutmoq, yaxshilarni taqdirlamoq kerak. Agar siyosat bo'lmasa, davlatning muhim ishlari amalga oshmaydi; agar tartibot, jazo qonunlari bo'lmasa, davlat ishlari ham o'nglanmaydi, chunki hukmdorning, jamoaning ko'rki, davlat va dinning rivoji siyosatdir"²⁵. YA'ni, din orqali siyosatda umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilishi va bunday siyosat esa bevosita davlat qonunlari orqali amalda o'z tasdig'ini topishiga erishmoq lozim, deb qaraladi.

²¹ Низомулмулк. Сиёсатнома. Т.: Адолат, 1997. 98-бет.

²² Румий Ж. Ичингдаги ичингдадир. -Т.: Ёзувчи, 1997, 51-бет.

²³ Фиш Ради Жалолиддин Румий. -Т.: "Адабиёт ва санъат", 1986, 241-бет.

²⁴ Комилов. Н. "Тасаввуф". -Т; "Ёзувчи", 1996, 4 бет.

²⁵ Маҳомат-и саййид Амир Кулол. Қўлёзма. ЎзФА ШИ. № 8667. в. 103 а-б.

Amir Temur va Temuriylar davri milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlarida demokratik tamoyillar. XIII-XIV asrlarda O'rta Osiyoni mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishi iqtisodiy va ma'naviy hayotga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda jabr-zulm va zo'ravonlik kuchayadi, mehnatkash xalq qattiq eziladi.

Juda ko'p madaniy boyliklar, ilm maskanlari, madrasa va kutubxonalar yo'q qilinadi, san'at va ilm-fan vakillari: olimlar, shoir va yozuvchilar, munajjimlar, me'morlar va musavvirilar o'ldiriladi, omon qolganlari SHimoliy Hidistonga, Farbiy Eron va Xuroson viloyatlariga qochib jon saqlab qoladilar²⁶. Aynan mana shunday murakkab davrda **Amir Temurning (1370 yil)** siyosiy sahnaga kelishi hamda mustaqil davlat barpo etishi O'rta Osiyo xalqlarining mug'ul istilosidan, ichki o'zaro nizolardan qutulishiga olib keladi. Mamlakatda o'rnatilgan barqarorlik markaziy davlatning tez orada mustahkamlanishiga, siyosiy kuchlar tarqoqligini bartaraf etishga, ayni paytda, turli islohotlarning amalga oshirilishiga, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Amir Temur – XU asrda buyuk temuriylar davlatiga asos soldi. U davlat boshqaruvida o'zidan oldingi o'tgan hukmdorlardan farq qilib, davlat va mamlakatni boshqarish xususida **"Temur tuzuklari"**ni yaratdi. Bu davlatni idora qilish me'yorlari, qoidalaridan iborat bo'lgan mazkur kodeks, tuzuk 2 qismdan iborat.

1. Sohibqiron Temurning 7 yoshidan (1342) to uning so'nggi kunigacha bo'lgan hayoti, siyosiy faoliyati tasvirlangan. Bu qismda Amir Temurning Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga kiritishi va undan keyin mashhur yurishlari asosida To'xtamishxon (1376–1395), Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389–1402) kabi jahongir shohlarni mag'lubiyatga uchratgani, 1,5 mln.kv.km. territoriyada Temuriylar Imperiyasiga asos solgani hikoya qilinadi.

2. Ikkinchi qism esa Jahongir Sohibqiron Temur nomidan shohzodalarga qarata aytilgan vasiyatlar, pand-nasihatlaridir. Unda davlatni idora qilish san'atining nozik sirlari, qoidalari haqida, amir, vazirlar va beklarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, qo'shin boshliqlari, ularning xizmatlarini taqdirlash, sipohlar va ularning maoshlari kabi masalalar haqida vasiyat qiladi.

Davlatni 12 qoidaga asosan boshqardi. Davlat ishlarini **4 omilga bog'ladi:** 1) saltanat, 2) xazina (boylik), 3) Qo'shin (sipoh), 4) Raiyat (oddiy qora xalq). Amir Temur o'z imperiyasini 4 ulusga bo'lib boshqardi. **1) Qobul, g'azna, Qandahorni 12 ming qo'shin bilan Jahongirmirzoga, keyinchalik Pirmuhammadga, 2- ulusni Farg'ona o'lkasini Umarshayxga, 3-ulusni Mironshohga Xurosonni, 4-ulusni SHohruhga G'arbiy Iroq, Ozarbayjon hududlarini berdi.** Amir Temur saltanatni boshqarishda kengash, mashvarad, maslahat masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Bu jarayon bizda ikki palatali parlamentchiligimizda keng yo'lga qo'yildi.

Bu davrda milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishida Amir Temurning xizmatlari katta bo'ldi. Uning tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. Bunday siyosatning asos-mohiyati adolatli davlat, insonparvar jamiyat negizlarini qaror toptirishga qaratiladi.

Amir Temur davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishda mamlakat ishlarini doimo kengash, mashvarad, maslahat, hushyorligu, mulohazakorlik, ehtiyotkorlik²⁷ bilan amalga oshirishga qaratadi. Saltanat ishlarini Kengash asosida olib borish - bu aslida ayonlarning rizoligi va ixtiyori demak. Bunday yondashuv bevosita davlat boshqaruvi taqsimotining ilk ko'rinishlari to'g'risidagi qarashlarning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Sohibqiron har bir ishda siyosatni adolat bilan amalga oshirishga va bunda turli vositalar asosida uning izchilligini ta'minlashga erishadi. YA'ni, adolatga qaratilgan maqsadlarni adolatli vositalar bilan uyg'unlashtirish asosida davlat boshqaruvining nazariy ta'limotlarini amaliy jihatdan boyitadi-ki, saltanatda adolatni ta'minlovchi siyosat murvatlar yuzaga keladi. Masalan, u nafaqat davlat xizmatchilarining qanday sifatga ega bo'lishini, balki shunday sifatli larni qanday qilib davlat

²⁶ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Ўзбекистон, 1995,67-бет.

²⁷ Амир Темур тузуқлари. -Т.: Ғофур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996, 24-бет.

boshqaruviga kelishini ta'minlashning yo'nalishi tomonlarini ishlab chiqadi. Bu borada u shunday deydi: «Agar har narsani va har kimni o'z martabasida saqlay olmasang, saltanatingga bundan ko'p halal va ziyon etgay. Demak, har kimning qadr-qimmatini, tutgan mavqeini va har narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak»²⁸ deb, u davlat xizmatida salohiyatli shaxslarning ishtirokini amaliy tatbig'iga aylantiradi. Jumladan: «Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligni bilsam, uni tarbiyatimga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim»²⁹ deydi.

Amir Temur o'z davridagi xizmatlarining eng asosiysi va eng buyugi - bu uning davlat arbobi sifatida adolat g'oyalari asoslangan milliy davlatchilik ta'limotlarining huquqiy negizlarini yaratganligi hamda uni tatbiq etib berganligidadir. SHu tariqa u o'z siyosiy faoliyatini shunday ifoda etadi: «Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatiimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim»³⁰.

MIRZO ULUFBEK (1394-1449). Buyuk munajjim, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi, o'z davrida Samarqandda rasadxona qurdirib, astronomik maktab yaratgan olim. Ilmiy me'rosining gultoji - «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asari bo'lib, «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», «To'rt ulus tarixi» asarlari ham uning qalamiga mansub.

SHu davrning yirik klassik namoyondalardan biri **Alisher Navoiydir**. **Alisher Navoiyning** «Tarixi muluki Ajam» asaridagi fikrlar alohida diqqatga sazovordir. Navoiy davlat so'zini mulk deb yozadi. Ajam degani esa arabchada arabdan tashqari degan ma'noni anglatadi. Demak, qadimiy tarixlarda Eron va Turon hududida ilk bor tashkil topgan va uzoq asrlar davomida hukmronlik qilgan davlatni arablar Ajam, ya'ni arab davlatidan tashqari, degan nom bilan ataganlar. shunday deydi: «SHayx uldurkim, niyoz olsa, mustaqihlarg'a, g'arib, bechoralarg'a bergaylar. Agar olib o'zi esa, murdor et emishdek bo'lg'ay. Agar to'n qilib kiysa, ul to'n to'zg'uncha Haq ta'olo namoz, ro'zasini qabul qilmag'ay va agar olg'an niyozidin non qilib esa, Haq ta'olo oni do'zaxda turluk azobg'a giriftor qilg'ay. Va agar ondog' shayxg'a har kishi e'tiqod qilsa, kofir bo'lg'ay»³¹.

U nazariyotchi va amaliyotchi sifatida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to'g'risidagi qarashlari o'z ifodasini topadi: «...davlat ishi bilan mashg'ul bo'lgan amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim»³² deydi. O'zbek tili jozibasini o'z «Xamsa»si bilan butun olamga ko'rsatgan buyuk so'z sanatkori «Badoyi ul-bidoya», «Navodir ul-nihoya», «Zubdat ut-tavorix», «CHor kitob», «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarni ham bizga meros qilib qoldirgan.

A. Navoiy adolat to'g'risidagi qarashlarida inson ruhiyati bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning mohiyatini izlaydi. Jamiyatda yovuzlikning kelib chiqish sabablarini tahlil etadi. Adolatli jamiyatga erishishda nafaqat podshohning odilligi, balki fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning adolatli, ma'nan sog'lom bo'lishi lozimligiga e'tiborni qaratadi: «Olamda bo'lmish har nav' odam bilan ko'rishdim; katta - kichikning fe'lu atvorini o'rgandim; yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim; yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko'rdim. Baxl va pastkashlarning zaxmini, saxovatli kishilarning malhamini ko'nglim darhol sezadigan bo'lib qoldi»³³ deydi. Ayni paytda, u inson ruhiyati bilan bog'liq illatlar mohiyatiga shunday nisbat

²⁸ Amir Temur tuzuklari. -T.: Fofur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996, 81-бет.

²⁹ Ўша асар 83-бет.

³⁰ Ўша асар. 119-бет

³¹ Яссавий, Аҳмад Хожа. Девони Ҳикмат. -Т.: "Ф.Фулум". 1992, 8-бет.

³² А. Навоий. Маҳбуб ул- Кулуб.-Т.: Fofur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983 йил, 12-бет.

³³ А. Навоий. Маҳбуб ул- Кулуб.-Т.: Fofur Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983 йил, 12-бет.

beradi: «Yaxshilikka mukofot - qo‘pollik; odob bilan qilingan xushmuomala evasiga kekkayish, takabburlik‘dan o‘zgacha munosabat ko‘rmaysiz. Birovga bir xizmat qilsang, undan o‘n zarb eyishga tayyor turmoq kerak; kimgaki bir tavoze‘ ko‘rsatsang, ming qo‘pollik va dilsiyohlikka hozir bo‘lib turmog‘ing lozim». ³⁴ SHu tariqa, u «Mahbub ul-qulub» asarida har xil odamlarning fe‘l-atvori va ahvoli, yaxshi fe‘l xosiyati va yomon xislat kasofati haqidagi qarashlari asosida jamiyat ijtimoiy munosabatlarining yaxlit nazariy tizimi, fuqaro-jamiyat-davlat o‘rtasidagi axloqiy majburiyatlarni umumlashtirishga erishadi.

Umuman, bunday adolatli jamiyatni boshqarish haqidagi g‘oyalar Navoiy ta‘limotlarida ham keng uchraydi. Bu jarayon “Saddi Iskandariy” dostonida chuqur ochib berilgan va hokazo.

O‘zbek milliy davlatchiligimiz negizlarining qadimiyligi haqida buyuk bobokalonimiz **Alisher Navoiyning** «Tarixi muluki Ajam» asaridagi fikrlar alohida diqqatga sazovordir. Navoiy davlat so‘zini mulk deb yozadi. Ajam degani esa arabchada arabdan tashqari degan ma‘noni anglatadi. Demak, qadimiy tarixlarda Eron va Turon hududida ilk bor tashkil topgan va uzoq asrlar davomida hukmronlik qilgan davlatni arablar Ajam, ya‘ni arab davlatidan tashqari, degan nom bilan ataganlar.

ZAXRIDDIN BOBUR (1483-1530). SHarq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim, yirik davlat arbobi va sarkarda. Uning jahon ommasiga mashhur bo‘lgan shoh asari «Boburnoma» dan tashqari «Mubayyin», «Xatti Boburiy», «Harb ishi» kabi asarlari va go‘zal she‘riyati mashhurdir. A.Navoiy zamondoshlarining ilmiy merosini qunt bilan o‘rgangan, o‘zi ham shu yo‘nalishda katta meros qoldirgan ijodkorlar Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylardir. Ular davlatshunoslik, axloqshunoslik, adabiyot, ta‘lim-tarbiya, nasr va nazm sohalarida ijod qilgan yirik olimlardir. Davlat boshqaruvi va uning siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni Boburning «Boburnoma»³⁵, Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”³⁶, Davoniyning «Axloqi Jaloliiy»³⁷ asarida atroflicha bayon qiladi.

Ularda jamiyatni boshqarish asoslari, ijtimoiy tabaqalarning o‘zaro munosabatlari, adolatli va adolatsiz podshoh fazilatlarini, fuqarolarga odil munosabati, axloq va ta‘lim-tarbiya masalarini tahlil etgan. Shu tariqa Davlat boshqaruviga oid ijtimoiy qarashlarni o‘z navbatida o‘tmish davlatchilik madaniy merosimiz bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarimizni yanada boyitishga xizmat qilgan.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, XIV-XV asrdagi ijtimoiy va madaniy yuksalish o‘z mazmun - mohiyati bilan IX-XII asrlardagi O‘rta Osiyodagi Uyg‘onish davrining uzviy davomi edi. Xulosa shundaki, bunday madaniy meroslarning monandlikka intilishi, uning davriy uyg‘unlashuvi xalqlar hayotida taraqqiyot hamda yuksalishiga poydevor bo‘lgan nazariy ta‘limotlarning rivojlanish bosqichlarini kuzatamiz. Ammo O‘zbekiston xalqlari davlatchilik tarixi o‘z taraqqiyotida bir xilda rivojlangan emas.

***XV-XX asrlarda O‘rta Osiyoda davlat va jamiyat qurilishining
ijtimoiy-siyosiy holati hamda istilochilar siyosatiga qarshi
ma‘rifatparvarlik g‘oyalari***

XVI-XIX asrlar O‘rta Osiyo hayotidagi murakkab davrlardagi parchalanishlarning salbiy oqibatlari. XVI-XIX asrlar O‘rta Osiyo hayotida murakkab va keskin burilish davri bo‘ldi. Uning murakkabligi avvalo, Amir Temur imperiyasining parchalanishi hamda vorislar o‘rtasidagi nizolar bilan bog‘liqdir. Doimiy ixtiloflar maydoniga aylanib qolgan Movarounnahr SHayboniyxon lashkarlari tomonidan bosib olinadi. Yurtda egasizlik, boshboshdoqlik hukm suradi. Mana shunday sharoitda haqiqiy ilm o‘rnini diniy aqidaviy qarashlar egallaydi. Natijada aniq va tabiiy fanlar quvg‘unga uchraydi, ayniqsa matematika va astronomiya orqada qoladi. Buning oqibatida ilm-fan rivojining darajasi keskin pasayib ketadi. Ayni paytda bu davr oldingi mutafakkirlarning ilg‘or g‘oyalari o‘zaro faol ta‘siri zaiflashuvi bilan xarakterlanadi. Din bevosita davlat siyosatining asosiga, hokimiyat uning rahnomalari qo‘lida manfaatlarini niqoblovchi mafkuraga aylanadi.

³⁴ Ўша асар, 60 бет.

³⁵ Бобур. Бобурнома. -Т.: Юлдузча,1989.

³⁶ Хусайн Воиз Кошифий.. Ахлоқи Мухсиний. Душанбе, Адиб нашриёти, 1991.

³⁷ Жалолиддин Давоний.. Ахлоқи Жалолӣй. ЎзФА Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди.

Natijada jamiyatda diniy tazyiq kuchayadi. Har qanday ijodiy hur fikr ta'qibga olinadi³⁸. Shunga qaramay O'rta Osiyoda ijtimoiy fikr, falsafa, adabiyot, tarix, musiqa fanlari, me'morchilik, tasviriy san'at rivojlandi, qator madrasa va machitlar qurildi. Jumladan, Ibn Muhammad Yusuf Al-Qorabog'iy, Muhammad Sharif, Mashrab va So'fi Olloyor, Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Bedil, Fuzuliy, Ahmad Donish, Muqimiy, Ogahiy, Furqat, Mulla Olim Mahdum Hoji ijodiyotida ilg'or ijtimoiy g'oyalar yaratiladi.

E'tirofli jihati shundaki, shu davr ijodkorlari qaysi sohada ijod qilmasin, shaxs va ziyoliylikka xos qudratda ularning asosiy diqqati xalq va uning turmush dardi bilan bevosita bog'liq bo'lganligiga amin bo'lamiz. Mullo Olim Mahdum Hoji «Tarixi Turkiston» asarida shunday deydi. «Turkiston xonlari vaqtidagi musulmoniyalar nihoyat darajada ahvoli olamidin xabarsiz bo'ldilar. Zolim hakamlarga rost va to'g'ri so'zni aytadurg'onlar qolmay, zolimlar uchun besh-o'n tillo badaliga ertadan kechgacha xushomad so'zlar aytib, alar qanday so'z aytisa, ma'qul deydurg'onlar bo'lg'on edilar. Ilmu maorifda bo'lsa Turkistonda o'tgan Ibn Sino, Forobiy, Ulug'bek, Aliqushchi o'rniga o'lturg'on olim, faylasufi zamon deganlarimiz izzatu nafs va riyokorlikga tabdil bo'lub, jahl balosig'a muhtalo bo'lg'on edilar. Hakam va ulug'larimiz fuqarolardin o'z joyig'a va masrafig'a sarf qilmay, o'z xohishlarig'a xarj va sarf qilar edi. Hukumat ishida mutlaqo muntazam qoida va qonun yo'q edi. Fuqarolar olarning o'z molidek hisob qilinur edi»³⁹.

Mavjud manbalar milliy davlatchilik tariximizni tanazzulga tortgan siyosiy kurashlar va o'zaro ixtiloflarning sabablarini o'rganish, undan saboqlar chiqarish imkoniyatlarini beradi.

Ma'lumki, Movarounnahr davlatchilik tarixi va uning taraqqiyotini islom falsafasidan ayri holda ko'ra olmaymiz. Ajdodlarimiz dunyoviy va diniy ilmlarni bevosita uyg'un tarzda olib borishgan. U xoh diniy, xoh dunyoviy yo'nalishda bo'lmasin, uning asosida inson - jamiyat - davlat muammosi yotadi. Faqat biryozlama diniy mafkuraga asoslangan munosabat, so'ngra mustamlakachilik siyosati adolatli jamiyat qurishga qaratilgan ilg'or, milliy madaniy merosini ta'qib ostiga oladi. Natijada fan va ta'limot o'z zaminidan ayrilgan aqidalar va mavhum g'oyalar ta'siriga tushib qoldi.

Ammo tarixning ana shunday murakkab davrida ham Vatanimiz hududida hurriyat bilan yo'g'rilgan ijtimoiy - siyosiy qarashlar to'xtagan emas. Aksincha, bunday istak har bir vatandoshimiz qalbida umummilliy istiqloq g'oyasining vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Ana shunday g'oyalarni ishlab chiqishda XX asrning boshlarida shakllangan jadidchilik harakatini alohida o'rganish lozim.

Jadidlar qarashlarida ma'rifiy-demokratik tamoyillar. Turkiston milliy davlat mustaqilligi uchun kurashda ozodlik harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda shart-sharoitlarini siyosiy jihatdan tahliliga e'tibor qaratish lozim.

Bunda Jadidlarning mustaqillik uchun kurash g'oyalarining vujudga kelishi nazarda tutiladi. Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmasligi Behbudiy kelgan birinchi xulosalardan edi⁴⁰. Ayni paytda, bunday g'oya milliy istiqloqchilik harakatining asosini tashkil etgan.

Jadidchilar asosiy e'tiborini jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratadilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr ettirish, g'arbning yangi madaniyat va texnologiya uslubiyatlarini joriy etish zaruriyatini hamda uni Turkistonda targ'ib etish orqali milliy-dunyoviy ta'limni yuzaga keltirish, ma'naviy hayotni yangilash va boyitish orqali milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar. Bunday siyosiy yondashuv bevosita jamiyatda adolatli-demokratik davlat qurilishining asoslarini rivojlanishiga xizmat qiladigan nazariy omillar ekanligini e'tirof etmasdan bo'lmaydi. Albatta, ular demokratiyaning tom ma'nodagi ko'rinishlaridan uzoqda bo'lganlar.

³⁸ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Ўзбекистон, 1995, 182-бет.

³⁹ Мулла Олим Махдумхожи. Тарихи Туркистон. Насаф, 1992, 100-б.

⁴⁰ Бехбудий. Танланган асарлар. Сўз боши. Т; Маънавият, 1999, 28-б.

Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yorituvchi manbalar Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li⁴¹, Behbudiy, Fitrat, Avloniy⁴², Huvaydo va boshqa asarlarda o'z ifodasini topgan.

O'z davrida jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini ulkan rivojlantirishning amaliy dasturlarni, Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish vakolatlari, barcha sohalar bo'yicha qonunlarni joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalariga katta e'tibor bergan. Ammo, shu davr siyosiy sharoiti hamda erli xalqning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi qarashlari bir muncha cheklanganligini ko'ramiz. Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"⁴³ dasturida to'la mustaqil demokratik jamiyat to'g'risida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutiladi. 1917 yildagi Umumturkiston musulmonlarining qurultoyida ham davlatchilik qurilishi to'g'risidagi qarashlarda demokratik yoki federativ shakllari to'g'risida bahs olib boriladi. Ammo, ularning demokratiya va federatsiya to'g'risidagi qarashlari ham aslida konstitutsion monarxiya tuzumidan tashqariga chiqib ketolmaydi.⁴⁴

Aynan shu davr voqea-hodisalari bayoni, tafsilotlari hamda muvaffiqiyatsizlikning sabablariga M.Chuqay "Istiqlol jallodlari" asarida qo'yidagicha ta'rif beradi: «Birinchidan, ob'ektiv omillar: ...Biz kurashga o'zimiz tanlagan fursatda emas, Rusiya inqilobi jarayonini keltirib chiqargan vaziyat ijoboti bilan kirishdik. Ikkinchidan, sub'ektiv, ya'ni o'zimizdan bo'lgan omillar: Milliy manfaatlar yo'lida kurashish lozimligini bilganlari holda turkistonliklar o'zaro kuchli birlik qura olmadilar va bunga ulgurmadilar»⁴⁵.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, uning siyosiy faoliyati, so'ngra inqirozi masalalari mamlakatimizning bir qator olimlari asarlarida o'z ifodasini topgan⁴⁶.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda chorizm istilochilik siyosatiga qarshi ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq. Chor Rossiyasi mazkur O'rta Osiyo hududini o'ziga mustamlaka qilib olgach, o'z siyosatini yurgiza boshladi. Bir tomondan, o'lkada ruslashtirish siyosati olib borilsa, ikkinchi tomondan, rus madaniyati ko'klarga ko'tarib maqtdi. Bu davrda Ogahiy "Shohu gado", Ahmad Donish aqlsizlikka qarshi kurashdi, Berdaq Xiva xonligi ma'muriy siyosatini qoraladi. Uning "Ahmoq podsho" dostoni mavjud. Bu davrda Sattorxon, Furqat kabi bir qancha ma'rifatparvarlar yuzaga keldi.

Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishi bo'lib, uning namoyandalari mamlakatni qoloqlikdan chiqarish va milliy taraqqiyotga erishishni ma'rifiy yo'lini ko'rsatdilar. Ismoilbek Gaspirinskiy jadidchilik g'oyalarini O'rta Osiyoga yoygan inson bo'lib, "YUz yildan so'ng. 2000 sana" romanida sinfiy kurash nazariyasiga qarshi edi. Madaniyati yo'q bir millatning sanoati bo'la olmas, u ham bo'lmasa sinfiy nizolarga erta, biz madaniy o'suvdan iborat deb bildi va kurashdi.

Mahmudxo'ja Behbudiy I.Gaspirinskiy g'oyalarini Markaziy Osiyoga yoyishda bosh rol o'ynadi. U "Sho'roi Islom" tashkilotiga asos soldi. Munavvarqori Abdurashidov Turkistonda jadidizm rahbarlaridan biri edi. U "Sho'roi islomiya" tashkilotini tuzdi. Bu tashkilotlar Turkiston o'lkasini CHor Rossiyasidan ajratib olib, uni ma'rifatli qilish g'oyalari bilan yashadi. Ular Rossiya tarkibida milliy-diniy avtonomiya tuzish tarafdori edi. Fitrat, CHO'lpon va boshqa jadidchilik oqimi namoyandalari mamlakat aholisini faqat savodli, ilm berish yo'li bilan bu mustamlakachilik siyosatidan qutulish yo'llarini ko'rsatdilar. Lekin sobiq sovet tuzumi davriga kelib ana shu jadidchilik oqimi namoyandalari repressiya qurboni bo'ldilar. Lekin biz bugungi kunda ana shu jadidchilarning mamlakat aholisini ma'rifatli qilish, jaholatga qarshi ma'rifat yo'li bilan kurash olib

⁴¹ Абдурашидхонов М. Хотираларим. -Т.: Шарқ. 2001.

⁴² Авлоний. Танланган асарлар 1, 2 жилдлар. Маънавият. 1998; Бехбудий. Танланган асарлар, Маънавият. 1999, Фитрат. Танланган асарлар 1,2,3 жилдлар, 2000-2003,

⁴³ Бехбудий М. Туркiston маданият мухторияти лойиҳаси. Жаҳон адабиёти, 2003 йил., август, 146-б

⁴⁴ Дўстқораев Б. Ўзбекистонда янги давлатчилик маърифати. Жамият ва бошқарув, 1997 йил, 2-сон, 13 бет.

⁴⁵ Чўқай М. Истиклол жаллодлари. -Т.: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1992, 6-бет.

⁴⁶ Аъзамхўжаев С. Туркiston Мухторияти. -Т.: Маънавият, 2000. Қосимов Б. Миллий уйғониш. -Т.: Маънавият, 2002, 8-бет.

borganligini ko‘ramiz. Ular mustamlakachilik siyosatini tubdan qoraladilar, erli aholini savodli qilish uchun kurash olib bordilar. Ana shu jadidchilarning ushalmagan orzulari bugungi kunda mustaqillik tufayli, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning dono rahbarligi va siyosati tufayli ma‘rifatli jamiyat uchun olib borayotgan siyosatini men albatta chin ko‘ngildan qo‘llab-quvvatlayman.

Chunki ma‘rifatparvar jadid oqimi namoyandalarning ushalmagan orzusi bugungi kunda amalga oshmoqda. O‘zbekiston o‘zining ma‘naviyati, madaniyati bilan jahonga yuz tuta boshladi. Endilikda biz “O‘zbek xalqi hech qachon hech kimdan kam bo‘lmaydi” degan Prezidentimiz g‘oyasi atrofida birlashmoqdamiz

***XX asr ikkinchi yarmida davlat va jamiyat qurishning “sovetcha”
ko‘rinishi hamda milliy mustaqillik va O‘zbekistonning
demokratik o‘zgarishlar sari yo‘l tutishi***

Milliy istiqlol uchun kurash yo‘llari va shu yo‘ldagi maqsad mushtaraklikda bo‘lgan emas. Mustaqillikka erishish kurashlari afsuski, turlicha anglangan va unga turlicha yondashilgan. Ammo, milliy ozodlik harakatining mag‘lubiyati yoxud ko‘plab ziyoli namoyondalarning qatag‘on qilinishi, shahid bo‘lishi bilan millatning hurriyatga bo‘lgan intilishi bir soniya ham to‘xtagan emas. O‘zbek ziyolilarining mustaqillik uchun olib borgan kurashi XX asr 30-40-yillarda so‘ngra 50-60-yillarda ham turli siyosiy ko‘rinishlarda davom etib boradi.

XX asring 80-yillariga kelib, kommunistik mafkura zug‘umi ostida qatog‘onlik siyosati yangi pallaga kiradi. Markaz xodimlari tomonidan uyushtirilgan “o‘zbeklar ishi”, “paxta ishi” bilan 11 mingdan ortiq o‘zbekistonlik rahbarlar va oddiy fuqarolar ta‘qib ostiga olindi, jazolandi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ziddiyatlashuvi va hodisalarning keskinlashuvi “qayta-qurish” yillarida ham o‘z ta‘sir ko‘lamini kengaytirib keldi. Natijada respublikada jamiyat yaxlitligini parchalaydigan hamda vujudga kelgan egasizlik holati fuqarolar o‘rtasida parokandalik muhitini yuzaga keltirdi, millatlararo ziddiyatlar, ba‘zan to‘qnashuvlar, ayniqsa, davlat boshqaruvida qonunsizlik, boshbodoqlik holatlari vujudga keldi.

Mana shunday qaltis vaziyatda, 1989 yil 23 iyunda Islom Abdug‘anievich Karimov O‘zbekistonning birinchi rahbari sifatida o‘z faoliyatini boshladi. U qisqa vaqt ichida O‘zbekistonda vujudga kelgan ijtimoiy tanglik sharoitini barqarorlashtirishga qaratilgan tubdan yangi milliy siyosatni shakllantirishga erishdi. Natijada, siyosiy beqarorlik, fuqarolar va millatlararo nizolarning oldi olindi. Davlat boshqaruvida bosqichma-bosqich demokratik tamoyillar mustahkamlandi - O‘zbekistonda mustaqil davlat tashkil etishining barcha siyosiy va huquqiy zaminlari yaratildi. Bugungi kunda u «O‘zbek modeli» sifatida tan olinmoqda. **Mustaqillik sari qo‘yilgan qadamlar quyidagilardan iborat:**

1. 1989 yil 21 oktyabrda “O‘zbekiston SSRning Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilindi. Bu qonun 30 moddadan iborat edi. 1-moddada “Davlat tili – o‘zbek tilidir” deyildi. Qonunda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida s‘ezd, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis, kengash va boshqa masalalar davlat tilida olib borilishi aytilgan. 1990 yil 19 fevralda “Davlat tili haqida”gi qonunni amalga oshirish davlat programmasi qabul qilindi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasining 4-moddasi davlat tili o‘zbek tili ekanligi aytili. 1993 yil 2 sentyabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida» qonun qabul qilindi (31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o‘zbek alifbosi joriy etilishi qayd qilindi. 1994 yil 16 iyunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan bu qonunni amalga oshirish maqsadida davlat dasturi qabul qilindi. 1995 yil 6 mayda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida qonun qabul qilindi (31 harf va 1 tutiq belgisidan, so‘zlari 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan so‘zlar bilan almashtirildi). 1995 yil 21 dekabrda “Davlat tili haqida”gi qonunga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri qabul qilindi. Bu qonunning yangi tahriri 24 moddadan iborat. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan 2, 10-bandlardagi “2005 yil” so‘zlari “2010 yil” deb almashtirildi⁴⁷.

⁴⁷Она тили – Давлат тили. – Т.: Адолат, 2004. – 80 б.

2. 1990 yil 24 martda O‘zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimi joriy qilindi (bu haqida to‘liq ma’lumot 6.3-mavzuda berilgan).

3. “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning (1990 yil 20 iyun) qabul qilinishi, uning mazmuni va mohiyati. Ushbu “Mustaqillik deklaratsiyasi” O‘zbekiston Oliy Sovetining 2-sessiyasida 1990 yil 20 iyunda qabul qilindi. Bu hujjat O‘zbekistonning mustaqillikka erishishida qo‘yilgan navbatdagi qadam bo‘ldi. Bu umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan hujjat deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi. “Mustaqillik deklaratsiyasi”ning kirish qismida O‘zbekistonning davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan an‘analari, har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta‘minlashdan iboratligi aytib o‘tildi. Birinchi moddada “O‘zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir”, deb qo‘yilgan. Bu Deklaratsiya o‘zbek xalqi tomonidan to‘la qo‘llab-quvvatlandi. Shu kundan boshlab respublikada O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina boshlandi. 1991 yil 17 martda referendum o‘tkazildi. Bunda O‘zbekiston Federatsiya tarkibida mustaqil, teng huquqli ekanligi aytib o‘tildi. Referendumda 9.215 mingdan ko‘proq kishi qatnashdi, 93 foiz ovoz to‘plandi.

Demak, “Mustaqillik Deklaratsiyasi” 13 bo‘limchalardan iborat bo‘lib, u O‘zbekistonning mustaqillik sari qo‘ygan qadamlarida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Endilikda o‘zbek xalqi, millatining tepasida Islom Karimovdek dono rahbar shaxsning kelishi va davlatni oqilona boshqarishi tufayli O‘zbekiston asta-sekin o‘z iqtisodiy bo‘hronlaridan xalos bo‘lmoqda. Mustaqillik deklaratsiyasining tarixiy ahamiyati yana shundaki, bu hujjatning qabul qilinishi, o‘zbek xalqining o‘zini anglash borasidagi siyosati albatta muvaffaqiyatli kechdi. Lekin bugungi kunda ba’zi bir buzg‘unchi kuchlar O‘zbekistonni bu yo‘ldan qaytarib, iqtisodiy muammolarni chigallashtirishga harakat qilmoqdalar.

4. 1991 yil 15 fevralda Oliy Kengash “O‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qildi.

5. 1991 yil 22 iyulida Oliy Kengash “O‘zbekiston hududidagi joylashgan Ittifoqqa bo‘ysunuvchi davlat korxonalari, musassasalari va tashkilotlarini O‘zSSRning huquqiy tobeligiga o‘tkazish to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

6. 1991 yil 21 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda holat davlat qo‘mitasining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qarorlari va farmonlari noqonuniy deb e‘lon qilindi.

7. 1991 yil 25 avgustda Prezident Farmoni bilan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo‘mitasi qonuniy ravishda O‘zbekiston tasarrufiga olindi.

8. 1991 yil 26 avgustda Oliy Kengash O‘zbekiston davlat mustaqilligi to‘g‘risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31 avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qilindi.

9. 1991 yil 28 avgustda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi Markaziy nazorat qo‘mitasi bilan birgalikda qo‘shimcha Plenumi chaqirib, unda O‘zbekiston Kompartiyasi KPSS MK bilan har qanday aloqasini to‘xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridan o‘z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

10. 1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasi o‘z ishini boshladi (Bu haqda keyingi sahifaga qarang).

Demak, Mustaqillik - tenglik sari qo‘yilgan birinchi qadam. Tenglik bo‘lmagan joyda kim kimgadir qaram bo‘ladi. Tenglik odamlarning o‘zaro munosabatlaridan tortib mamlakatlararo munosabatlargacha hamma narsani me‘yor-mezonga soladi.

Mustaqillik - o‘zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o‘zaro munosabatida ham, davlatlar o‘rtasidagi aloqalarda ham ana shu insoniy qadriyatlarga tayanish, umumiy mezonlar asosida yashash demakdir. Milliy mustaqillik erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga tayanib yashashdir. Tabiatan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirishning mezonidir hamdir.

1991 yil 19-21 avgust kunlari yuz bergan davlat to‘ntarishiga urinish va zo‘ravonlik siyosatini chuqurlashtirishga intilish bu jarayonning yakuni bo‘ldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov

ta'бири bilan aytganda, "Mustaqil o'zbek davlati xalqimizning tarixiy yutug'idir. Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam mustaqillikni qo'lga kiritdi. XX asr 90-yillariga kelib, sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish, ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Evropada sobiq sotsialistik mamlakatlar o'z milliy mustaqilliklarini qo'lga kiritish boshladi. 1989 yil Islom Karimov davlat hokimiyatiga kelgach, mustaqillik sari bir qator qadamlar tashlashga muvaffaq bo'ldi. 1989 yil 21 oktyabrda «Davlat tili to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 1990 yilga kelib Sobiq SSSR boshqaruvi yanada murakkablashib bordi. 1990 yil 6 avgustda sobiq SSR Prezidenti M.Gorbachyov "YAngi ittifoq shartnomasini asos sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning Ittifoq dasturi Konsepsiyasini tayyorlash haqida» farmon chiqardi. 1990 yil sentyabrda Sobiq SSSR Oliy Kengashi 4-sessiyasida N.Rijkov "Boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida" ma'ruza qildi. Bunda S.SHhatalinnig "500 kun" Dasturi ham ko'rildi. Bu dastur RSFSR Oliy Soveti II sessiyasida 1990 yil 11 sentyabrda qabul qilinib ijobiy baholangan edi. Lekin har ikkala dastur ham qabul qilinmadi. Aksincha ikkovini qayta uyg'unlashtirilib qabul qilishga kelishib olindi. Demak, bu davrga kelib sobiq SSSRni boshqarish bo'yicha bir qancha guruhlar paydo bo'ldi. 1. Birinchi kuchlar. N.Rijkov va V.Pavlov dasturi tarafdorlari eskicha yashashga intilish kuchli edi. 2. S.Shatalin dasturi, bu yangilik sari edi. 3. M.Gorbachyov komandasi va 4-guruh bu Yanavevning hokimiyat tepasiga kelishi va 3 kun boshqaruvi bilan bog'liq edi.

1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Ammo, mustamlakachilik siyosatidan so'ng qolgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy meros bilan mustaqillikni mustahkamlash va uning istiqbol yo'lini aniqlash, aslida undan-da murakkab vazifa edi. Bunday vazifa mamlakatda demokratik huquqiy davlat qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, uning jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlash bo'yicha qat'iy va izchil siyosat yurgizishdan iborat bo'ldi.

Prezident I.A.Karimov «Biz yangi ozod jamiyat, huquqiy davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, adolat tamoyilini ustuvor prinsip sifatida e'tirof etamiz»⁴⁸, deb O'zbekistonda adolatparvar demokratik jamiyat qurishning nazariyasini milliy davlatchiligimizning uch ming yillik tarixi hamda madaniy merosi bilan bog'lashga qaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasida (1991 yil, 31 avgust) uchta tarixiy hujjatning qabul qilinishi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati.

1991 yilning 31 avgustida O'zbekiston tarixida yangi davr boshlandi. Mamlakat taqdirida muhim ahamiyat kasb etadigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 6-sessiyasi chaqirildi. Sessiyada respublika mustaqilligi to'g'risida Prezident Islom Karimov ma'ruza qildi. U O'zbekistonning mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qilishni taklif etdi. Demak, ana shu sessiyada 3 ta tarixiy hujjat qabul qilindi:

1. Oliy Kengash «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror qabul qildi.

2. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash bayonoti» qabul qilindi. Unda O'zbekistonning davlat mustaqilligi va ozod suveren davlat-O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi.

3. «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu tarixiy hujjatlarda 1 sentyabr- respublika mustaqilligi kuni umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Xalqning asriy orzulari mujassamlandi: u o'z taqdirini o'zi hal qiladigan bo'ldi. O'z eridagi barcha tabiiy boyliklarning, ota-onalari mehnati bilan yaratilgan butun ishlab chiqarish va ilmiy-texnik kuch-qudratning to'la huquqli egasiga aylandi. O'z buyuk tarixi va madaniyatining munosib vorisi, ajdodlarining ajoyib urf-odatlarini insonparvar an'alarining davomchisi, o'z porloq kelajagining mustaqil ijodkori bo'ldi. Demak, O'zbekistonning butun tarixi xalqning mustaqillik uchun doimiy va tinimsiz intilishidan guvohlik beradi. Milliy ozodlik harakatlari, XIX asr oxirlari va XX asrning 30-yillarigacha bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar buning yaqqol ko'rinishlari deyish mumkin. Ular qanday tarixiy saboqlar va bahonalar asosida kelib

⁴⁸ Каримов И.А. Адолат, Ватан ва халқ манфаати ҳар нарсадан улуг. -Т.: Ўзбекистон, 1998, 53-бет.

chiqqan bo‘lmasin, qanday shiorlar asosida o‘tkazilmasin, xalqning barcha harakatlari asosida mustaqillik va erkinlikka intilish mavjud edi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi butun xalqning va zamonlarning ob‘ektiv tarixiy qonuniyatlariga mos keladi. Evropada ham, Osiyoda ham buyuk imperiyalar juda katta kuch-qudratga ega edilar. Biroq ularning hammasi xalqning milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashlari natijasida quladi. XX asrda tezkor va keng qamrovli xususiyat kasb etdi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko‘pchilik xalqlari esa o‘z davlat mustaqilligiga, istiqbol va erkinlikka erishdilar. Shu ma’noda imperialistik davlat bo‘lgan SSSRning parchalanishi tarixiy taraqqiyotning muqarrar va qonuniy natijasi bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqilligining 27 yilligi nishonlanar ekan, bu mustaqillik zaminida xalqimizning asrlar davomida olib borgan qonli kurashlari ko‘z o‘ngimdan ketmaydi. Mustaqillik bizga nima berdi deyish mumkin, mustaqillik bizga erkinlik berdi, kimligimizni anglatdi. Prezident iborasi bilan aytganda «O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi».

Mustaqil davlatimiz g‘oyalarining nazariy va huquqiy asoslarini yaratish hamda uning shakllanishida – sobiq ittifoqda birinchi bo‘lib, 1990 yil 24 martda (12-chaqiriq Oliy Sovetning birinchi sessiyasi) O‘zbekistonda Prezidentlik institutini ta’ sis etish to‘g‘risidagi qarori bo‘lgan edi. Ma’lumki, o‘sha sessiyada I.A.Karimov O‘zbekiston SSRning Prezidenti etib saylangan edi. Mamlakatimizda Prezidentlik institutining ta’ sis etilishi nafaqat davlatchiligimiz milliy g‘oyasini, balki xalqimizning bosqichma-bosqich siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurashning o‘ziga xos yo‘nalishining boshlanishi ham edi.

Prezidentlik institutining tashkil etilishi uzoq yillar mobaynida Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va madaniy sohalarida to‘planib qolgan muammolarni hal etishning birdan-bir to‘g‘ri echimi edi.

Ma’lumki, dunyo davlatchiligi tarixiy rivojlanishida boshqaruvning asosan ikki shakli – monarxiya va respublika usullari mavjud. Respublika boshqaruvi o‘z navbatida parlamentar va prezidentlik respublikalari ko‘rinishlariga ega. Prezidentlik Respublikasi hozirgi kunda eng ko‘p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. 2000 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, BMTga a‘zo 192 davlatdan 146 tasida Prezident lavozimi mavjud⁴⁹.

Ularning aksariyat ko‘pchiligi prezidentlik respublikalari hamdir. Bular AQSH, Argentina, Braziliya, Meksika, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqalardir.

Davlatchilik g‘oyalarining nazariy asoslari va ularning shakllanishi jarayonlarini prezidentlik institutining ta’ sis etilishi haqida batafsil fikr yuritishimizning asosiy sababi – Prezidentlik hokimiyatining manbai xalq ekanligi to‘g‘risidagi tarixiy tajribaning O‘zbekistonga mos va zarurligi hamda davlat boshqaruvidagi eng samarali shakli ekanligining o‘z isbotini tapayotganligi bilan belgilanadi. Shu o‘rinda, «Prezidentlik Respublikasining parlamentar respublikadan asosiy farqi nimadan iborat?» degan tabiiy savol tug‘iladi. **Birinchidan**, Prezident xalq tomonidan muqobillik asosida saylanib, davlat boshlig‘i hisoblanadi. Hukumat Prezident tomonidan tuziladi va unga hisobot beradi. Parlamentar respublikada esa, parlament, ya’ni oliy vakillik qonun chiqaruvchi idora, prezidentni va hukumat tarkibini saylaydi va ularni o‘ziga itoat ettiradi.

Ikkinchidan, Prezidentlik hokimiyati siyosati demokratiyaning muhim umumjahon e’tirof etilgan tamoyili bo‘lgan xalqning xohish-irodasini amalga oshirishning kafolatidir. Prezidentlik boshqaruvi hokimiyati insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishni Konstitutsiyaviy qonunlar bilan kafolatlaydi.

Uchinchidan, Prezidentlik boshqaruvi barqarorlik, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta’minlash, qonunchilik hamda Konstitutsiyaviy tuzum barpo etishning asosi bo‘lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari faoliyatini mamlakat oliy maqsadlari yo‘lida muvofiqlashtiradi⁵⁰.

⁴⁹ Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат. Тошкент – 2000. 41-б.

To‘rtinchidan, Prezidentlik boshqaruvining asosiy tamoyili o‘zi boshqarayotgan davlatning dunyo davlatlari orasida teng huquqliligini, milliy manfaatlar ustuvorligi, respublika suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta‘minlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolatlangan Konstitutsiya normalari va qonunlarining to‘g‘ri va qat‘iy rioya etilishini ta‘minlaydi va boshqaradi.

Umuman, mamlakatimizda Prezidentlik institutining ta‘sis etilishi milliy davlatchiligimizni shakllantirishdagi qarashlarimizning ma‘no va mazmunini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Buning isbotini Prezidentimizning mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy etakchi bo‘lib qolayotganligini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda.

Davlatchilik g‘oyalarining nazariy asoslari va ularning shakllanishini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi (1990 yil 20 iyun) kunida qabul qilingan «Mustaqillik deklaratsiyasi»siz tasavvur etib bo‘lmaydi. Negaki, aynan ushbu Deklaratsiyasining birinchi moddasida: «O‘zbekiston SSRning davlat mustaqilligi O‘zbekiston SSR demokratik davlatining o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarini belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir» deb belgilab qo‘yilishi davlatchiligimiz g‘oyalarining huquqiy asoslarini tashkil etgan edi.

«Mustaqillik deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillikka erishish yo‘lidagi yana bir muhim tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan qadami edi. Aynan ushbu Deklaratsiya e‘lon qilinishidan boshlab, mamlakatimizning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalarni mustaqil tarzda hal qilishga kirishildi.

Davlatchilik g‘oyalarining nazariy va huquqiy asoslarini shakllantirishda O‘zbekiston Prezidentining 1991 yil 25 avgustdagi Farmoniga binoan⁵¹ Respublika Ichki Ishlar Vazirligi va Davlat Xavfsizligi Qo‘mitasining qonuniy ravishda O‘zbekiston tasarrufiga o‘tishi alohida o‘ringa ega bo‘ldi. Ushbu Farmonga binoan Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki Ishlar Vazirligining ichki qo‘shinlari ham bevosita O‘zbekiston Prezidentiga bo‘ysundirildi. Ayniqsa, Respublika Ichki Ishlar Vazirligi va Davlat xavfsizligi qo‘mitasi, prokuraturasi, Adliya organlari, ichki qo‘shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo‘shilmalari siyosiy partiyadan butunlay holi qilinganligi milliy davlatchiligimiz shakllanishidagi yangi bosqichning boshlanishi edi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. “Avesto”da adolatli jamiyat to‘g‘risidagi dastlabki qarashlarni bayon eting?
2. To‘maris, SHiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro kabi ozodlik kurashchilarining bosqinchilarga qarshi mardona kurashi haqida nimalarni bilasiz?
3. YUNESKO bilan hamkorlikda Amir Temurning 660, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yubileylari haqida hikoya qilib bering?
4. O‘tmishda milliy davlatchilik negizlaridan mahrum bo‘lishning sabablari nimalarda edi?
5. Markazlashgan ma‘muriy boshqaruv va totalitar tuzumning salbiy oqibatlari haqida gapirib bering?
6. O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi qachon joriy qilindi?

⁵¹ Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги тўғрисидаги ҳужжатлар. Т., 1991. 5-б.

O'QUV – VIZUAL MATERIALLAR

2-MAVZU: DEMOKRATIK JAMIYAT TO'G'RISIDAGI DASTLABKI QARASHLAR VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

“Avesto”



Davlatchilik asoslarini shakllantirish borasida “Avesto” deyarli barcha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, davlat tuzumi asoslari, zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan. Manbada avvalo, inson erki, uning ruhiy komilligi masalalari ustuvor qo'yiladi. Masalan; “Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman” deyiladi YAsna (14) kitobida. Axuramazda, insonlar o'rtasida bo'layotgan munosabatlar o'zaro samimiylilik, hurmat beg'arazlik, yordam va oqibatli bo'lish zarurligiga, yomon fikrlardan holi bo'lishga chaqiradi. Kattaga hurmat va kichikka izzat, sabr-bardosh, halollik, mehr-oqibat va boshqa bir qator tamoyillar borki, bular milliy g'oyamizning asosiy tamoyillariga uyg'un keladi.

25.08.2016

3

Prezident I.A.Karimov tarixchi olim va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvda



“Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan”^[1] degan edi




^[1] Karimov I.A. Asarlar tўplami 7 jild. -T.: Ўзбекистон, 1999, 132-бет.

25.08.2016

2

ABU NASR FOROBIY (873-950)



Shu davrning yirik namoyondalardan biri Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy - davlatga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishini, unda adolat va axloqning shakllanishi qonuniyatlarini nazariy tamoyillarini yaratganligi bilan mashhurdir. U - «Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi»

25.08.2016

6

Amir Temur va Temuriylar davri milliy davlatchilik to'g'risidagi qarashlarida demokratik tamoyillar

Amir Temur – XU asrda buyuk temuriylar davlatiga asos soldi. U davlat boshqaruvida o'zidan oldingi o'tgan hukmdorlardan farq qilib, davlat va mamlakatni boshqarish xususida "**Temur tuzuklari**"ni yaratdi. Bu davlatni idora qilish me'yorlari, qoidalaridan iborat bo'lgan mazkur kodeks, tuzuk 2 qismdan iborat.

1. Sohibqiron Temurning 7 yoshidan (1342) to uning so'nggi kunigacha bo'lgan hayoti, siyosiy faoliyati tasvirlangan. Bu qismda Amir Temurning Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga kiritishi va undan keyin mashhur yurishlari asosida To'xtamishxon (1376–1395), Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389–1402) kabi jahongir shohlarni mag'lubiyatga uchratgani, 1,5 mln.kv.km. territoriyada Temuriylar Imperiyasiga asos solgani hikoya qilinadi.

2. Ikkinchi qism esa Jahongir Sohibqiron Temur nomidan shohzodalarga qarata aytilgan vasiyatlar, pand-nasihatlardir. Unda davlatni idora qilish san'atining nozik sirlari, qoidalari haqida, amir, vazirlar va beklarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, qo'shin boshliqlari, ularning xizmatlarini taqdirlash, sipohlar va ularning maoshlari kabi masalalar haqida vasiyat qiladi.



25.08.2016

Jadidlar qarashlarida ma'rifiy-demokratik tamoyillar

Jadidchilar asosiy e'tiborini jamiyatda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratadilar.

O'z davrida jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini ulkan rivojlantirishning amaliy dasturlarni, Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish vakolatlari, barcha sohalar bo'yicha qonunlarni joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalariga katta e'tibor bergan. Ammo, shu davr siyosiy sharoiti hamda erli xalqning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi qarashlari bir muncha cheklanganligini ko'ramiz. Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi" dasturida to'la mustaqil demokratik jamiyat to'g'risida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutiladi.

25.08.2016

14

XX asr ikkinchi yarmida davlat va jamiyat qurishning "sovetcha" ko'rinishi hamda milliy mustaqillik va O'zbekistonning demokratik o'zgarishlar sari yo'l tutishi

- O'zbek ziyolilarining mustaqillik uchun olib borgan kurashi XX asr 30-40-yillarda so'ngra 50-60-yillarda ham turli siyosiy ko'rinishlarda davom etib boradi.
- XX asrning 80-yillariga kelib, kommunistik mafkura zug'umi ostida qatog'onlik siyosati yangi pallaga kiradi. Markaz xodimlari tomonidan uyushtirilgan "o'zbeklar ishi", "paxta ishi" bilan 11 mingdan ortiq o'zbekistonlik rahbarlar va oddiy fuqarolar ta'qib ostiga olindi, jazolandi.
- Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ziddiyatlashuvi va hodisalarning keskinlashuvi "qayta-qurish" yillarida ham o'z ta'sir ko'lamini kengaytirib keldi. Natijada respublikada jamiyat yaxlitligini parchalaydigan hamda vujudga kelgan egasizlik holati fuqarolar o'rtasida parokandalik muhitini yuzaga keltirdi, millatlararo ziddiyatlar, ba'zan to'qnashuvlar, ayniqsa, davlat boshqaruvida qonunsizlik, boshbodoqlik holatlari vujudga keldi.
- Mana shunday qaltis vaziyatda, 1989 yil 23 iyunda Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekistonning birinchi rahbari sifatida o'z faoliyatini boshladi.

25.08.2016

15

Mustaqillik sari qo'yilgan qadamlar quyidagilardan iborat



1989 yil 21 oktyabrda "O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilindi. Bu qonun 30 moddadan iborat edi. 1-moddada "Davlat tili – o'zbek tilidir" deyildi.

1990 yil 24 martda O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimi joriy qilindi

Ushbu "Mustaqillik deklaratsiyasi" O'zbekiston Oliy Sovetining 2-sessiyasida 1990 yil 20 iyunda qabul qilindi. "Mustaqillik Deklaratsiyasi" 13 bo'limchalardan iborat bo'lib, u O'zbekistonning mustaqillik sari qo'ygan qadamlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1991 yil 15 fevralda Oliy Kengash "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi.

1991 yil 22 iyulida Oliy Kengash "O'zbekiston hududidagi joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, musassasalari va tashkilotlarini O'zSSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qildi.

25.06

16

3-MAVZU: MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING "O'ZBEK MODELII"

Reja:

1. Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari
2. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari
3. "O'zbek modeli" uning asosiy tamoyillari va jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot sohalarida namoyon bo'lishi.
4. "O'zbek modeli" va mamlakatimiz taraqqiyoti strategiyasi

Tayanch so'z va iboralar: *Taraqqiyot modellari, global modellar, mintaqaviy modellar, milliy modellar, tadrijiy yo'l, taraqqiyotning O'zbek modeli, demokratiya, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati va taraqqiyotning O'zbek modeli, besh tamoyil, islohotlarning konseptual asoslari*

Demokratik jamiyat va uni qurishning turli xil milliy modellari.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng kelajakda qanday yo'ldan borishi masalasi kun tartibiga qo'yilgan eng dolzarb masalalardan biri bo'ldi. Uning dolzarb bo'lib qolishining bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablari va omillari ham mavjud edi. Uning **ob'yektiv sabablaridan biri** jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha davlatlarga mos keladigan biron bir tayyor andozasining yo'qligi va bo'lishi ham mumkin emasligi edi. **Ikkinchi ob'yektiv sababi** – ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va qoidalar endilikda respublikada barpo etilayotgan yangi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat manfaatlariga mos kelmasligi edi. Mulkchilik, mulkka egalik va uni boshqarish, ishlab chiqarishdagi inson omilining ortishini hisobga olgan holda davlatni boshqarishning butunlay yangi shaklini vujudga keltirish zarur edi. Demak, **birinchidan**, har bir davlat demokratik taraqqiyot yo'liga kirishi uchun ma'lum bir muddat talab qilinadi edi. **Ikkinchidan**, vaqtni qo'ldan boy bermasdan rivojlanishning tarixiy jihatdan asrlar mobaynida

shakllangan an'analari asosida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishni bir daqiqa ham kechiktirib bo'lmas, yangi konsepsiya ishlab chiqish zarur edi.

Mamlakat Prezidenti O'zbekiston fuqarolari uchun tabiiy haq-huquq va shuningdek oliy ne'mat bo'lgan mustaqillik to'g'risida so'z yuritar ekan, uni jamiyat rivojining asosi, bugungi va uzoq istiqboldagi taraqqiyotimiz sharti, barcha islohotlarimizning mezoni va nihoyat, barcha amal qiladigan bosh tamoyil deb ta'rifladi. SHunday ekan, u jamiyat a'zolari oldiga muttasil yangi-yangi vazifalarni qo'yadi va uning bajarilishini talab qiladi. Zero, taraqqiyotning har bir bosqichi, turli-tuman muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi tadbirlardan iboratdir.

Xalqaro hamjamiyat katta va kichik millatlar, davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mustaqillikning ilk asnolarida vujudga kelgan muammolar echimida sustkashlikka yo'l qo'yish og'ir ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin. Zotan, har qanday echilmagan muammo yana boshqa qator xavf-xatarlarni keltirib chiqarib, davlat taraqqiyotining ancha murakkablashishiga olib keladi. Demak, mamlakat taqdiri uchun mas'ullikni o'z zimmasiga olgan hokimiyat tuzilmasi bu borada bir nafas ham beg'amlikka yo'l qo'ya olmaydi, doimo uyg'oq va harakatda bo'ladi. Darhaqiqat, mustaqillik bir tomondan milliy taraqqiyot yo'lini erkin tanlashda ulkan mas'uliyat yuklasa, ikkinchi tomondan eskilikka barham berish va yangi jamiyatga asos yaratish uchun beqiyos imkoniyat yaratadi. SHu nuqtai nazardan, mustaqillikni demokratiya uchun eng zarur shart-sharoit deb hisoblasak bo'ladi.

O'tmish, bugun va kelajak bir-biriga tutashgan bunday tarixiy paytlarda mustaqillik davrini kechirayotgan har bir davlat bir tomondan, demokratiya borasida jahon xalqlari orttirgan boy tajriba hamda undan millat manfaatlarini yo'lida foydalanishni, ikkinchi tomondan esa, uni o'ziga xos noyob bir sharoitda joriy etish bilan bog'liq muammoga duch kelganligini tarixiy tajribalar ko'plab mamlakatlar misolida tasdiqlagan.

I.A.Karimov O'zbekistonning rahbari sifatida asosan **ikki** narsani mushtarak holda olib bordi. Ulardan **biri** mamlakatimizning o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish va ularning bizga maqbul jihatlarni ijobiy jihatdan o'zlashtirish bo'lsa, **ikkinchisi** - O'zbekiston xalqining turmush tarzi, mentaliteti va an'analariga tayanishdan iborat bo'ldi. Unga Islom Karimov tomonidan taklif qilingan besh asosiy tamoyil asos qilib olindi.

XX asr 50-yillardan keyingi yillarda ko'pchilik sobiq mustamlaka mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishib, milliy davlat qurish yo'lga o'ta boshladilar. Bu vaqtda asosiy 3 taraqqiyot yo'li: **1) kapitalistik; 2) sosialistik; 3) milliy ozodlikka erishgan** davlatlarning aralash yo'nalishi haqidagi qarashlar bor edi. XX asr oxirlariga kelib biron-bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini qat'iy qabul qilingan qoidalar doirasi bilan cheklab turish mumkin emasligi, taraqqiyot yo'llari (modellari) ancha keng ko'lam va maqsadga egaligi, ulardan birini tanlashda har bir mamlakat o'z ichki sharoitlaridan kelib chiqmog'i zarurligi ma'lum bo'ldi.

Taraqqiyot "modeli"ga yondashuv ko'rinishlari:

- Sivilizatsion yondashuv (madaniyat va rivojlanishning xilma xilligi);
- Farmatsion yondashuv - dunyoda jamiyat va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning har qanday mamlakat uchun bir xilda maqbul bo'lgan hammabop yo'llari yo'qligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Zero, birxillik, yoki yagona andoza degan tushunchalar bugungi kunda o'z ahamiyatini yuqotib bormoqda. Bunday yondashuv demokratiyani, demokratik jamiyat qurilishi qonuniyatlarini «farmatsion» qarashdan farkli holatda yangicha tamoyillar asosida tahlil etishga nazariy metodologik asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy taraqqiyot fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi hamda umuminsoniy demokratik prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

O'zbekistonning demokratik jamiyatni barpo etishda Birinchi Prezidentimiz **I.A.Karimov** ta'kidlaganidek, "Davlat va jamiyatni isloh etish hamda modernizatsiya qilishda o'zbek modelining muhim tarkibiy qismi bo'lgan bosqichma-bosqichlik tamoyiliga bundan buyon ham qat'iy amal

qilinishi ta'minlanadi⁵². «O'zbek modeli» tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishiga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi (davlat siyosati deganda hokimiyatning har uchala bo'g'ini faoliyati nazarda tutilmoqda).

Iqtisodiyot nazariyasida ayrim olimlar iqtisodiy taraqqiyot modelini davlat tuzumi desa, boshqalar ijtimoiy-iqtisodiy formasiya, uchinchilari esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning aniq belgilangan yo'li, deb hisoblaydi. Iqtisodiy taraqqiyot modeli, N.To'xliiev va boshqa bir guruh olimlarning fikriga ko'ra, iqtisodiy munosabatlarning keng miqyosli tizimi bo'lib, u huquqiy, ma'muriy hamda xo'jalik mexanizmlari orqali boshqariladi⁵³. Bunday munosabatlarning sub'ekti mulk egalari, xo'jalik faoliyati ishtirokchilari, uyushmalar, davlat va xususiy sektor, mamlakat doirasidagi mintaqa va tarmoqlar hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot modeliga axloq va dunyoqarash, mentalitet, turmush tarzi, madaniyat kabi ijtimoiy me'yorlar ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi.

Taraqqiyot modellarining o'zigsha xos yo'nalishlari va xususiyatlari:

“O'zbek modeli” - O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish;

“Amerika modeli” - “Erkin bozor munosabatlari”

“Fransiya modeli” – “davlatning roli kuchli”

“Nemis va shved modili” – “ijtimoiy yo'nalish ustuvor”

Lotin Amerikasi va Afrika modeli – “Iqtisodni barqarorlashtirish”

Sharqiy Evropa modeli – Iqtisodiyotda “SHok trapeya” usulidan foydalaniladi;

«Yaponiya modeli» iqtisodiy munosabatlarda davlatning etakchi o'rni bilan belgilanadi;

Janubi-Sharqiy Osiyo (Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong) – “ijtimoiy soha va eksportni rag'batlantirish”

Iqtisodiy taraqqiyot modeli global va milliy xarakterda bo'ladi. Hozirgi vaqtda taraqqiyotning bir qator tipik global quyidagi modellari mavjud:

1. Osiyo taraqqiyoti modeli – jamoaning kuchli pozitsiyasi va diniy omilga asoslangan bo'lib, bu modelda undiruvchi sanoat va qishloq xo'jaligi asosiy o'rinda turadi. “Osiyo arslonlari” deb e'tirof etilgan: Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Malayziya kabi mamlakatlar rivojlandi.

Mustaqillikdan meros qolgan qaloq, an'anaviy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish. Bu model milliy mustaqillik sharoitida amalga oshadi. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos belgilar xo'jalik turlarining transformatsiyasi orqali yuz beradi.

1) Azaliy natura xo'jalik bozor doirasiga tortilib, tovar xo'jaligiga aylanadi va undan bozor iqtisodiyoti belgilari o'sib chiqadi.

2) Kam rivojlangan, lekin real mavjud milliy kapitalistik xo'jalik bozor iqtisodiyoti tomon yuz tutadi.

3) Xorijiy kapital yaratgan xo'jalik, ishlab chiqarishning xorijiy sektori zaminida bozor iqtisodiyoti unsurlari rivoj topadi.

Osiyo modelining muhim belgisi shundaki, unga bozor munosabatlari rivojiga xos bosqichlarning hammasidan o'tilmaydi, hatto ayrimlari chetlab ham o'tiladi. Masalan, qaloq natura xo'jalik to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyotiga xos yirik fermer xo'jaligiga aylanadi.

“Yangi Yapon” yigit-qizlari bilak kuchiga va aqliga tayanadilar. CHetdan texnika, asbob-uskuna, kapital olib kelinadi. Ishchi kuchini “ajdoha”lar beradi. AQSH texnologiyasidan nusxa ko'chirgan Janubiy Koreya ham tez rivojlandiki, bunda 1) ishchilarni bepul qayta o'qitish; 2) sanoat tarmoqlarini rivojlantirish; 3) subsidiya va past foizli kreditlar berish; 4) “Eksport” – iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi” aqidasi hukmron; 5) mamlakatda bilimdon va intizomli ishchi kuchlarining etarlicligi.

⁵² Каримов И.А. Бизнес бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир. – Т: Ўзбекистон, 2005, 34-бет

⁵³Тўхлиев Н., Ҳақбердиев Қ., Эрмаматов Ш., Холматов Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 121–122-б.

2. Yevropa (cha) modelida – iqtisodiy taraqqiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, xususiylashuvning yuqori darajada rivojlanganligi, biznesni qo'llab-quvvatlash va soliq undirishning sharoitiga moslashuvchan tizimi, jamiyatning texnokratik yo'nalishi, YAIMda xizmat ko'rsatish sohasining yuqori hisssasi ko'zga tashlanadi.

Evropacha modelda evolyusion yo'l orqali oddiy tovar xo'jaligidan klassik kapitalizm tomon va undan bozor iqtisodiyoti tomon boriladi. Bunda oddiy pul-tovar munosabatlarining kapitalistik shaklga ko'chishi, uning bozor iqtisodiyotiga aylana borishi orqali yuz beradi. Bu modelda bozor iqtisodiyotining yovvoyi ko'rinishlari ham kuzatiladi: o'ta tarqoqlik, tartibsizlik, o'zbiarmonchilik, shafqatsiz ekspluatasiya, ommaning qashshoqlashuvi, g'irrom raqobat, g'ayri insoniy xatti-harakatlarga moyillik. Bu jarayon XIX asr oxirigacha hukmron bo'ldi. XX asr 30-yillaridan bozor iqtisodiyotiga o'tildi, 50-yillarda shiddatli tus oldi.

3. Lotin Amerikasi modeli – hom ashyo tamoyiliga qurilib, undiruvchi sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi, mehnat resurslarining ortiqchaligi, xufyona narkokapitalning yuqori hisssasi, eksportning past, tovar va xizmatlar importining esa yuqori darajasi iqtisodiyotda mayda tovar ishlab chiqarishning sezilarli darajasi bilan tavsiflanadi.

4. Osiyo – Tinch okeani modeli (XX asr 70–80-yillarda shakllangan)ning tipik xususiyati – yuqori texnologiyaga egaligi, tabiat va inson resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish ilmiy bazasining rivojlanganligidir.

5. Afrika iqtisodiy taraqqiyot modeli – tipik xom ashyo yo'nalishi, iqtisodiyotda past unumdorlik darajasi, mehnat resurslarining ortiqchaligi, aholi turmushining past darajasi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, urug'chilik, qabilalar o'rtasidagi urushlar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik bilan xarakterlanadi.

6. Postsovet iqtisodiy taraqqiyot modeli – asosan MDH mamlakatlariga xos bo'lib, ularni ishlab chiqarish texnologiyasining umumiy xususiyati, yagona andozalar, iqtisodiyotni isloh qilishning umumiy vazifalari birlashtiradi. Sobiq Ittifoq respublikalarining 70 yildan ortiq birga bo'lishi iqtisodiy munosabatlarining yaqinlashuviga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. XX asr 90-yillari boshida va o'rtalariga kelib ham mamlakatlar tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko'prog'i MDHga to'g'ri kelar edi. Ammo, keyinchalik bu tendensiya milliy taraqqiyot modellari etakchi o'rinni egallay olmadi. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida sanoati rivojlangan mamlakatlar birinchi darajasiga ko'tarildi.

Taraqqiyotning global modellaridan tashqari dunyodagi AQSH, Angliya, YAponiya, Germaniya kabi ayrim rivojlangan va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda quyidagi modellar ham ko'zga tashlanadi.

1. "Amerika modeli"da bozor munosabati nihoyatda liberalligi bilan xarakterlanadi. Davlatchilik asoslari va demokratik tamoyillar muqaddasligi, o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. «AQSH millatlar hamjamiyati» g'oyasida birlashgan davlatdir.

2. "Yapon modeli"da iqtisodiy munosabatlarda **davlat yetakchi** o'rinni egallaydi. 2-jahon urushida 8 mln.dan ziyod odam halok bo'lgan va jarohatlangan, 90 dan ortiq shahar, 80 dan ortiq sanoat korxonalari vayron bo'lgan. Davlat siyosiy madaniyatga e'tibor qaratdi. Iqtisodiyot xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasi, ruhiyati va mentaliteti bilan yo'g'rildi. Amerika ko'magiga tayandi. Fuqaro mehnatsevarlik, intizomlilik, jamoaviylik yapon milliy xarakteri rivojlantirildi. "Bor imkoniyatlaringni ishga sol!" g'oyasiga amal qilindi. "Ahloq tarbiya" tizimiga asoslangan: 1) xarakterni shakllantirish; 2) "davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat"; 3) "fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash"ga yo'naltirildi.

3. "Shved modeli"da iqtisodiyot ijtimoiy sohaga yo'naltirilganligidir....

4. Erxard (nemis) modelida XX asr 1949-50 yillarda 2 ta islohot o'tkazilgan: 1) Pul (marka) islohati, bir kechada marka singan, kuygan, faqat banklarda ko'p miqdorda markasi borlarning 40 markasigina qoldirilgan. 2) Narx-navo islohotiga ko'ra "ochiq eshiklar" siyosati olib borilib, do'konlardagi narx-navo oshib ketgan. Chet el korxonalari bilan birga qo'shma korxonalar barpo etilib, xorijiy sarmoyalar iqtisodiyotga jalb qilingan. O'tish davrida AQShning "Marshal shartnomasi"ga tayanib, G'arb davlatlariga ajratilgan 50 milliard dollardan qisman foydalanilgan. Erxard modeli o'zida AQSH, Angliya, Shvedsiya kabi rivojlangan mamlakatlar taraqqiyot

modellarining ijobiy tomonlarini o'zida umumlashtirgan. Chetga sanoat, nooziq ovqat mahsulotlarini eksport qilish 1950–1992 yillar davrida 27 foizdan 92 foizgacha chiqarilgan. Shu davrda oziq-ovqat mahsulotlari aholi ehtiyojiga sarflanib, 75–80 foizdan 27 foizgacha kamaytirilgan. Bugungi kunda Germaniya aholisi 85 mln.ga yaqin. 1990 yilda Sharqiy Germaniya (GDR) unga qo'shildi, ikkita GFR va GDR o'rtasidagi devor olib tashlandi. 1992 yilga kelib, Germaniya Potstam konferensiyasi (1945) shartlarini bajarib, sobiq SSSR va AQSHga katta miqdorda tovon to'ladi. 1994–95 yillarda 3 mingga yaqin yaxudiyarning har biriga ham 3,5 ming markadan tovon puli to'ladi.

5. Turk modeli aynan Erxard modelining andozasi bo'lib, nemislardan o'zlashtirilgan. Faqat bunda Turkiya mamlakatda engil sanoat rivojlanishiga keng e'tibor berilgan. Pul va narx-navo islohotlari olib borilgan. Bugungi kunda Turkiya o'rta rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi.

6. "Xitoy modeli"da Xitoy islohotlarining "otasi" Den-Syaopin rahbarligida "Uch qadam" strategiyasi, bozor iqtisodiyotining milliy konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bunga ko'ra:

1) Birinchi bosqich. 1982–1989-yillarda asosiy iqtisodiy ko'rsatkich, mamlakatning YAIM 2 marta o'stirish ko'zlandi.

2) Ikkinchi bosqich. 1990–1999 yillarda amalga oshirilib, 4 marta ko'paytirish belgilandi.

3) Uchinchi bosqich. 2000–2050 yillargacha belgilanib, aholi jon boshiga YAIM 4 ming dollarga etkazish ko'zda tutildi.

Den Syapin siyosat sohasida oqilona yo'l tutdi. U "moddiy inqilob" oqibatlarini tugatdi. U Xitoy Kompartiyasi dusturidan "3-jahon urushining muqarrarligi va zarurligi" qoidasini olib tashladi. Yadro qurolini birinchi bo'lib ishlatmaslik majmuriyatini oldi. U "Bir davlat va ikki siyosiy tuzum" dasturining asoschisi. Bir vaqtlar inglizlar bosib olgan Gonkongning Xitoyga qayta qo'shilishi muammosini echib ketdi. 1997 yil 1 iyulida qo'shildi. Gonkong Buyuk Britaniyaning Osiyodagi mustamlakasi edi.

Xitoy davlati bozor iqtisodiyoti milliy konsepsiyasiga ko'ra: 1) mamlakat iqtisodiyotining liberallasuvi; 2) xususiylashtirish jarayoni; 3) turli mulk shakllarining paydo bo'lishi; 4) xorijiy sarmoyalarning kirib kelishi yo'lga qo'yildi. Den Syapon: «mamlakat iqtisodiyotini isloh etishdan ko'zlangan maqsad – socialistik bozor iqtisodiyoti tizimini shakllantirishdir» degan edi⁵⁴. Xitoy aholisi 1 300 mln. kishi.

7. "Janubiy Koreya modeli" 4 bosqichdan iborat bo'ldi.

1) 1946–1961 yillarda Amerika tusidagi davlatchilik shakllantirildi. AQSH harbiy kuchlari ushlab turilishi bu vazifani ancha engillashtirdi.

2) 1962–1975 yillarda Koreys iqtisodiy mo'jizasining otasi deb tan olingan Prezident Pak CHjon Xi nomi bilan bog'liq. Islohotning asosiy yo'nalishi chora va ehtiyojlarni qoplashga qaratilgan iqtisodiyotga emas, balki mahsulotni taklif qiladigan iqtisodiyotga qaratildi. Eksport oshdi....

3) 1976–1981 yillarda iqtisodiyot eksportga yo'naltirildi. Keyinchalik og'ir sanoat rivojlantirildi. 1980 yillarda sanoat ishlab chiqarishida kichik va o'rta biznes 20%dan oshmadi.

4) 1982–1991 yillarda iqtisodiyotni erkin qo'yish, uning ochiqligi ta'minlandi. Imtiyozli kreditlar berish bekor qilindi. Davlat faqat uzoq muddatga kredit berishni kafolatladi.

8. "O'zbek modeli" – qisman Erxard (nemis) modeliga o'xshab ketadi. Nemislarga o'xshab, mamlakatimizda 2 ta islohot o'tkazildi. 1) 1993–94 yillarda pul islohoti (kupon) joriy qilinib, milliy sum muomalaga kiritildi; 2) Narx-navo islohati 1991–2001 yillar va undan keyingi hozirgi davrgacha davom etmoqda.

Aslida XX asr 90-yillari boshida O'zbekiston oldida bir qator strategik rivojlanish yo'llari paydo bo'lgan edi. Ularni 4 yo'nalishga bo'lish mumkin: 1) xom ashyo; 2) agrar; 3) industrial; 4) xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha guruhlash joizdir.

1. Xom ashyo yo'lini tanlash tabiiy boylklarning yanada talon-taroj qilinishi, aholini ish bilan ta'minlash muammosi, sanoatning undiruvchi tarmoqlariga zo'r berishga olib keldi. Sobiq Ittifoq ixtisoslashuvi bu yo'nalishni keltirib chiqargan edi.

⁵⁴Умаров Б. Глобализация в странах Азии. – Т.: "Маънавият", 2006. – 52–58-б.

2. Agrar iqtisodiy taraqqiyot modeli agrarsanoat majmui (ASM) tarmoqlarini rivojlantirishni taqozo qilib, aholining asosiy qismini qishloq xo'jaligi bilan band qilishga olib kelardi.

3. Industrial iqtisodiy taraqqiyot modelining samaradorligi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi bilan tasdiqlandi.

4. Taraqqiyotning xizmat ko'rsatish yo'nalishi ham O'zbekistonga qo'l kelishi mumkin edi. Bu yo'ldan borayotgan Evropa mamlakatlaridan YAIMning 67–70% shu sohada yaratiladi. Ba'zi mamlakatlarda bu YAIMning 25% ni hosil qiladi.

O'zbekiston yuqorida sanalgan global va milliy modellarning biron-tasidan voz kechmadi, ulardan foydalandi.

“O'zbek modeli” uning asosiy tamoyillari va jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot sohalarida namoyon bo'lishi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, taraqqiyotning beqiyos katta imkoniyatlari ochildi. Milliy mustaqillik tufayli xalqimiz siyosiy mutelik, qaramlik asoratidan qutildi. Davlat suvereniteti natijasida jamiyatimizni isloh etish va zamonaviy siyosiy taraqqiyot jarayonlarini amalga oshirish uchun mustahkam zamin va siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hamda huquqiy asoslarni bosqichma-bosqich barpo qilish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. O'zbekiston istiqloq tufayli o'z taraqqiyotining tamomila yangi bo'lgan tarixiy davriga qadam qo'ydi. Mana shu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, endilikda xalqimiz o'zining tub manfaatlarini va ehtiyojlaridan kelib chiqib, rivojlanish strategiyasini belgilab olish va uni mustaqil amalga oshirishdek tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan shart-sharoitlarga erishdi.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, —Biz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, o'z umrini o'tab bo'lgan eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga azmu qaror qildik.

Bu modelning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan islohotlarning besh tamoyilida ta'riflab berildi. Mamlakatimiz aholisi o'z davlat mustaqilligining yigirma to'rt yilligini butun jahon jamoatchiligi bilan tantanali ravishda nishonlayotgan bugungi kunda, to'la ishonch bilan aytish mumkinki, bu yo'l tajriba sinovidan o'tdi. Tarixan qisqa, ammo zafarli natijalarga boy bo'lgan taraqqiyotimiz, tanlangan modelning to'g'riligini isbotladi.

Ma'lumki, taraqqiyotning —o'zbek modelining mohiyati asosiy g'oyalari eng dastlab Davlatimiz birinchi rahbarining — “O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li” nomli fundamental asarida ko'rsatib o'tilgan edi. Keyinchalik mazkur taraqqiyot modeli haqidagi g'oyalar Prezidentimizning boshqa asarlarida yanada rivojlantirildi va takomillashtirib kelinmoqda. Xususan, I.Karimovning —O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li, —O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida nomli asarlarida taraqqiyotning —o'zbek modelining asosiy mazmunini, o'zagini belgilab beruvchi tamoyillar yanada chuqurroq asoslab berildi.

Jumladan, I.A.Karimov ta'kidlaganidek, —Beshta asosiy qoida O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zigidir. Ularning mohiyati quyidagicha: bir tomondan milliylik, ikkinchi tomondan umuminsoniylik yo'nalishlari uyg'unlashdi yoki ularning dialektik mutanosibli o'z aksini topdi. “Birinchi tamoyilimizda, - deb yozgan edi I.A.Karimov, - avval-iqtisod, keyin siyosat degan shiorni olg'a surdik”². Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi nazarda tutiladi. Iqtisodiy islohotlar siyosatdan ortda qolmasligi zarur.

Ikkinchi tamoyil - bu davlatning bosh islohotchi ekanligi. Yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va ularni izchillik bilan amalga oshirishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Uchinchi tamoyil, o'z navbatida jamiyat hayotida, barcha sohalarida qonunning ustuvorligi ta'minlanadi. Aynan O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi ham umuminsoniy va milliy tamoyillarning mujassamlashgan yorqin namunasi hisoblanadi.

² Каримов И.А. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: «Ўзбекистон» 2001, 36-38 бет., 177 бет.

To'rtinchi tamoyil, bu aholining demografik vaziyati, ayniqsa, uning 60 foizidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etganligi, kam ta'minlangan oilalarni, bolalarni, nafaqaho'rlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat olib boriladi.

Beshinchi tamoyil - bu halqimiz an'analari, urf-odatları hamda bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonun-qoidalarini hisobga olgan holda unga «shok terapiyasi» asosida emas, balki evolyusion tadrijiy asosda, puhta o'ylab bosqichma-bosqich o'tish nazarda tutiladi.³

O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning uchta bosqichini bosib o'tdi. Ularning **birinchisi**, Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi - birinchi chaqiriq VI sessiyasida (1996 yil 29 avgust) «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari»; **ikkinchisi**, Birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999 yil, 14 aprel) va nihoyat, **uchinchisi**, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002 yil 29 avgust) qilgan ma'ruzalarida ko'rsatib berildi.

Albatta, ana shu bosqichlar biri ikkinchisidan keskin farq qilmasada, ulardagi asosiy g'oya demokratik jarayonlarning olg'a tomon rivojlanishini va ma'lum bir vaqtga kelganda bu jarayonga yangi kuch, qudrat hamda faollik baxsh etishdir. Chunki jarayonlar izchillik bilan tahlil etilmasa, undagi asosiy muammo aniqlanmasa va istiqboldagi vazifalar belgilanmasa, rivojlanish ham bo'lmaydi. Shu ma'noda ham Prezident demokratik jamiyat qurish borasidagi vazifalarni «**chuqurlashtirish**» (1996 yil) «**erkinlashtirish**» (1999 yil) va «**demokratik o'zgarishlar orqali fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish**» (2002 yil) kabi konseptual g'oyalarida belgilab bergan.

Ammo bu - o'tish davrining mustaqil ravishda bir necha bosqichlardan iborat ekan, - degan xulosa kelib chiqishiga asos bo'lmasligi kerak. Chunki o'tish davrining o'zi mamlakatning turli tuzumlardan demokratiyaga o'tishdagi mustaqil «oralig'i», «ko'prigi» hisoblanadi. YUqorida ko'rsatilgan bosqichlar o'tish davrining uzluksizligini ifodalaydigan ko'rsatgichdir.

O'zbek modeli tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoshakligan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi.

Biz qanday jamiyat barpo etmoqlamiz, degan masala Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1997), «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002), «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir» (2005) kabi asarlarida ayniqsa o'zining tugal va mukammal ifodasini topdi. Unda qurilajak yangi jamiyatning ilmiy-falsafiy konsepsiyasi, jamiyat hayotini tubdan isloh etishning navbatdagi strategik vazifalari asoslab berilgan. Ana shu masalalarni bajarish milliy istiqbol g'oyasining pirovard maqsadlarini belgilaydi va bu maqsadlarga etishga xizmat qiladi.

Bizning bosh strategik maqsadimiz - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, ko'pmulkchilikka va ular o'rtasidagi raqobatga tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo'lib, bu huquq davlat tomonidan kafolatlanadi.

«O'zbek modeli»ni bugungi kunda demokratik jamiyat barpo etish muhim o'ziga xos modeli ekanini dunyoning juda ko'plab siyosatshunos etakchi olimlari o'rganmoqda va uni tahlil qilmoqdalar⁵⁵. Masalan, rossiyalik tadqiqotchilar M.S.Gafarli, A.G.Kasaev, germaniyalik L.Levitin, Rossiya Fanlar Akademiyasining akademigi F.Burlaskiy uni yuksak baholashgan.

Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2 Т., -Т.: «Ўзбекистон», 1996, 177-180 бетлар.

⁵⁵ Қаранг: Гафарли М.С., Касаев А.Г.. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси. Т.: Ўзбекистон, 2001. —430 б. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Т.: Ўзбекистон, 2000. 368-б.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekiston uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratish edi. Mazkur masalaga mustaqillikka erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan va ular bu masalani turlicha hal etishgan. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy taraqqiyotning «Shved modeli», «Amerika modeli», «Yapon modeli» kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Mazkur tushunchalar zaminida muayyan mintaqa yoki mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni qaysi yo'l bilan, qay yo'sinda amalga oshirilishi bilan bir-biridan farqlanadi. Taraqqiyotning —o'zbek modelil zaminida mamlakatimizda keng qamrovli siyosiy islohotlar amalga oshirildi. Bunda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratildi: Birinchidan, siyosiy islohotlarni amalga oshirishda milliy davlatchilik asoslari bosqichma-bosqich ravishda barpo qilina boshlandi.

Ikkinchidan, bu jarayonda jamiyatimiz demokratik taraqqiyoti manfaatlariga to'liq mos keluvchi siyosiy institutlarni shakllantirish, uning huquqiy asoslarini yaratish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi.

Uchinchidan, avvalgi totalitar tuzumga xizmat qilgan va umrini tugatib bo'lgan davlat tuzilmalaridan to'liq voz kechildi.

1-Prezidentimiz ta'kidlaganidek, —Shu bois quyidagilar eng asosiy vazifamiz bo'lib qoldi:

Birinchidan. Eski ma'muriy – buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish.

Ikkinchidan, yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish. Konstitutsiya va qonunlarda ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimini, ham markazdagi, ham joylardagi davlat hokimiyati organlarining yangi tizimini mustahkamlab qo'yish.

Yangi o'zbek davlatchiligining qaror topish jarayoni ham tashqi, ham ichki murakkab sharoitlarda ro'y berdi. Ichki siyosatimizda biz bir-biriga bog'liq ikki vazifani hal qilishimiz lozim edi. Bu – yangi davlatchilikni barpo etish hamda keng ko'lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish vazifasi edi

Mamlakatimiz taraqqiyotining o'zbek modelilning eng bosh g'oyasi xalqimiz uchun munosib bo'lgan erkin, farovon hayotni barpo qilishdan iboratdir. Bu borada zamonaviy demokratiya prinsiplarini milliy manfaatlarimizdan kelib chiqib, jamiyatda qaror toptirish vazifasi ustuvor qilib belgilandi.

Ta'kidlash joizki, jamiyatimizda demokratiya va fuqarolik jamiyati g'oyasini ijtimoiylashuvi va qaror topishida o'zbek modelining barcha konseptual g'oyalaridan izchillik bilan foydalanib kelinmoqda va shu bois ham ulkan samaralarga erishilmoqda. Zero, jamiyatda demokratiyani joriy qilishning yagona retsepti mavjud emas, har bir mustaqil davlat demokratik taraqqiyot yo'liga o'tishda birinchi navbatda o'zining sotsio-madaniy asoslariga, milliy taraqqiyot modeliga tayanishi lozim bo'ladi. Faqat shunday holatdagina mamlakatning demokratik taraqqiyoti kutilgan ijobiy natijalarni beradi.

I.A.Karimov rahnamoligida jamiyatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishda tadrijiy taraqqiyot uslublari asoslanildi. Unga ko'ra, demokratiya g'oyasi va uning institutlari jamiyatimiz bag'rida bosqichma-bosqich evolyusion tarzda rivojlanira boshlandi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli g'oyasiga ko'ra, yurtimizda yangi jamiyatni barpo etish uchun amalga oshiriladigan barcha islohotlar zaminiga inson omili qo'yildi. Ya'ni —islohot islohot uchun emas, balki, inson manfaatlari, uning, erki va farovonligi uchun, degan g'oya barcha yangilanishlarning asosiy o'zagi etib belgilandi. Shu munosabat bilan qurilayotgan yangi mustaqil davlat va jamiyatning asosiy bunyodkori ham, iste'molchisi ham mana shu yurtning erkin xalqi degan prinsip mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasining markazida turuvchi omildir. Mazkur asos zaminida bilan taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirishning etakchi shartlaridan biri sifatida ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashni tiklash va rivojlantirish vazifalari belgilab olindi. Ta'kidlash joizki, jamiyat taraqqiyotiga nisbatan bunday yondashuv nihoyatda noyob vayangicha yondashuvdir. Zero, har qanday jamiyatning yangilik sari rivojlanishida avvalambor inson omili, undagi ijobiy o'zgarishlar turadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo‘lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbiarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma‘ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o‘rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o‘rganish hamda umumlashtirish asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi;

Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda — Davlat dasturi) tasdiqlandi.

Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg‘in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida ko‘plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik ko‘rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Xususan, loyihalarning «Qonun hujjatlari ta‘sirini baholash tizimi» portalida yo‘lga qo‘yilgan jamoatchilik muhokamasi natijalari bo‘yicha 1 310 ta taklif va mulohaza kelib tushib, ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko‘rib chiqildi.

Shu bilan birga, 2017 yil 23 — 27 yanvar kunlari Toshkent shahrida media-haftalik va xalqaro davra suhbat tashkil etilib, ularda 1 300 dan ortiq mutaxassis va ekspert, jamoatchilikning, ommaviy axborot vositalarining, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning, shuningdek O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik xorijiy investorlarning vakillari ishtirok etishdi.

Harakatlar strategiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbiarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog‘ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo‘limlardan iborat.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

2017 yil 7 fevralda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan e’lon qilingan “Harakatlar strategiyasi”, o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra, dunyoda tub o‘zgarishlar yuz berayotgan hozirgi zamonda davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha beshta ustuvor yo‘nalishda aniq muddatga mo‘ljallangan tom ma’nodagi milliy strategiya hisoblanadi. U besh bosqichda, kelgusi besh yilda yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi. Va bu O‘zbek modelinign mantiqiy davomi bo‘lib xizmat qilmoqda, deyish mumkin. Ushbu hujjat 1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari hamda 2010 yilda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov taqdim etgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar doirasidagi demokratik yangilanish hamda modernizatsiya jarayonlarining mantiqiy va qonuniy, izchil va uzviy davomidir. Ayni paytda bu muhim strategiya davlatimiz va jamiyatimizni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab bermoqda. Bu bejiz emas. Nega deganda, Prezident Sh.M.Mirziyoev Asosiy Qonunimizning istiqlol arafasida ishlab chiqilishi va mustaqillikning ilk yillarida qabul qilinishi davrida ham, Konsepsiyani tayyorlash va unda belgilangan eng muhim vazifalarni hayotga chuqur tatbiq etish jarayonlarida ham Yo‘lboshchimizning yonida turib, ta’bir joiz bo‘lsa, elkama-elka birga ishlagan, davlat siyosatini yuritish bobida yuksak mahorat maktabini o‘tagan.

Mamlakatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida bu haqda shunday dedi: “Oliy Kengash deputati sifatida men ham Konstitutsiyaviy komissiya tarkibida Bosh qomusimizni yaratish va qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etganimni doimo faxrlanib eslayman. Konstitutsiyamizning qanday qilib hozirgi mazmun va shaklga kelgani, bu murakkab jarayonda kechgan qizg‘in tortishuv va bahs-munozaralar bugungidek yodimda. Haqiqatan ham, 90-yillardagi o‘ta og‘ir davrda Asosiy qonunimiz loyhasini ishlab chiqishda Islom Abdug‘anievichdek keng miqyosda, strategik fikrlaydigan, uzoqni ko‘ra oladigan buyuk siyosiy arbobning bu ishga rahbarlik qilgani hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi”.

MA’RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni -	O‘quv vaqti – 2 soat
Mashg‘ulot shakli -	Mavzu bo‘yicha vizuallashtirish - ma’ruza
Ma’ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari 2. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o‘ziga xos xususiyatlari 3. “O‘zbek modeli” uning asosiy tamoyillari va jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayot sohalarida namoyon bo‘lishi. 4. “O‘zbek modeli” va mamlakatimiz taraqqiyoti strategiyasi.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Mavzu bo‘yicha umumiy tatsavvurni shakllantirish, “O‘zbek modeli”ning vujudga kelishi, mazmuni va demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari
Mavzuning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;	Mavzuning maqsadi va vazifalarini aytib bera oladi;
Mavzuning mazmuni, tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro‘yhati haqida ma’lumot berish;	Mavzuning tuzilmasi, o‘quv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, mavzuni o‘rganishda zarur adabiyotlarni aytib bera oladi;
“O‘zbek modeli” haqida tushuncha beradi;	“O‘zbek modeli” xususiyatlarini aytib bera oladi

	va mustaqillik va demokratik o'zgarishlar bog'liqligini tahlil qila oladi;
“O'zbek modeli” vujudga kelish zarurati va ahamiyatini tushuntirib beradi.	“O'zbek modeli”ning jamiyatimizdaamalga oshiralayotgan o'zgarishlar tizimidagi o'rnini tushunib etadi.
O'qitish usullari va texnikasi	Ma'ruza, “Fikriy xujum”, “Klaster” metodi, “Blisso'rov” uslubi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, shakllar, proektor
O'qitish shakli	Jamoa, guruh-guruh bo'lib ishlash
O'qitish nazorati	Kompyuter, proektor mavjud auditoriyalar
Manitoring va baholash	Og'zaki nazorat, debat savol-javob , reyting tizimi asosida baholash

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish jarayoni vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kursga va mavzuga kirish (20 minut)	1.1.Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi	Tinglaydi
	1.2. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch tushunchalari va ma'ruza rejasiga izoh beradi(1 –ilova).	Yozib oladi
	1.3. Mavzuni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ruyxati bilan tanishtiradi	Yozib oladi
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi qismi bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza mashg'ulotini “Fikriy xujum” usuli bilan boshlaydi (2-ilova).	Tahlil qiladi
	2.2. Ma'ruza rejasining 1-3 savollari bo'yicha tushuntiradi,turli chizmalar, ko'rgazmalarni tashkil qiladi,har bir savolning nihoyasida umumlashtirib boradi. Mavzuni yoritish jarayonida jonlantiruvchi savollar beriladi va ular bo'yicha talabalar javobi tinglanadi: 1- savol. “O'zbek modeli”ning vujudga kelish zarurati nimada? 2 – savol. “O'zbek modeli ”ning demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyatli tomoni? 3-savol. “O'zbek modeli”ning milliy tiklanish va iqtisodiy rivojlanishda namoyon bo'lishini ko'rsating? Savollar umumlashtiriladi, xulosalar bilan yakunlanadi. Rejalar va savollarni yoritishda 1-14 shakllar namoyish etiladi	Muayyan bilimlar o'zlashtiriladi, shakllarga e'tibor qaratiladi va savollarga javob beradi
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1. Milliy mustaqillik va demokratik o'zgarishlarning uzviy bog'liqligi to'g'risida yakuniy xulosa beradi va	Munosabat va mustaqil fikrlar bildiradi

	talabalarning tushunmagan savollariga javoblar beradi, to'ldirishlar qiladi. Mavzuni mustahkamlash uchun blis-so'rov o'tkazadi.(2-ilova)1-o'quv topshiriq.	
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	Baholanadi
	3.3.Mavzu bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi(3-ilova), 2-o'quv topshiriq, 2.2. – topshiriq.	Yozib oladilar

1-ilova

- “O'zbek modeli”** – Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan va Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini va jamiyatni isloq etishning ustuvor tamoyillarini ifodalaydigan yaxlit ta'limot va tadrijiy rivojlanish usuli.
- Milliy davlatchilik** – muayyan millatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy qadriyatlariga, manfaatlariga asoslangan jamiyat jtimoiy-tarixiy taraqqiyoti natijasida shakllangan davlatning bir shakli.
- Milliy mentalitet** (lot. – aql, tafakkur, fikrlash tarzi) – milliy ong va faoliyat xarakterini ifodalovchi tushuncha
- Demografik omil** – aqli va uning tarkibini nazarda tutuvchi omil.
- Geostrategik omil** – mamlakatning geografik joylashuvi, tabiiy-makon

1-shakl


O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng kelajakda qanday yo'ldan borishi masalasi kun tartibiga

ob'ektiv sabablaridan

jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha davlatlarga mos keladigan biron bir tayyor andozasining vo'ralisi va bo'lishi

Ikkinchi ob'ektiv sabab

ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va qoidalar endilikda respublikada barpo etilayotgan yangi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan



MILLIY DEMOKRATIK TARAQQIYOT KONSEPTSIYASINING HUQUQIY ASOSLARI:






Shuni alohida ta`kidlash lozimki, jahonda hamma mamlakatlarbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo`lgan tayyor andozalar hech qachon bo`lmaydi. Shu bilan bir qatorda har bir mamlakatning yillar davomida shakllangan an`analari, qadriyatlar mavjud bo`ladiki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o`tishda bu holatlarni e`tiborga olmaslik mumkin emas. Biroq mustaqillikning dastlabki kunlarida vaqtni boy bermay tezkorlik bilan ish tutish lozim edi. «Shuning uchun ham mustaqil O`zbekiston tug`ilgan kuniyoq



**“O`zbek modeli” ishlab chiqilishidan oldin
olg`a surilgan tashabbuslar**

I.Karimov 1992-yil 2-iyulda O`zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq X sessiyasida «Istiqlol yo`li: muammolar va rejalar» mavzusida nutq so`zladi va u «Bizning ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o`z yo`limiz bor»- deb e`lon qildi. Bozor iqtisodiyotiga o`tar ekanmiz, milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini. an`analarini kishilarning fikrlash



Fikr yuriting

O'zbek modeli hech hachon iqtisodiy munosabatlarni mutlahlashtirish nazarda tutilmagan. Bu tamoyillar iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular turli maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan iqtisodiyot emas, balki iqtisodiyot masalalarini hal qilishga, inson uchun munosib turmush sifatlarini ta'minlashga, yo'naltirilgan siyosatga asoslanadi.

O'zbek modeli tushunchasi

O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi.



**Biz qanday jamiyat barpo etmoqlamiz,
degan masala**




Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1997), «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002), «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir» (2005) kabi asarlarida ayniqsa o'zining tugal va mukammal ifodasini topdi.

“O'zbek modeli”ning asosiy tamoyillari quyidagi konstitutsiyaviy talablarga tayanadi:


- -mustaqillik g'oyalariga va inson huquqlariga sodiqlik;
- -hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas'ullik;
- -o'zbek davlati taraqqiyotidagi tarixiy tajribalarga tayanish;
- -demokratiya va ijtimoiy adolat g'oyalariga sadoqat;
- -xalqaro huquq normalariga rioya qilish.





Islohlarning navbatdagi bosqichida davlatimiz rahbari I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli dasturiy asarida belgilab berilgan **olti ustuvor vazifalar** amalga oshirila boshlandi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish;
- Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish;
- Jamiyatimiz kelajagini belgilab beruvchi kadrlar siyosati;
- Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish;
- Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;
- Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz dahlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash;

1-o'quv topshiriq.

Mavzuni mustahkamlash uchun Blis-savollar.

2-o'quv topshiriq.

O'tish davri"ning modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi jadvalga to'ldiring

1	•?
2	o?
3	•? •?

2.2. "O'zbek modeli"ni "Idrok xaritasi" texnologiyasida yotirib bering.

4-MAVZU: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA O'TISH DAVRI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Reja:

1. "O'tish davri" tushunchasi. O'tish davrining zarurligi, mohiyati va umumiy qonuniyatlari
2. O'tish davrining "klassik", "inqilobiy", "evolyusion" yo'llari
3. Mustaqil O'zbekistonda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari
4. O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning nazariy, konseptual metodologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch so'z va iboralar: *O'tish davri, O'tish davrining klassik modeli, o'tish davrining revolyusion modeli, o'tish davrining evolyusion modeli, O'zbekiston rivodlanishining bosqichlari, bosqichma-bosqichlik tamoyili, O'zbek modeli*

"O'tish davri" tushunchasi. O'tish davrining zarurligi, mohiyati va umumiy qonuniyatlari

O'tish davri ijtimoiy-siyosiy fanlar mavzulari tizimidagi dolzarb masalalar qatorida turadi. Chunki, mamlakatlar o'zlarining yuksak taraqqiyot darajalariga ma'lum oraliq bosqichlarini bosib o'tmasdan erisha olmaydilar. Ana shu «oraliq» bosqichni o'rganish nafaqat nazariy, shuningdek amaliy ahamiyatga ham egadir. Ammo, u mustaqil mavzu sifatida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy adabiyotlarda ilmiy jihatdan juda kam o'rganilgan. Buning asosiy sababi, uning aniq «mezoni»ni va boshlanishi nuqtasi bilan «poyoni» (oxirgi muhlati) masalasini aniq belgilash murakkabligicha qolmoqda. Bundan tashqari ba'zi olimlar, jamiyat taraqqiyoti to fuqaroviy jamiyat darajasiga ko'tarilguncha, faqat «o'tish davri»ni o'z boshidan kechiradilar, u uzluksiz jarayon, - deb hisoblasa, yana birlari «o'tish davri»ning muhlati va mohiyatidan ko'ra, undagi jarayonlarni o'rganish «muhimroq» - ekanligini ta'kidlaydilar. Xullas, O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tish davri ham mukammal o'rganishga ehtiyoj etilib keldi. Chunki, uning boshlanishi va oxirgi «poyoni»ning mezonlarini aniqlamasdan turib, jamiyat hayotida sodir bo'ladigan yoxud sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlar haqida aniq konseptual g'oyalarni ishlab chiqish ham mumkin emas. Bu jarayonlar nega turli mamlakatlarda turlicha sodir bo'ladi? Ularning muhlati nega har bir davlatda turli xil vaqtlarda davom etadi? O'tish davrida kuchlar nisbati qanday holatda bo'ladi? degan savollarga javobni faqat demokratik jarayonlar bilan hamohanglikda mustaqil mavzu sifatida o'rganish orqaligina javob berish mumkin bo'ladi. Bu jarayon barcha mamlakatlar uchun xosdir. Chunki jahonning eng taraqqiy etgan mamlakatlari ham uni o'z boshidan kechirmoqdalar.

Shu ma'noda uni o'rganish bugun «o'tish davri»ni o'z boshidan kechirayotgan O'zbekiston uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Negaki, uni o'rganish biz qurayotgan jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar darajalari to'g'risida aniq tasavvurlarga va unga etib borish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

O'tish davri barcha davlatlarning yuksak taraqqiyotiga erishish uchun xos bo'lgan jarayonida sodir bo'ladigan o'ziga xos «oraliq» muhlat hisoblanadi.

U har qanday davlat uchun umumiy qonuniyatdir. Chunki davlatlar vujudga kelishi bilanoq, birdaniga yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi, balki har bir davlat eng avvalo, shakllanadi va ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazadi. Ma'lumki, har bir davlatning vujudga kelish, rivojlanish va yuksak darajasiga ko'tarilish jarayonlari olimlar tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda o'rganish davom etmoqda.

Aslida o'tish davri nazariyasi deganda nimani tushunmoq kerak? O'tish davri u haqidagi turli qarashlar tizimi hisoblanadi. Ular asosida umumlashgan nazariyalar shakllanadi. Qarashlar turli-tuman, hatto ular bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi ham mumkin. Eng muhimi ularni tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi. Xulosalarning ilmiyligi esa ularning moddiy kuchga aylanishida o'z ifodasini topadi. Ya'ni, o'tish davri haqidagi nazariy qarashlar real hayotda o'z ifodasini topsa, amaliyotda o'z samarasini bersagina, ilmiy xulosa darajasiga ko'tariladi. Ana shu ma'noda ham o'tish davri nazariyasi deganda, mamlakatlarning ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyotdan

ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'lgan oraliq bosqichlar natijasi haqida shakllangan qarashlar tizimi tushuniladi.

Berilayotgan bu ta'rif o'tish davrining mohiyatini o'rganish asosida shakllangan qarashlar natijasi o'laroq, yuzaga keldi. O'tish davri haqida turli-tuman fikrlar bo'lishiga qaramasdan uni bir tizimga keltirish, umumlashtirish asosida shakllangan ta'riflar bugungi kungacha deyarli uchramayotganligi sababli, «o'tish davri nazariyasi»ga yuqorida berilayotgan ta'rifni boshqalari bilan taqqoslash imkoniyati ham cheklanganligini nazarda tutish lozim.

S.Abduxolliqovning fikricha, «ijtimoiy-taraqqiyot bir tamaddundan ikkinchi tamaddunga o'tish, birinchi namunadagi madaniy borliqdan ikkinchi namunadagi madaniy borliqqa o'sib o'tish tarzida yuz beradi».

Totalitar tizimdan demokratik jamiyatga o'tish qaysi sohada bo'lishiga qarab, uning ma'no-mazmunini aniqlash mumkin bo'ladi. Demokratik taraqqiyot bosqichiga o'tish, uning muqarrarligini hisobga oladigan bo'lsak, uning zarurligini inkor etib bo'lmaydi. Chunki jamiyat ham inson kabi yuzaga kelganidanoq yuksak kamolot darajasiga ko'tarila olmaydi, balki ma'lum bosqichlarni bosib o'tishi zarur bo'ladi. Hamma masala ana shu bosqichlarning o'ziga xosligini, ularda mavjud bo'ladigan muammolar ko'lamini aniqlash va hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Ammo, bu jo'n, oson ish emas. Chunki jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi o'z ichiga keng ko'lamdagi vazifalarni hal etishni qamrab oladi. Ularni amalga oshirishda nafaqat **ob'ektiv**, ayni paytda **sub'ektiv omillarini** ham hisobga olish zarur. Ularning o'tish davridagi vazni o'zaro bog'liq holda kechadi. SHuning uchun ham o'tish davri haqida fikr yuritganda, gap faqat jamiyatning demokratik tamoyillar tizimiga o'tishi bilan cheklanmasdan, balki ungacha jamiyatlar bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi uchun zarur bo'lgan **«oraliq»** ham nazarda tutilmoqda.

Albatta, masalaga bunday yondashuv vujudga kelishi, ular o'rtasidagi kurashlar va u yoki bu sinf hukmronligining o'rnatilishidan iborat bo'lgan formatsion yondashuvdan xoli bo'lib, u jamiyat taraqqiyotiga sivilizatsion yondashuvni talab etadi. Ya'ni, **jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi inson turmushida, uning tafakkurida, jamiyatning moddiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar darajalarining markazini aniqlash va mezonlarini belgilash g'oyasi turadi.**

Bugun, umuman, davrga, shu jumladan o'tish davriga qarashlar tubdan o'zgardi, ular mazmunan zamonamizning o'ziga xos qadriyatlariga asoslangan. Professor I.Ergashev to'g'ri ta'kidlaganidek, «Bugun davrga qarash o'zining mazmuni va mohiyatiga ko'ra, an'anaviy yakka mafkuraviy qarashdan tubdan farq qiladi. Mustabid tuzumning emirilishi bilan davrni siyosiylashgan, mafkuralashgan mazmuniga va harakteriga barham berildi»⁵⁶. **Demak, «o'tish davri»ni bir tomonlama emas, balki uni siyosiy, falsafiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarni o'zida mujassamlashtirgan tushuncha sifatida qarash va shu yo'nalishda tahlil qilish to'g'ri bo'ladi.**

O'tish davri tushunchasi, uning mohiyati, umumiy qonuniyatlari va turli shakllari. «O'tish davri» mustaqil mavzu sifatida ilmiy adabiyotlarda kam o'rganilgan bo'lib, uzoq kechishi yoki qisqaligi bilan xarakterlanadi. Turli mamlakatlarda turlicha kechadi. Buning sababi mazkur mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy holatlari bilan bog'liqligidir. O'tish davri barcha davlatlar taraqqiyoti uchun umumiy qonuniyatdir. CHunki davlatlar vujudga kelishi bilanoq yuksak taraqqiyot darajasiga birdan ko'tarila olmaydi, avval shakllanadi, ma'lum bosqichlarni bosib o'tadi. O'tish davri-bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'tish murakkab jarayon bo'lib, u ma'lum bir qonuniyatlar asosida yuz beradi. O'tish davriga munosabat masalasini germaniyalik olim Leonid Levitin shunday yozadi: «Odatda o'tish davri» islohinig so'zlarini aynan tushunib, uni o'tmish va kelajak oralig'idagi bugun deb o'ylaydilar. «O'tish davrining paydo bo'lishida bunday qarashlarga ko'ra o'tmish- sabab, kelajak esa maqsad tarzida voqea bo'ladi». Demak, **birinchidan**, «o'tish davri» «oraliq» ma'nosini anglatmaydi. Bu olimning yana bir fikricha, «Tabiiyki, o'tish davrlar turli xildagi tartibsiz jarayonlar, mavhumotli inkor sodir

⁵⁶ Эргашев И. Тараққіёт фалсафаси. Т.: Академия, 2000, 59-бет.

bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ular hayotida ayrim holatlarda katta fojeali holatlarni keltirib chiqarishi mumkin". **Ikkinchidan**, feodalizm munosabatlari sharoitida yashayotgan mamlakatlarga "chetdan" demokratik jarayonlarni "eksport" qilib bo'lmaydi. **Uchinchidan**, "o'tish davri" ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o'tish uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan oraliq bosqich hisoblanadi. **To'rtinchidan**, "o'tish davri" qancha turli xil bo'lmasin bari-bir barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir.

Demokratik jamiyatga o'tish deganda mamlakatlarning turli tuzumlardan demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi uchun vujudga keltiriladigan imkoniyatga ketadigan oraliq vaqt tushuniladi. "Oraliq" vaqtning boshlanishi poyoniga etishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'tish davrida yangi davlatchilik paydo bo'lib, uning taraqqiyoti quldorlik, feodal, kapitalizm, sotsializm kabi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga o'tishi uchun ham zarur bo'ladi. O'tish davrining, ya'ni bir tuzumdan ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o'tishi qonuniyat bo'lishi bilan birga, **u turlicha ko'rinishlarga ega ham bo'ladi. Umumiylik, o'ziga xoslik, oraliq holatlari bilan belgilanadi.** Demak, o'tish davrida mamlakatni sun'iy ravishda jadallashtirmaslik kerak, kuch ishlatish, zo'rvonlik ketmaydi, siyosiy hokimiyatning to'la ta'minlanganligi bilan emas, balki xalq farovonligi bilan belgilanadi. **"O'tish davri"ning 3 ta asosiy «modeli»** rivojlangan mamlakatlarda shakllangan: **1) Klassik o'tish davri (an'anaviy) yo'l. 2) Inqilobiy yo'l (revolyusiya orqali).** Bunga sobiq SSSRni misol keltirish mumkin. **3) Evolyusion yoki bosqichma-bosqich yo'l hisoblanadi.**

Demak, agar biz hozirgi mustaqil **O'zbekistonimizga** qiyos qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda o'tish davrining murakkab kechayotganligining sabablarini, uning ma'lum bir qonuniyatlar asosida yuz berishi tabiiy holat deb bilamiz va biz ana shu **uchinchi evolyusion, ya'ni bosqichma-bosqichlik yo'lini tanladik.**

Amerikalik sotsiolog Deniel Bell o'tish davridan keyingi ijtimoiy taraqqiyotni quyidagi uch bosqichga bo'ladi:

1. Agrar jamiyat.

2. Industrial jamiyat.

3. Industrial yoki axborotlashgan jamiyat.

Uning jamiyatni klassifikatsiyalashtiruv (tizimlashtirish)i zaminida, jamiyatning ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishga samarali ta'sir o'tkazishni belgilovchi xizmat ko'rsatish, maishiy hayot va turmush turadi, uning fikricha, **bugun dunyodagi ko'pgina mamlakatlar industrial jamiyatdan informatsion jamiyatga o'tish holatida**⁵⁷... Ba'zi bir Evropalik olimlar industrial va postindustrial jamiyat bilan bir qatorda, «**Yangi**» jamiyat P. Draker, «**Post zamonaviylashgan**» jamiyat, jiflashtirib, undan keyin **yangi industriallashgan jamiyat** Dj. Gelbreyt, undan keyin «**rivojlangan**» jamiyat va xokazo.

Umuman, ularning nazariyalarida insonning jamiyatdagi roli va o'rni, yana birlarida esa o'tish davrida demokratiyaga oid bilim va texnika taraqqiyoti ta'sirida sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'zida mujassamlashtirgan⁵⁸.

Yuqoridagi ko'rsatilgan olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki:

birinchidan, jamiyat qanday nomlanishidan qat'i nazar, o'z taraqqiyotida biridan ikkinchisiga o'tish bilan bog'liq bo'lgan jarayon asosida rivojlanadi;

ikkinchidan, bir taraqqiyot bosqichidan ikkinchisiga o'tishdagi asosiy ko'rsatgich moddiy omil emas, balki odamlarning turmush sharoitlaridagi bo'ladigan o'zgarish hisoblanadi.

O'tish davrini faqat moddiy omillar darajalari bilan bog'lash - uning mohiyatini to'liq ifodalamaydi. SHunga ko'ra, sodir bo'ladigan ijobiy yohud salbiy o'zgarishlarga ta'sir o'tkazuvchi siyosiy omillarning rolini aniqlash masalasi ham muhimdir.

Jamiyatda bo'ladigan har qanday o'zgarishlar iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarning uzviyiligi xolatida qaralgandagina, o'tish davrining mohiyatini tushunish mumkin bo'ladi: o'tish davri mamlakatlar taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy bosqichdan biri ikkinchisiga

⁵⁷ Қаранг: Вопросы философии. 3-сон, 2001 йил, 6-б.

⁵⁸ Ўша жойда. 8-сон, 2001 й., 14-бет.

o'tishi umumiy qonuniyat bo'lishi bilan birga, ularning har birida o'tish jarayoni ham turlicha namoyon bo'ladi. Barchasiga xos bo'lgan asosiy umumiylik eskisining taraqqiyot ehtiyojlariga javob bera olmaganligi oqibatida, yangi bosqichga o'tish zaruriyatini keltirib chiqarishi bilan bog'liq. SHu ma'noda, o'tish davridagi bosh yo'nalish «orqaga qaytish» emas, balki «oldinga» yurish, pastdan yuqoriga ko'tarilish yoki oldingi darajaga qaraganda yuksalish, rivojlanish demakdir.

Eski tuzumni saqlab qolish yo'lidagi turli urinishlar, qon to'kishlar, xalq boshiga tushadigan turli fojealarga qaramasdan, ularning qaysi darajada sodir bo'lishidan qat'i nazar, bari-bir o'tish davrining bosh yo'nalishi o'zgaras bo'lib qolaveradi. SHu ma'noda Leonid Levitinning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin. «**Postkommunistik o'tish davri** – o'tish davrining ko'rinishlaridan biridir, xolos. Insoniyat tarixida bunday davrlar ozmuncha yuz bermagan. Ular o'zaro bir-biridan qanchalar salmoqli tafovutlar bilan farq qilmasin, biroq asosiy ma'nolari bitta – jamiyatni uning iqtisodini, siyosatini, uning madaniyatini zamonaviylashtirish»⁵⁹ – deb yozadi. Ammo, ana shu «Zamonaviylashtirish»ni qaysi o'lchov mezonidan kelib chiqmoq kerak, - degan savolga javob topish zarur bo'ladi. Zero, «zamon» o'zgaruvchan, shiddat bilan oldinga intiluvchi jarayon xolos. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, o'tish davrining tamom bo'lish mezonlari mavjudmi yoki «zamon» kabi to'xtovsiz jarayon hisoblanadimi? - degan savollar yuzaga kelaveradi.

Aslida, yuqorida bizning unga bergan ta'rifimizda uni davlat taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan alohida bosqich ekanligi haqidagi konseptual g'oyamizga muvofiq o'tish davri shu ma'noda ham alohida bosqichdir. Albatta, u ma'lum muhlatdan keyin o'z poyoniga etadi va jamiyat ilgarigiga qaraganda yangi taraqqiyot bosqichida yashay boshlaydi.

Biz ana shunday jarayonni aniq tasavvur qilishimiz va tushunishimiz zarur bo'ladi. Aks holda, insoniyat o'z boshidan o'tish davrini o'tkazish bilan yashaydi va bu oxiri yo'q bo'lgan jarayon, degan noto'g'ri xulosa kelib chiqadi.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonning totalitarizmdan asta-sekin demokratik jamiyat tomon o'tishining o'ziga xos xususiyatlari ham bundan istisno emas, albatta. Ammo, jamiyat erishgan yutuqlar asosida taraqqiy qilish jarayonining imkoniyatlarining tugashi, uning o'sib kelayotgan ehtiyojlarni qondirishga qurbi etmay qolishi, jamiyatni yangi pog'onaga ko'tarish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Demak, **birinchidan**, o'tish davrini jamiyat o'zi erishgan imkoniyatlar asosida rivojlanishning tugashi, o'sib kelayotgan ehtiyojlarning qondirolmay qolishdan boshlab, undan yuqori bo'lgan imkoniyatlarni yuzaga kelishigacha bo'lgan muhlat bilan belgilash mumkin.

Ikkinchidan, bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga «o'tish davri» yoki aniqrog'i, «oraliq» bosqichining muhlati ana shu yangi yuzaga kelgan taraqqiy qilish jarayoni namoyon bo'lishi bilan tugaydi.

Uchinchidan, insoniyat faqat «o'tish davri» bilan yashamaydi, balki uning boshlanishi bo'lganidek poyoni ham mavjuddir. Xuddi ana shu «poyoni» taraqqiyot darajalarini yoki tuzumlarning birini ikkinchisi bilan farqlash imkonini beradi.

«O'tish davri» haqida fikr yuritganimizda shuni alohida ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatigacha bo'lgan barcha tuzumlarning insonlar manfaatlarini va ehtiyojlarini to'la qondira olmasligi bois, ularning birinchisidan ikkinchisiga ob'ektiv ravishda o'tishi uchun ehtiyojni yuzaga keltirib turadi. Bu o'z navbatida yangi tuzumga o'tish davrini boshlab beradi.

Ammo, demokratik tamoyillar asosiga qurilgan yangi jamiyatga o'tish bir qator o'ziga xos hususiyatlar bilan farqlanadi. Ular quyidagilardir:

Birinchidan, ayrim mamlakatlarda demokratik jarayonlar yangi tuzumning ichida shakllanadi va bu uning xalq uchun farovon hayotni ta'minlash yo'lidagi faoliyatida namoyon bo'ldi. To'g'ri, bu jarayon ham silliq amalga oshmaydi, balki o'ta murakkab kechadi, juda katta talafotlarni ham o'z boshidan kechirishi mumkin. Xuddi ana shu murakkab muammolarni hal qilishda to'g'ri yo'lni

⁵⁹ Қаранг: Вопросы философии. 3-сон, 2001 й., 53-бет.

tanlashdagi, ya'ni jamiyat taraqqiyotini xalq manfaatlariga qaratilganligi insonning to'la ma'nodagi huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi jamiyatga aylanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, o'tish davri yuksak darajadagi moddiy imkoniyatlarning yuzaga kelishi bilan tugamaydi, balki ularning xalq farovonligini ta'minlashga qaysi darajada qaratilganligi va insonlar erkinliklarining ta'minlanganligi bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi. Ular nafaqat mamlakatlarning jug'rofiy omiliga bog'liq, balki ana shu davlatda yashayotgan aholining siyosiy madaniyati va mentalitetiga hamohang bo'lishiga ham bog'liqdir. Bularning xammasi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida shakllanib va rivojlanib kelgan tajribalardir.

Ayni paytda bugungi kungacha, o'tish davrining mustaqil fundamental nazariyasi ishlab chiqilmagan. Buning oqibatida mamlakatlarning ma'lum tarixiy bosqichni bosib o'tmasdan, uni «chetlab» demokratik jamiyatga o'tishga bo'lgan xatti-harakatlari sodir bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ular hayotida ayrim holatlarda katta fojialarni keltirib chiqarmoqda. SHuningdek, ayrim mamlakatlarga «chetdan» demokratik jarayonlarni «eksport» qilib bo'lmaydi. Bunday urinishlar mamlakatlarda beqarorlikka, uni taraqqiyotdan orqaga ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday mamlakatlarga demokratiyani «eksport» qilishdan ko'ra, uning shakllanishi uchun shart-sharoit yuzaga kelishiga imkoniyat yaratilishi lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, «o'tish davri» ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi. Uning boshlanishi mamlakatlarda bo'ladigan, eng avvalo, siyosiy o'zgarishlar va uning zaminida esa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgandagina yangi vujudga kelgan jamiyatning o'z imkoniyatlari to'la yuzaga chiqadi. Uning o'ziga xos xususiyati va alohidaligi haqida Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, **«O'tish davri muammolarining yig'indisi va hususiyatlari bir vaqtning o'zida qator g'oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishni taqozo qiladi»**¹. «O'tish davri» qanchalik turli-tuman bo'lmasin, bari bir barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir. Chunki u har bir vujudga keladigan yangi jamiyat uchun zamin tayyorlash imkoniyati hisoblanadi. Bu zamin na faqat iqtisodiy, shuning bilan birga jamiyat a'zolarining o'zlarini ham yangi jamiyatga «moslashtirish» zarur bo'ladi.

Buni o'tish davrining bir nechta modellari tajribasini tahlil etish zaruratini vujudga keltiradi.

O'tish davri «model»ining o'ziga xos xususiyatlari. O'tish davri tushunchasi, uning mohiyati va zarurligining umumiy nazariya masalalari turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy fanlarda insoniyat taraqqiyoti bosqichlarida demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatadigan jamiyatga o'tishning turli «model»larining o'ziga xos hususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Ma'lumki, **totalitarizmga** asoslangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy bosqichlarning demokratik jamiyatga o'tishi o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Uning murakkabligi shundaki, ungacha sodir bo'lgan taraqqiyot bosqichlari ob'ektiv ehtiyoj sifatida birining ichida ikkinchisi shakllanib kelgan, davlat va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shaklan o'zgargan bo'lsa ham, mazmunan u bari bir ommani itoatda ushlab turishga, uning ustidan hukmronlik qilishga qaratilganligi qolavergan. Ulardagi yana bir xususiyat - **omma davlat uchun**, degan tamoyilning amal qilganligi bilan ham xarakterlanadi.

Demokratik jamiyatda esa, eng avvalo siyosiy tuzum tubdan o'zgarib, xalqning hokimiyati bevosita yoki bilvosita ishtirokida boshqaruvi amalga oshadi va omma davlat uchun emas, aksincha davlat omma uchun, degan tamoyilning ustuvorligi asosida davlat boshqaruvi amalga oshadi.

Shu ma'noda ham demokratik jamiyatga o'tish jarayoni davlatlarning barcha sohalarida tub o'zgarish ishlarining amalga oshirilishi natijasi sifatida sodir bo'ladi.

Demokratik jamiyatga o'tishda **siyosiy sohada**, davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi. Uning o'rniga qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob beraoladigan mexanizmlari shakllantirilib boriladi. Iqtisodiy sohada esa, bozor munosabatlari qaror topadi. Taraqqiyotda ommaning o'z moddiy manfaatdorligini erkin qondira olishi asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'ladi. Ma'naviy-ma'rifiy sohada, inson omili, uning qadr-qimmatini yuksak qadriyat darajasiga ko'tariladi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1999, 74-бет.

Shunday jarayonlar tufayli jamiyatning yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi reallikka aylanadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda dunyo mamlakatlarining demokratik jamiyatga o'z ideali sifatida qaramoqda. Uni vujudga keltirish uchun faollik ko'rsatmoqda. Ammo demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun yagona bo'lgan aniq andozalari, yana ham aniqrog'i «model»lari yo'q va u bo'lishi ham mumkin emas. Chunki har bir mamlakat na faqat o'zining tuzilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari, intellektual imkoniyatlaridan biri ikkinchisidan farqlanadi, balki o'z xalqining mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlar va qadriyatlar bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Ularni hech qachon bir qolipga solib bo'lmaydi. Unga harakat qilish nafaqat hech qanday samara beribgina qolmasdan, balki og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tarixiy tajriba tasdiqlagan. Shuning bilan birga **demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan: 1) siyosiy tizimni isloh qilish, 2) bozor munosabatlarini shakllantirish, 3) insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, 4) jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash** va boshqa bir qator qonuniyatlar barcha demokratik jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi. Ammo umumiy qonuniyatlar barcha mamlakatlarning o'ziga xosligini hisob olgan holda demokratik jamiyatga o'tishni inkor etmaydi. Aksincha, o'tish davrida mavjud bo'ladigan muammolarning ma'no-mazmunini teran anglagan holda, ularni sobitqadamlik bilan hal qilish imkonini beradi.

O'tish davrining "klassik", "inqilobiy", "evolyusion" yo'llari

Bugungacha demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan mamlakatlarning o'tish davri tajribalariga asoslanib, o'tishning uchta asosiy yo'li yoki «model»i shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

1. Uning birinchisi - klassik (an'anaviy) yo'l hisoblanadi. «Klassik yo'l» – deganda, insoniyatning demokratik taraqqiyot yo'liga o'tishning dastlabki shakli va uning dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar taraqqiyotida samara berganligi asosidagi andozasi tushuniladi. Bu yo'lning xarakterli xususiyati shundaki, unda tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mamlakatning o'z ichki imkoniyatlariga tayangan xolda demokratik jamiyatga o'tishi amalga oshadi. Bu yo'lning yana bir asosiy hususiyati shundaki, u uzoq tarixiy bosqichda amalga oshadi. O'tish davrida siyosiy sohada qancha burhonlar sodir bo'lishiga qaramasdan asosiy o'tishning islohotlari iqtisodiy sohada amalga oshirila boshlanadi. Bu sohadagi muhim tadbir xususiy mulkchilikni qaror toptirish hisoblanadi. Xuddi ana shu tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, mamlakat hayotining boshqa sohalarini, xususan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy madaniy sohalarida ham islohotlarning amalga oshirilishi imkonini beradi.

O'tish davrining klassik yo'lidagi bunday jarayonning xarakterli tomoni shundaki, iqtisodiy sohada xususiy mulkchilikning rivojlanishidan aholining aksariyat ko'pchilik qismining ish bilan ta'minlashi imkoniyatini beradi. Ammo asosiy moddiy boylikning bir qism odamlarda to'planib qolishi, boshqalarning esa unga qaram bo'lib qolishlari mamlakat ichki hayotida katta bo'hronlar, hatto fuqarolar urushlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayon mulk egalari aholi farovonligini ta'minlash tomon qiladigan harakatlari o'zining samarasini bera boshlaganicha davom etadi. Xuddi ana shu jarayonlar zaminida aholining siyosiy ongi ham o'sib boradi. Ularning o'z huquqlarining ta'minlanishiga erishishga intilishi kuchayadi. Bu o'z navbatida mamlakat siyosiy hayotida demokratik jarayonlarning yuzaga kelishi va uning o'sib borishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

O'tish davri klassik yo'lning boshlanishi kapitalistik munosabatlarning yuqori bosqichi, uning iqtisodiyotda islohotlar o'tkazmasdan taraqqiy qilishiga imkoniyat etmay qolishi oqibatida yuzaga keladi.

Bu yo'lning **klassik (an'anaviy) yo'l deyilishiga sabab shuki**, mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'lgan edi. Bugun yuksak taraqqiyotga erishgan AQSH, Angliya, Kanada, Braziliya va boshqa Evropadagi ko'plab mamlakatlarning aksariyati ana shu yo'ldan borganlar. Klassik yo'l muammolarning ko'pligi, ularni

hal qilishning murakkabligi, aholining bu jarayonga «ko'nikib» borishi kabi masalalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham, Evropa mamlakatlarida bu jarayon **ikki, ikki yarim asrgacha** davom etdi. Ana shu muhlat ichida mamlakatlarda iqtisodiy sohadagi yutuqlarning zaminida demokratik qadriyatlari ham shakllanadi va ularda bugun fuqarolik jamiyatini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

2. Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi - inqilobiy yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, davlatlarda vujudga keltirilgan katta iqtisodiy salohiyat aksariyat ko'pchilik aholining turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib, dastlab mamlakat siyosiy hayotida keskin o'zgarishlar amalga oshiriladi. YA'ni, amaldagi hokimiyat shakli barbod bo'ladi va uning o'rniga yangi, demokratik jarayonlarni rivojlantirishga moyil bo'lgan hokimiyat shakli va uning infratuzilmasi vujudga keladi. Ular o'z navbatida iqtisodiy hayotda keskin islohotlar o'tkazadilar. Xususan, amaldagi milliy valyuta bekor qilinadi (sindiriladi). Bu esa iqtisodiy islohotlarni o'tkazish shart-sharoitlarining imkoniyatlarini izlashni taqozo qiladi. Buning oqibatida aholining qo'lidagi pul, mablag'lar ham o'z qiymatini yo'qotadi va mamlakat siyosiy hayotida bo'lgani kabi, iqtisodiy hayotda ham demokratik jarayonlarning rivojlanishi sodir bo'ladi. Bu yo'l o'ta xavflidir.

Inqilobiy yo'l uchun zarur bo'lgan asosiy omillar qatorida:

a) sobiq tuzum sharoitida xususiy mulk kurtaklarining saqlanib qolganligi;

b) demokratik qadriyat kurtaklarining mavjudligi;

v) mamlakat hayotini demokratik tamoyillar asosida qayta qurishga qodir bo'lgan intellektual salohiyatning etarli bo'lishi;

g) aholining ma'lum bir qismi ana shu demokratik jarayonga hech bo'lmaganda «moyil» bo'lishi kabi jihatlari hal qiluvchi omildir. Ularning har biri inqilobiy yo'l uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, intellektualning rolini olib ko'raylik. Ular mamlakat hayotida bo'ladigan har bir o'zgarishni yuzaga keltiruvchi asosiy qudrat hisoblanadi. Xalq hokimiyatdan ko'ra, ularga ko'proq ishonadi va ergashadi. SHu ma'noda ham ular ommani uyushtiradi va demokratik jarayonlarga yo'naltiradi. SHuning bilan birga intellektualning o'zi ham demokratik jarayonlarning murakkab muammolarini hal qilishda bardosh bera oladigan, uyushgan kuch darajasiga ko'tarilgan bo'lishi lozim.

Intellektualning xarakterli xususiyati shundaki, u boshqa ijtimoiy tabaqalardan ko'ra, jamiyat hayotida yuzaga keladigan jarayonlarni oldindan bilishga intiladi va bu o'zgarishlarning boshida tura oladi. YOki aholi ma'lum bir qismining mamlakatning o'tish davridagi murakkab sharoitlarga (moyil) bo'lishi zarurligi omili ham demokratik jamiyat uchun alohida ahamiyatga egadir. Bu jarayonda aholi murakkab muammolarni hal qilishda faqat kuzatuvchi bo'lib, ularni hal qilishda faol ishtirok qilmas ekan, inqilobiy yo'l hech qanday samara bermaydi. Aksincha, inqilobiy yo'l mamlakatni taraqqiyotdan orqada qolib ketishiga olib keladi. Intellektuallarning ana shu keskin o'zgarishlardagi yakkidligi uyushgan tashkilotlari va harakatlantiruvchi kuchlariga aylanishini taqozo etadi.

Jamiyatni demokratlashtirishda ana shu omillarga etarli e'tibor qilinmasa, inqilobiy yo'l ham o'zining samarasini bermaydi. Bu yo'ldan Kuba, Vetnam, Kompuchiya, Laos, CHexoslovakiya, Xitoy, Polsha, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Bolgariya va Rossiya kabi mamlakatlari borganlar. Demokratiyaga o'tishning bu yo'li SHarqqa to'g'ri kelmaydi. Biroq, inqilobiy yo'l bilan o'tish uchun zarurati qaysidir darajada mavjud bo'lib qolmoqda. Inqilobiy yo'l demokratik jamiyat siyosiy hayotida keskin burilish sodir etadi. Mamlakatlar siyosiy tizimida boshqaruvning mohiyatan butunlay yangi shakli vujudga keladi. Iqtisodiyotda davlat mulkini xususiylashtirishda, ma'naviy-ma'rifiy sohada eski mafkuradan voz kechishning keskin amalga oshirilishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Ammo, ular o'zaro ichki kurashlarning avj olishi, ba'zi mamlakatlarda qon to'kilishining sodir bo'lishigacha bo'lgan og'ir jarayonlar shaklida amalga oshdi. Bu yo'l qanchalik murakkab, mamlakat hayotida juda katta bo'hronlarga olib kelishini hisobga oladigan bo'lsak, uni har mamlakat o'z xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holdagina amalga oshirishi mumkin.

3. Demokratik jamiyatga o'tishning uchinchi - evolyusion yoki bosqichma-bosqich yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, mamlakatda amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, uning o'rniga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan, eskini keskin, bir «zarb» bilan tugatmasdan, bosqichma-bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto, ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalanib boriladi. Xuddi ana shu jarayonda iqtisodiy islohotlarni olib borishda va bu yo'nalishda yangi munosabatlar shakllantiriladi. Bu yo'lning o'ziga xosligi siyosiy va iqtisodiy hayotda o'tkazilayotgan islohotlar bilan hamohang ravishda ma'naviy-ma'rifiy sohalarni ham yangi ehtiyojlar asosida rivojlantirilib borilishidir.

Xo'sh nima uchun asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish zaruriyati tug'iladi? Agar asta-sekin o'tiladigan bo'lsa, uning klassik yo'ldan farqli tomoni nimada? Unda ham asta-sekinlik bilan demokratik jamiyatga o'tilgan-ku? Albatta, evolyusion yo'lning klassik (an'anaviy) yo'ldan farqli tomonlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, klassik yo'lda demokratik qadriyatlar mavjud jamiyat ichida yuzaga keladi. Bunda faoliyat ko'rsatayotgan tuzumning taraqqiy qilishi, mulk egalarining oddiy xalqning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilib boriladi. Uning o'ziga xos xususiyati, har ikki tomonning ham manfaatdorligidadir. Bunday sharoitda demokratik qadriyatlar taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining «ma'rifatlashib», xalq farovonligini ta'minlash omili bo'lib qoladi. Hozirgi davrda ko'pchilik mamlakatlar evolyusion yo'l totalitarizm yoki diktaturalar xukmronligini barbod etilishining birdan-bir to'g'ri yo'l ekanligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa, o'rtacha rivojlangan mamlakatlarning demokratiyaga o'tishi uchun xos bo'lgan bu yo'l mamlakatlar hayotida keskin o'zgarishlarni amalga oshirishning imkoniyatlari bo'lmaganligi bilan ham bog'liqdir.

Ikkinchidan, klassik o'tish yo'lida aholining dunyoqarashi o'zgarib borishini taqozo qilgan bo'lsa, totalitarizm – ommaning ongini to'laligicha o'z manfaatlariga bo'ysundirgan jamiyat bo'lganligi uchun ham uni bir «zarb» bilan demokratiyaga «moslashtirish» nihoyatda murakkab edi. Chunki ongni o'zgartirish qisqa vaqtda amalga oshadigan jarayon emas, u jamiyat hayotida bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda sodir bo'ladi.

Ayniqsa, bu jarayon sanoat ishlab chiqarishi kam taraqqiy qilgan agrar sektor etakchilik qiladigan mamlakatlarda asta-sekinlik bilan amalga oshishi ham umumqonuniyatdir. Chunki bunday mamlakatlarda aholining siyosiy madaniyati keskin o'zgartirishlar ehtiyojlaridan orqada qolgan bo'ladi.

Uchinchidan, klassik o'tish uchun xos bo'lgan kapitalistik munosabatlar sharoitida demokratiyaga o'tishda eski tuzum xavf tug'dirmaydi, balki u o'rni rivojlanayotgan yangi demokratik munosabatlarga «bo'shatib» bera boshlaydi.

Totalitarizm esa yangi demokratik jarayonlar uchun xavf tug'diradi. Chunki uning hukmronligi davrida shakllangan, nihoyatda kuchga tayangan munosabatlar va ma'naviy-ma'rifiy salohiyat demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun qarshilik ko'rsatib turadi. Buni albatta hisobga olmaslik mumkin emas.

Shuning bilan bir qatorda mamlakatning taraqqiyot darajalari, xalqning mentaliteti, urf-odatlar va qadriyatlarini hisobga olish evolyusion yo'lining katta imkoniyatlari bo'lib, bu o'tish davrida nisbatan kam talofatlar sodir bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham ko'pgina olimlar bugungi kunda evolyusion yo'lni o'tish davri uchun eng maqbul yo'l sifatida tan olmoqdalar. Jumladan, Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi A.N.Yakovlev shunday yozadi: «... inqilob bu - boshi berk ko'cha, yo'lini yo'qotish demakdir. O'zaro janjal va to'polonlar sharoitida ham quyidan, ham yuqoridan boshlanadigan jinoyatlar avj oladi. SHu tariqa lyupenlar jinoyati hokimiyat jinoyati bilan bir-biriga aralashib ketadi. Inqilob davrida shafqatsizlik misli ko'rilmagan darajaga etadi. U olg'a rivojlanish haqidagi nazariyalarni yaratadi-yu, oxir oqibatda o'zi ana shu harakat yo'lida to'g'anoq bo'ladi. Faqat tabiiy, tadrijiy yo'l insonga qoniqish tuyg'usini, jamiyatga esa o'z taraqqiyotini izchil puxta o'ylangan, rejali tarzda amalga oshirish imkonini beradi».¹

¹ Яковлев А.Н. Қайтадан кашф этилган мамлакат. Сўз боши ўрнида. «Халқ сўзи», 2001 йил, 9 февраль.

Evolyusion yoʻlning yana bir afzalligi shundaki, bugun insoniyat juda katta intellektual kamolot darajasiga koʻtarildi. Shuning bilan birga, uning ehtiyojlari ham unga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Ana shu ikki jarayonni uygʻun holatda rivojlantirish imkoniyatini faqat evolyusion yoʻldan borish bilan hal qilish mumkin boʻladi. Bugun xuddi ana shu yoʻl fojealarga olib keluvchi qarama-qarshiliklarning oldini olishga va taraqqiyotga murosa-yu, madora yoʻl bilan erishish imkonini bermoqda. Bu yoʻl bugun oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritib endi taraqqiyot yoʻliga kirayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun ham samarali boʻlgan yoʻl hisoblanadi. Ular hozir taraqqiyotning qaysi bosqichlarida boʻlishlariga qaramasdan, demokratik taraqqiyot bosqichiga ham tabiiy-tadrijiy yoʻldan borishlari pirovard bosh maqsadga erishish demakdir.

Ammo, ularning ichki hayotiga aralashuv, demokratiyani tashqaridan bir «zarb» bilan kiritishga har qanday urinishlar kutilgan natija bermaydi. Bunday holat faqat mamalakatda ichki va tashqi ziddiyatlarning kuchayishiga, demokratiyaning bunyodkorlik kuchiga emas, uni taraqqiyotdan orqaga uloqtirib tashlovchi vayronkor kuch sifatida namoyon boʻlishiga olib keladi. Bunday sharoitda mamlakatda fuqarolar urishi kelib chiqish xavfi yuzaga keladi. Bu esa oʻz navbatida mamlakatlararo, millatlararo qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, demokratiyaning qaror topishiga yoʻl qoʻymaydi.

Evolyusion yoʻlning samarali rivojlanishi uchun tashqaridan boʻladigan har qanday «yordam» mamlakatda demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun zarur boʻladigan shart-sharoitlarini yuzaga keltiradi. Chunki demokratiya hokimiyatni boshqaruvida xalqning ishtirok etishi bilan belgilanar ekan, uni «majburlab», boshqaruv jarayoniga jalb qilib boʻlmaydi. Uning uchun ehtiyoj, zaruriyat, shart-sharoitlarning yuzaga kelishi va xalqning undan foydalanishiga boʻlgan «tabiiy» intilishi shakllanmogʻi kerak boʻladi.

Ana shu jarayonning yuzaga kelishi evolyusion yoʻl bilan demokratik jamiyatga oʻtish imkonini beradi. Ular mavjud boʻlgan mamlakatlarda bu yoʻl oʻz samarasini berayotganligini Oʻzbekiston misolida koʻrish mumkin.

Xullas, evolyusion yoʻl bugun dunyo mamlakatlarining rivojlanishiga va mintaqalarda barqarorlikning yuzaga kelishiga hamda umumiy taraqqiyot uchun samara bera oladigan yoʻl sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu jarayonlarni oʻrganish zarur.

4. “Shok terapiyasi” (mulkni davlat tasarrufidan birdaniga chiqarish).

5. Islohot yoʻllari mavjud.

Oʻzbekistonda demokratik jamiyatga oʻtishning oʻziga xos xususiyatlari.

Oʻtish davrining umumiy qonuniyatlari Oʻzbekiston uchun ham umumiylikka egadir. Oʻtish davrining boshlanishi uchun xos boʻlgan, amaldagi siyosiy hokimiyatning tugatilishi, uning zaminida iqtisodiy sohadagi islohotlarning amalga oshirilishi uchun zamin tayyorlash va oldingi tizimning mavjud maʼnaviy-mafkuraviy zoʻravonligidan qutilish bilan xarakterlanadi. Ular qaysi darajada boʻlishidan qatʼiy nazar, demokratik tamoyillar asosida rivojlanish yoʻlini tanlagan barcha mamlakatlar uchun umumiy zaruriyat hisoblanadi. Ammo, hamma masala oʻtish davrining ichida amalga oshiriladigan vazifalar strategiyasini belgilash, ularni hal qilishning mexnizmlarini ishlab chiqish va ularni reallikka aylantirish kabilarda har bir mamlakatning oʻziga xos xususiyatlari mavjud boʻladi. Bir mamlakatning yohud bir necha mamlakatlarning oʻtish davrida qoʻllagan tajribalarini aynan ikkinchi mamlakat qoʻllay olmaydi. Chunki demokratik jamiyatga oʻtishda nafaqat mamlakatlarning taraqqiyot darajalari belgilovchi ahamiyatga ega boʻladi, xuddi shuningdek, har bir mamlakatda yashayotgan xalqning mentalitetini hisobga olish ham muhim ahamiyatga molikdir. Uni hisobga olmaslik esa pirovard maqsadga erishish imkonini bermaydi. SHu sababdan ham Oʻzbekistonda uning oʻziga xos va oʻziga mos boʻlgan evolyusion tadrijiy yoʻli ishlab chiqildi. Bu yoʻlning Oʻzbekiston uchun eng maqbul yoʻl ekanligi Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslandi va uning konseptual gʻoyalarini fundamental tarzda bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishildi.

Bu yoʻl Birinchi Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda oʻz ifodasini topdi. Xuddi ana shu tamoyillarni tavsiflab, Prezident shunday taʼkidlagan edi: «SHuni alohida takidlash

zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingan yo'ning asosiy mazmuni va mohiyatidir».¹

Bu bosh g'oyani Prezident Islom Karimov jahon mamlakatlarining tajribalarini chuqur tahlil qilish asosida ilgari surdi va O'zbekistonga xos o'tish davri «model»ini ishlab chiqishda uning dunyodagi bironta ham davlatlardagi «model»lariga aynan o'xshamasligiga asosiy e'tiborni qaratdi.

U mamlakatimiz o'z mustaqilligini endigina qo'lga kiritgan va mustaqillikning xavfi xali batamom tugamagan sharoitda - 1992 yilda bu konseptual g'oyani ilgari surdi. U shunday yozadi: «O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan **kollektivchilik asoslari** O'zbekistan xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgaralar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom - O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirish chog'ida **islom dinini e'tiborga olish muhim** ahamiyatga ega. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda, umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning uchta bosqichini bosib o'tdi. Ularning **birinchisi**, Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi - birinchi chaqiriq VI sessiyasida (1996 yil 29 avgust) «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari»; **ikkinchisi**, Birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999 yil, 14 aprel) va nihoyat, **uchinchisi**, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002 yil 29 avgust) qilgan ma'ruzalarida ko'rsatib berildi.

Albatta, ana shu bosqichlar biri ikkinchisidan keskin farq qilmasada, ulardagi asosiy g'oya demokratik jarayonlarning olg'a tomon rivojlanishini va ma'lum bir vaqtga kelganda bu jarayonga yangi kuch, qudrat hamda faollik baxsh etishdir. Chunki jarayonlar izchillik bilan tahlil etilmasa, undagi asosiy muammo aniqlanmasa va istiqboldagi vazifalar belgilanmasa, rivojlanish ham bo'lmaydi. Shu ma'noda ham Prezident demokratik jamiyat qurish borasidagi vazifalarni «**chuqurlashtirish**» (1996 yil) «**erkinlashtirish**» (1999 yil) va «**demokratik o'zgarishlar orqali fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish**» (2002 yil) kabi konseptual g'oyalarida belgilab bergan.

Ammo bu - o'tish davrining mustaqil ravishda bir necha bosqichlardan iborat ekan, - degan xulosa kelib chiqishiga asos bo'lmasligi kerak. Chunki o'tish davrining o'zi mamlakatning turli tuzumlardan demokratiyaga o'tishdagi mustaqil «oralig'i», «ko'prigi» hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlar o'tish davrining uzluksizligini ifodalaydigan ko'rsatgichdir.

2007 yilga kelib, o'tgan mustaqillikning 16 yili davomida demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarini mustahkamlash, ya'ni o'tish davri mamlakatimizda 2 muhimbosqichni o'z ichiga oladi:

1. O'tish davrining birinchi bosqichi 1991-2000 yillarni o'z ichiga olib, asosan milliy davlatchilik asoslari shakllantirildi. Bu dastlabki bosqich tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davrbo'lib, tub islohotlar va o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Т.: «Ўзбекистон», 1993, 39-бет.

2. O'tish davrining ikkinchi bosqichi 2001–2007 yillarni o'z ichiga olib, bu bosqichda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi⁶⁰.

O'zbekistonda Islom Karimov tomonidan demokratik jamiyatga o'tishning nazariy, konseptual metodologiyasining ishlab chiqilishi

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ilk bor davlat hokimiyati tepasiga sobiq Ittifoq davrida kelishi bilanoq, O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'lini o'yladi va uni amalga oshirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarini ishga soldi. Prezidentimiz XX asr 90-yillaridayoq mustaqillik uchun kurash olib bordi. O'zbekistonni dunyoda o'z yo'li bilan rivojlanish imkoniyatiga egaligini isbotlab berdi. U dastlab, **birinchidan**, o'zbek tilining "davlat tili" haqidagi qonunning qabul qilinishida bosh-qosh bo'ldi (1989 yil 21 oktyabr), **ikkinchi** navbatda mamlakatimizda O'zbekistonning o'z davlat ramzlari bo'lishi uchun (1991 yil 15 fevral) kurashdi, **uchinchidan**, mamlakatimizda Prezidentligini joriy etdi (1990 yil 24 mart), **to'rtinchidan**, "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ni qabul qilishda jonbozlik ko'rsatdi (1990 yil 20 iyun) va h.k. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tishining nazariy konseptual metodologiyasini 1992 yilda "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li", keyinchalik "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'li" asarlarida ilmiy asoslab berdi. O'zbekistonning bozor islohotlaridan borish qonuniyatlarini ilmiy asosladi. Demak, Islom Karimov ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etish uchun uning konseptual metodologiyasi mavjud bo'lishi lozim edi. Bu metodologiyaga ko'ra O'zbekiston demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, bozor islohotlarini bosqichma-bosqich shakllantirish yo'llarini belgilab berdi. Agar biz dunyo mamlakatlarida o'tish davrining turli ko'rinishlari: an'anaviy, inqilobiy va evolyusion ko'rinishlarining mavjudligini inobatga olsak, Prezidentimiz ana shu evolyusion yo'lda 1) mulkni davlat tasarrufidan bosqichma-bosqich chiqarish, erkinlashtirish, 2) ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, chunki bu barqarorlik makroiqtisodiy rivojlanishni belgilab beradi. 3) Pulning qadrsizlanishi uchun kurash, 4) xom-ashyo ishlab chiqaradigan mamlakatdan bozor munosabatlari sharoitida tayyor maxsulotlar ishlab chiqaradigan respublikaga aylantirishdek strategik vazifalarni belgilab berdi. Prezidentimizning yana bir muhim demokratik jamiyat sari borishdagi yutug'i shundaki, u milliy davlatchilikni, davlat hokimiyatini tubdan isloh etish, uni asta-sekinlik bilan fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tkazish vazifasini ko'rsatib o'tdi. Bu yo'lda 1995 yilga kelib katta ijobiy ishlar qilina boshlandi. O'zbekistonning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanish qonuniyatlari ishlab chiqildi. 1999 yilda Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli asarida O'zbekiston taraqqiyotining konseptual asoslari, yo'llarini aniq ko'rsatib o'tdi. Bunda asosiy e'tibor nodavlat organlarini shakllantirish, fuqarolik jamiyati elementlarini rivojlantirish g'oyasini ilgari surdi. Bu borada yangi qonuniyatlar ishlab chiqildi. 1999 yilda Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarida bu masalaning nihoyatda muhimligini inobatga olib, XXI asrda O'zbekiston taraqqiyotining konseptual asoslari, yo'llari aniq ko'rsatib o'tildi. Bunda asosiy e'tibor nodavlat organlarini shakllantirish, fuqarolik jamiyati elementlarini rivojlantirish g'oyasini ilgari surdi. Bu borada yangi qonuniyatlar ishlab chiqildi. 2002 yilga kelib 9-sessiyada "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" (ular 7 ta) ishlab chiqildi. Bu borada davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, fuqarolar siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish bozor islohotlarini rivojlantirishning garovi ekanligi ta'kidlab o'tildi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Sobiq Ittifoq parchalanishining asosiy sabablari nimalarda?
2. O'zbekiston siyosiy mustaqilligiga erishgan paytda qanday hujjatlar qabul qilingan edi?
3. O'tish davrining barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarini izohlang?

⁶⁰ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. "Халқ сўзи", 2007 йил 31 август.

4. O'tish davrining inqilobiy, tadrijiy, "Shok terapiyasi", islohot yo'llarining har birini bayon eting?
5. Prezident Islom Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarlarining mazmun va mohiyati, ahamiyati nimalarda aks etadi?

4-MAVZUGA OID O'QUV MATERIALLAR

Reja:

1. "O'tish davri" tushunchasi. O'tish davrining zarurligi, mohiyati va umumiy qonuniyatlari
2. O'tish davrining "klassik", "inqilobiy", "evolyusion" yo'llari
3. Mustaqil O'zbekistonda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari
4. O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning nazariy, konseptual metodologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

"O'tish davri" tushunchasi

- **O'tish davri** barcha davlatlarning yuksak taraqqiyotiga erishish uchun xos bo'lgan jarayonida sodir bo'ladigan o'ziga xos «oraliq» muhlat hisoblanadi.

- **U har qanday davlat uchun umumiy qonuniyatdir.** CHunki davlatlar vujudga kelishi bilan oq, birdaniga yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi, balki har bir davlat eng avvalo, shakllanadi va ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazadi.

- jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi inson turmushida, uning tafakkurida, jamiyatning moddiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar darajalarining markazini aniqlash va mezonlarini belgilash g'oyasi turadi.

- **Demokratik jamiyatga o'tish deganda** mamlakatlarning turli tuzumlardan demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi uchun vujudga keltiriladigan imkoniyatga ketadigan oraliq vaqt tushuniladi.

25.08.2016

“O‘tish davri”ning 3 ta asosiy «modeli» rivojlangan mamlakatlarda shakllangan:

Klassik o‘tish davri (an’anaviy) yo‘l.

2) Inqilobiy yo‘l (revolyusiya orqali). Bunga sobiq SSSRni misol keltirish mumkin.

3) Evolyusion yoki bosqichma-bosqich yo‘l hisoblanadi.



25.08.2016

Demokratik jamiyatga o‘tish



25.08.2016

Demokratik tamoyillar asosiga qurilgan yangi jamiyatga o'tish bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Ular quyidagilardir:



Birin chidan, ayrim mamlakatlarda demokratik jarayonlar yangi tuzumning ichida shakllanadi va bu uning xalq uchun farovon hayotni ta'minlash yo'lidagi faoliyatida namoyon bo'ladi. To'g'ri, bu jarayon ham silliq amalga oshmaydi, balki o'ta murakkab kechadi, juda katta talafotlarni ham o'z boshidan kechirishi mumkin.



Ikkin chidan, o'tish davri yuksak darajadagi moddiy imkoniyatlarning yuzaga kelishi bilan tugamaydi, balki ularning xalq farovonligini ta'minlashga qaysi darajada qaratilganligi va insonlar erkinliklarining ta'minlanganligi bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi.



Ayni paytda bugungi kungacha, o'tish davrining mustaqil fundamental nazariyasi ishlab chiqilmagan. Buning oqibatida mamlakatlarning ma'lum tarixiy bosqichni bosib o'tmasdan, uni «chetlab» demokratik jamiyatga o'tishga bo'lgan xatti-harakatlari sodir bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ular hayotida ayrim holatlar da katta fojialarni keltirib chiqarmoqda. SHuningdek, ayrim mamlakatlarga «chetdan» demokratik jarayonlarni «eksport» qilib bo'lmaydi.

25.08.2016

Xulosa qilib aytganda



«o'tish davri» ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi. Uning boshlanishi mamlakatlarda bo'ladigan, eng avvalo, siyosiy o'zgarishlar va uning zaminida esa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgandagina yangi vujudga kelgan jamiyatning o'z imkoniyatlari to'la yuzaga chiqadi.



Uning o'ziga xos xususiyati va alohidaligi haqida Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «**O'tish davri muammolarining yig'indisi va xususiyatlari bir vaqtning o'zida qator g'oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishni taqozo qiladi**»

25.08.2016

Demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud.



siyosiy tizimni isloh qilish,



bozor munosabatlarini shakllantirish,



insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish,



jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash

25.08.2016


2007 yilga kelib, o'tgan mustaqillikning 16 yili davomida demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarini mustahkamlash, ya'ni o'tish davri mamlakatimizda 2 muhim bosqichni o'z ichiga oladi:



1. O'tish davrining birinchi bosqichi 1991-2000 yillarni o'z ichiga olib, asosan milliy davlatchilik asoslari shakllantirildi. Bu dastlabki bosqich tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davr bo'lib, tub islohotlar va o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

2. O'tish davrining ikkinchi bosqichi 2001-2007 yillarni o'z ichiga olib, bu bosqichda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi

25.08.2016



Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi - inqilobiy yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, davlatlarda vujudga keltirilgan katta iqtisodiy salohiyat aksariyat ko'pchilik aholining turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib, dastlab mamlakat siyosiy hayotida keskin o'zgarishlar amalga oshiriladi. YA'ni, amaldagi hokimiyat shakli barbod bo'ladi va uning o'rniga yangi, demokratik jarayonlarni rivojlantirishga moyil bo'lgan hokimiyat shakli va uning infratuzilmasi vujudga keladi. Ular o'z navbatida iqtisodiy hayotda keskin islohotlar o'tkazadilar. Xususan, amaldagi milliy valyuta bekor qilinadi (sindiriladi). Bu esa iqtisodiy islohotlarni o'tkazish shart-sharoitlarining imkoniyatlarini izlashni taqozo qiladi. Buning oqibatida aholining qo'lidagi pul, mablag'lar ham o'z qiymatini yo'qotadi va mamlakat siyosiy hayotida bo'lgani kabi, iqtisodiy hayotda ham demokratik jarayonlarning rivojlanishi sodir bo'ladi. Bu yo'l o'ta xavflidir.

25.08.2016



Bu yo'lning **klassik (an'anaviy) yo'l** deyilishiga sabab shuki, mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'lgan edi. Bugun yuksak taraqqiyotga erishgan AQSH, Angliya, Kanada, Braziliya va boshqa Evropadagi ko'plab mamlakatlarning aksariyati ana shu yo'ldan borganlar.

«Klassik yo'l» – deganda, insoniyatning demokratik taraqqiyot yo'liga o'tishning dastlabki shakli va uning dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar taraqqiyotida samara berganligi asosidagi andozasi tushuniladi. Bu yo'lning xarakterli xususiyati shundaki, unda tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mamlakatning o'z ichki imkoniyatlariga tayangan xolda demokratik jamiyatga o'tishi amalga oshadi. Bu yo'lning yana bir asosiy hususiyati shundaki, u uzoq tarixiy bosqichda amalga oshadi. O'tish davrida siyosiy sohada qancha burhonlar sodir bo'lishiga qaramasdan asosiy o'tishning islohotlari iqtisodiy sohada amalga oshirila boshlanadi. Bu sohadagi muhim tadbir xususiy mulkchilikni qaror toptirish hisoblanadi.

25.08.2016



Demokratik jamiyatga o'tishning uchinchi - evolyusion yoki bosqichma-bosqich yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, mamlakatda amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, uning o'rniga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan, eskini keskin, bir «zarb» bilan tugatmasdan, bosqichma-bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto, ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalanib boriladi. Xuddi ana shu jarayonda iqtisodiy islohotlarni olib borishda va bu yo'nalishda yangi munosabatlar shakllantiriladi. Bu yo'lning o'ziga xosligi siyosiy va iqtisodiy hayotda o'tkazilayotgan islohotlar bilan hamohang ravishda ma'naviy-ma'rifiy sohalarini ham yangi ehtiyojlar asosida rivojlantirilib borilishidir.

25.08.2016

O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari



«SHuni alohida takidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir».

O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning uchta bosqichini bosib o'tdi. Ularning **birinchisi**, Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi - birinchi chaqiriq VI sessiyasida (1996 yil 29 avgust) «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari»; **ikkinchisi**, Birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999 yil, 14 aprel) va nihoyat, **uchinchisi**, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002 yil 29 avgust) qilgan ma'ruzalarida ko'rsatib berildi.

25.08.2016

5-MAVZU: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY DEMOKRATIK TAMOYILLARI

Reja:

1. Demokratik jamiyatning milliy va umumbashariy tamoyillari
2. Milliy – ma'naviy o'zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi
- 3 Milliy qadriyatlarning tiklanishi - demokratik jamiyat qurishning muhim sharti.
4. Mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining insoniylik va ezgulik qonunlariga asoslanishi

Tayanch so'z va iboralar: *demokratik jamiyat qurishning umuminsoniy tamoyillari demokratik jamiyat qurishning milliy tamoyillari, milliy ma'naviy yangilanish va demokratiya, milliy qadriyatlar, demokratik qadriyatlar, milliy-ma'naviy meros*

Demokratik jamiyatning milliy va umumbashariy tamoyillari

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlarining metodologik asoslari, ilmiy va amaliy jihatlarini I.A.Karimov asarlari, nutqlarida keng hamda chuqur yoritilgan. Ma'lumki, «**tamoyil**» tushunchasi - **yo'nalish**, rus tilida qo'llaniladigan «**tendensiya**» so'zi esa, asli lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, «**tamoyil**» atamasining muqobolidir. Birinchi Prezident I.A.Karimov asarlarida “tamoyil” va “yo'nalish” so'zlari sinonim sifatida qo'llanib kelinmoqda. Agar bu so'zlarning ma'nosiga e'tibor qaratilsa, ular jamiyatning turli jabhalarida ob'ektiv, takrorlanuvchan, ustuvor hodisa sifatida ko'zga tashlanadi. Demak, jamiyat hayotida “tamoyil” yoki “yo'nalish” ma'lum bir jarayondagi qonuniyatni o'zida aks ettiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning etakchi olimlari tomonidan ijtimoiy-siyosiy fanlarida demokratiyaning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish va to'ldirish borasida bir muncha ishlar qilindi. Shunga qaramay, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etish jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi va namoyon bo'lish xususiyatlari jiddiy o'rganishni talab etadi. Vaholanki, demokratiyaning muhim **umumjahon e'tirof etgan asosiy tamoyillari** quyidagilardan iboratdir:

- 1) erkin va adolatli saylovlar;
- 2) ochiq va hisobot beruvchi hukumat;
- 3) inson huquqlarining ustuvorligi;
- 4) hokimiyat organlarining saylanib qo'yilishi;
- 5) so'z, matbuot va vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi;
- 6) qonun ustuvorligi;
- 7) fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari mavjudligi va tengligi;
- 8) tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berish burchliligi;
- 9) ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligi;
- 10) umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlarning o'tkazilishi;
- 11) mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi;
- 12) siyosiy muxolifatning ochiq faoliyat ko'rsatishi;
- 13) jamiyatda plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi hamda ularni amaliy hayotga joriy etish masalalari samarasining ortishi.

Ma'lumki, O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligiga erishgach, Er sharining ko'pchilik aholisi kabi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Tabiiyki, bunday jamiyatni shakllantirishda, avvalambor, O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos milliy tamoyillarini jahonda kechayotgan umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashayotganligini nazardan qochirmaslik kerak.

Demokratik jamiyat qurish albatta **milliy va umumbashariy tamoyillar** asosida rivojlanib boradi. Bu uzviylik jarayoni 2 ta muxim jihat bilan belgilanadi. Demak:

1. Demokratik jamiyatning milliy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) Xalqimiz hayotida jamoa bo‘lib yashash ruhining ustuvorligi.
- 2) Oila, maxalla, el-yurt muqaddasligi.
- 3) Ota-ona, mahalla jamoalariga, rahbarlarga yuksak hurmat-e‘tibor.
- 4) Millatning ulmas ruhi ona tiliga hurmat
- 5) Kattaga hurmat, kichikka izzat.
- 6) Ayol zotiga ehtiram.
- 7) Sabr-qanoat, mehnatsevarlik.
- 8) Halollik va mehr-oqibat.
- 9) Demokratik jarayonlarning uzviyligi, asta-sekinligi.
- 10) Odamlar tafakkuri va ijtimoiy saviyasi.
- 11) Xalqimiz milliy madaniyatining o‘ziga xosligi va h.k.

2. Demokratik jamiyatning umumbashariy tamoyillari:

- 1) qonun ustuvorligi.
- 2) Inson xaq-xuquqlari va xurfiqlilik.
- 3) Barcha millat vakillariga xurmat va ular bilan baxamjixat yashash.
- 4) Diniy bag‘rikenglik.
- 5) Dunyoviy bilimlarga intilish, ma‘rifatparvarlik.
- 6) O‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish va h.k.

O‘zbekiston aholisining bozor iqtisodiga asoslangan demokratik jamiyat qurishida istiqbolimizning dastlabki yillaridayoq I.A.Karimov quyidagi milliy tamoyillarga jamoatchilik diqqatini qaratdi. Bu milliy tamoyillar I.A. Karimovning 1992 yilda yozilgan “Istiqbol yo‘li: muammolar va rejalar” hamda “O‘zbekistonning o‘z istiqbol va taraqqiyot yo‘li” asarlarida ilmiy jihatdan har tomonlama asoslab berildi. Keyinchalik Birinchi Prezidentimiz bu tamoyillarni turli hayotiy misollar va dalillar asosida yoritdi. “Bozor iqtisodiyotiga o‘tar ekanmiz, milliy, tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an‘analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz. O‘zbek xalqi azaldan **jamoa tuyg‘usiga moyil**”,⁶¹ - deb yozgan edi I.A.Karimov. Bu **birinchi tamoyil** bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga o‘tishda o‘zbek xalqining o‘ziga xosligi, uning boy tarixiy an‘analari, o‘ziga xos fikrlash tarzining qadimgi davrlardan boshlab jamoa sifatida ahil bo‘lib yashash mentalitetini ko‘rsatib turibdi.

Ikkinchi tamoyil haqida I.A.Karimov shunday deb yozadi: “Mustaqil davlatimizning siyosatini belgilab olar ekanmiz, **islom dinimizni** albatta nazarda tutishimiz kerak, negaki din turmush tarzimizga, ma‘naviy qadriyatlarimizga, kishilar ongiga o‘zining o‘chmas muhrini bosgan.”⁶²

Uchinchi milliy tamoyil sifatida Prezidentimiz “O‘zbekistondagi **demografik vaziyatni** albatta hisobga olish zarur”⁶³ deb uqtiradi. Ma‘lumki, yurtimizda aholining tabiiy o‘shish sur‘ati juda katta bo‘lib, mehnat resurslarining ortib borish darajasi ham shunga mos keladi. Qolaversa, aholining 60 foizidan ko‘prog‘i qishloqlarda istiqomat qilishadi.

To‘rtinchi tamoyil, bu – O‘zbekistonning **ko‘p millatli davlat** ekanligi. Unda 130 dan ortiq millat, elatlar yashaydi va ular 18 diniy konfessiyalarga mansub.

Beshinchi tamoyil, bu O‘zbekistonning geosiyosiy jihatdan **qulay makonda** joylashganligi, qadim karvon yo‘llarining bizning Vatanimiz hududidan o‘tganligi, turli sivilizatsiyalarning Markaziy Osiyoda tutashganligi hamda bugungi kunda ham mintaqamizning Sharq bilan Farb dunyosi o‘rtasida muhim bo‘g‘in ekanligidadir.

Oltinchi tamoyil “O‘zbekistonda islohotlar o‘tkazishga mavjud **tabiiy iqlim**, shart-sharoitlari”ning katta ta‘sir ko‘rsatishidan iborat.⁶⁴

Ettinchi tamoyil – “O‘zbekiston o‘zining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash uchun **etarli salohiyatga ega**”⁶⁵. Yana bir muhim tamoyil sifatida I.A.Karimov “keyingi o‘n yillar

⁶¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-т.-Т.:Ўзбекистон,1996,11-бет

⁶² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-т.-Т.:Ўзбекистон,1996,12-бет

⁶³ Ўша манба, 12-бет

⁶⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.1-т.-Т.:Ўзбекистон,1996, 13-бет

⁶⁵ Ўша манба, 13-бет.

mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan **ijtimoiy ongi shakllanishini** ham e'tiborga olmaslik mumkin emas", deb uqtiradi. Gap shundaki, mustaqillikdan oldingi 130 yildan ko'proq davr mobaynida xalqimiz o'zining milliy, madaniy, moddiy boyliklaridan begonalashdi. Jahon hamjamiyatidan butunlay ajralib qoldi. Shu sababli, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida bu vaziyatni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi tamoyillar yoki omillarni chuqur o'rganib, I.A.Karimov istiqloqlning dastlabki yillarida islohotlarning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqdi. Bu O'zbekistonning o'ziga xos aql-idrokka asoslangan taraqqiyot yo'li jahon afkor ommasi tomonidan haqli ravishda **"taraqqiyotning o'zbek modeli"** degan nom oldi.⁶⁶ Aynan ana shu tamoyillarda bir tomondan milliylik, ikkinchi tomondan umuminsoniylik yo'nalishlari uyg'unlashdi yoki ularning dialektik mutanosibligi o'z aksini topdi. **"Birinchii tamoyilimizda,** - deb yozgan edi I.A.Karimov, - avval-iqtisod, keyin siyosat degan shiorni olg'a surdik"⁶⁷. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi nazarda tutiladi. Iqtisodiy islohotlar siyosatdan ortda qolmasligi zarur.

Ikkinchi tamoyil - bu davlatning bosh islohotchi ekanligi. Yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va ularni izchillik bilan amalga oshirishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Uchinchi tamoyil, o'z navbatida jamiyat hayotida, barcha sohalarida qonunning ustuvorligi ta'minlanadi. Aynan O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi ham umuminsoniy va milliy tamoyillarning mujassamlashgan yorqin namunasi hisoblanadi.

To'rtinchi tamoyil, bu aholining demografik vaziyati, ayniqsa, uning 60 foizidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etganligi, kam ta'minlangan oilalarni, bolalarni, nafaqaxo'rlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat olib boriladi.

Beshinchi tamoyil - bu xalqimiz an'analari, urf-odatlarini hamda bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonun-qoidalarini hisobga olgan holda unga «shok terapiyasi» asosida emas, balki evolyusion tadrijiy asosda, puxta o'ylab bosqichma-bosqich o'tish nazarda tutiladi.⁶⁸

SHunday qilib, ushbu tamoyillar yoki taraqqiyotning «o'zbek modeli» O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga o'tishining hamda uning jahon hamjamiyati bilan izchillik asosida integratsiyalashuv konsepsiyasining negizini tashkil etadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich izchillik bilan o'tayotgan O'zbekiston Respublikasi 1994 yil oxiri 1995 yil boshlarida islohotlar o'tkazishning ikkinchi bosqichiga ko'tarildi. Bu davr ichida mamlakatimizda nafaqat kuchli ijroiya hokimiyatiga asoslangan Prezidentlik respublikasi shakllandi, balki umuminsoniy hamda milliylikka asoslangan zamonaviy parlament - Oliy Majlisga ko'ppartiyaviylik, muqobillik, hurfikrlilik asosida saylovlar o'tkazilib, jiddiy qadam qo'yildi. To'g'ri hali bu tom ma'nodagi professional parlament emas edi. Ammo iqtisodiy, madaniy, ma'naviy sohalar kabi ijtimoiy-siyosiy sohada ham islohotlar evolyusion yo'l bilan olib borildiki, bu jamiyatimizda barqarorlikni ta'minlash uchun asos bo'ldi.

I.A.Karimovning 1995 yil 23 fevralda I chaqiriq Oliy Majlisining I sessiyadagi ma'ruzasi "O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" deb nomlanishi bejiz emas. Mazkur ma'ruzada Yurtboshimiz Sharqda, qolaversa O'zbekistonda dunyoviy, demokratik jamiyat barpo qilishning **uch muhim tamoyili** ustida to'xtab, ularni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Xo'sh, O'zbekistonda qurilayotgan demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatining shaklu-shamoyili qanday bo'lishi kerak? "Sharqda, - deb yozadi I.A.Karimov, - demokratik jarayonlarning, qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Sharqda demokratik jarayonlar **uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy** topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham "ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli" deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri

⁶⁶ M.C.Гафарли, И.А.Касаев. Ривожланишнинг «ўзбек модели»: тинчлик ва барқарорлик - тараққиёт асоси. - Т.: «Ўзбекистон», 2001. —430 б.

⁶⁷ Каримов И.А. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: «Ўзбекистон» 2001, 36-38 бет., 177 бет.

⁶⁸ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2 Т., -Т.: «Ўзбекистон», 1996, 177-180 бетлар.

kelmaydi”⁶⁹. Shu o‘rinda demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillarida sharqona qadriyatlar qanday o‘rin egallaydi?, degan savol tug‘iladi. Agar e‘tibor bilan qaralsa, bu o‘rinda jarayonlar so‘zi tamoyillar ma‘nosini ham anglatmoqda. To‘g‘ri, **ikkinchi tamoyilni** Birinchi Prezidentimiz demokratlashtirishning “**ikkinchi muhim sharti**” deb nomlagan. “Jamiyatni demokratlashtirishning ikkinchi muhim sharti **odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi** bilan demokratik o‘zgarishlar darajasi va sur‘atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo‘lishiga bog‘liqdir”⁷⁰. Fikrimizcha, mazkur tamoyil umumbashariy tamoyildir. “**Uchinchidan**, - deb ta‘kidlagan edi I.A.Karimov, – demokratik jarayonlar **xalqimiz milliy madaniyatining o‘ziga xos jihatlari**ni, uning tabiatini o‘zida mujassam etmog‘i kerak. Ma‘lumki, Farb namunasi ko‘p hollarda individualizm falsafasiga tayanadi va ommani haddan tashqari siyosiyashtirishga olib keladi”⁷¹. Demak, milliy tamoyillar bilan birga mintaqaviy tamoyillar ham mavjud. Ko‘rinib turibdiki, I.A.Karimovning ta‘kidlashicha, demokratiyani shakllantirishda O‘zbekiston uchun Farb namunasi emas, ko‘proq Sharq tajribasi qo‘l keladi. “Osiyo” mintaqasi va musulmon Sharqidagi demokratik qadriyatlar va o‘zgarishlar rivojining tajribasi o‘ziga xos xususiyatlar, o‘ziga xos an‘analarga ega. SHarqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g‘oyasi, jamoatchilikning fikricha, ustuvorlik zaminida shakllanadi”⁷². Osiyo mintaqasi va musulmon Sharqining boy tarixiy tajribasiga asoslanib, I.A.Karimov O‘zbekistonda demokratik tamoyillarning rivoji to‘g‘risida nihoyatda muhim xulosaga keladi: ”Bizning mamlakatimizda, -deydi 1-Yurtboshimiz, - demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishi zarur. Ahloqiy, ma‘naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor”⁷³.

Milliy tamoyillar va qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi

Milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda tutgan o‘rni. Har bir millat o‘z qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalq rivoji uchun imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish - demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi o‘rnini aniqlash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar ham, amaliyot bilan bog‘liq muammolar ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Negaki, biron-bir jamiyat ma‘naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o‘z istiqbollarini tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning SHarqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma‘naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o‘tmishidagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganligi sababi ham ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo‘lganligidir. «Biz, deb ta‘kidlaydi I.A.Karimov, - ma‘naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma‘naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»⁷⁴. Demak, **birinchidan**, O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib bo‘lmaydi.

Ammo biron-bir narsa va hodisa, xoh u moddiy bo‘lsin, xoh ma‘naviy bo‘lsin, qadriyatga aylanishi uchun ma‘lum bir vaqt, davr o‘tishi kerak. Demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib o‘tgan. SHunga o‘tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat hisoblanavermaydi. **Ikkinchidan**, uning **milliy qadriyatga** aylanishi uchun o‘zini ko‘rsata olishi shart. Demak, biz demokratik jamiyat qurishdagi o‘tmishimizdagi barcha narsalarimizni to‘laligicha ololmaymiz. Negaki u hamma uchun ibratli emas.

⁶⁹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3 Т., -Т.: «Ўзбекистон» 1996, 8-9 бетлар.

⁷⁰ Ўша манба. 8-9 бетлар.

⁷¹ Ўша манба. 9-бет.

⁷² Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т3. –Т.: «Ўзбекистон» 1996, 9-бет.

⁷³ Ўша манба, 9-10 бетлар.

⁷⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997. 137-б.

Shu o'ringa Birinchi Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi «... o'tmish qadriyatlarga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka - hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin» edi. Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi muxolifatning vujudga kelish xavfi tug'ildi. U aslini olganda, ma'naviyatga qarshi muxolifat bo'lishi mumkin edi⁷⁵. **Uchinchidan**, "Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi"⁷⁶. Negaki, milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda **milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga** ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarining qaror topishiga zamin yaratadi.

Demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda shakllanishi. Ularning mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'lishi. Demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mutanosibligi hamda rivoji. O'zbekistonda adolatli demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlarning ma'lum ma'noda umumbashariy ahamiyat kasb etishi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tushunchalarining demokratik uyg'unligi dialektikasining qiyosiy tahlili jarayonida Amir Temur siyosiy-huquqiy qarashlarini o'rganish zarur. Amir Temur siyosatining bu g'oyasi "Kuch-qudrat, iqtidor-adl-insofda", deganidir. Saltanatni boshqarishida uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida boshqardim⁷⁷ degan fikrlari umuminsoniy demokratik va milliy qadriyatlar tushunchasining ijtimoiy-falsafiy, ilmiy nazariy va metodologik ildizlarini tashkil etadi. Binobarin biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustaxkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqlarning madaniy qadriyatlari, **to'rtinchidan, ma'naviy merosining** ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu borada fikr yuritib, shunday deb ta'kidlaganlar: "Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"⁷⁸. Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo'lmaydi. Qadriyatlar haqida fikr yuritganda uning ikkita tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo, insonning ob'ektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyatini alohida tahlil qilish zarur. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga o'tishdan meros

⁷⁵ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. –Т.: «Ўзбекистон», 1998, 126-б.

⁷⁶ Мустақиллик изохли илмий-оммабоп луғати (А.Жалолов ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда) — Т.: "Шарқ", 1999, 141 б.

⁷⁷ Темур Тузуқлари. -Т, Фофур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991, 57-бет.

⁷⁸ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.:Ўзбекистон, 1997, 141 б.

bo‘lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo‘lgan qadriyatlarga kiradi. **Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o‘zgartirishning muhim omilidir.**

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tamoyillar uyg‘unligi qiyosiy tahlili uning inson ma’naviy kamolatining muhim omili ekanligidan kelib chiqishi zarur. Bunga:

Yurtboshimizning “Mustaqillikka erishganimizdan keyingina biz buyuk ajdodlarimizning hurmatini o‘rniga qo‘ya oldik. Bizning bu intilishlarimizni Markaziy Osiyodagi qo‘shnilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo‘llab-quvvatladi. Bu hol tasodifiy emas — sohibqiron Amir Temur shaxsi uning avlodlari bo‘lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma’rifiy insoniyatning boyligidir” degan fikrlari har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo‘shgan shaxslar ham milliy qadriyatlar jumlasiga kirishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan Amir Temur shaxsi buning yorqin isbotidir. Binobarin, Amir Temur qanchalik taqvodor, asl musulmon bo‘lmasin, qonunchilikning turli tizimlari — diniy va dunyoviy tomonlari borligini, ularni hisobga olish kerakligini juda to‘g‘ri anglagan. Amir Temur qonunchilik deganda faqat, Shariat qonunchiligini emas, balki boshqa xalqlar qadriyatlari, urf-odatlarini ham tushungan.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi xos jihatlari quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) tug‘ilgan makon va ona yurtga ehtirov;
- 2) ajdodlar xotirasiga sadoqat;
- 3) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat;
- 4) insoniy muomalada mulozamat;
- 5) hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi.

Ma’lumki, demokratik qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular:

- mahalliy;
- milliy;
- mintaqaviy;
- umuminsoniy mazmunda namoyon bo‘ladi.

Milliy muhit demokratik qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. Aynan milliy muhit mahalliy qadriyatlarning ustuvorlarini o‘z darajasiga ko‘taradi va ularni voyaga etkazib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqadi. Umuminsoniy qadriyatlarni har bir kishi o‘zining boyligiga aylantirgandagina milliy tamoyillar o‘z kuchini ko‘rsatadi. “SHu bilan birga o‘tmish qadriyatlariga, an‘analarga va turmush tarziga betartib ravishda orqa-ketini o‘ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka — hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin”⁷⁹ deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Biz bugungi kunda haqiqiy qadriyatlarimizni:

- tadrijiylik, andishalilik asosida;
- buhron paytida sabr-toqat, maromiylilik va vazminlik asosida;
- mulozamatda sertakalluflik, keksalarga munosabatda hurmat-izzat asosida;
- ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik, sipolik va boshqa asoslarda asrab-avaylab rivojlantirmoqdamiz.

«Bugungi kunda, - mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, - an’anaviy qadriyatlarimizni demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo‘shilishining garovidir»⁸⁰. SHu nuqtai nazardan umumbashariy demokratik tamoyillarni qaror toptirish, ko‘p bor ta’kidlanganidek, jamiyatimiz taraqqiyotidagi eng murakkab masalalardan biridir. Ayniqsa, bu uzoq vaqt totalitar tuzum asoratida yashagan sobiq ittifoq makonida, jumladan O‘zbekistonda ham uning illatlaridan

⁷⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.:Ўзбекистон, 1997, 138 б.

⁸⁰ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 135-б.

butkul qutula olmagan jamiyatda yanada murakkabroq kechadi. Ana shu murakkab jarayonni, ijtimoiy-siyosiy larzalarga olib kelmaslikning yo'llaridan biri, qonun ustuvorligi tamoyilidir.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi - demokratik jamiyat qurishning muhim sharti.

Demokratik jamiyat konsepsiyasida milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlarning o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Negaki, ular o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlarda ob'ektiv zaruratlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun milliy qadriyatlar diniy qarashlar bag'rida shakllanganligidir. SHunga ko'ra bizning milliy qadriyatlarimiz faqat islom zaminida vujudga kelmagan, balki zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlardan ham ko'p narsalarni olgan. Binobarin, har qanday qadriyatlarning bosh manbai ijtimoiy hayotdir. Buning isboti sifatida hozirgi davrda mamlakatimizda ko'pgina tarixan din bilan bog'liq qadriyatlar o'zlarining diniy mazmunini o'zgartirib, dunyoviy milliy qadriyatlarga aylanganligidir. Ayni paytda, demokratik jamiyatni barpo etishda din har doim ham uning tarafdori bo'lavermaydi. Ayniqsa, hozirgi murakkab o'tish davrida islom g'oyalari va qarashlaridan bir-biriga tubdan qarama-qarshi maqsadlar yo'lida foydalanishga urinishlar jonlangan bir paytda, ana shu omilning o'rnini alohida tahlil etish zarur.

Uning zaruratini I.A.Karimov alohida va bir necha marta ta'kidlab kelmoqda. «Mustaqillik yillarida eng katta qo'lga kiritgan yutuqlarimizdan biri tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi o'rni va ahamiyatini qayta tiklanganligidir. Ayni zamonda, tajovuzkor aqidaparast kuchlar islom dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanligidan foydalanib, O'zbekistonni demokratik, ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga intilmoqdalar». Keyingi yillarda dunyo miqyosida islomdan qarama-qarshi maqsad yo'lida foydalanishlar yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishda milliy tamoyillarning asosini tashkil etuvchi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qadriyatlar alohida o'ringa egadir. Mustaqillik tufayli unga bo'lgan yangicha yondashuvlar Prezident I.A.Karimovning milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi metodologik ilmiy mulohazalari hamda amaliy faoliyatlaridagi ko'rsatmalari, tashabbuslari buning yorqin misolidir. O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizga asoslanadi.

Shu nuqtai nazardan, qadriyat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ko'pgina ilmiy ta'riflari mavjud. Berilgan ta'riflarni tahlil etish bir tomondan turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ikkinchi tomondan esa, ularning butunlay bir-birini inkor etishi hollarining mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan, "Falsafiy ensiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: "Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U **birinchidan**, bir ob'ektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, **ikkinchidan**, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi"⁸¹. Rus tilidagi "sennost" ya'ni qadriyat tushunchasiga, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, ma'naviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan.

Ana shunga yaqin nuqtai nazar boshqa ilmiy manbalarda ham bayon etilgan: "Qadriyat (falsafa, sotsiologiyada) - voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarining mazmuni va xarakteriga ko'ra, **progressiv va reaksiyon tiplarga** ajratish mumkin" deyilgan. Fikrimizcha, bunday ta'riflar mazkur kategoriyani o'ta sig'imdor qilish bilan birga, uning asli mohiyatini aniqlashda bir qator ilmiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Shunga ko'ra uning mazmuni, tuzilishi, asosiy shakllari namoyon bo'lish xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tizimi, bu tizimdagi asosiy qadriyat shakllarining o'rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish bilan bog'liq bir qator masalalarga e'tibor kam ekanligini ko'rsatib o'tish lozim.

"Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib,

⁸¹ Философская энциклопедия, М., 1970, Т 5, с. 462

qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim⁸². Rus, ingliz, nemis, fransuz va chex tillarida Rossiya Fanlar Akademiyasining akdemigi G.V.Osipov muharrirligida chop etilgan "Sotsiologicheskii ensiklopedicheskiy slovar"da qadriyatlarni baholash, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy qadriyatlar, qadriyatlar yo'nalishi va umuman qadriyatlarga ta'riflar berilgan⁸³. Qadriyatlar tushunchasiga "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati"da ham alohida o'rin ajratilgan.

"Qadriyatlar — jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi"⁸⁴ degan ta'rif berilgan. Qadriyatlarni bunday ta'riflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodalasada, lekin qadriyatlarga berilgan ta'riflar ichida o'zining ilmiyligi bilan boshqa ta'riflardan ajralib turadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, **"umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi.** Umuminsoniy qadriyat tushunchasining ob'ektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz xayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir". Darxaqiqat "umuminsoniylik" tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odam zotining hayoti va kamoloti uning tarixiy taraqqiyoti, siyosiy va boshqa birliklar uchun ahamiyati o'z ifodasini topishi kerak. Shu o'rinda insoniyatning eng umumiy jamoasi bo'lgan jamiyatgina, umuminsoniy qadriyatlarining yaratguvchisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamlı va serqirra tushuncha. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy ma'no va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat, deyish mumkin. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish va uni shunday izohlash ham ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri emas.

Yuqoridagi adabiyotlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, o'tmishdagi barcha ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarda qadriyatlarining mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga katta e'tibor berishgan. Agarda qadimgi dunyo ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarida umuminsoniy qadriyatlar inson aqliy taraqqiyotining mahsuli deb qaralgan bo'lsa, Turondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida "Avesto"dagi uchinchi davr deb atalgan insoniyat kelajak istiqboli, adolatli jamiyat haqidagi fikrlar uning tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy ijtimoiy asoslarini bayon eting?
2. Millatning genofondi nima?
3. Milliy tamoyillar, qadriyatlarining tarixiy, falsafiy ildizlari va zamonaviyligini izohlab bering?
4. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligini asoslang?
5. Terrorizmning demokratik jamiyat qurishga qarshi qaratilgan qanday xavf-xatarlari mavjud?
6. Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida milliy, umuminsoniy, qadriyatlar tushunchasi haqida nimalar bayon etilgan?

MAVZUNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI UCHUN O'QUV MATERIALLAR

⁸² Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar tўplami), -T., Ўзбекистон, 1997, 198 б.
Т.Комилова, С.Абидова Миллий ахлоқий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамияти, ЎзФА, "Фан"наш., 2000, 20 б. Б.С. Ерасов Культурология, 2-е изд., М.: "Аспект-Пресс", 1997, 591 б.

Н. Ортиқов Маънавият: Миллий ва умуминсоний қадриятлар, -Т., "Ўзбекистон", 1997, 48 б.

⁸³ Г.В.Осипов. Социологический энциклопедический словарь, М. 2000, 402-403 с.

⁸⁴ Мустақиллик изохли илмий-оммабоп луғат. А. Жалолов ва Қ. Хоназаров умумий таҳририда. -Т.: "Шарк", 1998, 279-бет

5-mavzu

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari

Reja:

1. Demokratik jamiyatning milliy va umumbashariy tamoyillari
2. “Ma’naviy tiklanish” va “ma’naviy yangilanish” tushunchalari, ularning zarurligi. Milliy – ma’naviy o’zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi
3. Mustaqil O’zbekiston davlat siyosatining insoniylik va ezgulik qonunlariga asoslanishi

25.08.2016

1

Demokratiya va ma’naviyat

- Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsad etib belgilangan bir paytda demokratik tamoyillarni egallash fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish shaxs erkinligini amalda joriy etish siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish demokratik meyorlar asosida ko’ppartiyaviylik tizimini takomillashtirish davlat boshqaruvi organlarining ayrim vakolatlarini bosqichma bosqich jamoat va o’z-o’zini boshqarish tashkilotlariga o’tkazish kabi vazifalar umuminsoniy qadriyatlarni o’zida ifoda etgan holda **ma’naviyat bilan tutashadi**

25.08.2016

4

Demokratiya bu –yuksak ma’naviyat va ichki madaniyatni oshkotch etish imkoniyatidir



Demokratiyani oily qadriyat darajada tushunish quyidagilarga bevosita bog’liq

Harbir kishining ichki madaniyati

Ma’naviy qiyofasi


Butun millatning umumiy saviyasi

Onglilik darajasi

Siyosiy va ijtimoiy faolligi

25.08.2016

5



Ma’naviyat — insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o’z tasdig’ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo’lamiz.

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo’lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko’ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo’lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo’qotsak, bu o’ta muhim ishni o’z holiga, o’zibo’larchilikka tashlab qo’yadigan bo’lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo’qilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o’zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo’lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Ma'naviy meros

Qadim zamonlardan beri ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, odob-ahloq meyorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir.

Milliy ma'naviy qadriyatlar

muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan, ma'naviy boyliklari, amallar va tamoyillar, g'oyalardir. Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qiymatli bo'lgan ma'naviy **boyliklari** bo'ladi.

Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham u o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixoriga aylangan durdonalaridir.



6-MAVZU: QONUN USTUVORLIGI – DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI QURISHNING ASOSI

Reja:

1. “Qonun ustuvorligi” tushunchasi, mohiyat – mazmuni
2. O'zbekistonda davlat xokimiyatining bo'linish tamoyili
3. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashi
4. Jinoyat va jinoyat- prosessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvar tamoyiligi muvofiqligi

Tayanch soʻz va iboralar: *Qonun ustuvorligi, davlat hokimiyati, qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyat, davlat hokimiyatining bo'linish tamoyili, davlat hokimiyati tizimining demokratlashuvi*

“Qonun ustuvorligi” tushunchasi, mohiyat – mazmuni

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'lini - ya'ni bozor iqtisodi tamoyillariga asoslangan erkin, ochiq demokratik davlat qurish vazifasini asosiy maqsad qilib belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz... Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart⁸⁵.

⁸⁵ Каримов И. А. Ўзбекистоннинг сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг биринчи сессиясидаги маъруза. 1995 йил 23 феврал. «Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир» китобида, 3-ж., -Т.: Ўзбекистон, 1996, 10-б.

Darhaqiqat, adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog'liqdir. Birinchi Yurtboshimiz belgilab berganlaridek, qabul qilinayotgan qonunlarimizning zamirida adolat yotishi lozim. Adolatga asoslangan qonunlarning hayotga tatbiq etilishi adolatning tantana qilishiga olib keladi.

Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo'lishi, o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart. Bunday qonunlarga og'ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. Chunki barcha demokratik institutlar, inson huquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri - jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlanganligidir. Shu bilan birga Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim.

«Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi»⁸⁶.

Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida belgilab berilgan. Konstitutsiyaning III bobi ikkita 15 va 16-moddalaridan iborat bo'lib, Konstitutsiya va qonun ustunligiga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

O'z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirish sanab o'tilgan sub'ektlarning konstitutsiyaviy burchi bo'lib hisoblanadi. Agarda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, mansabdor shaxslar yoki fuqarolar o'zlarining bu burchlarini bajarmasalar, ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o'zida yoki tegishli qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Masalan, Konstitutsiya 93-moddasining 12-bandiga muvofiq Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan tuman va shahar hokimlarini Respublika Prezidenti o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.

Bu borada shuni ham aytib o'tish lozimki, Konstitutsiyaning normasi boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. Chunki Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar uchun po'ydevordir.

Shuning uchun ham Konstitutsiya 16-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan «Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas». Agarda birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo'lsa, u bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini ta'minlash mexanizmi ishlab chiqilgan va amalda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunining 26-moddasi birinchi qismiga muvofiq «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi».

⁸⁶ Каримов И.А. Адолат қонун устуворлигида. Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг олтинчи сессиясидаги маъруза. 2001 йил 29 август. «Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак» китобида, 10-ж., – Т: Ўзбекистон, 2002, 28-бет

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 1-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti «fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir».

Bu normaga ko‘ra Prezident **birinchidan**, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilayotganligini, **ikkinchidan** esa, ularning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilib boradi.

Qonunlarga qat’iy rioya etilishi jinoyatchilikning oldini olishning, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikning zarur shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qonunning kuchi, obro‘si, ta’siri, amaliy ahamiyati hayotda uning halol, haqiqiy, odilona tatbiq etilishidadir. Agar qonun ijrochilari burchlari va mas’uliyatlariga xolisona odilona yondashib, to‘g‘ri yo‘ldan toymay Vatan, davlat manfaati va taqdirini o‘zlari uchun oliy maqsad deb hisoblab qonunlarni turmushga adolatli qo‘llasalar, bundan davlat va jamiyat ham, xalq ham naf ko‘radi.

—Qonun – ijrosi bilan kuchlil – degan iboraga urg‘u beradigan bo‘lsak, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida qonunlarni ijro etishda halollik va adolat asosida ish yuritish mutasaddilar uchun asosiy maqsad, jamiyat, xalq va Vatan oldidagi buyuk insoniy burch, yuksak mas’uliyat bo‘lmog‘i lozim.

Demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyatda qonunning hukmronligini qaror toptirishni taqozo etadi. CHinakam huquqiy davlat barpo etmoq uchun mamlakatda adolatli, insonparvar demokratik qonunlar tantana qilmog‘i lozim. Qonunning oliyligi davlat va jamiyat hayotining muqaddas prinsiplaridan biridir. Ijtimoiy siyosiy turmushda qonun muqaddas sanalib, uning yuksak nufuzga ega bo‘lishining boisi shuki, unda xalqning irodasi, xohish va istaklari, manfaat va intilishlari o‘zining ifodasini topadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, mamlakatda bozor munosabatlariga o‘tishning O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I. Karimov tomonidan e‘lon qilingan besh prinsipi orasida qonunning hamma narsadan ustun bo‘lishi va qonunga itoatkorlik prinsipi alohida o‘rin tutadi

Qonun ustuvorligining ahamiyati haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalambor, xalqning manfaatlari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, davlat ishini tashkil etish va shunga o‘xshash boshqa masalalarda muhim ahamiyatga ega.

Qonun ustuvorligiga erishish uchun avvalambor ularni qabul qilish jarayonida puxta va mukammal qilib, jamiyatda kelajakda uzoq vaqt o‘z foydasini bera oladigan darajada ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari qonunlarni qabul qilish jarayonida shuni e‘tiborga olish lozimki, ya’ni jamiyat, xalq ushbu qonunga ehtiyoj sezayaptimi yoki yo‘qmi. Aynan shu masala ham qabul qilinadigan qonunning hayotda qay darajada jamiyatga naf keltirishi keltirmasligini belgilab beradi.

Qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda noroziliklar ham bo‘lmaydi, chunki barcha soha vakillari qonun asosida faoliyat yuritar ekan norozilik va tushunmovchilikning o‘zi bo‘lmaydi. Qonunlarning ustuvorligi jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun shu jumladan, davlat xizmatida ishlovchi shaxslar uchun, shuningdek jamiyatdagi barcha sohalarga taalluqli bo‘lganligi uning yanada mukammal tus olishigi olib keladi. Qonun ustuvorligi haqida so‘z yuritganda uning ustuvorligini ta‘minlovchi davlat organlari haqida ham unutmashimiz lozim. CHunki qonun qabul qilinishining o‘zi bu uning jamiyatda o‘z-o‘zidan ustuvor xususiyatga ega degani emas, buning uchun davlat organlarining bu borada hizmatlari va mehnatlari talab etiladi.

Qolaversa, qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta‘minlashga mas’ul bo‘lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga —etalon bo‘lishlari lozim bo‘ladi. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xatti-harakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek fuqarolarning hokimiyatga ishonchining barbod bo‘lishiga olib keladi.

Qonun ustuvorligini ta‘minlovchi asosiy shartlar.

Huquqiy demokratiyaga asoslangan jamiyatda qonun ustuvorligi prinsipini ta‘minlovchi asosiy shartlar quyidagilardan iborat.

Birinchidan, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining real joriy etilganligi. Bu prinsipga ko‘ra qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo‘g‘inlari o‘zlarining Konstitutsiyada va qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar.

Konstitutsiya va qonunlarga nafaqat fuqarolar, uni qo‘llovchi davlat idoralari va mansabdor shaxslar ham, shuningdek, qonunlarni yaratuvchi hokimiyat organi ham itoat etishga majbur. Hokimiyatlarning oqilona taqsimlanishi davlat tuzilmalarining samarali ishlashi, suiste‘mollarning bartaraf etilishi, inson huquq va erkinliklari amalda ta‘minlanishi, umuman, demokratiya va qonun ustuvorligining muhim garovidir.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining birinchi bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir. Prezident o‘z farmonlari va huquqiy qarorlari bilan Konstitutsiyaviy tamoyillarning qonunlarda mustahkamlangan qoidalarining hayotga to‘la joriy etilishi uchun yo‘l ochadi, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Prezidentning o‘zi qonunlarga qat‘iy amal qilishi bilan davlat idoralari va mutasaddi shaxslar uchun ibrat, namuna ko‘rsatib, ularni ham Konstitutsiya va qonunlarga og‘ishmay rioya etishga safarbar etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2002 yilning 4 yanvarida —O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risidal farmoyish qabul qilinganligi jamiyatda aholining huquqiy bilimdonligi va madaniyatini oshirish bilan birga Konstitutsiyaning mavqei va nufuzini ko‘tarishga qaratilgan siyosiy-huquqiy tadbirdir.

Uchinchidan, joriy qonunlar va barcha normativ huquqiy aktlar Konstitutsiyaga tamomila mos va unga muvofiq yaratilishi lozim. Bu esa mamlakatda qonuniylik va huquqiy tartibot, taraqqiyot va barqarorlik hukm surishiga olib keladi.

Asosiy qonunimizning 16-moddasi ikkinchi bandida —Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas deb qat‘iy qilib belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ana shu muhim Konstitutsiyaviy-huquqiy prinsipiga rioya etishni ta‘minlashga intilib kelmoqda.

Konstitutsiyaning ustuvorligini ta‘minlash uchun alohida muhofaza mexanizmi bo‘lishini taqozo etadi. Bunday mexanizmning asosiy va markaziy bo‘g‘inini – Konstitutsiyaviy sud tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sud o‘z vazifalarini bajarishda mustaqildir va o‘z faoliyatida faqat Konstitutsiya normalari hamda qoidalariga amal qiladi. Uning zimmasiga qonun chiqaruvchi, hukumat va davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Konstitutsiyaga sodiqlik, mustaqillik, oshkoralik va sudyalarning huquqlari-ning tengligi Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

To‘rtinchidan, qonun ustuvorligini ta‘minlovchi va mustahkamlovchi vositalardan biri kodekslashtirishdir. Kodekslar huquq tarmog‘ining bosh qonuni sifatida Konstitutsiya prinsiplarini rivojlantirish yo‘lida

yaratiladi va ular konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlardan keyingi maqeni egallaydi. Kodekslar o‘zining mantiqiy mukammalligi, pishiqligi, ichki barqarorligi huquqiy qoidalarga amal qilganligi tufayli kodeks normalari hayotda o‘zining amalini oson topadi.

Beshinchidan, qonun ustuvorligini ta‘minlashning asosiy omillarini quyidagicha e‘tirof etish mumkin:

- qonun chiqaruvchi jarayonni muttasil demokratlashtirib borish – insonparvar, adolatli xalqchil qonunlar yaratilishining garovidir;
- qonunning sifatini mukammallashtirish, uning ichki mexanizmi puxta, yuridik texnika nuqtai nazaridan benuqson bo‘lishiga erishish;
- qonunchilikni isloh qilish va takomillashtirishda —qonunda ta‘qiqlanmagan hamma narsaga ruxsat beriladi (fuqarolar uchun). —Faqat qonunda mustahkamlangan narsalargagina ruxsat beriladi (mansabdor shaxslar va davlat idoralari uchun) degan prinsipga qat‘iy amal qilinishiga erishish;
- qonunchilik faoliyatining yaqin yillar va istiqbolga mo‘ljallangan strategiyasini hamda qonun ustuvorligini ta‘minlash konsepsiyasini yaratish;
- qonunlar amal qilishining ijtimoiy mexanizmiga e‘tibor qaratish. Bu sohadagi ijtimoiy omillar (ta‘sir etuvchi kuchlar, vositalar) ni sinchiklab o‘rganish;
- aholining huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish.

Oltinchidan, qonun osti, idoraviy normativ hujjatlarga havolalar, ya'ni ilovalar (shior va deklaratsiyalar tarzidagi normalar) ko'p bo'lishining oldini olish zarur. Bunday ilovalar haddan ziyod ko'p bo'lishi keyinchalik amaliyotda qonun chetda qolib, uning o'rnini idoraviy hujjat egallab olishi bilan qonun ustuvorligiga ziyon etishi xavfini keltirib chiqaradi.

Ettinchidan, qonunlarning barqaror va ustuvor bo'lishiga erishish. Ularga tez-tez qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, pirovard natijada qonunning ahamiyati va nufuzi tushib ketishiga olib keladi.

Sakkizinchidan, jinoiy jazolarni liberallashtirish qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadiki, biz mavzuni bayon qilish jarayonida bunga alohida to'xtalamiz.

To'qqizinchidan, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlashda prokuror nazoratining roli katta. Prokurorlik nazorati faoliyatida qo'llaniladigan taqdimnoma, amrnoma, ogohnoma, qaror va arizalarning sifati va ta'sirchanligining yanada yuqori bo'lishida 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi —Prokuratura to'g'risidagi Qonunda ko'zda tutilgan qonuniylik, odillik, mustaqillik va oshkorlik prinsiplari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan maqsad, xalqimiz ham, prokuratura xodimlari ham ushbu tamoyillarni aniq tasavvur etishlari kerak. Holbuki, fuqarolar har bir prokuratura xodimidan ushbu tamoyillarni ro'yobga chiqarishni talab qilish huquqiga ega. Prokurorlik nazorati olib borayotgan prokurorlar esa o'z faoliyatida shu prinsiplarga og'ishmay rioya etishi shart. SHunday qilib, O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash uchun kompleks tashkiliy huquqiy kafolatlar yaratildi. Albatta, konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar va yuridik mexanizmlarni muttasil takomillashtirib, ularning samaradorligini oshirib borish lozim. Shu o'rinda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlashning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy kafolatlari ham mavjudligini esdan chiqarmaslik lozim.

Qonun ustuvorligini ta'minlash - huquqiy davlat barpo etishning asosiy mezon.
Huquqiy davlat tushunchasi demokratik davlat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratik, huquqiy davlat kuch, inqilob bilan emas, balki tabiiy-tarixiy evolyusion yo'l bilan barpo etiladi. Albatta, har qanday jamiyatda huquqiy davlat tushunchasi u yoki bu qonunlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Negaki, qonunlar huquq sifatida har bir davlatda mavjud va har qanday hokimiyat ulardan foydalanadi. Hamma gap o'sha qonunlarning qandayligida va ularning qanday bajarilishidadir.

Huquqiy davlatni belgilovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- 1) Xalq hokimiyatining amalga oshishi.
- 2) Huquqning hukmronligi, ya'ni shaxs huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi.
- 3) Konstitutsiya va qonun ustuvorligi.
- 4) Hokimiyat vakolatlarining bo'linish tamoyili.
- 5) Sud mustaqilligi.
- 6) Inson huquqlariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta'minlash.
- 7) Davlat va fuqarolarning o'zaro mas'uliyati.
- 8) Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi.
- 9) Huquqiy madaniyatlarning yuksak darajada ekanligi.
- 10) Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

Islom Karimov 2001 yil 29 avgustda Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis 6-sessiyasida **“Adolat qonun ustuvorligida”**gi ma'ruzasida quyidagi muhim jihatlarni alohida ta'kidlab o'tdi:

- 1) Sud mustaqilligini ta'minlash.
- 2) Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlarni tashkil etish.
- 3) Sudlar faoliyatini moddiy-texnika va moliyaviy jihatdan ta'minlash.
- 4) “Sudlar to'g'risida”gi Qonunga ko'ra sud kadrlarini tanlash va tayinlash mexanizmini mustahkamlash.

5) Jinoyatchilikning oldini olish uchun unga shafqatsiz jazo emas, balki qonuniy qay darajada anglashiga bog'liqligini hisobga olish.

I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzalarida «Huquqiy davlatning mazmun-mohiyatini belgilaydigan amaldagi

kodekslar, qonunlar, me'yoriy hujjatlarni tanqidiy baholagan holda huquqiy davlatni shakllantirish borasida birinchi galda qabul qilishimiz zarur bo'lgan yangi qonun va me'yoriy hujjatlarni aniqlab olishimiz kerak» deb ta'kidlab o'tdilar¹.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashda yurtboshimizning 1996 yil 31 oktyabrdagi «**Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi**»ni tuzish to'g'risidagi farmoni alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda Milliy markaz mamlakatimiz va butun jahondagi inson huquqlari, erkinliklarini jahon xalqaro huquq normalari asosida himoya etishning ta'sirli vositasi sifatida faoliyati ham ibratli bo'lmoqda. Biroq bu borada demokratik tamoyillarning hayotga to'liq joriy etilishida jiddiy ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan biri tom ma'nodagi sud mustaqilligiga erishishdan iboratdir. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Sudlar tom ma'nodagi mustaqil bo'lgan holdagina qonunlarning qat'iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz ta'minlanadi. Qaerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu erda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar»⁸⁷. Darhaqiqat qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlamasdan turib, demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi.

O'zbekistonda davlat xokimiyatining bo'linish tamoyili

Islom Karimovning "Parlament - jamiyat hayotining ko'zgusi" nutqida ko'tarilgan asosiy masalalar. 2005 yil 27 yanvarda O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi yig'ilishida Birinchi Prezident Islom Karimov "Parlament - jamiyat hayotining ko'zgusi" mavzusida nutq so'zladi. Haqiqatan ham Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, parlamentga saylovlar jarayonida, xalqimiz o'zining faolligi, siyosiy ongi va saviyasini yorqin namoyon etdi. Saylovlar oshkoralik, ochiqlik va qizg'in kurashlarda o'tdi, bu jarayon dunyo jamoatchigi tomonidan kuzatildi. Biz hech kimdan kam emasligimiz, demokratik davlat qurishda o'z yo'limiz borligi, o'ziga xosligi ayon bo'ldi. Doimo bosiq bo'lib jim o'tirish deputatlik faoliyatiga to'g'ri kelmaydi. Har bir deputat o'z vakolati va mas'uliyatini teran his qilishi kerak. **Deputat** – bu mustaqil fikrli inson. U qaysi partiyaga mansub bo'lmasin avvalo xalq oldida javob berishi kerak. Shu sabab xalq manfaatlarini yo'lida parlamentdagi g'oyalar, yondashuvga qarashlar xilma-xil bo'lgani yaxshi. Deputat zalda bo'ladigan muhokama va munozaralar vaqtida 3 ta narsani esdan chiqarmasligini bayon etdi: **Birinchidan**, har qaysi deputat o'zining qadr-qimmatini bilishi lozim. SHundagina u boshqalarni ham hurmat qiladi. **Ikkinchidan**, mehr-oqibatlilik bizning xalqimizga yarashadigan, xalqimizga xos bo'lgan fazilat ekanini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak. **Uchinchidan**, bobomiz Amir Temur aytganidek, qanday xalqning farzandimiz, degan savolni o'zimizga berishimiz kerak. Shu bilan birga kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik, degan savolni ham hech qachon unutmaslik zarur.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2007 yil 11 aprelda O'zbekiston Respublikasining «**Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida**»gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qonun 8 moddadan iborat ("Xalq so'zi", 2007 yil 12 aprel).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Davlat hokimiyatining tashkil etilish prinsiplari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham berilgan. 89-moddaga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zRda davlat boshlig'idir. Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov xuquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Uni saylash tartibi qonun bilan belgilanishi aytilgan. Yangi qoidaga ko'ra Prezidentning ayrim vakolatlari Senatga, ya'ni yuqori palataga bosqichma-bosqich o'tkazilishi aytilgan. Bu degani O'zbekistonning demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda fuqarolarning davlat hokimiyati boshqaruvidagi ishtiroki kengaytirilgan.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз.-Т.: Ўзбекистон, 2000. – 29-б.

⁸⁷ Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. II. –Т.: Ўзбекистон, 2003, 31-б.

Mustaqil davlatimizning bosh qomusi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan bo'lib, unga 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi O'zR qonuniga ko'ra Konstitutsiyaning 18,19,20,23-boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi. Konstitutsiyaning 1-bo'lim 11-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsiplari: 1) Davlat suvereniteti; 2) Xokimiyat haqchiligi tamoyiliga; 3) Inson va fuqaro huquq hamda erkinliklari ustuvorligi va poydevorligi tamoyili; 4) Davlat hokimiyatining bo'linish prinsipi; 5) siyosiy va mafkuraviy xilmaxillik tamoyili; 6) Demokratizm tamoyili; 7) Davlat va shaxsning o'zaro mas'uliyati tamoyili; 8) Davlat huquq tuzilishi tamoyillariga amal qiladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 5-bo'lim «Davlat hokimiyatining tashkil etilishi» deb nomlangan bo'lib, bunga birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi **Oliy Majlisi** haqidagi asosiy masala joy olgan. Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. **Oliy Majlis** 2 palatadan: Qonunchilik palatasi va Senatdan (yuqori) iboratligi bayon etilgan. Oliy Majlisning ana shu ikkala palatasi bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'z ifodasini topgan. **Oliy Majlis Qonunchilik palatasi** va **Senatning** birgalikdagi vakolatlari 21 ta bo'lib ular alohida izohlangan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlari 4 ta. Senatning mutlaq vakolatlari esa 14 tani tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi maqomi

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senat vakolat muddati — besh yil.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

Qonunchilik palatasi (quyi palata) bir yuz ellik deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining bir yuz o'ttiz besh deputati hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Qonunchilik palatasining o'n besh deputati O'zbekiston ekologik harakatidan saylanadi. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi.

Oliy Majlis Senati

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasidir. Senat a'zolari (senatorlar) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi. Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Senat ishi yalpi majlislariga (bundan buyon matnda majlislar deb yuritiladi) va uning qo'mitalari majlislariga to'planadigan senatorlar faoliyatiga asoslanadi. Senatda hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy yoki boshqa asosda guruhlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari

Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 2) O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarini hamda qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

- 4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasining hokimiyat tarmoqlari tizimini hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining vakolatlarini belgilash;
- 6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
- 7) boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;
- 8) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;
- 9) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;
- 10) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;
- 11) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish hamda uning ijrosini nazorat qilish;
- 12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;
- 13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;
- 15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari nomzodlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi;
- 16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;
- 17) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;
- 18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;
- 19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 20) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya va denonsatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 21) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi.

O'zbekistonda parlamentarizmning rivojlantirish tarixi

Huquqiy davlatchilikni shakllantirish ko'plab muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan murakkab va davomli jarayondir. Parlamentarizm printsiplari asosida faoliyat ko'rsatuvchi davlat institutlari bilan bog'liq masalalar O'zbekistonda huquqiy davlatchilikning qaror topishiga taalluqli muammolar silsilasida muhim o'rin tutadi. Chunki XXI asrning boshlariga kelib oddiy bir haqiqat - to'la vakolatga ega bo'lgan parlamentsiz mamlakatda to'laqonli demokratiya bo'lishi mumkin emasligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Binobarin, fuqarolar demokratiya to'g'risidagi tasavvurlarini avvalo davlatni idora etishda o'zlari ishtirok etishlarining real imkoniyati bilan, qolaversa parlament orqali qonun ijodkorligi jarayoniga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatlari bilan bog'laydilar.

Parlament tarixi asrlar bilan o'lchanadi. Zamonlar o'zgarishi bilan parlamentlarning roli ham izchil o'zgarib, uning mohiyati yangi g'oyalar, tamoyillar bilan, shakllanish va faoliyat ko'rsatish tajribasi bilan boyib bormoqda. Parlamentarizm g'oyasi birinchi ming yillik bo'sag'asida Rimda, Angliya va

Ispaniyada xalq majlislari shaklida yuzaga kelgan bo'lib, shundan so'ng davlat anjumani darajasiga ko'tarilgunga qadar yana bir necha taraqqiyot bosqichlaridan o'tdi.

Shu zaylda parlament davlat instituti sifatida uzoq tarixni bosib o'tdi. Parlamentarizm taraqqiyotining bosh tendentsiyasi shundan iboratki, parlamentlar ijtimoiy turmushda markaziy o'rin tutadi. Tabiiyki, har bir davlat parlamentning tuzilishi va faoliyat ko'rsatish masalalarini o'zicha hal etadi. Lekin bu keng amaliyotida hisobga olinadigan mushtarak belgilar bo'lishi mumkin emas, degan ma'noni anglatmaydi, albatta. Shu munosabat bilan parlament institutlari qaror topishi va rivojlanish tajribasi o'rganilishini ta'minlash, tarixdagi ularning ahamiyatini, o'rnini anglash, ular tabiatining hozirgi paytdagi tadrijiy taraqqiyoti va mohiyatini tushunib yetish, kelgusida uni rivojlantirish istiqbollari belgilab olish juda muhimdir.

O'zbekiston qonun chiqaruvchi oliy organining qaror topishi o'ziga xos jihatlariga ega. Bu avvalo tarixiy o'tmishga bog'liq. Milliy o'zlik davlat qurilishining turli shakl va usullarini nazarda tutadi. Shunday qurilishning tanlab olingan muayyan usuli esa milliy-tarixiy o'ziga xoslik bilan umumjahon tamoyillarining sintezidir. Zero, har qanday ijtimoiy voqelikni anglash uchun birinchi navbatda u muayyan tarixiy bosqichning konkret sharoitlarida qay tarzda yuzaga kelganligini, o'z taraqqiyotida qaysi asosiy bosqichlardan o'tganligini, ana shu rivojlanish jarayonida qay darajada o'zgarganligini, istiqbolda uning qay tarzda harakat qilishini anglab olish muhim ekanligi bejiz emas. Ana shu qoidalar har qanday ijtimoiy voqelikni, shu jumladan parlament singari muhim institut masalasini ko'rib chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, amaliyotning dalolat berishicha, parlamentarizmning qaror topishi o'ta murakkab, ba'zan esa mashaqqatli jarayondir.

Unda tarixiy davrning o'ziga xos jihatlari, har bir alohida mamlakatning ijtimoiy va davlat hayoti, milliy an'analari, xalqning huquqiy madaniyati va siyosiy xohish-irodasi namoyon bo'ladi. Tabiiyki, ijtimoiy amaliyotning rivoji, tarixiy taraqqiyotning kechishi mamlakat qonun chiqaruvchi organi to'g'risidagi nazariy tasavvurlarni ham o'zgartirib boradi.

Qonunchilik hokimiyati davlat hokimiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni takomillashtirish davlat hokimiyati butun tizimining tarixiy evolyutsiyasi bilan bog'liq. Shu sababli qonun chiqaruvchi oliy organlarning qaror topishi va rivojlanishi muammolarini har tomonlama tahlil etish davlat qurilishi nazariyasi va amaliyoti uchun, O'zbekiston parlamentarizmining kelajagi uchun teran ahamiyat kasb etadi. Ayni paytning o'zida istiqbolni belgilab olish uchun o'tmishni chuqur va xolis o'rganmoq zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Millatni asrash kerak, millatni asrash uchun esa uning haqiqiy tarixini o'rganish, avaylab himoyalash kerak". Demak, tarixiy yondashuv siyosiy-huquqiy tahlilning ajralmas qismi bo'lib, usiz siyosiy voqelikka haqqoniy baho berib bo'lmaydi.

O'zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi.

Birinchi davr: 1991-1994 yillar

ikkinchisi: 1995-2004 yillar

uchinchi davr: 2005 yildan hozirgi paytgacha.

Birinchi davr: 1991-1994 yillar

O'tish davri parlamenti deb atash mumkin bo'lgan oxirgi chaqiriq Oliy Kengash davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonunlarni qabul qildi.

Oliy Kengashning o'n ikkinchi sessiyasi 1994 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994 yil 25 dekabrda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi.

Uch bosqichda (1994 yil 25 dekabrda, 1995 yil 8 va 22 yanvarda) bo‘lib o‘tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko‘p partiyaviylik asosida o‘tkazildi.

Ikkinchi davr: 1995-2004 yillar

Oliy Kengash o‘rniga O‘zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti — Oliy Majlis shakllantirildi. Birinchi chaqiriq (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O‘zbekiston Xalq-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan 69 nafar, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan 47, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14 va «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan 7 nafar deputat bo‘lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko‘rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Ikkinchi chaqiriq (2000-2004 yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir katorada beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhleri ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraktsiyasi, 10 nafar deputatdan iborat «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraktsiyasi, 20 nafar deputatga ega bo‘lgan «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraktsiyasi, 34 nafar deputat tashkil etgan Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi fraktsiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq-demokratik partiyasi fraktsiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bloki ro‘yxatga olindi. Keyinchalik «Vatan taraqqiyoti» va «Fidokorlar» partiyalari bitta «Fidokorlar» partiyasiga birlashganligi munosabati bilan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraktsiyalari a‘zolari ham birlashib, 54 nafar deputatni birlashtirgan bitta fraktsiyani tashkil etdilar.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibida siyosiy partiyalarning fraktsiyalari va deputatlar bloklaridan tashqari quyidagi 13 ta qo‘mita ham faoliyat ko‘rsatdi:

- Byudjet, bank va moliya masalalari qo‘mitasi;
- Iqtisodiyotni isloh qilish masalalari va tadbirkorlik qo‘mitasi;
- Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi;
- Sanoat, qurilish, transport va aloqa masalalari qo‘mitasi;
- Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi;
- Matbuot va axborot qo‘mitasi;
- Ijtimoiy masalalar va bandlik qo‘mitasi;
- Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va oziq-ovqat qo‘mitasi;
- Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi;
- Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi;
- Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi;
- Yoshlar ishlari qo‘mitasi;
- Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi.

Parlamentda, shuningdek 3 ta doimiy komissiya ishlagan: Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta‘minoti komissiyasi; Oila va ayollar muammolari komissiyasi; Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi.

Mazkur bosqichda qonun ijodkorligi deputatlar ishining bosh yo‘nalishiga aylandi. 1995-2004 yillarda Oliy Majlis 240 ta qonun, 778 ta qaror qabul qildi, amaldagi qonun hujjatlariga 1573 ta o‘zgartish va qo‘shimcha kiritdi, 130 tadan ziyod xalqaro shartnoma va bitimni ratifikatsiya qildi. Mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organi mazkur bosqichda davlat suverenitetini, fuqarolar tinchligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga, jamiyatda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga ko‘maklashadigan qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishga intildi. Natijada parlament mamlakatning demokratik va taraqqiyot yo‘lidan mustaqil rivojlanib borishining huquqiy negizini anchagina kengaytirdi va mustahkamladi. Misol uchun, birinchi chaqiriq Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi, «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonunlarda, boshqa qonun

hujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asos solingan normalar yanada rivojlantirildi.

Parlament nazorati ham Oliy Majlis faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari qonunlar, konventsiyalar, milliy dasturlar ijrosini nazorat qilish tartibida har yili 60 ga yaqin masalani ko'rib chiqdilar. Bunday nazorat Qoraqalpog'iston Respublikasi, mamlakatning barcha viloyatlari, shuningdek Toshkent shahrini qamrab oldi. Bir palatali Oliy Majlisning nazorat faoliyatini tahlil etish bir qator qonuniyatlarni namoyon etdi. Birinchidan, mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini va huquqni tatbiq etish amaliyotini hisobga olgan holda muqaddam qabul qilingan qonunlarni takomillashtirish tamoyili yil sayin kuchaya bordi. Ikkinchidan, qonun ijodkorligi ishi borgan sari tarmoq tusini kasb etib, ayrim sohalaridagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga intildi. Uchinchidan, bir necha qo'mita va komissiyalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan tayyorlangan hamda muhokamaga kiritilgan huquqiy hujjatlarning soni ortib bordi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov va ikki palatali parlamenta o'tish (2004 yil dekabr — 2005 yil yanvar).

Ikki palatali parlamentga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish asosida amalga oshirilgan konstitutsion islohotlar, shuningdek asosiy konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinishi natijasida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazilib, u ikki bosqichdan iborat bo'ldi. Saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, saylov uchastkalariga bo'lingan 120 ta saylov okrugi tashkil etdi. Saylovning birinchi bosqichi 2004 yil 26 dekabr kuni o'tkazilib, 62 nafar xalq noibi, 2005 yil 9 yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi bosqichda Qonunchilik palatasiga 58 nafar deputat saylandi. Saylovlar ham O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ham saylovchilarning tashabbuskor guruhlari ko'rsatgan deputatlikka nomzodlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Saylovda quyidagi siyosiy partiyalar ishtirok etdi: O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasi, O'zbekiston «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi (2000 yilning iyunida «Fidokorlar» partiyasi «Vatan taraqqiyoti» partiyasi bilan birlashgan), O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, shuningdek O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi.

Uchinchi davr

Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar. Mamlakatimiz qonun chiqaruvchilarining ana shu tarixiy anjumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov dasturiy ma'ruza qilib, unda jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilashning aniq va teran asoslantirilgan kontseptsiyasini, shuningdek mamlakatimizni 2005 yilda va uzoq muddatli istiqbolda isloh etish hamda modernizatsiya qilishning asosiy vazifalarini ilgari surdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan 2005-2009 yillarga mo'ljallangan qonunchilik faoliyati dasturini qabul qildi.

Ikki palatali parlament tashkil etilgach, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraktsiyalarida oldindan ko'rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini albatta eshitish amaliyoti shakllandi.

Qonunchilik palatasi

Qonunchilik palatasi (quyi palata) bir yuz ellik deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining bir yuz o'ttiz besh deputati hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Qonunchilik palatasining o'n besh deputati O'zbekiston ekologik harakatidan saylanadi.

Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi.

Qonunchilik palatasi faoliyatining tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonuni va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish tartibi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qonunchilik palatasining vakolat muddati — besh yil.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qonunchilik palatasining deputati bo'lishi mumkin.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasi deputatlari o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

Qonunchilik palatasi deputati daxlsizlik huquqidan foydalanadi. U Qonunchilik palatasining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tomonidan beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasi deputatining maqomi qonun bilan belgilanadi.

Oxirgi 2014-2015 yillar saylovlarida Qonunchilik palatasi deputat urinlari quyidagicha taqsimlangan:

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi - 52 joy,

O'zbekiston „Milliy Tiklanish“ Demokratik partiyasi - 36 joy,

O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasi - 26 joy,

«Adolat» sotsial-demokratik partiyasi - 20 joy,

O'zbekiston ekologik harakati -15 joy.

Qonunchilik palatasi hujjatlari

Qonunchilik palatasi o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Qonunchilik palatasi qarorlari, Qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari

Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari jumlasiga:

- 1) Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;
- 3) Reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;
- 4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish kiradi.

FRAKSIYALAR VA DEPUTATLAR GURUHI

Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlarini shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin.

Fraksiya siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir.

Deputatlar guruhlarini Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko'rsatilmagan deputatlar tuzishga haqli.

Qonunchilik palatasi deputatining fraksiyaga yoki deputatlar guruhiga kirishi to'g'risidagi qaror ularning majlislarida qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasining deputati faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a'zosi bo'lishi mumkin.

Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan va Qonunchilik palatasiga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a'zosi bo'lishi mumkin.

Deputatlar birlashmalarining tashkil etilishi va faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasining kamida to'qqiz nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega.

Fraksiyalar va deputatlar guruhlarini ro'yxatdan o'tishi kerak. Qonunchilik palatasining majlisida fraksiya va deputatlar guruhining rahbari yoki boshqa vakili tegishincha fraksiya yoki deputatlar guruhi tuzilgani haqida palataga axborot beradi, bu Qonunchilik palatasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Qonunchilik palatasi fraksiya va deputatlar guruhi tuzilgani to'g'risida qaror qabul qiladi.

Fraksiya va deputatlar guruhi:

- Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan takliflar hamda fikr-mulohazalar kiritadi;
- Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan muzokaralarda fraksiya, deputatlar guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so'z berilishi huquqidan foydalanadi;
- kelishuv komissiyasi va boshqa komissiyalar tuzish to'g'risida masala qo'yadi;
- Qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etadi;
- Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan fraksiyaning, deputatlar guruhining fikrini Qonunchilik palatasi deputatlari o'rtasida tarqatadi;
- palataning Kengashi, qo'mitalari va komissiyalari ishida ishtirok etadi;
- Qonunchilik palatasida muhokama qilinayotgan qonun loyihalari va boshqa qarorlarning loyihalari yuzasidan o'z takliflarini kiritadi;
- hukumat a'zolarini ularning faoliyati masalalari yuzasidan eshitish to'g'risida masala qo'yadi;
- fraksiyaning, deputatlar guruhining faoliyati uchun zarur materiallar va hujjatlarni davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslaridan talab qilib oladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan fraksiya parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etadi.

O'z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda blok tuzadigan bir nechta fraksiyalar va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar ham parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etishi mumkin.

Yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan fraksiyalar, shuningdek saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar o'zlarini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin.

Fraksiyalarning blokka birlashishi qonunda nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishda ularning mustaqilligini cheklab qo'ymaydi.

O'zini parlamentdagi muxolifat deb e'lon qilgan fraksiya qonunda fraksiyalar uchun nazarda tutilgan vakolatlar bilan bir qatorda quyidagi huquqlarga ega:

- Qonunchilik palatasi mas'ul qo'mitasining tegishli masala bo'yicha ma'ruzasi bilan bir vaqtda qonun loyihasining muqobil tahririni kiritish;
- muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan o'zining alohida fikrini Qonunchilik palatasining yalpi majlisi bayonnomasiga kiritish;

- Senat tomonidan rad etilgan qonun bo'yicha kelishuv komissiyasida o'z vakillarining kafolatli ishtirok etishi.
- Parlamentdagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlamentdagi ko'pchilik tomonidan kamsitilishi mumkin emas.

QO'MITALAR

Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda qo'mitalar saylanadi.

Qo'mita raisi, uning o'rinbosari va qo'mita a'zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiya yoki guruhga mansubligini hamda saylovda saylovchilarning qancha ovozi o'lganligini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy) qaror bilan belgilanadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining barcha a'zolari teng huquqlardan foydalanadilar.

Qo'mita tarkibiga saylanmagan deputat uning ishida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishga haqli.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari Qonunchilik palatasi oldida mas'ul va unga hisobdordir.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari:

- o'z tashabbusi bilan yoki Qonunchilik palatasining topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi qonunlarining hamda o'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan Qonunchilik palatasi boshqa qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadi;
- qonun loyihalarining dastlabki tarzda ko'rib chiqilishini va ularni Qonunchilik palatasida ko'rib chiqishga tayyorlashni amalga oshiradi;
- qonunlarning loyihalari yuzasidan xulosalar beradi, qonun loyihasini Qonunchilik palatasining majlisi kun tartibiga kiritish, uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi;
- O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi yuzasidan xulosalar va takliflar beradi;
- Qonunchilik palatasining topshirig'iga yoki palata Kengashining tavsiyasiga binoan muayyan qonun loyihasi yoki palata vakolatlariga kiradigan boshqa masala yuzasidan mas'ul bo'ladi;
- kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlari tuzadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlarini jalb etadi;
- qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari vakillarining ular tomonidan kiritilgan qonun loyihasiga taalluqli masalalar yuzasidan fikrlarini eshitadi;
- kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqidagi axborotlarini eshitadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari ishni o'z rejalariga, shuningdek Qonunchilik palatasi, uning Spikeri va Kengashi topshiriqlari hamda tavsiyalariga muvofiq tashkil etadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining majlislari palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasi qo‘mitalarining majlislari, agar ularda qo‘mita a‘zolarining kamida yarmi hozir bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi qo‘mitalarining majlislari ochiq o‘tkaziladi. Zarurat bo‘lganida Qonunchilik palatasi qo‘mitalari yopiq majlis o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qo‘mitalarning majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining, televidenie, radio hamda boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin.

Qonunchilik palatasi qo‘mitalari ko‘rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qo‘mita jami a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi qo‘mitalarining davlat organlariga yuborilayotgan qarorlari ular tomonidan ko‘rib chiqilishi shart, natijalari yoki ko‘rilgan choralar to‘risida, agar qarorda boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, uzog‘i bilan bir oydan kechiktirmay xabar qilinishi kerak.

QO‘MITALAR

1. Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasi
2. Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi
3. Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi
4. Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi
5. Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasi
6. Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi
7. Fan, ta‘lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi
8. Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi
9. Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi
10. Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi
11. Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash masalalari qo‘mitasi
12. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi

Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkin.

Komissiya Qonunchilik palatasi majlisida deputatlar orasidan komissiya raisi va a‘zolaridan, zarurat bo‘lganida esa, shuningdek komissiya raisining o‘rinbosaridan iborat tarkibda tuziladi.

Komissiya tuzilgani to‘g‘risida Qonunchilik palatasi qaror qabul qiladi.

Qonunchilik palatasining komissiya tuzilgani to‘g‘risidagi qarorida komissiyaning nomi, maqsadi va vazifalari, uning miqdoriy va shaxsiy tarkibi, komissiyaning raisi, komissiyaning faoliyat ko‘rsatish muddati (oldindan belgilangan muddatga yoki muayyan vazifalarni bajarish muddatiga), komissiyaning vakolatlari, komissiya ishini ta‘minlash bo‘yicha tadbirlar belgilangan bo‘lishi kerak.

Ayrim masalalarni tayyorlash uchun komissiya davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning vakillari orasidan ishchi guruhlarini tuzishga haqlidir.

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining mablag‘larini boshqarish bo‘yicha parlament komissiyasi
2. Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining o‘zaro hamkorligini tashkil etish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash
4. Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya
5. Oila va ayollar masalalari bo‘yicha komissiya

Senat

Parlamentning quyi palatasi kabi Senat ham mamlakatning asosiy vakillik organi bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy va davlat-mintaqaviy vakillikni ifoda etadi. Qonunchilik palatasida hamma siyosiy

partiyalar fraktsiya orqali qatnashayotganligi va hozirgi vaqtda bitta harakat (Ekologik harakat) mavjudligi sababli Senatning ko'pchilik qismi mamlakatning barcha mintaqalari vakillaridan tashkil topgan, bunda u mamlakat palatalari o'rtasida zarur muvozanat va tenglikni ta'minlash, shuningdek mintaqalarning manfaatlarini umumdavlat manfaatlari bilan uyg'unlashtirish printsipligiga asoslangan. Jamiyatda shaxsning rolini yanada oshirish va mamlakat fuqarolarining real huquqlarini ta'minlashga qaratilgan davlat yo'li e'lon qilinganligini hisobga olib, parlamentning muhim printsiplining harakatlari hamda faoliyat mexanizmlari butun elektoratning o'y-fikrlarini ro'yobga chiqarishidan iboratdir.

Qonun chiqaruvchi oliy organni shakllantirish va uning bundan keyingi faoliyatining o'zgarmas printsiplining huquq va qonun ustunligini hamda hokimiyatning hamma tarmoqlari aniq chegaralanishi va muvozanatda bo'lishini ta'minlashdan iborat. Konstitutsiyaga va konstitutsiyaviy qonunlarga, boshqa huquqiy hujjatlarga muvofiq, Senat tarkibini shakllantirishda, birinchidan, mintaqaviy vakillik organlari senatorlarni saylash vositasida, ikkinchidan esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z Farmoni bilan 16 nafar senatorni tayinlashi yo'li bilan bevosita ishtirok etadilar.

Yuqori palataning 84 nafar a'zosini saylash "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi. Bu saylov oldingi chaqiriq deputatlar korpusining vakolat muddati tugaganidan keyin bo'lib o'tadi. Oliy Majlis Senatini shakllantirish mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari saylovi bilan bevosita uyg'unlashadi (o'zaro bog'liq bo'ladi). Qonun chiqaruvchi organning yuqori palatasiga parlament a'zolarini saylashning o'ziga xos jihati ham aslida shu. Bu ish senatorlikka nomzod ko'rsatishning «ko'p bosqichlilik» printsiplidan kelib chiqadi va ayni shu jihati bilan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga (quyi palataga) umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov asosida amalga oshiriladigan saylovlardan farq qiladi.

Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlarida senatorlikka nomzodga nisbatan yosh cheklovi belgilangan bo'lib, u saylov kuni 25 yoshga to'lgan bo'lishi lozim. Nomzodga qo'yiladigan yana bir talab uning saylov o'tkaziladigan kuniga qadar kamida besh yil mamlakat hududida muqim yashagan bo'lishi shart ekanligidir. Saylovlarni faqatgina davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirishga yo'l qo'yiladi.

Saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari saylanganidan keyin bir oy ichida ularning qo'shma majlislarida o'tkaziladi. Ana shu majlislarning to'la huquqliligi ularda mahalliy hokimiyat vakillik organlari deputatlari umumiy sonining kamida 2/3 (uchdan ikki) qismi ishtirok etishi bilan ta'minlanmog'i kerak. Senatga bo'ladigan saylovlarni o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining vakili ham ishtirok etadi. Bu hol Senat a'zolarini saylash tartibi to'g'risidagi nizomda tasdiqlab qo'yilgan.

Rahbariyat

Yo'ldoshev Nig'matilla To'liqinovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi

Safoyev Sodiq Solixovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari

Artikova Svetlana Baymirzayevna
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining o'rinbosari
Yerniyazov Musa Tajetdinovich
Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining o'rinbosari
Senat rahbariyati

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rahbariyati saylab qo'yiladigan organdir. Rahbariyat Senat Raisi va uning o'rinbosarlaridan iborat bo'lib, ular Senat tarkibi shakllantirilganidan keyin bir oydan kechiktirmay o'tkaziladigan palataning birinchi majlisida

saylanadi. Palata Raisi va uning o‘rinbosarlarini saylash yangi shakllantirilgan Oliy Majlis Senatining birinchi majlisi kun tartibidagi birinchi masaladir.

Senat rahbariyatini saylash quyidagi bosqichlardan iborat: yuqori palata Raisligiga va uning o‘rinbosarligiga nomzodlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan senatorlar orasidan taqdim etiladi. Senat Raisining o‘rinbosarlaridan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakillari bo‘lmish senatorlar orasidan saylanadi. Binobarin, Senat Raisining o‘rinbosarlaridan biri parlamentning yuqori palatasida O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi nomidan vakillik qiladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, Senat Raisining o‘rinbosarlari soni birinchi yalpi majlisda belgilab olinadi. Hozirgi kunda Rais o‘rinbosarlari vazifasini uch nafar senator bajarmoqda, ularning orasidagi biri Raisning birinchi o‘rinbosari vazifasini bajaradi. Rahbariyatni saylash taomili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taklif etgan nomzodlar bo‘yicha yashirin ovoz berishni o‘z ichiga oladi, natijada Senat Raisi va uning o‘rinbosarlari ovozlarning oddiy ko‘pchiligi (ya‘ni senatorlar umumiy sonining yarmidan ko‘pi) asosida saylanadi. Palata rahbariyati saylanganligi to‘g‘risida Senatning tegishli qarorlari qabul qilinib, palataning birinchi majlisida raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi. Odatda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi ana shu majlisda raislik qiladi.

Senat Raisi va uning o‘rinbosarlari palataning vakolat muddatiga, ya‘ni besh yilga saylanadi. Ana shu davrda ular siyosiy partiya va harakatlarga a‘zolikni to‘xtatib turadilar, shuningdek ular Senat qo‘mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas.

Senat Raisi zarur hollarda tegishli farmoyishlar chiqaradi. Senat Raisi yo‘qligida yoki u o‘z vazifalarini amalga oshirishi mumkin bo‘lmagan hollarda uning o‘rinbosarlari Senat Raisi vazifasini bajarib turadilar. Senat Raisini muddatidan ilgari ozod qilish senatorlarning malakali ko‘pchilik ovozi (ya‘ni senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko‘proq ovozi) bilan qabul qilingan qarorga binoan amalga oshiriladi. Qaror yashirin ovoz berish natijalariga qarab qabul qilinadi. Senat Raisi va uning o‘rinbosarlarini muddatidan ilgari chaqirib olish tashabbusi huquqiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismi ega.

Senat hujjatlari

Senat o‘zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Senat umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Senat qarorlari, ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, Senat a‘zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Senatning mutlaq vakolatlari

- 1) Senat Raisini va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislarini va ularning o‘rinbosarlarini saylash;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining raisini tayinlash;
- 6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;
- 8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;
- 9) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;
- 10) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiylar to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish;

- 11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Senat a‘zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;
- 12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;
- 13) Reglamentni hamda o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;
- 14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Senat qarorlarini qabul qilish kiradi.

Senat qo‘mitalari

- 1) Qonunchilik palatasi tomonidan Senatga ma‘qullash uchun yuborilgan qonunlar yuzasidan xulosalar beradi;
- 2) o‘zining vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan o‘z tashabbusi bilan, Senatning yoki Senat Raisining topshirig‘iga binoan Senat hujjatlari loyihalarini ishlab chiqadi;
- 3) qonunni majlis kun tartibiga kiritish yoki uning ustida ishlashni davom ettirish yoxud asoslantirilgan holda uni rad etish to‘g‘risida Kengashga takliflar kiritadi;
- 4) O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi yuzasidan xulosalar va takliflar beradi;
- 5) Senat majlisida hukumat a‘zolarining o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitish masalalarini qo‘yadi;
- 6) davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari va boshqa xulosalarni, statistika ma‘lumotlari hamda boshqa ma‘lumotlarni so‘rab oladi;
- 7) Qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlarni ko‘rib chiqish yoki nazorat tadbirlarini tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlar tuzadi, mazkur tadbirlarda bevosita ishtirok etish uchun ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning, xo‘jalik yurituvchi sub'yektlarning vakillarini, shuningdek mutaxassislar, ekspertlar va olimlarni jalb etadi;
- 8) kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Senat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o‘zgartirish yoki qo‘shimcha kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;
- 9) davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining ular tomonidan qonunlarga rioya etilishi, Senat va uning Kengashi, Senat qo‘mitalari qarorlarining bajarilishi to‘g‘risidagi xabarlarini eshitadi;
- 10) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining, Senat qarorlarining ijro etilishi holatini va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganadi;
- 11) yangi qabul qilingan qonunlar ijrosini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan qonunosti hujjatlari o‘z vaqtida qabul qilinishi ustidan monitoring yuritadi.

Qo‘mitalar

Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi

Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi

Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi

Fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi

Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi

Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi

Komissiyalar

Reglament va odob komissiyasi

Senatning mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiyasi

Senat komissiyalari

Senat Komissiyalari Senat muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkin.

Komissiya Senat majlisida senatorlar orasidan komissiya raisi va a‘zolaridan, zarurat bo‘lganda esa komissiya raisining o‘rinbosaridan iborat tarkibda tuziladi.

Ayni paytda komissiyani tuzishdan ko‘zlangan maqsad va uning vakolatlari belgilanadi.

Komissiya tuzilgani to‘g‘risida Senat qaror qabul qiladi.

Komissiya o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan so‘ng, qaysi muddatga tuzilgan bo‘lsa, shu muddat o‘tganidan keyin yoki Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari o‘z faoliyatini tugatadi.

Komissiyalarni tashkil yetish va ularning faoliyati tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Kengash a‘zosi

Yo‘ldoshev Nig‘matilla To‘lqinovich

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi

Safojev Sodiq Solixovich

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o‘rinbosari

Artikova Svetlana Baymirzayevna

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining o‘rinbosari

Yerniyazov Musa Tajetdinovich

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining o‘rinbosari

Kurmanov Alisher Anvarovich

Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi

Djumagaldiyev Muxamet Ruzimovich

Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi raisi

Matmuratov Batir Djoldasovich

Senatning Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisi

Dadakhodjaev Farrukh Saidakhmedovich

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi kaisi

Nizamxodjayev Zayniddin Maxamatovich

Senatning Fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi

Mirzaaliyev Iqboljon Mirzakarimovich

Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi, Reglament va o‘dov komissiyasi raisi

Senat Kengashi

Senatning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi.

Senat Kengashi doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi kollegial organdir.

Senat Kengashining tarkibiga Senat Raisi, uning o‘rinbosarlari va qo‘mitalarning raislari kiradi.

Senat Kengashiga Senat Raisi rahbarlik qiladi, u Kengashning majlislarini olib boradi va uning qarorlarini imzolaydi.

Senat Kengashi o‘z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan a‘zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

Senat Kengashi:

- 1) Senat majlisi kun tartibining loyihasini shakllantiradi;
- 2) Senat majlislarini chaqiradi;
- 3) qonunda nazarda tutilgan hollarda Senatning vakolatlariga taalluqli qarorlarni Senatning majlislari oralig‘ida qabul qiladi, ushbu qarorlar keyinchalik Senatning majlisida tasdiqlanadi;
- 4) qo‘mitalarning ishini muvofiqlashtirib boradi;
- 5) fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi boshlanishidan kamida ikki oy avval saylov o‘tkaziladigan muddatlarni belgilaydi;
- 6) fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari sayloviga tayyorgarlik tadbirlarini o‘tkazish muddatlari hamda tartibini belgilaydi;
- 7) fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi bo‘yicha byulletenlar namunalari hamda shakllarini belgilaydi va tasdiqlaydi;
- 8) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisining taqdimiga binoan qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqarmasi a‘zolarini tasdiqlaydi;
- 9) Senat faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq, shuningdek qonunda

SUD HOKIMIYATI – uchunchi hokimiyat organi tarmog‘i bo‘lib, u qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritiladi.

2007 yilga kelib uchinchi hokimiyat Sud tizimi sohasida quyidagi islohotlar o‘tkazilmoqda:

1) Jinoiy jazoga sanksiya berish prokuratura organlaridan sud tizimiga o‘tkazilmoqda; 2) Advokat, oqlovchilarning mavqei, rolini oshirish; 3) O‘lim jazosini jinoiy kodeksidan (2008 yil 1 yanvaridan) olib tashlash va uning o‘rniga uzoq muddatli, umrbod qamoq jazosini belgilash isloh qilinmoqda.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish – qonun ustuvorligining muhim sharti. Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g‘oyalariga asoslangan jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o‘zining samarasini bermoqda. Masalan, Respublikamiz Prezidenti tomonidan loyihasi kiritilib, 2001 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqiqida»gi Qonun bilan jinoyatlarni tasniflash engillashtirish ma‘nosida takomillashtirildi, yarashuv instituti joriy etildi. Jinoyat kodeksidagi o‘lim jazosini nazarda tutuvchi moddalar soni keskin kamaytirildi, mol-mulknı musodara qilish jinoiy jazo sifatida bekor qilindi va shu kabi inson huquqini himoya qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qo‘llanildi.

O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi 2001 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan Qonunining 20-moddasiga muvofiq «Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular

tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi».

Hulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qonun ustuvorligi quyidagi uchala holat bo‘lgandagina, o‘zining to‘liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlar adolat prinsipiga, inson huquqi va manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy asoslangan bo‘lishi shart.

Ikkinchidan, barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talabi barcha davlat organlari, mansabdor shahslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan qat’iy bajarilishi zarur.

Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo‘lishi – qonun ustuvorligini ta’minlashning asosiy mehanizmlarini tashkil etadi. Demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo‘lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir. Albatta, demokratik jamiyat qurish faqat qonun ustuvorligi bilan cheklanib qolmaydi, balki halqimizning milliy-ma’naviy negizlariga tayanishni taqozo etadi va zaruriy sharti qilib qo‘yadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘shishini, inflyasiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta’minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globalashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlangan “Harakatlar strategiyasi”ning **“Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari”** nomli ikkinchi ustuvor yo‘nalishi ham juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni o‘zida qamraydi.

Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari:

- Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash
- Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish
- Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish
- Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash
- Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish; fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash; ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish; jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish; sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash; yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish sohalariga doir ana shu dolzarb vazifalarning o‘z

vaqtida, to'laqonli, yuksak samaradorlik bilan bajarilishi bugungi kunimiz va istiqbolimiz uchun nihoyatda zarur.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu — qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iborat. Sud-huquq tizimini erkinlashtirish borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakatimizning demokratik qadriyatlar tarafdori ekanining yorqin ifodasidir.

“Harakatlar strategiyasi”da sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessi tomonlarining tortishuvi va teng huquqliligi tamoyillarini xar tomonlama tatbiq etish, shuningdek, «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha muayyan amaliy chora-tadbirlar belgilangani juda muhim. Zero, mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

“Harakatlar strategiyasi”da belgilangan vazifalar asosida sud-huquq tizimini isloh etish yo'nalishidagi huquqiy echimini topishi zarur bo'lgan qator muhim va dolzarb masalalar bo'yicha qonunlar qabul qilinishi, ularning zarur ijro mexanizmlari, aniq dastur va tizimlar joriy etilishi aholining davlatimizda amalga oshirilayotgan oqilona siyosatga ishonchini yanada oshiradi. SHuning barobarida, bu dadil qadam hokimiyat tizimida sudlar mustaqilligini yanada mustahkamlaydi va odil sudlov darajasini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirib, demokratik huquqiy davlat qurish hamda adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishimizga bevosita xizmat qiladi.

Davlat dasturining ikkinchi yo'nalishi qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalarning korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyasiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yo'nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarning, xabarlarining o'z vaqtida olinishini ta'minlash nazarda tutilmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek ushbu yo'nalish 2018 — 2021 yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o'qitish, tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e'lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYO organlarini isloh qilishni ham o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – sud tizimini izchil demokratlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 21 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan

takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4966-son farmoni asosida shu maqsadga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va nufuzini oshirish, sudlar tuzilmasini hamda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. Sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashadigan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, uning 21 nafar bo‘shayotgan ijro apparati shtat birligi Kengashga o‘tkazilsin.

3. Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari etib belgilansin:

- * sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, malakali va mas‘uliyatli mutaxassislar orasidan sudyalarni tayinlash, shuningdek rahbar sudyalik lavozimlariga ko‘rsatish uchun tavsiya berish yo‘li bilan sudyalar korpusini shakllantirish;
- * sudyalar daxlsizligi buzilishining va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;
- * sudyalarni kasbiy tayyorlash, malakasini oshirishni tashkil etish, ularning faoliyati samaradorligini baholash, shuningdek sudyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish;
- * ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik olib borish, aholi bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish, sudyalar tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi masalalari bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish;
- * sud-huquq sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini va yagona sud amaliyotini ta‘minlash, odil sudlovga erishish darajasini va uni amalga oshirish sifatini yaxshilash bo‘yicha takliflar tayyorlash; sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish, shuningdek ularni jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortishga xulosa berish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish.

Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80, 81, 83, 93, 107, 110, 112-moddalariga tegishli o‘zgartishlar va qo‘shimcha kiritilmoqda. Ushbu tuzatishlarga muvofiq Oliy xo‘jalik sudi va Oliy sud fuqarolik, jinoiy, ma‘muriy va iqtisodiy sud ishi yurituvchi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organiga – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirilmoqda. Mazkur konstitutsiyaviy tuzatishlarga muvofiq sud tizimida iqtisodiy va ma‘muriy sudlar tuzilmoqda. Senatorlar qayd etganlaridek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtisodiy, ma‘muriy sudlarini, shuningdek, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlarini hamda tuman, shahar ma‘muriy sudlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi ushbu konstitutsiyaviy o‘zgartishlar mamlakatimizda olib borilayotgan ma‘muriy, iqtisodiy, bozor islohotlarini sud-huquqiy jihatdan ta‘minlash samaradorligini oshirishning, xususiy mulk huquqini, tadbirkorlik faoliyatini sudda ishonchli himoya qilishning muhim omiliga aylanadi. Jumladan, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma‘muriy nizolarni, shu jumladan, davlat organlarining harakatlariga yoki harakatsizligiga, qarorlari ustidan fuqarolarning, tadbirkorlik sub‘ektlarining bergan shikoyatlarini va murojaatlarini ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan turli darajadagi ma‘muriy sudlarning tuzilishi insonlarning, yuridik shaxslarning qonuniy huquqlarini va erkinliklarini, manfaatlarini sudda himoya qilish samaradorligini tubdan oshiradi.

Asosiy qonunimizga kiritilayotgan o‘zgartishlarga muvofiq sud-huquq tizimida yangi institut – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi joriy etilmoqda. Bu Kengash avval amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasini almashtirishi lozim. Majlis davomida ta‘kidlanganidek, mazkur komissiya zarur konstitutsiyaviy maqomga, etarlicha vakolatlarga ega bo‘lmagan, bu esa amaldagi sudyalar korpusini shakllantirish ishlarining samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatgan.

Sudyalar oliy kengashi tuzilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 111-moddasining yangi tahririda Sudyalar oliy kengashining konstitutsiyaviy maqomi aniq mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi sudyalarning hamjamiyatining organi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati mustaqilligi haqidagi konstitutsiyaviy prinsipga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashishi belgilab qo'yilmoqda. Kengash raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tayinlanishi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 4-bandi), Sudyalar oliy kengashi a'zolari qonunga muvofiq davlat rahbari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yilmoqda.

Konstitutsiya Sudyalar oliy kengashiga keng vakolatlar beradi. Konstitutsiya 93-moddasi birinchi qismi 14-bandining yangi tahririga muvofiq Prezident O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi taqdimnomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va rais o'rinbosarlarini, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisini lavozimga tayinlaydi hamda lavozimidan ozod qiladi.

Ayni paytda Kengash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda harbiy sudlar, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari sudyalarni, tumanlararo, tuman, shahar sudlari raislarini hamda sudyalarni mustaqil ravishda lavozimga tayinlaydi hamda lavozimidan ozod qiladi. SHuni qayd etish kerakki, avval sudyalarning bu toifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanar edi.

Konstitutsiyaga sud hokimiyatining faoliyatini tubdan yaxshilashga, nufuzini oshirishga, sudlar tuzilishini takomillashtirishga hamda sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlash tizimini demokratlashtirishga qaratilgan ushbu va bir qator boshqa o'zgartish hamda qo'shimchalarning kiritilishi fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari sudda ishonchli himoya qilinishini ta'minlashning, mamlakatda qonun ustuvorligini, qonuniylikni mustahkamlashning muhim omiliga aylanadi.

Senatorlar "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini ko'rib chiqdilar. Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrda qabul qilingan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2017 yil 21 fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlariga muvofiq ishlab chiqildi. 2017 yilning 28 mart kuni Senatning 10 yalpi majlisida Senatorlar "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga, Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslariga kiritilayotgan o'zgartishlar hamda qo'shimchalar yangi tuzilayotgan ma'muriy va iqtisodiy sudlar faoliyatining tegishli huquqiy bazasini yaratishga qaratilganligini ta'kidladilar.

Xususan, Oliy xo'jalik sudi va Oliy sudning birlashtirilishi, iqtisodiy sudlar tashkil etilishi, harbiy sudlarning maqomi qayta ko'rib chiqilishi munosabati bilan "Sudlar to'g'risida"gi qonundan xo'jalik sudlarining faoliyatini tartibga soluvchi normalar chiqarib tashlanmoqda, okrug harbiy sudlari va harbiy hay'atlar tugatilmoqda. Oliy sud tuzilmasiga ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha hay'atlar kiritilmoqda, harbiy hay'at bekor qilinmoqda. Qonunga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar ma'muriy sudlar tasarrufidagi ish toifalarini aniq belgilab bermoqda. Bu davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, shuningdek, ular mansabdor shaxslarining ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan harakatlari (qarorlari) yuzasidan shikoyatlar va arizalar bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tuzilishi munosabati bilan "Sudlar to'g'risida"gi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Ushbu o'zgartish va qo'shimchalarga muvofiq Kengash zimmasiga sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash funksiyalari yuklatilmoqda. SHunday tartib belgilanmoqdaki, unga ko'ra sudya Sudyalar oliy kengashining xulosasisiz javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas. Kengash Raisiga Oliy sud Plenumi majlislarida ishtirok etish huquqi berilmoqda. "Sudlar to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga muvofiq sudyalarni saylash (tayinlash), ular

vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish tartibi belgilanmoqda. Qonunda sudya lavozimiga birinchi marta besh yillik muddatni, navbatdagi o'n yillik muddatni va sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davrini belgilash, umumiy sudyalik stajidan kelib chiqqan holda sudyalarning vakolat muddatini hisoblab chiqarish tartibi, sudlar raislarini 5 yilga saylash (tayinlash), ayni bir sudda ushbu lavozimni surunkasiga ikki muddatdan ortiq egallash mumkin emasligi nazarda tutilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyalari uchun sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi 70 yoshni, boshqa sudlarning sudyalari uchun 65 yoshni tashkil etadi. Oliy sudning sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi mamlakat Prezidenti tomonidan, boshqa sudlarning sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi Sudyalar oliy kengashi tomonidan besh yilgacha uzaytirilishi mumkin. Senatorlarning fikricha, ushbu Qonunning qabul qilinishi sud hokimiyatining nufuzini yanada oshirishga, chinakam mustaqilligini ta'minlashga, jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha sudlar faoliyatining samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. SHundan so'ng senatorlar "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini ko'rib chiqdilar. Qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq tayyorlandi. Senatorlar ta'kidlaganlaridek, ushbu qonun sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirishga va erkinlashtirishga, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga hamda qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan. Qonun bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik protsessual, Jinoyat-ijroiya kodekslariga, "Sudlar to'g'risida"gi va "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Ushbu o'zgartish va qo'shimchalarda qamoqqa olish tarzidagi jinoiy jazoni bekor qilish nazarda tutilmoqda, shu bilan bir vaqtda jinoiy jazolar tizimiga ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan engilroq jazo turi – "majburiy jamoat ishlari" kiritilmoqda. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni qamoqqa saqlash muddati 72 soatdan 48 soatgacha, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, shuningdek, dastlabki tergov muddatlari 12 oydan 7 oygacha qisqartirilmoqda. Bundan tashqari, ushbu o'zgartish va qo'shimchalarga muvofiq pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yishga va murdani ekskumatsiya qilishga sanksiyalar berish huquqini prokuraturadan sudlarga berish nazarda tutilmoqda. SHunday qilib, sud ishi yurituvda "Xabeas korpus" institutini qo'llash sohasi kengaytirilmoqda, jinoyat jarayonida sud nazorati roli va ahamiyati kuchaytirilmoqda. Qonunga muvofiq sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad etishda muqobil ehtiyot choralarini qo'llash huquqi berilmoqda. Bunda sud tomonidan qo'shimcha tergov o'tkazish uchun jinoyat ishini qaytarish instituti butunlay bekor qilinmoqda, sud tekshiruv jarayonida kamchiliklarni to'ldirish mexanizmlari qonun bilan mustahkamlab qo'yilmoqda. Qonunda fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish muddati 3 yildan 1 yilga qisqartirilmoqda. Qonun bilan viloyat darajasidagi jinoiy va fuqarolik ishlarini sudlar tomonidan ko'rib chiqish institutini bekor qilishni, nazorat tartibida protest keltirish bo'yicha sudlarning tegishli raislari va prokurorlari vakolatlarini istisno etishni nazarda tutuvchi tegishli tuzatishlar kiritildi. Qonunda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va Rayosatining ishlarni nazorat tartibida ko'rib chiqishga doir bir-birini takrorlovchi vakolatlari bekor qilindi. Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 6 aprel kuni «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi qonunni imzoladi. O'zgarishlar Konstitutsiyaning 80, 81, 83, 93, 107, 110, 111 va 112-moddalariga tegishli. Oliy xo'jalik sudi va Oliy sud fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud amaliyoti sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi — O'zbekiston Oliy sudiga birlashtirildi. YAngi tizim — O'zbekiston Sudyalar

oliy kengashi joriy etilmoqda. U sudyalar hamjamiyati organi bo'lib, O'zbekistonda sud hokimiyati mustaqilligi konstitutsiyaviy tamoyiliga amal qilinishi ta'minlanishiga ko'mak beradi.

Sud tizimida iqtisodiy va ma'muriy sudlar — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri iqtisodiy va ma'muriy sudlari, shuningdek, tumanlararo, tuman va shahar iqtisodiy sudlari hamda tuman va shahar ma'muriy sudlari tashkil etildi. Qonun rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Oliy sudini va O'zbekiston Oliy xo'jalik sudini birlashtirish, ma'muriy hamda iqtisodiy sudlarni tashkil etish to'g'risidagi qoidalar 2017- yil 1 iyundan e'tiboran amalga kiritiladi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilini izohlab bering?
2. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari qanday?
3. O'zbekistonda davlat hokimiyati tizimining bo'linish prinsiplarini bayon eting?
4. Ikki palatali parlamentning bir palatali parlamentdan farqi nima?
5. Qonunchilik palatasi va Senatni shakllantirish tartiblari nimalardan iborat?
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish tartibi saylov qonunchiligida qanday belgilangan?

MA'RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

<i>Talabalar soni -</i>	O'quv vaqti – 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli -</i>	Mavzu bo'yicha vizuallashgan - ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. “Qonun ustuvorligi” tushunchasi, mohiyat – mazmuni 2. O'zbekistonda davlat xokimiyatining bo'linish tamoyili 3. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashi 4. Jinoyat va jinoyat- prosessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvar tamoyiligi muvofiqligi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Huquqiy davlat tushunchasi, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvini demokratik asosda tashkil etish, hokimiyatning bo'linish prinsiplari haqida tushuncha hosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>
Mavzuning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;	Darsning maqsad va vazifalarini aytib bera oladi;
Qonun ustuvorligi tushunchasi, huquqiy davlat, uning asosiy belgilari va xususiyatlarini tushuntirib beradi;	Huquqiy davlat va uning xususiyatlarini aytib bera oladi;
Davlat boshqaruvini demokratik asosda tashkil etish, hokimiyatning bo'linish prinsiplari va Parlament tuzilishini tushuntirib beradi;	Demokratik huquqiy davlatda davlat boshqaruvining tamoyillarini tahlil qila oladi;
Huquqiy davlat jamiyat sohalarini isloh qilishning asosi ekanligini yoritib beradi;	Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish borasida olib borilayotgan islohatlarni tushuntirib bera oladi.
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, Qanday organayzeri, debat va grafik organayzer

<i>O'qitish vositalari</i>	Shakllar, sxemalar, tarqatma materiallar
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa, guruh-guruh bo'lib ishlash
<i>O'qitish nazorati</i>	Kompyuter, proektor mavjud auditoriyalar
<i>Manitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, debat savol-javob , reyting tizimi asosida baholash

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish jarayoni vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Mavzuga kirish (20 minut)	1.1. Mavzuni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yhati bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	1.2. O'quv mashg'uloti mavzusi bilan tanishtiradi. Uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini bayon etadi	Yozib oladi
	1.3. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izoh beradi (1- ilova) va "Aqliy hujum" usulidan foydalanib ma'ruzani boshlaydi (2- ilova)	Yozib oladi
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. Qonun ustuvorligi-huquqiy demokratik davlatning muhim printsiplari savolini 1-2-3- shakllar orqali tushuntiradi	Tahlil qiladi, shakllarga e'tibor varatiladi
	2.2. O'quv mashg'ulotining ikkinchi savoli "O'zbekistonda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati: mohiyati va rivojlanish bosqichlari"ni 4-12-shakllar orqali tushuntiriladi. 1-2-o'quv topshiriqlar bajarilishini nazorat qiladi (3-4- ilovalar)	Muayyan bilimlar o'zlashtiriladi, shakllarga e'tibor qaratiladi, topshiriqlarni bajaradi
	2.3. Ma'ruzaning uchinchi savoli "Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishidagi ahamiyati" Prezidentimizning 2010 yil 27 yanvardagi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va senatning qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimiz" ma'ruzasi asosida muhokama etiladi	Muhokamada faol qatnashadilar, savollar beradi va mustaqil fikr bildiradilar
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1. Huquqiy davlat va hokimiyatning bo'linish prinsiplari va bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarinng ahamiyati to'g'risida yakuniy xulosa beradi.	Munosabat va mustaqil fikrlar bildiradi
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va	Baholanadi

TAYANCH TUSHUNCHALAR

qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy printsipidir. Unda qonun hukmron hisoblanib, ijtimoiy turmush asoslari va rivojlanish mezonlari qonun asosida yaratiladi.

hokimiyatning bo'linish printsipi – adolatli, demokratik, huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri bo'lib, bunda hokimiyat – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlaridan iborat bo'ladi.

qonun chiqaruvchi hokimiyat – davlat va jamiyat boshqaruvi va hayotiga doir qonunlar qabul qiluvchi va tegishli tartibda ularning nazorati bilan shug'ullanuvchi hokimiyat.

Sud hokimiyati – fuqarolarga nisbatan sudlovni amalga oshirishda o'zboshimchalikka yo'l qo'ymaslik, odil sudlovni amalga oshirish, huquq va erkinliklar kafolatini yaratish, shuningdek, fuqarolarga nisbatan chiqarilgan hukm va qaror yuzasidan shikoyatlar qilishlari uchun imkoniyat yaratish hamda sudyalarning mustaqilligini ta'minlash va ularning huquqiy holatini mustahkamlashga yo'naltirilgan hokimiyat.

Davlat nima?
Huquq nima?
Qonun nima?

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI
15-MODDASI:**

O'zbekiston Respublikasida
O'zbekiston
Respublikasining
Konstitutsiyasi va
qonunlarining ustunligi
so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari,
mansabdor shaxslar,
jamoat birlashmalari,
fuqarolar Konstitutsiya va
qonunlarga muvofiq ish
ko'radilar.




2-shakl




Qonun ustuvorligi

Qonun ustuvorligi - huquqiy davlatning asosiy printsiptidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt, ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas.

Islom Karimov





4-shaki



Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasi quldorlik davriga borib taqaladi, ammo huquqy-siyosiy ta`limot sifatida XVII-XVIII asrlarda burjua inqiloblari davrida shakllandi.

Hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va federal turlarga bo`linishi Jon Lokkning fikricha, inson huquqlarini ta`minlashning eng muhim vositalaridan biridir. Bunda "barcha qonun chiqaruvchi hokimiyatga itoat etadi, chunki u qonunlarni o`rnata oladigan eng oliy idoradir".

Frantsuz tarixchisi va faylasufi Sharl Montesk'ening fikricha "adolatli qurilgan davlatda hokimiyat yagona emas, balki bir-biriga tobe bo`lmagan uchta hokimiyat - qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bulinishi shart. Ular mutlaqo bir kishi qo`lida to`planmasligi kerak.

5-shakl



Hokimiyatning uch tarmog'i

Davlat hokimiyatining taqsimlanishi tamoyili, ya'ni davlat hokimiyatining **qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo'linishi** demokratik huquqiy davlatga xosdir.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yilgi yangi Konstituiyasida hokimiyatlar taqsimlanishi printsiipi o'zining qonuniy ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 11-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida davlat organlarining tizimi hokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga taqsimlanishi printsiipiga tayanadi.

6-shakl

O'zbekiston Respublikasi QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYATI

OLIJ MAJLIS



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun, qonun, qaror, murojaat, deklaratsiya, bayonlar kabi qonuniy aktlar qabul qiladi.



7-shakl

Quyi palata doimiy faoliyatdagi 150 deputatdan iborat bo`lib, siyosiy partiyalardan ko`rsatilgan nomzodlarga ovoz berish orqali saylanadi.




Қонунчилик палатаси таркиби:
 Қонунчилик палатаси
 Кенгаши
 Қонунчилик палатаси
 Девони
 Фракциялар ва депутатлар гуруҳи
 Қўмиталар


8-shakl



Senat a`zolari har bir hududiy-ma`muriy Kengashdan 6 kishidan saylanadi, 16 senator Prezident tomonidan belgilanadi. Umumiy senatorlar soni 100 kishini tashki qiladi



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI СЕНАТИНИНГ ТУЗИЛМАСИ



Vazirlar Mahkamasi - O`zbekiston Respublikasining Hukumati - iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyat ko`rsatishiga, qonunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O`zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasining 6 may 1993 yildagi N818-XII sonli «O`zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to`g`risida»gi Qonuniga muvofiq olib boradi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o`zi tashkil etadigan xo`jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko`rsatishini ta'minlaydi.

1-o'quv topshiriq




Fikr yuriting va bajaring.

🇺🇿 O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi va Oliy Majlisi
🇺🇿 O'rtasidagi farqlar nimalardan iborat?
🇺🇿 Mustaqillikdan keyingi mamlakatda amalga oshirilgan parlament islohatlarini tizimlashtiring va sxemalashtiring.

4-110Va

2-o'quv topshiriq

“Qanday” organayzeridan foydalanib, O'zbekiston Respublikasida Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining asosiy jihatlarini yoritib bering



Qonun ustuvorligi quyidagi uchta holat bo'lgandagina, o'zining to'liq ifodasini topadi:



qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlar adolat printsipiga, inson huquqi va manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy asoslangan bo'lishi



barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talabi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan qat'iy



barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi shart.




Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-hukuk tizimini yanada isloх kiliш



Судья лавозимида бўлишнинг энг юқори ёшини белгилаш:

Туман ва вилоят суди судьялари — 65 ёшгача,
Конституциявий, Олий суд судьялари — 70 ёшгача.



4 та янги қонунлар қабул килиш



«Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуни қабул қилинганлиги муносабати айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш



14 та амалдаги қонунларга ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш



7-MAVZU: DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVINI DEMOKRATLASHTIRISH

Reja:

1. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, unga oid qonunlar va me`yoriy hujjatlarning mazmun mohiyati
- 2 Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar
3. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis rolini yanada kuchaytirish
4. O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlanishi va saylov qonunchiligining rivojlanishi

Tayanch soʻz va iboralar: *Hokimiyat, davlat hokimiyati, boshqaruvning demokratlashuvi, ikki palatali parlament, parlament islohatlari, boshqaruvning erkinlashtirilishi, saylov va uning tamoyillari, demokratik saylov tizimi*

Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, unga oid qonunlar va me`yoriy hujjatlarning mazmun mohiyati

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma'muriy organlarning vazifalarini o'zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash

borasidagi vakolatlarini, xo‘jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e‘tibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko‘zda tutilgan edi.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o‘tkazish, O‘zbekistonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning noyob shakli bo‘lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

Ikki palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo‘yicha 2002 yil 27 yanvarda o‘tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida"gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadlar parlament tomonidan o‘z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish, qonun ijodkorligining sifatini jiddiy ravishda oshirish, umumdavlat va hududiy manfaatlarining mutanosibligiga erishishdan iborat edi. Bu borada tarkib jihatidan asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil topgan yuqori palata - Senatning hududlar manfaatlarini ifoda etishi, quyi - Qonunchilik palatasi esa o‘z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshirishi hisobga olinganini aytib o‘tish lozim.

Ta‘kidlash kerakki, milliy parlamentimizning rivojlanishida yangi parlament va uning har bir palatasining maqomi, vakolatlari va faoliyat mexanizmlari aniq belgilab berilgan "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida"gi va "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida"gi konstitutsiyaviy qonunlarning 2003 yilda qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi.

2007 yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o‘zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo‘ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasida "O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi" degan qoida belgilab qo‘yilgan.

Ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko‘ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta sub‘ekti, ya‘ni davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarining yanada mutanosib taqsimlanishini ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2010 yilda taklif etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" da bu sohadagi bir qator takliflar ilgari surildi. Davlat mustaqilligi e‘lon qilingandan so‘ng O‘zbekiston **"insonparvar demokratik huquqiy davlat"**⁸⁸ barpo etish va ijtimoiy makon sifatida tushuniladigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lini tanladi. Fuqarolik jamiyatida **"Qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning xuquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishiga**

⁸⁸ Қаранг: 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг муқаддимаси.

ko‘maklashadi”⁸⁹. Fuqarolik jamiyati – yer yuzidagi har bir inson, har bir davlat, uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishidan qat’i nazar, erishishga intiladigan maqsaddir, fuqarolik jamiyati – adolatning tantanasi, insoniyat ijtimoiy rivojlanishining falsafasidir.

Shuning uchun davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o‘ta muhim bir maqsadga, ya’ni

birinchidan, uchta hokimiyat bo‘linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish;

ikkinchidan, davlat hokimiyatlari o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish;

uchinchidan, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish,

to‘rtinchidan, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha tizimli va izchil chora-tadbirlarni ko‘rishga qaratilgan edi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etishni hamda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishni strategik maqsad qilib belgilagan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, shuningdek, referendumda bildirilgan xalq irodasiga asoslangan holda qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir ishlarning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

birinchidan, qonun ustuvorligini, hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o‘rtasida huquqiy muvozanatni, ulardan har birining haqiqiy mustaqilligini ta’minlash;

ikkinchidan, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalari asosida inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini ta’minlash;

uchinchidan, siyosiy hayotning, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini izchil erkinlashtirish;

to‘rtinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa demokratik institutlari yanada mustahkamlanishi hamda rivojlantirilishi uchun kafolat va sharoitlarni ta’minlash;

beshinchidan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini har tomonlama mustahkamlash va davlat hokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish, ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlikni ta’minlovchi tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini shakllantirish va kuchaytirish.

Uchinchidan, Konstitutsiyaviy Qonunda ikki palatali parlamenti tashkil etish nazarda tutilib, parlament – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (quyi palata)dan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palata)dan iborat bo‘lishi belgilab qo‘yildi. Qonunda Oliy Majlis palatalarining tashkil etilishi va ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yishning asosiy qoidalari ham nazarda tutildi.

To‘rtinchidan, Konstitutsiyaviy Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Davlat boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisidagi dasturiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’ruzasida “**Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko‘p partiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta sub’ekti, ya’ni davlat boshlig‘i bo‘lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi**

⁸⁹ Қаранг: Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 173.

vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda"⁹⁰ deb ta'kidladi.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishlicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishlicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

⁹⁰ И.А.Каримов. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. – Б. 10.

Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilayotgan ushbu o'zgartishlarning mazmun-mohiyati shundan iboratki, ularga ko'ra, Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatish va uni tasdiqlashning yanada demokratik prinsiplarini ifodalaydigan yangi tartibi o'rnatilmoqda. SHuningdek, Konstitutsiyaga kiritilayotgan bu o'zgartishlarga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi berilmoqda. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarilmoqda.

Taklif etilayotgan yana bir muhim o'zgartish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96-moddasiga taalluqlidir.

Mamlakat Prezidenti turli sabablarga ko'ra o'z vazifasini bajara olmaydigan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda noaniqlikka, ushbu moddani turlicha talqin etishga yo'l qo'ymaslik maqsadida uning yangi tahririni quyidagi mazmunda bayon etish taklif qilinadi:

"Mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga zikr etilgan tuzatishlarni kiritish taklif etilayotgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78 va 93-moddalariga ham tegishli o'zgartishlar kiritish zarurati tug'iladi.

Jumladan, Konstitutsiyaning 78-moddasi 15-bandini "...shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish" degan so'zlar bilan to'ldirish kerak.

93-moddaning 15-bandiga "viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi" degan so'zlardan oldin "O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan..." degan so'zlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

93-moddaning 8-bandidan "ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi" degan so'zlarni chiqarish tavsiya etiladi.

93-moddaning 16-bandini "...O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli" degan so'zlar bilan to'ldirish lozim.

Shuningdek, 93-moddaning 12-bandidan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori" degan so'zlardan keyin "uning o'rinbosarlari" degan so'zlarni chiqarish va ularning o'rniga "Hisob palatasi raisini" degan so'zlarni kiritish va undan so'ng matn bo'yicha "tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi" degan tarzda bayon etish kerak. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi va siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'ladigan boshqa qator chora-tadbirlar o'z mazmun-mohiyati bilan mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi:

1. Samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo'ladi;
2. Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
3. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta'minlaydi;
4. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining 6 may 1993 yildagi «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

- barqaror iqtisodiy o'sishni, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotni isloh etish va tarkibiy o'zgartirish bo'yicha choralar ko'radi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish prognozlarini hamda eng muhim dasturlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishini va ijro etilishini tashkil etadi;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, texnik, texnologik jihatdan modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash dasturlarini, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi, eng avvalo xususiy mulkni rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtiroki darajasini strategik va iqtisodiy jihatdan asoslangan miqdorlargacha qisqartirish, keng ko'lamda xususiylashtirish asosida shart-sharoitlar yaratadi, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi barcha to'siqlar va cheklolarni bartaraf etish, qulay ishbilarmonlik muhitini va investitsiyalash sharoitlarini yaratish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish bo'yicha choralar ko'radi;
- O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash, bank va boshqa moliya institutlarining barqarorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

- agrar sektorda bozor munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, meliorativ va irrigatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, yer resurslarining sifatini saqlash va yaxshilash hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi;
- davlat boshqaruvi usullarini takomillashtiradi, shu jumladan elektron hukumat prinsiplari asosida takomillashtiradi, bozor prinsiplariga asoslangan xo'jalik boshqaruvi va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplari va usullari joriy etilishini rag'batlantiradi;
- davlat boshqaruvi tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini, idoralarini hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish hamda tugatish haqida takliflar ishlab chiqadi;
- ta'lim tizimini rivojlantirishni, uning sifati va samaradorligini oshirishni ta'minlaydi, uzluksiz ta'limdan keng ko'lamda foydalanish uchun sharoitlar yaratadi, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini bajarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, aholining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, sog'lom turmush tarzi prinsiplarini joriy etish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga, madaniy qadriyatlardan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlashga, fuqarolarning ijtimoiy va madaniy hayotda to'la huquqli tarzda ishtirok etishiga ko'maklashadi;
- ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ijtimoiy va pensiya ta'minoti tizimlari faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi, oila, onalik va bolalikni himoya qilishga ko'maklashadi, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha choralar ko'radi;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish hamda respublika ahamiyatiga va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, yirik avariya va halokatlarning, shuningdek tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish yuzasidan choralar ko'radi;
- O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, davlat chegaralarini qo'riqlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnomalar tuzadi, ularni ijro etish choralarini ko'radi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi «Pravda Vostoka» gazetasining muassisi, shuningdek, «Xalq so'zi» va «Narodnoe slovo» gazetalarining ham muassisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazirning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, davlat va xo'jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlash hamda lavozimidan ozod etish

to'g'risida taqdimnoma kiritadi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda va tasdiqlanayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi.

Bosh vazir yo'qligida uning vazifasini Bosh vazir o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

2016 yil 14 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib Aripov Abdulla Nigmatovich tayinlandi.

Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi apparati

Ijro etuvchi apparat respublika Hukumati faoliyatini tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlaydi, Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarini, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari loyihalarini tayyorlaydi, ularni amalga oshirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqadi hamda tizimli ravishda ijroni nazorat qiladi.

Ijro etuvchi apparat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri rahbarligida amalga oshiradi.

Ijro etuvchi apparat unga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati devonlari, davlat

va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Ijro etuvchi apparatning **vazifalari** bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga berilgan vakolatlar amalga oshirilishini ta‘minlash;
- respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tendensiyalarini kompleks tahlil qilish, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasining, tarkibiy va institutsional qayta o‘zgartirishlarning, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosining tizimli monitoringini olib borish;
- makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishni, tadbirkorlikni keng rivojlantirishni, hududlarni kompleks rivojlantirishni ta‘minlaydigan, shuningdek iqtisodiyotni barqaror sur‘atda o‘stirishga, aholi bandligi va turmush darajasini izchil oshirishga yo‘naltirilgan eng muhim ustuvor vazifalar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- markaziy iqtisodiyot idoralarini va ularning hududiy organlarini, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini jalb etgan holda davlat dasturlari, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat hududlarida iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘muriy islohotlar borishining tizimli tahlilini tashkil qilish;
- investitsiya dasturi, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik jihatdan yangilash va texnologik qayta jihozlash va mahalliyashtirish dasturlarining amalga oshirilishi ustidan monitoring tizimini yaratish;
- mamlakatni rivojlantirishning strategik maqsadlaridan va uning iqtisodiy xavfsizligidan kelib chiqib, respublikaning xorijiy davlatlar, davlatlarning mintaqaviy birlashmalari, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va respublikaning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy hamkorligi bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- qabul qilinayotgan qarorlarning iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga, hududlarga va umuman mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qisqa muddatli va uzoq muddatli ta‘sirini kompleks baholashni o‘z ichiga oladigan qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari har tomonlama iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertiza qilinishini ta‘minlash;
- rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari amalga oshirilishi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyatining barcha darajalarida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari bajarilishi tizimli nazorat qilinishini ta‘minlash.

Ijro etuvchi apparat o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi **funksiyalarni** amalga oshiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarida va topshiriqlarida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga yuklangan vazifalarni bajarish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri va uning o‘rinbosarlari topshiriqlari bo‘yicha tegishli tahliliy ma‘lumotnoma, statistik materiallar va takliflarni umumlashtiradi va tayyorlaydi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida ko‘rib chiqish talab qilinadigan masalalarni har tomonlama ishlab chiqadi;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan respublika Hukumatiga O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari, xalqaro shartnomalar va respublika Hukumatida ko‘rib chiqish talab qilinadigan boshqa hujjatlar loyihalarini kiritishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Reglamenti talablari bajarilishini ta‘minlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan va respublika Hukumati tomonidan qabul qilinadigan qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini har tomonlama iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o‘tkazadi;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari bajarilishi ustidan tizimli nazoratni tashkil etadi, ularning bajarilishini ta‘minlash yuzasidan tashkiliy chora-tadbirlar va nazorat rejalarini ishlab chiqadi;
- muammoli masalalarni hal qilish va iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini, shuningdek respublika hududlarini dinamik rivojlantirish bo‘yicha istiqboldagi vazifalarni amalga oshirish yuzasidan takliflar va aniq (oldini oluvchi) chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlariga va Bosh vazirga taqdim etadi;
- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning muhim ustuvor vazifalari, davlat dasturlari amalga oshirilishi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari bajarilishi bo‘yicha tegishli tizimlangan ma‘lumotlar bazasini shakllantiradi va yuritadi;
- respublika Hukumati va uning Rayosati majlislarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri va uning o‘rinbosarlari ishtirokidagi yig‘ilishlar va boshqa tadbirlar o‘tkazilishini ta‘minlaydi, qabul qilingan qarorlar amalga oshirilishini nazorat qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining komissiyalari, kengashlari va boshqa ishchi organlari ishlarini tashkil etadi, ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;
- respublika Hukumatining qonun loyihalarini tayyorlash rejalarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritilgan qonun hujjatlari loyihalarini va boshqa masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va ularning qo‘mitalari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, shuningdek ularni yalpi majlislarda muhokama qilish va qabul qilishda qatnashadi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yo‘llangan murojaatlarini «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq ko‘rib chiqadi;
- maxfiylik rejimini, davlat siri bo‘lgan ma‘lumotlar hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa axborotlarning himoya qilinishini ta‘minlaydi;
- jamoatchilikning O‘zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati to‘g‘risida belgilangan tartibda xabardor qilinishini tashkil etadi;
- Ijro etuvchi apparat O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlariga, shuningdek respublika Hukumatining qarorlariga muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradi.

Ijro etuvchi apparatning tuzilmasiga Ijro etuvchi apparat boshqaruvchisi va uning o‘rinbosari, Ijro etuvchi apparatning tarkibiy bo‘linmalari – mamlakat iqtisodiyotining muhim komplekslari, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha axborot-tahlil departamentlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining kotibiyati, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosarlarining apparatlari, Ijro etuvchi apparat boshqaruvchisi va uning o‘rinbosarining kotibiyatlari, Huquqiy ekspertiza va xalqaro shartnomalar boshqarmasi, funksional bo‘limlar kiradi.

Axborot-tahlil departamentlari tarkibida sho'balalar, Huquqiy ekspertiza va xalqaro shartnomalar boshqarmasi tarkibida esa bo'limlar tashkil etiladi. Ijro etuvchi apparat tuzilmasi va xodimlarining cheklangan soni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ijro etuvchi apparati boshqaruvchisi o'z mavqei, moddiy ta'minoti; ijtimoiy-maishiy, transport va tibbiy xizmat ko'rsatish sharoitlari bo'yicha vazirga tenglashtiriladi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

Ijro etuvchi apparati boshqaruvchisi asosiy vakolat va vazifalari:

- Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi apparati faoliyatini tashkil etadi va ijro etuvchi apparatga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun mas'ul hisoblanadi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari loyihalari ekspertizasi hamda sifatli tayyorlanishini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari bilan yaqin hamkorlikda bo'ladi;
- Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini, tahliliy materiallarni chuqur va sifatli tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari loyihalarini har tomonlama ekspertizadan o'tkazish maqsadida Vazirlar Mahkamasining axborot-tahlil departamentlari faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi;
- Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va Hukumatda ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan boshqa hujjatlarning loyihalari Vazirlar Mahkamasiga kiritilishida ijro etuvchi organlar tomonidan belgilangan reglament talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ijrochilik intizomini mustahkamlash hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va topshiriqlari, Hukumat qarorlarining bajarilishini nazorat qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi apparatining unga bevosita bo'ysunuvchi tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga rahbarlik qiladi, Bosh vazir Kotibiyati va Bosh vazirning o'rinbosarlari kotibiyatlari ishini muvofiqlashtiradi;
- Hukumat qarorlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi komplekslari

1. Hududlarni kompleks rivojlantirish va kommunal soha, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari kompleksi
2. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari kompleksi
3. Investitsiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari kompleksi
4. Tashqi savdo faoliyatini, eksport salohiyatini, mashinasozlik, avtomobil, elektrotexnika, mudofaa, paxtani qayta ishlash sanoatini va yengil sanoatni rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish masalalari kompleksi
5. Geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari kompleksi
6. Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash masalalari kompleksi
7. Ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va turizm masalalari kompleksi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot-tahlil departamentlari

1. Elektron hukumat, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari axborot-tahlil departamenti
2. Madaniyat, san'at va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamenti
3. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish masalalari axborot-tahlil departamenti
4. Kommunal soha, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari axborot-tahlil departamenti
5. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish, moliya va bank tizimlarini isloh qilish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish masalalari yig'ma axborot-tahlil departamenti
6. Investitsiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari axborot-tahlil departamenti
7. Tashqi savdo faoliyatini, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarining eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari axborot-tahlil departamenti
8. Mashinasozlik, avtomobil, elektrotexnika, mudofaa, paxtani qayta ishlash sanoatini va yengil sanoatni rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish masalalari axborot-tahlil departamenti
9. Geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari axborot-tahlil departamenti
10. Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash masalalari axborot-tahlil departamenti
11. Ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va turizm masalalari axborot-tahlil departamenti

Xo'jalik boshqaruvi organlari

- **ASSOTSIATSIYA VA KONSERNLAR**
 1. "O'zcharmsanoat" uyushmasi
 2. O'zbekoziqovqatzaxira
 3. O'Zto'Qimachilikisanoat
 4. Yong'Oq Ishlab Chiqaruvchilar Va Eksport Qiluvchilar Uyushmasi
- **BANKLAR**
 1. "Asaka" aksiyadorlik tijorat banki
 2. Qishloq Qurilish Bank
 3. Ipoteka-Bank
 4. Mikrokreditbank
 5. O'zbekiston respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki
 6. agrobank
 7. O'zsanoatqurilishbank
 8. O'zbekiston respublikasi aksiyadorlik tijorat "xalq banki"
 9. «O'zagroeksportbank» aksiyadorlik tijorat banki
- **KOMPANIYALAR**
 1. «o'zbekoziqovqatxolding» xolding kompaniyasi
 2. o'zagroservis
 3. «o'zpaxtasanoat» aj
 4. toshshahartransxizmat
 5. o'zmontajmaxsusqurilish
 6. "o'zeltexasanoat" aksiyadorlik kompaniyasi
 7. "o'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi
 8. "dori-darmon" aksiyadorlik kompaniyasi
 9. "o'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi
 10. "o'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati
 11. o'zbekiston havo yo'llari
 12. "o'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati

13. "o'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati
14. "o'zsharobsanoat" aj
15. "o'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi
16. «kafolat» aj
17. "o'zkimyosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi
18. o'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi
19. o'zagrosug'urta
20. "o'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati
21. duk o'zmeliomashlizing
22. sharq
23. «o'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik jamiyati
24. qurilish-lizing
25. "o'zagrotexmash" aksiyadorlik jamiyati
26. «o'zbekgidroenergo» aksiyadorlik jamiyati

• **BIRLASHMALAR**

1. olmaliq tog'-metallurgiya kombinati
2. o'zbekiston metallurgiya kombinati
3. navoiy kon-metallurgiya kombinati
4. toshkent mexanika zavodi
5. «o'zikkilamchiranglimetall» aj
6. "o'zbekko'mir" ko'mir kazib olish va sotish aksiyadorlik jamiyati
7. aj "uzagrotexsanoatxolding"

• **BOSHQALAR**

1. fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublikasi kengashi
2. respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
3. alisher navoiy nomidagi o'zbekiston milliy kutubxonasi
4. o'zbekiston milliy axborot agentligi (o'za)
5. o'zbekiston yoshlar ittifoqi
6. o'zbekiston respublikasi tovar xom ashyo birjasi
7. o'zbekiston respublikasi savdo sanoat palatasi
8. o'zbekiston banklari assotsiatsiyasi
9. o'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi
10. o'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi
11. «o'zbekkonsert» davlat muassasasi

Davlat boshqaruvi organlari

• **VAZIRLIKLAR**

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VAZIRLIGI
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI
3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI
4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
5. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
6. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
7. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
8. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
9. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI
10. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
11. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

12. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO VAZIRLIGI
13. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
14. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
15. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
16. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI
17. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO‘RSATISH VAZIRLIGI
18. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA‘LIM VAZIRLIGI
19. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI
20. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
21. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI

• **DAVLAT QO‘MITALARI**

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XUSUSIYLASHTIRILGAN KORXONALARGA KO‘MAKLASHISH VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO‘MITASI
3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI
4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA QO‘MITASI
5. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO‘MITASI
6. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI GEOLOGIYA VA MINERAL RESURSLAR DAVLAT QO‘MITASI
7. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER RESURSLARI, GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA VA DAVLAT KADASTRI BO‘YICHA DAVLAT QO‘MITASI
8. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AVTOMOBIL YO‘LLARI DAVLAT QO‘MITASI
9. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO‘MITASI
10. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR BO‘YICHA DAVLAT QO‘MITASI
11. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI O‘RMON XO‘JALIGI DAVLAT QO‘MITASI
12. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT VETERINARIYA QO‘MITASI

• **DAVLAT INSPEKSIYALARI**

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PARVOZLARNING XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI KATTA VA ALOHIDA MUHIM SUV XO‘JALIGI OB‘EKTLARINING TEXNIK HOLATINI HAMDA BEXATAR ISHLASHINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI (DAVSUVXO‘JALIKNAZORAT)
3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI YER QA‘RINI GEOLOGIK O‘RGANISH, SANOATDA, KONCHILIKDA VA KOMMUNAL-MAISHIY SEKTORDA ISHLARNING BEXATAR OLIB BORILISHINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI (SANOATGEOKONTEKXNAZORAT)
4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TEMIR YO‘LLARDA YUK VA YO‘LOVCHILAR TASHISH XAVFSIZLIGINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI (O‘ZDAVTEMIRYO‘LNAZORAT)
5. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ELEKTR ENERGETIKADA NAZORAT BO‘YICHA DAVLAT INSPEKSIYASI (O‘ZDAVENERGONAZORAT)

6. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI DAVLAT DON INSPEKSIYASI (O‘ZDAVDONINSPEKSIYA)
7. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI O‘ZBEKISTON NEFT MAHSULOTLARI VA GAZDAN FOYDALANISHNI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI
8. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI ICHIMLIK SUVIDAN FOYDALANISHNI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI (DAVSUVINSPEKSIYA)
9. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI TA‘LIM SIFATINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI
10. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDA YO‘L-QURILISH ISHLARI SIFATINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI
11. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI O‘SIMLIK KARANTINI DAVLAT INSPEKSIYASI

• **AGENTLIKLAR**

1. O‘ZBEKISTON AVTOMOBIL TRANSPORTI AGENTLIGI
2. O‘ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI
3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI "O‘ZARXIV" AGENTLIGI
4. "KOMMUNXIZMAT" AGENTLIGI
5. O‘ZBEKISTON STANDARTLASHTIRISH, METROLOGIYA VA SERTIFIKATLASHTIRISH AGENTLIGI
6. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI
7. "O‘ZBEKKINO" MILLIY AGENTLIGI
8. FARMASEVTIKA TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI
9. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDA ATOM ENERGETIKASINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI

• **QO‘MITALAR**

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITA
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI DAVLAT ZAXIRALARINI BOSHQARISH QO‘MITASI
3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN DO‘STLIK ALOQALARI QO‘MITASI

• **MARKAZLAR**

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI GIDROMETEOROLOGIYA XIZMATI MARKAZI
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI NARKOTIK MODDALARNI NAZORAT QILISH MILLIY AXBOROT-TAHLIL MARKAZI
3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI «SIFAT» O‘ZBEKISTON PAXTA TOLASINI SERTIFIKATLASH MARKAZI
4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI DAVLAT TEST MARKAZI
5. QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI MUVOFIQLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MARKAZI
6. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA-MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI HUZURIDAGI, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

• **MARKAZIY MUASSASALAR**

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI



Mamlakatimizda mustaqillik yillarida jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilgan tub islohotlar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, xalqimizning turmush farovonligini oshirish borasida yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Bu boradagi islohotlarni, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, barcha sohalarni liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiyalash jarayonlarini chuqurlashtirish jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishning muhim omilidir.

Ana shunday ustuvor vazifalardan kelib chiqib ishlab chiqilgan mamlakatimizni rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"ning "**Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari**" nomli birinchi ustuvor yo'nalishida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish masalasi birinchi o'rinda turibdi. Misol uchun, "Harakatlar strategiyasi" loyihasi bilan birga jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan "**Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili**" Davlat dasturi loyihasida bu yo'nalishdagi aniq vazifalar qayd etilgan bo'lib, 2017 yilda ayni sohada 5 ta qonun, 5 ta qaror va bitta dastur qabul qilinishi belgilangan.

SHuningdek, Dastur loyihasida ko'zda tutilganidek, joriy yilda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish yo'nalishida – 7 ta qonun, 3 ta farmon, 7 ta qaror va 4 ta dastur; jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish yo'nalishida esa 6 ta qonun, bitta farmon, bitta qaror va 2 ta dastur ishlab chiqiladi. E'tibor qilgan bo'lsangiz, "Harakatlar strategiyasi"ning birgina ustuvor yo'nalishi bo'yicha shu yilning o'zida 18 ta qonun loyihasini tayyorlash ko'zda tutilmoqda.

Xususan, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi davlat organlariga yuklatilgan vazifa va vakolatlarni bajarish samaradorligining oshishi, ular tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini yaxshilash uchun muhim huquqiy asos bo'ladi. SHuningdek, bu fuqarolarning murojaatlarini, ularda

ko'tarilgan muammolarni joyida hal etishda davlat organlari rahbarlari tomonidan qay darajada munosabat bildirilishi ustidan samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazorati o'rnatish imkonini beradi.

Hozirgi kunda ellikdan ortiq qonunda nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari belgilangan. Bu borada huquqiy munosabatlarning tobora chuqurlashayotgani ushbu yo'nalishdagi qonunchilikni ham yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. "Harakatlar strategiyasi" loyihasida bu masala, umuman, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini kengaytirish bilan bog'liq dolzarb vazifalar o'z aksini topgani alohida diqqatga loyiqdir.

Binobarin, mamlakatimizda «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilining izchillik bilan amalga tatbiq etilishi natijasida davlat tashkilotlarining ayrim vakolatlari bosqichma-bosqich nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga o'tmoqda. Buning natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardagi faolligi oshmoqda, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uslublari takomillashmoqda.

Yana bir misol, loyihadagi yangi tashabbus – qonun hujjatlariga huquqni muhofaza qiluvchi va davlat boshqaruvi organlari huzurida jamoatchilik kengashlari tuzishni nazarda tutuvchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish masalasini olaylik. Bunda bo'lajak Jamoatchilik kengashlari ushbu organlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishi va amalga oshirishi nazarda tutilmoqda. Natijada davlat organlari faoliyatining ochiqligi va ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro samarali hamkorligi ta'minlanadi.

Modomiki, davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish maqsad qilingan ekan, bu sohada qonun ijodkorlarining o'zlari ham har tomonlama fidoyilik ko'rsatib ishlashlari talab etiladi.

Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari:

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

davlat boshqaruvinu markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;
jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;
fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;
mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirish;
ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

Saylov o‘z huquqini anglagan holda erkin tanlash va ongli ovoz berish demakdir. Saylov haqidagi qonunchiligimizga o‘zgartirishlar kiritildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi o‘rinlari soni 120 tadan 150 taga ko‘paytirildi⁹¹. Deputatlik o‘rinlari soniga O‘zbekiston Ekologik harakatidan saylanadigan deputatlar uchun 15 ta o‘rin ajratildi.

Saylov imtihon bo‘lib, u quyidagi mezon va talablar asosida o‘tkazildi:

1. So‘z erkinligi va tanlash erkinligi tasdig‘i sinaldi.
2. Siyosiy hayotda partiyalar hokimiyat uchun kurash olib bordi.
3. Saylovlarda qatnashgan siyosiy partiyalar har qaysi nomzodining siyosiy qarashlaridan qat‘iy nazar ularning hammasiga teng imkoniyat va sharoit tug‘dirildi.
4. Saylov fuqarolik jamiyati saviyasi va etuklik darajasini ko‘rsatdi.
5. Saylovlar aholi siyosiy-ijtimoiy saviyasi va madaniyati, fuqarolik ongini imtihon qildi.
6. Hokimiyat vakillik organlari va tashabbuskor guruhlaridan nomzod ko‘rsatish institutlari tugatildi. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko‘rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalargagina berildi.

7. Saylovlarni tayinlash instituti tugatildi va uning o‘rniga «Saylov kompaniyasi boshlanishini e‘lon qilish» instituti joriy etildi. Bu vazifani Markaziy saylov komissiyasi amalga oshirdi.

8. Siyosiy partiyalarning vakolatli vakili instituti Qonunchilik palatasiga kiritildi. Bu institut saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda qatnashdi. Unga imzo varaqalari to‘g‘ri to‘ldirilganini tekshirishda qatnashish huquqi berildi. Oliy Majlis deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakillari soni 5 kishidan 10 nafarga ko‘paytirildi.

9. Deputatlik o‘rinlarini kvotalash instituti kiritildi, ya‘ni 15 deputatlik o‘rin ommaviy jamoat tashkiloti – O‘zbekiston Ekologik harakatiga berildi.

Endilikda bitta deputatlik mandati qariyb 120 ming saylovchi ovozini ifodalaydi. SHunga o‘xshash holatni Italiya, Buyuk Britaniya, SHimoliy Irlandiya, Fransiya va Kanada davlatlarida kuzatish mumkin. Rossiya, YAponiyada esa bu ko‘rsatkich 250 mingdan ziyodni tashkil etadi.

Saylov jarayonida parlamentdagi zaxiralash instituti jahon amaliyotida 14 ta mamlakatda qo‘llaniladi. Xorijiy davlatlarda: 1) milliy ozchilik vakillari; 2) fuqarolik jamiyati institutlari; 3) xotin-qizlar tashkilotlari; 4) Prezidentlik kvotalari mavjud. Qonunchilik kvotalari: Belgiya, Daniya, Hindiston, Eron, Italiya, Xitoy, Pokiston, Portugaliya, Xorvatiya, Ruminiya, Sloveniya, Serbiya, Finlyandiya kabi davlatlarda ko‘zda tutilgan.

Milliy saylov qonunchiligiga muvofiq, siyosiy partiyalar va ular ko‘rsatgan deputatlikka nomzodlarga saylov kompaniyasini o‘tkazishda, saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishda, saylovoldi dasturlarining mazmun-mohiyatini saylovchilarga etkazishda, saylovoldi tashviqotini olib borishda, ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq va imkoniyatlar yaratildi.

Saylov qonunchiligi jamiyatda ro‘y berayotgan barcha demokratik jarayonlarni ko‘zgu singari o‘zida aks ettiradi. SHuning uchun ham O‘zbekistonda saylov qonunchiligi doimiy ravishda ijobiy harakatlanishda bo‘lib, u tobora takomillashtirilmokda va uning demokratik prinsiplari rivojlantirilmokda.

Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovi umumiydir. Saylov kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

⁹¹ Каримов И.А. Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараккиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. –Т.: «Ўзбекистон», 2009, 5-б.

Qonunchilik palatasiga saylanish huquqiga saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan fuqarolar egadirlar.

Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar teng saylov huquqiga egadirlar.

Davlat boshlig'i xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy faolligini, ularning davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi mavqeini oshirishga alohida ahamiyat berib kelmokda. Birinchi **Yurtboshimizning tashabbusi bilan saylov to'g'risidagi qonunlarda siyosiy partiyalardan ko'rsatiladigan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 % foizini ayollar tashkil etishi shart ekanligi to'g'risidagi qoida mustahkamlab qo'yildi.**

2009 yilgi saylovlar jarayonida ayni ana shu normaning tatbiq etilishi parlamentning quyi palatasiga umumiy deputatlar sonining 22 foizini tashkil etadigan 33 nafar xotin-qiz deputatni saylash imkonini berdi. Senat a'zolari etib saylanganlarning 15 foizi ayollardir, mahalliy vakillik organlarida faoliyat ko'rsatayotgan ayollar esa bugungi kunda jami deputatlar sonining 20 foizidan ortig'ini tashkil etadi.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da saylov jarayonlarini yanada demokratlashtirishga yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishlik taklif etildi.

Birinchiidan, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi Qonunning 25-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida taklif berildi.

Ikkinchiidan, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasiga saylovoldi tashviqotini nafaqat saylov kuni, balki ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin ham olib borish mumkin emasligi to'g'risidagi normani kiritish to'g'risidagi taklifni amalga oshirish saylovchilarga o'z qarashlarini, siyosiy xayrixohligini aniqlab olish, kim uchun va qanday siyosiy dastur uchun ovoz berish masalasida ongli ravishda aniq bir qarorga kelishi uchun qo'shimcha vaqt berilishiga imkon yaratadi.

Uchinchiidan, keyingi taklif muddatdan oldin ovoz berish tartib – tamoyillarini va muddatlarini qonunda aniq belgilab qo'yishga yo'naltirilgan.

To'rtinchiidan, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi qonunlarga “ovoz berish kuniga qadar qolgan besh kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoat fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini va o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni nashr etish (e'lon qilish), shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikasiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet tarmog'iga) joylashtirish taqiqlanadi” degan normaning yuqorida ko'rsatilgan qonunlarga kiritilishi saylovchilar huquqlarining yanada ishonchli himoya qilinishi, muayyan nomzodga g'arazli munosabatda bo'lish, bu borada saylov qonunchiligi buzilishining oldini olish imkonini beradi.

Beshinchiidan, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga O'zbekiston Ekologik harakatining Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo'yicha konferensiyalarida kuzatuvchilarning ishtirok etish huquqini belgilab beradigan qo'shimcha kiritilishi O'zbekiston Ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston saylov qonunchiligida umumiy saylov huquqi prinsipi mustahkamlangan. Har bir fuqaro saylov kuniga qadar yoki saylov kunida Konstitutsiyada va saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilangan muayyan yoshga to'lishi bilan davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega hisoblanadi («O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 2-moddasi)1. Umumiy saylov huquqi fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyati kabi holatlardan qat'i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz ro'yobga chiqariladi. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar,

shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar.

Teng saylov huquqi prinsipi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasida mustahkamlangan². Har bir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega va boshqa fuqarolar bilan tengma-teng tarzda o‘zining ana shu ovozga egalik huquqini amalga oshira oladi. Bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ovoz berishda ushbu okruglar tenglik asosida tashkil etilishi ta‘minlanadi. Bir mandatli saylov okruglarining saylovchilar soniga qarab tuzilishi tenglikka amal qilishning o‘ziga xos mezonidir. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 7-moddasida qayd etilganidek, «qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazish uchun bir yuz yigirmata hududiy saylov okrugi tuziladi. Har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi». SHu moddaning davomida belgilanishicha, «Saylov okruglari, qoida tariqasida, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi»³. Har bir saylovchi o‘zining erkin ovoz berishda ishtirok etish huquqidan foydalanish maqsadida saylov uchastkasiga, shuningdek, ovoz berish xonasiga teng asoslarda va hech qanday to‘siqlarsiz kirish huquqiga egadir. Har bir fuqaro saylovda o‘z nomzodini ko‘rsatish imkoniyatidan foydalanishda ham teng huquqlarga ega.

O‘zbekiston saylov qonunchiligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi prinsipi ham o‘z aksini topgan. Fuqarolar saylovda nomzod uchun bevosita, ya‘ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz beradilar. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasida belgilanganidek, «qonunchilik palatasi deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadilar»⁴. O‘zbekiston qonunchiligidagi yashirin ovoz berish prinsipi saylovchilarning xohish-irodasining qanday tarzda bo‘lmasin nazorat qilinishini istisno etish, erkin saylov uchun teng shart-sharoit ta‘minlash kabi maqsadlarni ko‘zda tutadi. Saylovlar yashirin ovoz berish protsedurasidan foydalangan holda o‘tkaziladi. O‘zbekistonda fuqarolarning saylovda ishtirok etishi erkin va ixtiyoriydir. Hech kim ularning muayyan nomzod uchun «tarafdor» yoki «qarshi» ovoz berishga majbur etish huquqiga ega emas. Hech kim fuqaroga uni saylovda ishtirok etishga yoxud ishtirok etmaslikka majburlash maqsadida ta‘sir o‘tkazishga, shuningdek, o‘z xohish-irodasini emin-erkin ifoda etishi uchun majburlashga haqli emas. «Qonunchilik palatasi deputatlari saylovida erkin va yashirin ovoz beriladi. Ovoz beruvchilarining xohish-irodasi nazorat qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi» («O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasi)¹. Byulletenni belgilash paytida ovoz berish xonasida ovoz beruvchidan boshqa shaxslarning hozir bo‘lishi taqiqlanadi.

O‘zbekiston saylov qonunchiligida saylovlarning ochiqligi va oshkoraligi prinsipiga alohida o‘rin berilgan. qonunchilik palatasi saylovlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradilar («O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasi)². Saylovlarni belgilash, tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish, fuqarolarning saylov huquqini ta‘minlash va himoyalash bilan bog‘liq qarorlar saylov to‘g‘risidagi qonunlarda ko‘zda tutilgan tartibda va muddatlarda rasmiy e‘lon qilinadi va ko‘pchilikning e‘tiboriga havola etiladi. Ushbu prinsipga amal qilinishi saylov jarayonlarini milliy va xalqaro doiralarda kuzatishni yo‘lga qo‘yish uchun ham tegishli shart-sharoit yaratadi.

Respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritishi munosabati bilan saylov huquqini rivojlantirishning yangi davri boshlandi. Saylov qonunchiligi xozirgi kunda takomillashuv jarayonini boshdan kechirmoqda, uning mukammal bo‘lishi uchun etakchi demokratik mamlakatlarning tajribasidan ijobiy jihatlari olinmoqda. Har qanday qonun uchun eng asosiy narsa uni amaliyotga tadbiq etish mexanizmidir. SHuning uchun qabul qilinayotgan qonunlarning mazmuni bilan birga amalga kiritish mexanizmlarini ham mukammal darajada takomillashtirishimiz lozim. Bunda milliy davlatchiligimiz tarixiy xususiyatlari va saylovlarni o‘tkazishda ilgari to‘plangan ijobiy tajribaga suyanish, yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni takrorlamaslik, ilg‘or jahon tajribasi hamda demokratiya tamoyillari ustivorligiga erishish g‘oyatma‘suliyatli vazifadir.

1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy saylov tizimimizni yaratilishiga asos soldi. Jumladan, uning 7-moddasida —Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir¹, —O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat

bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladil deyilgan muhim konstitutsiyaviy qoidalarining belgilanishi konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplari sifatida mustahkamlandi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqi Konstitutsiyaning 32-moddasida alohida mustahkamlangan. Unga ko'ra, —O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladil. Saylov huquqiga oid yana bir – 60-moddasida —Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilarl, deb belgilangan. SHuningdek, Konstitutsiyaning 77-moddasida O'zbekistonda saylovlar ko'ppartiyalik asosida o'tishi ko'zda tutilganl.

Eng asosiysi, Konstitutsiyada saylov tizimi prinsiplariga bag'ishlangan maxsus bobning mavjudligi O'zbekistonning saylov qonunchiligini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi. Uning XXIII bobi —Saylov tizimil deb nomlanib, 117-moddada —O'zbekiston Respublikasining fuqarolaridavlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadil deyilgan muhim konstitutsiyaviy tamoyillar o'z aksini topdi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda saylovlarning mustahkam o'rnini belgilash maqsadida Konstitutsiyaga alohida —Saylov tizimil deb nomlanuvchi XXIII bobni kiritilishi, *bir tomondan* saylov tizimining asosiy prinsiplarining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi saylov huquqi bo'yicha umumiy tan olingan xalqaro andozalarga rioya qilinishini kafolatlasa, ikkinchi tomondan, mazkur konstitutsiyaviy qoidalar saylov qonunchiligini yaratishda poydevor vazifasini o'tadi.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda xalqaro huquq andozalari va talablar, ilg'or xorijiy yuridik tajriba va milliy-tarixiy an'analar hamda konstitutsiyaviy prinsiplar asosida milliy saylov qonunchiligi tizimi yaratildi. Uning asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maxsus XXIII bobida, shuningdek alohida qabul qilingan —O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidalgi (1991 yil 18 noyabr), —O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidalgi (1993 yil 28 dekabr), —Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risidalgi (1994 yil 5 may), —Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risidalgi (1994 yil 5 may), —O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidalgi (1998 yil 30 aprel) qonunlarda o'z aksini topdi. Milliy saylov qonunchiligi va amaliyoti O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning uzviy tarkibiy qismi bo'lib, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzumdan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish sari qo'yilgan qadamdir.

Saylov tizimi huquqiy asoslarining yaratilishi, rivojlanishini va saylov amaliyotini bizning fikrimizcha quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich (1991-1995 yy.) – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish davrini o'z ichiga oladi.

Bu davrda —O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidalgi (1991 yil 18 noyabr), O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabr), —O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risidalgi1 (1993 yil 28 dekabr), —Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risidalgi (1994 yil 5 may), —Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risidalgi (1994 yil 5 may) qonunlarning qabul qilinishi umume'tirof etilgan taomoyillar asosida ko'ppartiyali, muqobil saylovlarni tashkil etishning huquqiyasosini yaratdi.

Bu bosqichda 1994 yil 5 mayda muhim hujjat – —Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risidalgi qonun qabul qilinganligi fuqarolarning saylov huquqlarini amalga oshirish va ularning o'z xohish-istaklarini erkin ifodalash mexanizmini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi.

Yangi saylov qonunchiligi amaliyotda 1994 yilda ko'ppartiyalilik asosida o'tkazilgan parlament saylovlarida sinab ko'rildi. Uning natijasida birinchi chaqiriq Oliy Majlis uchta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari, tashabbuskor guruhlar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar

asosida saylangan deputatlardan shakllandi. SHu asosda, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar orqali yagona partiyaning —etkachilik roli—ga asoslanuvchi —sho‘rol siyosiy tizimidan demokratik shakllangan, ko‘ppartiyaviylikka tayanadigan milliy parlament vujudga keldi.

Ikkinchi bosqich (1995-2000 yy.)— milliy saylov qonunchiligining birinchi bosqichda o‘tkazilgan parlament saylovlarida to‘plangan amaliy tajribaga muvofiq saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Jumladan, bu bosqichda saylovlarni tashkil etish va natijalarini aniqlashda xolislik hamda ehtiroslarga yo‘l qo‘ymaslikni ta‘minlashga qodir mustaqil organ – Markaziy saylov komissiyasi tuzish talabidan kelib chiqib, —O‘zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risidagi (1998 yil 30 aprel) qonun qabul qilindi va mamlakatimiz tarixida ilk bor demokratik yo‘l bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuzildi. Bundan tashqari, deputatlikka mustaqil nomzodlarni ilgari surishni kuchaytirish, O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik va siyosiy fikrlar xilma-xilligini kuchaytirishga keng shart-sharoitlar yaratish maqsadida saylov qonunchiligidan —besh foizlik to‘siq— haqidagi qoida chiqarib tashlandi va saylovchilar tashabbuskor guruhlarini bevosita nomzod ko‘rsatish huquqlari mustahkamlandi. SHuningdek, 1999 yil 19 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar hamda xalq deputatlari, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to‘g‘risidagi qonunlarga bir qator jiddiy to‘ldirishlar va o‘zgartirishlar kiritildi.

Saylov jarayoning muhim sub‘ektlari sanalgan siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi —Siyosiy partiyalar to‘g‘risidagi qonunni 1996 yilning dekabrda qabul qilinishi 1999 yilda o‘tkazilgan parlament saylovlariga yangi huquqiy zamin yaratdi1. Siyosiy partiyalarda Oliy Majlisda o‘z siyosatini uyushgan holda o‘tkazish uchun parlament fraksiyalarini tashkil etishning qonuniy kafolatlari vujudga keldi. Eng muhimi, siyosiy partiyalar saylov tartib-qoidalariga rioya qilinishini nazorat etish bo‘yicha vakolatlari kengaydi va nomzod ko‘rsatgan siyosiy partiya har bir saylov uchastkalariga o‘z kuzatuvchilarini tayinlash huquqiga ega bo‘ldi.

1999 yilda o‘tkazilgan parlament saylovlarida fuqarolar ikkinchi marotaba bir nechta nomzod orasidan o‘zlariga ma‘qullarini saylashdi, ularning har biriga tegishli baho berishdi. Bu saylovlarda raqobat yanada kuchli, saylovchilarning nomzodlarga talablari esa yanada yuqori bo‘ldi.

Uchinchi bosqich (2000-2009 yy.) —faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo‘lib, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarini izchil isloh qilishda muhim rol o‘ynagan davr bo‘ldi. Bu davr bevosita ikki palatali Oliy Majlis tizimiga o‘tish bilan bog‘liq saylov qonunchiligi tadrijiy taraqqiyoti uchun bosqichning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2000 yil 25 mayda bo‘lib o‘tgan Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasidagi —O‘zgarish va yangilanish – hayot talabi— ma‘ruzalarida: —... hayot o‘zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma‘naviy ongi ulg‘ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy. SHu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o‘tish taklifini kiritmoqchiman2 deb, ilgari surgan mazkur g‘oyalari bu davrda qabul qilingan qonun ijodkorlik faoliyati dasturida markaziy bo‘g‘in bo‘ldi1. Bunda asosiy e‘tibor quyi palata – qonunchilik palatasini shakllantirishning bosh prinsipi asosan partiyaviy vakillik prinsipi bo‘ldi. Bu siyosiy partiya vakillarining o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini va saylovlar manfaatlarini ifodalash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Parlamentning yuqori palatasi – Senat teng huquqli hududiy vakillik organi sifatidagi vakolatlari hamda u pog‘onali saylovlar asosida shakllanishi konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlab qo‘yildi2.

Davlat boshqaruvini demokratlashtirish va yangilash hamda erkinlashtirish sharoitida Prezident vakolati muddatini o‘zgartirilishi va uning ayrim vakolatlarini Senat va Bosh vazirga o‘tkazilishi, ikki palatali parlament barpo etilishi o‘z-o‘zidan saylov to‘g‘risidagi qonunlarning o‘zgarishiga olib keldi. SHu bois 2003 yilning 29 avgustida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar3 hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to‘g‘risidagi qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi. SHunday qilib, ikki palatali parlamentga

saylovlar uchun zarur normativ-huquqiy baza amalda yaratildi. Unda saylov huquqining xalqaro standartlari va saylov tizimlarini rivojlantirish tajribasi, shuningdek mamlakatda parlamentarizm taraqqiyotining milliy xususiyatlari e'tiborga olindi. Masalan, 2004 yilgi saylovlarga qadar saylov qonunchiligiga joriy etilgan eng muhim yangiliklar qatorida – mahalliy Kengashlarning deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqi bekor qilinganligi, siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko'rsatganida xotin-qizlar uchun kvota belgilanganligi, shuningdek saylovoldi tashviqotini olib borishda partiyalar faoliyatini moliyalashtirish masalasining hal etilganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. 2004 yil 30 aprelda —Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi qonun esa partiyalarga saylovoldi kurashini faol va saylovchilar uchun qiziqarli tarzda o'tkazishlariga qo'shimcha imkon yaratdi. Bundan tashqari, 2008 yil 19 noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan —Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qonun saylov jarayonining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirdi. Ushbu qonunga muvofiq, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlari sonini 120 tadan 150 taga oshirildi. Bunda 135 ta o'rinni siyosiy partiyalardan ko'ppartiyaviylik asosida bir mandatli okruglarda saylanadigan deputatlar egallaydi. O'zbekiston ekologik harakatidan esa Qonunchilik palatasining o'n besh deputati mazkur harakatning oliy organi (Konferensiyasi) tomonidan Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan muddatlarda saylanadigan bo'ldi. SHuningdek, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan real jarayonlarda siyosiy partiyalarning roli kuchayib borayotganligi inobatga olinib saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko'rsatish instituti bekor qilindi. SHuningdek, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari soni 5 nafardan 10 nafarga oshirildi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda saylov komissiyalari faoliyatining oshkorligini yanada kuchaytirishni ta'minlashga yo'naltirilgan bir qator yangi tartib-qoidalar joriy etilmoqda.

Uchinchi bosqich (2010dan h.d.) –mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish qilish davridir. Ushbu davr O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov tomonidan 2010 yil 12 noyabrdagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ning e'lon qilinishi bilan boshlandi. Ushbu Konsepsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar asosida qonunchilik tashabbusi bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan «Saylov erkinligini yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni 2012 yil 1 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2012 yil 5 dekabrda Senat tomonidan ma'qullandi hamda 2012 yil 19 dekabrda Prezident tomonidan imzolangan holda 2012 yil 20 dekabrda matbuotda e'lon qilindi.

Mazkur yangi qonunning qabul qilinishini O'zbekiston milliy saylov qonunchiligini takomillashtirilishining yangi bosqichi sifatida e'tirof etish mumkin. Kelgusida ushbu Qonunning amalga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi natijasida fuqarolarning saylov huquqi erkinligi yanadata ta'minlanishiga erishiladi.

YUqorida qayd qonunlarda saylov tizimi va uning mazmun-mohiyati, saylov tizimining asosiy tamoyillari, saylash va saylanish huquqi, saylovlarni tashkil etish, o'tkazish, ovoz berish natijalarini aniqlash, fuqarolarning saylovlardagi ishtiroki, saylov huquqining kafolatlari, saylovlarni moliyalashtirish va shu kabi o'ta muhim masalalarni huquqiy tartibga solish mezonlari belgilandi.

8-MAVZU: FUQARO ERKINLIGI, HUQUQ VA MANFAATLARI USTUVORLIGINI TA'MINLASH

Reja:

1. "Fuqaro erkinligi va huquq va manfaatlari" tushunchasi, mazmini va mohiyati

2. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha xalqaro va milliy huquqiy normalar va prinsplar

3. Demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish zarurligi

4. O'zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qimoya qilish bo'yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo'nalishlari

Tayanch so'z va iboralar: *Fuqaro, fuqaro erkinligi, inson huquqlari, fuqaro faolligi, demokratik jamiyat qurishda fuqaro erkinligi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari*

Bugungi kunda «fuqaro», «fuqarolik», «fuqarolik jamiyati», «fuqarolik mas'uliyati», «fuqaro huquqlari va erkinliklari» tushunchalari demokratik rivojlanishning zaruriy shartlaridan biriga aylanmoqda. Binobarin, «demokratiya» va «fuqaro erkinligi va faolligini» masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Fuqarolik tushunchasi jamiyatning hozirgi davrigacha, ya'ni huquqiy davlat tomon rivojlanishida, katta yo'lni bosib o'tdi. U jamiyatning demokratik rivojlanishida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlardan biri.

Fuqarolik tushunchasi qadimiy YUNonistonda va Rimda mavjud bo'lgan bo'lsa-da, asosan feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o'ta boshlaganda, hozirgi shaklida paydo bo'la boshladi va ilk bor «shaharli» (fransuzcha «situayyan», inglizcha «sitezen», ruscha «gorojanin-grajdanin») degan ma'nolarni anglatgan. Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng, O'zbek tilida o'tmishdagi «grajdanlik» so'zi o'rniga «fuqarolik» degan atama qabul qilindi¹.

Mustaqillik yillarida fuqaro erkinligi va uning faolligi masalasi demokratik jamiyat barpo etishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etila boshlandi. SHu o'rinda erkinlik tushunchasini aniqlash ham zarurdir. Negaki, fuqaro erkin bo'lgan taqdirdagina, jamiyat taraqqiyotga erishadi.

Ijtimoiy-siyosiy fanlarda va falsafada individlar erkinligi va ular irodasining erkinligi bir-biriga o'xshash tushunchalar deb qabul qilinadi. Buning asosiy sabablaridan biri, huquqning o'zi odamlar erkinligining alohida shakli, ya'ni ular irodasining erkinligi ekanligi bilan belgilanadi. SHu nuqtai nazardan «fuqaro erkinligi» tushunchasi ham politologik, ham huquqshunoslik fanlarining umumiy kategoriyalari sifatida o'rganiladi. Demokratiya inson erkinligini qonunlar vositasida kafolatlaydi. Demak, demokratiyaning o'zi ochiq muhokama, ijtimoiy ziddiyatlarni ifoda etish va bartaraf qilish usuli sifatida fuqarolik va siyosiy huquqlar deklaratsiyalarida qayd qilingan erkinliklarsiz mavjud bo'la olmaydi. Bu erda so'z erkinligi va o'z fikrini erkin ifodalash huquqi, erkin uyushmalar tuzish huquqi, hayot tarzini o'zgartirish erkinligi va shahsning havfsizlikka bo'lgan huquqi to'g'risida ketmoqda. Ushbu huquqlar demokratiyaning asl mohiyatini tashkil qilgani bois, ular himoya qilinishi kerak.

Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz zarur, deb o'ylayman. Ya'ni, bu o'rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to'g'ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqligini, shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda⁹².

Hulosa qilib aytganda, insoniyat borliqni va ijtimoiy hayotda erkinlikni ifodalashning huquqdan tashqari boshqa biron-bir shaklini hozirgacha kashf etmagan. Bu mantiqan ham, amalda ham mumkin emas. Odamlar o'z tengligi darajasida erkindirlar va erkinligi darajasida tengdirlar.

¹ Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. -Т.: Шарқ, 1998. 225-б.

⁹² Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: -Т.: "Ўзбекистон", 2010. 29-31 бетлар

Hozirgi davr ijtimoiy-siyosiy fanlarida «inson» deganda Erda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Homo sapiens) vakilini ifodalovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman zotning yig'iq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Individ - inson zotining alohida olingan, uning vakillaridan biri. SHahs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi. Individning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish natijasida individning jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirib borishi uchun zamin yaratiladi. Bu jixatdan yondashganda, u ijtimoiy ta'sir ob'ektidir. SHuningdek, individ ijtimoiylashuv oqibatida jamiyatdagi turli munosabatlarda faollashadi va bunda u ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida harakatlanuvchi shahsga sub'ektga, kuchga aylanadi.

Insonning mohiyatini dastlabki o'rgangan olimlardan biri Hitoydagi Konfutsiy va uning izdoshlari edi. Eramizdan ilgari 298-238 yillarda yashagan Konfutsiyning izdoshi bo'lgan olim Senszi shunday deb yozgan edi: «Tug'ma hususiyatlar - bu samoviy munosabatlar hosilidir. Ularga ta'lim yoki odamning o'zini yaratuvchilik ijodi vositasida erishib bo'lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug'ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar o'zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. SHuning uchun ham tarbiya yo'li bilan inson tabiatini o'zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ta'lim berib, ularni adolatlilikka va mas'uliyatlikka o'rgatish lozim»¹. Ko'rinib turibdiki, insonni jamiyatga uyushishi yoki uning jamiyat a'zosiga aylanishi va faollashuvi uchun u ma'lum darajada tashqi ta'sirga va hayotdagi ijtimoiylashuvga ehtiyoj sezadi.

Insonning muhim hususiyatlaridan biri - uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi ob'ektiv karakter kasb etib, u shahs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagi muhitdagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo'lsa, o'zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan halos bo'la olmaydi. Insondagi jamiyatga uyushishga intilishning tabiiy tarzda kechishini Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalaydi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... SHu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. SHuning uchun inson shahslari ko'paydilar va erning aholi yashaydigan qismiga o'rtnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»².

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralandi. Chunki an'anaviy jamiyatlarda mehnatning tabiiy taqsimoti va ihtisoslashuvi adolat prinsiplariga asoslanmadi. SHuningdek, bu jamiyatlarda shahslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirilishi, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi natijasida shahs erkinligi ham ta'minlanmadi. Boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini pasaytirib, bu holat shahsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon bermas, natijada o'zaro munosabatlar biqiq tarzda ro'y berar edi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'rni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ro'y berdi. Bu jarayonlarning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarning qonunlar, me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirishning rasmiy tizimini yaratilishi zamonaviy jamiyatlarni halqchil bo'lishiga zamin yaratdi. Dinni davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib,

¹ Антология мировой философии. В 4-х т. М.: 1969. Т.1. стр.230-231.

² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Т.:А.Кодирий номидаги «Мерос» нашриёти, 1993, 186-бет.

siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklarini fuqarolik jamiyati, deb atash rusumga kirdi. Ma'lumki, inson o'zining ijtimoiy mavjudot ekanligi va o'z mohiyatidan kelib chiqib, tabiiy ravishda siyosiy munosabatlarda ishtirok etishga intiladi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda faol ishtirok etish ehtiyojlari va zururiyati esa har bir fuqaroda manfaatlarining faqat guruhiiy shakldagina ifodalash va qondirish mumkin ekanligini anglab etishiga zamin yaratadi. Turli xil ijtimoiy guruhlar va tabaqalarning turlicha manfaatlarini o'zaro to'qnashuvlar va ziddiyatlarga kirishishi, ularni o'zaro kelishtirish va muvozanatlashtirishsiz hal qilib bo'lmashligini anglash jarayonlari tabiiy ravishda halqchil jamiyat va siyosiy hokimiyatga bo'lgan ehtiyojlarni shakllantirdi. ×unki turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashni faqat demokratik jamiyat bilan davlat hokimiyati hamkorligida amalga oshirish mumkin ekanligini tarixiy tajribalar isbotlab berdi. SHu sababēi ham siyosiy ong turli xil ijtimoiy guruhlarning siyosiy institutlar va siyosiy sub'ektlar bilan o'zaro muloqot va munosabatlarga kirishishi uchun zaruriy ehtiyojlarni shakllantirdi hamda rasmiylashtirdi.

Fuqaro huquqlarini ta'minlashda insonning tabiiy huquqlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga egadir. qadimgi antik faylasuflar talqinicha, tabiiy huquq tabiatiga bog'liq holda insonlar tug'ilishlaridanoq bir hildirlar. Ijtimoiy shartnomalar asosida qonun va davlat paydo bo'ldi. Aristotelning fikricha, insonni tug'ilishidayoq paydo bo'lgan hususiy mulkka bo'lgan tabiiy huquqi insonning tabiati va uning dastlabki o'zini o'zi sevishiga asoslanadi. qolaversa, ana shu tabiiy huquqni ta'minlashga intilish, hususiy mulk jozibasi, uni saqlash va ko'paytirish manfaatlari insonni jamiyatda tezlik bilan ijtimoiylashuviga va faollashuviga olib keladi.

Tor ma'noda, inson huquqlari tushunchasiga faqat davlat himoya qiladigan va kafolatlanadigan huquqlar kirib, hozirgi davrda ularni konstitutsion-huquqiy asoslar yoki davlat chegaralari bilan cheklab qo'yish oson vazifa emas. Bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy dahlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushlar yoki qamash, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquqlari, zulmkorlarga qarshilik qilish huquqi va boshqalar kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa, o'zida shahs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi.

Barcha inson huquqlarini negativ va pozitiv yo'nalishlarga doir tasniflash keng tarqalgan. Mazkur huquqlarni bu kabi bo'linishi erkinlikni negativ va pozitiv jixatlarini ifodalashga asoslanadi. Ma'lumki, erkinlikning negativ ahamiyati nuqtai nazariga binoan shahsga nisbatan majburlash va cheklashlarning yo'qligi tushuniladi. Pozitiv nuqtai nazardan esa tanlash erkinligi, asosan, insonning o'z maqsadlariga erishish qobiliyati, uning individual rivojlanishi va umuman, uning qobiliyatlarini paydo bo'lishi tushuniladi. Erkinliklarning mazkur bo'linishidan kelib chiqib, negativ huquqlar deganda, davlat va boshqa insonlarning individga nisbatan u yoki bu harakatlardan o'zini tiyib turishi tushuniladi. Bu huquqlar shahsni nohush ta'sirlardan, uning erkinligini buzishi mumkin bo'lgan aralashish yoki cheklashlardan himoya qiladi. Bu huquqlar asos bo'luvchi, muhim va mutlaq huquqlar sirasiga kiradi. Mazkur huquqlarni ta'minlash davlat resurslari yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalariga bog'liq emas. Huquqlar esa shahs erkinligining asosidir.

Negativ huquqlardan farqli o'laroq, pozitiv huquqlar fuqaroga uni u yoki bu ne'matlar bilan ta'minlash, uning ma'lum harakatlarini amalga oshirishi uchun davlat, shahslar va tashkilotlar majburiyatlarini ifodalaydi. Bu - masalan, ijtimoiy yordam olish, ta'lim olish, sog'liqni saqlashni himoya qilish, munosib yashash darajasini ta'minlanishi huquqlari kabilardir.

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaro erkinligi, huquqlari va manfaatlari bosh mavzulardan biri bo'lib, uning huquqiy asoslari Asosiy qonun va boshqa normativ hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Prezident Islom Karimov mustaqillikning ilk davrlaridanoq mamlakatning strategik maqsadlarini aniq va ravshan belgilab berdi va davlat vakolatlarini asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich nodavlat va jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tkazish, o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish orqali demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish zarurligini

bayon etgan edi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bunga ko'ra:

1. Demokratik institutlar faoliyatlari ko'lamini kengaytirish.
2. Aholining siyosiy faolligini kuchaytirish va siyosiy madaniyatini oshirish.
3. Jamiyatda manfaatlar, turli xil qarashlar, siyosiy va e'tiqodiy raqobatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash.
4. Jamoat birlashmalarining ijtimoiy mavqeini oshirish.
5. Siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish.
6. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish.
7. Davlat qurilishini erkinlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish.
8. Hokimiyat bo'linish prinsiplarining insoniyat umume'tirof etgan tamoyillarini amalda qo'llash.
9. Davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini nodavlat va jamoat birlashmalariga o'tkazish va boshqalar.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 2-bo'limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb nomlangan. Unda 1) jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodidan qat'iy nazar, hammaning qonun oldida tengligi ko'rsatilgan. 2) Sud qarorisiz uning huquqini cheklash mumkinmas. 3) Fuqarolar qonunga putur etkazmasligi shart. 1992 yil 2 iyulda «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 1995 yil 21 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi I-qismi tasdiqlandi. 1996 yil 29 avgustda fuqarolik kodeksining 2-qismi tasdiqlandi. O'zbekiston qonunlariga ko'ra fuqarolarning asosiy huquqlariga: 1) SHaxsiy huquq va erkinliklar, 2) Siyosiy huquqlar, 3) Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, 4) Kafolatlar, 5) Fuqarolik burchlarini o'z ichiga qamrab oladi. 1948 yil 10 dekabrda «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi» qabul qilindi. 1996 yil 19 dekabrda «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt qabul qilindi. 1966 yil 19 dekabrda «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt» qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda fuqaro erkinligi, kafolatlari, huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi to'la ta'minlanishi bayon etilgan. O'zbekiston hukumati inson huquqlari bo'yicha 21 ta xalqaro shartnomaga qo'shilgan. 1997 yil Inson manfaatlarini yili deb e'lon qilindi.

O'zbekiston inson huquqlari sohasida o'z siyosatini belgilashda 3 ta eng muhim tamoyildan kelib chiqadi: 1. Normativ va tashkiliy jihatlardan xalqaro tajribaning ustuvorligi. 2. Insonga homiylik qilishdek Vatanimiz tarixiy tajribasini hisobga olish. 3. Inson huquqlari bo'yicha xorijiy milliy institutlar tajribasini hisobga olish. Demak, bu masala «fuqaro-jamiyat-davlat» o'zaro munosabatlarini to'g'ri yo'lga soladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining muhim ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat. Avvalo, mamlakatda dunyoviy davlat tamoyillariga inson huquqlari va suvereniteti g'oyalariga sodiq bo'lish, demokratiya va ijtimoiy adolatni qaror toptirish, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olish, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etish, bu borada o'zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanish, diniy tashkilotlar va birlashmalarni davlatdan ajratilganligi, qonun oldida tengligi va milliy totuvligini ta'minlash kabi bir qator qoidalarga amal qilish lozim bo'ladi. Lekin shu bilan birga Milliy davlatchilik va demokratik jamiyat qurish borasida huquqiy davlatni qaror toptirish lozim. Buning uchun fuqarolar siyosiy ongini faol oshirib borish ham zarur bo'ladi. Fuqarolar erkinligi, huquqlarining tan olinishi, burchlarga rioya etilishi va ularning fuqarolar tomonidan ijrosi ta'min etilgan bo'lishini talab qiladi. SHundagina «Fuqaro - jamiyat - davlat» o'rtasida o'zaro munosabatlar barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Prezident Islom Karimov mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish masalasini mustaqillikning dastlabki yillarida, o'zining «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» asarida ham asoslab bergan edi. Bu masala **2005 yil 28 yanvarida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida ham yana bir bor ta'kidlab o'tildi: «Bizning uzoq muddatli va strategik maqsadimiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini chuqurlashtirish, odamlar ongida**

demokratik qadriyatlarni mustahkamlashdan iborat». Bu masala Prezidentimiz tomonidan 1999 yil 14- sessiyada, 2002 yil 9- sessiyada ham bir necha bor ta'kidlab o'tildi. Demak, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining quyidagi ustuvor yo'nalishlari mavjud: 1) Tengsiz oliy ne'mat - mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qoladi. 2) Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimiz hududiy yaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash lozim. 3) Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash. 4) Inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligi, oshkoralikni, islohotlarning ochiqligini ta'minlash, demakki, to'rtinchi hokimiyat tarmog'ini, ommaviy axborot vositalarini shakllantirish. 5) Mamlakatimizda nodavlat va jamoat tashkilotlarini, ularning o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, ya'ni bu "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" tamoyilini hayotga joriy etishga olib kelish, Qonun ustuvorligini ta'minlash. 6) Sud-huquq sohasini tubdan isloh qilish. 7) Barcha islohotlarimiz yo'nalish va samaradorligi inson omili va mezonini bilan bog'liqligini unutmaslik kerak.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat borliqini va ijtimoiy hayotda erkinlikni ifodalashning huquqdan tashqari boshqa biron-bir shaklini hozirgacha kashf etmagan. Bu mantiqan ham, amalda ham mumkin emas. Odamlar o'z tengligi darajasida erkindirlar va erkinligi darajasida tengdirlar.

Fuqaroviylik va fuqaroviy ongini o'rganishdan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaroviy faollikni o'rganishdan iborat. Zero fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo'lgan fuqarolar bilan barpo etiladi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero ular fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi. Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning echimini chuqur anglashni taqozo etadi.

Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu erda jamiyatning davlat faoliyatidan xoli holda jamoaviy tashabbuslar bilan rivojlanishi nazarda tutilmoqda. Bu partiyalarga a'zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarni anglatadi. SHu ma'noda jamiyat uchun foydali bo'lgan turli dasturlar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollikka kiradi. Aslini olganda jamiyat a'zolarining asosiy ko'pchiligi jamiyatda mavjud qoidalar asosida faoliyat yuritgan holda ijtimoiy faollik ko'rsatishmaydi. Bunday passivlikning jamoat tartibini saqlash nuqtai nazaridan qaysidir darajada ijobiy jihatlari ham mavjud bo'lsa-da, fuqarolik jamiyatini qurishda fuqaroviy faollik juda muhim ahamiyatga ega ekanligini esda tutish lozim. Zero passiv fuqarolar hech qachon o'z huquqlari uchun kurashishmaydi. Fuqaroviy faollik o'z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o'zgartirishga qodirlik hissining yaqqol namoyon bo'lishi bilan vujudga keladi. Ko'pgina hollarda fuqaroviy faollikning boshlang'ich nuqtasi sotsiologlarni qiziqtirgan masaladir. Zero aksariyat jamiyatlarda ijtimoiy o'zgarishlar davlat etakchiligida amalga oshiriladi va jamiyat a'zolari keyinchalik bu o'zgarishlarga moslashishadi.

Ko'pincha fuqaroviy faollik yoshlarda kuzatiladi. Albatta fuqaroviy faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omil faqat yosh bilan chegaralanmaydi. Bilim darajasi, dunyoqarash, tarbiya va hatto yashash manzili ham bunga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pincha yoshlar fuqaroviy faollik ko'rsatishni istahsa-da, siyosiy sohada bunday faoliyat ko'rsata olmaydilar. Boshqacha aytganda, yoshlar davlat siyosati murakkab bo'lganligi tufayli o'z istaklarini siyosatchilar oldida to'g'ri shakllantirishga qodir bo'lmaydilar. Boshqa tarafdin siyosiy soha yoshlardan ancha uzoq bo'lganligi tufayli yoshlar o'z manfaatlarini davlat siyosati bilan muvofiqlashtirishda murakkabliklarga duch kelishlari mumkin. SHu tufayli ularning ba'zilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishadi, aksariyati esa umuman siyosatga qiziqmay qo'yadilar.

Biror-bir sohadagi muammolarni bartaraf etish imkoniyati nodavlat notijorat tashkilotlarida mavjud bo'lganligi tufayli yoshlarning aksariyati shunday tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishadi. Davlatning

siyosiy tuzilmalarida professional faoliyatga kirish fuqaro/yoshlardan ma'lum ish tajribasi, bilim va ko'nikma talab qilsa, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lib kirish uchun ish tajriba talab etilmaydi, balki faqat qiziqishning o'zi etarli bo'ladi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, mavjud vaziyatni o'zgartirish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'z tashabbuslarini ilgari surish zarurligini anglab etadilar. Bu esa turli ko'ngillilar jamiyatlarining tuzilishiga sabab bo'ladi. Insonda boshqalarga yordam berish, ayniqsa muammoli vaziyatga tushgan vatandoshlariga, qo'shnilariga ko'maklashish hissi mavjud. Aynan boshqalarga yordam qo'lini cho'zgan kishi nafaqat muammoni bartaraf etishga hissa qo'shadi, balki u o'zligini ham yanada chuqurroq anglay boradi. SHuning uchun bo'lsa kerak, ko'ngillilik butun dunyoda keng tarqalgan hodisalardan biriga aylangan. Bu hodisa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga o'z hissasini qo'shishga bel bog'lagan kishilarni umumbashariy miqyosda birlashtiradigan jarayonga aylangan. Ko'ngillilik turli shakllarda amalga oshirilishi, jumladan turli kasalliklarga qarshi kurashish uchun xayriya faoliyatidan boshlab qashshoqlik yoki tabiiy ofatlarga qarshi kurashish shaklida bo'lishi mumkin.

Insonni ixtiyoriy faoliyat, ya'ni ko'ngilli ishga chorlovchi istakning negizida har bir kishiga xos bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar yotadi. Jumladan, boshqalarga naf keltirish, o'zini namoyon qilish va muloqot istagi kishini faollikka etaklaydi. Kishida ijtimoiy jihatdan e'tirofga bo'lgan ehtiyoj ham mavjud. Professional va hayotiy tajribani qo'llash istagi ham kishini shunday faoliyatga chorlashi mumkin. O'z imkoniyatlarini ishga solish, o'z g'oyalarini tatbiq etish istagi ham kishini harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va ishtirok etish ehtiyoji ham kishini faollikka etaklaydi.

Ko'ngilli faoliyat inson uchun o'z shaxsiy ehtiyojlari bilan jamiyat ehtiyojlarini uyg'unlashgan holda hayotga tatbiq etish uchun o'ziga xos imkoniyatdir. Bu ehtiyoj kishilarning o'z axloqiy burchlarini anglash hamda insonning barkamolligidan dalolat beradi. Ko'ngilli faoliyat yurita ekan inson axloqiy jihatdan takomillashib boradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi, o'zaro hamkorlik va birodarlik hissiga, insonparvarlik tuyg'usiga ega bo'ladi. Ko'ngillilik faoliyati faol va ijodiy xarakterga ega bo'lib, inson o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu faoliyat tevarak atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatning shakllanishiga, siyosiy voqelikka ziyrak nazar bilan qarashga yordam beradi.

Aynan fuqaroviy faollikning o'zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi;

- faol fuqaro guruhiga mansub kishilar asosan siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iborat;

- faol fuqarolarda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud;

- faol fuqarolarda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladi.

Fuqarolik faolligi bugungi kunda davlat uchun misli ko'rilmagan ko'makchiga aylanmoqda. Turli ijtimoiy loyihalarga birlashgan fuqarolar ro'y berayotgan, tug'ilayotgan va mavjud muammolarni muhokama qilish, ularning echimini topish va hukumatga taklif etish imkoniyatiga ega. Turli nodavlat tuzilmalaridagi etuk mutaxassislar bozor munosabatlari sharoitida kutilmaganda ro'y beradigan muammolar, bozorning betartartib jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga hukumatga ko'makchilik qilmoqdalar.

Ma'lumki bozor munosabatlari sharoitida rang-barang ijtimoiy muammolar yuzaga kelaveradi, ammo ularning echimini hukumat hamisha ham o'z vaqtida hal etavermaydi. Boshqacha aytganda bunday muammolarni hukumat o'z vaqtida payqash imkoniyatiga ega emas. SHunday muammolar mavjudki, ularning oqibati jamiyat uchun qanchalik mudhish bo'lmasin, ularning mavjudligini tan olish yoki ularni bartaraf etish uchun aniq belgilangan institutlar mavjud bo'lmaydi. Agar hukumat fuqaroviy faollikni yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratmas ekan, yoki turli nodavlat va jamoat birlashmalariga ana shunday muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha faol bo'lishga shart-sharoitlar yaratmas ekan fuqarolik jamiyatini barpo etish muammoligicha qolib ketaveradi.

Fuqarolik jamiyati rivoj topgan mamlakatlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, ular serqirra faoliyat yuritadilar. Masalan, jamiyatdagi ma'lumotlilik darajasini oshirish yoki zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish

bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borishadi va natijada parlamentga tegishli qonun o'zgartirishlari taklif etishlari mumkin.

Tabiatni asrash yoki ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha, yuqumli kasalliklarni oldini olish, shahar havosining ifloslanishi, chiqindilardan tozalash bo'yicha jamoat birlashmalari hukumatga qimmatli fikrlar bilan bir qatorda amaliy loyihalarni taklif etadilar.

Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik jamiyati uchun fuqaroviylik, fuqaroviy ong va fuqaroviy faollik juda muhim ahamiyatga egadir. Taraqqiyotni maqsad qilgan har qanday jamiyat uchun inson salohiyatidan foydalanish, insonning o'zligida, uning qalbida mavjud bo'lgan birdamlik, saxiylik, bag'rikenglik kabi fazilatlarga murojaat etishning o'zi kifoyadir.

Fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish – demokratik jamiyat qurish omili. Demokratik jamiyat barpo etishda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi eng muhim omillardan biridir. Bu haqda mamlakat Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni bildiradi: "Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etish masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o'zlari qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va bu huquqdan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. SHunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z mas'uliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur. Barqaror, mustahkam tizimlarda, agar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun hamma huquqiy, demokratik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, aholining o'zi ixtiyoriy ravishda, professional asosda mamlakatning siyosiy hayotida tobora keng ishtirok etadi"¹.

Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Fuqarolik jamiyati institutlari. Hozirgi davrda O'zbekiston jamiyatida 7 millionga yaqin fuqarolar kasaba uyushmalari faoliyatida, 600 mingdan ortiqroq fuqarolar esa siyosiy partiyalar a'zolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadilar. SHuningdek, millionlab fuqarolar yoshlar, xotin-qizlar, turli jamg'armalar, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etadilar. Mamlakat viloyatlarida 661 ta, tumanlarda 4564 ta, shaharlarda 831 ta viloyat, shahar va tuman kengashlari deputatlari, 10.000 ga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqdalar.

Mustaqillik davrida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga ham muhim e'tibor berildi. Mamlakatda O'zbekiston yoshlarining «**Kamolot**» **ijtimoiy harakati** jamiyatning barcha yo'nalishlarida keng faoliyat olib bormoqda.

2. Ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishda saylovlar muhim o'rin tutadi. Unda avvalo, saylovchilarning ixtiyoriy bergan ovozlari binoan siyosiy institutlar legitimligi oshadi. Qolaversa, saylovlarda jamiyatdagi turli xil guruhlarining tinch raqobatdoshligi kutilganligi sababli ham saylash jarayonlari siyosiy ziddiyatlarni hal etishga olib keladi. SHuningdek, saylovlar aholi siyosiy manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar, boshqa siyosiy tashkilotlarning faol harakatlari tufayli turli ekstremistik harakatlarni cheklab turadi. SHu bilan birga saylovlar fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ijtimoiylashuviga ko'maklashadi. Saylovlardagi turli kampaniyalar, ularni ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tadbirlar saylovchilar siyosiy va huquqiy madaniyatlarini yuksaltiradi. SHuningdek, saylovlar fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonda fuqarolar ijtimoiy faolligining o'sib borishi ularning mamlakat davlat organlariga bo'lgan saylovlardagi ishtirokida ham sezilmoqda. 1999 yil 5 dekabrda ikkinchi marta demokratik tamoyillar asosidagi Oliy Majlisga bo'lgan saylovlarda 12,5 milliondan ortiq saylov huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 95,03 foizi ishtirok etdilar. Unda 250 ta Oliy Majlis deputatlari saylandi. SHuningdek, 2000 yilning 9 yanvarida O'zbekiston Respublikasi

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997, 173-174-бетлар.

Prezidentligiga saylovlar bo'lib o'tdi. Unda esa 12 million 123 mingdan ko'proq saylovchilar ishtirok etdilar. «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi nomzodi Islom Abdug'anievich Karimov nomzodi uchun 11 million 147 ming 621, yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdilar.

2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis quyi qonunchilik palatasiga va mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilgan saylovlarda fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligi yanada oshdi. SHuningdek, 2006 yil may-iyun oylarida fuqarolar yig'ini (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovlarida oddiy fuqarolar demokratik saylovlarda ishtirok etib, o'z fikrlarini bayon etdilar va xalq boshqaruvining quyi bo'g'iniga faol insonlar saylandilar.

3. Davlat va jamiyat boshqaruvida O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning faolligi ham muhim ahamiyatga ega

Mamlakatda o'tkazilgan saylovlarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi yildan-yilga o'sib bormoqda. Mamlakat fuqarolari hozir mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlar va islohotlarga nisbatan befarq emaslar. Ayniqsa, fuqarolarning o'z manfaatlarini ijtimoiy faollik va guruhliy nodavlat tashkilotlar vositasida ifoda etish, ularni qondirishga intilishlari rivojlanib bormoqda. Lekin, shu bilan birga, fuqarolarning qarorlar qabul qilishdagi faolligini oshirish uchun ular dunyoqarashida demokratik tamoyillar asosidagi siyosiy va huquqiy ongni singdirish ehtiyojlari sezilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, iqtisodiy va siyosiy hayotni erkinlashtirishdir.

Jamiyatni tashkil etish qonuniyatlariga binoan ma'lum bir siyosiy tizim doirasida turgan individ va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy-siyosiy jarayonga bir xilda tortilmaydilar. Ularning ba'zilar siyosatga befarq qaraydilar, yana boshqalari ba'zi paytlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonda ishtirok etadilar, uchinchilari esa doimo siyosiy kurashga intiladilar. Hattoki, siyosiy va ijtimoiy hodisalarda faol rol o'ynayotganlar ichida ham faqat ularning ba'zilar hokimiyatga yoki jamoatchilik faoliyatiga jon - jahdlari bilan intiladi.

XX asr 90-yillarining oxiri - yangi asr boshlaridagi siyosiy islohotlarning muhim ahamiyati shunda bo'ldiki, bu paytga kelib xalq ommasini ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ular siyosiy madaniyatini yuksaltirish, demokratiyaning eng muhim tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun shart-sharoitlar yaratildi. O'zbekistonda siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishning o'ziga xos qadriyatlarini shakllandi. I.A.Karimov mustaqillik davridagi tajribalarni va etakchi xorijiy mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur tahlil etib, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishining demokratik tamoyillarini ilgari surdi: «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular - xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hokumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir...»¹

O'z-o'zidan ravshanki, siyosiy tuzum to'la-to'kis amal qilishini va uning yanada erkinlashuvini ta'minlash uchun uni tashkil etuvchi hamma tuzilmalar, ya'ni mavjud sub'ektlar - shaxs, siyosiy institutlar, aholining ijtimoiy guruhlari hamda qatlamlari va xokazolar to'laqonli faoliyat ko'rsatishiga erishish zarur»².

Ko'rinib turibdiki, fuqarolar o'z siyosiy faolliklarini yuksaltirishi, yuqoridan qabul qilinadigan qarorlar qabul qilishda bevosita yoki o'z manfaatlarini guruhlari vositasida keng ishtirok etishi mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish kafolatlaridan biridir. Ayniqsa, sobiq totalitar jamiyat meros qilib qoldirgan ma'muriy - buyruqbozlik tizimi asoratlari fuqarolar dunyoqarashi, siyosiy ongi va amaliy xatti-harakatida barham topmas ekan, siyosiy erkinlashtirishga doir islohotlar ham qiyin kechishi turgan gap.

Ma'lumki, siyosiy ong va siyosiy madaniyat yuksalishida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokining ahamiyati beqiyosdir. Fuqarolar jamoat tashkilotlari faoliyati vositasida yoki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etar ekan, ularda quyidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lishi kutiladi:

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997, 181-182.

² Ўша жойда.

1) fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ularning tabiiy siyosiy - ijtimoiy his-tuyg'ularini uyg'otadi, harakatga keltiradi, bu yo'nalishga doir intilishlar shakllanadi. YOki qisqacha aytganda, har bir fuqaroning ijtimoiylashuv jarayoni amalga oshadi;

2) qarorlar qabul qilishdagi faol siyosiy harakatlar; bu jarayonda oddiy fuqarolar manfaatlari, ehtiyojlari va intilishlarining hisobga olinishi ularga erkin insoniy qadr-qimmat bag'ishlaydi. Eng asosiysi, bu qarorlarning xalq taqdiridagi ahamiyati fuqarolarda siyosiy mas'uliyat ruhini shakllantiradi;

3) fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishda turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini turli jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar vositasida ifodalanishidan qoniqishlari ularni yanada faollashtiradi; natijada o'zaro manfaatlar kelishuvi oqibatida jamiyatning barqaror bo'lishiga katta hissa qo'shiladi;

4) bu ishtirok har bir fuqaroni o'zligini anglashga, uning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin egallashiga shart-sharoitlar yaratadi, o'z mamlakatiga egalik hissini shakllantirib, milliy iftixor tuyg'ulari yuksalishini ta'minlaydi;

5) davlat hokimiyati jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarini o'z siyosiy qarorlarida ifodalanishiga erishiladi; mazkur qarorlarni hayotda amalga oshishi natijasida siyosiy hokimiyat yanada legitimlashadi; davlat organlarini, fuqarolarni boshqarish, siyosiy qarorlarni bajarishni ta'minlashga doir jarayonlar va ma'muriy tadbirlarni amalga oshirishni jamiyat hech bir zo'riqishsiz va ixtiyoriy ravishda qabul qiladi; shuningdek, bu faoliyat fuqarolar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi;

6) bu jarayonlar jamiyatdagi ko'pchilik fuqarolarning irodasini ifodalanishiga shart-sharoitlar yaratib, jamiyat va davlat hokimiyatining demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatish salohiyatini oshiradi.

Fuqarolar siyosiy madaniyati va faoliyati. Fuqarolar faolligini oshirishda ularning siyosat va hokimiyat hodisalariga nisbatan shaxsiy munosabatlarini ifodalovchi baholash hukmlari ahamiyatga molik ma'naviy hodisadir. Bunday shaxsiy - mazmuniy munosabatlarning mavjudligi insonning o'z fuqarolik burchini anglab etgan siyosiy sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsata olishini ifoda etadi. SHuning uchun insonning qadriyatlarga doir munosabatlarining turlicha shaklda ro'y berishi (masalan, hokimiyatga, davlatga, partiyalarga va institutlashmagan sub'ektlarga nisbatan) siyosiy madaniyatning muhim tuzilishini tavsiflab beradi.

Umuman, siyosiy madaniyat insonning siyosiy hodisalar haqidagi qadriyatlarga doir tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo'ladigan xulqining kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat sub'ekti sifatidagi faoliyatining uslubidir. SHu ma'noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan siyosiy faoliyat namunalari qay darajada egallaganligini namoyish qiladi. SHuningdek, u insonning tafakkurlash va amaliy faoliyat me'yorlarining jamiyat madaniy, deb tan oladigan sub'ektivligini qanchalik darajada oshira olganligi haqdir.

Jamiyatning har bir a'zosi ijtimoiylashuv va kamolotga erishish jarayonida ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shakllanadi. SHuningdek, inson jamiyatda hukmron bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimning asosiy xususiyatlarini o'zida uyg'unlashtiradi va umumlashtiradi. Ayni paytda har bir individ siyosiy madaniyat tashuvchi hisoblanadi va shu sababli ham siyosiy madaniyat siyosiy - madaniy tizimning umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi qismi deb qaraladi. **Siyosiy madaniyat** - bu munosabatlar tizimi va ayni paytda avlodlar almashinuvi natijasi, uni tashkil etuvchi unsurlarni ishlab chiqish va qayta ishlab chiqish jarayonidir. Siyosiy madaniyat rivojlanib boruvchi dinamik hodisadir.

Insonda dunyoqarash shakllanganidan so'ng uni himoya qilishga qodir huquqiy madaniyat shakllanishiga shart - sharoitlar yaratish zarauriyati tug'iladi. Demak, huquqiy madaniyat va huquqiy himoyaning mavjudligi jamiyatni demokratiyalashning asosiy kafolatlaridan biridir. Qolaversa, demokratiyani tabiiy ravishda rivojlantirish uchun fuqarolarning umumiy madaniyatlilik darajasi ham yuqori bo'lishi lozim. Aniqrog'i, demokratik jarayon bilan insonning madaniyatlilik o'rtasidagi muvozanat doimiy xarakteriga ega bo'lishi kerak. Faqat yuksak madaniyatgina jamiyatni haqiqiy demokratik rivojlanishga olib keladi. SHuningdek, bu jarayonlar inqilobiy emas, balki tadrijiy yo'l bilan bo'lishi zarurligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. YA'ni tabiiy rivojlanish yo'li

boshqa usullarga qaraganda eng ma'qulidir. Jahon tarixiy tajribasi bunday yo'lni oxirgi yutuq sifatida tanlagani bejiz emas.

Siyosiy madaniyat uzoq yillar va avlodlar almashinuvi natijasida tarkib topgan siyosiy an'analar, siyosiy amaliyot me'yorlari, g'oyalar, turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga doir konsepsiyalar va e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. U kishilarning o'zlari yashayotgan mavjud tizimga, undagi institutlarga va xatti - harakat qoidalarga, alohida shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tamoyillariga nisbatan shakllangan intilishlari va ko'rsatmalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Siyosiy madaniyat qadriyatga oid va me'yoriy tizim hisoblanadi. U o'zida siyosiy tizimdagi tayanch, e'tiqodlar, ko'rsatmalar, yo'nalishlar, intilishlar timsollarini aks ettiradi va birlashtiradi. Amerikalik siyosatshunos D. Divaynning fikricha, siyosiy madaniyat ma'lum ijtimoiy - siyosiy tizim a'zolari yoqlaydigan, "keng tarqalgan, fundamental siyosiy qadriyatlarning tarixiy tizimidir"¹. Siyosiy madaniyat "siyosiy mafkura", "legitimmen", "suverenitet", "qonun boshqaruvi", "siyosiy partiya" kabi kategoriyalarni o'rganishni ham taqozo etadi. Siyosiy madaniyat ma'lum darajada jamiyat a'zolari oldiga chegaralashlar qo'yadi. Siyosiy jarayonlar va siyosiy xulqda namoyon bo'ladigan e'tiqodlar, his - tuyg'ular va qadriyatlar oldidagi bunday chegaralashlar ham o'z navbatida siyosiy madaniyatning muhim unsuri hisoblanadi. Alohida shaxsning, guruhning va boshqa ijtimoiy birliklarning umumiy dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy dunyoqarash siyosiy madaniyatning eng muhim komponentidir⁹³.

Siyosiy madaniyatni tashkil etuvchi qadriyatlar, yo'nalishlar, ko'rsatmalar, streotiplar siyosiy tizimning shakllanishi va saqlanib qolishida asosiy o'rinni egallaydi. Jamiyat a'zolari o'zaro baham ko'radigan "ijobiy" qadriyatlar tizimi miqdori uning alohida komponentlari o'rtasidagi o'zaro murosa va kelishuvni belgilaydi va uning barqarorligi hamda yashab qolish qobiliyatining nechog'lik mustaqil ekanligini aniqlab beradi.

Kishilar o'zlarini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlari yoki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun amaliyotda ishtirok eta boshlagandagina, siyosiy madaniyat shakllanib boradi. Bunday madaniyatni egallash faqat siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlari faoliyatida ishtirok etish orqaligina ro'y beradi. Hech bir inson yakka o'zi harakat qilib, o'zining moddiy, siyosiy, huquqiy manfaatini yoki erkin fikrlash huquqini qo'lga kiritolmaydi.

Siyosiy madaniyatning totalitar turi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotining prinsipial bir xillik bo'lishiga asoslanadi hamda har qanday turli-tumanlik, rang-baranglikni yo'qotishga moyil g'oyalarga tayanadi. Sobiq SSSRdagi madaniyatning bu turi turli ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos maqsad va manfaatlarini ochiq namoyon qilishga yo'l qo'ymaydi. SHu bilan birga totalitar rejim fuqarolarning siyosiy hayotdagi tanlash imkoniyatlarini chegaralar, har qanday muqobillikni inkor qilar, bitta mulkchilik turi, bitta partiya, bir o'ringa bitta nomzod kabi cheklashlarni oldindan belgilab berar edi. Bu holat o'z navbatida total turg'unlikni, qolaversa emirilishni ham keltirib chiqardi.

Siyosiy madaniyatning plyuralistik turi quyidagi muhim shart-sharoitlar yaratilganidagina paydo bo'lishi, rivojlanishi, faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, ustuvorlik kasb etishi mumkin:

1) Iqtisodiy va ijtimoiy hayot plyuralizmi sohasida - mulkchilikning turli shakllari, eng avvalo xususiy mulkchilik paydo bo'lishi, xo'jalik yuritishning turli usullarining amal qilishi;

2) Jamiyat o'z ijtimoiy strukturasi va turli manfaatlari bo'yicha qanchalik rang-barang bo'lsa, siyosiy plyuralizm va siyosiy madaniyat shakllanishi uchun shunchalik ko'proq zamin paydo bo'ladi.

3) Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ustuvorligini ta'minlash sohasida - fuqarolik jamiyati siyosiy institutlarining shakllanishi; davlat hokimiyatini shakllantirish asosan saylovlar vositasida amalga oshishi, hech kim, hech bir guruhning bu hokimiyatni na amalda, na huquqiy jihatlardan o'z monopoliyasiga aylantirishiga yo'l qo'ymaslik;

¹ Қаpaн: Devine. The Political Culture of the United State. –Boston, 1972, P.3-7.

4) Guruhlar va ularning vakillari bo'lgan siyosiy partiyalar va harakatlar o'rtasida ijtimoiy rivojlanishning asosiy qadriyatlari, ideallari va maqsadlariga nisbatan aniq kelishuvlarning mavjudligi;

5) Ham huquqiy jihatlardan, ham hayotda shaxs erkinligining ta'minlanganligi.

Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida parlament sud-huquq tizimini chuqur isloh qilish va liberallashtirish, sud hokimiyatining amaldagi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan keng miqyosli ishlariga ham salmoqli hissa qo'shganligini alohida ta'kidlab o'tdi. O'tgan besh yil mobaynida qabul qilingan 58 ta qonunga muvofiq, sud-huquq tizimidagi islohotlar yanada chuqurlashtirildi.

O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Toshkent shahar, tuman, shahar, xo'jalik sudlariga bo'linadi. Prezident Islom Karimov Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma yig'ilishida hokimiyatning ana shu tarmog'i – sud tizimini tubdan isloh qilish yo'llarini ko'rsatib o'tgan edi. Sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish uchun prokuratura organlarining sud jarayonlariga aralashuvini cheklash, shaxsni ushlab turish, hibsga olish huquqlarini sud tizimiga o'tkazishni belgilab berdi. Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlash ta'kidlab o'tildi.

Sud-huquq sohasini erkinlashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolarni shafqatsiz jazolash bilan emas, balki insonparvarlik ruhida tarbiyalash asosida huquqiy davlat yo'lidan borish zarurligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2005 yilning 1 avgustida imzolangan «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi» hamda 2005 yilning 8 avgustida imzolangan «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi farmoni, sud-huquq sohasini liberallashtirish sari qo'yilgan katta qadam bo'ldi. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan «Odamlar ayniqsa ayollar va bolalar savdosini to'xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to'g'risida»gi Bayonnomada odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali choralari ko'rish belgilab berilgan edi.

Odam savdosiga qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish hamda mazkur Bayonnomaning qoidalarini milliy qonunchilikka singdirish maqsadida 2008 yilning 17 aprelida «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Bu qonunda «Odam savdosi» va «Odamlardan foydalanish» tushunchalari belgilangan, odam savdosiga qarshi kurashish tizimning tashkil etilishi tartibi, vakolatli organlar va ularning vazifalari, shuningdek odam savdosi qurbonlarining himoyasi va ijtimoiy-huquqiy rehabilitatsiyasi masalalari yoritilgan.

2008 yilning 7 yanvarida O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. 2008 yilning 1 mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ikki farmoni qabul qilindi:

1. «O'zbekiston Respublikasida Advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan «Tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Farmonlari sud-huquq tizimini liberallashtirish jarayonining mantiqiy davomi bo'ldi⁹⁴.

Haqiqatan ham Prezidentimiz ma'ruzasida ta'kidlab o'tilganidek, mamlakatimizda 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab, o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida, shuningdek fuqarolarni qamoqqa olishda sanksiya berish huquqini prokuraturadan sudlarga o'tkazish to'g'risida 2007 yilda qabul qilingan parlament qonunlari butun dunyoda qiziqish va e'tibor uyg'otdi. Mazkur chora tadbirlarning joriy etilishi bilan O'zbekistonda dunyodagi eng insonparvar, liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi.

⁹⁴ Халқ сўзи, 2008 йил 28 май.

Mustaqillikka erishgandan keyin Prezident Islom Karimov tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalariga asoslangan jinoyat, jinoyat protsessual qonunlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi esa mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Ayniqsa, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida jinoiy jazo tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlash borasidagi say'-harakatlar muhim o'rin tutadi. Sud-huquq tizimini liberallashtirish to'g'risida Prezidentimiz —Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala – bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir! deganda aynan shu harakatlarni nazarda tutgan edi.

Ma'lumki, 1995 yilgacha amal qilgan Jinoyat Kodeksida 33 ta jinoyatga o'lim jazosi qo'llanilar edi. Keyingi Jinoyat Kodeksida esa ularning 13 tasi saqlanib qoldi, ya'ni 20 ta turdagi jinoyatdan o'lim jazosi olib tashlandi. Jumladan, ayollar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va voyaga etmaganlarga nisbatan bu jazo qo'llanilmaydi. SHuningdek, o'lim jazosi avf etish tartibida yigirma besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilishi mumkin (JK ning 51-moddasi).

Ana shu ustuvor vazifadan kelib chiqib, 1998 yilda Jinoyat Kodeksidagi 5 ta modddan o'lim jazosi olib tashlandi. 2001 yilda yana to'rtta moddaga jazo qisqartirildi. 2004 yilda esa bu jazo bor-yo'g'i ikkita, ya'ni aybni og'irlashtiruvchi holatda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlari uchun tatbiq etiladigan bo'ldi. Bular mamlakatimizning xalqaro huquq sub'ekti sifatida xalqaro hujjatlarga zikr etilgan majburiyatlarni so'zsiz bajarishga inti-layotganining amaldagi isbotidir. Hozirgi kunda 100 ga yaqin davlatning qonunchiligida o'lim jazosi bekor qilingan. Jumladan, SHvetsiya va Finlandiya 1972 yilda, Germaniya 1949 yilda, Fransiya 1981 yilda, 1990 yillardan boshlab Irlandiya, Vengriya, Ruminiya, CHexiya, Slovakiya, SHveysariya, Gretsiya, Polsha, Moldova, Italiya, Ispaniya davlatlari o'lim jazosidan voz kechgan. Bundan tashqari, 30 dan ortiq davlatning qonunchiligida o'lim jazosi mavjud bo'lsada, amaliyotda qo'llanilmaydi.

O'lim jazosini bekor qilish o'ta murakkab masala bo'lib hisoblanishini Prezident Islom Karimov ta'kidlab, —Birinchi navbatda aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish lozim, chunki bugungi kunda ularning ko'pchiligi, o'lim jazosining bekor qilinishiga qarshi. Ikkinchidan, o'lim jazosi o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli jazoni o'tashga hukm qilinadigan shaxslar uchun tegishli joylar qurish kerak!, degan fikrga alohida e'tibor qaratish lozim. O'lim jazosini bekor qilish masalasini aholiga tushuntirib berish ham anchagina murakkab jarayon bo'lib, bu ishga huquqshunoslar, mutaxassislar, siyosatshunos, psixolog va boshqa ko'pgina mutaxassislar jalb qilinishi lozim. SHuningdek, Prezidentimiz yuqorida ta'kidlaganidek, o'lim jazosi o'rniga sud tomonidan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan mahbuslar jazosi alohida koloniyada o'tashi lozim bo'lganligi sababli ularni saqlash bilan bog'liq jazoni o'tash muassasasini qurib bitkazish uchun byudjetdan tegishli mablag' ajratilishi va binoni tayyorlash ham ma'lum muddat talab etadi. SHu sababli ham davlatimiz rahbari o'lim jazosini bekor qilish bilan bog'liq barcha tashkiliy-huquqiy jarayonlar 2-3 yil ichida amalga oshirish mumkinligini bildiradi.

2001 yil 29 avgustda qabul qilingan —Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonun bilan jinoyatlarni tasniflash, engillashtirish ma'nosida takomillashtirildi, yarashtiruv instituti joriy etildi. Jinoyat kodeksida o'lim jazosini nazarda tutuvchi moddalar soni keskin kamaytirildi, mol-mulkni musodara qilish jinoiy jazo sifatida bekor qilindi va shu kabi inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qo'llanildi.

Qonun ustuvorligi inson huquq va erkinliklari kafolati

Istiqlol tufayli mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan keng qamrovli o'zgarishlar yurtimizda yangi demokratik qadriyatlar ildiz otganini, inson huquqlari va uning erkini ta'minlashga qaratilgan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga xos zamonaviy tuzilmalar shakllangani bilan xarakterlanadi.

Albatta, erkin va adolatli jamiyat qurish uchun qonunga tayanishimiz va qonun ustuvorligiga erishishimiz lozimdir. CHunki har qanday davlatning qudratli va mustahkam bo'lishi, xalqining tinch va farovon hayoti amaldagi qonunlarning ustuvorligiga bog'liqdir.

SHunday qilib, **huquq** - davlat tomonidan belgilanadigan yoki ruxsat etiladigan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy hulq-atvor qoidalari tizimidir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyator bo'lib, uning ushbu xususiyati ijtimoiy munosabatlar bilan bo'ladigan muntazam aloqadorligini ta'minlaydi.

Erkinlik – insonga qonun bilan ruxsat etilgan u yoki bu harakatni amalga oshirishi va hayot uchun zarur bo'lgan ne'matlardan foydalanishda ijtimoiy to'siqlarning bo'lmasligi tushuniladi. SHu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko'p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasi hisoblanadi. Konstitutsiyaning X bob 43-46 moddalari inson huquq va erkinliklariga bag'ishlangan bo'lib, davlat fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarni ta'minlashi, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan taqdim etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini tobora takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hal qiluvchi vazifa bo'lib qolishi ta'kidlangan. Zero, jamiyatning demokratiya yo'lidagi jadal rivojlanishi va bu boradagi islohotlarning samarasi ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasiga bog'liq. Odamlarning huquqiy ongi va madaniyati davlatimiz rahbarining 2011 yil 23 avgustda qabul qilingan —O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq vazirlik zimmasiga aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ'ibot va ma'rifat sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 23 iyuldagi qarori asosida tasdiqlangan Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash to'g'risidagi nizom bu boradagi faoliyatni tartibga solishda muhim huquqiy asos bo'ladi. Avvalambor odamlarning huquqiy ongi va madaniyati shakllantirishda insonlarga o'zlarining huquq va burchlarini, o'zlari yashab turgan joyda o'rnatilgan qonunlarga asosan ularning shaxsiy va fuqarolik huquq va burchlari kafolatlab qo'yilgan asosiy qonun, ya'ni konstitutsiya va uning normalari tanishtirilishi kerak.

Buni mazkur hujjatning birinchi moddasidan to oxirgi moddasigacha inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, vatan ravnaqi hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelayotgan umumbashariy g'oyalar singdirilganida ham ko'rish mumkin. Asosiy qonunimizda buyuk ne'matlar orasida eng ulug'i - —inson uchun degan g'oya ilgari surilib, uni ulug'lash, uning erkin kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish o'z aksini topgan. Boshqacha aytganda, —fuqaro - jamiyat - davlat o'rtasidagi izchil hamkorlikning huquqiy echimi asoslab berilgan.

Demokratik davlatda jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklari kafolati doimiy harakatdagi mexanizmga o'xshashi lozim. Konstitutsiyaning 19-moddasida —hech kim sud qarorisiz fuqarolarni huquq va erkinliklaridan mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga haqli emasligi belgilab qo'yilganki, bu qoida huquqbuzar kim bo'lishidan qat'i nazar, javobgarlikka tortish mumkinligini bildiradi. Kafolat tizimida iqtisodiy omilga keng o'rin berilgan. CHunki iqtisodiy hayot qanchalik farovon bo'lsa, huquqning amaldagi kafolat darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Bugungi Asosiy qonunimizda esa davlat ham, jamiyat ham, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning haq-huquqlarini himoya etishi ustuvor tamoyil sifatida aniq belgilab qo'yilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, —Biz boshlagan islohotlarimizning pirovard maqsadi bitta - adolatli jamiyat barpo etish. Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi konstitutsiyaviy kafolatlar tizimini hayotga tatbiq etishga qaratilgan islohotlar jamiyatning shu maqsad yo'lidagi vazifalariga to'liq mos kelmoqda, inson huquqlarini kafolatlovchi milliy mexanizm yaratilmoqda. Inson huquq hamda erkinliklarini ta'minlovchi va kafolatlovchi davlat organlari tizimi tashkil etilib, ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlarining paydo bo'lishiga

ko'maklashmoqda. Hozirgi paytda insonning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida inson va fuqaro huquq hamda erkinliklarining kafolatlari to'g'risida qonun qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Inson huquqlari g'oyasi milliy parlamentimiz faoliyatida doimiy o'rin egallashi darkor. Har qanday qonun ishlab chiqilayotgan va muhokama etilayotgan paytda insonning asosiy huquqlariga qanchalik mos kelishiga alohida e'tibor qaratish zarur

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Birinchi Prezident I.Karimov: —...**Qadimgi dunyoning buyuk donishmandlari —Nimaiki qonuniy bo'lsa, u – adolatlidir, deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Ular shu tariqa aynan qonun adolat manbai va mezonni ekanini uqtirganlar, desak, har tomonlama o'rinli bo'ladi. Va aksincha, agar qonun bajarilmasa, qonunda bir narsa yozilib, hayotda hammasi boshqacha bo'lsa, odamlarning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda muhrlab qo'yilgan adolat va demokratiya normalariga nisbatan har qanday ishonchi yo'qoladi. Bunday holat barchamizga ayon. Qonun va qonun ustuvorligi bo'lmagan joyda avvalo uning o'rnini korrupsiya degan balo egallaydil, - deb ta'kidlayd.**

Shuningdek, Gellap Instituti (AQSH) ijtimoiy fikrni o'rganish markazi tomonidan «qonuniy tartiblarga itoat qilish indeksi» bo'yicha «Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumandagi mahalliy politsiyaga ishonasizmi?», «Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumanda kechasi xavf- xatardan qo'rqmasdan yolg'iz yura olasizmi?» va «Oxirgi o'n ikki oyda siz va oila a'zolaringizning pul va mol-mulki o'g'irlangan holat sodir bo'lganmi?» savollari ostida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, O'zbekiston 141 mamlakat orasida 2 (ijobiy) o'rinni egallagani tahsinga sazovordir.

MA'RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI


<i>Talabalar soni -</i>	O'quv vaqti – 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli -</i>	Mavzu bo'yicha vizuallashtirish - ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.“Fuqaro erkinligi va huquq va manfaatlari” tushunchasi, mazmini va mohiyati 2.Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha xalqaro va milliy huquqiy normalar va prinsplar 3.Demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish zarurligi 4.O'zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qimoya qilish bo'yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo'nalishlari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i> O'zbekiston demokratik jamiyati qurilish jarayonida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlarining ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohatlar va fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnini haqida tushuncha xosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>
Mustaqillik yillarida inson huquqlarini ta'minlash borasida amalgam oshirilayotgan o'zgarishlar va islohatlar haqida ma'lumot beradi;	Huquqiy sohadagi islohatlarni tushuntira oladi;
Respublikamiz mustaqillikka erishgach fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini yanada ridojlantirish ba ularning fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi rolini oshirish masalalaridagi o'xgarishlarni izohlaydi;	Bu sohadagi davlat siyosatining tub mohiyatini tushuntira oladi;
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, o'quv vizual materiallar, grafik organayzer

<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, kompyuter shakllari, doska
<i>O'qitish shakli</i>	Frantal, proektor, blis so'rov
<i>O'qitish nazorati</i>	Texnik ta'minlangan auditoriya
<i>Manitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Mavzuga kirish (20 minut)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi;	Tinglaydilar
	1.2. Mavzu rejalari, tayanch so'zlar, tegishli adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi; (1- ilova)	Tinglaydilar
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. Ma'ruzaning 1-savoli "O'zbekiston demokratik jamiyati qurilish jarayonida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi" yuzasidan go'rgazmali ma'ruza qiladi. O'zgarishlar va islohatlarni yoritib berishda 1-5 – shakllardan foydalanadi. 2.2. "Inson huquqlarini himoya qilish va ularni ta'minlashning asoslari" savoli 6-10-shakllar bilan tushuntiriladi. 2.3. Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni" rejasi bo'yicha shakllarning umumiy bog'liqligidan kelib chiqib tushuntiriladi. 11-12-shakllar. Mavzuning rejalari yoritilish jarayonida jonlantiruvchi savollar beriladi va ular bo'yicha talabalarning javoblari tinglanadi	Tinglaydilar, shakllarga e'tibor qaratadilar, savollarga javob beradi, topshiriqlarni bajaradilar
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3. Mavzu bo'yicha talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni muhokama qilishga, yangi muammolarni keltirib chiqarishga, ijodkorlikka etaklovchi yakunlovchi xulosa qiladi.	O'zini qiziqtirgan savollar beradi

1-shakl



O'quv vizual materiallar

2-shakl


Bugun jaqonda **300 dan** ziyod hujjat inson va fuqarolar huquqi sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlar tizimini tashkil etadi. Ularning ko'pchiligini BMTning xalqaro -huquqiy hujjatlari qisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hozir inson huquq va erkinliklarini himoyalash sohasidagi **60 ta** xalqaro-huquqiy hujjatlarga imzo chekkan. Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Respublikamiz tomonidan inson huquqlari sohasidagi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"(1966), "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar to'g'risida"gi(1966) xalqaro Paktlar, BMTning "Yosh bolalar huquqlari to'g'risida" (1989), "Irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risida" (1979), "qiynoqlar va inson qadr - qimmatini erga uruvchi muammolar hamda jazo turlariga qarshi" (1984) Konventsiyalar ratifikatsiya qilindi.

3-shakl

Mustaqillik davrida O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va ularni ta'minlashning huquqiy asoslari rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy qadriyatlar talablari darajasida shakllandi.

Shuningdek, Konstitutsiya hamda qonunlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat talablari darajasidagi mezonlari, me'yorlarini yarata oldi.





18 - modda



O`zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo`lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e`tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat`i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo`yiladi hamda ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo`lishi shart.

SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIK
24-31- moddalar

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng ojir jinoyatdir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega.

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi.

Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda taziyqqa duchor etilishi mumkin emas.

23.09.2005 9



SIYOSIY HUQUQLAR
32-33-34-35- modalar


O`zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o`z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.



O`zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Fuqarolar o`z ijtimoiy faolliklarini O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yijilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar.

Har bir shaxs bevosita o`zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega

23.09.2005 11





Bugun jaqonda **300 dan** ziyod hujjat inson va fuqarolar huquqi sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlar tizimini tashkil etadi. Ularning ko`pchiligini BMTning xalqaro -huquqiy hujjatlari qisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi hozir inson huquq va erkinliklarini himoyalash sohasidagi **60 ta** xalqaro-huquqiy hujjatlarga imzo chekkan. Shuni ta`kidlash kerakki, bugungi kunda Respublikamiz tomonidan inson huquqlari sohasidagi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risida"(1966), "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar to`g`risida"gi(1966) xalqaro Paktlar, BMTning "Yosh bolalar huquqlari to`g`risida" (1989), "Irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo`qotish to`g`risida" (1979), "qiynoqlar va inson qadr - qimmatini erga uruvchi muammolar hamda jazo turlariga qarshi" (1984) Konventsiyalar ratifikatsiya qilindi.

10-shakl

Inson huquqlri va qonun ustivorligini ta'minlashda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 dekabrda qabul qilgan «Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi milliy markazini tuzish to`g`risida»gi farmoni muhim ahamiyat kasb etdi.

Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi milliy markazi asosan, inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirchan vositasini barpo etish, xalqaro huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo`yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning inson huquqlari va boshqaruv tizimi demokratlashtirish, qo`llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan.

Fuqarolar jamoat tashkilotlarining faoliyati vositasida yoki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etar ekan, ularda quyidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lishi kutiladi:

fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ularning siyosiy – ijtimoiy faolligini uyg'otadi, harakatga keltiradi, bu yo'nalishda muayyan ko'nikmalar shakllanadi. Boshqcha aytganda, har bir fuqaroning ijtimoiylashuv jarayoni amalga oshadi.

qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish oddiy fuqarolarning manfaatlari, ehtiyojlari va intilishlarining hisobga olinishiga turtki bo'ldi. Eng asosiysi, bu jarayonlar

fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishda turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini turli jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar vositasida ifodalanishidan qoniqishlari ularni yanada faollashtiradi: natijada o'zaro manfaatlar kelishuvi oqibatida jamiyatning barqaror bo'lishiga katta hissa qo'shiladi;

10.01.2012

96

bu jarayonlarda ishtirok har bir fuqaroga o'zligini anglashga, uning jamiyatda o'ziga munosib o'rin egallashiga qulay sharoit yaratadi, milliy iftixor tuygularining yuksalishini ta'minlaydi;

davlat hokimiyati jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarini o'z siyosiy qarorlarida ifodalanishiga erishiladi: mazkur qarorlar amalga oshishi natijasida siyosiy hokimiyat yanada legitimlashadi

bu jarayonlar jamiyatdagi ko'pchilik fuqarolarning irodasini ifodalashga imkon yaratib, jamiyat va davlat hokimiyatining demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatish salohiyatini oshiradi.

9-MAVZU: DEMOKRATIK BOZOR ISLOHOTLARI VA IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH

Reja:

1. Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish tushunchasi va mohiyati
2. O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari
3. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Bozor infrotuzulmasi
4. Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizasiya qilishning ahamiyati

Tayanch soʻz va iboralar: *iqtisodiyotni liberallashtirish, koʻp ukladli iqtisodiyot, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, diversifikatsiya, xususiy mulk, xususiylashtirish, bozor iqtisodiyoti, bozor infratuzilmasi, tadbirkorlik*

Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish tushunchasi va mohiyati

Iqtisodiy hayot kishilik jamiyati hayotining muhim sohalaridan biri boʻlib, inson rivojlanishi manbaini tashkil qiladi. Unda insonlar oʻzlarining moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tirikchilik neʼmatlarini va vositalarini ishlab chiqaradilar. SHuningdek, ular taqsimlash, ayirboshlash va isteʼmol qilishga qaratilgan faoliyatlarida oʻzaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga taʼsir koʻrsatadi. Ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy taʼsir etadi.

Iqtisodiyot jamiyat hayotining muhim sohalaridan biri boʻlib, inson rivojlanishi manbaini tashkil qiladi.

Unda insonlar oʻzlarining moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli neʼmat va vositalarni ishlab chiqaradilar va oʻzaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga taʼsir koʻrsatadi. Ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy taʼsir etadi.

Sobiq totalitar, maʼmuriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida siyosat iqtisodiyotdan ustun boʻlib, uning rivojlanish yoʻnalishlarini belgilab berardi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolhoz-kooperativ mulkchilik shakllaridan iborat umumhalq mulki tashkil etardi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90 foizdan ortigʻiga ega boʻlib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni oʻrnatgan edi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyotni, iqtisodiy hayotni bir markazdan maʼmuriy-buyruqbozlik asosida boshqarib borar edi.

Jamiyat aʼzolari ijtimoiy mulkka egalik qilish huquqidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan shugʻullanish qonun bilan man etilgan edi. Bunday faoliyat bilan shugʻullanganlar chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar.

Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganligi tufayli, mehnat motivatsiyasi sust. Pirovard natijada sobiq ittifoq chuqur tanazzulga uchradi.

Maʼlumki, shahsning mulkdor boʻlish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, oʻzi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shugʻullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olish va yahshi yashash imkoniyatlariga ega boʻlish kabi huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotigina taʼminlashga qodirdir.

Mustaqillikka erishgan Oʻzbekiston ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

Biz islohotlarni inqilobiy usulda, yaʼni “shok terapiyasi” yoʻli bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yoʻlini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday ogʻir oqibatlarga olib kelishi mumkin boʻlgan iqtisodiy va ijtimoiy toʻfonlardan asrab qolishga muvaffaq boʻlganimizni bugun hayotning oʻzi tasdiqlab bermoqda.

Izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Haqiqatan ham, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar — aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga etganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi, deb o'ylayman.

2008-2010 yillarda, ya'ni dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari sezilarli ravishda tushib ketgan, ishlab chiqarish pasaygan bir vaqtda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foizni, 2009 yilda 8,1 foizni tashkil etgani, 2010 yilda bu ko'rsatkich 8,5 foizga etishi kutilayotgani, kelgusi 2011 yilda esa 8,3 foiz darajasida bo'lishi belgilab berilayotgani ko'pgina xalqaro tuzilmalar, ekspert va mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Dunyoda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda davlatning tashqi qarzlari ko'payib borayotgani jiddiy xavotir tug'dirayotgan bir paytda O'zbekistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan oshmaydi, davlat budjeti esa so'nggi besh yilda profitsit bilan bajarilmoqda⁹⁵.

SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini hilma-hil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jixatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi»¹ deb belgilab qo'yilgan.

Amaldagi islohotlarning asosiy maqsadi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Barcha islohotlarning iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat»¹, - deb ta'kidlagan.

Erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm bo'lib, demokratiyaning umumbashariy tamoyili hisoblanadi. Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk shakllari va ho'jalik yuritish usullarining hilma-hil bo'lishida o'z ifodasini topadi. SHu boisdan ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra ko'p ukladli poliiqtisodiyot bo'lib, unda turli mulk shakllari va ho'jalik ukladlarining teng huquqliligi, muvozanatda bo'lishi hamda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi ta'minlanadi.

Demokratik jamiyatga monand demokratik iqtisodiy tamoyillar erkin bozor iqtisodiyotining quyidagi tub belgilarida o'z ifodasini topadi. 1) hususiy mulk; 2) tadbirkorlik va tanlov erkinligi; 3) shahsiy manfaatning inson xatti-harakatining bosh motivi ekanligi; 4) raqobat; 5) erkin narh tizimi; 6) davlatning iqtisodiyotga aralashuvining cheklanganligi (qarang: 1-chizma).

O'zbekistonda jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirishning maqsadi va bosqichlari. O'zbekistonda shakllanayotgan **xususiy mulk ikki turdan iborat bo'ladi: birinchisi**, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning xususiy mulki, **ikkinchisi**, ularning shirkat xo'jaliklaridagi paylari, aksiyadorlik jamiyatlaridagi aksiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ xususiy mulk. YAKka va korporativ (ulushli) xususiy mulk egalari mulkdor hisoblanib, ularning mulkka bo'lgan huquqlari, dahlsizligi davlat tomonidan himoyalandi.

⁹⁵ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: –Т.: “Ўзбекистон”, 2010. 4-5 бетлар

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2012. 11-бет.

¹ Каримов И.А.. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 281-282-бетлар.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksida» «mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilishi huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir»⁹⁶. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida esa mulkdor huquqining daxlsizligi bilan birga, uning mas’uliyati ham belgilab berilgan. Xususan, unda «mulkdor mulkiga o‘z xohishiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart»⁹⁷, deb ta’kidlangan. Xususiy mulk miqyoslarining kengayib borishiga olib keladi.

Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida ma’lum sohada xo‘jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi. Bu shuningdek, u yoki bu tarmoqqa tadbirkorlarning o‘z xohishlariga ko‘ra kirishini va undan chiqishini ham anglatadi.

Tovarning nuqsonlari bo‘yicha iste‘molchining talablari u kassa yoki tovar chekini kafolat muddati belgilangan tovarlar bo‘yicha esa tegishli rasmilashtirilgan texnik pasport yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko‘riladi. Bunday tovarlar boshqa nuqsonsiz tovarlarga almashtirilib beriladi yoki zararning o‘rni pul bilan qoplanadi. Iste‘molchi huquqlarining himoya qilinishi, uning tanlash erkinligini ta‘minlanishi demokratik iqtisodiy tamoyilining ro‘yobga chiqarilishini anglatadi. SHuning uchun Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda qabul qilingan muhim qarorlariga muvofiq respublikaga iste‘mol tovarlarini noqonuniy olib kelinishi va sotilishining oldini olish chora-tadbirlarining ko‘rilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kishilar naf, foyda va daromad olish uchun intilib, o‘zlarida bor bo‘lgan qobiliyatlari va imkoniyatlarini ishga soladilar. Raqobat iqtisodiyot sub’ektlari shaxsiy manfaatlarini ryobga chiqarishning chegarasini belgilaydi. Hech kimning iqtisodiy yakkahokimlik qilishiga yo‘l qo‘ymaydi. SHuningdek, raqobat ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning iste‘molchi, xaridorlar manfaati, didi, xohishini inobatga olishga bir-biridan arzonroq va sifatliroq tovarlar ishlab chiqarish maqsadida yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga undaydi.

Erkin tadbirkorlik, raqobat va narx tizimiga asoslangan bozor iqtisodiyotida hukumat va davlatning roli cheklangan bo‘ladi. Davlat bozor mexanizmining amal qilishiga ko‘maklashadi. Buning uchun davlat iqtisodiyot sub’ektlari faoliyatining qonuniy bazasini yaratib, ularning faoliyat, “o‘yin” qoidalarini belgilaydi. Aholining turmush darajasining barqaror o‘sib borishini, kam ta‘minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, boy-kambag‘allar o‘rtasidagi farqlarning keskinlashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida aholi daromadlarini soliqlar, transfert to‘lovlari vositasida qayta taqsimlaydi, makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash maqsadida soliq, byudjet va pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartiblaydi. Davlat bozor mexanizmi to‘la-to‘kis bajara olmagan vazifalarni o‘z zimmasiga olib, raqobat muhitini saqlaydi, iqtisodiyot sub’ektlarining erkin faoliyatini ta‘minlaydi. Hamda jamiyat uchun kerak bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni o‘z zimmasiga oladi.

Demak, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishga, kishining erkin tadbirkorlik va mehnat qilish, tanlash erkinligini hamda mulkdor bo‘lishdek muhim demokratik huquqlarini ta‘minlashga, iqtisodiy hayotni demokratlashtirishga qaratilgandir.

Islom Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat», «O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li», «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» va boshqa asarlarida mamlakatni

⁹⁶ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Т.:19, 164-модда.

⁹⁷ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2003. 11-бет

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, bozor iqtisodiyotiga o'tishining nazariy asoslari, konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi uch tarkibiy qismdan iborat:

- 1) ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatining ta'rifi;
- 2) bozor munosabatlarini shakllantirishning muhim tamoyillari;
- 3) iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tanglikdan chiqib olishning, barqarorlikni va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning aniq yo'nalishlari.

Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asaridagi asosiy ustuvor yo'nalishlar. Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asari 1995 yilda chop etilgan, 269 betdan iborat bo'lib, asar 2 qismdan tashkil topgan:

1. Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichning yakunlari va saboqlari.
2. Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichning vazifalari va ustuvor yo'nalishlari masalasiga e'tibor bergan.

1. **Iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichning yakunlari va saboqlari** qismida **birinchidan**, iqtisodiy islohatlar strategiyasi va yo'lini shakllantirish mexanizm; 2) dan iqtisodiy islohatlar huquqiy negizini barpo etish; 3) dan davlat mulkini xususiylashtirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish; 4) dan qishloq xo'jaligida agroislohotlarni shakllantirish; 5) dan institutsional o'zgarishlarni, ma'muriy-buyruqbozlik tizimini tugatish; 6) dan narxlarni erkinlashtirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, 7) dan tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va jahon iqtisodiyotiga qo'shilish; 8) dan ijtimoiy kafolatni ta'minlash; 9) dan xalqning ma'naviy-ruhiy tiklanishi; 10) Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalasi bayon etilgan. Mamlakatimizda mulkchilik munosabatlari 2 yo'l bilan amalga oshirildi: 1) Mulkdorlar sinfini shakllantirish, ya'ni bunda davlat mulki bosqichma-bosqich xususiylashtirilib berildi. 2) Qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish orqali amalga oshirildi.

Asarda birinchi bosqichda 2 ta hal qiluvchi vazifa bajarilganligi aytilgan: 1) Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'rni, u tugatilib, iqtisodiy boshqaruvga o'tildi; 2) Mamlakatimizda o'ziga xos sharoitlarda bozor munosabatlari negizlari shakllantirildi.

1993 yili Rossiya O'zbekiston davlati va uning rahbariyatiga rubl zonasida (Rossiya rublida) qolishi uchun katta shartlar qo'ydi. Bu shartlar:

- 1) Qarz evaziga 1,5 trillion rublga shunga yarasha boylik yo mahsulot to'lash.
- 2) Pulni (rublni) olishdan avval 50 foiz AQSH dollari (O'zbekiston oltinini) garov tariqasida Rossiya Markaziy bankiga qo'yish.
- 3) 1961–92 yilgi pullarni yangi 1993 yil namunasidagi pulga 3 so'mga 1 so'm nisbati bilan almashtirib berish sharti.
- 4) Shartnoma bajarilmay qolsa, tovon majburligini qo'ydi.
- 5) O'zbekiston Markaziy banki Rossiya Markaziy Bankiga hisob berib turishi shart (Karimov I.A. Asarlar, T.2., 88–90-b.)

Birinchi bosqichda 1) Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining huquqiy asoslari yuzaga keldi, 300dan ko'proq qonun va qarorlar qabul qilinganligi asarda aytib o'tilgan. 2) Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishda dastlab mayda mulklar davlat tasarrufidan chiqarildi. 3) CHet el sarmoyalari O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish yo'lga qo'yildi. SHu bilan birga bozor iqtisodiyotining 3 ta mezonlari, qadriyatlarini yuzaga keldi: a) tadbirkorlik; b) ishbilarmonlik; v) tijorat. Ma'naviyatda esa a) ziyoli mavqei oshdi; b) ma'rifat nuri; v) ijodkor so'zi qadrlana boshladi.

2. **Iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichning vazifalari va ustuvor yo'nalishlari** qismida Prezidentimiz 4 ta muhim ustuvor vazifani belgilab berdi:

1. **Asosiy vazifa** – davlat mulkini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga etkazish: bunda a) mulkni haqiqiy egalari berish, b) ko'p ukladli iqtisodiyotni rahbatlantirish. Agar birinchi bosqichda mayda mulklar xususiylashtirilgan bo'lsa (1991-1994 yillarda), endigi vazifa o'rta mulklarni xususiylashtirish aytiladi.

2. **Eng muhim vazifa** – ishlab chiqarishning pasayib ketishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni va moliyaviy, iqtisodiy barqarorlikka erishishdan iborat. Bu rivojlanish ichki qonuniyatlarga ham bog‘liqligi aytiladi.

3. **Muhim vazifa** – Milliy valyuta – so‘mni yanada mustaxkamlashdan iborat. Milliy valyuta – mamlakat hududida barcha tovar va xizmatlar uchun narxlarni ifodalash vazifasini o‘tovchi va qonuniy himoyalangan yagona to‘lov vositasidir...

4. **Strategik vazifa** – Iqtisodiyot strukturasi tubdan o‘zgartirish: xom ashyo etkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish, uning sifatini va raqobatga bardoshligini jahon bozori talablari darajasiga etkazish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan ko‘zlangan «pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo‘lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir¹», - deb belgilab bergan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, unda demokratiya tamoyillari bo‘lgan iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va tanlash erkinligini, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy hayotni erkinlashtirishga yo‘naltirilganidir.

Iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish va uni demokratlashtirish, erkin ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning **birinchi bosqichida** (1991-1994 yy.) ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlarini tugatish, tanglikka barham berish va iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda respublikaning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga kirishildi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirildi:

1) islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini shakllantirish va rivojlantirish. Bu davrda mulkchilik, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlik to‘g‘risidagi va boshqa ko‘plab bozor munosabatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan qonunlar qabul qilingan;

2) kichik xususiylashtirishni amalga oshirish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish;

3) ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta‘minlash.

Bu davrda (1992-1994 yillarda) asosan savdo, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, maxalliy sanoat korxonalarini, uy-joylarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Buning natijasida 69 mingdan ortiq ob‘ektlar davlat tasarrufidan chiqarildi, ulardan 18,4 mingtasi xususiy mulkka o‘tdi. 3569 ta aksiyadorlik jamiyatlari tuzildi. Kichik va o‘rta tadbirkorlik sub‘ektlarining soni 80 mingga etdi.

O‘zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat bo‘lib, 1) yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlarning, dexqon va fermerlarning xususiy mulki, 2) ularning shirkat xo‘jaliklaridagi paylar, aksiyadorlar jamiyatlaridagi aksiyalar, uyushma ulushlaridan iborat kooperativ xususiy mulk. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq:

1. Xususiylashtirishni yanad chuqurlashtirish va amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish.
2. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish.
3. Iqtisodiyotga xorij sarmoyalarini keng jalb etish.
4. Mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash.
5. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni davom ettirish.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1998. 179-бет.

Prezidentimiz Islom Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida ta’kidlab o‘tganlaridek, «O‘zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni ta’kidlashni istardimki, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo‘li o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o‘zgarishlarning asosiy bog‘lovchi bo‘g‘iniga aylanadi». Demak, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurishning asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustaxkamlashni ta’minlaydi. Uning natijasida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlovchi amalda o‘rta mulkdorlar sinfi shakllandi. Prezidentimiz iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish yuzasidan quyidagi vazifalarni belgilab bergan edi:

1) dan Mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal qilish. Buning uchun xususiy mulkchilik etakchi o‘rinda turadigan ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etish.

2) dan, Haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish.

3) dan Bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

4) dan Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish.

5) dan, Valyuta tizimi va boozrni erkinlashtirish.

6) dan, Davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarining xo‘jalik faoliyatiga noo‘rin aralashishni cheklab ko‘yish.

Ushbu vazifalarni hal qilish uchun O‘zbekistonda davlat mulki xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish tadbirlari o‘tkazildi. Birgina 2000-2002 yillarda 3117 ta tarmoq ob‘ektlari davlat tasarrufidan chiqarilib xususiylashtirildi.

Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma yig‘ilishida so‘zlagan nutqida hozirgi sharoitda davlat monopolizmiga barham berish uchun bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish zarurligini bayon etdi. Bunda: 1. Xususiy tarmoqlarning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko‘paytirishini ta’minlash: a) davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada cheklash; b) qastdan bo‘lmagan qoidabuzarlikl uchun jazo choralarini kamaytirish; v) xususiy tadbirkorlarga qo‘shimcha soliq imtiyozini berish; g) ularning markazlashtirilgan tizimiga qaytishga yo‘l qo‘ymaslik va x.k.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning **birinchi bosqichida** qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlariga mos keladigan yangi xo‘jalik tizimini shakllantirish ishlari amalga oshirila boshlandi. Buning oqibatida bu sohada davlatga qarashli bo‘lmagan sektor keng rivojlandi. SHuningdek, xalq xo‘jaligini, uning tarmoqlari va hududlarini boshqarishning mavjud sharoitlarga mos bo‘lgan tizimlari ishlab chiqildi. Narxlar to‘liq erkinlashtirildi, bozor infratuzilmasining asosiy bo‘g‘inlari, shu jumladan, ikki pog‘onali bank tizimi, moliyani va pul-kreditni tartibga soluvchi mutlaqo yangi tizim, tovar, mehnat birjalari tizimlari yaratildi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi amalga oshirila boshlandi. Iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi oqibatida iqtisodiy pasayish boshqa MDH mamlakatlaridek og‘ir kechmadi. YAlpi ichki mahsulot 1995 yilda 1990 yilga nisbatan faqat 18,2% kamaydi. 1995 yilda esa bu ko‘rsatkich 1,2% ga pasaygan xolos. Vaholanki, YAIM hojmi MDH mamlakatlarida 40-60% ga, Rossiyada esa 48% ga kamayib ketgan⁹⁸.

O‘zbekistonda mulkni tubdan isloh qilish jarayonlari izchillik bilan olib borildi va bir necha bosqichdan iborat bo‘ldi.

Birinchi bosqich 1992–1993 yillarni qamrab oldi va unda xususiylashtirish jarayonlari faol amalga oshirildi. Bu bosqichda davlat uy-joy fondi, savdo, xizmat ko‘rsatish tizimi, mahalliy, engil oziq-ovqat sanoati, avtomobil transporti, qurilish tizimlaridagi mayda korxonalar xususiylashtirildi.

Ikkinchi bosqich 1994–1995 yillarni qamrab oldi va bu davr ichida yalpi xususiylashtirish amalga oshirildi. Bunda davlat nazorati shart bo‘lmagan tarmoqlar (engil sanoat, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidagi o‘rta va yirik korxonalar) ommaviy tarzda xususiylashtirildi.

⁹⁸ Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги маълумотлари.

Uchinchi bosqich, ya'ni 1996–1998 yillarda nazorat paketlari davlat mulki shaklida saqlanib kelayotgan yirik korxonalar va tarmoqlar isloh qilindi. Bunda Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan xususiylashtirishga jalb etilmaydigan ob'ektlar ro'yxati belgilandi. Ularga suvdan foydalanish ob'ektlari, melioratsiya tarmoqlari, muzeylar, sanepidemstansiyalar, statistik va harbiy ahamiyatdagi byudjet jamg'armalari kiritildi.

To'rtinchi bosqich (1998 yil oxiridan) xususiylashtirishdan tushgan mablag'larni davlat byudjetiga safarbar etish va hokazolarni amalga oshirmoqda. Masalan, xususiylashtirishdan tushgan mablag' 2004 yilda 78,4 mlrd. so'mni tashkil qildi⁹⁹.

Mamlakatimizda 2005 yillardan keyingi davrda **kichik va o'rta biznesning** muhim tarmoqlaridan biri, bu kasanachilikni hukumat dasturi asosida rivojlantirishga keng yo'l ochildi. **Kasanachilik**: 1) do'ppido'zlik; 2) tikuvchilik (ichki va ishchi kiyimlari, qo'lqop, chopon singari; 3) pichiqlik; 4) temirchilik; 5) gilamdo'zlik kabi hunarmandlik sohalaridir. Bu ro'zg'or ishlari bilan uyda band bo'lib qolgan erkak va ayollarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish tadbirlaridan biri. U ish beruvchi bilan shartnoma tuzgan kundanoq, mehnat daftarchasiga ega bo'ladi, o'z uyida ishlaydi va maoshni korxonadan oladi. Kasanachi to'laqonli ishchi bilan mehnatda, ijtimoiy imtiyozlardan to'liq foydalanishda ham teng huquqqa ega bo'lgan shaxsdir. Kasanachilik **davlat** va **shaxsga** koni foyda tarmoqlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni aholini ish bilan bandligini ta'minlash borasida katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Kasanachilik mehnati turlari qatoriga zamon talablariga mos – qayta ishlash va elektron sanoati, telekommunikatsiya, servis hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlari yumushlari ham kirib kelmoqda. 2007 yil boshidagi holatga ko'ra, xususiylashtirish sektorining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi 42,1 foizni tashkil etdi. Prezident Islom Karimov 2007 yil 12 fevralda ta'kidlaganidek, «Biz katta sarmoya talab qilmaydigan kasanachilikni yo'lga qo'yish maqsadida joylardagi ishlab chiqarish korxonalarida bekor yotgan turli xil dastgoh va uskunalarni qo'lidan ish keladigan odamlarga, oilalarga berdik. Natijada 60 ming odam, 60 ming oila qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'ldi...». "2007 yilning birinchi yarmida qo'shimcha 96,1 ming kishi kasanachilikning turli shakllari bilan qamrab olindi. Bu hisobot davridagi ish o'rinlari umumiy sonining 31 foizini tashkil qiladi. Korxonalar bilan kasanachi o'rtasidagi kooperatsiya aloqasining o'rnatilishi natijasida: 1) Kasanachi oilalar byudjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammo hal etildi. 2) Ish bilan band bo'lgan aholi sonini qisqartirib, uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini berdi. 3) Kasanachi faoliyati davri (agar u yakka tartibdagi kasanachi bo'lsa ham), ish staji hisoblanib, pensiya, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa olish huquqi bilan ta'minlanadi. 4) Kasanachi o'z uyida huddi oilaviy pudratdek vaqtdan unumli foydalanadigan bo'ldi. Bu kasanachiga ham foyda (barqaror daromad), korxonaga ham. 5) Kasanachi (ayniqsa, xotin-qizlar) uyda ham ishlab chiqarish bilan shug'ullanishi, ham muhim davlat ahamiyatiga ega masalalardan biri – farzandlari tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lish imkoniga ega bo'ladi¹⁰⁰.

Hozirgi paytda (2007 yil) respublikamizda 190 mingga yaqin fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda va ularda salkam 1,4 million kishi mehnat qilmoqda¹⁰¹.

"O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish vazifasi belgilandi. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish mamlakat siyosiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada Prezident I.A.Karimov "O'zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni ta'kidlashni istardimki, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra

⁹⁹ Тўхлиев Н. ва бошқалар. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – 125–126-б.

¹⁰⁰ Жамият газетаси, 2007 йил 24 август.

¹⁰¹ Каримов И.А. Янгиликлар ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш – асосий вазифамиздир. – Т.: "Ўзбекистон", 2007. – 4-б.

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi",¹⁰² – deb ta'kidlaganlar.

Iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurilishining asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustahkamlashni ta'minlaydi. Uning natijasida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi amalda o'rta mulkdorlar sinfi shakllanadi.

Demokratik jamiyatga xos bo'lgan tadbirkorlikning rivojlantirilishi, iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarning birgalikda amalga oshirilishi tufayli O'zbekiston 1996 yildan boshlab iqtisodiy o'sish yo'liga o'tdi. BMT Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) buyurtmasiga ko'ra markaziy va SHarqiy Evropa hamda MDH mamlakatlarida aholining ijtimoiy farovonligini tadqiq qilish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning amaldagi o'sishi 2002 yilda 1989 yilga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi. Ayni paytda Moldovada bu ko'rsatkich 38,4%, Rossiyada 64,3%, Qozog'istonda 85,6% ni tashkil etgan¹⁰³.

Mamlakatda iqtisodiy o'sishga erishganlik oqibatida aholini ijtimoiy himoya qilishga va ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan xarajatlarning davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 1997 yildagi 44,7 % dan 2003 yilda 46,1 % ga o'sgan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga mahallalar berilayotgan bir oylik moddiy yordam miqdori 1996-2002 yillarda 13,6 barobarga, bolali oilalarning bolalariga berilayotgan nafaqaning o'rtacha oylik miqdori esa 20 barobardan ziyodga ko'paydi¹⁰⁴. «Obod mahalla» yilida qabul qilingan dastur asosida 1 milliard 200 million so'mlik xayriya yordami ko'rsatilgan. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan 400 mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa tayinlandi. SHuningdek, 180 mingta kam ta'minlangan oilaga qariyb 14 milliard so'm miqdorida yordam ko'rsatilgan¹⁰⁵.

Islahotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimi qayta ko'rib chiqildi. Valyuta tizimi va bozorini erkinlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildi va milliy valyutamiz – so'm 2003 yil 15 oktyabrdan joriy to'lovlar bo'yicha erkin almashuvi amalga oshirila boshlandi.

Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish jarayonlari mamlakat siyosiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish jarayonlari bilan o'zaro bog'liqlikda amalga oshirilishi oqibatida uning demokratik jamiyat qurishdagi rolini va ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik yangi shakllari va munosabatlarining xuquqiy asoslari. O'zbekistonda mulkchilik huquqiy iqtisodiy o'zgarishlarning asosi hisoblanadi. Respublikamizda mulkdor huquqi qonun bilan tan olingan va himoya qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikni tashkil etish shakllari:

1. Davlat mulki: respublikamizdagi ma'muriy-hududiy birliklarning mulklari (kommunal mulklar ham kiradi). Davlat mulkiga: 1) er va er osti, ichki suvlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi, respublika hududi doirasidagi havo havzasi. 2) O'zR boshqaruvi va davlat hokimiyati organlari mol-mulklari. 3) Respublika xalqlari madaniy va tarixiy qadriyatlarini. 4) Respublika byudjeti vositalari, oliy o'quv yurtlari va h.k.

2. Xususiy mulk: o'z mol-mulkidan o'z erki bo'yicha foydalanish va tasarruf etish, unga huquqiy jihatdan xususiy egalikni bildiradi. Xususiy mulk-mulkchilikning boshqa shakllari bilan bir qator daxlsiz va davlat tomonidan himoyalaniadi.

3. Jamoa (shirkat yoki fermer) mulki: oilaning mol-mulkini, mahalla mulkini, yuridik shaxslar bo'lgan kooperativlar, ijara, jamoa korxonalarining, jamoat va diniy tashkilotlarning, turli xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, fererlar, assotsiatsiyalar va boshqa birlashmalar mulklarini o'z ichiga oladi.

¹⁰² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. /Биринчи чақариқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ўн тўртинчи сессиядаги маърузаси, 1999 йил 14 апрель. –Т.; Ўзбекистон, 1999. 15-16 бет

¹⁰³ Социальный мониторинг 2003 г. Экономический рост и бедность. Внешний государственный долг. Аналитический материал. ЮНИСЕФ, 2003. С.99.

¹⁰⁴ Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт вазирлиги маълумотлари.

¹⁰⁵ Халқ сўзи, 2003 йил 6 декабрь.

4. **Boshqa davlatlar** va xalqaro tashkilotlarga qarashli yuridik va jismoniy shaxslarning mulklari: O‘zbekiston hududida joylashgan va xorijiy yuridik hamda jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan mol-mulklar va nomulkiy huquqlar kiradi.

5. **Mulkchilikning aralash** shaklida: erishilgan bitimga ko‘ra mol-mulkning ma‘lum bir qismi davlat va nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lishi mumkin. Ikki tomonning hamkorligida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda 2006 yilgacha mulkchilikning nodavlat shakli quyidagi holatlarda o‘zgardi:

1) Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish asosida amalga oshirildi. 2) YAngi nodavlat yuridik shaxslarning mulki vujudga keldi. 3) SHaxsiy tadbirkorlik faoliyati kengaydi. Demak ko‘p ukladli iqtisodiyot quyidagilar evaziga shakllandi: 1. Davlat tasarrufidan chiqarish va davlat mulkini xususiylashtirish. 2. YAngi davlatga qarashli bo‘lmagan yuridik shaxslarni tashkil qilish. 3. Xususiylashtirish asosida.

Mulkchilik shakllari munosabatlarida uning huquqiy asoslarini quyidagi qonun va qarorlar tashkil etadi.

1) O‘zR Konstitutsiyasining 12-bob, 53-54-moddalarida belgilab berilgan.

2) 1991 yil 18 noyabrda O‘zR Oliy Kengashining 8-sessiyasida «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi qonun.

3) 1994 yil 21 yanvarda Prezidentning «Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususiylashtirish, xususiylashtirish, xususiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni.

4) “O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘g‘risida”gi (1995) qonuni.

5) “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (1999 yil 14 aprel).

6) “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2000 yil 25 may).

7) “Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (2005 yil 14 iyun).

8) “Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (2005 yil 5 oktyabr).

9) “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishni xabardor qilish tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori (2006 yil 24 may).

Tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa prezident farmonlari va qarorlari mavjud.

O‘zbekistonda kuchli bozor infratuzilmasini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari.

Infrastruktura – takror ishlab chiqarish shartlarini ta‘minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari: yo‘llar, aloqa, maorif, sog‘liqni saqlash kabi sohalardir. Asosiy ishlab chiqarish infrastrukturasini energo-ta‘minot, transport va aloqa tarmoqlaridir. Prezident Islom Karimov «Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhimsiz tovar, pul bozorida va mehnat resurslari bozorida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida o‘zaro aloqani ta‘minlash kerak bo‘lgan bozor infrastrukturasiz tasavvur etib bo‘lmaydi» degan edi. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bozor infrastrukturasini bo‘lmasa bozor mexanizmlari to‘liq ishlay olmaydi.

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini o‘rnatishga va samarali yuritishga xizmat qiluvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning majmuasidir. Bozor infratuzilmasini bozor strukturasi bilan almashtirish yaramaydi. Bozor strukturasi bozorning tarkibida amal qiluvchi bo‘g‘inlar (iste‘mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari bozori, moliya bozori, valyuta bozori, mehnat bozori, intellektual tovar bozori, shou-biznes bozori va boshqalar)ni va bozor haroratini belgilovchi boshqa birliklarni o‘z ichiga oladi.

Bozor infrastrukturasini turlari va tarmoqlari: Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infrastruktura: transport, aloqa, ombor xo‘jaligi, yo‘l xo‘jaligi, suv va energetika ta‘minoti va h.k.

Tovarlar va xizmatlar muomalasiga, ya‘ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi infratuzilma: birjalar, savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari va agentliklar, davlatning savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi muassasalari.

Moliya kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma: tijorat banklari, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish mahkamalari, har xil pul jamg'armalari.

Aholiga xizmat qiluvchi yoki ijtimoiy infrastruktura: uy-joy, kommunal va transport xizmati, maorif, sog'liqni saqlash, aholini ishga joylashtirish firmalari va idoralari.

Axborot xizmati: iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan har xil axborotlar, ma'lumotlar va xabarlarini to'plash, umumlashtirish, sotish bilan shug'ullanuvchi turli kompaniyalar, firmalar maslahat idoralari va davlat muassasalari.

Bozor infratuzilmasi mustaqillik bilan birga tug'ildi va jamiyatda hayotiy zaruriyat sifatida paydo bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda bozor infratuzilmasi to'liq shkallanib bo'ldi. Infratuzilmani birdaniga yaratib bo'lmaydi, u ancha uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. 1992 yil 28 fevralda respublika ulgurji va birja savdosi hissadorlik uyushmasi tashkil etildi. 1992 yil 5 mayda O'zbekiston davlat hissadorlik «savdo» («O'zbeksavdo») assotsiatsiyasi tuzildi va x.k.

Hozirgi kunda bozor infratuzilmasini yaratishda yangi bosqichga o'tildi. Bu bosqich respublikaning barcha qishloq aholi istiqomat joylarida bozor infratuzilmasining hamma turlarini yaratishda ijobiy ishlar qilinmoqda. Hozirgi kunda respublikada 40dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Iqtisodiy siyosatning ustuvor maqsadlaridan biri aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash va unga mehnat qilish uchun munosib imkoniyatlar ochib berishdir.

Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari. Prezident I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining To'qqizinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida respublikada demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning "bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat",¹⁰⁶ muhim ustuvor yo'nalishini belgilab berdi.

Ushbu ustuvor yo'nalishni amalga oshirish uchun avvalombor xususiy sektorning mavqeini yanada oshirish va kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish lozim bo'ladi. Endilikda xususiylashtirish jarayonlari tobora ko'proq yirik korxonalarni, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini o'z ichiga qamrab olishi, korporativ xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, aksiyalarni sotishning birlamchi va ikkilamchi birja hamda birjadan tashqari bozorini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga davlat va nazorat organlarining noo'rin aralashuviga barham berish, moddiy-texnika resurslari va moliyaviy, shu jumladan, kredit mablag'lari bilan ta'minlanishini yaxshilash, ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish uchun ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. SHuningdek, shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish hamda ularga servis xizmati ko'rsatuvchi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini va qishloqlarda ularning filiallarini tashkil etish muhim ustuvorlikka ega bo'ladi.

O'zbekiston Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi "Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining mazmun va mohiyati. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun dastur qabul qilingan bo'lib, mazkur farmon bevosita shunga bag'ishlangan. Dasturga ko'ra bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda ro'yobga chiqarish borasida katta ishlar qilingan. Mazkur farmonda bozor islohotlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish ahvoli haqidagi masala atroflicha bayon etilgan. Qonunlarning, O'zR Prezidenti Faronlari va Qarorlari, hukumat qarorlari, idoraviy

¹⁰⁶ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. //Иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Тўққизинчи сессиясидаги маъруза. //Халқ сўзи, 2002 йил 30 август.

normativ hujjat loyihalari ro'yxati tuzilgan bo'lib, ular tizimli asosda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy maqsad, vazifa va ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi. SHuning uchun ham bu farmonda quyidagilar belgilab berildi:

1) dan tizimli asosda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari ruyobga chiqarilishini ta'minlaydigan qonun xujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati tuzilishi aytilgan.

2) dan, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturini ijro etish bo'yicha Qonun hujjatlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi va amalda ro'yobga chiqarilayotganligi ta'kidlab o'tildi.

3) dan jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va yanada isloh qilish hamda ma'muriy islohotni amalga oshirish sohasida qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiruvchi komissiya tuzish belgilab berildi.

4) dan, ushbu farmonga muvofiq qabul qilinadigan qonun hujjatlari ijro etilishini nazorat qilish Vazirlar Maxkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitasi va idoralar, Qoraqalpog'iston respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan nazorat ostiga olinishi aytib o'tilgan.

5) dan, Adliya vazirligiga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda kelishib olish, davlat hokimiyati organlari va hukumatga kiritishda monitoring o'tkazish topshirildi.

Umuman ushbu farmon mamlakat iqtisodiyoti va har bir fuqarosi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning aniq ijobiy natijalarini his etish bayon etilgan. (Turkiston, 2005 yil 15 iyul).

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish iqtisodiy ustuvor yo'nalishini amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'rilmogda:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni, valyuta bozorini erkinlashtirish, milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin almashinuvini muntazam ta'minlash;

- iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish hamda import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash;

- iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish. Buning uchun tegishli investitsion muhit va investorlar uchun kafolat yaratish;

- ichki va tashqi investitsiyalarni butun iqtisodiyotga, shu jumladan, oltin-valyuta zahiralarmizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan etakchi tarmoqlarga ustuvor ravishda yo'naltirish;

- jahondagi nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, dunyo iqtisodiy tizimiga integrallashuvi hamda jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi bozor munosabatlarini rivojlantirish va erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, uni yanada demokratlashuviga olib keladi.

16.01.2016 01:28 - O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi

Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususi mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir

- O'tgan 2015 yil bizning bosh maqsadimiz bo'lmish asosiy vazifa – odamlarimizning munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlash va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallash bo'yicha avvalo muhim islohotlarni amalga oshirish yo'lida katta qadam bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor.

- Ta'kidlash joizki, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida faqat uglevodorod xomashyosi, qimmatbaho va rangli metallar, uran xomashyosini qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalarni, shuningdek, tabiiy monopoliyalarning strategik infratuzilma tarmoqlarini – temir va avtomobil yo'llari, aviatashuvlar, elektr energiya ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarini to'g'ridan-to'g'ri davlat boshqaruvida saqlab qolish maqsadga muvofiq, deb topildi.
- Davlat aktivlarini xususiylashtirish, avvalo, chet ellik investorlarga sotish vazifalari qo'yildi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Masalan, 506 ta mulk kompleksi tanlov asosida, investitsiya kiritish sharti bilan «nol» qiymatida yangi mulkdorlarga sotildi. SHu bilan birga, 245 ta kam rentabelli va faoliyat ko'rsatmayotgan tashkilot to'liq tugatildi.
- Xususiylashtirish dasturida ko'zda tutilgan, foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan 353 ta davlat mulki ob'ekti buzilib, buning natijasida 120 gektar hajmidagi er maydoni bo'shadi. Bu erlarning qariyb 80 gektari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish ob'ektlari qurish uchun tadbirkorlar tasarrufiga berildi.
- Tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va ularning faoliyat yuritishini engillashtirish bilan bog'liq 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, yangi tartib bo'yicha, agar shaxs soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish bilan bog'liq jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lsa va huquqbuzarlik aniqlanganidan so'ng 30 kun ichida davlatga etkazilgan zararni to'liq qoplasa, unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilmaydi va u javobgarlikka tortilmaydi.
- Xususiy mulkdorlar va tadbirkorlarning qonuniy huquqlarini himoya qilish, ularning faoliyati kafolatlarini kuchaytirish masalasini hal etishda sud organlari rolini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Sudlar tegishli da'vo arizasi ko'rib chiqilayotgan paytda tadbirkorlik sub'ekti nazorat organining qaroridan norozi bo'lsa, uning ijrosini to'xtatib turish huquqiga ega bo'ldi.
- Agar tadbirkorlik sub'ekti soliq va bojxona qonunchiligini buzgan bo'lsa, uning mulki faqat sud qaroriga binoan musodara qilinishi mumkinligini belgilaydigan qonun normasi joriy etildi, da'vo arizasini ko'rib chiqish muddatlari ham sezilarli ravishda qisqartirildi.
- Endi mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari faoliyati to'rt yilda bir marta, boshqa xo'jalik sub'ektlari faoliyati esa uch yilda bir marta rejali tartibda tekshiriladi va bunday tekshiruvlar faqat Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.
- Bu borada moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlarni amalga oshirish muddati 30 kalendar kunidan 10 kalendar kuniga qadar qisqartirildi. SHuni qayd etish kerakki, bu normalar xususiy bank va moliya institutlariga ham tegishlidir.
- SHu yilning 1 yanvaridan boshlab mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlik sub'ektlariga «yagona darcha» tamoyili asosida Davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi.
- O'tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.
- SHuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalariga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. «Kichik biznes sub'ektlariga kredit berish» deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.
- Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbiarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.
- Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga etgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i – shunga e'tibor bering – mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani

- 2015 yilda korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirishimiz uning haqiqiy bozor xususiyatlariga ega bo'lishini ta'minlash va konservativ qarashlardan xalos bo'lishida katta hissa bo'ldi.
- Barcha aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati to'liq inventarizatsiyadan o'tkazildi, natijada 462 ta jamiyatni yoki ularning 43 foizini tugatish yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga o'zgartirish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.
- Lavozim va kasblarning yangi klassifikatori ishlab chiqildi va tasdiqlandi, unga bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan 566 ta yangi toifa kiritildi.
- SHu borada Germaniyada joylashgan Evropa menejment va texnologiyalar maktabining faol ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarining rahbar xodim va mutaxassislarini tizimli asosda tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, ularning zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallashini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tashkil etildi.
- 160 nafardan ortiq rahbar xodimi korporativ boshqaruv sohasida malaka oshirdi, ularning yarmi Germaniya korxonalarida tajriba orttirdi. 2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi.
- Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi.
- Ustyurt gaz-kimyo majmuasini alohida ta'kidlamochiman. Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan, yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirilishi yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradi.
- Xorazm viloyatida «Jeneral motors – O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida «SHevrole Labo» kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu erda yiliga fermerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo'lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi.
- Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovatt quvvatga ega bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Hozircha bu loyiha sinovdan o'tkazilmoqda.
- Samarqand – Qarshi temir yo'l uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» elektr poezdi qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu Toshkent – Qarshi yo'nalishi bo'yicha yo'lovchi tashish sifati va sur'atini oshirish imkonini bermoqda.
- 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.
- O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva etishtirildi.
- O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxonalar, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga etkazildi.
- 2015 yilda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelgani bu tarmoqning iqtisodiyotimizdagi o'rnini va ta'siri naqadar katta ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010 yildagi 49 foizdan 54,5 foizga etdi. Jami band aholining yarmidan ko'pi ushbu sohada mehnat qilmoqda.
- Xizmat ko'rsatish sohasida 80 ming 400 ta kichik biznes sub'ekti faoliyat yuritmoqda va bu xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari umumiy sonining 80 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.
- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.
- Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'ldi.

- Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani albatta barchamizga mamnuniyat etkazadi.
- 2015 yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi.
- O'tgan yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ta'minlandi. Bank tizimining jami kapitali 2014 yilga nisbatan 23,3 foiz ko'payib, 7 trillion 800 milliard so'mga etdi. So'nggi 5 yilda mazkur ko'rsatkich 2,4 barobar o'sdi. Bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi qariyb 24 foizni tashkil qildi. Bu umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3 marta, bank likvidligi esa eng yuqori ko'rsatkichlardan 2 marta ko'pdir.
- Davlat qarzi darajasining pastligi, ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 18,5 foizdan oshmagani ham mamlakatimizda erishilgan ijobiy natijalar va makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.
- 2015 yilda mamlakatimizda 980 mingdan ortiq ish o'rni tashkil qilingan bo'lsa, shuning 60 foizdan ziyodi qishloq joylarda yaratildi.
- Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur.
- xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o'tishimiz zarur. Bu tizimning ma'no-mohiyati shundan iboratki, u birinchi bosqichda xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya'ni yarim fabrikatlar tayyorlash, keyingi bosqichda sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantirish, uchinchi, yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi.
- 2030 yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish vazifasini qo'yishimiz uchun bugun, hech shubhasiz, barcha asoslarimiz bor.
- sanoatni jadal rivojlantirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2015 yildagi 33,5 foizdan 40 foizga etkazish, qishloq xo'jaligi ulushini esa 16,6 foizdan 8-10 foizga kamaytirish, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish evaziga yalpi ichki mahsulot uchun sarflanadigan energiya hajmini taxminan 2 barobar qisqartirishga erishmog'imiz kerak.
- Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016-2030 yillarda 2 barobar ko'payishiga erishish uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,8 foiz darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Agar keyingi 11 yilda bu ko'rsatkich 8 foizdan yuqori bo'lib kelganini hisobga oladigan bo'lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol ayon bo'ladi. Joriy yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 7,8 foizdan iborat bo'lishini ta'minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 8,2 foiz, qishloq xo'jaligida 6,1 foizga oshirish, chakana savdo aylanmasini 14 foiz, xizmatlar ko'rsatish hajmini 17,4 foizga ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda. Inflyasiya darajasini 5,5-6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining real daromadlarini 9,5 foizga, o'rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda, 15 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda.
- Birinchi navbatda, Toshkent – Samarqand – Buxoro tezyurar temiryo'l qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlarni yakuniga etkazish, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida har biri 450 megavatt quvvatga ega bo'lgan ikkita bug'-gaz turbinasi, Angren issiqlik elektr stansiyasida 150 megavatt quvvatga ega bo'lgan energiya bloki, Muborak gazni qayta ishlash zavodida 6 milliard kub metr gaz ishlab chiqaradigan uchta oltingugurt tozalash bloki, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 70 ming tonna mis eritish quvvatiga ega bo'lgan yangi pech qurilishini tugallash ko'zda tutilmoqda. SHuningdek, Jizzax viloyatidagi sement zavodining quvvatini 1 million tonnagacha portlandsement

ishlab chiqarish darajasida kengaytirish, «Jeneral motors – O‘zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida yangi «Aveo» (T-250) engil avtomobili ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

- 2016 yilda qishloq joylarda 1 million 800 ming kvadrat metrdan ziyod hajmdagi 13 mingta uy-joy barpo etish, uzunligi 900 kilometr ichimlik suvi, gaz va elektr tarmoqlari, 325 kilometr yo‘l qurish mo‘ljallanmoqda.
- 2016 yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, modernizatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million dollar qiymatidagi investitsiyalar yo‘naltirish, ularning o‘sish sur‘atini 109,3 foizga etkazish belgilangan. Ana shu investitsiyalarning 4 milliard dollardan ortig‘ini xorijiy investitsiyalar tashkil qiladi, bu 2015 yilga nisbatan 20,8 foiz ko‘pdir.
- joriy yilda qariyb 513 kilometr avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish lozim.
- Qamchiq dovoni orqali o‘tadigan 19 kilometrlik tunnel qurilishini yakuniga etkazish va Angren – Pop yo‘nalishi bo‘yicha temir yo‘l qatnovini yo‘lga qo‘yish, hech shubhasiz, joriy yilning muhim voqeasi bo‘ladi.
- Fermer xo‘jaligini yuritish uchun er maydonlari ajratish va taqsimlashning yangi mexanizmi joriy etildi. Unga muvofiq, qarorni tuman hokimi emas, balki Fermerlar kengashi va Er uchastkalari taqdim etish masalalarini ko‘rib chiqish komissiyasi xulosasi bo‘yicha xalq deputatlari tuman kengashlari qabul qilmoqda.
- Bu o‘rinda 2020 yilgacha paxta xomashyosini etishtirish va uni davlat tomonidan xarid qilish hajmini 3 million 350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish haqida so‘z bormoqda.
- Paxta etishtirish hajmini 350 ming tonnaga qisqartirish hisobidan 170 ming 500 gektar sug‘oriladigan er paxtadan bo‘shaydi. Bunday qarorga kelishimizning yana bir sababi borki, u ham bo‘lsa, so‘nggi yillarda jahon bozorida paxta tolasining narxi va unga bo‘lgan talabning keskin pasayib ketishi bilan bog‘liqdir.
- 2020 yilda boshqoqli don etishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga etkazish, kartoshka etishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go‘sht etishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko‘paytirish, baliq etishtirishni 2,5 martaga oshirish ko‘zda tutilmoqda.
- 2016 yilda ijtimoiy sohaga Davlat byudjeti jami xarajatlarining 59,1 foizi yoki o‘tgan yilga nisbatan ko‘proq mablag‘ ajratiladi. Jumladan, ta‘lim-tarbiya sohasiga davlat byudjeti xarajatlarining 33,7 foizi, sog‘liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo‘naltiriladi. Ta‘lim-tarbiya sohasini ta‘minlash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o‘tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog‘liqni saqlash tizimida 16 foizga ko‘payadi.

Prezidentimiz farmoni bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining **“Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishidagi vazifalar:**

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish:

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash;

xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta‘minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash;

bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshqoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan erlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy er-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo‘jalik birlashmalarining mablag‘larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob‘ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

O‘quv materiallar



9.1 – rasm

Ўзбекистон иқтисодийотини ривожланишини мақсадли узок муддатли макрокўрсаткичлар (%)

	2016 й.	2030 й.
Ялпи ички маҳсулот (2015 йилга нисбатан)	7,8	2 бар. зиёд
ЯИМ таркиби:	100	100
Саноат	32,9	40
Қишлоқ хўжалиги	17,6	8-10
Хизматлар	49,5	51



ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ



Қиймати 42млн. АҚШ долларини ташкил этувчи «Talgo-250» русумидаги 2 та юқори тезликдаги йўловчи поездини сотиб олиш



2017 йилда қиймати 160,3 млн. АҚШ долларига тенг Қарши-Термиз темир йўл линиясини электрлаштириш



Қиймати 1433 млн. АҚШ доллари бўлган Бухоро-Мискин янги темир йўл линиясини қуриш



2017-2019 йилларда қиймати 18 млн. АҚШ долларини ташкил этувчи Поп-Наманган-Андижон темир йўл участкасини электрлаштириш.



2017-2019 йилларда темир йўлларни қайта тиклашга 51,1 млн. АҚШ доллари ажратиш.



2017-2019 йилларда йўловчи вагонлар таркибини янгилаш учун 8,1 млн. АҚШ доллари ажратиш.




«Тошкент шаҳар аэропорти янги халқаро йўловчи терминалини (Тошкент-4) қуриш» лойиҳасини амалга оширишга 343,6 млн. АҚШ доллари сарфлаш.



ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ

Пахта экин майдонларини 49 минг гектарга ва ғалла майдонларини 10 минг гектарга қисқартириш



Янги боғлар (минг гектар)

- Интенсив боғлар
- Боғлар
- Узумзорлар
- Боғлар (интенсив боғларга ўтказиш)
- Узумзорлар (интенсив боғларга ўтказиш)


- Картошка
- Сабзавот
- Интенсив боғлар
- Узумзорлар
- Озука экинлари
- Мойли экинлар



- Виноградные поля (переход на интенсивные)


Макроиктисодий мутаносиблик

Инфляция даражаси
(Ўтган йил декабрига нисбатан, %)




- мўътадил каттик пул-кредит сиёсти олиб борилиши натижасида инфляция даражаси 7-8% дан ошмайди;
- мутаносиб давлат бюджети –
- 2005 йилдан профицит билан ижро этилмоқда;
- ички ва ташқи қарз олишда консерватив сиёсат: ташқи қарз ҳажми ЯИМга нисбатан 18,5%дан ошмайди.

Ташқи қарз (ЯИМга нисбатан, %)



Бюджет камомати (ЯИМга нисбатан, %)




34

9.5.-rasm.

Иқтисодиёт таркибини диверсификациялаш

Тизимий ислохотларни изчи амалга оширилиши натижаси 2000-2016 йилларда:

- ЯИМда саноат улушининг 14,2% дан 25,7% гача ошиши тармоқда диверсификация ҳисобига эришилди;
- қ/х нинг ЯИМдаги улуши 30,1% дан 17,6% гача камайишига қарамасдан қ/х ишлаб чиқаришининг юқори ўсиш суръатлари сақланиб қолинди (ҳар йил ўртача 6,6%);
- меҳнат унумдорлиги 1,8 марта, қ/х экинлари ҳосилдорлиги - ўртача 1,7 марта ошди.




3
6

Аграр соҳадаги ислоҳотлар

Аграр соҳанинг ривожланиш стратегияси к/х и/ч ни диверсификациялаш, пахта яккаҳоқимлигига барҳам бериш ва озиқ-овқат маҳсулотлари билан ўзимизни тўлиқ таъминлашга асосланиш, натижасида:

- пахта экин майдонлари 2 марта қисқартирилиб (2 млн. дан 1,2 млн.га), бўшаган экин майдонлари озиқ-овқат экинларини етиштиришга ажратилди;
- дон ва умуман озиқ-овқат мустақиллигига эришилди: 1990-2016 йиллар давомида ғалла етиштириш 1 млн. дан 8,2 млн. тоннага, мева-сабзавот маҳсулотлари 4 млн. тоннадан 19 млн. тоннага етказилди;
- аҳоли жон бошига гўшт истеъмоли 2016 йилга келиб 1990 йилга нисбатан 1,7 марта (174,3%), сут – 2 марта (201,2%), сабзавотлар – 2 мартадан зиёдга (205,7%), мевалар – 3,6 марта (359,5%) ва картошка – 5,2 марта (519,3%) марта ишди;
- охириги 5 йил давомида мева-сабзавотларни қайта ишлаш 2 марта ошди.



Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб қувватлаш

Иқтисодий ислоҳотларнинг бошиданок кичик ва хусусий бизнес ривожини қўллаб қувватлаш бўлими бозор иқтисодиётини шакллантиришнинг асоси бўлди.

- 2000-2015 йиллар мобайнида фаолият кўрсатаётган кичик корхоналар сони 2,3 марта кўпайди;
- кичик бизнеснинг ЯИМдаги улуши 2000 йилдаги 31% дан 2016 йилда 56,9% гача ошди;
- бугунги кунда кичик бизнес соҳасидаги ходимлар иш билан банд жами аҳолининг 78% дан ортиғини ташкил қилмоқда;
- саноат соҳасидаги кичик корхоналар маҳсулотлари ҳажми умумий саноат маҳсулотларидаги улуши 12,9% дан 45,0% гача ошди.

Кичик бизнес улуши (%)	2000 й.	2016 й.
ЯИМда	31,0	56,9
Саноат маҳсулотларида	11,3	45,0
Қурилишда	37,0	70,7
Чакана товар айланишида	45,3	89,6
Иш билан бандликда	49,7	78,1
Экспортда	10,2	28,5

Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг таминлашига қаратилган дастурлар

2015-2019 йилларда и/ч да тизимий ўзгаришлар, модернизациялаш ва диверсификациялашни таъминловчи чоралар Дастури

- 41 млрд.долл. қийматга тенг бўлган 875 та лойиҳаларни амалга ошириш;
- 100 турдаги янги товар гуруҳлари ва 1 мингдан зиёд ассортимент турларини ўзлаштириш;
- саноат маҳсулоти и/ч ҳажмини 1,5 марта ошириш.



9.9.-rasm.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilarini bayon eting?
2. Demokratik jamiyat iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasi va mazmunini nimalar tashkil qiladi?
3. Prezident Islom Karimovning “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” asarida qanday prinsiplar izohlab berilgan?
4. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruvi qanday yo‘llar bilan nomarkazlashtiriladi?
5. Raqobatning demokratik jamiyatni barpo etishdagi o‘rni qanday?
6. Bozor infratuzilmasi qanday yo‘llar bilan shakllantiriladi?

MA’RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni -	O‘quv vaqti – 2 soat
Mashg‘ulot shakli -	Mavzu bo‘yicha vizuallashtirish - ma‘ruza
Ma‘ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish tushunchasi va mohiyati 2. O‘zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari 3. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Bozor infratuzilmasi 4. Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishning ahamiyati
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Bozor iqtisodiyoti, jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish haqida tushuncha xosil qilish	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari
Bozor iqtisodiyoti va demokratining bir biri bilan bog‘liqlik jihatlarini tushuntirib beradi;	Bozor iqtisodiyotiga o‘tish demokratik huquqiy davlat qurishning muhim sharti ekanligini aytib beradi;


Erkinlashtirish iqtisodiy islohatlarning va bozor infratuzilmasining muhim sharti ekanligini yoritib beradi;	Bozor infratuzilmasi va O'zbekistonda iqtisodiy islohatlarning bosqichlari va amalga oshirilganchora tadbirlarni tushuntirib bera oladi;
Mulkchilikning turli shakllarining jamiyat hayotidagi o'рни va jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashdagi ahamiyati tushuntiriladi ;	Huquqiy demokratik davlat qurishda ko'pmulkchilikka tayangan bozor iqtisodiyotining o'rnini tahlil qila oladi;
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, "Fikriy xujum", "Klaster" metodi, "Blisso'rov" uslubi
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, slaydlar, proektor
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa, guruh-guruh bo'lib ishlash
<i>O'qitish nazorati</i>	Kompyuter, proektor mavjud auditoriyalar
<i>Manitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, debat savol-javob , reyting tizimi asosida baholash

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI


Ish jarayoni vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Mavzuga kirish (20 minut)	1.1.Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi	Tinglaydi
	1.2. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izoh beradi(1 – ilova).	Yozib oladi
	1.3. Mavzuni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi	Yozib oladi
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. O'quv mashg'ulotining birinchi qismi bo'yicha ma'ruza qiladi. Ma'ruza mashg'ulotini "Fikriy xujum" usuli bilan boshlaydi (2-ilova).	Tahlil qiladi
	2.2. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli "Iqtisodiy hayotning erkinlashtirish tushunchasi va mazmu"ni slaydlar orqali tushuntiradi (1-2-3- slaydlar)	Muayyan bilimlar o'zlashtiriladi, slaydlarga e'tibor qaratiladi
	2.3.Erkinlashtirish-bozor infratuzilmasining muhim omili masalasini slaydlar orqali yoritib beradi (4-11 slaydlar).O'quv vizual materiallardan foydalaniladi (3- ilova . Talabalarni faollashtirish maqsadida ularga jonlantiruvchi savollar beradi 1) Bozor nima ? 2) Bozor infratuzilmasi deganda nimalar tushuniladi? 3) Erkin ochiq iqtisodiyotning ustunliklarini nimalar tashkil qiladi?	Mustaqil fikrga ega bo'ladi, savollarga turli javoblar beradi
	2.4. "Ko'pmulkchilikka tayangan	Tinglaydi, mustaqil

	bozor iqtisodiyoti demokratik rivojlanishining muhim omili” savoli slaydlar orqali tushuntiriladi(12-18-slaydlar)	fikr bildiradi
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishning ilg'or usullarini hayotga tadbiiq etish-mamalakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning bosh maqsadi ekanligi, bu borada iqtisodiyot va ma'naviyatning uzviy bog'liqligi to'g'risida yakuniy xulosa beradi.	Munosabat va fikrlar bildiradi
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va bag'olanadi.	Baholanadi
	3.3.Mavzu bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi(4-ilova)	Yozib oladilar

2- Ilova




1-shakl



200


Demokratik jamiyatga monand iqtisodiyotning erkinligi uning quyidagi tub belgilarida o'z ifodasini topadi:

- 1) xususiy mulk;
- 2) tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
- 3) shaxsiy manfaatning inson xatti-qarakatining bosh motivi ekanligi bosh motivi ekanligi;
- 4) raqobat;
- 5) erkin narx tizimi;
- 6) hukumat, davlatning iqtisodiyotga aralashuvining cheklanganligi



Erkinlashtirilgan iqtisod yoki shakllangan bozor munosabatlarning asosiy belgilari:

- Iqtisodiy faoliyat erkinligi
- Mulkchilik shakllarining xilma –xilligi
- Narx –navonin o'z erkinlashtirilishi



8-shakl


Tovarlar va xizmatlar muomilasiga xizmat qiluvchi tuzilmalar

- birjalar
- Savdo uylari
- auksion
- Reklama firmalari, agentliklar, birjalar


9-shakl




10-shakl






11-shakl



Erkin ochiq iqtisodiyotning ustunliklari









4-ilova.

«Qanday» organayzerini to'ldiring



2- O'quv topshiriq

Klasterni to'ldiring



3- O'quv topshiriq

Mavzuni mustahkamlovchi testlarni ishleng

1. Davlat qurilish dasturining va O'zbekistonni iqtisodiy isloh etishning butun o'zagi mamlakat Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan qandan chora tadbirlarda o'z aksini topadi?

- A) besh asosiy tamoyil
- B) jamiyatni modernizatsiyalashtirish
- V) bozor infratuzilmasini takomillashtirish

2. Davlatga qarashli bo'lmagan sektorni vujudga keltirish nima xisobiga amalga oshirilmokda?

- A) davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiyalashtirish
- B) qo'shma korxonalarini tashkil etish
- V) aksiyadorlik jamiyatlari va korporatsiyalarni xususiyalashtirish

3. Iqtisodiy islohotlar birinchi boskichining g'oyat muxim vazifasini aniqlang?

- A) Davlat monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiyalashtirish
- B) Ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirish
- V) YUqoridagilarning barchasi to'g'ri

4. Iqtisodiy islohotlarning birinchi boskichida xususiyalashtirish soxasida qanday natijalar qo'lga kiritildi?

- A) Og'ir sanoat ob'ektlari xususiyalashtirildi
- B) Xizmat ko'rsatish soxalarida xususiyalashtirish amalga oshirildi
- V) Kichik xususiyalashtirish amalda tugallandi

5. Iqtisodiyotni islox qilishning ikkinchi boskichi qanday davr hisoblanadi?

- A) Bozor munosabatlarini shakllantirish
- B) Xususiylashtirish davri
- V) Milliy lashtirish davri

6. Barkarorlashtirish siyosati – bu....

- A) Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, pul-kredit siyosatini yuritish va investisiyalarni keng jalb etish
- B) Ishsizlikning oldini olish, pulning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik va ishlab chiqarish muvozanatini ta'minlash
- V) Makroiqtisodiyotda muvozanatni saklash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik

10-MAVZU: DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA KUCHLI IJTIMOY HIMOYA VA ADOLAT TAMOYILLARI

Reja:

1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda "kuchli ijtimoiy himoya" va "ijtimoiy adolat" tushunchalari, mazmun va mohiyati.
2. O'zbekiston ijtimoiy xayotidagi o'zgarishlar va uning aholi farovonligini ta'minlashda namoyon bo'lishi
3. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy ximoya siyosati, uning bosqichlari, xususiyatlari va rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirilishi
4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, oila institutining qollab-quvvatlash

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda "kuchli ijtimoiy himoya" va "ijtimoiy adolat" tushunchalari, mazmun va mohiyati.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri ijtimoiy himoya siyosatining demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini va ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanmoqda.

"Bugungi kunda ijtimoiy hayot sohasidagi salbiy holatlarni bartaraf etib, odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholining himoyaga muhtoj qatlam va guruhlarini ijtimoiy muhofazasini ta'minlagan holda, O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va fuqarolar totuvligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldik."¹⁰⁷ Darhaqiqat, bozor munosabatlariga o'tish davrida mamlakatimizda kuchli ijtimoiy himoya tizimi shakllantiri edi va hozirda uni takomillashtirish muhim masala bo'lib qo'ymoqda. Bugungi kunda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jixatdan yangi bosqichga o'tish ehtiyoji paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan aholini ijtimoiy qo'elab-quvvatlashning zamonaviy tizimi shakllantirilmoqda.

Birinchi Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, biz shunchaki demokratik davlat emas, ba'ki adolatli demokratik davlat qurishga intilyapmiz.

Adolatga intilish - xalqimiz ma'naviy - ruhiy dunyosiga xos eng muhim hususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi kerak.¹⁰⁸ Darhaqiqat, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishda adolat

¹⁰⁷. Qarang: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Иккинчи чакириқ Олий Мажлиснинг тўққизинчи сессиясидаги (2002 йил 29-30август) маърузасида баён этилган асосий вазифалар ва коидаларни кенг ёритиш бўйича ташкилий-маърифий тадбирлар Дастури. –Т.: Ўзбекистон, 2002. Б.10.

¹⁰⁸. Qarang: Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон. 1996. б.355.

omili muhim o'rin tutadi. SHu ma'noda adolat tushunchasi, uning erkinlik, demokratiya va barqaror taraqqiyot g'oyalari bilan mushtarak jixatlari bugungi kunda ham zamonaviy mazmun kasb etmoqda.

Lekin tarihan oladigan bo'lsak, ijtimoiy adolat g'oyasi insoniyatning butun tarihi orqali o'tib kelgan. Shu bilan birga jamiyatni adolatli tashkil etish orzusi va uning hayotdagi haqqoniy mavjudligi o'rtasida doimo ziddiyat bo'lib kelgan. Shunga qaramay uni «naqd qilib qo'yishga» urinish to'htamagan. Shu nuqtai nazardan insoniyat sivilizatsiyasining butun tarihi ijtimoiy adolatni kengaytirish tarihi hamdir. Albatta, Sharq va G'arb jamiyatlaridagi bu kabi qadriyatlar bir-biriga zid emas, ular o'zaro uyg'unlikda umuminsoniy qadriyat darajasida jamiyat hayotida ijtimoiy adolat qoidalarining barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Sharq va G'arb an'analarida asrlar davomida shakllanib kelgan bu kabi tushunchalar hamda qadriyatlar mustaqillik davrida jamiyatimizda umuminsoniy g'oyalar sifatida qayta shakllanishi shu jixatdan katta ahamiyatga ega. Zero, bu jamiyatimizda insonparvarlik, birdamlik, inson erki va mas'uliyatini manfaatlar uyg'unligi, qonun ruhi va demokratiya qadriyatlari asosida amalga oshirishga va shu tariqa ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman, mustaqillik davrida odamlarimiz ongida ijtimoiy adolatning yangicha tushunchasining shakllanishi mamlakatimiz kelajagi va islohotlar muvaffaqiyati garoviga aylanmoqda. Adolatli jamiyat qurish haqidagi umuminsoniy orzular va qarashlarni yangi jamiyat barpo etish manfaatlariga bo'ysundirish muhim amaliy masala bo'lib turibdi. Biz barpo etayotgan jamiyat insonparvar bo'lmog'i zarur. Bunda demokratik modellarni ko'r-ko'rona ko'chirib olmasdan, balki ilg'or demokratik jamiyatlar tajribasini tanqidiy o'rganish asosida fuqarolik jamiyatini qurish ehtiyojlariga xizmat qildirish talab etiladi.

Har qanday demokratik jamiyat ma'lum ma'noda ijtimoiy asoslarni birëamchi manba sifatida qabul qiladi. Ijtimoiy asoslari bo'lmagan jamiyat o'z taraqqiyotida sobit bo'la oëmaydi. SHu ma'noda demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari muhimdir.

Umumiy ma'noda ijtimoiy himoya demokratik huquqiy davlat tomonidan fuqarolar, turli jamoalarning huquqlarini ta'minlash bilan cheklanib qoëmay, ulardan amalda foydalanishni kafolatlash, amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishni anglatadi. Ya'ni, insonlar davlat uchun emas, davlat halq uchun xizmat qiladi, bu inson va uning qadr-qimmatiga hurmat deb baholanadi.

Ijtimoiy innovatsiyalar paydo bo'lishi yoki qo'llanilishiga, ijtimoiy sohadagi ayrim jarayonlar sabab bo'ladi, jumladan:

- mavjud ijtimoiy muammolarni jadallashishi, ushbu muammo echimini yangicha usulda hal qilishni taqozo etadi; ushbu jarayonlarga misol tariqasida mamlakatimiz mustaqillikka erishganda yurtimizda o'ta qaltis ijtimoiy vaziyat vujudga kelgan edi. Aholining o'sish sur'atlari o'rtacha sobiq ittifoq ko'rsatkichidan uch barobar yuqori edi. Buning ustiga, mehnat resurslari aholining o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan ikki barobar tez o'sayotgandi. Oxir-oqibatda ishsizlik darajasi ortib, axoli daromadlari keskin tushib bormokda edi. Bu jarayon o'ziga xos yangicha ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni o'sha davr talabi darajasiga olib chiqqan edi.

- ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun resurslarning etishmasligi, bu sohada yanada samaralirok vositalardan foydalanishga olib keladi; Bunday holatda ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirishda nafaqat tabiiy resurslar balukim inson omili, etarlicha mablag' bilan ta'minlanish holati, vaqtning chegaralanganligi va masofa hamda transport omillarining etishmasligi sabab bo'ladi. - ijtimoiy sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga bo'lgan talabning oshib borishi, yoki xalqaro me'yorlarga moslashtirish. Ijtimoiy sohadagi xizmat ko'rsatish talablarining oshib borishi innovatsion xarakterga ega bo'lgan xizmat sohasiga bo'lgan ehtiyojlarni oshirib boradi Bugungi kunda ijtimoiy innovatsiyalarga bo'lgan talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, ijtimoiy innovatsiyalar quyidagicha tasniflanadi:

Birinchi: ijtimoiy innovatsiyalar ijtimoiy omillarning qamrovi bo'yicha: kompleks va mahalliy ijtimoiy innovatsiyalarga bo'linadi. Bu yo'nalishda ijtimoiy omillar hududlaridagi ko'lamidan elib chiqib belgilanadi. Misol uchun qaysidir viloyatda uchrayotgan ijtimoiy muammo butun



Respublikaga tegishli bo‘masligi mumkin yoki butun Respublikada shu muammo mavjud bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan: jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha: siyosiy, iqtisodiy, madaniy ma’naviy va ijtimoiy sohalarda innovatsiyalarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Uchinchidan: amalga oshirish davri bo‘yicha innovatsiyalar strategik hamda taktik usulda bajariladi.

To‘rtinchidan: tashkilotda ijtimoiy yo‘nalishni shakllantirish bo‘yicha, xodimlarning mehnat sharoitlari, madaniy saviyasi hamdakorxonadagi mavjud ijtimoiy infratuzilma orqali amalga oshiriladi.

Beshinchidan: amalga oshirish holati bo‘yicha, ichki hamda tashqi ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy innovatsiyalar.

Oltinchidan: amalga oshirish shakli bo‘yicha, moddiy, tashkiliy va madaniy ijtimoiy innovatsiyalar.

Ettinchidan: ishlatilish ko‘lami bo‘yicha, alohida ob‘ektga qaratilgan bir martalik ijtimoiy innovatsiyalar va bir qancha ob‘ektga qaratilgan keng tarqalgan ijtimoiy innovatsiyalar.

Sakkizinchidan: maqsadi bo‘yicha, faoliyat tamoyilini yangilashga qaratilgan innovatsiyalar va yangi maxsulot faoliyatini tashkil etishga qaratilgan innovatsiyalarga bo‘linadi.

Ijtimoiy innovatsiyalarning yuqoridagi struktura bo‘yicha tasniflanishi o‘z navbatida ularning qo‘llanish sohalari ham alohida namoyon etadi. SHunday ekan, ijtimoiy innovatsiyalar qo‘yidagi ijtimoiy sohalarda ko‘llaniladi. Birinchidan: aholining yashash sharoiti, bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan sohalarda; ikkinchidan: sog‘liqni saqlash tizimi sohasida; uchinchidan: ta’lim sohasida; to‘rtinchidan: aholi madaniy saviyasini oshirishga qaratilgan sohalarda; beshinchidan: aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan sohalarda; oltinchidan: aholini turar joy bilan ta’minlashga qaratilgan sohalarda; ettinchidan: jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida; sakkizinchidan: atrof muhitni muhofaza qilish sohasida; to‘qqizinchidan: aloqa xizmatlari sohasida; o‘ninchidan: kam ta’minlangan oilalar, qariyalar, himoyaga muhtoj bolalar va nogironlarni qo‘llab quvvatlash sohalari qo‘llaniladi.

10.1.-rasm.

Hozirgi vaqtda demokratik siyosiy tizimning eng muhim sub'ekti bo'lmish davlatchilikni isloh qilishda yangi vazifalar ko'ndalang turibdi. Bu, avvalambor, hozirgi bosqichda siyosiy institutlarning va nodavlat ijtimoiy uyushmalarning xilma-xilligi hamda ularning roli mustahkamlanishi, shuningdek, aholining siyosiy faolligi oshishi asosida jamiyat hayotini yanada demokratlash vazifalari muhim va dolzarb bo'lib qolganligi bilan izohlanadi. O'zbekistonda ulkan o'zgarishlar – huquqiy demokratik davlat va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin va adolatli fuqarolik jamiyati rivojlanish bosqichi kechmoqda. Jamiyat hayotining demokratlashuvi sharoitida demokratik tartibot, barqaror rivojlanish muammolariga e'tibor oshishi tabiiy. Zero bu jarayon siyosatdan tortib ma'naviyatgacha, ish haqidan tortib davlat boshqaruvigacha bo'lgan sohalarning barchasida tub o'zgarishlarni, zamonga mos yangiliklar qilishni talab etadi. Bu talablar bajarish mustaqilligimizning ilk yillaridanoq davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib kelmoqda.

SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda 1990 yilda davlat byudjeti harajatlarining atigi 31% ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. 1992 yilda madaniy-ijtimoiy tadbirlar uchun davlat byudjetining 35,43% sarflangan, bu raqam 1993 yilda 37,79%, 1994 yilda 43,03%, 1995 yilda 45,29%ni, 2008 yilda esa 50%dan oshiqni tashkil etgan. 2015 yilda davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga qariyb 60% mablag'lar yo'naltirilmoqda. Uning 34 foizi ta'lim, 15 foizi sog'liqni saqlash sohasiga qaratilganligi diqqatga sazovordir. Ushbu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, rivojlanishning —o'zbek modeligal ko'ra ushbu sohada ham davlat boshislohotchi bo'lib ijtimoiy sohani har tomonloma rivojlantirib bormoqda.



10.2.-rasm

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, rivojlangan va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalqimiz hayotining barcha sohalarini modernizatsiyalashning hozirgi davrida —Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati saril tamoyiliga tayanib olib borilayotgan barcha sohalardagi islohotlar xalqimiz farovonligi yo'lida amalga oshirilmoqda. Bunda albatta ijtimoiy yangilanishlar va ijtimoiy innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etayotganligini inobatga olish lozim

Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalaniladi. Misol uchun, O'zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko'rsatkichi 0,40 dan 0,296 ga pasaydi. Bu natija, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35-0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Odamlarning daromadlari ortishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatdan o'zgarib bormoqda. Tadqiqotlarga qaraganda, bugungi kunda yurtimizdagi oilalarning 94 foizi xolodilniklar, 84 foizi turli oshxona elektr jihozlariga, 63 foizi kir yuvish mashinalari, yarmidan ko'pi komputer, changyutgich, mikroto'lqinli pechlarga ega, uchdan bir qismi esa konditsionerlardan foydalanmoqda.

O‘zbekiston ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar - 2015 yil yakunlariga ko‘ra:

- 2015 yilda mamlakatimizda 980 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil qilingan bo‘lsa, shuning 60 foizdan ziyodi qishloq joylarda yaratildi.
- Kollejlarning 480 mingdan ortiq bitiruvchisi ish bilan ta‘minlandi. Tijorat banklari tomonidan ularga o‘z biznesini tashkil qilish uchun 280 milliard so‘mga yaqin imtiyozli kreditlar ajratildi va bu 2014 yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘pdir.
- Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi.
- O‘zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e‘tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o‘ta boylar ham, o‘ta kambag‘allar ham bo‘lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma‘lum, albatta. YUrtimizdagi 10 foiz ta‘minlangan va 10 foiz etarlicha ta‘minlanmagan aholi daromadlari o‘rtasidagi farq, ya‘ni «detsil koeffitsenti» deb nom olgan ko‘rsatkich barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu raqam 2010 yildagi 8,5 foiz o‘rniga 2015 yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Daromadlar o‘rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko‘rsatkich – Jini indeksi mamlakatimizda 2010 yildagi 0,390 o‘rniga 2015 yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko‘plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir.
- har 100 oilaning 42 tasi engil avtomobillarga ega bo‘lib, bu besh yil avvalgi ko‘rsatkichdan 1,5 barobar ko‘p, 47 ta oila shaxsiy kompyuterlar bilan ta‘minlangan va bu davrda o‘shish 3,9 barobarni tashkil etdi. SHuningdek, har 100 ta oiladan 31 tasi konditsionerga ega yoki bu boradagi o‘shish 1,7 barobarga teng, har 100 ta oilaga 234 ta mobil telefon to‘g‘ri kelmoqda yoki bu sohadagi o‘shish 1,6 barobarni tashkil etmoqda.
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida mustaqil tashkilotlar guruhi va xalqaro ekspertlar ishtirokida 2015 yilda 158 ta davlatda “Dunyoning eng baxtli mamlakatlari” degan mavzuda tadqiqot o‘tkazildi. Har qaysi mamlakatning o‘z fuqarolarini baxtli hayot bilan ta‘minlash qobiliyatini ifoda etadigan ushbu indeks bo‘yicha O‘zbekiston 44-o‘rinni egalladi. Aytish joizki, yurtimiz 2013 yilda bu reytingda 60-o‘rinda edi.
- O‘tgan yili ta‘lim-tarbiya sohasini yanada isloh etish va takomillashtirish masalasi ham diqqat markazimizda bo‘ldi. Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKONing mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta‘minlash uchun ta‘limga yo‘naltirilishi zarur bo‘lgan investitsiyalar miqdori bo‘yicha tegishli tavsiyalaridan, ya‘ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko‘pdir.
- 2015 yilda bu sohada 384 ta ob‘ektning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha qiymati 423 milliard so‘mlik ishlar amalga oshirildi, namunaviy loyihalar asosida 29 ta yangi umumta‘lim maktabi barpo etildi, 219 ta maktab rekonstruksiya qilinib, 136 tasi kapital ta‘mirlandi.
- 15 ta tayanch oliy o‘quv yurtida oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish kurslari tashkil etildi. Mazkur kurslarda oliy o‘quv yurtlarining 2 ming 700 ga yaqin o‘qituvchisi malaka oshirdi.
- har 100 mingta chaqaloqqa nisbatan onalar o‘limi 23,1 dan 19 taga, 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi 14,8 tadan 13,9 taga, chaqaloqlar o‘limi 11 tadan 10,7 taga kamaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga to‘liq erishganini alohida ta‘kidlashni istardim.
- 2015 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bolalar sporti inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha manzilli dasturni amalga oshirish doirasida umumiy qiymati 225 milliard so‘mdan ortiq 35 ta namunaviy sport ob‘ekti, 12 ta suzish havzasi, 174 ta maktab sport zallari foydalanishga topshirildi.
- 2015 yilda O‘zbekiston sportchilari jahon, Osiyo chempionatlari va boshqa xalqaro turnirlarda 860 dan ortiq medalni qo‘lga kiritishga erishdilar. SHuning 311 tasi oltin, 274 tasi kumush va 276 tasi bronza medallaridir. Sportchilarimiz, ayniqsa, engil atletika, badiiy gimnastika, boks, kurash, dzyudo, taekvondo, ot sporti bo‘yicha muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda.

- 100 yoshga to'lgan nuroniylarning pensiyasiga eng kam oylik ish haqi miqdorida ustamalar qo'shib berildi. o'tgan yilning 1 sentyabridan boshlab o'zgarlar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksa va nogironlarni har oyda bepul ta'minlash uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va gigiena tovarlarining yangi ro'yxati joriy qilindi.

Ijtimoiy barqarorlik masalalariga alohida e'tibor berishning eng muhim sabablari:

- O'zgarishlarning qay tarzda borishi va keskin shakllarga kirishi
- to'planib qolgan ijtimoiy muammolarning qay darajada keskinligiga;
- hukmron tuzilmalarning bu muammolarni hal qila olishi yoki hal qila olmasligiga bog'liq;

Odamlarni da'vat etuvchi ijtimoiy sabablarning ro'yobga chiqishi juda muhim ahamiyatga molikdir.

- Inson uchun islohotlar jarayonida o'z imkoniyatlarini qanchalik ro'yobga chiqara olishi;
- Islohotlarning mazmuni va maqsadlari haqidagi tasavvurlarning uning amaliy natijalariga qanchalik mos kelishi;
- islohotlarning mohiyatiga to'ralarcha putur etkazish;
- ijtimoiy adolatni buzish;
- hokimiyatning turli pog'onalaridagi korrupsiya
- aholining shunday ham tang ahvolini yanada og'irlashtirib, jiddiy ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Isloxotlar davrining o'zi ko'p hollarda bir qancha hal qilinmagan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi va ular zamiridagi larzaga soladigan kuchni o'zida saqlab turadi.

- Narxlarning o'sishi, inflyasiya;
- Ishsizlikning o'sishi;
- Aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlashga etarli e'tibor bermaslik.
- Isloxotlar davrining keskin ijtimoiy muammosi ko'p kishilar uchun qaror topgan turmush tarzining buzilishidan;
- hayotiy mo'ljallarning, fikrlash tarzi, ijtimoiy fe'l-atvor, boqimandalik kayfiyatlarining o'zgarishidan iborat.
- Ijtimoiy muammolarning keskinligi aholi ijtimoiy tabaqalari o'rtasida haddan tashqari farqning paydo bo'lishidadir.

Ijtimoiy yordam

- Mehnatga layoqatsiz yoki qaramog'ida bolalar bo'lganligi uchun ishlay olmaydiganlarga yordam ko'rsatish. Davlat byudjetidan moliyalashtiriladi va xayriya hisoblanadi. (transfertlar)
- kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar
- bolali oilalarga nafaqalar
- nogironlarga nafaqalar
- oziq-ovqat talonlari
- uy-joy xo'jaligiga dotatsiyalar

Ijtimoiy siyosat deganda:

- davlatning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga bo'lgan munosabati;
- ijtimoiy infratuzilmalar samarali va bir maromda amal qilishini ta'minlashga qaratilgan kundalik davlat faoliyati;
- ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajarilishini ta'minlanishidagi strategiya va taktik yondashuv nazarda tutiladi.

“Ijtimoiy himoya” tushunchasi (Keng ma'noda): aholining barcha qatlamlariga (kasbiy, tarmoq, mintaqaviy va boshqa belgilari bo'yicha) nisbatan qo'llaniladigan hamda ijtimoiy xatar (risk) yuz berganda moddiy va boshqa yordam ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar (masalan, davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoyalash, ekologik halokat zonasida istiqomat qiluvchilarni ijtimoiy himoyalash va boshqalar) yig'indisidan iborat.

Tor ma'noda: **ijtimoiy zaif qatlamlarga** (qariyalar, nogironlar, ko'p bolalilar va boshqalarni) moddiy himoyalashni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy siyosatning xususiyatlari

- Ijtimoiy siyosatni o'tkazishda davlatning boshqarish funksiyasi
- Ijtimoiy islohotlarni bosqichma-bosqichligi
- Aholining yashash darajasini keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik
- Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari mahallalar orqali aholiga aniq ijtimoiy yordam ko'rsatish
- Ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish

Ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari

- Aholining iqtisodiy aktivligini qo'llab-quvvatlash
- Mahsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste'mol bozorini shakllantirish
- Aholini to'lov talablarini keng miqdorda qondirish va uning o'sishini ta'minlash
- Aholining daromad va mulkka egalik darajasini keskin tabaqalashuvini oldini olish
- Ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan zarur kafolatni ta'minlash

Ijtimoiy sohada islohotlar strategiyasini belgilovchi asosiy shartlar

- Aholini daromadi va mulkka egaligi bo'yicha tabaqalanishi
- Ishsizlik
- Qishloqdagi ortiqcha bandlik
- Milliy valyutaning sotib olish qobiliyati
- Inflyasiya
- Sof daromad darajasi

Davlat ijtimoiy siyosatida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari

- Davlat ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;
- Davlatning markazlashgan
- n xizmatlar va samarali mehna ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;
- Ko'rsatilgatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- Ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;
- Ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar;
- Kam ta'minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko'rsatish;
- Bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- Talabalar uchun to'lanadigan davlat stipendiyalari;
- Ishsizlik nafaqasi;

XXI asr boshlarida demokratik tamoyillarning ustuvor kelishi ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy himoya tizimi ham hozirgi zamon davlatchiligining o'ziga xos demokratlashuvdagi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyatning kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoya qilish tamoyili hozirgi zamon taraqqiyot konsepsiyasida yangicha yo'nalishdir. Ma'lumki, xatto barqaror demokratik taraqqiyotga erishgan bugungi Evropa mamlakatlari ham o'z vaqtida bunday amaliyotni chetlab o'tgan edilar. O'zbekistonda esa ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun hukumat dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Bu islohotlarni yanada kengaytirish uchun zarur edi. hozirda, aytish mumkinki, O'zbekiston ijtimoiy siyosatida ana shu aniq natijaga erishildi. Bu reaë yo'nalishga ega bo'lgan amaliy bosqichdir. Ijtimoiy islohotlar konsepsiyasi jamiyatda barqarorlik va xavfsizlik tizimining mustahkamlanishiga qaratildi. Natijada O'zbekiston ijtimoiy siyosatida barqaror o'zgarishlarga erishildi. Jahon ekspertlarining xuëosalariga ko'ra, aynan ushbu konsepsiya O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot bosqichiga kirishiga asos bo'ldi. Hususan, yaqinda BMTning YUNISEF tashkiloti tomonidan turli davlatlarning ijtimoiy rivojlanishi bo'yicha e'lon qilgan qiyosiy tadqiqot natijalari ham fikrimizni tasdiqlaydi.

O'zbekistonda yuritilayotgan ijtimoiy siyosatdagi o'zgarish jamiyat tabaqalarining manfaatlarini himoya qilishda amaliy ahamiyat kasb etishi zarur. Aynan ushbu ijtimoiy talab bajarië sagina, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning asoslaridan biri - ijtimoiy totuvlik saqlanadi.

Ijtimoiy totuvlik ustuvor bo'lgan jamiyatdagina kuchli ijtimoiy siyosat yuritish uchun imkoniyat yaratiladi. Ammo ijtimoiy totuvlik o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Zero, har qanday

jamiyatda turli ijtimoiy tafovutlarning bo'lishi tabiiy holdir. Mutaxassislar fikricha, bu ijtimoiy tafovutlar quyidagi guruhlar o'rtasida ma'lum ma'noda ijtimoiy farqlarning mavjudligida o'z ifodasini topadi:

- boylar va kambag'allar orasida;
- ko'p millatli davlatlarda aholining etnik guruhlari orasida;
- aholining diniy guruhlari orasida;
- markaz va mintaqalar orasida;
- erkaklar va ayolalar orasida;
- turli avlodlarga mansub odamlar orasida.

Bu tafovutlar O'zbekiston jamiyatida ham ko'zga tashlanadi. SHu sababli imkon qadar aytib o'tilgan tafovutlar ko'rinishini kamaytirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilib borilishi ijtimoiy siyosatning maqsadlaridan biridir.

O'zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki yillardayoq, kuchli ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan maqsad, insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Mamlakat prezidenti I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazishdir»¹

Albatta, ijtimoiy himoya tizimining rivoji mamlakat iqtisodiyotining ahvoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Avvalo, nodavlat sektorining muayyan darajada taraqqiy etishi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mavqeining mustahkamlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun tayanch va asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy siyosatning real amalga oshishi uchun zamin yaratadi, ijtimoiy himoya tizimining yanada takomillashib, zamon talabiga mos bo'lib borishiga olib keladi

Ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shahs o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun to'liq imkoniyatlar yaratish, bunda ularning farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Kishilarning jamiyatdan olayotgan ulushlari (ish haqi, daromadlari, mukofotlari, unvonu mansablari) ularning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissalariga (mehnati, qobiliyati, zakovati, alohida xizmatlari, sarmoyasi va h.k.) mos kelishi shu ma'noda inson rivoji imkoniyatlariga bog'liq.

Albatta, inson faqat non bilan tirik emas. Inson taraqqiyotini hayot darajasigina emas, hayot sifati ham belgilaydi. Hayot sifati esa inson yashaydigan, mehnat qiladigan va bo'sh vaqtini o'tkazadigan sohalarda shakllanadi. Ijtimoiy infrastruktura inson hayotida kuchli ta'sirga ega. Sog'liqni saqlash shunday sohalardan biridir. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab prezidentimiz tashabbusi bilan «Sog'lom avlod uchun» umumhalq harakati boshlangan edi. Sog'lom va barkamol avlod uchun kurash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va o'zining natijalarini bera boshladi.

“O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foizi va eng kam ta'minlangan 10 foiz qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012 yilda atigi 8,0 barobarni tashkil etganini alohida ta'kidlashni istardim. Bu jahondagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mamlakatimizda jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatimizning samarasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi”¹⁰⁹.

Insonning jamiyatga foyda keltirishi ko'p jixatdan uning hayoti qanday ta'minlanganligiga bog'liq. Dastavval, har bir oila o'z turar joyiga ega bo'lishi kerak. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qishloq joylarni gazlashtirish kabi murakkab muammolarning hal qilib borilishi ham insonga munosib hayotni ta'minlashga qaratilgandir.

Narhlarni erkinlashtirish, savdo tizimi va maishiy xizmat sohasining bir maromda hususiy lashtirib borilishi ham inson manfaatlariga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirilishi lozim.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.І. –Т.: Ўзбекистон. 322-б.

¹⁰⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси, 2013 йил 18 янв./ -Т.: Ўзбекистон, 2013. - б.

Iste'mol mollarning ko'pini o'zimizda etishtirishni ta'minlash uchun mahalliy ishbilarmonlarga har tomonlama yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, qishloq joylarda savdo shahobchalari va maishiy xizmat muassalarini ko'plab barpo etish ana shu maqsadlarga olib boradigan yo'ldir. O'zbekistonda hususiy lashtirish jarayonlarining borishi va ho'jalik yurituvchi sub'ektlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi, iste'mol mollarni ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar ana shunday yo'nalishga ega.

hozirgi zamonda aholini ijtimoiy himoya qilishning qator modellari mavjud. Ulardan biri Skandinaviya mamlakatlarida (Finlyandiya, SHvetsiya) qo'elaniayotgan **sotsial-demokratik model** bo'lib, bunday modelga ko'ra davlat ijtimoiy himoyaning barcha mas'ueiyatini o'z zimmasiga oladi.

Neoliberal modelga ko'ra esa (AQSH) ijtimoiy himoyaning aksariyat qismini tadbirkorlar va kasaba uyushmalari bajaradilar.

Neokonservativ modelga ko'ra (Germaniya) ijtimoiy himoya davlat kafolatlari javobgarligida xususiy tadbirkorlar va davlat federal byudjeti asosida olib boriladi.

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot asosan davlat byudjeti hisobidan tashkil etilgan bo'lib, bu tizim qator rivojlangan chet el davlatlarining ijtimoiy tizimidan qolishmaydi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy yordamdan tashqari respublikamizda norasmiy ijtimoiy yordam ko'rsatishning an'anaviy qadriyat turlari ham mavjudki, ularning negizini qarindoshchilik, qo'shnichilik, mahallachilik, yoru birodarchilik yordamlari, ya'ni xalqimizning milliy urf-odatlarini tashkil etadi. Mahalliy idoralar, korxonalar, jamoa va xo'jaliklar hamda boshqa tadbirkorlik tashkilotlaridan fuqarolar pensiyasiga qo'shib beriayotgan qo'shimchalar, muhtojlarga ko'rsatilayotgan otaliq yordamlari, bayram va hayit kunlari bemorlarni ziyorat qilish, turli xayriehsonlar ham milliy urf-odatlarimizning zamonaviy ko'rinishlaridir. Bulardan tashqari, ijtimoiy yordam ko'rsatishda nodavlat jamoat birlashmalari va xayriya tashkilotlari ham ishtirok etmoqda.

Albatta, muammolar ham mavjud. Jahon tajribasi bilan qiyoslaganda, avvalo, mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiladigan nodavlat tashkilotlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish lozim. Hususan, kasaba uyushmalari rivojlangan mamlakatlarda hodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish uchun korhona egalari, ish beruvchilarga doimo ta'sir o'tkazib keladilar. Bizda esa hali bunday tajriba mavjud emas. Birinchi navbatda jamoat tashkilotlari, hususan kasaba uyushmalari faoliyatini tubdan yahshilash, ularni mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiluvchi kuchga aylantirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizning ijtimoiy himoya tizimi rivojini umumiy tarzda qarab o'tish o'rinlidir. Ma'lumki, 1991 yilda sobiq totalitar tuzum inqirozga uchragach, uning o'rnida vujudga kelgan yangi mustaqil mamlakatlar demokratiyaga asoslangan jamiyat barpo etishda turli yo'llarni tanladilar. Birinchisi, Evropa va Amerika davlatlari tajribasida sinab ko'rilgan "falaj qilib davolash" yo'li edi. Ko'pgina mamlakatlar ushbu «tezkor» yo'lni tanladilar. Bu mamlakatlarda mustahkam qonunlar majmui ishlab chiqilmasdan, jamiyatni keskin tarzda demokratlashtirishga o'tildi. Oqibatda bu o'z navbatida ko'plab murakkab muammolarni keltirib chiqardi.

Ikkinchi yo'l - jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilib borish yo'li bo'lib, bunda O'zbekiston tashabbuskor bo'ldi. O'zbekistonda avval qonunlar majmui yaratildi, so'ng bozor infrastrukturasi tizimini shakllantirishga e'tibor qaratildi va iqtisodiyotni isloh qilishga kirishi edi. Natijada jamiyat keskin ijtimoiy larzalarni chetlab o'tdi. Bu birinchi navbatda ijtimoiy himoya tizimiga ham tegishli edi. Aytaylik, 1992 yilda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang holatda edi. SHunday sharoitda kam ta'minlangan fuqarolar davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilinishi zarurligi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu siyosat davlatning islohotchilik roliga tayangan holda amalga oshirildi. SHu tariqa bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlat nazoratining bo'lishi ijobiy natijalar berdi.

Birinchi bosqich. Narhlar islohoti va narhlarning erkinlashtirish. (1992 yil 10 yanvardan boshlab).

Ikkinchi bosqich. Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish. (1992 – 1994 yillar).

O'z o'rnida demokratiyaning sharqona shakli hususida fikr bildirib o'tish lozim. YAshsi bilamizki, SHarq qadriyatlari "inqilobiy sakrash" dan ko'ra tadrijiylikni ustun biladi. SHu sababli azaedan SHarq jamiyatlarida iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'pirilishlar nisbatan kam. O'zbekistonda

jamiyatni demokratlashtirish jarayoni SHarq va G'arb demokratiya tamoyillari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi sababli ham, taraqqiyotda bosqichma-bosqichlik, harakatda esa qonun ustuvorligi asosiy hususiyat kasb etdi va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda.

Tan olish kerak-ki, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirish uchun shunchaki qulay sharoit yo'q edi. SHunga ko'ra, 1994 yil 24 avgustda «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida» Prezident Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, 1994 yil oktyabrdan aholini ijtimoiy himoyalash tizimi takomillashtirildi. Negaki, ilgari faqat respublika byudjeti yo'li bilangina 30 ta turli soha va yo'nalishlar bo'ylab ijtimoiy himoya amalga oshirilardi. Bunday holat mablag'larning sochilib ketishiga olib keldi. Natijada yuqoridagi Prezident Farmoniga binoan 1994 yilda ijtimoiy himoyaning asossiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi. Bu tizim bugungi kunga qadar o'zini oqlamoqda. Ana shu Farmonga muvofiq yoshlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida o'quv yurtlari talabalarining stipendiyalari muntazam ravishda oshirib borilmoqda. Zero, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi aholi soni jixatidan eng yirik mamlakat bo'lib, sanoat va makroiqtisodiyot tizimi bir yoqlama hususiyatga ega edi. Bu murakkablik jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasada, ma'lum ma'noda undan chetlab o'tishga muvaffaq bo'lindi. O'zbekistondagi er usti va er osti boyliklari, intellektual salohiyat bunga imkon berdi. Undan unumli foydalanildi. SHunisi ham e'tiborliki, jamiyatni demokratlashtirish va ijtimoiy himoya tizimini yaratish o'zaro bog'ëiq jarayon sifatida rivojlandi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida shahsga qo'yiladigan talab ortib borganligi sababli, kishilar ilm o'rganadilar, kasb egallaydilar, zamonaviy texnika, texnologiyani o'zlashtiradilar, kompyuter yoki tilni o'rganish choralari ko'radilar. SHu talablarga javob bera oladigan insonlar hayotda o'z o'rinlarini topib oladilar.

Lekin, O'zbekistonda ijtimoiy o'zini-o'zi himoyalash tizimi batamom yo'lga tushib ketgan emas. Boqimandalik kayfiyatidan ijtimoiy himoya iste'molchilari ham qutulishlari lozim. Fuqarolar endilikda o'zlarini-o'zi ta'minlash usuliga o'tishlari kerak. O'zbekistonda hususiy mulkchilikning qaror topishi bu sohada qat'iy o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi zarur. SHunisi ham muhimki, ijtimoiy himoyani doimiy jarayon sifatida tushunmaslik lozim. Aks holda boqimandalik kayfiyati battar kuchayishi mumkin. Ijtimoiy himoya ayrim fuqarolar uchun imkoniyat, holos. har qanday sharoitda ijtimoiy yordam jamiyat a'zolari uchun imtiyozga aylanmasligi lozim. Bu o'rinda jamiyatning o'zini-o'zi ijtimoiy himoyalash tizimiga o'ta borishini ta'minlash uchun ushbu tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- nodavlat, nohukumat tashkilotlar, jamg'armalar, uyushmalar va turli shakldagi mulk egasi bo'lgan tashkilotlarning moddiy ahvolini yaxshilashni qo'llab-quvvatlash;
- barcha turdagi korxonalar, muassasalar va uyushmalarni zamon talabiga javob beradigan hodimlar va ayniqsa huquqshunos, psixolog va sotsiolog mutahassislar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berish lozim;
- nomi zikr etilgan muassasalarning xorijiy turdosh muassasalar bilan hamkorligini yo'lga qo'yishda ko'maklashish. Ular o'z yo'nalishlarida zarur tajriba orttirishlari talab etiladi;
- ijtimoiy himoya tizimida iqtisodiy muhofazalanishni asta-sekin ijtimoiy fondlar zimmasiga o'tkaza borish zarur. Bunday holatda odamlarni ijtimoiy muhofazalashning ta'sirchan vositasi yuzaga keladi;
- ijtimoiy muhofazalashda boqimandalik, mas'ueiyatsizlik, befarqlik singari iëlatlarga barham beruvchi ta'sirchan vosita va usullarni qidirib topish va hayotga joriy eta borish talab etiladi.

SHuni aytib o'tish zarurki, har qanday jamiyat ijtimoiy muhofaza tizimida o'ziga hos hususiyatlarga ega bo'ladi. Mustaqillikka erishiëgandan so'ng oradan o'n uch yil o'tdi. O'zbekistonda nafaqat moddiy farovonlik, jamiyatning demokratlashuvi kabi muhim jarayonlar kuchli ijtimoiy himoya tizimi mehanizmi yaratilgan taqdirdagina ma'no-mazmunga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatda asosiy boylik inson bo'lib qoladi. O'tkazilayotgan islohotlarning mazmuni ham shu bilan bog'ëiq. Bu haqda prezident I.A.Karimov

shunday ta'kidlaydi: "Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz - insondir. YUksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir". Lekin, shunisi ham borki, islohotlar davrida ijtimoiy guruhlarning ham o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jamiyat qurish sharoitida o'rta mulkdorlar qatlami katta salmoqqa ega bo'ladi. O'rta sinf demokratik jamiyatni rivojlantirishda va uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda asosiy kuchga aylanadi. Zero, davlat bunday sharoitda kuchli muvofiqlashtiruvchi kuchga ega bo'ladi, o'rta sinf esa jamiyat taraqqiyotini texnologik, texnik, ilmiy va ma'naviy ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

SHuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda islohotlar muqarrarligining g'oyat muhim sharti bo'lmish aholini ijtimoiy himoya qilish uzluksiz ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu holat o'z navbatida quyidagi omillarni belgilab beradi:

-Kuchli ijtimoiy himoya siyosati istiqbol va taraqqiyot yo'liga ishonchni mustahkamlaydi, bu ishonch esa aniq moddiy zamin asosida hosil bo'ladi.

-Kuchli ijtimoiy himoya siyosati eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratadi. XXI asr boshida dunyo taraqqiyotida munosib turmush darajasi inson omilining etuk sharti bo'lib qo'ayotganligi e'tiborga olinsa, mamlakatimizda bu masalani hal etishda ijtimoiy himoyalashdan unumli foydalanish masalasi nechog'li ahamiyatli ekani ayon bo'ladi.

-Kuchli ijtimoiy himoya siyosati fuqarolarning islohotlarning izchil kechishidan manfaatdorligini oshib borishini ta'minlaydi va bu yangilanish jarayonining orqaga qaytishiga imkon bermaydigan ijtimoiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda aholining kam ta'minlangan tabaqalariga, bolalar, qariyalar, nogironlarni, shuningdek sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va san'at sohalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati o'zining muayyan tajribalariga ega bo'ldi. Ma'naviy, tarihiy va madaniy qadriyatlar, aholining ahloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash vazifalari dolzarb bo'lgan O'zbekiston uchun bu holat katta ahamiyatga ega. Bu tajriba fuqarolarning siyosiy faolligini yanada oshirish, mehnat resurslarini ijtimoiylashtirish, mintaqaviy rivojlanishni avj oldirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni barqarorlashtirish imkonini beradi.

"Odamlarning o'ziga o'zi baho berishi, o'zini aholining muayyan guruhiga mansubligini anglashi ularning turmush darajasi va sifatining umumiy hamda yakuniy indikatori hisoblanadi.

Bu borada, albatta, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bilan bir qatorda yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlangani, odamlar istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish hamda obodonlashtirish, zarur infratuzilmaning mavjudligi va uning samarasi, aholini sifatli iste'mol tovarlari, shu jumladan, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan ta'minlash, zamonaviy talablar asosida ta'lim olish hamda sog'liqni saqlash tizimidan bahramand bo'lish kabi hayot darajasini belgilaydigan muhim ko'rsatkichlar inobatga olinadi.

O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan aksariyat indeks va ko'rsatkichlar bo'yicha katta o'zgarish va yutuqlarga erishildi. Bu haqda so'z yuritganda, shuni aytish joizki, ayni paytda oilalarning 97 foizi o'z uyiga ega, aholining 90 foizi uzoq muddat foydalaniladigan barcha asosiy tovarlar bilan ta'minlangan, har uch oiladan biri shaxsiy engil avtomobilga ega, aholi iste'mol mahsulotlari bilan etarli darajada ta'minlanmoqda.

O'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, ayni paytda mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini o'zini o'rta toifaga mansub deb biladi. Holbuki, 2000 yilda atigi 24 foiz aholi o'zini shu toifaga mansub deb bilar edi.

SHuni unutmazlik kerakki, o'rta sinf ulushining yuqoriligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamini va asosi, davlatning barqarorligi va mustahkamligining, odamlarning o'z kelajagiga bo'lgan ishonchining muhim omili sifatida qabul qilinadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati, aholi turmush darajasi va hayot sifatini oshirish bo'yicha erishilgan yutuqlar etakchi xalqaro tashkilotlar hamda ekspertlar hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, xolisona baholanmoqda.

2012 yilda Buyuk Britaniyaning xalqaro miqyosda tan olingan Legatum instituti o'zining Farovonlik va rivojlanish indeksida O'zbekistonni dunyo mamlakatlari orasida haqli ravishda 64-o'ringa kiritgani e'tiborga loyiqdir.

Ijtimoiy farovonlik, jumladan, umr ko'rish davomiyligi, oilalarning tinchligi va osoyishtaligi, ishsizlik darajasining pastligi, ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish darajasi bo'yicha ham O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zgarar havas qiladigan o'rinni mustahkam egallab turibdi"¹¹⁰

Kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati jamiyatda yangicha fikrlashning, asoslarini yaratishga qodirligi tufayli ham demokratik jamiyat barpo etishga ko'maklashadi. Zero, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik yuzaga kelgach, fuqarolar fikrlashga, yangi zamon tartiblarini tuzishga ishtiyoq bilan intiladilar. Chunki, fikrlovchi odam fuqarolik jamiyatiga ta'sir o'tkazish qobiliyatini mumkin qadar ko'proq ro'yobga chiqara olgan taqdirdagina, kuchli bo'la oladi.

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy himoya modellari

Skandinavcha model (Finlyandiya, SHvetsiya, Norvegiya)	Bismark modeli (Germaniya, Fransiya Italiya, Belgiya)	Beverij modeli (Irlandiya, Angliya)
Asosiy qoidasi:	Asosiy qoidasi:	Asosiy qoidasi:
Mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar ijtimoiy ta'minlanish huquqiga ega	Jamiyat a'zolariga ijtimoiy ta'minot uchun zarur vositalarni ishlab topishga imkoniyat berish	har bir fuqaro favqulodda holatlarda (kasallik, pensiya yoshi, o'lim, tug'ish va h.k.) ijtimoiy sug'urtali nafaqa va pul yordami bilan qamrab olinishi zarur
Bosh siyosiy maqsad - to'la-to'kis bandlikka erishish (davlat mas'uliyati)	Bosh siyosiy maqsad - daromadlarni himoya-lash (xodim mas'uliyati)	Bosh siyosiy maqsad - minimal darajadagi daromadlarni himoyalash

Nazarimizda, ushbu modellarning har biri o'z yutuq va kamchiliklariga ega. Ularni respublikamizda shunchaki tatbiq qilib bo'lmasligi aniq. O'zbekiston ijtimoiy ta'minot sohasida o'z modeliga ega va u ijtimoiy kafolat tizimining o'zgaruvchan xususiyatiga mos tarzda takomillashib boradi.

O'tish davrida sotsial muammolarning yuki ortadi. Yo'lga tushgan karvon kabi sotsial sohaning muammolari ham borgan sari ortib boradi. SHuning uchun sotsial sohada yuzaga ke'uvchi muammolarning echimini modellashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda eng muhim muammolar rivojlanishi tendensiyalari o'z vaqtida aniqlanishi katta ahamiyatga ega. Hususan, O'zbekistonning sotsial hayotida yuz berayotgan yirik o'zgarishlar asosidagi muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim. Misol tariqasida u quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin

O'zbekistonda hozirgi kunda ijtimoiy ta'minot tizimida boshqaruv idoralari hisoblangan 1 ta vazirlik, 12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda 153 ta tuman va 36 ta shaharda ijtimoiy ta'minot tizimlari mavjud. SHuningdek, yolg'iz nogironlarga va qariyalarga mo'ljallangan o'nlab internat uylari, nogironlik sababi va guruhini belgilovchi tibbiy ekspertiza komissiyalari, hususan, nogironlikni ekspertiza qilish va nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklash bo'yicha 1 ta ilmiy-tekshirish instituti faoliyat yuritmoqda. Pensionerlarning davolanishi va dam olishiga mo'ljallangan bir qancha maxsus sanatoriyalar ishlab turibdi.

¹¹⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг мухим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси, 2013 йил 18 янв./ -Т.: Ўзбекистон, 2013. - б.

Kam ta'minlangan oilalarga va ko'p bolali muhtoj oilalarga moddiy yordam to'lovlarini moliyalashtirishning asosiy manbai respublika va mahalliy byudjet vositalari hisoblanadi.

Ijtimoiy muammolar va ularni hal etish tadbirlari

№	Ijtimoiy muammolar	Ularini hal etish tadbirlari
1	Sotsial tabaqalashuv va qutblanish	fuqarolar tomonidan o'zlari va oila a'zolarini sotsial xizmatlar bilan ta'minlash maqsadida ishlab topish imkoniyatlarining ortishi
2.	Kambag'allik	xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi imkoniyatlarni vujudga keltirish
3.	Ishsizlik	ishlab chiqarishda sotsial ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan xizmat va mahsulotlar ulushining ortishi
4.	Hududlarning tabaqalashuvi	daromadlar tengsizligi va shaxsiy manfaatdorlikning ortishi
5.	Ta'lim tizimidagi muammolar	ta'limning boshqa shakllarini joriy etish, ta'lim tizimini izchil isloh qilish.

Ma'lumki, mustaqil taraqqiyotimizning ilk davridanoq inson - jamiyat - davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona echimini topish alohida ahamiyat kasb etdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Evropa mamlakatlari, Osiyoning Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlari aynan shu g'oya asosida taraqqiyot yo'lini belgilab, tarixan qisqa davr ichida yuksak taraqqiyotga erishgan edilar. Ikki asrlik demokratik rivojlanish tarihiga ega bo'lgan AQSH ham inson manfaatini taraqqiyotning asosi sifatida qabul qilgan edi. Ma'lum bo'ladiki, O'zbekiston demokratik taraqqiyotning jahon tajribasini sinchiklab o'rgandi. O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish va uning tayanchi sifatida insonparvar tuzumni shakllantirish yo'lida islohotlarni amalga oshirish "inson - jamiyat - davlat" tizimidek kuchli uyg'unlikni talab etmoqda.

Mamlakatimizni rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi "**Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**" bo'lib, quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgandir:

Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika

bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy ob'ektlar bilan ta'minlash;

aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.




ИЖТИМОЙ СОҲАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ



10.4.-rasm.




ИЖТИМОЙ СОҲАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ



10.5.-rasm.



10.6.-rasm



10.7.-rasm

Dunyoda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar, hoh u iqtisodiyotda, hoh ma'naviy-siyosiy sohalarda bo'lsin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotda globallashuv jarayonlarining faollashuvi, ma'naviyat va ahloqiy tarbiyada G'arb ma'naviyatiga hos bo'lgan individualizmning kuchayishi hayotimizning barcha jabhalariga va ayniqsa, oila muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, oila barcha islohotlar, o'zgarishlar, tanazzul va taraqqiyotlarning ibtidosi va intihosi hisoblanadi.

Mamlakatimizning porloq istiqbolini ta'minlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila omiliga ham katta e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas. SHunday ekan, oila muhitida mamlakatimizning umumiy rivojlanishiga munosib hissa qo'sha olishga qobil va tayyor shahslarni shakllantirish uchun birinchi galda nimalar qilishimiz lozim. Dastavval, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, shuuri, ma'naviyatida Vatan tuyg'usini mustahkam qaror toptirish ishi halqimiz uchun taqdirilomon vazifa sanaladi. Negaki, qadim-qadimdan oila - muqaddas Vatan sanalgan. Zero, oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik Vatan tuyg'usining debochalaridir. Oilaga

samimiy sadoqat bo'lmagan joyda, farzandlar oldida ota-ona hurmati yo'q. Bunday holatda na qarindoshlarga, na mahallaga va na vatanga muhabbat tarkib topadi. SHu boisdan ham Prezidentimiz I.A.Karimov "oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jixatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab quvvatlash-bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yahshi tushunishimiz va anglashimiz darkor"¹¹¹, deya alohida qayd etganliklari bejiz emas.

Oila omilining mustahkamlanishi bir tomondan, oilaga davlat va jamiyat e'tiborining kuchayishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jixatdan, oilaning sub'ektiv, ya'ni, ichki imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish bilan bog'liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlari deganda, oila tarkibi, oila a'zolarining ijtimoiy mo'ljallari, o'z oldilariga qo'yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, ta'lim, shahsning individual taraqqiyoti, ahloqiy tarbiya, mehr, sadoqat, sabr, muhabbat omillarining oila muhitida amal qilishi tushuniladi. Dastavval, oila tarkibi va farovonligi masalasiga to'htalsak. BMTning YUNISEF tashkiloti tomonidan o'rganilgan holatlar natijasiga ko'ra, O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'i, ya'ni 11 millioni 18 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etib, har bir oila boquvchisi o'zi bilan o'rtacha 5,2 kishini boqish mas'uliyatini zimmasiga olib yashaydi. Taqqoslash uchun mamlakatimizga aholi nufuzi bo'yicha birmuncha yaqinroq bo'lgan Ruminiya yoki Polshani misol qilib olsak, bu davlatlarda har bir boquvchi zimmasiga 0,5 bolani boqib, o'stirish to'g'ri kelmoqda. 35 millionlik Polsha aholisining 22 millioni, Ruminiyaning 23 million aholisidan 16 millioni moddiy yoki nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida mashg'ul bo'lsalar, O'zbekistonning 25 million aholisidan 5 millionga yaqini ishlab chiqarish, boshqaruv tijorat, maorif, tibbiyot singari sohalarda faoliyat yuritmoqdalar. Tabiiyki, bunday holat vaqtincha muayyan iqtisodiy qiyinchiliklar tug'dirsa-da, har o'tgan yil moddiy va nomoddiy ishlab chiqirishga millionlab yangi ishchi kuchlarining kelib qo'shilishiga va pirovard natijada mamlakatimizning umumiy salohiyati darajasini uzluksiz ravishda oshuviga olib keladi.

Bil'aks, istiqloq sharofati bilan ma'naviy tiklanish jarayonlari jadal kechayotgan mamlakatimizda oila instituti ijtimoiy hayotda tobora mustahkamroq o'rin egallab bormoqda. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimov asoslab bergan oila omilini mustahkamlash konsepsiyasi e'tiborga sazovordir.

"Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir"¹¹².

Taqqoslash uchun O'zbekiston ayollari o'rtasida Toshkent davlat Madaniyat instituti "Sotsiologiya" kafedrasida olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda esa ziyoli ayollar orasida 10 foiz, tijoratchilar o'rtasida 5-7 foiz, qishloq ayollari orasida 3-5 foizgina vaqt farzandlarning ta'lim borasidagi o'zlashtirishlari ahvoliga ajratilar ekan. Ayni chog'da, ayolarimiz suhbatlari majmuida 40 – 50 foizgacha vaqt maishiy hayot tashvishlari, qo'shnilar muammolari, dugona va tanish-bilishlar taqdiri singari masalalar tahliliga bag'ishlanishi aniqlandi.

Bir qarashda ijtimoiy jixatdan uncha ahamiyatli tuyulmaydigan mazkur qiyosiy tahlil onalarning o'z farzandlari tarbiyasi, ularni katta hayotga maqsadli tayyorlab borish ishlaridagi o'rnini, pirovard natijada esa mamlakatning umumiy taraqqiyoti holatiga bo'lgan bevosita hamda bilvosita ta'sirini belgilab beradi.

Istiqloq sharofati bilan mamlakatimizda oila institutiga katta ijtimoiy ahamiyat berib kelinmoqda. Uning isboti sifatida mamlakatimizda an'anaga aylangan har bir yilga asosiy diqqat-e'tibor qaratilayotganligi katta ahamiyatga ega bo'lgan. SHuningdek, "Oila yili" deb e'lon qilinishi mazkur masalaga bevosita va "Sog'lom avlod", "Onalar va bolalar", "Obod mahalla" yillari mobaynida esa bilvosita tarzda doimiy e'tibor qaratib qelinmoqda. Bugungi kunda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 82,5 tabiiy gaz bilan ta'minlash 83,5 foizga etdi, sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, o'ta og'ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat'iy choralar ko'rildi. Onalar o'limi darajasi 2 baravardan

¹¹¹ 1998 йил – Оила йили, -Т.: Ўзбекистон, 10-бет

¹¹² Каримов И.А. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги. «Маърифат», 1997. 10 декабрь.

ko'proq, bolalar o'limi 3 baravar kamaydi. Ushbu davrda, ya'ni qariyb 20 yil mobaynida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi. Bugun mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan aholining 48 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining jiddiy ta'sirlariga qaramay, O'zbekiston dunyodagi kam sonli davlatlar qatorida iqtisodiyotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlamoqda, ishonchli faoliyat ko'rsatayotgan moliya-bank tizimini saqlab turibdi¹¹³.

Hullas, mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining o'ziga hos tajribasi va an'analari to'plangan. Bunda «inson – jamiyat - davlat» munosabatlari, inson omili yuksak mavqeda turadi. SHu ma'noda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini zamon talablariga mos tarzda takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud va ular mamlakatda demokratik jamiyatni qurishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

MA'RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

<i>Talabalar soni: 20-50ta</i>		<i>Vaqt: 2soat.</i>	
<i>O'quv mag'ulotining shakli</i>		Informatsion – ko'rgazmali ma'ruza	
<i>Ma'ruza rejas</i>	1.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda “kuchli ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy adolat” tushunchalari, mazmun va mohiyati. 2.O'zbekiston ijtimoiy xayotidagi o'zgarishlar va uning aholi farovonligini ta'minlashda namoyon bo'lishi 3.O'zbekistonda kuchli ijtimoiy ximoya siyosati, uning bosqichlari, xususiyatlari va rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirilishi 4.Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, oila institutining qollab-quvvatlash		
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy himoya, va adolat tamoyillari mazmunini ochib berish.			
<i>Pedagogik vazifalar</i>		<i>O'quv faoliyati natijalari</i>	
<ul style="list-style-type: none"> ▪ O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat va ijtimoiy kafolat tushunchasi va tamoyillari bo'yicha ma'lumot berish. ▪ O'zbekistonda ijtimoiy adolat prinsiplari va ularning amal qilish xususiyatlarini ochib berish. ▪ Jamoatchilik fikrida adolat tuyg'usi, ijtimoiy himoya tushunchasining turli qatlam, guruh manfaatlarida aks etish holatlari bo'yicha ma'lumot berish. 		<ul style="list-style-type: none"> ▪ O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat va ijtimoiy kafolat tushunchasi va tamoyillari bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladilar. ▪ O'zbekistonda ijtimoiy adolat prinsiplari va ularning amal qilish xususiyatlarini ochib beradilar. ▪ jamoatchilik fikrida adolat tuyg'usi, ijtimoiy himoya tushunchasining turli qatlam, guruh manfaatlarida aks etish holatlari bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladilar. 	
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, «T-sxemasi» texnikasi, baxs-munozara, FSMU texnologiyasi.		
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, komp'yuter texnologiyasi, fandan slaydlar.		
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoat, to'g'ridan-to'g'ri va guruxlarda ishlash		

¹¹³ Каримов И.А. “БМТ Саммити Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисдаги” нутқи. // 2010 йил 21 сентябрь, www.mfa.uz

<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini kullash mumkin bulgan ukuv xona.
<i>Monitoring va baxolash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.

Ma'ruzaning texnologik kartasi

Ish jarayon lari vaqti	faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi.</p> <p>1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baxolash mezonlarini e'lon qiladi (1-ilova).</p> <p>1.3. Talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi (2-ilova).</p> <p>1.4. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va ma'ruza rejasiga izox beradi.</p> <p>Mavzu yuzasidan blits-so'rov usulida ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi, savollar beradi (3-ilova). Javoblarni to'g'rilaydi va xulosalaydi.</p>	<p>Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladilar</p> <p>Tarqatmalar dan foydalanadi</p> <p>Savollarga javob beradi</p>
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	<p>2.1. "Ijtimoiy himoya va adolat tushunchalari. SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya haqidagi g'oyalari" savoli yuzasidan qisqa ma'ruza o'qiydi. Ekranga "T-sxemasi" jadvali chiqariladi va uning asosida talabalar bilan savol-javob uyushtiriladi (4-ilova). Javoblarni tinglaydi va xulosalaydi</p> <p>2.3. Kuchli tomonlarini tushuntiradi. FSMU texnologiyasidan foydalanib "Ijtimoiy adolatning makro (oilalar, mahalla, jamoalar) va mikro darajalari" savolini o'rtaga tashlaydi. (5-ilova) Berilgan javob fikrlarini umumlashtiradi qo'shimcha qiladi.</p>	<p>Tinglaydi, organayzerni to'ldiradi.</p> <p>Juftli guruxlarga bo'linib FSMU jadvalini to'ldiradi</p>
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalarning bilim va ko'nikmalari baxolanadi.</p> <p>3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun topshiriq beradi: "O'zbekistonda ijtimoiy adolat mezonlari va ijtimoiy himoyaning barqaror taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati" boshqarmasi funksiyasini yoritib keling.</p>	<p>Tinglaydi</p> <p>Topshiriqni yozib olishadi va bajaradi</p>

1-ilova

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq	Misollar bilan	Guruh a'zolari ning	Jami ball
----------	------------------	----------------	---------------------	-----------


	yoritilishi 0-5 ball	muammoga echim topishi 0-5 ball	faolligini 0-5 ball	

15 – 11 ball – «a'lo».
12 – 10 ball – «yaxshi».
9 – 6 ball – «qoniqarli».


2-ilova

O'quv vizual material

1-slayd



**Ижтимоий адолат тамойилининг жамият
хаётидаги ўрни**



O‘zbekistonda ijtimoiy himoya muamolari qanday hal etilmoqda

1. Buning uchun dastavval qonunlar tizimi yaratildi.

2. Keskin tabaqalanishdan holi bo‘lgan mulkdorlar sinfi shakllantirila boshlandi.

3. Iqtisodiy taraqqiyot inson manfaatlarini tomon yo‘naltirilyapti.

Ijtimoiy himoyaning davlat siyosatidagi o‘rnini belgilovchi sabablar

1. O‘zbekiston agrar mamlakat bo‘lib, uning ko‘pgina hududlarida ishlab chiqarishning texnologilashuvi endigina oyoqqa turmoqda.

2. Mamlakat aholisining 65% qishloqda yashaydi. Agrar sohaning yaxshi rivojlanmaganligi aholining bu qismi orasida himoyaga muhtoj oilalarning ko‘pligiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida ularni ijtimoiy himoyalash vazifasini qo‘yadi.

3. Mamlakat aholisi orasida yoshlar katta salmoqqa ega, bu esa yoshlarni ijtimoiy himoya tizimi orqali muhofaza qilishni talab etadi

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy himoya modellari

Skandinaviyacha model	Bismark modeli	Beqerij modeli
(Finlyandiya, SHvetsiya, Norvegiya)	(Germaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya)	(Angliya)
Asosiy qoidasi	Asosiy qoidasi	Asosiy qoidasi
Mamlakatlarda yashovchi barcha fuqarolar ijtimoiy ta'minlanish huquqiga ega	Jamiyat a'zolariga ijtimoiy ta'minot uchun zarur vositalarni ishlab topishga imkoniyat berish	Har bir fuqaro favqulodda holatlarda (kasallik, pensiya yoshi, o'lim, tug'ish va h.k.) ijtimoiy sug'urtali nafaqa va pul yordam bilan qamrab olinishi zarur
Bosh siyosiy maqsad – to'la-to'kis bandlikka erishish (davlat ma'suliyati)	Bosh siyosiy maqsad – daromadlarni himoyalash (xodim ma'suliyati)	Bosh siyosiy maqsad – minimal darajadagi daromadlarni himoyalash

Ijtimoiy muammolar va ularni hal etish tadbirlari

№	Ijtimoiy muammolar	Ularni hal etish tadbirlari
1.	Sotsial tabaqalashuv va qutblanish	Fuqarolar tomonidan o'zlari va oila a'zo larini sotsial xizmatlar bilan ta'minlash maqsadida ishlab topish imkoniyatlarining ortishi
2.	Kambag'allik	Xususiy tadbirkorlarni rivojlantirish orqali yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi
3.	Ishsizlik	Ishlab chiqarishda sotsial ehtiyojlarni qon dirishga mo'ljallangan xizmat va mahsulotlar ulushining ortishi
4.	Hududlarning tabaqalashuvi	Daromadlar tengsizligi va shaxsiy manfaat dorlikning ortishi
5.	Ta'lim tizimidagi muammolar	Ta'limning boshqa shakllarining kengayishi, ta'lim tizimini izchil isloh qilish.

“Blits-so'rov” savollari

1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida “Adolat”, “tenglik” tushunchalari.
2. Demokratik jamiyatda adolat va ijtimoiy himoyaning mushtarakligi.
3. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya siyosatining mazmun va mohiyati. Prezident I.A. Karimov asarlarida, ma'ruza va nutqlarida ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya va ijtimoiy kafolat masalalari qanday ifoda qilib berilgan?
4. Ijtimoiy adolat prinsiplari.
5. Ijtimoiy kafolat nima?
6. Ijtimoiy himoya tushunchasiga bo'lgan kandy turdagi munosabatlar mavjud.

T – SXEMA

Ijtimoiy himoya va adolat tushunchalari. SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya haqidagi g'oyalari

Ijtimoiy himoya	Ijtimoiy himoya to'g'risidagi g'oyalar

O'quv topshiriq

FSMU texnologiyasi qoidasi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingzni isbotlovchi dalil keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

FSMU texnologiyasi yordamida "Ijtimoiy adolatning makro (oila, mahalla, jamoalar) va mikro darajalari" savolini yo'naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida echish:

Savol	Ijtimoiy adolatning makro (oila, mahalla, jamoalar) va mikro darajalari"
(F)-Fikringizni bayon eting	
(S)-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M)-Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)-Fikringizni umumlashtiring	

11-MAVZU: MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARINING DEMOKRATIYALASHUVI

Reja:

- 1.O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining demokratiyalashuvi tushunchalari
- 2.O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat hokimiyatining o'zini
- 3.Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish
- 4.Mahalla faoliyatining qonuniy va tashkiliy asoslari hamda funksiyalari, uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari

Tayanch so'z va iboralar: *o'zini o'zi boshqarish, fuqarolar yig'ini, mahalla, mahalliy hokimiyat, hokim, deputat, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, nomarkazlashtirish.*

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvining nomarkazlashuvi natijasida o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyatning asosiy institutlaridan biriga aylandi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish (g'arbda "munitsipal" deyiladi) deganda, u yoki bu ma'muriy - hududiy birliklardagi aholi vakolatlarini ifodalovchi, shuningdek, saylangan organlar va ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish tushuniladi.

Mahalliy davlat hokimiyati demokratik tamoyillar asosidagi boshqaruvdir. Uning ihtiyoriga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning havfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal ho'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish¹¹⁴.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish nazariyasi dastlab XVIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Evropada paydo bo'ldi. Uning tabiati va jamiyatdagi o'zini mahalliy hokimiyatlar va o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolar tomonidan saylanish prinsipi g'oyalari bilan bog'liqdir. Yangi tarixning ilk davrida fuqarolar tomonidan saylanadigan o'zini o'zi boshqarish organlarining mustaqilligi konsepsiyasi, ularning qishloq jamoalari va shaharlardagi ishlarga rahbarlik qilishida markaziy hokimiyatga nisbatan alohidalik hamda boshqaruvning mustaqilligiga imkoniyat yaratadi. Bu organlarga davlat boshqaruvi sohasidan tashqaridagi alohida bir bo'g'in sifatida qarash ruzumga kirdi.

G'arb jamiyatshunos o'zini mahalliy o'zini o'zi boshqarishga doir tushunchalarning nazariy jixatlarini ham ishlab chiqqanlar. Unga binoan, «mahalliy boshqaruv» deganda, «davlat boshqaruvidan quyidagi barcha darajalarni, «mahalliy hokimiyat» deganda esa «saylangan kengash va uning ijroiya organlari vositasida o'z saylovchilari manfaatlarini ifoda etuvchi va harakat qiëuvchi tashkilotlar» tushuniladi. Shuningdek, «mahalliy o'zini o'zi boshqarish» esa - «milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy ahoëi manfaatlari asosida jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirishi va boshqarishi»dir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlariga quyidagi huquqiy ta'rif berildi: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular

¹¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: «Ўзбекистон», 2012, 27-28-б.

tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslaxatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi". Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi-fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir». Qo'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mashhur olim Aëeksis de Tokvilning talqinicha, "shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, baëki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksak-ki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. o'zini o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omiëidir. Oxir oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Miëlat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la oëmaydi».

XX asrning ikkinchi yarmida «umumiy farovonlik davlati» nazariyasi bilan bog'ëiq holda munitsipaë (o'zini o'zi boshqarishga doir) konsepsiya ham paydo bo'ldi. Munitsipaëitetlar jamiyatning barcha tabaqalari manfaatlarini ta'minëovchi va himoyaëovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraëdi. Evropa, SHimoliy Amerika va YAponiya kabi mamlakatlarda munitsipaë kengashlar maqomi huquqiy jixatdan munitsipaë ijroiya boshqaruvidan yuqori qo'yilgan bo'lib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qiëinmagan ayrim masaëalar bo'yicha me'yoriy qarorlar qabul qilish, mahalliy soëiqlarni joriy etish, qarzlar olish va ularni ishlatish masaëalarini hal etish, munitsipaëitetga qarashëi mulkni tasarruf etish, shuningdek, ko'pchilik davlatlarda munitsipaëitetning ijroiya rahbarlik organlarini tashkil etish va ularni nazorat qilish, mahalliy referendumlarni uyushtirish AQSH ijtimoiy-siyosiy hayotida ham munitsipaëitetlar muhim o'rin egallaydi. CHunki, bu mamlakatda munitsipaë boshqaruv funksiyalarini nomarkazlashtirish prinsipi keng qo'ëlaniladi. Munitsipaë maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, sanitariya ishlari, suv bilan ta'minlash, parklar, yong'inga qarshi xizmatlarni boshqarish asosan munitsipaë kengashlar tasarrufidadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) kengashlar o'z vakolatlarini ijroiya organlarga berish huquqiga ham egadirlar.

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. SHuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla)ning o'rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, —...o'zini o'zi boshqarish organlari - bizning kelajagimiz. Fuqarolik jamiyatini qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar bo'ladi. Biz bugun ana shu asoslarni qurishni boshladik!1.Ko'pchilik mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jiplashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko'rib turibmiz.

O'zbekistonda fuqarolar o'zini o'zi boshqaruvini amalga oshirishda mahalla o'rnak bo'ladi. Mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish uchun yagona maqsad

bilan yashab, faoliyat ko'rsatish makoniga aylangan. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avlod-dan-avlodga etkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ularni ezgulik yo'lida jiplashtiruvchi va birlashtiruvchi katta va muqaddas oila hisoblanadi.

Mahalla tuzilmasi va funksiyasi vaziyatga qarab o'zgarib turgan, ammo u o'zini o'zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o'z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan. Mustaqillik yillarida mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda.

Mahalla, umuman, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholinini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilishidadir. Bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlarda munitsipal tuzilmaning aholisi – —hududiy ommaviy jamoal, —hududiy jamoal, —mahalliy hamjamiyat tushunchalari bilan belgilanadi. V.E. CHirkinning ta'rificha, hududiy ommaviy jamoa – aholini hududiy mansublik belgisi bo'yicha tashkil etishning maxsus shakli va odamlarning fuqaroligi va yoshidan qat'i nazar maxsus uyushmasidir. Hududiy ommaviy jamoa sifatida u davlatni tashkil etgan jamiyatlar, ularning ichida tuzilishi mumkin bo'lgan va tashkil etilayotgan boshqa hududiy ommaviy jamoalar: federatsiya sub'ektlari, siyosiy avtonomiyalar, munitsipal tuzilmalarning aholisi (xalqi)ni ajratadi 1.

2015 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra respublika hududida 9 787 ta fuqarolar yig'ini faoliyat ko'rsatmoqda, jumladan, 189 ta shahar fuqarolar yig'ini, 1295 ta qishloq, 157 ta ovul va 8 146 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridir. O'rta hisobda har bir fuqarolar yig'ini 3 mingga yaqin kishini qamrab oladi. Bugungi kunda fuqarolar yig'ini raisi lavozimida 1255 nafar ayol faoliyat yuritib, umumiy raislar sonining 12,8% ni tashkil etadi. Aksariyat fuqarolar yig'ini raislari (54,6 %) oliy ma'lumotga egabo'lib, hududlar miqyosida eng yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida - 72,3%, Qoraqalpog'iston Respublikasida - 77,1%, Toshkent shahrida –77% ni tashkil etadi.

Hozirgi kunda har bir fuqarolar yig'inidagi shtat lavozimida fuqarolar yig'ini raisi, diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, ma'sul kotib va —Mahalla posbonil jamoat tuzilmasi rahbari – jami 40 mingga yaqin kishi faoliyat ko'rsatmoqda. Undan tashqari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida jamoatchilik asosida fuqarolar yig'inining obro'li va hurmatga sazovor a'zolari o'rtasidan saylangan maslahatchilar faoliyat yuritadi, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha saylangan komissiyalarga rahbarlik qiladi. Ularning soni 100 ming kishiga yaqin.

O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'lab quvvatlashda Respublika —Mahallal xayriya jamoat fondining roli katta. Respublika —Mahallal xayriya jamoat fondi 1992 yilda tashkil etilgan bo'lib, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini mustahkamlashda, ularning qonunchilikda belgilangan huquq va vakolatlarini samarali tatbiq etishda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi o'rni yuksaltirishga ko'maklashadigan etakchi jamoat tashkiloti hisoblanadi. Ushbu jamoat fondi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi ishchi organi maqomiga ega. O'z navbatida —Mahallal xayriya jamoat fondining hududiy bo'linmalari maqomiga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy kengashlar ishchi organlari hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari faoliyati mamlakat aholisi tomonidan keng miqyosda qo'llab- quvvatlanishga va Hukumatning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. 2010-2013 yillar davomida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining 150 nafarga yaqin xodimi turli davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan. 2014 yilda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari 27 nafar xodimi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. 2014 yil 21 dekabrda bo'lib o'tgan saylovlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining 692 nafar xodimlari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga, 29 nafari viloyat Kengashi

deputatligiga va 3 nafari Oliy Majlis Senati a'ziligiga saylanganlar. Bu fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida bugungi kunda hurmat va ehtiromga loyiq insonlar faoliyat yuritishayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab berilgan o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi moddalar (32, 105-moddalar) konstitutsiyaviy tuzumning asoslaridan biridir. 1999 yilda qabul etilgan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvi, mustaqilligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanganligi (1-modda), o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi (7-modda) ta'kidlangan edi.

O'zini o'zi boshqarish jamiyat siyosiy tizimining tarkibiy qismi (elementi) sifatida belgilab qo'yilganligi O'zbekistonda shaxs va davlat manfaatlari bilan birgalikda mahalliy manfaatlar ham tan olinadi va kafolatlanadi, bu esa mahalliy aholi (shahar, shaharcha, ovul va boshqa joylardagi aholi)ning hayoti va faoliyatini bevosita ta'minlash masalalarini hal etish bilan bog'liqdir. Ayni vaqtda bu manfaatlarining hammasi (ya'ni jamiyat, davlat manfaatlari va mahalliy manfaatlar) teng huquqli deb qaraladi.

Huquqning yangi tarmog'i bo'lmish o'zini o'zi boshqarish huquqi vujudga kelish va rivojlanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Uning shakllanishi o'zini o'zi boshqarish organlarining vujudga kelish va rivojlanish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. O'zini o'zi boshqarish organlari o'zbek xalqi hayotida, davlat va jamiyat ishlarini boshqarish umumiy tizimida alohida o'rin kasb etayotganligi sababli o'zini o'zi boshqarish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus huquq sohasini yaratish ehtiyoji yuzaga keldi.

O'zbekistonda milliy huquq tizimining bir soxasi sifatida o'zini o'zi boshqarish huquqini vujudga kelishiga quyidagi omillar asos deb hisoblaymiz:

1. Mustaqillik yillarida respublikamizda o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarning barqaror va ko'p qirrali guruhi vujudga keldi.

Ayni mana shunday munosabatlar respublika huquq tizimidagi yangi tarmoq - o'zini o'zi boshqarish huquqining predmetini tashkil etadi.

Keyingi bir necha yil mobaynida o'zini o'zi boshqarishning ahamiyati muttasil oshib bordi: u alohida huquqiy institut maqomidan siyosiy-huquqiy fenomen darajasigacha ko'tarildi, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asoslaridan biri bo'lib qoldi.

SHu jihatdan olganda o'zini o'zi boshqarishning ahamiyati turli shakllarda namoyon bo'ladi. ***Uni xalq hokimiyatining bir shakli; fuqarolik huquqlarini amalga oshirish usuli; jamiyat va davlatni idora qilish tizimidagi tashkiliy va funksional jihatdan alohida institut, deb ta'riflash mumkin.***

Mazkur institutning ahamiyatini qisqacha ko'rib chiqamiz. O'zini o'zi boshqarish ***xalq hokimiyatining bir shaklidir.*** Davlat hokimiyati bilan bir qatorda o'zini o'zi boshqarish O'zbekistonda yagona xalq hokimiyatini ifodalaydi. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddasidan kelib chiqadi (105-modda).

O'zini o'zi boshqarish organlari o'z huquqlarini amalga oshirishda xalq xohish-irodasini bevosita izhor etuvchi institutlarga (o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkaziladigan saylov va boshqa tadbirlarda qatnashish), shuningdek o'zini o'zi boshqarish organlari va ularni boshqaruvchi shaxslarga tayanadi.

Fuqarolik huquqlarini amalga ***oshirish usuli sifatida maxsus konstitutsion normalar*** tizimi orqali amalga oshiriladi va bu normalarda o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash va saylanish, jamiyat va davlat ishlarini idora qilishda qatnashish (32-modda), o'zini o'zi boshqarish organlariga shaxsan murojaat etish, yakka holda va jamoa bo'lib murojatnomalar yuborish huquqi mustahkamlab qo'yilgan. SHunday tarzda fuqarolarning shaxsiy huquqlaridan tashqari asosan jamoa bo'lib amalga oshiriladigan ko'pgina yuridik kafolatlar tizimi belgilab qo'yilgan. Mahallani tuzish, qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining tashbusiga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi («Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari» to'g'risidagi Qonunning 5-moddasi). Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish orqali amalga oshiriladigan huquq va erkinliklar g'oyasi

xilma-xil ekanligini hisobga olganda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mazkur institut shaxs bilan o'zaro munosabatlar asosida talqin etiladi.

Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Asosiy Qonunining 32-moddasidan kelib chiqadi, unda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqlari belgilab qo'yilgan. O'zini o'zi boshqarish jamiyat va davlatni idora qilish tizimida tashkiliy va funksional jihatdan alohida tarzda ifodalab berilganligi O'zbekiston taraqqiyotining avvalgi davriga nisbatan mutlaqo yangi qoidadir

2. ***O'zini o'zi boshqarish huquqi tarmog'i vujudga kelishining ikkinchi omili - mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etish va ularning faoliyatini tartibga solish sohasidagi huquqiy normalarning miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan yangilanishidir.*** Mustaqillik yillarida o'zini o'zi boshqarish konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi (32, 105-moddalar). Ayni vaqtda O'zbekiston Konstitutsiyasi asosida o'zini o'zi boshqarishning huquqiy asoslarini, o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi va ularning vakolatlarini belgilovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, qabul etildi.

1993 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi, 1999 yil aprel va 2004 yil oktyabrda va 2013 yil 15 martda bu Qonunga qo'shimcha va tuzatishlar kiritildi.

Qonunda fuqarolar o'zini o'zi boshqarishi tizimi rivojlantirildi va unga aniqlik kiritildi. SHu tariqa mazkur Qonun o'zini o'zi boshqarish huquqining eng muhim manbai va uni rivojlantirishning huquqiy negizi bo'lib qoldi.

2004 yilda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar yig'ini raisini va uning maslahatchilarini saylash to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. 2013 yil 15 martda bu Qonunga qo'shimcha va tuzatishlar kiritildi

O'zini o'zi boshqarish huquqining normalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarida va hukumat qarorlarida bayon etilgan. Masalan, «Respublika «Mahalla» jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi 1992 yil 12 sentyabr farmoni; «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 1998 yil 23 fevral farmoni; «Aholiga aniq mo'ljalli ijtimoiy yordam ko'rsatishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish to'g'risida»gi 1999 yil 23 yanvar farmoni; Vazirlar Mahkamasining «Mahalla posboni» jamoat tuzilmalari to'g'risidagi 1999 yil 19 aprel, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtiruv komissiyalari to'g'risida»gi 1999 yil 19 aprel qarorlari va boshqa hujjatlar.

Yuridik normalar, yo'l-yo'riqlarning hajmi g'oyat oshganligi o'zini o'zi boshqarish huquqi tarmog'ini tartibga soluvchi munosabatlarning salmog'i o'sib borayotganligining natijasidir. Hozir Respublikada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari 14 mingdan oshdi, bu sohadagi normalar tinimsiz takomillashib bormoqda. Bu holat ham o'zini o'zi boshqarish sohasidagi yuridik qoidalarni har taraflama ishlab chiqish zaruratini tug'dirmoqda.

SHunday qilib, o'zini o'zi boshqarishni tartibga soluvchi normativ hujjatlar miqdori ancha ko'paydi. Buning ustiga o'zini o'zi boshqarish sohasidagi ishlarni huquqiy tartibga solish predmeti va usuli jihatidan bir-biridan farq qiladigan turli huquq tarmoqlarining normalari o'rtasidagi aloqalar ancha jadallashdi va murakkablashdi. Ehtimol, kelgusida o'zini o'zi boshqarish sohasida amal qiluvchi yuridik qonun-qoidalarni kodifikatsiyalash¹¹⁵ va inkorporatsiyalash¹¹⁶ zarur bo'lib qolishi mumkin. Mazkur jarayon ham O'zbekiston Respublikasi o'zini o'zi boshqarish huquqining alohida huquqiy tarmog'ini shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

3. O'zini o'zi boshqarish huquqi muammolarini ishlab chiqish O'zbekistonda huquqning, qonunchilikning, va yuridik fanning ma'lum darajada rivojlanishi bilan bog'liqdir.

O'zini o'zi boshqarish huquqi muammolarini ishlab chiqish ikki yo'nalishda olib borilmoqda.

¹¹⁵ Кодификация-амалдаги қонунлар ва норматив ҳуқуқ ҳужжатларини музмунаи ишлаб уларни бир бутунликка келтириш жарағни.

¹¹⁶ Инкорпорация-амалдаги қонунлар ва норматив ҳужжатларни тартибга солиб тўғлам ҳолига келтириш.

Birinchi yo'nalish yangi tarmoqni nazariy jihatdan asoslash, uning predmeti, uslubiyati (metodi), manbaini aniqlash bilan bog'liqdir. Hozirgacha mazkur muammoga oid tadqiqot materiallari e'lon qilindi, monografiya va dissertatsiya ishlari paydo bo'ldi. Ammo ilmiy izlanishlar hali ilk bosqichda turgan bo'lsa ham, har bir yangi ish o'zini o'zi boshqarish huquqi tarmog'ining maqomini aniqlash sari ilgari lab bormoqda.

O'ZINI O'ZI BOSHQARISHNING HUQUQIY NORMALARI VA INSTITUTLARI

O'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etish jarayonida va ularning faoliyatida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydigan va tartibga soladigan huquqiy normalar o'zini o'zi boshqarish huquqi normalari, deb ataladi.

O'zini o'zi boshqarish huquqi normalari majmuasi O'zbekiston Respublikasi huquqining bir tarmog'i sifatida o'zini o'zi boshqarish huquqini hosil qiladi. O'zini o'zi boshqarish huquqi tamoyillari, institutlari va normalari ushbu tizimning tarkibiy qismlaridir.

Odatda, huquqiy normalar davlat va uning organlarining huquq ijod qilish faoliyati natijasida yuzaga keladi. Davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydigan o'zini o'zi boshqarish organlarining normativ hujjatlarida bayon etilgan va hammaga majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalari o'zini o'zi boshqarish huquqi normalarining kattagina qismini tashkil etadi. «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining o'z qaramog'idagi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqini mustahkamlaydi (19-modda).

O'zini o'zi boshqarish huquqini hosil qiluvchi normalarning xususiyati yana shundan iboratdirki, o'zini o'zi boshqarish huquqi-ayni vaqtda huquqning asosiy tarmoqlari, chunonchi Konstitutsiyaviy (davlat) huquqi, fuqarolik huquqi, moliya huquqi kabilarning normalari ham hisoblanadigan huquqning kompleks tarmog'idir.

O'zini o'zi boshqarish huquqi normalari xususiyatlarini tushunib olish uchun ularni quyidagicha tasniflash zarur:

- huquqiy tartibga solish ob'ekti bo'yicha, ya'ni tartibga solinadigan munosabatlar qoidasi bo'yicha huquqiy normalar:

- xalq hokimiyati tizimida o'zini o'zi boshqarishni (o'zini o'zi boshqarish tushunchasi, tamoyillari, funksiyalari);

- o'zini o'zi boshqarish faoliyatining asoslarini (hududiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy asoslarini);

- o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yuritish va ularning vakolatlari predmetlarini, o'zini o'zi boshqarish kafolatini;

- o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining mas'uliyatini mustahkamlaydigan qoidalarga bo'linadi.

Yo'l-yo'riqlarning xarakteri bo'yicha ular:

- boshqaruv vakolatlari (normalar, o'zini o'zi boshqarish organlari nimalar qilishi lozimligini belgilaydigan, masalan, bu sohadagi ishlarni aniqlaydigan ijozatlar)ga;

- majburiyat yuklaydigan normalar (nimalar qilish kerakligi haqidagi yo'l-yo'riqlar)ga;

- ta'qiqlovchi normalar (nimalar qilish kerak emasligini belgilaydigan ta'qiq normalari)ga bo'linadi.

So'nggi ikki normani quyidagicha izohlash mumkin: o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari aholi oldida hisob berishlari, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining hisobotlarini tinglashlari lozim. Majburiyat yuklovchi deb atalgan mazkur normalarda davlatning o'zini o'zi boshqarish organlari xususidagi majburiyati, o'zini o'zi boshqarish huquqi sub'ektlarining majburiyatlari ham belgilab qo'yiladi. O'zini o'zi boshqarish huquqini cheklash, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatiga aralashish hollarini man etuvchi normalar ta'qiqlovchi normalar hisoblanadi.

O'zini o'zi boshqarish huquqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e'lon qilingan va "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda ifodalab berilgan qoidalarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi shaharcha, qishloq, ovullarda, shuningdek shahar va tumanlarning mahallalarida o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil etiladi (105-modda). O'zini o'zi boshqarish organlari o'z maqomini va o'z organlarining maqomini mustaqil ravishda belgilaydilar (5,7,10-moddalar);

- o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarining aholi huzurida hisobot berishi va mas'uliyati (24,25-moddalar);

- o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari fuqarolar va yuridik shaxslar (tegishli hududda joylashgan muassasalarning mansabdor shaxslari) tomonidan bajarilishi majburiydir; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qarorlarini bajarmaslik yoki ularning qarorlari davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan bekor qilinishi mumkin emas, bu qarorlar faqat sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas, deb topilishi mumkin (19-modda).

O'zini o'zi boshqarish huquqi tarmog'iga jamlangan huquqiy institutlar o'zini o'zi boshqarishning turli jihatlari bilan bog'liq bo'lgan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar guruhlaridan iborat. *O'zini o'zi boshqarish huquqi institutlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'zini o'zi boshqarishning hududiy asoslari; o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari; mahalliy ahamiyatga molik masalalar va o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, o'zini o'zi boshqarish organlarining saylovlari va mahalliy referendum, o'zini o'zi boshqarish organlarining mol-mulki va shu kabilar.*

Shunday qilib, *o'zini o'zi boshqarish huquqidagi huquqiy institut o'zaro bog'liq ijtimoiy munosabatlarning muayyan doirasini tartibga soluvchi va o'zini o'zi boshqarish huquqi predmeti doirasida alohida, mustaqil guruhni tashkil etuvchi huquqiy normalarning majmuasidan iboratdir.*

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» gi Qonuni davlat boshqaruvi tizimida o'zini o'zi boshqarish organlarining maqomini (7-modda) belgilaganda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi, deb ta'kidlaydi. O'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslarining davlat organlari va ular mansabdor shaxslari bilan o'zaro munosabatlariga asos qilib olingan bu qoidada ko'zda tutilishicha, o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishi, nomlanishi, vakolat doirasi davlatning aralashuvisiz mustaqil ravishda, mahalliy manfaatlarga javob beradigan tarzda belgilanadi.

O'zini o'zi boshqarishning tabiati, uning davlat hokimiyati bilan o'zaro munosabatlari haqida turli fikr-mulohazalar bildirilmoqda.

O'zini o'zi boshqarish mustaqilligi naqadar demokratik bo'lmasin, u mutloq mustaqillik bo'lishi mumkin emas, chunki o'zini o'zi boshqarish yagona davlat doirasida ommaviy hokimiyat munosabatlari tizimida mavjud bo'ladi va amal qiladi. Darhaqiqat, mahalliy masalalarni hal etishdagi muayyan mustaqillikni inkor qilib bo'lmaydi, ammo u yagona davlat iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy siyosatining yo'nalishidan tashqarida o'tkazilishi mumkin emas. Odamlarning hayotiy manfaatlarini shaharcha, qishloq ovul va mahallalar aholisining kundalik ishlarini davlat manfaatlaridan tashqarida tasavvur etib bo'ladimi, axir. Davlatning o'zi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida «inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat» deb e'lon qilgan.

O'zini o'zi boshqarish davlat tizimidan – hokimiyat munosabatlaridan tashqarida bo'lishi va davlatdan mutlaqo mustaqil bo'lishi mumkin emas. Davlat mexanizmida o'zini o'zi boshqarishning hozirgi holatiga xos bo'lgan ko'pgina ob'ektiv tamoyillar shundan dalolat beradiki, davlat manfaatlarini mahalliy manfaatlarga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, chunki bu manfaatlar bir-biriga zid bo'lishi mumkin emas. Davlat manfaatlari ham, mahalliy manfaatlar ham aslida mamlakatning umumiy manfaatlaridir. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida bu organlar davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi

degan qoida, bizning fikrimizcha, o'zini o'zi boshqarish organlarini davlat organlaridan ajratishga, o'zini o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy tabiatini ta'kidlab ko'rsatishga intilishdir. Bu qoida ko'proq siyosiy xarakterda bo'lib, aniq huquqiy voqelik tilida uni ifodalash juda qiyin. Qonunning birinchi moddasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarishi-fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir, degan qoida ham shu fikrning isbotidir.

Ayni vaqtda davlat hokimiyati bilan o'zini o'zi boshqarish munosabatlarida ba'zi bir muammo va chigalliklar bor. Mustaqillik va markazlashtirish, o'zini o'zi boshqarish va davlat hokimiyati bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalardir, buning ustiga o'zini o'zi boshqarish sohasidagi davlat siyosatini o'tkazishda davlat organlari va mansabdor shaxslar yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklar ularning o'rtasidagi munosabatlarni chigallashtirmoqda, shuning natijasida ba'zi bir qiyinchiliklar kelib chiqmoqda.

Afsuski, qonunchilik faoliyatiga qo'yiladigan majburiy talablarga hamisha ham rioya etilmayotganligini qayd qilishga to'g'ri keladi. SHuning oqibatida bu sohadagi ayrim qonunlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq kelmay qolmoqda. CHunonchi, o'zini o'zi boshqarish organlari vakolati bo'lgan va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni tartibga solishga intilish, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda aholining bevosita ishtiroki shakllarini belgilash tartibi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazish qoidalari puxta ishlab chiqilmaganligi o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi qonunchilik sohasida tez-tez uchraydigan kamchiliklardir. Bu sohadagi qonunlarda uchraydigan kamchiliklarning xarakteri va mazmuni o'zini o'zi boshqarish organlarining mustaqilligi va tashabbusiga oid qoidalarga zid bo'lib, bu organlarni tuzish va takomillashtirish yo'lida qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Masalan, Farg'ona va Andijon viloyatlarida o'zini o'zi boshqarish organlarini jamoat jamg'armalariga, («Mahalla» xayriya jamg'armasiga, hokimliklar huzuridagi xotin-qizlar qo'mitalariga) bo'ysundirish xolatlari, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida o'zini o'zi boshqarish organlariga yo'riqnomalar, ko'rsatmalar ishlab chiqilishi, saylov o'tkazish sanalari belgilab qo'yilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Surxondaryo viloyatida viloyat va tuman hokimlarining qarori bilan yig'in raislarini lavozimidan chetlashtirishi, aholining fikrini hisobga olmay turib o'zini o'zi boshqarish tuzilmalarini tugatishga, chegaralarini o'zgartirishga yo'l qo'yilishi – shular qatoridan.

Bularning hammasi mazkur organlarning vakolatlariga aralashuvdir.

O'zini o'zi boshqarishning davlat hokimiyatiga xos bo'lgan bir qancha belgilari ham bor: ***jumladan, o'z hududida hokimiyatni amalga oshiradigan alohida apparati bor, ularning faoliyati uzluksiz va universal tarzda davom etadi, qonunlarga va normativ hujjatlarga asoslangan bo'ladi, boshqaruvni muayyan hududda amalga oshiradi, aholidan ixtiyoriy yig'im to'plash haqida qaror qabul qiladi, o'z byudjetini shakllantiradi.***

Ayni vaqtda o'zini o'zi boshqarish hududi davlat hududi bo'lib, unda yashaydigan aholi shu davlatning fuqarolaridir.

Yana bir qancha holatlar hisobga olinishi zarur: o'zini o'zi boshqarish maqomi davlat tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va davlat hokimiyati organlari qabul qiladigan qonunlarda belgilab beriladi; ularning maqomi davlat hokimiyati organlari tomonidan himoya qilinadi; mahalliy ishlar mustaqil ravishda bo'lsa ham, ammo yagona davlat siyosati yo'nalishida hal etiladi; mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari barcha tegishli shaxslar va muassasalar tomonidan ijro etilishi majburiydir; o'zini o'zi boshqarish organlariga davlatning ayrim vakolatlari o'tkazilishi mumkin va xokazo.

Bundan tashqari o'zini o'zi boshqarish organlari o'z qonunchilik hokimiyatini amalga oshirish huquqiga ega emas. O'z hududi uchun bu masalalar yuzasidan umumiy qonunlar o'rnini oladigan qonun chiqarish huquqining yo'qligi o'zini o'zi boshqarishni davlat hokimiyatidan ajratib turadigan muhim mezondir. O'zini o'zi boshqarish organlari umumiy xarakterdagi harakat qoidalari

bayon etilgan normativ hujjatlar chiqarishi mumkin, albatta. Ammo bu hujjatlar, o'z tabiatiga ko'ra, qonun emas, balki qonun - osti hujjatlari hisoblanadi.

O'zini o'zi boshqarish organlarining nodavlat xarakterini asoslaganda ularning tizimida qat'iy tabaqalashuv va o'zaro bo'ysunish yo'qligi; ular davlat nomidan ish ko'rmasligi; mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z hududining rivojlanish xususiyatlariga asoslanib hal etishi ularning moddiy-moliyaviy negizini o'zini o'zi boshqarish mulki va byudjeti tashkil qilishi; ular aholiga juda yaqinligi kabi belgilar dalil qilib ko'rsatiladi.

Shunday qilib, *o'zini o'zi boshqarish hokimiyati – o'ziga xos hokimiyat munosabatlari tizimidan iborat ekanligini, mahalliy o'zini o'zi boshqarish vazifalari uning o'z apparatlari orqali amalga oshirilishini ta'kidlab o'tmoq kerak. U ijtimoiy va ayni vaqtda ommaviy hokimiyatning bir turi (jamiyat ustidan hokimiyat) bo'lib, o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari doirasida faoliyat yuritadi. Bu faoliyat mahalliy tuzilma nomidan va huquq normalari asosida o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zini o'zi boshqarish hokimiyatini mahalliy tuzilma maqomini belgilovchi normalarga mos keladigan ijtimoiy munosabatlar shakli deb ta'riflash mumkin.*

FUQAROLAR O'ZINI O'ZI BOSHQARISHNING ASOSIY FUNKSIYALARI

a) Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda aholining ishtirokini ta'minlash funksiyasi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy vazifasi mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'lganligi sababli, aholining ushbu faoliyatda qatnashishini ta'minlashi zarur. Bu quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

a) saylov orqali shakllangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (fuqarolar yig'ini)ning mavjudligi;

b) mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda bevosita demokratik institutlarga asoslanishi;

v) mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish uchun moddiy-moliyaviy bazaning mavjudligi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda qatnashishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 3-moddasiga asosan, fuqarolar - jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar - bevosita hamda o'zlarining saylab qo'yiladigan vakillari orqali o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqlarga egadirlar.

Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda fuqarolar ishtirokining turli xil shakllari mavjud. Demokratiyaning muhim quroli bo'lmish mahalliy saylov ham ushbu shakllarning biri bo'lib, bunda faqat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari uchun saylovlar o'tkaziladi.

Fuqarolar bunda aktiv va passiv saylov huquqiga ega bo'ladilar. Aktiv saylov huquqida - fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslarini saylashga, passiv saylov huquqida esa - huddi mana shu mansablarga saylanishga haqli bo'ladilar.

Demokratik prinsiplarga asoslangan, ochiq va o'z muddatida o'tkazilayotgan o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar mahalliy aholi xohish-irodasining nufuzli vositasidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishini amalga oshirish – ular saylagan organlar orqali ham ta'minlanadi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga saylanishda teng huquqga ega.

CHunki, o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslarni saylash – ovoz berish yordamida shakllantirish usuli, demokratiyaning ishonchli qurolidir. Fuqarolar yig'ini – aholi manfaatlarini ifodalovchi o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishga fuqarolarni keng ko'lamda jalb qiladi.¹¹⁷

O'zini o'zi boshqarish demokratik institut sifatida rivojlanishi mahalliy aholi bilan o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun (27-modda) fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini qayta tashkil etish va ularning faoliyatini fuqarolar yig'inining qaroriga muvofiq tugatishni ko'zda tutadi.

O'zini o'zi boshqarish faoliyatida oshkoralik prinsipini ta'minlash mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda aholining keng ko'lamda qatnashishi, o'zini o'zi boshqarish organlari va ular mansabdor shaxslarining ishlarini nazorat qilishi muhim shartdir.

b) O'zini o'zi boshqarish organining mulki va moliyaviy asoslarini boshqarish funksiyasi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 23-moddasiga binoan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan qurilgan, olingan yoki qonunda belgilangan tartibda ularga berilgan jamoat, ijtimoiy-maishiy va boshqa maqsaddagi ob'ektlar, shuningdek, transport vositalari, xo'jalik anjomlari va boshqa ko'char hamda kuchmas mulklar ularning mulki hisoblanadi.¹¹⁸ Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z mulkini o'zi uchun zarur bo'lgan tarzda va istalgan vaqtda ishlatish huquqiga egadir. Davlat bu huquqni tan oladi. Bu, albatda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mablag'ini ko'r-ko'rona, bo'lar-bo'lmasga sarf qilishi mumkinligini bildirmaydi, balki o'z mablag'laridan unumli va samarali foydalanishini nazarda tutadi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mulkiga egalik qilishda *fuqarolar yig'ini* asosiy o'rin tutadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunda ta'kidlanishicha, *fuqarolar yig'ini* - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mablag'larini shakllantiradi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi; obodonlashtirish ishlarini o'tkazish umumiy foydalanishdagi joylarni ta'mirlash, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarning uylari va kvartiralarini ta'mirlashda yordam ko'rsatish uchun aholidan ixtiyoriylik asosida mablag' yig'ish to'g'risida qarorlar qabul qiladi. Bu funktsiyaning ahamiyati katta ekanligi shubhasizdir.

Mahalliy aholining har biri fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mulki va moliyaviy vositalari qanday maqsadlarda sarflanayotganligi to'g'risida axborot olishga haqlidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z mulki bo'lgan ob'ektlarni vaqtinchalik yoki doimiy foydalanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berishga, ijaraga topshirishga, belgilangan tartibda o'z tasarrufidan chiqarishga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq, ushbu mol-mulk bilan bog'liq boshqa bitimlarni tuzishga haqlidir.¹¹⁹

Qonun fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy asosini mustahkamlab qo'ygan. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi uning o'z mablag'laridan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda ajratilgan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan tashkil topadi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag'lari bank muassasasidagi mustaqil hisob varaqda saqlanadi. Ushbu organlar bu mablag'dan belgilangan tartibda mustaqil foydalanadi. Mazkur mablag'larning olib qo'yilishi mumkin.

Fuqarolar yig'inining kengashi moliyaviy mablag'lardan foydalanganlik to'g'risida yilning har choragida hisobot beradi.¹²⁰

v) Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hududlarining kompleks ravishda rivojlanishini ta'minlash funksiyasi - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish hududlari - shaharcha, qishloq, ovul va mahallalar o'zida turlicha xilma-xillikni aks ettiradi, ya'ni biri-biriga o'xshamaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish o'z tasarrufidagi butun hududning, iqtisodiy-madaniy, ekologik sohalarida kompleks tarzda rivojlanishini ta'minlashi zarur, shu bilan birga, tabiiy va

¹¹⁸ Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бoshqarish organlari to'g'risida»ги Қонуни. Тошкент. 2003 й. 23-модда.

¹¹⁹ Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бoshqarish organlari to'g'risida»ги Қонуни. Тошкент. 2003 й. 23-24-моддалар.

¹²⁰ Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бoshqarish organlari to'g'risida»ги Қонуни. Тошкент. 2003 й. 24-модда.

boshqa mahalliy resurslardan foydalanish orqali hayot va yashash uchun normal sharoit yaratishi lozim.

Hududni kompleks ravishda rivojlantirish uchun, avvalambor, reja ishlab chiqilishi zarur. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 12-moddasiga binoan, shaharcha, qishloq, ovul va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlash, aholi yashaydigan punktlarni obodonlashtirish va ularning sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejasini tasdiqlaydi.

Hududni kompleks ravishda rivojlantirish bevosita moliyaviy asosga bog'liq.

g) Aholining ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy-kommunal va kundalik hayot uchun muhim boshqa ehtiyojlarini qondirish.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining asosiy vazifalaridan biri aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratib berishdir.

Aholining qulay sharoitda yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratib berish, mahalliy infratuzilmani rivojlantirishda asosiy o'rinlardan birini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari egallaydi.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yilgan ushbu funktsiya hozirgi kunda dolzarb bo'lib turibdi.

Aholini maishiy-kommunal soha bo'yicha ijtimoiy himoya qilishda davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga katta imkoniyatlar berdi, chunonchi kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning belgilangan tushumlari 100 foiz ta'minlangan taqdirda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga to'plangan mablag'ning 20 foizini, 75 foiz ta'minlaganda esa 10 foizini uy-joy va kommunal xizmatlar haqini to'lashda kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini rag'batlantirish, shuningdek mahalla, posyolka, qishloq va ovullarni obodonlashtirish uchun foydalanishga sarflash huquqi berildi.

d) Jamoat tartibini saqlash funksiyasi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 13-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududda jamoat tartibini saqlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishini hisobga olishni tashkil etishda, o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishida, voyaga etmaganlarning huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashishi belgilab qo'yilgan.

Jamoat tartibi huquqiy-ma'naviy normalar bilan hamda axloq, odob, urf-odat qoidalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.¹²¹ Bu umumdavlat funksiyasi hisoblanib, o'zida O'zbekiston Respublikasida qonuniylikni ta'minlash va huquqiy tartibotni o'rnatishni aks ettiradi.

Jamoat tartibi fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun bir muhit hisoblanadi, aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi esa jamoat tartibini doimiy ravishda bir xilda tekis holda saqlab turish uchun zarur bo'lgan o'zakdir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishda fuqarolarning ongli ishtirok etishini maqsad qilib, 1999 yil 15 martda Vazirlar Mahkamasining 113-sonli qarori qabul qilinib, respublikamizning barcha hududlarida "Mahalla posboni" jamoat tuzilmalari tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlardan asosiy maqsad yurtimizning yanada rivojlanishi, xalqimizning erkin va farovon hayotga erishishi, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga erishishdir.

Mazkur strategik va dasturiy vazifalarni amalga oshirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini demokratiyalash va erkinlashtirishdan iborat. Bu borada hokimiyat tarmoqlarining bir-biridan mustaqil ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mahallaga bosqichma-bosqich topshirish, ularning bajaradigan ishlari doirasini kengaytirish asosiy vazifalar hisoblanadi. Bunda

¹²¹ Алимов Х.Р., Маъмурий ҳуқуқ, Дарслик -Т.: Адolat, 2001.84-бет.

eng muhimi kasbi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, aholi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq va mavqeini oshirish, uni boshqarish tizimining samarali shakli va modelini yaratish, yangi davr talablari asosida isloh etish dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Fuqarolik jamiyatini qurish davrida davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'zini o'zi boshqarish organlariga topshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularni mahallalar faoliyatining mazmuni, maqsad-muddaosiga moslash, bu ishni ro'yobga chiqarishning mexanizmi, huquqiy kafolatlar tizimini yaratish talab etiladi. Bu yo'ldagi dastlabki dasturlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 2 iyundagi Farmoniga asosan tayyorlangan «XXI asr mahallasi» konsepsiyasidir. Ushbu konsepsiya o'zini o'zi boshqarish organlari-mahallalarning huquqlarini kengaytirish, jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini ko'tarishga, rivojlantirilgan va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan modelini yaratishga hamda shu orqali davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan.

XXI asrda fuqarolik jamiyati tamoyillariga mos ravishda xalqning o'z turmushi va butun jamiyat hayotini tashkil etish va boshqarishda faol qatnashishi uchun shart-sharoit yaratish, milliy tabiatimizga mos bo'lgan o'zini o'zi boshqaruvchi mahallani rivojlantirish hamda uning mavqeini oshirish-davlat va jamiyat qurilishidagi demokratik islohotlarning muhim jihatlaridan biridir.

Mahallalardagi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining samarali faoliyat yuritishi aholi keng qatlamlarining tashabbuskorligini oshirishga, xalqimizning ulkan aqliy va ma'naviy salohiyatini mumkin qadar ko'proq jalb etishga imkon beradi.

«XXI asr mahallasi» konsepsiyasining nazariy asosini davlatimizga fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish siyosati belgilab beradi.

Mahallalardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mavqeini belgilab beruvchi nazariy qoidalar amalga oshirilishini ta'minlaydigan ilmiy tavsiya va takliflarni ishlab chiqish, bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish natijasida mahallalarning imkoniyatini aniqlash, ularning tarixiy tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish, bu sohadagi xorijiy tajribani sinchiklab o'rganishni yo'lga qo'yish zarur bo'ladi.

Mazkur konsepsiyani amalga oshirishning huquqiy asoslari mustaqilligimizning dastlabki yillarida ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va tegishli qonunlarida mazkur konsepsiyani amalga oshirishning huquqiy asoslari ishlab chiqilgan

Mustaqillik yillarida mahalla tarixiy va rivojlangan mamlakatlardagi tushunchada aniq belgilangan ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'naviy va hududiy-ma'muriy birlik sifatidagi maqomga erishdi. U o'z hududidagi fuqarolar o'rtasida an'analar va urf-odatlar, insoniy, ho'jalik, huquqiy munosabatlar birligini tashkil etgani holda fuqarolarning o'zaro ijtimoiy munosabatlarini bog'lab turish vositasiga aylandi.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab Prezident I.A.Karimov mahallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deb bildi va ularni har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirib kelmoqda. Prezident I.A.Karimov 1995 yildayoq shunday fikrni bildirgan edi: "Ma'lumki, asrlar mobaynida mahallalarda ko'pdan-ko'p hayotiy muammolar o'z echimini topib keladi. To'y-ma'rakalar ham, hayitu hasharlar ham mahalla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa halqimizning turmush tarzi, otabobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib hizmat qilishi lozim".

Mustaqillik davrida mahallaning tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Eng avvalo, mahalla atamasi tarixda birinchi marta Konstitutsiyaga kiritildi. Unga aholining o'zini-o'zi boshqaruvining noyob shakli sifatidagi konstitutsiyaviy huquqiy maqom berildi. 1992 yilda O'zbekiston Prezidentning «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998 yildagi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'lab-quvvatlash

haqida»gi, 1999 yildagi «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risidagi»gi Farmonlari, shuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bo'la oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator farmon, qarorlar, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni e'lon qilinganligi uning isbotidir.

Hozirgi davrda mahallalarni ijtimoiy mavqeini oshirish borasida olib boriayotgan ishlar ikkita yo'nalishni nazarda tutadi. Birinchisi ma'naviy vazifa bo'lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ikkinchisi siyosiy vazifa bo'lib, u Prezident I.A.Karimovning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash, shuningdek, viyoyat, shahar, tuman hokimliklari zimmasiga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarni fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlariga, ya'ni mahallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo'yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muhim imkoniyatlarga erishishdan iboratdir.

Ayniqsa, mahalla fuqarolar yig'inlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viyoyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar o'tkazuvchi uchastka saylov komissiyalari a'ziligiga nomzodlarni okrug saylov komissiyalari tasdiqlashlarini tavsiya etish huquqi berilgan. SHuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlariga xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga to'g'ridan-to'g'ri nomzod ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga tashabbus guruhlari tomonidan ko'rsatiladigan nomzodlarni taklif etishda ishtirok etish kabi vakolatlar va huquqlarning berilishi mahallalarni o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida jamiyatimiz siyosiy hayotidagi o'rnini yanada oshib borayotganligini ko'rsatadi.

I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish hususida quyidagi fikrni bildirdi: «Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir»¹. Albatta, davlat tomonidan mahallalarga katta boshqaruv vakolatlarini berishda avvalo, ularning aholi faolligini oshirishdagi o'rnini yuksaltirish ko'zda tutildi. CHunki, mahalla fuqarolar yig'inlarida etarlicha huquq bo'lmasa, ular o'zini o'zi boshqarish funksiyalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'la olmas edilar. SHuningdek, mahallalarning aholi va davlat oldida mas'uliyat sezishlari uchun ham avvalo keng huquqlarga ega bo'lishlari lozim edi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mustaqilligi ularning mahalliy hokimiyat organlari bilan munosabatlarida aks etadi. O'zbekiston Respublikasining —Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi Qonunining 13-moddasiga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir. Mazkur Qonun 8-moddasining ikkinchi qismida esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshirishi mustahkamlangan.

—Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonunning 2 4-moddasida mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro munosabatlari belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashishlari, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turishlari belgilangan. Ushbu Qonunning 1-moddasida esa Xalq deputatlari Kengashi va hokim davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan.

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.И. –Т.: Ўзбекистон, 2003. 29-б.

Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari turli masalalar yuzasidan o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Ushbu munosabatlar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini ta'minlash, shuningdek mahalliy hokimiyat organlarini o'zini o'zi boshqarishni yo'naltirishdan iboratligi ayon bo'ldi.

—Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi Qonunning 7-moddasiga muvofiq davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi. Ushbu moddaga binoan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xususan hukumat va parlament boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga aralashmasligini ta'minlaydilar. Bunday faoliyat qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida, dasturlarda tegishli me'yorlarni hamda choralarni belgilash, ularning ijrosini ta'minlashdan iborat.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashishini tashkil etish barcha davlatlarda dolzarb masalardan biri hisoblanadi. Masalan, Italiya Respublikasi Konstitutsiyaning 5-moddasida mahalliy avtonomiyani tan olishi va uning rivojlanishiga ko'maklashishi konstitutsiyaviy tuzum tamoyili sifatida belgilangan². O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarishni o'rganish ko'plab muammolarning mavjudligi, ularni hal qilish borasida metodik ko'rsatmalar, mahalla raislari (oqsaqollari), ularning maslahatchilari va faollari malakalarini oshirish va boshqa masalalarda ko'maklashishga muhtojligi ayon bo'ladi. Ushbu va boshqa masalalarni hal qilishda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko'maklashishning shakl va uslublarini takomillashtirish ehtiyoji namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda mahalla faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirishga ko'maklashishga alohida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'n yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida 2003 yilni —Obod mahalla yilini, - deb e'lon qilib, —... mahallaning hayotimizdagi mavqei yuksak, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo'lib rivoj topsa, bu idorani jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas bir qismi, quyi boshqarish tizimi sifatida nechog'li kuchaytirsak, buning uchun barcha moddiy-moliyaviy sharoitlarni tashkil qilib bersak, o'ylaymanki, bu o'z oldimizga qo'ygan oliy maqsadlarga erishish yo'lida katta qadam bo'ladi¹, deb ta'kidladi.

2013 yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursini tashkil etish to'g'risida»gi qarori amaliy choralardan biri bo'ldi. Ushbu qarorga muvofiq har bir hududda tashkil qilingan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish, bu borada mavjud muammolarni hal etishga katta ko'mak bo'ldi. 2014 yil mobaynida ushbu o'quv kurslarida, jami o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining 35% ni tashkil etuvchi 13 ming 983 nafar xodimlar malaka oshirib, o'quv kurslarining sertifikatlarini qo'lga kiritishdi.

O'zbekistonda ham demokratik davlatlar kabi fuqarolar yig'inlarining ijtimoiy-siyosiy funksiyalari e'tiborga olinib, ularning davlat va mahalliy boshqaruvdagi ishtiroki, bu borada mahalliy hokimiyat organlarining vazifalari alohida e'tirof etiladi². Masalan, —Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonunning 1-moddasida xalq deputatlari Kengashi va hokim O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan. —Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi Qonunning 11-moddasida esa yilning har choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitishi mustahkamlangan. Bu borada tuman (shahar) hokimlari tomonidan 2013 yilning birinchi choragida fuqarolar yig'inlariga 4757 marotaba, ikkinchi choragida 6459 marotaba, uchinchi choragida 5407 marotaba hisobotlar taqdim etilganini qayd etish lozim. Shuningdek, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, bandlikka ko'maklashish, kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vakolatli davlat organlari rahbarlarining fuqarolar

yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar bo'yicha hisobotlari ham tizimli ravishda eshilib borilmoqda1.

SHu bilan birga O'zbekiston Respublikasi SHaharsozlik kodeksining 10-moddasida fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarining shaharsozlik faoliyati sohasidagi qarorlarning muhokamasi va qabul qilinishidagi ishtiroki tartibga solingan2. Mazkur moddaga ko'ra fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari yashash va faoliyat ko'rsatish muhitining holati, taxmin qilinayotgan o'zgarishlari, aholi punktlarining bosh rejalari, uy-joy-fuqarolik ob'ektlarining qurilishi, rekonstruksiyasi, hududlarning obodonlashtirilishi, muhandislik va transport kommunikatsiyalarining o'tkazilishi to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli, to'liq axborot olish hamda shaharsozlik faoliyati haqidagi o'zga axborotni olish huquqiga ega.Davlat organlari fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalarining manfaatlariga daxldor, shaharsozlik faoliyati masalalariga taalluqli murojaatlarini o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqadilar va ularga belgilangan muddatlarda asosli javoblar taqdim qiladilar.

Barcha fuqarolar yig'inlari tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, erlardan foydalanish va ularni muhofaza etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Ushbu vakolatlari doirasida fuqarolar yig'inlari davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini yaxshilash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar beradilar, ya'ni mahalliy boshqaruvni amalga oshirishda ishtirok etadilar. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli prokurorlar axborotini tinglash ham ularning mahalliy boshqaruvda amaliy ishtirokini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi 2001 yil 29 avgustdayangitahrirdaqabulqilingan „Prokuratura to'g'risidagi Qonun 5-moddasining beshinchi qismiga asosan viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli Kengashlariga, zarurat bo'lgan hollarda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida har yili axborot beradilar. Prokuratura organlarining axborotini eshinish davlat organlari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash barobarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari e'tiborini dolzarb masalalarga qaratish, fuqarolar faolligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi. Holbuki qonunlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish ular ijrosini ta'minlash va takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra — Ijtimoiy boshqaruv tizimida nazoratning o'zi qaytma aloqaning muhim turi bo'lib, u orqali hokimiyat sub'ektlarining amldagi ahvol, qarorlar ijrosi to'g'risida axborot oladilar2.

Mahalliy hokimiyat organlarining o'zini o'zi boshqarishni yo'naltirishi o'z vakolatlari doirasidagi masalalar yuzasidan umummajburiy qarorlar qabul qilishi, ular va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini nazorat qilishdan iboratdir.

Barcha davlatlarda, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ularga o'tkazilgan davlat organlari vakolatlari ijrosi ustidan nazorat amalga oshiriladi hamda ularning qonunga zid qarorlarining sud organlari tomonidan bekor qilinadi. Bunday nazoratga ehtiyoj O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti tomonidan o'tkazilgan — Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi Qonun monitoringi natijalaridan3 ham ko'rish mumkin. Monitoring davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ko'rilgan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlarini haqiqiy emas, deb topish haqidagi fuqarolik ishlari yuzasidan umumlashmasitahliligiga ko'ra, sudlar ish yurituviga kelib tushgan jami 14 ta fuqarolik ishlaridan 12 tasi yoki qariyb 86 foizi qanoatlantirilgan.

2013 yilda yangi tahrirda qabul qilingan — Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunga ko'ra fuqarolar yig'inlaridagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha komissiyalar ro'yxati quyidagilardir:

- yarashtirish komissiyasi;

- ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya;
- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya;
- xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya;
- voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;
- tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalari bo'yicha komissiya;
- ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiya;
- jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya.

Tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'ini tomonidan fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha boshqa komissiyalari ham tuzilishi mumkin².

Komissiyalar turli sohalaridan iborat tarkibda fuqarolar yig'ini faoliyatiga ko'maklashadi. Bunday komissiyalar 2011 yilning o'zidayoq 50 mingdan ortiq edi³. Ular boshqa funksiyalar bilan birga, turli tashkilotlar ustidan jamoatchilik nazoratini ham olib boradi. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish amaliyotining tobora takomillashib borishi, o'z navbatida, hududlarda qonun hujjatlarining ustuvorligini ta'minlash, aholi, ayniqsa, yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish, eng muhimi, fuqarolarning turmush farovonligini oshirish tizimini yanada takomillashtirishda alohida o'rin tutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 9 iyuldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Namunali, fuqarolik jamiyatiga xos loyihalarni amalga oshirayotgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash ularga zarur yordam ko'rsatish masalalari mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bir qator ijtimoiy dasturlarda o'z aksini topganligini alohida qayd etish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013 yil 30 sentyabrda —Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashini tashkil etish to'g'risidal, 2013 yil 7 oktyabrda —Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidalgi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan sohaga oid 15 ga yaqin nizomlar tasdiqlangan bo'lib, ular mahallalarda ma'naviy muhit barqarorligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni onavatang va milliy istiqloq g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga ko'maklashish, fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilganligi bilan e'tiborlidir. SHu jumladan, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha 8 ta komissiyasi faoliyatiga oid tasdiqlangan namunaviy Nizomlarning amaliyotga tatbiq etilishi mahallalar ishiga keng jamoatchilikni jalb etishga katta turtki beradi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni qanday?
2. Mahalliy davlat hokimiyati asoslarini bayon eting?
3. Mamlakatimizda qanday mahalliy o'zini-o'zi boshqarish shakllari mavjud?
4. Fuqarolik jamiyatini qurishda mahallaning roli qanday?

MA'RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

<i>Talabalar soni -</i>	O'quv vaqti – 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli -</i>	B.B.B va mavzu bo'yicha vizuallashtirish - ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni

	<p>2. Nodavlat, notijorat va jamiyat birlashmalarining mohiyat- mazmuni va vazifalari</p> <p>3. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyilining mohiyati</p> <p>4. Ko’ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim omili</p>
<p>O’quv mashg’ulotining maqsadi: Fuqorolik jamiyati haqida umumiy tasavvurni shakllantirish. O’zbekistonda fuqorolik jamiyatini barpo etishning o’ziga xos tomonlari haqida ma’lumotlar berish, O’zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining o’rnini tushuntirish, Nodavlat, notijorat va jamiyat birlashmalarining mohiyat- mazmuni va vazifalari, Ko’ppartiyaviylik va “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyilining mohiyatini tushuntirish.</p>	
Pedagogik vazifalar:	O’quv faoliyati natijalari
Jamiyat, fuqarolik jamiyati, ma’naviyat tushunchalari hususida to’xtalib o’tiladi	Jamiyat va fuqarolik jamiyati mazmun-mohiyatini yoritib bera oladi;
Fuqorolik jamiyati asoslari, asosiy belgilari va xususiyatlari haqida tushuncha hosil qiladi	Fuqarolik jamiyatining demokratiya mahsuli ekanligini va unda yuksak ma’naviyatning roli muhim ekanligini aytib beradi
“Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari” tamoyilini tushuntirib beradi;	Davlat funksiyalarini fuqorolarning o’z-o’zini boshqarish organlariga o’tib borishi haqida gapira oladi.
<i>O’qitish usullari va texnikasi</i>	Ma’ruza, “Kaskad”, B.B.B, “Aqliy xujum”
<i>O’qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, sxemalar, slaydlar, doska
<i>O’qitish shakli</i>	Jamoaviy ishlash, kichik guruhlarda ishlash
<i>O’qitish nazorati</i>	Kompyuter, proektor mavjud auditoriya
<i>Manitoring va baholash</i>	Og’zaki nazorat, savol javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

Ma’ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O’qituvchi	Talaba
1-bosqich Mavzuga kirish (20 minut)	1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qiladi, o’quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishtiradi (1-ilova)	O’UM ga qaraydi
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo’yicha tarqatma materiallarni tarqatadi	Tarqatmalardan foydalanadi
2 – bosqich Asosiy bo’lim (50 minut)	2.1. Ekranga tayanch ibora va tushunchalarini chiqaradi. Talabalarga B.B.B jadvalini tarqatadi, tayanch iboralarining tartib raqamlaridan foylangan xolda B.B.B jadvalining 1-2 (B.B.B) ustunlarini to’ldirishni so’raydi (2-ilova)	Tinglaydilar. Muhokama qiladilar. Savollar bilan murojaat qiladi
	2.2. B.B.B jadvalini qay darajada to’ldirganliklarini bilish uchun “Blis-so’rov bilish” o’tkazadi, shu tariqa talabalar mavzuni qay darajada bilishini aniqlaydi	Javob beradilar
	2.3. O’quv mashg’ulotining birinchi savoli bo’yicha ma’ruza qiladi O’zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining o’rni vizual materiallar asosida yoritib beradi (1-7- shakllar)	Tinglaydilar, yozadilar, savollarni muhokama qilib, ularga javob beradilar

	2.4. Nodavlat, notijorat va jamiyat birlashmalarining mohiyat- mazmuni va vazifalari - savolini slaydlar orqali yoritib beradi - (8-15-slaydlar)	Tinglaydilar. Organayzerni to'ldiradilar, erkin fikr bildiradilar
	2.5. "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyilining mohiyatini "Kaskad" organayzeri orqali yoritib beradi (16-18 slaydlar)	Tinglaydilar, fikr yozadilar, fikr bildiradilar
	2.6. B.B.B jadvalining uchinchi ustunini to'ldirishni talab qiladi(2-ilova) 2.7. "Klaster" usuli yordamida 2- o'quv topshiriq bajarilishi aytiladi (3- ilova)	B.B.B jadvalining 3-ustunini to'ldiradilar
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1.Ma'ruzada qilingan har bir savol qanday xal qilinganligi to'g'risida umumiy, yakuniy xulosa chiqaradi	Eshitadi
	3.2. Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholaydi Uyga vazifalar beriladi – 4-ilova	O'zini qiziqtirgan savollar beradi

1-ilova

Tayanch tushunchalar

Mahalla – xalqimizda tarixan tarkib topgan kishilar birligi. «Mahalla» arabcha so'zdan kelib chiqib, «shahar ichidagi shahar» ma'nosini anglatadi. O'zbek xalqi tarixida mahallaning tarixi ming yillar oldin boshlangan. O'nlab, yuzlab xonadonlar ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy qayotini, xo'jalik tarzini ushbu birlik doirasida amalga oshirgan.

Fuqarolar yig'ini – fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish tizimida bevosita demokratiya instituti sifatida ijtimoiy jamoa qarakatlarining uzviy birligini tashkil etib, u yoki bu masalani muhokama qilish, aqoli va alohida shaxsning faol ishtiroki orqali birgalikda qarorlar qabul qilish kabilarda o'z ifodasini topadi.

Jamoat birlashmalari - fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, ququqiy hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va qimoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish maqsadlarida tuziladi.

2-ilova

1-O'quv topshiriq

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Jamiyat, fuqarolik jamiyati, ma'naviyat, kuchli davlat, kuchli jamiyat, demokratiya, xuquqiy davlat

B.B.B jadvalini to'ldirish uchun tavsiyalar

1. Tayanch ibora va tushunchalar bilan tanishib chiqing.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1	2	3

... bo'yicha blis-so'rov savollariga javob bering

1. Mahalla deganda nima tushunasiz?
2. "Jamiyat" bilan "fuqarolik jamiyati" tushunchalari bir biridan farq qiladimi?
3. Kuchli davlat va kuchli jamiyat tushunchalariga izoh bering?
4. Jamoat tashkilotlari haqida nimalarni bilasiz?

1-shakl



Biz bugun siyosiy –ijtimoiy hayotimizni demokratiya andozalariga munosib erkinlashtirish yo'lida qadam qo'yayotgan ekanmiz, birinchi navbatda, davlatimiz, davlat idoralari o'ziga olgan huquq vazifalarni asta-sekin, bosqichma-bosqich nodavlat, ijtimoiy, o'zini-o'zi boshqaradigan, xalqimizning xohish-irodasini ifodalaydigan tashkilotlarga topshiramiz, ularga ko'proq ishonch bildirishimiz darkor.

Islom Karimov

100928927

Hozirgi davrda mahallalarni ijtimoiy mavqeini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar ikkita yo'nalishni nazarda tutadi:

Birinchisi, **ma'naviy vazifa** bo'lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'anlarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat.

Ikkinchisi, **siyosiy vazifa** bo'lib, u Prezident I.A.Karimovning maqalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash, shuningdek, viloyat, shaqar, tuman hokimliklari zimmasiga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarni fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlariga, ya'ni mahallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo'yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muqim imkoniyatlarga erishishdan iboratdir.

3-shakl



Mustaqillik yillarida mahallaning tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohatlar amalga oshirildi.

Eng avvalo mahalla atamasi tarixda birinchi marta Konstitutsiyaga kiritildi.

Unda aholining o'zini o'zi boshqaruvining noyob shakli sifatida Konstitutsiyaviy maqom berildi.

1992 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Respublika mahalla hayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror

1993 yil sentyabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi " qonun (1999 yili yangi tahrirda qabul qilindi)

kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator farmon, qarorlar, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning e'lon qilinganligi


O'zbekiston Respublikasining 1998 yildagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab quvvatlash haqidagi, 1999 yildagi "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risidagi " farmonlari

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning **7-moddasida** fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. fuqarolar yig'ini;
2. fuqarolar yig'inining kengashi;
3. fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar;
4. fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi hamda ma'muriy komissiyalar.

O'zbekiston Respublikasi 1- Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasidan
(Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi)
2010 yil 12 noyabr

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifani hal qilishda “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada



9

12-MAVZU: FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Reja:

1. **Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi**
2. **O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari**
3. **Jamiyat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligini oshirish**
4. **Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti**

Tayanch soʻz va iboralar: *fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati instituti, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ko'ppartiyaviylik, uchinchi sektor, yashillar, manfaatlar guruhlari, jamg'armalar, huquqiy davlat, davlat hokimiyati, institutlar, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson manfaatlari, artikulyasiya, integratsiya, inson huquqlari, ijtimoiy tabaqa (qatlam), erkinlashtirish.*

Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi

Fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun avvalo u haqdagi g'oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyati ma'lum asoslar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy) yaratilgandagina shakllanishi mumkin. Bular quydagilardan iborat:

iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiylikiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysiki jamiyatda uning har bir a'zosi, qandaydir mulkka ega bo'lishi, o'z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo'lishi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mexnat va iste'mol faoliyati erkinligining ta'minlanganligi. *ijtimoiy-siyosiy asos* – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum tashkilotlarga birlashishi, Hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo'lida jamlangan bo'lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi. —Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat saril

tamoyilining namoyon bo'lishi. Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, —Fuqarolik jamiyati qurish bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko'zda tutadil1.

huquqiy asosi – inson uchun ahamiyatli bo'lgan ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi yuridik tenglikning ta'minlanishi va ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo'li bilan tan olinishi. —Qonun hukumron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi (A.Temur). —Adolat - qonun ustuvorligidal tamoyilining amal qilinishi. ...—Fuqarolar bilan davlat o'zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog'liqdirlar. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari daxlsiz bo'lib, hech kim ularni sudning qarorisiz mahrum etishi yoki cheklashi mumkin emas. Ayni vaqtda fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari bshqa fuqarolarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasligi lozim2.

ma'naviy asos – insonlar o'z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug'ilganda ular uchun kurasha oladigan bo'lishlari, vijdon erkinligi, ahloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari, fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanligi. —Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqda, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi.

O'zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligining nazariy va amaliy jihatlarini, tajribalarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. CHunki, fuqarolik jamiyatining buprogressiv jihatlarini (tamoyillari va belgilarini) sinalgan tajriba sifatida o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurishda e'tiborga olishga imkon beradi.

—Fuqarolik jamiyatil va —huquqiy davlatl tushunchasi birgalikda XVIII asrda paydo bo'lgan. Odamlar hayoti va faoliyatining ikki tomoni: ularning shaxsiy manfaatlari, tashabbusi, ixtiyoriy faoliyati jabhasi va odamlar xulq-atvori davlatning xohish-irodasiga bo'ysunuvchi xalq hokimiyati jabhasi shu tushunchalar bilan ifodalandi.

Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odilonaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g'oyalarning huquqiy ustunligi, huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g'oyalari bilan mushtarakdir.

Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlanishining natijasi va uning o'zini o'zi yanada takomillashtirishi omili deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni, hech shubhasiz, ancha uzoq vaqt davom etadi. U fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga takomillashib boradi. Har bir davlatda bo'lganidek, huquqiy davlat hokimiyatining suverenligi ham mamlakat ichida uning barcha fuqarolarga va ular tashkil etuvchi nodavlat tashkilotlariga nisbatan ustunligida va undan tashqarida davlatning tashqi siyosatni yuritish, boshqa davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishda va mustaqilligida namoyon bo'ladi.

Etuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. SHunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatdirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi.

Totalitar davlatda xavfsizlikni ta'minlash huquqiy tartibotni muhofaza qilish, odamlar xulq-atvori davlat belgilagan huquqiy qoidalarga muvofiqligini ta'minlash faoliyatidan iborat bo'ladi, davlathokimiyatiga tatbiqan xavfsizlikni davlat xavfsizligi va fuqarolik jamiyati xavfsizligiga ajratish muammosi yuzaga kelmaydi.

Fuqarolik jamiyatining xavfsizligi (jamoat xavfsizligi) quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi mumkin:

- ijtimoiy adolat;
- davlat bilan o'zaro munosabatlarda fuqarolarning va umuman jamiyatning huquqlari;
- qonuniylik tartibi;
- fuqarolarning iqtisodiy farovonligi;
- demokratik plyuralizm;
- jamiyatning ochiqligi;
- fuqarolik jamiyatining milliy jihatdan muayyanligi.

Fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi inson huquqlari va fuqaro huquqlarining farqlanishini belgilab berdi.

Inson huquqlarini fuqarolik jamiyati, fuqaro huquqlarini – davlat ta'minlaydi. Ikkala holatda ham shaxs huquqlari to'g'rsida so'z yuritiladi, biroq birinchi holatda ayrim inson sifatidagi shaxsning yashash, erkinlik huquqlari nazarda tutilsa, ikkinchi holatda – uning siyosiy huquqlari nazarda tutiladi.

Inson huquqlari va fuqaro huquqlari o'rtasidagi farq muayyan asoslarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) inson huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilgani va qonun yo'li bilan mustahkamlanganidan, ularning egasi - inson u yoki bu davlatga mansubligidan qat'i nazar mavjud bo'lishi mumkin.

Fuqaro huquqlari esa mazkur shaxs qarashli bo'lgan davlat tomonidan himoya qilinadi;

2)dunyoda hali anchagina odamlar umuman fuqarolik maqomiga ega emas (fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, apatridlar). Binobarin, ular rasmiy darajada fuqaro huquqlariga emas, balki inson huquqlariga egadirlar. Fuqarolik jamiyatining vazifasi ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta'minlashdan iborat. SHu sababli, uning asosiy tarkibiy qismlarini vazifalari qatoriga bu jarayon normal kechishi uchun shart-sharoit yaratib beruvchi institutlar faoliyati tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy qadriyatlarini oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, ma'naviyat, tartib, davlatchilik tashkil etadi. Bunda hammani va majburiy tartibda mulkdorlarga aylantirish nazarda tutilmaydi – ularning ko'pchiligi buni xohlamaydi, biroq bunday imkoniyat har kim uchun saqlanishi lozim. Mulk har doim shaxs va butun jamiyat erkinligining bosh omili sifatida amal qiladi. Mulkka nisbatan hurmat mavjud bo'lmagan joyda shaxsga nisbatan hurmat ham mavjud bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyati tuzilmalari «yuqoridan» turib emas, balki «quyidan», fuqarolarning tashabbusi bilan, ixtiyoriy asosda, tabiiyki, muassislarning manfaatlari, qiziqishlari va moyilliklariga muvofiq tuziladi. Ularning erkinligi davlat tuzilmalariga qaram emaslikda, ichki qoidalar bilan nazarda tutilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan o'zini o'zi boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

- erkin individlar uyushmasi;
- o'zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma;
- murakkab tuzilishga ega bo'lgan plyuratilistik tizim;
- o'zini o'zi rivojlantiradigan va o'zini o'zi boshqaradigan tizim.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari:

- 1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari;
- 2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish;
- 3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati;
- 4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi;
- 5) hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat;
- 6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi;
- 7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi;
- 8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari;

9) sinfiy va milliy totuvlik, ijtimoiy sherikchilik;

10) odamlarning munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat.

Fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayanib faoliyat ko'rsatadi. Jumladan:

- siyosiy sohada hamma odamlarning huquq va erkinliklarining tengligi;

- butun jahon hamjamiyatida yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlangan huquqiy himoyasi;

- individlarni mulkka ega bo'lish va halol mehnati uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqilligi;

- qonun bilan kafolatlangan fuqarolarni manfaatlari, kasbiy belgilari bo'yicha davlatdan va partiyadan mustaqil ijtimoiy birlashmalarga birlashish imkoniyatlari;

- partiya va fuqarolik harakatlarini tashkil etishda fuqarolarning erkinligi;

- fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma'naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a'zolarini qonun oldida ma'suliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta'lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa sharoitlarni yaratish;

- faqat qonun bilan cheklangan davlat senzurasidan tashqari OAV yaratish va faoliyat yurgizish erkinligi;

- davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatni barqarorlashtiradigan mexanizmni (konsensus mexanizmi) mavjudligi, hamda fuqarolik jamiyatini ishlashini davlat organlari tomonidan xavfsizligini ta'minlanishi. Bu mexanizm, rasmiy bo'ladimi, norasmiy bo'ladimi, u o'z ichiga qonuniy aktlarni, xalq vakillarini demokratik saylov bilan hokimiyatning, o'z-o'zini boshqarish turli organlari va h.k. tayinlash kabilarni oladi.

Iqtisodiy sohada fuqarolik jamiyat asosini ko'p ukladli iqtisod, mulkning turli shakllari boshqariladigan bozor munosabatlari tashkil etadi; Huquqiy sohada esa – hokimiyat boshqaruvi vakolatlarini markazda yig'ilib qolmasligi, hokimiyatlar bo'linishi, siyosiy plyuralizm, fuqarolarning davlat va jamoat ishlarida ishtirok etishlari, qonun ustivorligi hammaning ular oldida tengligi; ma'naviy sohada-yagona mafkura va dunyoqarashning yakka hokimligini yo'qligi, vijdon erkinligi madaniylik, yuqori ma'anaviyat va axloq tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati shaxs erkinligisiz bo'lmaydi. Erkinlik me'yoriy ko'rinishga ega bo'lgani uchun, bunday shunday xulosa kelib chiqadiki, bir tomondan inson erkinlikka uning normativ talablariga bo'ysunish qobiliyati natijasida ega bo'ladi, boshqa tomondan, shaxs erkinligi borlig'ining tashqi shakli bu erkinlikning chegaralarini belgilovchi ijtimoiy me'yorlar hisoblanishini anglatadi. Va faqatgina, jamiyat uchun yoki insonning o'zi uchun eng muhim ahamiyatga ega, eng asosiy hisoblangan sohalardagina davlatning o'zi erkinlikning o'lchovini, me'yorini belgilab beradi. Bu esa huquqiy me'yorlar, qonunlar, konstitutsiya yordamida amalga oshiriladi.

Bunda huquqiy va erkinliklarning o'zi, jumladan konstitutsionlari bir tomondan fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasi bilan uning iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy tashkillanganligining etukligi darajasi bilan belgilanadi. Boshqa tomondan inson va fuqaroning huquq va erkinligining to'liqligi bilan, ularning kafolatlanganligi darajasiamalga oshirish ketma-ketligi fuqarolik jamiyatining huquqiy demokratik jamiyat sifatidagi, haqiqiy erkinlik va ijtimoiy adolatli jamiyat sifatida muhim karakteristikalarining chuqurlashuvi, rivojlanishga ko'p tomondan bog'liq bo'ladi. bu o'rinda inson va fuqaro huquqlari fuqarolik jamiyatining o'z vositasi namoyon bo'ladi. Ushbu muhim funksiyalarnibajarish darajasida fuqarolik jamiyati qator muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Qonunchilik asosida u insonning va fuqarolarning shaxsiy xayot sohasini davlat va boshqa siyosiy strukturalarning asoslanmagan qat'iy muvofiqlashtirishidan himoya qilishni ta'minlaydi.

2. Fuqarolik jamiyati uyushmalari asosida ijtimoiy (jamoatchilik) o'zini – o'zi boshqarish mexanizmlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

3. Fuqarolik jamiyati davlatning demokratik organlarini, uning barcha siyosiy tizimini shakllanishi va sodda ko'rinishga keltirishga ko'mak beradi; buning uchun u turli vositalardan foydalanadi: saylov kampaniyalaridan va referendumlarda, norozilik yoki bu yoki u talablarini qo'llab-quvvatlash aksiyalarida, u yoki bu masaladar bo'yicha jamiyatni shakllantirishdafaol ishtirok etish.

4. Fuqarolik jamiyatining institutlari va tashkilotlari insonlarning huquq va erkinliklarini real kafolatlashlarini davlat va jamoat ishlarida teng ishtirokini ta'minlashga qaratiladi.

5. Fuqarolik jamiyati o'z a'zolariga nisbatan ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajaradi: u davlatdan mustaqil ravishda vosita va sanksiyalar berishga ega bo'lishi mumkinki, ularning yordamida u individlarning jamoa talablariga rioya qilishlariga majburlashi, fuqarolarning ijtimoiylashuvini va tarbiyalanishini ta'minlanishi mumkin.

6. Fuqarolik jamiyati kommunikatsiyaviy vazifani bajaradi. Bu jamiyat davlat organlariga fuqarolarning konkret manfaatlarini haqida xabardor qilib turadi, bu manfaatlarini amalga oshirish esa faqat davlat organlariga tegishli bo'ladi.

7. Fuqarolik jamiyati o'z institutlari va tashkilotlari bilan barqarorlashtiruvchi vazifasini bajaradi. U davlat oldida tang holatlar yuz berganida unga yordam beradi, jamiyat hayotini yashashini ta'minlaydigan mustahkam strukturalarini yaratadi.

Ma'lumki, Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. SHu kabi jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini,

huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida shunday deb ta'kidlaydi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. YA'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi».

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri -bu uning huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'lganligi bois, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining huquqiy poydevorini o'rnatishga, uning asosiy qoida va talablarini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi huquqiy normalarining o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi.

Umuman, hozirgi zamon ilg'or demokratik mamlakatlar jamiyatshunos olimlarining fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariy qarashlari bir tizimga keltirilsa, u holda fuqarolik jamiyati – bu:

birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ihtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

uchinchidan, erkin individlar, ihtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyati bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

G'arb namunasidagi fuqarolik jamiyatining strukturasi quyidagilardan iborat:

–jamiyatning asosiy birligi – siyosiy qaramlikdan holi bo'lgan, o'z huquqlaridan foydalanishga qobil bo'lgan shaxs;

–turli tuman manfaatlarini ifodalash va amalga oshirish zaruriyati asosida shakllanadigan jamoat tashkilotlari va harakatlar;

–nodavlat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va institutlar (xususiy mulk, mehnat, tadbirkorlik va hokazo);

–davlatdan mustaqil bo'lgan ishlab chiqaruvchilar (xususiy firmalar va boshqalar);

–jamoat birlashmalari va tashkilotlari;

–saylovchilar uyushmalari, turli klublar va to'garaklar;

–munitsipal, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlari;

–ta'lim va tarbiyaning nodavlatsohasi;

- nodavlat ommaviy axborot vositalari;
- siyosiy partiyalar, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari atrofidagi davlat bilan fuqarolik jamiyatini (bog‘lovchi bo‘g‘in» sifatidagi) turli lobbi tashkilotlari;
- tadbirkorlar, fermerlar tashkilotlari, kasaba, iste‘molchilar uyushmalari, ilmiy va madaniy tashkilotlar, sport jamiyatlari va boshqalar.
- oila;
- diniy tashkilotlar va boshq

Fuqarolik jamiyatining asosiy instituti bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) dastlab jamiyatni o‘zini o‘zi boshqarishi asosida, ya‘ni fuqarolik jamiyatining mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta‘minlash ehtiyojlari va manfaatlari asosida paydo bo‘ldi. XX asrga kelib nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolik jamiyatining muhim va asosiy institutlaridan biriga aylandi. Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun, avvalo, manfaatlar, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy manfaatlar tushunchalariga aniqlik kiritishga ehtiyoj seziladi. Ma‘lumki, manfaatlar -individlar va guruhlarining ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilovchi sabablardir. O‘z vaqtida Tomas Gobbs «hokimiyatga intilish, inson xulqini harakatga keltiruvchi kuchlarning o‘zaro dushmanligi -shaxsiy manfaatlarining mantiqiy natijasidir»¹, deb ko‘rsatgan edi. Nodavlat notijorat tashkilotlar individlarning ixtiyoriy birlashmalaridir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanmaydilar. Lekin, ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta‘sir qilish uchun harakat qiladilar. Bu sohada faoliyat siyosiy tashkilotlar vositasiz bo‘lishi lozim. Manfaatlar guruhlarining harakat usullari davlat organlarini ishonitirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini etkazish, o‘z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o‘tkazish bilan chegaralanadi¹.

NNTlarning 4 ta asosiy belgilari bor:

- o‘zini o‘zi boshqarishi;
- jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda tashkil etilishi;
- o‘z faoliyatidan foyda olishni ko‘zlamaslik.
- Nodavlat notijorat tashkilotlarning funksiyalari turli-tumandir.

Biroq, ularning asosiy funksiyalaridan biri -turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini artikulyasiya² qilishdir. Manfaatlar guruhlarini individlardagiturli yo‘nalishdagi qarashlar va fikrlarni bir tizimga keltiradi, biron bir tashkilotning bir qolipga solingan manfaatlar tizimi asosida tashkilotning harakat dasturiningshakllanishiga yordam beradi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar ko‘plab ayrim manfaatlarini agregatsiya qilish (munozaralar va muhokamalar yordamida turli manfaatlarini uyg‘unlashtirish va ular o‘rtasida ma‘lum bir munosabatlar tizimini o‘rnatish) faoliyatini ham olib boradi. Bu jarayonda eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etadigan, guruh a‘zolarining keng qatlamlari qarashlarini ifoda eta oladigan manfaatlar tanlab olinadi va ularni amalda qondirishning zaruriy chora-tadbirlari ko‘riladi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy davlat qurish vazifalari nodavlat notijorat tashkilotlarni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Fuqarolik jamiyati sharoitlarida fuqarolarning turli tuman o‘zaro munosabatlari va hamkorligi, ularning ixtiyoriy ravishda jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi jarayonlari asosan nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat bilan jamiyatning bir-birlaridan begonalashmasligi ham nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasidagi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar»¹ kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini ta‘minlab beradigan huquqiy asoslarning e‘tirof etilishi respublikada jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynidagi tajribalari va sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan erkinlik jamiyati -fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini anglatadi.

Hozirgidavrda O‘zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy partiyalar faoliyati 1991 y. 14 fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi Qonuni (1997 y. aprelda qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan), O‘zbekiston

Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni (1992 y. iyul), O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni (1996 y. dekabr), O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1998 y. may), O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1999 y. aprel), O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni (1999 yil aprel) kabi qonunlar vositasida muvofiqlashadi.

O'zbekistonda nodavlat tashkilotlarga doir qonunchilik rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xalqaro huquqiy me'yorlar va milliy an'analar asosida shakllantirilgan bo'lib, u o'zida demokratik prinsiplar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Mamlakatda davlat bosh islohotchi sifatida nodavlat tashkilotlarning qonunchilik asoslarini har tomonlama rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqda. Parlamentda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga doir yuzlab qonunlar va boshqa huquqiy me'yorlar qabul qilingan bo'lib, ularning ichida O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni (1999 yil 14 aprel) nodavlat notijorat tashkilotlarning serqirra faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirish va huquqiy jihatlardan ta'minlashga qaratildi.

Qonunning 1-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti tuzishning umumiy maqsadi ijtimoiy foydali manfaatlarning qondirilishi ekanligi e'tirof etilib, bu bilan nodavlat tashkiloti o'z faoliyatida xalqchillik prinsipiga amal qilishi shart ekanligi belgilab qo'yildi.

Mazkur Qonunning 2-moddasida «Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi»ning ta'rifi demokratik qadriyatlar asosida talqin qilinadi: «Nodavlat notijorat tashkiloti -jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi».

SHuningdek, nodavlat tashkilotlar tizimini yanada mustahkamlash, mazkur tashkilotlarning jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini ifoda etish maqsadlarida 2003 yil 29 avgustida Oliy Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Jamoat jamg'armalari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Uning 3-moddasiga binoan jamoat jamg'armasi deb, yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar asosida tuzilgan, o'zining a'zolariga ega bo'lmagan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ta'lim yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zda tutgan nodavlat notijorat tashkilotiga aytiladi. SHuningdek, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda ham mahalliy jamoat jamg'armalar tuzish mumkin.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining fuqarolik jamiyati instituti darajasida bo'lishining huquqiy asoslarini rivojlantirish maqsadlarida 2007 yilda O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunda nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash va ularning erkin hamda mustaqil faoliyatlarining mavjud qonunchilik va davlat organlari tomonidan kafolatlanishi asosiy maqsad qilib olindi.

O'zbekistonda NNT o'z faoliyatlarini hududiy mansubligiga bog'liq holda quyidagi darajalarga bo'linadi:

-**umummamlakat** ahamiyatiga ega bo'lgan NNN. Ular o'zlarining tuzilmaviy quyi tashkilotlariga (mahalliy tashkilotlari, filiallari, bo'limlari, vakolatxonalar va boshq.) ega bo'lib, butun mamlakat miqyosida faoliyat yuritadi;

-**mintaqaviy NNT**. Ularga Qoraqalpog'iston respubliksi, viloyatlar va Toshkent shahri hududlarida faoliyat yuritadigan NNT kiradi;

-**mahalliy NNT**. Ularga tumanlar, shaharlar, shaharcha va boshqa kichik hududlarda faoliyat yurituvchi NNT kiradi.

O'zbekistondagi NNTni xalqaro tashkilotlar ekspertlari quyidagicha tasniflaydi:

1. Aholining yirik qatlamlari ijtimoiy manfaatlari uchun xizmat qiladigan umummilliy tuzilmalar («Mahalla» xayriya jamg'armasi, «Kamolot» YOIH, Xotin-qizlar qo'mitasi, Nogironlar jamiyati, «Nuroni» jamg'armasi va boshq.).
2. Ekologiya, madaniyat va sog'liqni saqlash sohaliga ixtisoslashgan milliy-xalqaro jamharmalar («Ekosan», «Ibn Sino», «Sog'lom avlod», Orolni qutqarish, Amir Temur va boshq. halqaro jamg'armalar).
3. Kasbiy va ma'naviy manfaatlar bo'yicha tuzilgan ijtimoiy tashkilotlar (Respublika «Ma'naviyat targ'ibot» markazi, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi va boshq.).
4. Umum milliy xayriya jamiyatlari va jamg'armalari (Bolalar jamg'armasi, «Mehr nuri» jamg'armasi va boshq.).
5. Huquqni himoya qilish nohukumat tashkilotlari (O'zbekiston sudlar uyushmasi, Advokatlar palatasi, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va boshq.).
6. Ijodiy ziyolilarning milliy jamoat tashkilotlari (YOZuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi, Kompozitorlar uyushmasi, Arxitektorlar uyushmasi, Kinematografistlar uyushmasi va boshq.).
7. Milliy-madaniy markazlar (ular O'zbekistonda yashayotgan milliy jamoalar (ozchilik) vakillarini milliy va etnik belgilariga qarab birlashtiradi, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatlari va boshq.).
8. Ijtimoiy ahamiyatli qatlamlar va ijodiy manfaatlar bo'yicha birlashmalar (Veteran jangchilar birlashmasi, Avtomoto havaskorlarining ko'ngilli jamiyati, Ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati, Turistlar klubi, Havaskor qo'shiqchilar klubi va boshq.).

Bundan tashqari, NNTlar qatoriga turli shakllarga mansub bo'lgan tashkilotlarni kiritish mumkin:

- Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar;
- Kasaba uyushmalari;
- Diniy tashkilotlar;
- Turli sport federatsiyalari va uyushmalari.

Mamlakatimizda 1991 yili jamoat birlashmalarining soni 200 tani tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda ularning soni 2300 taga, 2010 yilda – 5100 taga etdi. O'zbekistonning 20 milliondan ortiq fuqarosi nodavlat-notijorat tashkilotlar a'zosi hisoblanadi

O'zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyat yuritishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Natijada ularning soni yildan yilga ortib, faoliyat ko'rsatish sohalari ham kengaymoqda. 1991 yilda mamlakatda 100 ga yaqin NNT bo'lgan bo'lsa, hozirda **9 478** tani tashkil etmoqda. Shuningdek, adliya organlarida 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2 mingdan ortiq diniy tashkilot va 235 ta doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, ular tarkibida 715 ta sudya faoliyat yuritmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohaning turli yo'nalishlarida, xususan, tadbirkorlik, sportni rivojlantirish, ekologiyani asrash, imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi turli sohalarni qamrab olmoqda.

NNTlarning ishchi o'rinlari yaratishdagi o'rniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, joriy yilning 1 fevral holatiga 55 mingdan ortiq xodim, shundan 21 mingdan ziyodi jamoatchilik asosida ishlamoqda.

Shuningdek, 20 milliondan ortiq fuqaro turli NNTlar a'zolari hisoblanadi. Misol uchun, O'zbekiston yoshlar ittifoqida 10 milliondan ortiq bo'lsa, «Yoshlik» jismoniy tarbiya va sport jamiyatida 3 milliondan ziyod, O'zbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasida esa qariyb 2 million a'zo bor.

Adliya vazirligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili NNTlarning hisob raqamlariga 1 trillion 864 milliard 358 million so'mdan ortiq mablag' tushgan. Mazkur mablag'lar joylarda ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etishga sarflanmoqda.

Xususan, 2 224 nafar yolg'iz, nogironligi mavjud, kam ta'minlangan keksalarga 345,6 million so'mlik moddiy yordam va 117,1 million so'mlik dori-darmon xarid qilingan. Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish va unga tayyorgarlik ko'rish mavzusida qariyb 40 ming nafar fuqaro o'qitilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Andijon, Navoiy, Farg'ona, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida 48 endokrinolog xonasi jihozlangan, 612 nafar umumiy amaliyot shifokori va 156 nafar mutaxassis o'qitildi, xavfli guruhga kiruvchi 954 mingdan ortiq shaxs bepul skrining tekshiruvdan o'tkazildi.

Yana ko'plab, sunnat va nikoh to'ylari o'tkazildi. Oilalarning uy-joylari ta'mirlanib, maishiy texnikalar yetkazib berildi.

Mamlakatda milliy mustaqillikning dastlabki davrlarida O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil topdi. O'tgan davr ichida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi, «Ekosan» xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, Xalqaro Imom Buxoriy jamg'armasi, «Oltin meros» jamg'armasi, respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Xalqbirligi» harakati, O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi, Milliy matbuot markazi, Baynalmilal madaniy markaz, respublika «Iste'dod» jamg'armasi kabi nodavlat tashkilotlar tuzildi. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi esa demokratik prinsiplar asosida butunlay qaytadan tashkil etildi. SHu bilan birga, O'zbekiston «Tadbirkor ayol», O'zbekiston Bolalar jamg'armasi, «Ayol va salomatlik», «Mehr», «Ayollar resurs markazi», «Ayol va jamiyat» instituti kabi xotin-qizlar muammolarini hal etishga qaratilgan va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

Keyingi o'n yilliklarga kelib O'zbekiston ijtimoiy hayoti uchun butunlay yangi bo'lgan nodavlat tashkilotlar tuzila boshlandi. XXI asrda texnologik jarayonlarning ko'payishi, avtomobil harakatlarini keskin oshishi, plastik mahsulotlarning maishiy turmushga kirib kelishi natijasida ekologik xavf kuchaydi. Ana shu xavf oqibatlariga qarshi kurash maqsadida mamlakatdagi ekologiyaga oid tashkilotlar tashabbusi bilan 2008 yil 2 avgustda O'zbekiston Ekologik harakati tashkil etildi. Bu harakat fuqarolik jamiyati instituti sifatida faoliyat yurita boshladi. Uning asosiy shiori - —Atrof muhit ozodaligi – salomatlik garovill aholi o'rtasida tezlik bilan yoyilib ketdi. Bu harakatning faol harakati bilan aholi o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirishga oid turli tadbirlarni amalga oshirish an'anaga aylan boshladi.

Hozirgi davrda AQSHda tadbirkorlar doirasi manfaatlarini ifoda etuvchi manfaat guruhlari birlashmalar sifatida ko'plab uyushmalar Mustaqil Biznes Milliy federatsiyasiga birlashganlar. GFRda esa Nemis kasaba uyushmasi federal birlashmasi, Nemis ish beruvchilari uyushmasi federal birlashmasi, Germaniya sanoatchilari federal birlashmasi, Soliq to'lovchilar uyushmasi, Demokratik olimlar uyushmasi, Nemis sport uyushmasi kabi bir qancha manfaatlar guruhlari faoliyat ko'rsatadi. Hududiy, mintaqaviy va federal darajalarda ham hunarmandlar, talabalar, vrachlar, madaniyat arboblari, turli iste'molchilar uyushmalari va tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. GFR da 4–5 ming atrofida ana shunday birlashmalar faoliyat yuritmoqda. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham manfaat guruhlari jamiyatning asosiy qismini tashkil etadi. AQSHda 1 mln. dan ko'proq nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritadi. Ularda Amerika aholisining 7,8 %i xizmat qiladi. AQSHda aynan jamoat tashkilotlari sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, san'at va fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash va muhofazalash sohasida davlatning asosiy hamkori hisoblanadi. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlari hukumatlari ham muhim iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolarni hal etishda jamoat tuzilmalariga, birinchi navbatda nodavlat notijorat tashkilotlariga tayanadi. Rivojlangan 22 ta mamlakatda ish bilan band aholining 4,9 foizi bevosita nodavlat sohada mehnat qiladi. Bu ko'rsatkich Niderlandiyada 12,4, Irlandiyada 11,5, Belgiyada 10,5, Isroilda 9,2, Avstraliyada 7,2, Buyuk Britaniyada 6,2 foizga tengdir.


Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlarni keng qo'llab-quvvatlashga alohida urg'u berilmoqda. Rossiyada ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yaxshilash, ijtimoiy innovatsiyalarni amalga oshirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf qilish, sog'lom avlodni shakllantirish, aholini ish bilan ta'minlash hamda demokratiyani rivojlantirishda NNTlarning o'rniga muhim ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda ushbu mamlakatdagi NNTlar soni 600 mingdan ortiq. Ular butun mamlakatdagi yuridik shaxslarning 16,18%i hisoblanadi. Ularda alohida asos solingan NNTlar 43,6%ni, jamoat va diniy

tashkilotlar 27,7%ni, kooperativlar 11,4%ni, fondlar va boshqa ko‘rinishdagi tashkilotlar 4,2%ni tashkil etadi. Ammo davlat tomonidan NNTlarni qo‘llab-quvvatlash ularning jami mablag‘larining 1,2%ni tashkil etadi. Asosiy daromad yuridik shaxslardan beriladigan xayriya yordami (46,3%), jismoniy shaxslardan beriladigan mablag‘ (9,8%), tadbirkorlikdan tushadigan daromad (8,4%), chetdan beriladigan xayriya yordami (6,8%), boshqa mablag‘lar (27,5%) hisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha nodavlat notijorat sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi turlicha hisoblanadi. Bu Vengriyada 2,8%ni, Kolumbiyada 2,1%ni, Niderlandiyada 15,8%ni, AQSHda 7,5%ni tashkil etadi. SHu bois davlat tomonidan NNTlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash turli davlatlarda turlicha. Deylik davlatni NNTlarni qo‘llab-quvvatlash salmog‘i Belgiyada 76,5%ni, Niderlandiyada 59,0%ni, AQSHda 30,5%ni, SHarqiy va Markaziy Evropada 20–40%ni tashkil etadi.

Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam MDHdagi boshqa davlatlar amaliyotida ham bor. CHunonchi, Ozarboyjon respublikasida 2009 yilda 2 million manat, 2011 yilda 2,8 million manat va 2012 yilda 3,8 million manat davlat byudjetidan NNTlarga mablag‘ ajratilgan.

Demak, ilg‘or xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, NNTlarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini yaxshilash bilan birga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qolaversa, davlatning ko‘pgina vakolatlarini o‘z zimmalariga olgan nodavlat notijorat tashkilotlar boshqaruvining to‘laonli ishtirokchisiga aylangan.



Ko‘ppartiyaviylik zamonaviy demokratik jamiyatlar siyosiy hayotini tashkil qilishning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Aynan ko‘ppartiyaviylik tufayli demokratiyaning siyosiy plyuralizm, qonun ustuvorligi, imkoniyatlar tengligi kabi tamoyillarini o‘zida mujassam etgan siyosiy partiyalar va ularning vakillari o‘rtasida doimiy muloqot ta‘minlanadi.

Mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishda, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o‘z qobiliyatini to‘la ro‘yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratishda, odamlarning o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etish, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo‘lgan turli manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo‘lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirishda ko‘ppartiyaviylik tizimi muhim rol o‘ynaydi.

«Partiya» soʻzi lotincha «part» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «ish», «qism» degan maʼnolarni anglatadi. Siyosiy partiya — aholining, sinfning, ijtimoiy qatlam yoki qatlamlarning bir qismi. Uning paydo boʻlishini siyosatshunoslar burjua demokratiyasining vujudga kelish davriga nisbat beradilar. Biroq zamonaviy davlatlarning konstitutsiyalarida partiyalar haqidagi moddalar faqat XX asrga kelib paydo boʻldi.

Hozirgi zamon jamiyatining siyosiy hayoti murakkab, ziddiyatli va xilma-xildir. Bugun siyosiy partiya mavjud boʻlmagan biror- bir davlatni tasavvur qilish qiyin. Hozirga dunyoning aksariyatdemokratik mamlakatlarida ikki partiyaviy yoki koʻppartiyaviy tizimlar mavjud.

Siyosiy partiyalar siyosiy hokimiyat mexanizmining faoliyat koʻrsatishida ishtirok etadi yoxud unga muayyan taʼsir oʻtkazadi. Ular faoliyatining asosiy jihati aholi siyosiy ongining shakllanishiga taʼsir koʻrsatishidir.

Siyosiy partiya koʻp mezonli va murakkab hodisa boʻlganligi tufayli uni taʼriflashga ham turlicha yondashuvlar mavjud. Umuman olganda, ana shunday asosiy yondashuvlardan uchta alohida ajratib koʻrsatiladi. Ayrimlar partiyani koʻproq mafkuraviy birlashma sifatida tushunadilar. Boshqalar partiyani saylov jarayoni, saylovoldi kurashi, hokimiyatni egallashga intilish bilan bogʻliq holda taʼriflaydilar. Marksizm tarafdorlari «partiya» tushunchasiga sinfiy nuqtai nazardan taʼrif beradilar. Ular partiyani muayyan sinfning eng ongli, uyushgan, oʻz manfaatlarini himoya qiladigan qismi, deb hisoblaydilar.

SHunday qilib, ilmiy nuqtai nazardan siyosiy partiyalar uchun berilgan quyidagi taʼrifni asos sifatida qabul qilish mumkin: *siyosiy partiya — fuqarolarning eng faol, mushtarak mafkura asosida bogʻlangan, davlat hokimiyatini qoʻlga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirishga intiluvchi qismi, ixtiyoriy ittifoqi.* Hokimiyatni qoʻlga kiritish har qanday partiyaning bosh maqsadi hisoblanadi. Partiya qaysi ijtimoiy guruh yoki sinfning tashabbusi bilan yuzaga kelgan boʻlsa, aynan shularning manfaatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Partiya oʻz oldiga qanday maqsadlarni qoʻygan boʻlsa ham ularga hokimiyat uchun kurash, oʻz hukumatini shakllantirish yoki koalitsion hukumat tarkibiga oʻz vakillarini kiritish orqali erishadi. Hukmronlikni qoʻlga kiritgan partiya davlatning butun qudratidan oʻziga vakolat bergan ijtimoiy- sinfiy kuchlarning manfaatlari yoʻlida foydalanishga intiladi.

Partiya fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, xususan NNTlar, jamoat tashkilotlari va harakatlardan, lobbistlar tuzilmalaridan aynan shunisi bilan farq qiladi. Ushbu sanab oʻtilgan tuzilmalar ham xuddi partiyalar singari siyosiy hayotda faol ishtirok etadi, lekin oʻz oldiga davlat hokimiyatini qoʻlga kiritish, uni saqlab qolish va uni amalga oshirish maqsadini qoʻymaydi. Siyosiy partiyalar bilan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ijtimoiy harakatlar oʻrtasidagi tub farq shundan iboratki, partiyalar davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish uchun kurashadilar, NNT va ijtimoiy harakatlar esa unda bevosita ishtirok etishga daʼvo qilmaydilar va shu bilan bogʻliq majburiyatlarni ham oʻz zimmlariga olmaydilar. Siyosiy partiyalarning asosiy belgilari sifatida ularning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi; aʼzolikning va ushbu partiya tayanadigan muayyan ijtimoiy bazaning mavjudligi; siyosiy dastur va nizomga ega boʻlishi; partiya birlashgan kishilarning umumiy manfaatlariga va bir-biriga yaqin boʻlgan mushtarak mafkuraviy qarashlarga ega boʻlishi; bir yoki bir necha siyosiy etakchilarning mavjudligi kabilarni sanab oʻtish mumkin.

Siyosiy partiyalar boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bilan bir qator umumiy jihatlarga ega. Xususan, muayyan tashkilotning hamda hokimiyat va boshqaruv apparatining mavjudligi; ularning aʼzolarini birlashtirib turuvchi va tarafdorlarni jalb etuvchi gʻoyaviy tamoyillarning mavjud boʻlishi; muayyan dasturiy qoidalarning qayd etilishi (ular ochiq ifodalanishi ham, yashirin mavjud boʻlishi ham mumkin); aʼzolar va tarafdorlardan iborat ommaviy negizning mavjudligi shular jumlasidandir.

Partiyalarni boshqa tashkilotlardan ajratib turuvchi eng asosiy belgi esa ular faoliyatining davlat hokimiyatini egallash, davlat siyosatini shakllantirish va davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish xuquqini qoʻlga kiritish uchun ochiq va aniq ifodalangan kurashga yoʻnaltirilganligidir.

Siyosiy partiyaning mohiyati partiyaning ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy negizi; partiya rahbariyatining tarkibi, manfaatlari va maqsadlari; tashkilotning dasturiy qoidalari; uning siyosiy

xatti- harakatlarining ob'ektiv yo'naltirilganligi kabi xususiyatlarga chambarchas bog'liqdir. Siyosiy partiya mohiyatining eng muhim ko'rsatkichi uning oxir-oqibatda kimning va qanday kuchlarning manfaatlari hamda qarashlarini ifoda etishi, himoya qilishi va o'z kundalik faoliyatida amalga oshirishidir.

Siyosiy partiyaning jamiyatdagi funksiyalari hayotdagi masalani o'rganish uning siyosiy taraqqiyotdagi o'rni va rolini tushunib etish, maqsadlarini yaxshiroq tasavvur etishga yordam beradi. Jamiyat siyosiy tizimida siyosiy partiyalar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradilar:

- siyosiy maqsadni belgilash. Mafkurani va dasturlarni ishlab chiqarar ekan, partiyalar strategiyani belgilashga, fuqarolarni muqobil va boshqa xatti-harakatlarning ham mumkinligiga ishonirishga intiladilar;
- 8 ijtimoiy manfaatlarini ifoda etish va saralash. Manfaatlarni guruhlar ham ifoda etishlari mumkin, lekin faqat partiyalargina ularni markaziy davlat organlarining qarorlariga ta'sir ko'rsatadigan shaklda bir butun qilib birlashtira oladilar;
- fuqarolarni safarbar qilish va ijtimoiylashtirish. Partiyalar o'z faoliyatining uzoq muddatli ijtimoiy va g'oyaviy-psixologik asosini yaratadilar, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantiradilar;
- etakchi siyosiy guruhni shakllantirish. Hokimiyatning mahalliy organlarini, hukumatning avval yashirin, so'ngra esa real tarkibini shakllantiradilar; hokimiyatning vakolatli organlari bilan jamiyat o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydilar; boshqa siyosiy institutlar bilan birga davlat boshqaruvi va ijtimoiy boshqaruv mexanizmini shakllantiradilar, hukumat tuzilmalari va mexanizmlarining barqarorligini ta'minlaydilar;
- siyosiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish. Siyosiy partiyalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari orasida dasturiy qoidalarni, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy strategiyani ishlab chiqishni alohida ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi. Hozirgi zamon strategiyasini ishlab chiqishga malakali kadrlar jalb etiladi.

Siyosiy partiyalar o'z tarafdorlari faoliyatida birdamlikni ta'minlashga, o'zlarining ittifoqchilari tomonidan qo'llab-quvvatlanishlarini tashkil etishga intiladilar. Partiyalar o'zlariga vakolat bergan ijtimoiy birlashmalarning manfaatlari va xohish-irodasini ifodalovchi strategik va taktik konsepsiyalarni ishlab chiqishning tashabbuskorlari va shtablari sifatida namoyon bo'ladilar. Mazkur konsepsiyalarning asosiy komponentlari jamiyatning rivojlanish va umuman, faoliyat ko'rsatish modellaridir. Partiyalarning mafkuraviy faoliyati, konsepsiyalar ishlab chiqishdan tashqari, ana shu konsepsiyalarni va ularning maqsadlariga mos keluvchi boshqa g'oyalarni keng tarqatish va targ'ib etishga qaratilgan. Hukmron partiyalar buning uchun davlatning mafkuraviy funksiyasidan ham foydalanadilar.

Partiyalarning fuqarolarni ijtimoiylashtirish borasidagi faoliyati ularning pirovard maqsadlari va ularga vakolat bergan ijtimoiy guruhlarining manfaatlari bilan bog'liq. Hukmron partiyalar ular himoya qilayotgan qadriyatlarining ijobiy qabul qilinishini, ular tutayotgan yo'lning keng ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydigan ijtimoiylashtirishni amalga oshirishga intiladilar.

Har bir partiya uchun tegishli ijtimoiy birlashmalarning manfaatlarini himoya qilish vakolati juda muhimdir. Ushbu funktsiyaning mazmunini mazkur manfaatlarini ifodalashning siyosiy vositalarini ta'minlash, ularni maqsadlar va ideallar shaklida bayon qilish hamda siyosatning boshqa sub'ektlari bilan o'zaro ta'sir jarayonida himoya qilish tashkil etadi. Manfaatlarni ifoda etish vakolati funktsiyasi turli qatlamlar va guruhlarining o'ziga xos manfaatlarini muvofiqlashtirish asosida ijtimoiy birliklarning umumiy manfaatlarini jamlash yo'li bilan hamda davlat organlarini egallash va ular ustidan nazorat o'rnatish yoki siyosiy qarorlar qabul qilish va amalda hukmronlik qilish jarayonida ushbu organlarga tazyiq o'tkazishning turli shakllari vositasida amalga oshiriladi.

Respublikamizda ko'ppartiyaviylikning shakllanish jarayonini har biri muayyan voqea bilan ajralib turadigan quyidagi beshta bosqichga bo'lish mumkin:

- 1) 1991–1994 y.: yakkapartiyaviylikning tugatilishi va ko'ppartiyaviylikning shakllanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarining yaratilishi;

- 2) 1995–1999 y.: ko‘ppartiyaviylikning qonunchilik asoslari yaratilishi va yangi partiyalarning tashkil topishi. “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi (26.11.1996 y.), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (14.04.1999 y.) O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarining qabul qilinishi;
- 3) 2000–2004 y.: siyosiy tajriba to‘plash va moliyaviy mustaqillikni ta‘minlash, doimiy elektoratni belgilab olish. “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi (14.12.2000y.), “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi (30.08.2001 y.), “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy tamoyillari to‘g‘risida”gi (04.04.2002), yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi (29.08.2003 y.) O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarining qabul qilinishi;
- 4) 2005–2006 y.: siyosiy partiyalar parlament nazoratining kuchayishi, konstruktiv muxolifatning shakllanishi;
- 5) 2007 yilda to hozirgi kunga qadar: siyosiy partiyalar faoliyati “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyaviy qonuni asosida (11.04.2007 y.) yanada jadallashuvi, siyosiy partiyalarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga bo‘lib o‘tgan saylovlardagi ishtiroki, partiyalararo raqobatning kuchayishi.

Siyosiy partiyalar saylovlarda ishtirok etib, tegishli organlarga o‘z vakillarini o‘tkazish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatida ishtirok etadi. SHu bilan birga siyosiy partiyalar zamonaviy jamiyat tizimining muhim qismi bo‘lib, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi. Huquqiy-demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ko‘ppartiyaviylikning rivojlanishiga, mustaqil, faol aholining keng qatlami tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan siyosiy partiyalar va boshqa jamoatchilik tashkilotlarining shakllanishi uchun shart- sharoitlar yaratilishiga katta ahamiyat berildi.

Mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyatini erkinlashtirishga doir islohotlar natijasida ularning jamiyatdagi o‘rni ancha yuksalib bormoqda. Siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko‘rsatishlarini ta‘minlash maqsadida ularning qonunchilik asoslari yanada rivojlantirildi. Ikki palatali parlamentni shakllantirish islohotlarini amalga oshirish bilan bog‘liq holda siyosiy partiyalar Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy vakillik organlari deputatlari nomzodlarini tanlash va ko‘rsatish, saylov kampaniyalarini o‘tkazishda asosiy siyosiy institut funksiyasini bajarishga o‘tdilar.

Har qanday davlatda vakillik demokratiyasi shakllanishini siyosiy partiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. SHuning uchun mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlar jarayonida siyosiy partiyalarning rolini oshirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Ular faoliyatining qonuniy asoslari mustahkamlanib, vakolatlari kengaytirilmoqda. Natijada siyosiy partiyalarning islohotlar ijtimoiy samarasini yanada oshirishda mas‘uliyati kuchayib, hozirda xorijiy mamlakatlar olimlari, xalqaro ekspertlar O‘zbekistonda parlament faoliyatini takomillashtirish o‘ziga xos yangi bosqichga ko‘tarilganini e‘tirof etmoqda.

2002 yil 4 apreldagi «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy tamoyillari to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonun asosida professional tarzda faoliyat yurituvchi Qonunchilik palatasi va hududlar manfaatlarini ifodalovchi Senatdan tarkib topgan ikki palatali parlament tashkil etildi. SHu orqali demokratik islohotlarni izchillik bilan amalga oshirishda sifatli qonunlar qabul qilish imkoniyati kengaydi, qonun ijodkorligi va ularning ijrosini nazorat qilish bo‘yicha barqaror mexanizm shakllandi.

Parlament hokimiyatining amaliy rolini kuchaytirishda ko‘ppartiyaviylik tizimining rivojlanishiga, siyosiy partiyalar faolligining keskin oshishiga, ular o‘rtasida raqobat asosidagi kurash kuchayishiga sharoit yaratib berish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonunlarimizda mamlakatimizda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishi belgilab qo‘yilgan, siyosiy partiyalarning keng ko‘lamda ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritishi kafolatlangan. Eng muhimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblik hamda

manfaatlar muvozanatini ta'minlashda siyosiy partiyalar ishtirokining qonuniy asoslari mustahkamlandi.

Yurtimizda siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati bosqichma-bosqich kuchaytirilib, uning huquqiy asoslari mustahkamlanib borildi. 2004 yildan amal qila boshlagan "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonun bu borada nihoyatda muhim qadamlardan biri bo'ldi. 2007 yilda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun esa siyosiy partiyalar faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Hozirga paytda respublikada to'rtta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatmoqda. Bular O'zbekiston xalq demokratik partiyasi, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — Liberal-demokratik partiyasidir.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" Demokratik partiyasi haqida

2008 yil 20 iyun kuni O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashish Qurultoyi bo'lib o'tib, ikki partiya negizida yangi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tashkil topdi.

Bugungi kunda partiya a'zolar soni 190 mingga yaqinni tashkil etadi. O'zMTDP5578 dan ortiq boshlang'ich partiyatashkilotlariga ega.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an'analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. Partiya huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fan-texnika taraqqiyotini va O'zbekistonning globallashib borayotgan jahonda munosib o'rin egallashini ta'minlashni yoqlaydi. U biz faxrlanadigan milliy an'analar va qadriyatlarimizni saqlab qolish tarafdorlari bo'lgan insonlar manfaatlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bunday shaxslar – partiyaning asosiy ijtimoiy qatlamidir. Partiya mustaqillik yillarida boshlangan milliy qadriyatlarni tiklash, o'zlikni anglash, milliy g'oyalarni shakllantirish va milliy mustaqillik mafkurasini mustahkamlash, xalqning ma'naviy hayotida diniy an'analarni tiklash kabi xayrli ishlarni izchil, bosqichma-bosqich va tizimli ravishda davom ettirish tarafdoridir. Ushbu ishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, uning samaradorligini oshirish zarur.

"Maqsadimiz – O'zbekiston fuqarosi ongida o'z mamlakatining tarixiy o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi uchun faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash va mustahkamlash!" – yangilangan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining asosiy siyosiy shiori hisoblanadi.

Davlatning yangi xalqaro sharoitlarda va geosiyosiy voqelikda milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish yuzasidan amaliy qadamlarining taktik va strategik maqsadlari va vazifalari zahirida milliy tiklanish va rivojlanishning umumiy mafkurasini va keng qamrovli dasturi mavjudligi – bizning muqaddas orzumiz va strategiyamiz bo'lgan - **yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi** – umummilliy g'oyasi atrofida jamiyatimizni birlashtirishga asoslangan yo'lini O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (O'zMTDP) qo'llab-quvvatlaydi.

Partiyaning oliy rahbar organi Partiya Qurultoyi bo'lib, u kamida besh yilda bir marta chaqiriladi.

Partiyaning matbuot nashri - "Milliy tiklanish" ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

O'zDPMT rasmiy veb-sayti va elektron pochta: www.mt.uz, info@mt.uz.

"Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi" (O'zLiDeP) haqida

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003 yil 15 noyabrda bo'lib o'tgan Ta'sis S'ezdida tashkil topgan. Bugungi kunda O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi o'z safida 252 mingdan ziyod a'zoni birlashtirgan, 10282 ta boshlang'ich partiya tashkilotiga ega bo'lgan yetakchi siyosiy kuch sifatida saylovlarga kirib bormoqda.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Birinchi maqsad. Siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini ta'minlash. Shu ijtimoiy toifa nomidan O'zbekistonning siyosiy sahnasiga chiqish va o'zining munosib o'rnini egallash.

Ikkinchi maqsad. Mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollari javob beradigan dasturni Konstitutsiya tamoyillariga suyanib, boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun partiyaning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish.

O'zbekiston tanlagan ochiq, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojiga keng yo'l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalq, avvalo yoshlar ongi va hayotiga singdirish.

Uchinchi maqsad. Davlatni boshqarish, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta'sir o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish, ijtimoiy muammolarni hal etishda ko'maklashish, O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirishda, yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish.

Yoshlarni milliy g'oyaga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat, o'z elim, o'z yurtim, jon O'zbekistonim deb g'ururlanib yashash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shish, har qanday sharoitda mustaqillik yo'lini, qadriyatlar, milliy va diniy an'analar va urf-odatlarini qadrlash barobarida, barcha millat va elatlar qadriyatlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, bunday xurujlarga qarshi kurash olib borish.

To'rtinchi maqsad. Partiyaning siyosiy platformasi - liberal-demokratik g'oya va qadriyatlarni keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o'ylangan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish, o'z safini kengaytirish. Shu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishda fidoyilik ko'rsatgan faollarni deputatlikka nomzod sifatida ko'rsatish va saylovchilar ishonchini qozongan o'z deputatlari zimmasiga davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarida vakillik vazifasini yuklash hamda ularning faoliyatini boshqarish.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining S'ezdi partiya oliy organi hisoblanadi va u 5 yilda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

O'zLiDePning markaziy nashri – «XXI asr» ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

Partiyaning rasmiy veb-sayti va elektron pochta: www.uzlidep.uz, uzlidepinform@mail.ru, uzlidep@uzlidep.uz.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi haqida

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasiga (qisqacha nomlanishi – O'zbekiston XDP) 1991 yil 1 noyabrdagi partiyaning Ta'sis qurultoyida asos solindi. Bugungi kunda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi ushbu saylovlarga o'z safida 424.5 mingdan ziyod a'zolari bilan bormoqda. Partiya a'zolarini bevosita birlashtiradigan 9955 ta boshlang'ich tashkilot faoliyat ko'rsatyapti.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

– O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va himoyaga ehtiyojmand fuqarolari manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Bular – iqtisodiyotda band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlar; doimiy ish joyi va muqim maoshga ega bo'lmagan aholi qatlami, boshqa ijtimoiy sohalarining xodimlari va mutaxassislari, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar, pensionerlar hamda imkoniyatlari cheklangan kishilar.

O'zbekiston XDP davlat tomonidan ushbu toifa kishilarining manfaatlarini ko'zlab izchil siyosat olib borilishiga harakat qiladi, ularni o'zining elektorati deb hisoblaydi va saylov kampaniyalarida ularning qo'llab-quvvatlashiga umid bog'laydi;

– katta hayotga kirib kelayotgan yoshlarning kasb-hunar tanlashi, ta’lim olishi va o’qishni bitirganidan keyin ish o’rniga ega bo’lishi uchun adolatli, barcha uchun teng hamda ijtimoiy ochiq shart-sharoitlar yaratish; pensionerlar, mehnatga layoqatsiz nogironlar, ota-ona qaramog’idan mahrum bolalarning hayotiy ehtiyojlarini to’laqonli qondirishga kafolat beradigan pensiya ta’minoti va ijtimoiy nafaqalar tizimini shakllantirish;

– xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi partiya guruhlarining hududiy ish o’rinlari yaratish hamda o’rta maxsus va oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash dasturlariga moslashtirilgan xizmat va tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga doir o’rta muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash borasidagi tashabbuslarini yanada rivojlantirish; shu o’rinda mahalliy xomashyodan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va mavjud resurs hamda talab asosida xizmatlar ko’rsatishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Partiya o’zining ommaviy axborot vositalariga ega. Uning markaziy nashrlari:

– o’zbek tilida chop etiladigan “O’zbekiston ovozi” gazetasi;

– rus tilida chop etiladigan “Golos Uzbekistana” haftaligi.

Partiyaning rasmiy veb-sayti va elektron pochta: www.xdp.uz, info@xdp.uz.

O’zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi haqida

O’zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi 1995 yil 18 fevralda partiyaning birinchi Ta’sis Qurultoyida tashkil topgan. Bugungi kunda O’zbekiston "Adolat" SDP o’z safida 135 mingdan ortiq a’zoni birlashtirgan 3700 dan ziyod boshlang’ich partiya tashkilotlariga ega.

O’zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadi:

– demokratik, huquqiy davlatni, ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda hamda O’zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta’minlangan ma’naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish.

Partiyaning vazifalari:

– O’zbekiston mustaqilligini mustahkamlash borasida demokratik jarayonlarni jadallashtirish;

– O’zbekistonda huquqiy-demokratik davlat barpo etish borasida Vatanga sadoqatli xizmat qiladigan insonlarni tarbiyalash;

– O’zbekiston fuqarolariga o’z qonuniy huquqlari, erk va burchlarini anglashga ko’maklashish, ularning siyosiy ongi, madaniyatining rivoji uchun kurashish;

– o’zbek xalqining milliy an’analariga tayangan holda milliy qadriyatlarni tiklash, boy madaniy merosimizni o’rganish asosida yosh avlodni tarbiyalash;

– millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, do’stlik va hamjihatlikni rivojlantirish, har qanday millatchilik, diniy ekstremizm, terrorizm illatlariga qarshi kurash olib borish, dinlararo bag’rikenglikni, tinchlik va barqarorlikni, millatlararo totuvlikni targ’ib qilish;

– davlat ijroiya tizimini takomillashtirish, davlat hokimiyati organlarida iymonli, pok, o’z Vatani, xalqini sevadigan va elu yurtiga sadoqat bilan xizmat qiladigan rahbar va mutaxassis kadrlarning ishlashiga erishish;

– respublika fuqarolarining turmush darajasini ko’tarish, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholining muhofazasini ta’minlash borasida takliflar ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

– O’zbekistonning jahon miqyosida o’z o’rnini egallashi, dunyodagi ilg’or davlatlar bilan xalqaro huquq talablari asosida o’zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirish uchun faoliyat ko’rsatish, milliy manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosatni qo’llab-quvvatlash;

– Partiyadan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining saylanadigan lavozimlariga nomzodlar ko’rsatish, qayd etilgan saylovlarda ishtirok etish, shuningdek, saylangan organlarda faoliyat ko’rsatish;

– malakali mutaxassislar, byudjet sohalari xodimlari, pedagoglar, shifokorlar, muhandis-texnik va ilm-fan vakillari, xizmat ko’rsatish sohalari mehnatkashlari manfaatlarini himoya qilish.

Partiya faoliyati ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti negizida fuqarolik jamiyatini qurish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayoniga aholining barcha qatlamlarini jalb etish, hokimiyatning vakillik organlari orqali davlat boshqaruvida ishtirok etish, fuqarolarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, mamlakat hayotining muhim masalalari yuzasidan o'z tarafdorlarining fikr va mulohazalarini yuzaga chiqarish va bu masalalar bo'yicha partiya pozitsiyasini keng jamoatchilikka va barcha pog'onadagi davlat hokimiyat organlariga yetkazishga qaratilgan.

Partiya o'zining g'oyalariga sadoqatli hamda saylovchilar ishonchini qozongan nomzodlarni davlat hokimiyatining vakillik va ijro organlariga ilgari suradi.

Partiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rniga ega bo'lgan taqdirda hamda mamlakat qonunchiligiga asosan eng ko'p deputatlik o'rniga ega bo'lgan boshqa partiyalar bilan blokda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga o'z nomzodini ilgari suradi.

Partiyaning oliy organi Qurultoy hisoblanadi. Siyosiy Kengash Plenumlari har yilda kamida ikki marta o'tkaziladi.

"Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasi O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining rasmiy nashri hisoblanadi, gazeta 1995 yil 22 fevralda tashkil etilgan.

Partiyaning rasmiy veb-sayti va elektron manzili: www.adolat.uz, info@adolat.uz.

Umuman olganda, O'zbekiston siyosiy partiyalari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynamoqda. SHu bilan birga, o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan ishlar tahlili, amaldagi ishlarning xolisona va murosali bahosi hamda mamlakat Prezidenti siyosiy partiyalarni da'vat etganidek, eng asosiysi istiqbolga rejalashtirilgan aniq maqsadlarni belgilashda ularni amalga oshirish mexanizmlarini yana va yana bir bor tanqidiy ko'rib chiqishni talab etmoqda. Bugungi davr bizdan siyosiy munosabatlar sub'ekti sifatida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga partiyalarning faol kirishiga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarni aniqlash, ularning faoliyatini tanqidiy tahlil etishni taqozo etmoqda.

1994 йил 25 декабрь сайловларидан сўнг (жами 250 депутат)	1999 йил 5 декабрь сайловларидан сўнг (жами 250 депутат)	2004 йил 26 декабрь ва 2005 йил 9 январдаги сайловлардан сўнг (жами 120 депутат)	2009 йил 27 декабрь ва 2010 йил 10 январдаги сайловлардан сўнг (жами 150 депутат)	2014 йил 21 декабрь ва 2015 йил январдаги сайловлардан сўнг (жами 150 депутат)
ХДП – 69 депутат; "Ватан тараққиёти" – 14 депутат; Маҳаллий ҳокимият органлари ва фуқароларнинг ташаббускор гурӯҳлари – 167 депутат	ХДП – 48 депутат; "Ватан тараққиёти" – 20 депутат; "Адолат" СДП – 11 депутат; "Миллий тикланиш" ДП – 10 депутат; "Фидокорлар" МДП – 34 депутат; Ҳокимият вакиллик органлари – 110 депутат; Фуқаролар ташаббускор гурӯҳлари – 15 депутат	ЎзЛиДеП – 41 депутат; ХДП – 28 депутат; "Фидокорлар" МДП – 18 депутат; "Миллий тикланиш" ДП – 11 депутат; "Адолат" СДП – 10 депутат; Фуқаролар ташаббускор гурӯҳлари – 12 депутат	ЎзЛиДеП – 53 депутат; ХДП – 32 депутат; "Миллий тикланиш" ДП – 31 депутат; "Адолат" СДП – 19 депутат; Ўзбекистон Экологик ҳаракати – 15 депутат	ЎзЛиДеП – 52 депутат; "Миллий тикланиш" ДП – 36 депутат; Ўз. ХДП – 27 депутат; "Миллий тикланиш" ДП – 31 депутат; "Адолат" СДП – 20 депутат; Ўзбекистон Экологик ҳаракати – 15 депутат

MASHG'ULOTNI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

<i>Talabalar soni -</i>	O'quv vaqti – 2 soat
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi 2. O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari 3. Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Fuqarolik jamiyati haqida umumiy tasavvurni shakllantirish. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumotlar berish, O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida nodavlat, notijorat va jamiyat birlashmalarining mohiyat- mazmuni va vazifalari, ko'ppartiyaviylik va “kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining mohiyatini tushuntirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>
Jamiyat, fuqarolik jamiyati, ma'naviyat, nodavlat jamoat tashkilotlari hususida to'xtalib o'tiladi	Jamiyat va fuqarolik jamiyati mazmun-mohiyatini yoritib bera oladi;
Fuqarolik jamiyati asoslari, asosiy belgilari va xususiyatlari haqida tushuncha hosil qiladi	Fuqarolik jamiyatining demokratiya mahsuli ekanligini va unda yuksak ma'naviyatning roli muhim ekanligini aytib beradi
“Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari” tamoyilini tushuntirib beradi;	Davlat funksiyalarini fuqorolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga o'tib borishi haqida gapira oladi.
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, “Tushunchalar tahlili”, “Veen diagrammasi”, “SWOT tahlil”, FSMU, “Muammoli vaziyat”
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, sxemalar, slaydlar, doska
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoaviy ishlash, kichik guruhlarda ishlash
<i>O'qitish nazorati</i>	Kompyuter, proektor mavjud auditoriya
<i>Manitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Mavzuga kirish (20 minut)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishtiradi	O'UM ga qaraydi
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi	Tarqatmalardan foydalanadi
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. Ekraniga tayanch ibora va tushunchalarini chiqaradi, “Tushunchalar tahlili” usuli yordamida asosiy tushunchalar umumiy muhokama asosida tahlil qilinadi (1-ilova)	Tinglaydilar. Muhokama qiladilar. Savollar bilan murojaat qiladi
	2.2. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli bo'yicha ma'ruza qiladi. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida fuqarolik jamiyati	Tinglaydilar, yozadilar, savollarni


	instituti tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi vizual materiallar asosida yoritib beradi (1-4-chizmalar) 2-ilovadagi topshiriq bajariladi	muhokama qilib, ularga javob beradilar
	2.4. Nodavlat, notijorat va jamiyat birlashmalarining mazmun – mohiyati va vazifalari chizmalar orqali yoritib beradi (5-8- chizmalar) 3-4-ilovadagi topshiriqlar bajariladi	Tinglaydilar. Organayzerni to'ldiradilar, erkin fikr bildiradilar
	2.5. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyilining mohiyatini, ko'ppartiyaviylik 9-10–chizmalar orqali tushintirib beriladi	Tinglaydilar, yozadilar, fikr bildiradilar
	2.6. FSMU texnologiyasi asosida ko'ppartiyaviylik tahlil qilinadi (5-ilova) 2.7. “Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti” masalasi SWOT tahlil qilinadi (6- ilova)	FSMU jadvalining to'ldiradilar SWOT to'ldiriladi
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1.Mashg'ulot bo'yicha umumiy, yakuniy xulosa chiqaradi	Eshitadi
	3.2. Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholaydi Uyga vazifalar beriladi – 7-ilova	O'zini qiziqtirgan savollar beradi

1-ilova

Mashg'ulotning dastlabki qismida talabalarning mavzu doirasidagi birlamchi bilimlarini aniqlashtirib olish, ularni mavzuga tegishli bilimlarni egallashlariga moslashtirish maqsadida “Blits-so'rov” va “Tushunchalar tahlili” usullaridan foydalaniladi:

BLIS-SO'ROV


№	Savollar	Javoblar
1	Jamiyat deganda nimani tushunasiz?	O'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi
2	Fuqarolik jamiyati?	Jamiyat hayoti faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan boshlang'ich nodavlat tizimlarni o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir
3	Siyosiy partiya?	Qarashlari, manfaatlari bir bo'lgan kishilar birligi bo'lib, o'zini o'zi boshqarish tashkiloti hisoblanadi
4	NNT larga misol keltiring?	Fuqarolik jamiyatini monitoring qilish mustaqil instituti
5	Jamoat tashkilotlari?



TUSHUNCHALAR TAHLILI	
Fuqarolik jamiyati	Fuqarolik jamiyati yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir
Fuqarolik jamiyati institutlari	fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoatchilik tashkilotlari hamda fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari
Nodavlat notijorat tashkilotlar	Nodavlat va jamoat tashkilotlari - davlatga qarashli bo'lmagan, lekin ma'lum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanada.
Ko'ppartiyaviylik	Fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri siyosiy maydonda demokratik mamlakatlarga xos bo'lgan ko'ppartiyaviylik tizimini qaror toptirishdir. Faqat ko'ppartiyaviylikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar majmuasigina fuqarolik jamiyatini qurish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. har bir mamlakatdagi davlat, hukumat va parlamentni shakllantirishda siyosiy partiyalarning qanday mavqega egaligi, bu jarayonlardagi ishtirokining qanday kechishi, xalqning partiyaviylik tizimi asosida kechgan saylovlardagi faollik darajasi hozirgi davrga kelib demokratiya me'yorlarini belgilab bormoqda.
Siyosiy partiya	Siyosiy partiya umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy manfaatlar, maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiruvchi turg'un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalaridan biri, hozirgi zamon demokratik davlati hayotining zururiy omillaridan biridir.

Talabalarda Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi to'g'risidagi bilimlar va tasavvurlarni shakllantirish, rivojlantirish uchun avvaldan tayyorlangan didaktik materiallar, chizmalardan foydalaniladi. Bunda taqdimotlar va tarqatma materiallarning zamonaviyligi va qisqa, aniqligiga e'tibor qaratiladi.

1-chizma



2-chizma



FUQAROLIK JAMIYATI

3-chizma

Fuqarolik jamiyati - teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini ta'minlashga ko'rmaklashadigan jamoat va nodavlat institutlarining tizimidir.

Bu jamiyat sharoitida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik hamda manfaatlarini aks ettiruvchi, muhofaza etuvchi turli-tuman uyushmalar, birlashmalar, nodavlat tashkilotlar va idoralar mavjud bo'ladi. Ular davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lib, o'zini o'zi boshqarish prinsipi asosida jadal faoliyat ko'rsatadi.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy haëtgga katta ahamiyat beriladi. Uning maqsadlarini, haëtiy orzularini, niyatlarini shu jamiyatdagi tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Bu tashkilotlar, institutlar va guruhlar alohida shaxsga uning hokimiyat manbai ekanligini tushuntirishga ërdam beradilar

Shuni ham ta'kidlash kerakki, fuqarolik jamiyati jamoat birlashmalarining yig'indisidangina iborat bo'lmay, balki ular faoliyatining natijasida paydo bo'ladigan munosabatlar tizimi hamdir. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini milliy va diniy an'onalarsiz


Bu jamiyat iqtisodiy, kasbiy, madaniy, diniy va boshqa manfaatlarini shakllantirishga va ularni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy aloqalar tizimini ham qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir insonning o'zining manfaatlarini, huquq

Fuqarolik jamiyatida qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini o'zi kamol toptirishiga ërdam beradi, shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda bu barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart ekanligini ham bildiradi.


Konstitutsiya insonni eng katta boylik sifatida alohida ko'rsatgani holda fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona, huquqiy hal etilishini siyosiy jihatdan rasmiylashtiradi.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA ICHKI TIZIMLARINI QUYIDAGICHA TASNIFLASH MUMKIN:


Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi institutlar va tuzilmalar



Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi institutlar va tuzilmalar:




Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar:



Ijtimoiy–siyosiy ta’limotlarda “demokratik jamiyat” va “fuqarolik jamiyati” tushunchlari keng qo’llanilmoqda. Makur tushunchalar haqida yaxlit tushuncha hosil qilish maqsadida “Veen” diagrammasida yordamida tahlil qilish vazifasi birgalikda bajariladi.

2-ilova

VEEN DIAGRAMMASI



JAMOAT BIRLASHMASI TUSHUNCHASI

5-chizma

O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma’rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e’tirof etiladi.



Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo‘laklari tashkil etish taqiqlanadi.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI TUSHUNCHASI

Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

(NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI TO‘G‘RISIDA QONUNNING 2-MODDASI)

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTINING HUQUQLARI

6-chizma

- ❖ o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;
- ❖ ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;
- ❖ davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;
- ❖ o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish;
- ❖ ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;
- ❖ ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;
- ❖ o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;

JAMOAT FONDI

Jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoli bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e'tirof etiladi.

Jamoat fondiga uning muassislari (muassisi) yoki vasiyat qiluvchi tomonidan o'tkazilgan mol-mulk fondning mulkidir. Fond muassislari (muassisi) yoki fond vasiyatnoma bo'yicha tashkil etilganida vasiyatnomani ijro etuvchi fondning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, fond esa muassislarning (muassisning) yoki vasiyatnomani ijro etuvchining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Jamoat fondining mol-mulkidan fond ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi. Jamoat fondi har yili o'z faoliyati to'g'risida hisobot e'lon qilib borishi shart.

O'z navbatida, mamlakatimizda hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:

**1. Iqtisodiy sohadagi
manfaatlarni
ifodalovchi
tuzilmalar:**



xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlari; ijara asosida ishlovchi jamoalar; hissadorlik jamiyatlari; moliyaviy jamg'arma hamda uyushmalar; ishlab chiqarish korporatsiya, konsernlari va birlashmalari; tadbirkorlar palata hamda uyushmalari va boshqalar.

**2. Ijtimoiy sohadagi
manfaatlarni
ifodalovchi
tuzilmalar:**



oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; ta'lim-tarbiya muassasalari (maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari); jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; mustaqil OAV; diniy tashkilotlar; milliy-madaniy markazlar; ixtiyoriy ko'ngilli jamiyatlar; jamoatchilik fikrini aniqlash va o'rganish institutlari; turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va boshq.

**3. Siyosiy sohadagi
manfaatlarni
ifodalovchi
institutlar va
tuzilmalar**



siyosiy partiyalar; ijtimoiy- siyosiy harakatlar; inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va boshqalar

Jamoat birlashmalari o'z faoliyat doiralariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

8-chizma

Aholining muayyan yirik toifalari ijtimoiy manfaatlarini ko'zlab ishlashga ixtisoslashgan hukumatga qarashli bo'lmagan umummilliv tashkilotlar

Bunday tashkilotlar qatoriga «Mahalla» jamg'armasi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Nogironlar uyushmasi, «Nuroni» faxriylar jamg'armasi kiradi;

Ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg'armalar

«Ekosan», «Sog'lom avlod uchun» va chet elda ta'lim olish uchun iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash «Iste'dod» jamg'armasi, Orolni qutqarish jamg'armasi, Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va fan arboblari anjumani;

Hukumatga qarashli bo'lmagan huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar

Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi, huquqiy yordam ko'rsatish markazi va h.k

Ijodkor ziellilarning milliy jamoat tashkilotlari

(yozuvchilar, artistlar, rassomlar, bastakorlar, arxitektorlar, kinochilar, sudyalalar va advokatlarning jamoat tashkilotlari);

Madaniy markazlar

O'zbekistonda yashovchi milliy (ozchilikni tashkil etuvchi) jamoat vakillari madaniyati, urf-odatlarini saqlab qolish maqsadida birlashtirilgan madaniy markazlar 100 tadan ortiq;

Umummiliy xayriya jamiyatlari va xilma-xil jamg'armalar

bolalar jamg'armasi, bolalar uylarining tarbiyalanuv-chilarini ijtimoiy himoya qilish jamg'armasi; Respublika talabalar jamg'armasi va h.k.

Ijtimoiy ahamiyatli va ijodiy qiziqishlar bilan bog'liq




ekologiya masalalari bo'yicha mahalliy birlashmalar, sayyohlik va badiiy havaskorlik klublari, nogiron bolalar otalarining birlashmalari;

Jamoatchilik birlashmalari

«Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, Samarqanddagi mushkul vaziyatlarda ayollar va o‘smirlarga ruhiy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi «Sabr» ishonch markazi kabi hukumatga qarashli bo‘lmagan mahalliy ijtimoiy muassasalar

Nodavlat tashkilotlar mazmuni va mohiyati borasidagi ma’lumotlar bilan tanishib chiqilgach, talabalar bilan hamkorlikda quyidagi vazifa muhokama qilindi:

Savol: NNTlar nima uchun kerak?


Fikr	Izoh
Davlat xarajatlarini (byudjetini) iqtisod qiladi	Chunki, NNTlar davlat byudjetidan to‘g‘ridan to‘g‘ri mablag‘ olmaydi. NNTlar tomonidan grant va subsidiyalar shaklida olinadigan mablag‘lar ijtimoiy muammolarni ancha arzon hal etish imkonini beradi;
Jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni o‘z vaqtida aniqlaydi va barchani xabardor etadi	
Ijtimoiy muammolarni hal etish borasida tavsiyalar beradi, yangi tajribalarga ega bo‘ladi, tatbiq etadi	
Jamiyatda yuzaga keladigan “bosh og‘rig‘idan” xalos etadi, ularning kamayishiga erishadi	

4-ilova

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI QUYIDAGI VAZIFA ASOSIDA TAHLIL QILINADI:

Aholining turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini ifoda etadi;




Nogironlar tashkilotlari,..... 

Fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil sanaladi;



Siyosiy partiyalar,..... 



5-ilova

FSMU texnologiyasi asosida **“O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar faoliyati”** tahlil qilinadi. Natijada nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlash, asoslar ko‘rsatib berish, tizimli fikrlashga o‘rgatish kabi vazifalar hal qilinadi.

F	Mustaqillik yillarida mamlakatimizda davlat hokimiyati demokratik k'oppartiyaviylik asosida shakllantirilmoqda
S	Chunki, siyosiy partiyalarning mavjudligi va hokimiyatning saylovlar asosida shakllanishi demokratik davlatning muhim belgisidir.
M	Masalan, O‘zbekistonda 4 ta siyosiy partiya saylovlarda ishtirok etishmoqda
U

9-chizma

O‘ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN SIYOSIY PARTIYALAR	
	<p>O‘zbekiston Xalq-demokratik partiyasiga 1991 yil 1 noyabrdagi partiyaning Ta’ sis qurultoyida asos solindi.</p> <p>O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga va himoyaga muhtoj fuqarolarining manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Eng avvalo, bular iqtisodiyotda band bo‘lmagan mehnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlardir. Bular – pedagoglar, vrachlar, boshqa ijtimoiy sohalarning xodimlari va mutaxassislari, kam ta’minlangan va ko‘p bolali oilalar, pensionerlar hamda, imkoniyatlari cheklangan kishilar.</p>

	<p>Partiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o'zlikni anglashning o'sishi, milliy g'urur, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish; - o'z safida yurtning vatanparvarlarini birlashtirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini O'zbekiston manfaatlari hamda uning xalqaro obro'e'tiborini oshirish yo'lida safarbar etish; - yoshlarni o'z Vatanini hurmat qilish, sevish va u bilan faxrlanish, har qanday sharoitda milliy mustaqillikni, xalqning qadriyatlarini, an'analari va urf-odatlarini asrash va himoya qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, uning ma'naviy ehtiyojlari va qiziqishlarini cheklashga bo'lgan urinishlarga qarshi kurashishga ta'sirchan hissa qo'shish.
	<p>O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashga; Respublikada kechayotgan islohotlarning jadallashuviga, huquqiy, demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishga; jamiyat hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy adolat g'oyalari qaratilgan toptirishga; aholining kam ta'minlangan ehtiyojmand qatlamlari uchun zarur ijtimoiy muhofazani taminlashga munosib hissa qo'shishdan iborat.</p> <p>“Adolat” SDP ning ijtimoiy asosi – o'rtahol va ehtiyojmand aholi tabaqalari bo'lib, partiya ularning siyosiy va ijtimoiy irodalarini namoyon etishga intiladi. Aholining kam taminlangan qatlamlarini ijtimoiy muhofaza etishga ko'maklashadi, ijtimoiy adolat tamoyillariga qat'iy amal qilib, ularning manfaatlarini, haq-huquqlarini himoya qiladi.</p>
	<p>2003 yil 15 noyabrda "Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi"ning Ta' sis qurultoyi bo'lib o'tdi. 2003 yil 3 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan.</p> <p>O'zLiDeP mulkdorlar sinfi, kichik biznes, fermer va dehqon xo'jaliklari, ishlab chiqarish va boshqaruvdagi yuqori malakali mutaxassislar hamda ishbilarmon kishilar manfaatini ifoda etadi va himoya qiladi. Partiya a'zolarining 65 foizini tadbirkorlar, fermerlar, xususiy sektor vakillari, qolgan 35 foizini esa aholining boshqa qatlamlari vakillari tashkil etadi.</p>
	<p>O'zbekiston ekologik harakati 2008 yilning 2 avgustida tashkil topgan va 2008 yilning 20 sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan.</p> <p>O'zbekiston ekologik harakati atrof tabiiy muhitni va inson salomatligini muhofaza qilishda faol ishtirok etuvchi, bu yo'nalishdagi g'oyalarni qo'llab-quvvatlovchi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohatlarni ekologik yondoshuv asosida o'tkazish O'zbekistonning barqaror rivojlanishida eng samarali yo'l ekanligini anglab etgan barcha fuqarolarni birlashtirishga yo'naltirilgan.</p>

Ўзбекистон сиёсий партияларининг

АСОСИЙ ФАРҚЛАРИ



МАФКУРАСИ

Ижтимоий давлат ғоясига асосланган халқ демократияси	Социал-демократия	Либерал демократия	Миллий тикланиш ғояси, мўтадил консерватизм
--	-------------------	--------------------	---


СИЁСИЙ МАЙДОНДАГИ ЎРНИ



ЭЛЕКТОРАТ (ИЖТИМОИЙ ТАЯНЧ)






АСОСИЙ ҒОЯЛАР МАЪМУНИ




“SWOT” (KKIT) tahlil

Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti

S – Kuchli tomoni	<i>Aholi barcha qatlamlari manfaatlarining yuzaga chiqishi</i>
W – Kuchsiz tomoni (Salbiy ta'sirlar)	
O - Imkoniyatlar	
T - Tahdidlar	

MAVZU BO'YICHA MUSTAQIL TA'LIM VAZIFALARI
1. Kalster tuzish



3. Nilufar guli jadvalini to'ldiring

4.

Mavzu: Fuqarolik jamiyati institutlari

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

13-MAVZU: AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH, AXBOROT VA SO'Z ERKINLIGINI TA'MINLASH

Reja:

1. Axborot erkinligini ta'minlash tushunchasi, mazmun-mohiyati
2. Ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlar va axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini rivojlatirilishi
3. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash
4. Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklari

Tayanch so'z va iboralar: *Axborot, ommaviy axborot vositalari, axborot sohasini liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati, nodavlat ommaviy axborot vositalari, Internet, Elektron hukumat.*

Axborot erkinligini ta'minlash tushunchasi, mazmun-mohiyati

Ommaviy axborot vositalari – jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolar erkinligini ta'minlashning muhim shartidir. Demokratik islohotlarni hayotga tatbiq etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'рни va ahamiyati katta. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida aholining, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning axborotga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, shu bilan birga, ularning ongi, dunyoqarashi va siyosiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Siyosiy hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, bog'lab turuvchi, ular orasidagi shaffoflikni ta'minlab beruvchi birdan-bir vosita ham ommaviy axborot vositalaridir. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, O'zbekistonda mustaqillikning ilk davridan boshlab ommaviy axborot vositalariga to'rtinchi hokimiyat darajasida e'tibor berilgani bejiz emas, albatta.

Xususan, O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish bosqichma-bosqich, izchil, tizimli va tadrijiy tarzda amalga oshirilayotir. Mamlakatda OAV fao-liyatini qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish borasida mustahkam qonuniy asos shakllantirilgan. Bu esa umumiy

e'tirof etilgan xalqaro me'yor va andozalarga mos bo'lib, axborot sohasini jadal, izchil va erkin rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Mamlakatimizda birgina ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi o'ndan ziyod qonun qabul qilingan. Ulardan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlarni sanab o'tish mumkin.

2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining soni 1 ming 510 tadan oshdi. Ularning mingdan ziyodi an'anaviy OAV bo'lsa, qariyb 400 tasi internet nashrlari ekani milliy mass-media makonida elektron ommaviy axborot vositalarining o'rni tobora ortayotganidan dalolat bermoqda.

2016 yilda agentlik va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 42 bosma, 92 elektron ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Sohada xususiy sektorning salmog'i ortmoqda. Joriy yilning boshida davlatga qarashli bo'lmagan OAV soni 975 taga etgan, ya'ni milliy mass-media maydonining 63,4 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu tendensiya nashriyotchilik faoliyatida ham kuzatilmoqda. Faoliyat ko'rsatayotgan 120 dan ziyod noshirchilik korxonasi qariyb yarmi nodavlat nashriyotlar ekani mazkur yo'nalishda kuchli raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Matbaa sohasini jahon andozalari darajasida rivojlantirish, poligrafiya korxonalarini modernizatsiyalash borasidagi sa'y-harakatlar natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati yaxshilanmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda ayni yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan 1 ming 750 dan ortiq korxonaholdingning matbaa mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq ta'minlamoqda. Birinchi Prezidentimizning 2011 yil 30 dekabrda «Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida»gi qarori bilan soha korxonalari besh yil muddatga bir qator soliq va bojxona to'lovlari to'lashdan ozod etilgandi. Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 27 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»ga qaroriga muvofiq mazkur imtiyozlar muhlati yana ikki yilga – 2019 yilgacha uzaytirildi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalariga mansub bo'lgan matbaa tashkilotlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizgacha kamaytirildi. «Ijod» jamoat fondiga to'lanadigan majburiy ajratmalar miqdori ikki foizdan bir foizgacha pasaytirildi.

OAV va davlat hokimiyati o'rtasidagi munosabatlar bir tomondan xorijiy davlatlarda faqat qonunchilik yo'li bilan tartibga solinib, ommaviy axborot vositalarining erkinligini kafolatlab qo'ysa, ikkinchi tomondan esa fuqarolarning axborot olish huquqi, erkin fikr bildirish huquqi, siyosiy plyuralizm, OAV jamiyat oldida ma'sulligi va nazorati ostida bo'lishini anglatadi. Hozirgi kunda OAV nafaqat jamiyatni axborotdan xabardor qilish vositasi sifatida, balki jamiyat manfaatlarini nuqtai nazaridan davlat faoliyatini nazorat qilish vositasida bir qator vazifalarni amalga oshirmoqda. SHuning uchun demokratik mamlakatlarda davlat bevosita OAV faoliyati ustidan boshqaruvni hamda o'z manfaat yo'lida undan foydalanishi mumkin emas. SHunga qaramasdan davlat OAV sohasidagi jarayonlarni nazorat qilish va tartibga solishni saqlab qolgan. OAV faoliyati tartibga solish va nazoratni amalga oshirish qonunchilik tizimi hamda OAV larga ko'mak ko'rsatishga qaratilgan xukumat dasturlarini ishlab chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudi OAV erkinligi jamiyat manfaatlarining qo'riqlanishida hamda axborotning jamiyat qatlamlariga keng tarqalishida alohida himoyalaniшни talab etishi lozim degan qarorga kelgan¹⁷³. Avstriya, Germaniya, Kanada, Niderlandiya, Norvegiya, AQSH, Fransiya axborot sohasida erkin fikr bildirish yozma ravishda konstitutsiyalarda belgilab qo'yilgan. Germaniya va Ispaniyada axborot vositasi vakillari axborotni to'plash va tarqatish borasida katta huquqlarga ega. Ayrim mamlakatlarda OAV lar erkinligi va fikrlar plyuralizmini qo'llab-quvvatlash maqsadida hukumatga vazifalar (Niderlandiya, SHvetsiya) yuklatilib qo'yilgan yoki sud yo'li orqali (Fransiya, Germaniya), Niderlandiya, Ispaniya, SHvetsiya Konstitutsiyalarida fuqarolarning axborot olish borasidagi huquqlari yozib qo'yilgan bo'lsa, Fransiya Germaniya, AQSH sudlari esa shunday huquqlarning ta'minlanishini kafolatlaydi. SHvetsiya Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga davlat

xizmati borasidagi axborot va ma'lumotlar bilan tanishib chiqishni huquqiy jihatdan kafolatlab qo'ygan.

Federativ davlatlar (Kanada, AQSH, Avstraliya) ommaviy axborot vositalari faoliyatining aniqlashga qaratilgan asosiy qonunlar tuhmat qilish va shaxsiy hayotga aralashish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni qamrab oladi. Avstriyada federal hukumat ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etish vakolatiga ega. Germaniyada tuhmat qilish, insonlarning shaxsiy hayotiga aralashish bilan bog'liq holatlar erli o'lkalar qonunchiligi asosida hal etiladi. Keyingi yillarda Germaniyada ommaviy axborot vositalari faoliyatiga daxldor bo'lgan barcha masalalar federal hukumat tomonidan hal etilishini ko'pchilik oqlamoqda¹⁷⁴. Avstriya va Shvetsiyada bosma ommaviy axborot vositalariga bag'ishlangan alohida qonunlar ham mavjud. Mazkur qonun SHvetsiyada konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lgan hisoblanadi. SHuni ta'kidlash lozimki, Avstraliya, Kanada, Gollandiya, Norvegiya, Ispaniya, buyuk Britaniya, AQSHda bironta bosma ommaviy axborot vositalari faoliyatiga bag'ishlangan qonunlar mavjud emas. Germaniya Konstitutsiyasi fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini kafolatlaydi. Shvetsiyada fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini bilan bog'liq barcha masalalar ommaviy axborot vositalarining erkinligi to'g'risidagi qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

Axborot olish huquqi insonning nafaqat fuqaroviy huquqi, balki daxlsiz huquqi hamdir. Insonning xuquqlar ichida so'z va fikr erkinligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu huquqlari xalqaro huquqiy me'yorlarda, shuningdek milliy qonunchiligimiz yordamida kafolatlanadi. Demak, jamiyatimizning har bir a'zosi axborot olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi barcha qonunlarda axborot olish, tarqatish borasidagi demokratik huquqlar aniq-ravshan bayon etib berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29- moddasida "Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega" deyilgan. SHuningdek O'zbekiston Respublikasi "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida ham "Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborot izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi" deyiladi. Senzuraga, axborotning monopollashtirilishiga yo'l qo'yilmasligi, ommaviy axborot vositalarining axborot olish, qayta ishlash va tarqatish huquqlari, jurnalistlarning professional faoliyatini kafolatlash va himoya qilish qonunan belgilangan, ommaviy axborot vositalarini ro'yxatdan o'tkazish qoidalari soddalashtirilgan. Hozirda jurnalist kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash Davlat dasturi amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Elekron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi tashkil etildi. Mamlakatda fikrlar xilma-xilligi va aholining siyosiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan ko'p partiyali matbuot rivojlanmoqda. O'zbekiston aholisining ko'p millatli ekanligi inobatga olinib, 12 tilda gazetalar chop etilmoqda, bir necha tilda teleko'rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilayapti.

YUrtimizda 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Jurnalist ijodkorlarni har tomonlama rag'batlantirish masalasiga ham katta e'tibor berilayotir. Buni o'tkazilayotgan turli ko'rik- tanlovlar, xususan "Yilning eng faol jurnalisti", "Eng ulug' va eng aziz", "Atirgul" singari ko'rik-tanlovlarning nufuzi yil sayin oshib, ishtirokchilar safi tobora kengayib borayotganidan ham bilish mumkin. 3 may – Jahon matbuoti erkinligi kuniga bag'ishlab jurnalistika sohasida "Oltin qalam" Milliy mukofoti ta'sis etilib tanlov o'tkazilmoqda. Undan ko'zlangan asosiy maqsad, milliy va xalqaro jurnalistikaning eng yuksak yutuqlarini ommalashtirish, ommaviy axborot vositalari xodimlari fuqarolik pozitsiyasini namoyish etishlari uchun sharoit yaratish hamda jurnalistikada tanqidiy-tahliliy fikrlashni va ijodiy faoliyatga yangicha yondashuvlarni shakllantirishdan iborat edi.

Keyingi yillarda yurtimizda ommaviy axborot vositalari faoliyati har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani va rag'batlantirilayotgani samarasida ularning soni va sifati oshib bormoqda. 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 1,4 mingga yaqin ommaviy axborot vositalari, jumladan, 970 dan ziyod bosma va 100 elektron nashr ro'yxatdan o'tgan. 1991 yilgi ko'rsatkich bilan taqqoslaganda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan OAV

soni 3,5 marta marta oshgan. 53,4 foiz bosma ommaviy axborot vositalarining muassislari nodavlat tashkilotlardir. 29 foiz tele va radiokanallarga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari muassislik qilmoqda, 67 foizining muassisi esa nodavlat tashkilotlaridir.

Ommaviy axborot vositalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan internet resurslari ham sezilarli o'sib bormoqda. So'nggi besh yilda ularning soni 2 barobardan ko'proq ortdi. Xususan, shu yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, internet ommaviy axborot vositalari 304 tani tashkil etdi. SHundan 95 foizdan ortig'i nodavlat ommaviy axborot vositalaridir.¹⁷⁶

XX asrda yuz bergan axborot inqilobi global hayotning barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar yasadi. Axborotning globallashuvi jahonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, diniy va ahloqiy hayotida favqulodda ahamiyat kasb eta boshladi. Dunyoning etakchi mamlakatlari, xatto alohida shaxslar uchun axborot va kommunikatsiya vositalariga egalik qilish va boshqarish strategik maqsadga aylandi. Aytish mumkinki, ayni zamongacha hali hech qachon axborotning ahamiyati bunchalik ulkan bo'lmagan. Axborotning globallashuvi, ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi barobarida dunyo davlatlari uchun global axborot makonida o'z milliy manfaatlarini himoya qilish muammosi kun tarkibidagi muhim masalalardan biriga aylandi.

Suveren davlatning er, suv, havo maydoni kabi axborot maydoni ham bor. Biroq axborot maydoniga chegara yoki to'siq qo'yib bo'lmaydi. OAV geografik chegara bilmay, bizni global axborot makoni bilan bog'lovchi ko'prikdir. Bugungi kunda keng jamoatchiligimizni xavotir va tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, axborot makonida nosog'lom manfaatlar, qarashlar, fikrlar to'qnashuvi, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ta'siridagi axborot, milliy axborot makonimizga, milliy qadriyatlarimizga va barkamol avlodni voyaga etkazish g'oyamizga mutlaqo zid axborotning kirib kelishidir. Har qanday so'z va axborot o'zagida mafkura, tarbiya, axloq elementlari mavjud. YOshlar ulg'ayayotgan axborot makonida ularni o'rab turgan axborot muhitining yoshlar tafakkuri, tarbiyasi, ularning ma'naviy dunyosining shakllanishida sezilarli ta'siri bor, albatta.

Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan bugungi zamonda har qanday ommaviy axborot vositasining jahon axborot makonida o'z o'rniga ega bo'lishi, rivoj topishi ular oldida turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy tomondan ham mustaqil va mustahkam bo'lgan ommaviy axborot vositasigina o'z mavqeini saqlab qolishi mumkin. Bunday mukammal rivojlangan ommaviy axborot vositasi faqatgina bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelishi mumkinligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Axborot bu ijodkor, jurnalistning ijod mahsuli bo'lib, nomoddiy tovar sifatida baholanadi. YA'ni axborot davr o'tishi bilan o'zining yana bir jihatini namoyon eta boshladi. Bu ham bo'lsa u nafaqat targ'ibot va tashviqot vositasi, balki ma'lum moddiy qiymatni o'zida aks ettiruvchi tovar bo'lgani bois bugun dunyo axborot makonida uning sifatiga qarab qancha bahoga savdolashayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Mustaqillik davrida O'zbekistonda ham shunday ommaviy axborot vositalari paydo bo'ldiki, garchi ularga "sariq matbuot" deb nom berilgan bo'lsa-da, ularning mamlakatimiz media bozoridagi o'rni e'tiborga sazovordir. Davr o'tishi bilan ommaviy axborot vositasining ham shakl, ham mazmun jihatdan o'zgarishlari zamirida moliyaviy ta'minot muhim o'rin tutishini esdan chiqarmaslik kerak.

Bozor iqtisodiyotining keskin va qat'iy talablaridan biri bo'lgan o'zini o'zi moliya bilan ta'minlash tamoyili ommaviy axborot vositalariga ham tatbiq etildi. Uzoq yillar davomida davlat tomonidan aniq belgilangan majburiy obuna hisobidan moliyalashtirib kelingan ommaviy axborot vositalari uchun bu jarayonga kirib borish va bunday keng makonda o'z o'rnini topish oson kechmadi. Davlat o'zining bosh islohotchilik vazifasidan kelib chiqib, davlatga qaram bo'lgan ko'plab ommaviy axborot vositalari yangi sharoitga moslashib olgunlaricha moliyaviy ko'mak berib turdi. Bozor iqtisodiyotining bosqichma-bosqich amalga oshiriluvchi tamoyiliga muvofiq ayrim ommaviy axborot vositalari davlat tasarrufidan chiqarildi va ayni paytda yangi mustaqil, xususiy mulkka ega bo'lgan ommaviy axborot vositalari paydo bo'la boshladi. Bugun aynan xususiy ommaviy axborot vositalari ham son, ham tiraj jihatidan O'zbekiston media bozorining asosiy qismini tashkil etmoqda.

Prezident I.Karimov 2005 yil 28 yanvarda "Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" mavzuida qilgan

ma'ruzasida bir qator ustuvor vazifalarni belgilab berar ekan, demokratik davlat, fukarolik jamiyatini barpo etishda ommaviy axborot vositalari roliga alohida e'tibor berdi. O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti — bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir. Bu boradagi asosiy vazifa mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lmish matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligini va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2010 yilda taqdim etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ommaviy axborot sohasini davr ruhiga hamohang tarzda isloh etish, jurnalistlarning erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun barcha zarur huquqiy-tashkiliy, moddiy va ma'naviy imkoniyatlarni yaratish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Davlat rahbari matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan tabrigida "Bugungi kunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, teleradioeshittirishlar, ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlariga oid yangi qonunlarni qabul qilish bo'yicha ishlarni tezlashtirish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda"¹⁷⁷ – degan edi.

Prezidentimizning 2011 yil 30 dekabrda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimchamediatuzilmalar, nashriyotlar, poligrafiya korxonalarini va matbaa tarqatuvchi tashkilotlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning mustaqilligini ta'minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoat nazoratini o'rnatishda yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Jamiyat har qancha rivojlanmasin jamoatchilik bilan aloqa qilishning eng ta'sirchan vositasi – matbuot, radio, televidenie va Internet bo'lib qolaveradi. Ularning faoliyat ko'lami juda keng, lekin eng asosiy vazifasi xabar va ma'lumot etkazib turish, biror voqea- hodisani yoritib, odamlarni dunyodagi yangiliklardan voqif qilishdir.

Nazariy manbalarda qayd etilishi bo'yicha ommaviy axborot vositalari tipologiyasiga ko'ra 5 ta asosiy turga ega. Bular: matbuot (gazeta, jurnal, axborotnomalar va boshqalar), radio, televidenie, axborot agentliklari, shuningdek, Internet saytlari. Bugun ko'pchilikning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan, to'g'rirog'i, ommaviy axborotning o'ziga xos vositasi sifatida namoyon bo'layotgan Internet veb-saytlari qolgan turlarga qaraganda tezkorligi va imkoniyatlari kengligi bilan ajralib turadi.

Ukrainalik piarshunos G.G.Pochepsov ta'kidlaganidek: "Insonlar gazetadagidan ko'ra televidenie orqali ancha ko'p narsalarni ko'rishlari mumkin. Uning ma'lumotlariga ko'ra, teleekranda beriladigan 69 % axborot so'z bilan ta'riflanmaydi. Bunda, auditoriyaning yarmi o'z ko'rgan narsasini eslab qolishi kuzatiladi. Yangiliklar ovozi ta'riflanganda 16 % kishi, faqat tasvir bilan ta'riflangan yangiliklarni 34 % kishi eslab qoladi. Ovozli ta'riflangan yangiliklarni qayta hikoya qilish so'ralganda kishilardan 32 % i, faqat tasvir bilan ta'riflangan yangiliklarni qayta hikoya qilishda atigi 15 % kishilar xatoga yo'l qo'yishgan."

Tahlil qilish – matbuotning asosiy ustunligidir. Masalan, har qanday gazeta emotsional ta'sir ko'rsatish borasida radio va televideniedan ustun emas. Biroq, matbuot tezkorlik va emotsionalligi jihatidan boshqa sohalardan ortda qolsa-da, tahlil qilish bo'yicha qolganlaridan ustunlikka egadir. Bu esa auditoriya ongiga ishonchli va chuqur ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Tele va radio axborot e'tiborni tezda tortadi, biroq tezda unutiladi. Gazeta yoritgan maqola esa xotirada uzoq muddatga saqlanib qoladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday demokratik jamiyatning taraqqiyot yo'lida axborot milliy manfaat uchun xizmat qilishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib olgandagina uning funksional vazifasi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish, ijtimoiy fikrni shakllantirish va rivojlantirish, davlat hamda fuqarolik institutlarining o'zaro ijtimoiy muloqotida ham u muhim vosita sifatida etakchi o'rin egallaydi. Ommaviy axborot vositalarida jamiyatda olib borilayotgan islohotlar jarayonida turli guruh va ijtimoiy institutlarning kundalik faoliyatlari, talab-ehtiyojlari o'z aksini topadi. Ommaviy

axborot vositalari o'z tabiatiga ko'ra jamiyatning barcha qatlamlari uchun erkin muloqot minbari va ayni paytda ijtimoiy fikrni ifodalovchi vosita ham hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1999 yilda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni NNTlarga 7-moddasida «Ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish», huquqi berilgan bo'lib, bu o'z navbatida, demokratik institutlarning jamiyatdagi faollashuviga yo'l ochadi.

Bugun O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining yuqorida tilga olingan barcha turlari faoliyat ko'rsatmoqda. Istiqbol sharofati tufayli mamlakatimizda qisqa fursat ichida ommaviy axborot vositalarining soni ham, turlari ham, sifati ham ortib bormoqda. Umuman olganda, bugun dunyoda ommaviy axborot vositalarining asosan, gazeta, jurnal, televidenie, radio va nihoyat endi ommaviylashib borayotgan internet nashrlari singari turlari axborot va ma'lumotni jamotchilikka taqdim etuvchi asosiy vositalar sifatida e'tirof etilmoqda. Bu axborot vositalarining, yuqorida aytib o'tganimizdek, har birining o'ziga xos jihatlari mavjud.

Bir narsani unutmashimiz kerak; davr o'tishi bilan ushbu axborot vositalarining hech biri o'zining ijtimoiy ahamiyatini yo'qotmaydi. Garchand eng so'nggi turlari o'zining bir necha jihatlari bilan qolganlaridan ustunlikka ega bo'lsa-da, ularning ta'sir doiralari bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu esa har bir ommaviy axborot vositasi turining nafaqat jamiyatda, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham o'z o'rnini borligi va o'z mavqei imkon doirasida saqlab qolishidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir. SHu tufayli respublikamizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida milliy axborotlashtirish tizimini shakllantirish, jamiyat hayoti va boshqaruvning barcha jabhalariga zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy qilish va ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish va jahon axborot resurslariga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgandir¹⁷⁹. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, axborot resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;

xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish uchun sharoit yaratish;

davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligi va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;

axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko'maklashish;

dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni rag'batlantirish;

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, investitsiyalar jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;

kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish.

Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish hamda uning huquqiy asoslarini tartibga solishda shu yo'nalishdagi Respublika qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar muhim o'rin tutadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari o'ziga xos tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, bugungi kunda huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatining

ajralmas qismiga, ozod va hur xalqimizning xolis ovoziyu soʻziga aylandi. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari erkinligi darajasining muhim koʻrsatkichlaridan biri bu axborot sohasining izchil va erkin taraqqiyoti hamda har kimning hech qanday toʻsiq va moneliksiz axborot olish va undan foydalanishi uchun zarur sharoitlarni taʼminlovchi takomillashgan huquqiy maydonning mavjudligidir. SHu bilan bir qatorda, bugungi kunda barcha davlat organlari oʻzlarining veb-saytlariga ega va har kimning ular orqali oʻzi uchun zarur boʻlgan maʼlumotlar, u yoki bu idoraning faoliyati toʻgʻrisida axborot olish, rasmiy materiallar bilan tanishish imkoniyati mavjuddir. Vazirlik va idora, mahalliy davlat organlari va muassasalarning matbuot xizmatlari, ularning Internetdagi veb-saytlari orqali interaktiv davlat xizmatlari koʻrsatish miqdori oshdi. Mamlakatimizda anʼanaviy axborot vositalari bilan bir qatorda, internet jurnalistikasi ham jadal rivojlanmoqda. “UZ” hududidagi domenlar soni 2015 yilning iyun oyi holatiga koʻra 21,86 mingtaga etdi

Maʼlumki, muhtaram Prezidentimiz Oliy Majlis palatalari- ning 2010 yil 27 yanvar kuni boʻlib oʻtgan qoʻshma majlisidagi “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” nomli maʼruzasida “Ijro etuvchi hokimiyat ustidan parlament nazoratini kuchaytirish vazifasini muvaffaqiyatli hal etish koʻp jihatdan ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilikning bu jarayondagi faol ishtirokiga bogʻliqdir”, deya taʼkidlagan edi.

Darhaqiqat, bugungi shiddatkor davrning oʻzi fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining oʻrni va rolini yanada mustahkamlash vazifasini oldimizga qatʼiy qilib qoʻymoqda. Sohani yanada erkinlashtirish, nodavlat matbuot nashrlari, radio, televidenie faoliyatini jonlantirish, ularning Internet global tarmogʻiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish olib borilayotgan islohotlar siyosatining ochiqqligi va oshkoraligini taʼminlash va kuchli fuqarolik jamiyatining izchil shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz milliy axborot makonini rivojlangan davlatlar erishgan yuksak talab va mezonlar darajasiga koʻtarish, ommaviy axborot vositalariga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosatni, yurtimizda va xorijda sodir boʻlayotgan voqealarni fikrlar xilma-xilligini hisobga olgan holda yanada faolroq yoritish uchun imkon beradigan shart-sharoitlarni yaratish uchun mazkur sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirish zarur. Xususan, Islom Karimov tomonidan 2010 yilning 12 noyabr kuni Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisida taqdim etilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning Axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼminlash yoʻnalishida taklif etilgan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi toʻgʻrisida”gi, “Teleradioeshittirishlar toʻgʻrisida”gi, “Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari toʻgʻrisida”gi, “Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash kafolatlari toʻgʻrisida”gi qonunlar loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisida taqdim etilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” yurtimizda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyiliga asoslangan islohotlarni izchil davom ettirishda butunlay yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi. Unda yurtimizda bugungacha qoʻlga kiritilgan marralarni yanada kengaytirish va mustahkamlash hamda rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan oʻrin egallashdek buyuk maqsadimizga erishishning tamal toshi hisoblangan qonunchilik asoslarini yaratish belgilab berilgandir.

Konsepsiyada asosiy oʻrin egallagan fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi, eng avvalo, inson huquqlarini taʼminlash va ularni kafolatlash bilan hamohangdir. Bugungi kunda esa Oʻzbekistonda inson va uning manfaatlari oliy qadriyatsifatida tan olinib, inson manfaatlari ulugʻlanishiga qaratilgan islohotlar izchil olib borilmoqda. Mana shu tub islohotlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutining ajralmas qismi boʻlgan milliy ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik nazoratini taʼminlash boʻyicha faol ishtirok etishi va peshqadam boʻlishi maqsadga muvofiqdir. Bundan koʻzlangan maqsad Oʻzbekistonda inson resurslari boʻyicha belgilangan barcha xalqaro meʼyorlarga erishishda

shu yo'nalishdagi islohotlarning yanada samarali olib borilishini ta'minlashdir. Zero, 1-Prezident I.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Islohot islohot uchun emas, avvalambor, inson uchun"dir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasida ta'kidlanganidek: "O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishga majburdirlar. Axborot olish imkoniyati tegishli materiallarni e'lon qilish va tarqatish yo'li bilan ta'minlanadi".

Garchand fuqarolarning axborot olish huquqlari Konstitutsiyamizda va ommaviy axborot vositalariga taalluqli bo'lgan amaldagi qonunlarda kafolatlangan bo'lsa-da, axborot olish borasida davlat organlarining ochiqligi va fuqarolar manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan ta'minlash masalasida muayyan muammolar mavjud. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'kidlanganidek, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berishi bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas'uliyatini ham ko'p jihatdan kuchaytirdi. Darhaqiqat, Qonunning asosiy vazifasi sifatida davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari, birinchi o'rinda, aholi va keng jamoatchilikni Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimliklar tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar va qarorlar, avvalambor, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotdan keng xabardor bo'lib borishini belgilash nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini asosiy tamoyillari sifatida belgilash uchun taklif etilayotgan axborotning ochiqligi va oshkoraligi, tezkorligi hamda haqqoniyligidan kelib chiqib, mazkur organlar faoliyati haqida jamoatchilikni atroflicha xabardor qilib borish, axborotni oshkor qilish (e'lon qilish) tartiblari va manbalarini aniq ko'rsatib qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki demokratik hamda ochiq jamiyatda davlat boshqaruvi aholining bevosita va bilvosita ishtirokida amalga oshiriladi. Zero, shundagina fuqarolar mamlakatda qanday qaror va dasturlar qabul qilinayotganini, ularning qay yo'sinda bajarilayotganligini, mas'ul va mansabdor shaxslar o'z vazifalarini nechog'li ado etayotganligini ochiq-oydin bilib borishi, kerak bo'lsa, bu jarayonlarga o'z munosabatlarini bildirishi mumkin bo'ladi.

Konsepsiyada ilgari surilgan tashabbus ommaviy axborot vositalari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishni, ulardan faollikni, aniq yo'naltirilgan maqsadli faoliyatni tashkillashtirishni talab qilmoqda. "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi Qonun, eng avvalo, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar sohalarida davlat idoralari bilan birga fuqarolik jamiyati institutlari tizimida alohida o'rin egallagan ommaviy axborot vositalarining o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. YA'ni jamiyat hayotining turli-tuman yo'nalishlarida qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, istiqbolli dasturlar, loyihalarni amalga oshirishda jurnalistlar tomonidan axborot olish, to'plash va tarqatish masalalarida qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirishga, fuqarolarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida xolis, tezkor va to'la-to'kis xabardor qilishga, davlat va jamoat tashkilotlarining axborot xizmatlari ishining takomillashishiga, fuqarolarning davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilib, bu organlar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi.

14-MAVZU: O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA DEMOKRATIK TAMOYILLARGA ASOSLANISHI

Reja:

- 1.O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy asoslari**
- 2.O'zbekistonnong chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo`nalishlari**
- 3.O'zbekistonning, BMT va xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi, mintaqalararo va davlatlararo munosabatlari**
- 4.O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrashuvi, xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun tashabbuslari**

O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatimiz Konstitutsiyasiga, «Tashqi siyosiy faoliyat Kontsepsiyasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonunlarga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining dasturiy nutqlari va ma'ruzalariga, mamlakatimiz tomonidan imzolangan xalqaro konventsiya va shartnomalarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining ilk kunlaridanoq milliy manfaatlariga asoslangan va har tomonlama puxta o'ylangan tashqi siyosat olib bormoqda. O'zbekiston tashqi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini, uning mintaqaviy va xalqaro masalalarda roli va ahamiyatini mustahkamlab kelmoqda.

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o'z vaqtida va adekvat javob choralari orqali echishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqealarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy maqsadlari - bu davlat mustaqilligi va suverenitetini yanada mustahkamlashdan, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to'laqonli sub'ekti sifatidagi o'rnini va rolini yanada kuchaytirishdan, hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodining barqaror va tez sur'atlar bilan o'sishi, uning ochiq demokratik davlat qurish yo'lidagi jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston o'z tashqi siyosatida quyidagi printsiplarga sodiq bo'lib qolmoqda:

- o'zining milliy manfaatlariga asoslangan ochiq, pragmatik va puxta o'ylangan tashqi siyosat olib borish;

- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, chegaralarning daxlsizligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik.

Tashqi siyosiy faoliyat kontsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

O'zbekiston Respublikasi qo'shni davlatlardagi qurolli mojarolarga va keskinlik uchoqlariga tortilishining oldini olish yuzasidan siyosiy, iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlarni ko'radi, shuningdek o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va ob'ektlari joylashtirilishiga yo'l quymaydi.

Konstitutsiyaga, «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunga va Harbiy doktrinaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faqat davlat suvereniteti va mamlakat hududining yaxlitligini, aholining tinch xayoti va xavfsizligini himoya qilish maqsadida tuziladi hamda xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonning tashqi siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish;
- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga ko'maklashish;
- jahonning etakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish, mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlab turish, O'zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini keng diversifikatsiya qilish;
- mavjud yoki yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish uchun siyosiy diplomatik hamda xalqaro huquqiy mexanizmlardan, jumladan preventiv diplomatiya chora-tadbirlaridan foydalanish;
- O'zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas'uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarni jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;
- O'zbekistonning dunyoning yirik bozorlariga kafolatli chiqishini ta'minlaydigan ko'p muqobilli transport-kommunikatsiya yo'laklarining tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlari har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash.

Prezident Islom Karimov O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga qo'shilishining demokratik tamoyillari haqida. O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda O'zbekistonni 170 dan ortiq davlat tan olgan, dunyodagi 130 ga yaqin mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot, 13 ta nohukumat tashkilotlari ishlab turibdi. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O'zbekiston elchixonalari va moliya tashkilotlari teng huquqli asosda ishlab turibdi. Jahonning 140 mamlakati bilan savdo-iktisodiy munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

O'zbekiston 1992 yil 2 martda BMTga qabul qilindi. O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan va BMT rahnomaligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar bo'lib o'tdi. "O'zbekiston,-degan edi Islom Karimov,- milliy manfaatlariga mos keladigan, ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir". O'zbekiston Prezidentining asosli mulohazalari bilan 1993 yil fevral oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi.

BMT Ustavida va Xalqaro huquq prinsiplari bo'yicha deklaratsiyada 7 ta asosiy prinsip qayd etilgan.

- 1) Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik.
- 2) Ziddiyatlarni tinch yo'l bilan bartaraf etish.

- 3) Aralashmaslik.
- 4) Xalqlarning teng huquqliligi va o'z huquqlarini o'zlari belgilashi.
- 5) Hamkorlik.
- 6) Davlatlarning suveren tengligi.
- 7) Xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish.

Bular EXHKning 1975 yildagi YAKuniy aktida ro'yxatga olinib, 3 ta prinsip bilan to'ldirildi:

- 1) CHegaralarning daxlsizligi.
- 2) Hududiy yaxlitlik.
- 3) Inson huquqlarini hurmat qilish prinsiplari.

Prezident Islom Karimov "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" ma'ruzasida (2005 yil 28 yanvarda) tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlari haqida to'xtalib:

1) dan, davlatimiz tashqi siyosatining ma'no-mazmuni va maqsadi bitta -u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir.

2) Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash. Albatta bunda mintaqada strategik mavhumlik saqlanib qolayotganligini ham tan olish kerak.

3) "Qo'shning tinch - sen tinch" hayotiy naqliga rioya etish.

4) BMT doirasida hamkorlikni rivojlantirish. Shuningdek, EXHT, Evropa Ittifoqi, NATO, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bilan demokratik tamoyillar asosida aloqalarni rivojlantirish.

5) Xalqaro terrorizm va radikalizmga qarshi kurashda birdamlikni ta'minlash va h.k.

O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati: O'zR Konstitutsiyasi 4-bob, 17-moddasida O'zRsining xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosatining **huquqiy (5 ta) prinsiplari** ishlab chiqildi va asoslab berildi:

- 1) Davlatlarning suvereniteti, tengligi.
- 2) Kuch ishlatmaslik yoki tahdid qilmaslik.
- 3) CHegaralarning daxlsizligi.
- 4) Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish.
- 5) Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.

Bu prinsiplar O'zbekistonning manfaatdorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirildi. Prezident Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiqol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirish 6 ta amaliy prinsiplarini ishlab chiqdi, ular:

1) Milliy davlat manfaatlari ustun bo'lgan holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish.

2) Umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash mojarolarni tinchi yo'l bilan hal etish.

3) Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik, tenglar orasida teng bo'lish.

4) Mavkuraviy qarashlardan qat'iy nazar ochiq-oydinlik, barcha davlatlar bilan keng aloqani o'rnatish.

5) Ichki milliy qonunlardan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan olish.

6) Ham ikki tomonlama ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish, xalqaro xamkorlikni kuchaytirish.

1995 yil 30 avgustda "O'zbekiston Respublika xarbiy doktrinasini to'g'risida" Oliy Majlis yuqori qabul qilindi.

1996 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq quyidagi asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi va unga amal qilib kelmoqda:

1) O'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustuvorligi.

2) Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.

3) Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik.

4) Xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi.

5) Tashqi aloqalarni ham ikki tamonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng o'z tashqi siyosatimizni xalqaro hamjamiyatning to'laqonli sub'ekti sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ldi. Endilikda tashqi siyosat mustaqil tarzda amalga oshirilmoqda.

Jamiyat va davlatlar tarixi shuni ko'rsatadiki, biron-bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erishgan emas. SHarq va g'arb mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan «Buyuk Ipak» tarixiy yo'lining markazida joylashgan O'zbekiston bir necha asrlardan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida dunyodagi yirik davlatlar Samarqand bilan o'z aloqalarini o'rnatganlar. Amir Temurning Fransiya, Angliya, Ispaniya qirollari, o'nlab qo'shni davlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o'sha davrdagi jo'shqin siyosiy, madaniy va tijoriy aloqalardan guvohlik beradi.

CHor Rossiyasi bosqinidan so'ng 130 yildan ortiq davom etgan mustamlaka davri mamlakatimizning tashqi aloqalarini uzib qo'ydi. Xorij bilan barcha munosabatlar istilochilarning nazorati va ruxsati bilan amalga oshirilardi. Bir paytlar dunyoga dong taratgan o'lkamiz chekka bir viloyat darajasiga tushirib qo'yildi. Sovetlar davrida esa chetga chiqarilgan bir-ikki diplomat hamda vazifasi oliy rutbali xorijliklarni mehmon qilishdan iborat bo'lgan Tashqi ishlar vazirligidan boshqa hech narsa yo'q edi.

Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining konstitutsiyaviy zamini yaratildi. SHunga mos ravishda inson huquqlari ham tiklanmoqda. Xalqimizning ma'naviy salohiyati, unga xizmat qiladigan tabiiy va texnikaviy zahiralari, mustahkamlanayotgan xalqaro munosabatlar demokratik rivojlanish va inson huquqlariga rioya qilish uchun barcha sharoitlarning bosqichma-bosqich yaratilishiga kafolat beradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunda belgilangan konstitutsiyaviy an'analarni davom ettiradi. Mazkur an'analarga ko'ra xalqaro huquq davlatimiz qurilishining muhim manbai bo'lib, O'zbekiston o'zining xalqaro huquq normalariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, namoyish etmoqda.

Bu esa yosh mustaqil davlatimizning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga qabul qilinishiga imkon berdi. Respublikamizning mustaqil davlat sifatida boshqa davlatlar tomonidan diplomatik tan olinishiga, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishiga yo'l ochdi.

BMT ustavi, Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari haqidagi boshqa xalqaro paktlar, Xelsinki bitimlari, Parij va Madrid xartiyalari qoidalari Konstitutsiyamizdagi xalqaro huquq prinsiplari va normalariga asos bo'ldi. Bunday konstitutsiyaviy yondashuv, ayniqsa Konstitutsiyaning muqaddimasida, 4-bobida, ikkinchi bo'limda 22,23 va 26-bobda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu boblarning tegishli ravishda, «Tashqi siyosat», «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari», «O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati», «Saylov tizimi», «Mudofaa va xavfsizlik» deb nomlanishi ham fikrimizning dalilidir.

XX asrning so'nggi o'n yilligi ijtimoiy dunyoqarash va jahon hamjamiyatining jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishida tub o'zgarishlar davri bo'lib tarixga kirdi. Jahon hamjamiyati yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davr o'zining ikki jihati bilan ajralib turadi. **Birinchi**dan, bu davlatlar, xalqlar o'rtasidagi yaqinlashuv jarayonlari va har tomonlama hamkorlikning kuchayishi, yaxlit bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy makonlarning vujudga kelishi, hozirgi zamon xalqaro huquq normalarining yaratilishidir. **Ikkinchi**dan, «sotsialistik lager»ning emirilishi, totalitar tuzumdagi davlatlarning tugatilishi, ular o'rnida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir. Endilikda «sovuq urush»ga barham berildi, «kapitalistik» va «sotsialistik» degan tushunchalar o'rtasidagi farq amalda

yo‘q bo‘lib borayapti. Mafkuraviy aqidalardan xoli bo‘lgan yangi, erkin tafakkurni shakllantirish zarurati paydo bo‘ldi.

Prezidentimiz Islom Karimov «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyoti yo‘li» kitobida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konsepsiyasi to‘g‘risida, tashqi siyosiy yo‘l, bu yo‘lning huquqiy negizi va uni amalga oshirish vositalari haqida to‘xtalib o‘tgan. O‘zbekiston tashqi siyosatining strategik yo‘li, asosiy qoidalari va maqsadlari, uning ustuvor va mintaqaviy yo‘nalishlari, xususiyatlari negizida respublikaning milliy manfaatlari joy olgan. Har qanday siyosat aql-idrok bilan ish tutishni taqozo etadi. Rivojlanayotgan, tez taraqqiy etish uchun kuchli ilmiy, sanoat kuch-quvvatiga ega bo‘lgan mamlakatning tashqi siyosati ehtiroslardan xoli bo‘lishi lozim. Respublikamiz ana shunday davlatlar sirasiga kiradi. YAngi xalqaro iqtisodiy tartib uchun harakat qilish qoidalari O‘zbekiston uchun ham diqqatga molik masaladir. Bu xom ashyo va sanoat mahsulotlari narx-navolarining adolatli bo‘lgan nisbati, rivojlanayotgan davlatlarning fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo‘lish imkoniyati va hokazolardir.

Tashqi siyosat faoliyat uchun huquqiy negiz yaratish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagilar amalga oshirildi:

- yangi xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi;
- sobiq Ittifoq ishtirokchi bo‘lgan xalqaro huquqiy hujjatlar majmuasi respublika manfaati nuqtai nazaridan o‘rganildi;
- O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos tushadigan hujjatlar ratifikatsiya qilindi;
- mamlakat xalqaro faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish, «Qabul qilingan xalqaro shartnomalar to‘g‘risida»gi qonun, «Konsullik ustavi» shular jumlasidandir. Ulardan tashqari bojxona xizmatining huquqiy asoslarini yaratuvchi qonunlar, Havo kodeksi ham qabul qilindi.

Manfaat, bu zaruriy ehtiyojdir. Ehtiyojlar esa birinchi galdagi O‘zbekiston uchun taraqqiyotning muayyan jug‘rofiy va tabiiy, iqlimiy, demografik holatimiz, xalqimizning ko‘p millatli tarkibi, uning tarixiy va madaniy merosi, ma‘naviyat omili, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi, xom ashyo va zamonaviy texnologiya bilan ta‘minlanganlik, davlatning xalqaro munosabatlardagi o‘rni va hokazolardir. Bu omillar O‘zbekistonning ehtiyojlarini belgilaydi. Ehtiyojlar esa manfaatlarda o‘z ifodasini topadi. Davlat manfaatlari uning tashqi siyosiy faoliyatini belgilaydi. Shu jihatdan, O‘zbekistonning tashqi siyosiy manfaatlari xalqaro aloqalarni rivojlantirayotgan, uning tuzilmalari va faoliyatini belgilab berayotgan kuchdir.

Barcha davlat va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa qilishda davlatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqiladi. Tabiiyki, bunda sheriklarimiz manfaatlari, ular tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisobga olinishi zarur. Zero, o‘zaro uzviy bog‘liqliksiz tashqi siyosatni tasavvur etib bo‘lmaydi.

O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va davlatlararo uyushmalar faoliyatidagi ishtiroki respublika tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu tashkilotlar jahon hamjamiyatiga kirish, xo‘jalik aloqalarini o‘rganish, ekologiya, tabiiy muammolarni hal etish, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishda katta yordam bermoqdalar.

Respublika Prezidenti davlatimiz o‘z qiyofasini yo‘qotmasdan xalqaro talablarga rioya etishga tayyorligini qat‘iy tasdiqladi. Bu talablarga rioya etmasdan, xalqaro jahon hamjamiyatiga kirib bo‘lmaydi. Bu erda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosidagi kafolatlar, BMT Nizomi va Xelsinki kelishuvi qoidalari, hujum qilmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, xalqaro huquq qonunlarining milliy qonunlardan ustuvorligi va hokazolar to‘g‘risida gap bormoqda. Jahondagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar xuddi shunday yondashuv tarafdoridir.

O‘zbekiston butun dunyo ko‘z o‘ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarining boy tarixiga ega bo‘lgan, mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro huquq jihatidan O‘zbekiston uchun asrlar osha buyuk bo‘lib kelgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi biznikiga o‘xshash yosh mamlakatlar ham bab-baravardir.

O'zbekiston taraqqiyotning konstitutsiyaviy asosi sifatida inson huquqlari tiklanmoqda. Xalqimizning ma'naviy imkoniyati, uning katta tabiiy va texnik zahiralari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari demokratik taraqqiyot va inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar mavjudligiga ishonch tug'diradi. Natijada mamlakatimiz amalda yalpisiga diplomatik tan olinishiga va xalqaro iqtisodiy aloqalarga tortilishiga yo'l ochib berildi.

XX asrning ohirida dunyoning siyosiy makoni sifat jihatidan o'zgardi. Sovet Ittifoqi xalqlari hamda sobiq «sotsialistik hamdo'stlik»dagi boshqa davlatlar bir partiyaviylik tizimi va markazdan turib rejalashtirish iqtisodiyotidan voz kechishdi. Bu holat dunyoda antogonistik ijtimoiy-siyosiy tuzumlarining global qarama-qarshiligi barham topdi va dunyo siyosatida demokratik jamiyatlar salohiyati ancha oshdi. Evroosiyo hududida, jumladan, Markaziy va SHarqiy Evropa davlatlari, shuningdek, sobiq sovet ittifoqi davlatlarining roziligi orqali ijtimoiy-siyosiy tuzumning demokratik shakliga o'tildi. Agar bunday davlatlarda, eng avvalo, Rossiyada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni muvaffaqiyatli yakunlansa, SHimoliy yarim sharining kattaroq qismi - Evropa, SHimoliy Amerika, Evroosiyoda bir-biriga yaqin ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tamoyillar asosida yashovchi, bir-biriga o'xshash qadriyatlarga e'tiqod qiluvchi, shu jumladan, global dunyo siyosati jarayonlariga bir xilda yondashuvchi xalqlar hamjamiyati shakllanadi.

«Birinchisi» va «ikkinchisi» dunyolar o'rtasidagi qarama-qarshilikka barham berilgandan so'ng avtoritar tuzumlar Afrika, Lotin Amerika, Osiyodagi o'z tarafdorini qo'llab-quvvatlashdan to'xtadilar. Negaki, bu davlatlar mafkuraviy ittifoqdosh sifatida o'z qiymatlarini yo'qotishdi va natijada moddiy hamda siyosiy yordamdan maxrum bo'lishdi. Oqibatda Somali, Liberiya, Afg'onistonda bo'linish vujudga keldi va fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Boshqa davlatlarning ko'pchiligi esa, masalan, Efiopiya, Nikaragua, Jazoir avtoritarizmdan voz kecha boshlashdi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofiga xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnihilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Tashqi siyosatimizning prinsipial pozitsiyasi hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, boshqa davlatlarning harbiy bazalari va obyektlarini O'zbekiston hududida joylashishiga yo'l qo'yimaslik, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz hududidan tashqaridagi tinchlikparvar operatsiyalarida ishtirok etmasligi, barcha ziddiyat va mojarolarni faqat siyosiy yo'l bilan hal qilishga sodiq qolish bilan izohlanadi. O'zbekiston hech qanday bloklarga a'zo bo'lmasdan turib muloqot uchun ochiq va barcha sheriklari bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;
- jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish;
- O'zbekistonning mintaq va jahon siyosatidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;
- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko'maklashish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb etishda faol ko'mak berish;
- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko'rsatish;

- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko'maklashish;
- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;
- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston mintaqada davlatlari bilan do'stona va ahil qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor.

O'zbekiston Afg'oniston bilan aloqalarni kengaytirishni, mazkur mamlakatdagi vaziyatni tinç yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etishni davom ettiradi. O'zbekiston tomoni Afg'oniston iqtisodiyotini qayta tiklanishiga, uning transport, ishlab chiqarish, energetik va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirishga ko'mak berishda davom etadi. Barqaror va ravnaq topayotgan Afg'oniston Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikning kafolatidir.

MDH malakatlari bilan hamkorlik ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur davlatlar bilan respublikamiz tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalarga ega. O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tenglik, o'zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e'tiborga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini qurishni davom etadi.

O'zbekiston Rossiya bilan 2004-yil 16-iyunda imzolangan Strategik hamkorlik, 2005-yil 14-noyabrdagi Ittifoqçilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar hamda 2012-yil 4-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Strategik hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya asosida do'stona munosabatlarni har tomonlama mustahkamlash va tadrijiy rivojlantirish ikki mamlakat manfaatlariga to'liq mos keladi hamda mintaqadagi tinçlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikki tomonlama munosabatlarning eng muhim vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 4-5-aprelida Rossiyaga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni to'liq amalga oshirilishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydigan, yaqin mintaqaviy qo'shni Xitoy bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish tarafdori. Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirish 2012-yil 6-iyundagi Strategik hamkorlikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya va 2013-yil 9-sentyabrdagi ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyasiga asoslangan. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 11-13-may kunlari Pekinga davlat tashrifi, shuningdek, 2017-yil 14-15-may oyida «Bir makon, bir yo'l» xalqaro forum'da ishtirok etish asnosida erishilgan qarorlar va kelishuvlarni amalga oshirish ikki mamlakat manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan 2002-yil 12-mart oyida imzolangan O'zbekiston va AQSh o'rtasida Strategik sherikçilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi deklaratsiyasi asnosida o'zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekiston AQSh bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash va xalq turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan modernizatsiya jarayoni va islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitiaviy-texnologik va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. Ikki tomonlama hamkorlikning muhim yo'nalishlari

Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, transmilliy tahdid va xatarlarga qarshi kurashga ko'maklashishdan iboratdir.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikni asosiy sohalari savdo-sotiqni rivojlantirish, investitiya va moliya, zamonaviy texnologiyalar transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilar hisoblanadi. O'zbekiston asosiy e'tiborini Yevropaning ilg'or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga chiqarishga alohida e'tibor beradi.

Respublikamiz ko'p asrlik umumiy tarix, yagona til va din, umumiy qadriyatlar va o'xshash urf-odatlariga ega bo'lgan Turkiya davlati bilan do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi. Mamlakatimiz Turkiya bilan har taraflama manfaatli hamkorlikni, jumladan savdo-sotiq, investitsiya va turizm kabi sohalarda rivojlantiradi.

Osiyo-Tinch okeani hududi mamlakatlari, xususan Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. O'zbekiston ushbu davlatlar bilan investitsiya, savdo-sotiq, yuqori texnologiyalar, madaniy-gumanitar sohalaridagi keng qamrovli hamkorlikni davom ettiradi.

O'zbekiston Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar – Malayziya, Indoneziya, Singapur, Vetnam kabi davlatlar bilan hamkorligini rivojlantiradi.

O'zbekiston Janubiy Osiyo mamlakatlari, xususan Hindiston va Pokiston bilan savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya, turizm kabi sohalarda har taraflama va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

O'zbekiston musulmon dunyosi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni iqtisodiyot, transport kommunikatsiyasi, moliya, investitsiya va sayyohlik sohalarida, shu jumladan Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki doirasida faol rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor.

O'zbekiston BMT ishida faol ishtirok etishni davom ettiradi, hamda uni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, tezkor globallashuv jarayonida davlatlarning barqaror rivojlanishida ko'maklashishga mas'ul bo'lgan yagona universal tashkilot sifatida ko'radi.

Mamlakatimiz Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotlari bilan ushbu tuzilmalarning mexanizmlaridan zamonaviy muammolar va tahdidlarga qarshi kurashishda, ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda samarali foydalanish maqsadida o'zaro sherikchilikni yanada rivojlantiradi.

O'zbekiston xalqaro moliya institutlari bilan, shu jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banklari bilan energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni faollashtirish uchun barcha sa'y-harakatlarni olib boradi.

Ma'lumot uchun: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Toshkentda 45 ta chet el elchixonalari, 8 ta faxriy konsullar, 19 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 18 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 47 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi diplomatik aloqalarda amalga oshirilayotgan demokratik siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- 2) davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- 3) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

- 4) kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- 5) inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- 6) ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- 7) tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- 8) davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik ustunligi;
- 9) tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik va boshqalar.

Bu tamoyillarga davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari asos qilib olinadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA AMERIKA DAVLATLARI O'RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Shimoliy va Janubiy Amerikaning 21 ta mamlakati, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Meksika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Braziliya Federativ Respublikasi, Argentina Respublikasi, Chili Respublikasi, Venesuela Bolivar Respublikasi, Yamayka, Urugvay Sharqiy Respublikasi, Peru Respublikasi, Kosta-Rika Respublikasi, Paragvay Respublikasi, Kuba Respublikasi, Gvatemala Respublikasi, Nikaragua Respublikasi, Gonduras Respublikasi, Dominikan Respublikasi, Ekvador Respublikasi, Kolumbiya Respublikasi, Ko'pmillatli Boliviya Davlati va El-Salvador Respublikasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi»ga muvofiq, respublika tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlardan biri **Amerika Qo'shma Shtatlari** bilan hamkorlik hisoblanadi. Joriy O'zbekiston-AQSh munosabatlari o'zining komplekslik, uzoq muddatli va ko'p qirrali jihatlari bilan ajralib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalari, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini inobatga olishga asoslangan.

Tomonlar bir qator xalqaro va mintaqaviy muammolar bo'yicha mushtarak pozitsiyaga ega bo'lib xavfsizlik tahdidlari, ya'ni giyohvand moddalarining noqonuniy aylanishi, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi kurash, shuningdek, Markaziy Osiyo va Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash sohalarida o'zaro faol hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston-AQSh munosabatlari doirasidagi barcha yo'nalishlarda sifat jihatidan yangi va o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishni belgilab bergan asosiy hujjat bu ikki mamlakat o'rtasida 2002-yil martda imzolangan Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi Deklaratsiya hisoblanadi.

Ikki tomonlama hamkorlikni muntazamlashtirish hamda qayd etilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida AQSh bilan o'zaro manfaatli va barcha sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli «Yo'l xaritasi» amalga oshirilmoqda.

2017-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev va AQSh Prezidenti D.Trump o'rtasida bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotida o'zaro hurmat, ishonch va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga sodiqligi ta'kidlandi.

Ikki tomonlama siyosiy muloqotlar o'zaro tashriflarning yuqori muntazamligi bilan ham ajralib turadi. O'zbekistonga AQSh ma'muriyatining asosiy idora vakillari va turli darajadagi delegatsiyalari muntazam ravishda tashrif buyuradi va O'zbekiston - AQSh munosabatlarining dolzarb masalalari bo'yicha fikr almashish mexanizmi - yillik siyosiy maslahatlashuvlar tashkil etiladi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegatsiyasi AQShga va Vakillar palatasi a'zosi T. Kelli boshchiligidagi bir guruh kongress a'zolari O'zbekistonga tashrif buyurdi.

O'zbekiston va AQSh o'rtasida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Mamlakatlar o'rtasidagi ishbilarmonlik aloqalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda AQSh-O'zbekiston savdo palatasi muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida imzolangan TIFA savdo va investitsiyalar to'g'risidagi bitimning amalga oshirilishi Amerika bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

O'zbekistonda AQShning dunyoda taniqli bir qator yirik kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, «General Motors» korporatsiyasi ishtirokida yengil avtomobillar uchun dvigatellar ishlab chiqarishga mo'ljallangan «General Motors Powertrain Uzbekistan» zavodi faoliyat ko'rsatmoqda.

«Boeing» kompaniyasi «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasini zamonaviy avialaynerlar, xususan «Boeing-787-8 Dreamliner» rusumidagi yangi avlod samolyotlari bilan ta'minlovchi asosiy va doimiy hamkor sanaladi.

«General Electric» korporatsiyasi O'zbekistonning neft-gaz va aviatsiya sektorlarida, shuningdek, salomatlik va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi muhim hamkori hisoblanadi.

AQShning O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan boshqa kompaniyalari ichida «Exxon Mobil», «CNH Industrial», «Coca-Cola», «Hyatt», «Hilton», «John Deere», «Honeywell», «Caterpillar» va boshqalar ham mavjud.

Madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlar muntazam ravishda rivojlanmoqda. So'nggi yillarda ilm-fan va ta'lim sohalarida hamda yangi aloqalar o'rnatish va erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, eng avvalo madaniy - gumanitar va ilmiy-ma'rifiy hamkorlikni yanada mustahkamlash borasida amaliy ishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonga AQShning ixtisoslashtirilgan muassasalari va tashkilotlari ekspertlari muntazam ravishda muzokaralar va amaliy tadbirlar o'tkazish maqsadida tashrif buyuradi hamda o'zbek mutaxassislari AQShning turli-xil ilmiy va ta'lim dasturlarida ishtirok etadilar. AQShning bir nechta universitetlari, jumladan Texas A&M va Missisipi universitetlari bilan qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Universitetlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish doirasida O'zbekistonning bir qator oliy ta'lim muassasalari hamda AQShning Ogayo va Michigan universitetlari, Boston yuridik kolleji, Amerika va Jorjtaun universitetlari kabi oliy ta'lim muassasalari bilan aloqalarni kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Toshkentda Vebster universiteti filialini ochish to'g'risida kelishuvga erishildi. AQSh tibbiyot muassasalari va O'zbekiston ixtisoslashgan klinika va shifoxonalari o'rtasida, jumladan jarrohlik, kardiokirurgiya, urologiya, akusherlik va ginekologiya ko'z mikroxirurgiyasi yo'nalishlarida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatildi.

O'zbekiston **Kanada** bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga muhim e'tibor qaratmoqda va siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalardagi o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda.

Davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yilning 7-aprelida o'rnatilgan. Ikki tomonlama aloqalar O'zbekiston Respublikasining qarorgohi Vashington shahrida bo'lgan Kanadadagi Elchixonasi hamda Kanadaning qarorgohi Moskva shahrida bo'lgan O'zbekistondagi Elchixonasi darajalarida olib borilmoqda. 1997 yildan buyon Toshkentda Kanadaning Fahriy Konsulligi faoliyat yuritib kelmoqda.

Ikkitomonlama munosabatlarda tashqi siyosat mahkamalari o'rtasida olib borilayotgan muntazam siyosiy maslahatlashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ikkitomonlama hamkorlikni mustahkamlash uchun "Yo'l xaritasi"ni birgalikda amalga oshirish o'zaro muloqotlarga tizimli tus berilmoqda. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro tashriflar muntazam ravishda tashkil etilmoqda.

Tomonlar o'rtasida, xususan, Kanadaning Rossiya va Yevroosiyodagi ishbilarmonlar assotsiatsiyasi (CERBA) orqali o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlik bosqichma-bosqich rivojlanishda davom etmoqda. Jumladan, Kanada delegatsiyasi Toshkent shahrida o'tkazilgan «UzMining Expo-2017» Xalqaro ko'rgazmasida eng faol ishtirokchilaridan bo'ldi, diplomatik munosabatlarining 25 yilligi arafasida esa, Toshkentga tog'-konsanoati sohasida faoliyat olib boruvchi Kanada biznes-jamiyati vakillaridan iborat ikki davlat hamkorligi tarixidagi eng ulkan biznes-delegatsiyaning tashrifi amalga oshirildi.

O'zbekiston Lotin Amerikasi davlatlari bilan faol aloqalarni qo'lab-quvvatlashga intilmoqda. Braziliya, Kuba, Chili va Argentina mamlakatlari bilan munosabatlarda muntazamlik kuzatilmoqda. Ishchi muloqot muntazam ravishda xabar almashish va delegatsiyalarning o'zaro tashriflari ko'rinishida amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-yil fevralida O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vaziri o'rinbosarining Braziliyaga soya ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida amaliyotlarni o'rganish bo'yicha tashrifi tashkil etildi.

O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligida siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy sohalarda hamkorlikni rivojlantirish hamda turizm va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish masalalarini muhokama qilish doirasida O'zbekistonga tashrif buyurayotgan Lotin Amerikasi mamlakatlari delegatsiyalarining vakillari bilan muntazam ravishda ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YEVIROPA MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIGI
O'zbekiston mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab Yevropa bilan hamkorlikni o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. O'zbekiston bilan Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va 1999-yilning 1-iyulidan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a'zo davlatlar bilan Sherikchilik va hamkorlik kelishuvi doirasida rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston-Buyuk Britaniya munosabatlarining asosi 1993-yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ushbu mamlakatga amalga oshirilgan tashrif chog'ida yaratilgan.

Ayni paytda ikki tomonlama hamkorlikning ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. Mamlakatlar o'rtasida muntazam ravishda turli darajadagi tashriflar amalga oshirilmoqda. Oxirgi bir necha yil davomida O'zbekistonga Britaniyaning 50 dan ziyod delegatsiyalari tashrif buyurgan. Tomonlar tashqi siyosiy idoralar o'rtasidagi maslahatlashuvlar hamda Afg'oniston bo'yicha muloqotni amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilov rahbarligidagi delegatsiyaning 2013-yil 20-22-noyabr kunlari Buyuk Britaniyaga amalga oshirgan tashrifi davlatlararo aloqalarni faollashtirishdagi muhim voqea bo'ldi.

Parlamentlararo hamkorlik o'zaro aloqalarning istiqbolli yo'nalishlaridan sanaladi. Ikki davlat parlamentlarida o'zaro hamkorlik bo'yich guruhlar mavjud bo'lib, 2010-yil 22-sentabrda imzolangan Oliy Majlis guruhi bilan "Britaniya-O'zbekiston" Umumpartiya parlament guruhi o'rtasida imzolangan Anglashuv memorandumini ular faoliyatining huquqiy asosini yaratib bergan.

O'zbekiston-Britaniya Savdo va sanoat kengashi savdo-iqtisodiy munosabatlarning samarali mexanizmi bo'lib, uning 23-majlisi Toshkentda

2016-yil 16-18-noyabr kunlari bo'lib o'tdi.

2016-yilning oktabrida, 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida Oliy Majlis Senati raisining Birinchi o'rinbosari S.Safoyev London shahriga tashrif buyurdi. Tashriflar doirasida, jumladan rivojlanishga va respublikaning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan brifinglar, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, TIV, Buyuk-Britaniya Parlamenti va Britaniyaning bir qator yirik kompaniyalari hamda ilmiy doiralari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

2017-yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra O'zbekiston bilan Buyuk Britaniya o'rtasidagi savdo aylanmasi 115,9 million AQSh dollarini tashkil etib, shundan eksport 33,5 million AQSh dollari, import 82,4 million dollarga teng bo'ldi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda, jumladan ta'lim sohasida. Toshkentda 2002-yildan buyon Xalqaro Vestminster universiteti faoliyat yuritib kelmoqda, Kembrijd universiteti bilan hamkorlikda esa poytaxtimizda Yuqori texnologiyalar o'quv-eksperimental markazi tashkil etilmoqda.

Germaniya bilan ikki tomonlama aloqalar an'anaviy keng ko'lamli xarakterga ega bo'lib, turli jabhalarini qamrab olgan. Hamkorlikning salmoqli shartnoma-huquqiy bazasi yaratilgan.

Ikki mamlakat o'rtasida turli, jumladan oliy darajadagi siyosiy muloqot yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Germaniyaga rasmiy tashriflari (1993-, 1995- va 2001-yillar), Germaniya Prezidenti R.Gerzogning O'zbekistonga davlat tashrifi (1995yil) va Kantsleri G.Shryoderning rasmiy tashrifi (2002-yil) amalga oshirilgan. Tashqi ishlar

vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 13 ta doirasi o'tkazilgan. Shuningdek, parlamentlararo aloqalar, huquq va xavfsizlik sohalarida hamda mudofaa vazirliklari yo'nalishida hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2017-yil yakunlariga ko'ra, o'zbek-german savdo aylanmasi hajmi 613,2 million AQSh dollarini tashkil etdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi moliyaviy va texnikaviy hamkorlikning umumiy hajmi 329,9 million yevrodan oshgan.

O'zbekistonda nemis madaniyati va tilini o'rganishga katta qiziqish mavjud. Nemis tili respublikada eng ko'p tarqalgan chet tillari orasida ikkinchi o'rinni egallaydi. Hozirgi paytda oliy ta'lim sohasida Germaniyaning 20 dan ortiq oliy o'quv yurtlari bilan sheriklik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, talabalar, mutaxassislar va pedagog kadrlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Ikki tomonlama madaniy-gumanitar munosabatlarni rivojlantirishda Toshkent va Berlin, Samarqand va Bremen, Buxoro va Bonn shaharlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonning Yevropadagi va umuman xalqaro miqyosdagi istiqbolli hamda umidli sheriklaridan biri hisoblangan **Ispaniya** bilan munosabatlari jadal rivojlanmoqda. 2003-yil yanvar va 2009-yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Ispaniyaga tashriflari bo'lib o'tdi.

Ispaniya Tashqi ishlar vaziri X.M.Garsiya Margalio taklifiga ko'ra, 2013-yilning 4-7-noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri boshchiligidagi delegatsiya Ispaniyaga tashrif buyurdi. Tashrif davomida Tashqi ishlar vazirliklari siyosiy maslahatlashuvlari o'tkazildi. Ispaniyaning Tashqi ishlar vaziri X.M.Garsiya Margalio 2014-yil 20-22-aprelda O'zbekistonga tashrif buyurdi.

2017-yil 12-15 noyabrda Ispaniyaga O'R Tashqi ishlar vazirining javob tashrifi o'tkazildi.

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti qoshida ispan tili fakulteti faoliyat yuritmoqda. Mazkur universitetning Madrid, Granada, Alkala de Enares va Malagi universitetlari bilan hamkorlik aloqalari jadal rivojlanmoqda.

O'zbekiston **Italiyani** Yevropadagi uzoq muddatli va istiqbolli hamkori sifatida ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1996-yil iyun va 2000-yil noyabr oylarida Italiyaga bo'lgan rasmiy tashriflari o'zbek-italiya aloqalariga zamin yaratdi. 1997-yil may oyida Italiya Prezidenti O.Skalfaronining O'zbekistonga javob tashrifi uyushtirildi.

Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida doimiy muloqot olib borilmoqda. 2015-yil noyabr oyida Toshkentda Tashqi ishlar vazirlari darajasida siyosiy maslahatlashuvlarning to'rtinchi doirasi bo'lib o'tdi.

2011-yildan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida "O'zbekiston-Italiya" parlamentlararo hamkorlik guruhi, Italiya parlamentining Deputatlar palatasida esa "Italiya-O'zbekiston" do'stlik guruhi faoliyat yuritmoqda.

2012-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Italiya parlamentining Deputatlar palatasi o'rtasida hamkorlik Memorandumi imzolandi.

2009-yildan boshlab Toshkent shahrida Turin politexnika universiteti faoliyat yuritib kelmoqda.

2013-yil yanvar oyida Samarqand shahri hokimiyati va Florensiya provinsiyasi ma'muriyati o'rtasida Do'stlik va hamkorlik shartnomasi imzolangan.

Fransiya O'zbekistonning Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Fransiya davlat va rasmiy tashriflari (1993 va 1996-yillar) hamda Fransiya Respublikasi Prezidenti F.Mitteranning O'zbekistonga davlat tashrifi (1994-yil) bo'lib o'tgan. 1996-yil iyun oyida Florensiya shahrida o'tkazilgan Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlari sammiti va 2002-yil noyabr oyida Praga shahrida bo'lib o'tgan NATO/YeAHK sammiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Fransiya Prezidenti J.Shirak bilan uchrashuvlari ham o'tkazilgan.

Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda Fransiya Tashqi ishlar vazirlari L.Fabiusning 2013-yil mart oyida va J.-M.Eroning 2017-yil aprel oyida O'zbekistonga amalga oshirilgan tashriflari hamda 2012-yil oktyabr, 2014-yil noyabr va 2017-yil mart oylarida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilovning Fransiya tashriflari muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikki davlat Tashi ishlar vazirliklari o'rtasidagi 10 ta siyosiy maslahatlashuvlar bo'lib o'tgan. Oxirgisi 2017-yilning aprel oyida Toshkent shahrida o'tkazildi.

2008-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida parlamentlararo hamkorlik guruhi tuzildi, 2010-yildan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasida «O'zbekiston – Fransiya» do'stlik guruhi faoliyat yuritmoqda.

Fransiya Senatida «Fransiya – Markaziy Osiyo» parlamentlararo guruhi, Milliy assambleyasida «Fransiya – Markaziy Osiyo» do'stlik guruhlarini faoliyat yuritmoqda.

2008-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) hamda Fransiyaning inson huquqlari himoyachisi o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.

Fransiya O'zbekistonning Yevropadagi muhim savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biridir. 2017-yil yakunlari bo'yicha ikki tomonlama savdo aylanmasining hajmi 251,6 mln. AQSh doll. tashkil etdi.

Fransiyada Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o'rganish Assosiasiyasi hamda «Avisenna – Fransiya» Assosiasiyasi faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekistonning bir qancha yetakchi universitetlari hamda Fransiyaning oliy o'quv yurtlari o'rtasida hamkorlik bitimlari va protokollari imzolangan.

Turkiya O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991 yil 16 dekabrda tan olgan. Diplomatik aloqalar 1992 yil 4 martda o'rnatilib, shu yil aprel oyida Turkiyaning Toshkentda elchixonasi ochilgan. 1993 yil may oyidan Anqarada O'zbekiston elchixonasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 4 marotaba Turkiyaga tashrif buyurgan (1991, 1994, 1997 va 1998 yy.).

2017 yil 25-26 oktyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga davlat tashrifi amalga oshirildi.

Turkiya prezidentlari T.Ozal (1993y.), S.Demirel (1996y., 1996y., 1999y.), N.Sezer (2000y.) R.Erdog'an (2016y.), bosh vazirlari S.Demirel (1992y.), T.Chiller (1995y.), M.Yilmaz (1998y.) va R.Erdog'an (2003y.) O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurgan.

O'zbekistonga Turkiya Tashqi ishlar vazirlari X.Chetin (1994y.), I.Jem (2000-2001yy.), A.Davutoglu (2014y.), M.Chavushog'lu (2017 va 2018yy.), Turkiyaga O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri (2003y.) tashrif buyurgan. 2014 yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Komilov Anqara shahrida o'tkazilgan Turkiya Prezidenti R.T.Erdog'anning inauguratsiya marosimida ishtirok etdi.

O'zbekiston va Turkiya tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 9 ta raundi o'tkazilgan (oxirgisi 2018 yil 20 martda Anqara shahrida).

2017 yil 14 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhi tuzildi. Uning rahbari Oliy Majlis Senati raisining birinchi o'rinbosari S.Safoyev hisoblanadi.

Turkiya O'zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi (Rossiya, Xitoy va Qozog'istondan keyin 4-o'rinda).2017-yil yakunlariga ko'ra, o'zbek-turk savdo aylanmasi hajmi 1,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASI DAVLATLARI BILAN HAMKORLIGI

O'ZBEKISTON — JANUBIY KOREYA MUNOSABATLARI

Koreya Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan olgan, 1992-yil 29-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatdi.

Ushbu davr mobaynida Respublika rahbariyati tomonidan o'n to'rt marotaba (1992, 1994, 1995, 1999, 2005, 2006, 2 marta 2008-yilda, 2009, 2010, 2011, 2012, 2014, 2015 va 2017-yillarda) Koreya Respublikasi rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

2006-yilda Strategik sheriklik to'g'risida qo'shma deklaratsiyasi imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22-25 noyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifi natijalari bo'yicha Strategik hamkorlikni hartomonlama kengaytirish to'g'risida qo'shma bayonoti qabul qilindi, davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajadagi 20 dan ziyod kelishuvlar hamda qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan savdo-iqtisodiy,

moliyaviy-texnikaviy va boshqa sohalarda jami 64 hujjatlar imzolandi. Ulardan 4 milliard dollari to'g'ridan to'g'ri koreys investitsiyalari.

Ikki davlat ortasida parlamentlararo almashuv muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. 1995-yilda KR Milliy Assambleyasida "Koreya-O'zbekiston" do'stlik Assotsiatsiyasi tuzildi. 2005-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Koreya bilan hamkorlik bo'yicha maxsus guruh ta'sis etildi.

2017-yilning sentabrida Koreya Respublikasining Milliy Assambleyasi Spikeri Chon Se Gyunning O'zbekistonga 2018-yilning fevralida esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilovning Koreya Respublikasiga tashriflari amalga oshirildi.

1995-yildan buyon davlatlar tashqi ishlar mahkamalari o'rtasida doimiy ravishda siyosiy maslaxatlashuvlar o'tkazib kelinmoqda va ularning o'n ikkinchi doirasi 2016-yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tdi.

1992-yildagi Savdo bitimiga asosan eng yuqori osonlashtirilgan savdo tartibi joriy etilgan. Koreya Respublikasi O'zbekistonning Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi savdo sheriklari orasida eng yuqori o'rinni egallaydi.

O'zR Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga asosan, 2017-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 1 360,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, ulardan eksport 119,8 mln. AQSh doll., import – 1 240,3 mln. AQSh doll. tashkil qildi.

Janubiy Koreya tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning hajmi 7 mlrd. AQSh doll.dan oshgan.

1994-yildan buyon savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qo'shma Hukumatlararo qo'mita faoliyat yuritadi. Hukumatlararo qo'mitaning sakkizinchi yig'ilishi 2016-yil Seul shahrida bo'lib o'tdi.

Navoiy erkin industrial iqtisodiy zonasi tashkil etilishi Janubiy Koreya ishbilarmon doiralarning faol ishtirokida amalga oshirildi.

1992-yildan beri Toshkentda Koreya ta'lim markazi faoliyat olib bormoqda va tanlov asosida Koreyada til o'rganish bo'yicha amaliyotlarni, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari uchun malaka oshirish kurslarini o'tkazib kelmoqda.

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti va Samarqand Davlat jahon tillari institutida koreys tili va madaniyati hamda kompyuter markazlari ish olib bormoqda.

Respublika bo'yicha jami 13 oliy o'quv yurtida, 28 maktab, litsey va kollejlarda koreys tili o'rgatiladi.

1999 yildan "O'zbekiston-Koreya" do'stlik jamiyati ish olib bormoqda.

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi almanishuvni faollashtirish, qo'shma ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar va tadqiqotlar o'tkazish maqsadida O'zbekiston oily o'quv yurtlari Janubiy Koreyaning 30 dan ortiq universitet va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

2014-yil 1 oktabrda Toshkent shahrida kompyuter, dasturiy injiniring va logistika sohalarida kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan Janubiy Koreyaning "Inha" universiteti filiali ochildi.

Munisipal darajada yaqin aloqalar o'rnatilgan bo'lib, ushbu doirada Toshkent va Seul, Farg'ona va Yongin, Namangan va Songnam, Samarqand va Kyongju, Toshkent viloyati va Kyonsan-Pukto hamkorlik kelishuvlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan Janubiy Koreyaning O'zbekistondagi sobiq elchilari Choy Yong Ha (1999), Mun Hayong (2007) va Chon De Wan (2013), "Korea-O'zbekiston" do'stlik jamiyati raisi Kim Yun Sik (2005) Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi sobiq spikeri Li Man Sop (2006), "Korea post" jurnali prezidenti-noshiri Li Kyong Sik (2009), Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi deputati Kim Yong Gu, "Korean Air" kompaniyasi raisi Cho Yang Ho va Koreya savdo-sanoat palatasi raisi Song Kyung Shik (2011) "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan.

O'ZBEKISTON-XITOIY MUNOSABATLARI

Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil 2-yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

Ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olgan bo'lib, do'stona va o'zaro manfaatdorlik ruhida olib borilmoqda. Ikki davlat rahbarlari o'rtasida o'rnatilgan o'zaro

ishonchli aloqalar hamkorlikning asosini tashkil etadi. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni olib borishda tomonlarning terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosi va xavfsizlikning boshqa tahdidlari bo'yicha qarashlarning mushtarakligi va yaqingligi muhim o'rin egallaydi.

Doimiy tarzda ikki davlat rahbarlarining tashriflari va uchrashuvlari o'tkazilib kelinmoqda. 1992-, 1994-, 1999-, 2005-, 2011-, 2012- va 2014-yillari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Xitoyga tashrif qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2001- va 2006-yillarda Shanxay shahriga hamda 2012-yil Pekin shahriga ShHT sammitlarida ishtirok etish uchun, shuningdek 2008-yil Pekin shaharlariga 29-yozgi Olimpiya o'yinlari ochilish marosimida ishtirok etish uchun tashrif buyurgan.

Javob tashriflari sifatida Xitoy Xalq Respublikasi raislaridan Szyan Szemin (1996-yil), Xu Szintao (2004-yil, 2010-yil), Si Szinpin (2013-yil, 2016-yil) O'zbekistonga tashrif buyurishgan.

2017-yil 11-13-may kunlari Xitoyga amalga oshirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning uchrashuv va muzokaralarga boy rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarda muhim tarixiy bosqich bo'lib xizmat qildi. Tashrif chog'ida Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin, XXR Davlat Kengashi Bosh vaziri Li Kesyan, Butunxitoy xalq vakillari kengashining Doimiy qo'mitasi raisi – Chjan Deszyan va Xitoyning yuksak texnologiyalar sohasida etakchi korxonalar rahbariyati bilan muzokaralar o'tkazildi.

2004-2017-yillar oralig'ida Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarning 15 ta davrasi va ShHT doirasida hamkorlik bo'yicha uchrashuvlar o'tkazildi.

O'zbekiston Xitoy Xalq Respublikasi bilan strategik hamkorlikni mustahkamlash, keng savdo-iqtisodiy, investitsion va moliyaviy hamkorlikni kengaytirishni o'zaro manfaatdorlik va teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida ko'radi.

1992-yil imzolangan Savdo-iqtisodiy bitimga ko'ra ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik yaratish tartibi o'rnatilgan. Xitoy O'zbekistonning savdo sheriklari orasida eng yuqori o'rinlardan birini egallaydi.

2017-yil yakunlariga bo'yicha ikki tomonlama tovar ayirboshlash \$5 mlrd. yetgan bo'lsa, shundan \$2,2 mlrd. eksportni va \$2,8 mlrd. ni import tashkil etgan.

Ikki tomonlama sarmoyaviy sheriklik 2010-yil imzolangan O'zbekiston Respublikasi va XXR Hukumatlari o'rtasida noxomashyo va yuqori texnologiyalar sohalaridagi hamkorlik dasturi doirasida amalga oshirilmogda.

Bugun O'zbekiston va Xitoy turli loyihalar, avvalambor, yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalarni hayotga tatbiq etish borasidagi hamkorlikni faol rivojlantirmogda. Shu jumladan O'zbekiston 2011-yilda XXR rahbariyati tomonidan ilgari surilgan Xitoy kompaniyalari ishtirokidagi O'zbekiston – Xitoy yuqori texnologiyalar sanoat parkini tashkil etish to'g'risidagi tashabbusini qo'llab-quvvatladi.

Bir qator Xitoy kompaniyalari respublikamiz hududida uglevodorod konlarini qidirish va qazish ishlarida faol ishtirok etmogda.

O'zbekiston «O'zbekiston-Xitoy» gaz quvuri va «Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston» temir yo'li qurilishini qo'llab-quvvatlaydi.

Respublikamizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 786 ta korxonalar faoliyat yuritmogda. Ularning 95 tasi 100 foiz Xitoy sarmoyasi asosida tashkil etilgan. Mamlakatimizda Xitoyning 73 kompaniyasi vakolatxonalarini ishlab turibdi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik jadal rivojlanmogda, idoralararo aloqalar doirasida talaba va amaliyotchilar almashinuvi keng yo'lga qo'yilgan.

2005-yil may oyidan Toshkentda xitoy tili va madaniyatini o'rganish bo'yicha Konfutsiy instituti faoliyat yuritib kelmogda va hozirgi kunga kelib dargohda 350 dan ziyod tinglovchilar, talabalar, savdogarlar va ilmiy ishchilar tahsil olishmogda. Institut tashkil qilinganidan beri 2,5 mingdan ortiq kishi o'quv kurslaridan o'tdi.

2013-yil sentabr oyidagi XXR raisi Si Szinpinning O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida Samarqand shahrida yana bitta Konfutsiy institutini tashkil etish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Bitim imzolandi.

Ikki tomonlama kelishuvga muvofiq va ShHT doirasida XXR hukumati 2014-2015-o'quv yilida o'zbekistonlik 120 talaba va stajyorga grant ajratdi. Konfutsiy nomidagi institut orqali Lanchjou universitetida o'zbekistonlik 50 yaqin talaba tahsil olmoqda.

2012-2013-o'quv yilidan boshlab Pekin chet tillar universitetida o'zbek tili o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

2013-yil 15-may kuni Shanxay shahrida Xitoyda birinchi marta Shanxay universiteti huzuridagi ShHT xalq diplomatiyasi ilmiy tadqiqot instituti negizida "O'zbekiston tadqiqotlari va ta'lim almashuvlari markazi" ochildi.

2013-yil noyabr oyida tomonlar o'rtasida 2014-2017-yillarga mo'ljallangan madaniy hamkorlikka oid dastur qabul qilindi.

Ikki tomonlama madaniy munosabatlarni mustahkamlashda 1998-yil tashkil qilingan "O'zbekiston – Xitoy" va 2007-yil o'z faoliyatini boshlagan "Xitoy Xalq Respublikasi – Markaziy Osiyo mamlakatlari" do'stlik jamiyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

13 mart 2017-yil Xitoy va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25-yilligini nishonlash arafasida Shanxay universitetida Alisher Navoiy haykalining ochilishi boldi.

Ikki davlat o'rtasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish borasida Toshkent –Shanxay , Navoi – Chjuchjou (Xunan provinsiyasi), Samarqand-Sian (Shensi provinsiyasi) Buxoro – Loyan (Henan provinsiyasi) shaharlari, Toshkent – Xunan, Samarqand va Shensi viloyatlari o'rtasida birodarlik munosabatlari o'rnatilgan.

O'ZBEKISTON – YAPONIYA MUNOSABATLARI

Siyosiy soha. 1991-yil 28-dekabrda Yaponiya O'zbekistonning mustaqilligini tan oldi. 1992-yil-26 yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 3 marotaba – 1994, 2002 va 2011 yillarda Yaponiyaga tashrif buyurdi. O'zbekistonga javob tashriflari 2006 yilning avgust oyida Yaponiya bosh vaziri J.Koidzumi va 2015-yil oktabrda Yaponiya bosh vaziri S.Abe tomonidan amalga oshirildi. 2010 va 2014-yillarning mayida Yaponiya bosh vaziri o'rinbosarlari, moliya vazirlari N.Kan va T.Aso O'zbekistonga tashrif buyurdi.

1994 yil 17 mayda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasidagi qo'shma bayonot, 2002 yil 29 iyulda O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida do'stlik, strategik sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot va 2015-yil 25 oktabrda O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida strategik sherikchilikni chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risidagi qo'shma bayonot o'zaro hamkorlikning huquqiy asosini ta'minlovchi hujjatlar bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Brinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yil 8-10 fevralda Yaponiyaga rasmiy tashrifi davomida 22 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

2015-yil 24-26 oktabrda Yaponiya bosh vaziri S.Abening O'zbekiston Pespublikasiga rasmiy tashrifi doirasida qo'shma bayonot, tashqi siyosiy muassasalar o'rtasida hamkorlik dasturi, shu bilan birgalikda, 8,5 milliard dollardan ortiq qiymatdagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, va moliyaviy sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha 21 ta hujjat imzolandi.

«Yaponiya parlamentining O'zbekiston bilan do'stlik ligasi» va «Yaponiya demokratik partiyasi - O'zbekiston» parlamentlararo do'stlik ligalarining turli forumlar o'tkazishi orqali parlament aloqalari rivojlanib bormoqda.

2002 yildan boshlab ikki davlatning tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida doimiy ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazib kelinmoqda. 2017-yil martda siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi uchrashuvi Tokio shahrida o'tkazildi.

Mintaqa bilan hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida 2004 yilda Tokio tashabbusi bilan tashkil etilgan «Markaziy Osiyo+Yaponiya» Dialogi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. 2010 yil 7 avgustda Toshkentda Dialog doirasida tashqi ishlar vazirlarining 3-kengashi o'tkazildi. Unda Yaponiya tashqi ishlar vaziri K.Okada ishtirok etdi. 2017-yil 1 mayda

Ashxobot shahrida Dialog doirasida bo'lib o'tgan tashqi ishlar vazirlarining 6-kengashida O'zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi.

1994 yilda tashkil qilingan O'zbek-Yapon va Yapon-O'zbek iqtisodiy hamkorlik qo'mitalari savdo va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim o'ringa ega. Ushbu qo'mitalarning 12-qo'shma yig'ilishi 2017-yil aprelda Toshkent shahrida o'tkazildi.

2008 yil avgustda «Investitsiyalarni erkinlashtirish, himoya qilish va rag'batlantirish» to'g'risida Hukumatlararo shartnoma imzolani 2009 yil 24 sentabrda kuchga kirdi.

O'zbekistonda 10 ta qo'shma korxonalar mavjud bo'lib, shundan bittasi 100 foiz yapon sarmoyasi ishtirokida tuzilgan. 13 ta yapon kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan.

2017-yil yanvar-oktabr oralig'ida o'zaro tovar aylanmasi 138,5 million dollarni tashkil qildi.

Yaponiyaning O'zbekistonga ko'rsatgan moliya-texnikaviy yordami 4,1 milliard dollardan oshdi. Ushbu yordam tufayli O'zbekistonda sog'liqni saqlash, maorif, energetika, transport, telekommunikatsiya va boshqa sohalarda qator ijtimoiy ahamiyatli va infratuzilma loyihalari amalga oshirildi.

1999 yildan boshlab O'zbekistonda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO) ning mintaqaviy vakolatxonalari, hamda O'zbek-Yapon markazi faoliyat olib bormoqda.

“O'zavtosanoat” AK va Yaponiyaning “Isuzu” kompaniyasi o'rtasidagi hamkorlikni samarali namuna sifatida keltirish mumkin. “Isuzu” agregatlari asosida 10 mingga yaqin avtobuslar va 11 mingdan ortiq yuk mashinalari ishlab chiqarildi. Tabiiy gazda ishlaydigan yuk mashinalarining yangi modellarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

Ushbu sohadagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonning janubiy hududida ilk buddizm yodgorliklarini o'rganishda taniqli yapon olimi, arxeolog K.Kato katta hissa qo'shdi. O'zaro aloqalarni yanada rivojlantirishga qo'shgan hissalar uchun K.Kato O'zbekiston Bank-moliyaviy akademiyasi sobiq birinchi prorektori T.Kitamura va Vaseda universitetining rektori T.Okushima «Do'stlik» ordenlari bilan taqdirlandilar.

2002 yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovga Vaseda va Soka universitetlarining «Faxriy doktori» unvoni berildi. 2004 yilda Tokiodagi Soka universiteti hududida buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiyga haykal o'rnatildi.

2000 yildan buyon Yaponiya xalqaro hamkorlik markazi (JICE) ning Toshkentdagi ofisi bilan hamkorlikda inson resurslarini rivojlantirish loyihasi asosida 300 dan ziyod odam Yaponida ta'lim oldi.

O'zbekistonning 2000 dan ziyod mutaxassisi JICA yo'nalishi orqali Yaponiyada amaliyot o'tadi. O'zbek-Yapon markazi kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo'shmoqda. Ushbu markazga 700 mingdan ortiq kishi tashrif buyurdi.

1999 yilda «O'zbekiston-Yaponiya» do'stlik jamiyatiga asos solindi. Uning asosiy hamkorlari «Yaponiya-O'zbekiston» do'stlik jamiyati va «Fukushima-O'zbekiston» madaniy-iqtisodiy hamkorlik uyushmasi hisoblanadi. 2002 yili «Ikuo Xirayama madaniyat karvonsaroyi» nomli o'zbek-yapon ilmiy-ijodiy markazi ochildi.

2017-yil 2-5 avgustda Yaponiya Bosh Vaziri rafiqasi Akie Abe boshchiligida madaniyat va san'at namoyondalaridan iborat delegatsiyaning O'zbekistonga tashrifi amalga oshirildi. Tashrif doirasida Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatrida “Dram TAO” ijodiy jamoasi konserti o'tkazildi.

O'ZBEKISTON-AVSTRALIYA MUNOSABATLARI

O'zbekiston Respublikasi va Avstraliya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1991-yil 26-dekabrda o'rnatilgan.

Birinchi rasmiy aloqalar 1991-yil 17-18- noyabrda Avstraliya Tashqi ishlar va savdo vaziri G.Evansning O'zbekistonga tashrifidan boshlangan.

2017-yil 2-martida Avstraliyaning O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi (qarorgohi Moskva shahrida) P.Martin Tesh O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vaziri A.Kamilovga ishonch yorlig'i nusxasini topshirdi.

Tomonlarning o‘zaro munosabatlarni jadallashtirishida ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida olib borilayotgan siyosiy maslahatlashuvlar katta turtki bo‘lmoqda. Ularning so‘nggisi, 2012-yilning aprelida Toshkentda o‘tkazildi. (2009-yil 30-mart, Kanberra).

2016-yilda Tomonlar Diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilganligi 25 yilligi munosabati bilan tabrik xatlari almashishdi.

Davlat statistika qo‘mitasi bergan ma‘lumotga ko‘ra davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$1620,2 mingni tashkil qilgan.

O‘zbekistonda Avstraliyalik investorlar ishtirokida 6ta korxonada faoliyat ko‘rsatayapti. Shulardan 3 qo‘shma korxonada va 3 tasi 100% xorijiy sarmoya ishtirokida faoliyat yuritmoqda.

O‘ZBEKISTON-VETNAM MUNOSABATLARI

Vetnam Sotsialistik Respublikasi (VSR) O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan oldi, 1992-yil 17-yanvarda diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 1993-yil Toshkentda Vetnam elchixonasi ochildi, 2009-yildan buyon Xanoyda O‘zbekiston Respublikasining faxriy konsulxonasi faoliyat yuritib kelmoqda.

1996-yil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov rasmiy tashrif bilan Vetnamda bo‘ldi. Tashrif davomida davlatlararo munosabatlar asoslari, hamkorlik to‘g‘risida Kelishuv va hukumatlararo bitimlar imzolandi.

2010-yilda O‘zbekistonning Indoneziyadagi Favqulodda va Muxtor elchisi O‘zbekiston Respublikasining VSRdagi elchisi etib tayinlangan (qarorgohi Jakarta shahrida).

2011-yil oktabr oyida Vetnam Bosh vaziri Nguen Tang Zungning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi.

Vetnam bilan ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonga VSR Xalq yig‘ini raisi o‘rinbosari Uong Tu Liuning (2008-yil iyul), VSR Bosh vaziri o‘rinbosari Xoang Chung Xayning (2010-yil aprel), Jamoat xavfsizligi vaziri Le Xong Anning (2010-yil sentabr), Xanoy shahri Xalq kengashi raisi Ngo Txi Zoan Txanning (2012-yil avgust), Bosh prokuror o‘rinbosari Chan Kong Fanning (2012-yil dekabr), Adliya vaziri o‘rinbosari Din Chung Tungning (2013-yil iyun), Oliy xalq sudi raisi Chiong Xoa Binning (2014-yil iyun) tashriflari tashkillashtirildi.

2013-yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi delegatsiyasining Vetnamga tashrifi bo‘lib o‘tdi.

2014-yilning mart oyida Xanoy shahrida O‘zbekiston va Vetnam Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlarning to‘rtinchi davrasi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston va Vetnam o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitaning 6ta yig‘ilishi o‘tkazilgan. Shularning eng oxirgisi 2013-yil dekabr oyida Xanoy shahrida bo‘lib o‘tdi.

2017-yil fevralida bosh vazir o‘rinbosari – qishloq xo‘jaligi va suv ho‘jaligi vaziri boshchiligidagi O‘zbekiston Respublikasi hukumat delegatsiyasi Vetnamga tashrif buyurdi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotga ko‘ra davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$33,8 mln.ni tashkil qilgan. O‘zbekistonda hozirgi kunda Vetnam sarmoyasi ishtirokida 19 ta korxonada faoliyat yuritib kelmoqda. Ulardan 3 tasi 100 foiz Vetnam sarmoyasi asosida tashkil etilgan.

Madaniy va gumanitar sohadagi hamkorlik doirasida imzolangan kelishuvlar amaliyoti yuzasidan 1995-yilning dekabridan boshlab “O‘zbekiston – Vetnam” va “Vetnam – O‘zbekiston” Do‘stlik jamiyatlari faoliyat olib borishmoqda.

2012- yil sentabrida O‘zbekistonda Vetnam madaniyati kunlari o‘tkazildi.

2012-yil dekabrda Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida Vetnam tili va madaniyati markazi ochildi.

O‘ZBEKISTON-INDONEZIYA MUNOSABATLARI

Indoneziya 1991-yil 28-dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi, va 1992-yil 23-iyunda diplomatik aloqalar o‘rnatildi.

Indoneziya o‘zining Toshkentdagi elchixonasini 1994-yil may oyida ochdi. 1996-yilning dekabr oyidan e‘tiboran Jakarta shahrida O‘zbekiston Respublikasi elchixonasi faoliyat yuritib kelmoqda.

1992-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Indoneziyaga davlat tashrifi amalga oshirildi, 1995-yil aprel oyida Indoneziya Respublikasi Prezidenti X.M.Suxarto O‘zbekistonga davlat tashrifi bilan keldi.

2005-yil dekabr oyida Toshkentda “O‘zbekiston va Indoneziya Tashqi ishlari vazirliklari o‘rtasida ikki tomonlama maslahatlashuv bo‘yicha qo‘mita tashkil etish to‘g‘risida o‘zaro Anglashuv Memorandumi” imzolandi hamda siyosiy maslahatlashuvning birinchi davrasi bo‘lib o‘tdi. Hozirgi kunga qadar uning 6 davra uchrashuvlari o‘tkazilgan. (oxirgisi 2014-yil martda Jakartada bo‘lib o‘tdi.)

Parlamentlararo aloqa turli darajadagi tashriflar almashinuvi orqali izchil tarzda rivojlanib bormoqda. Shu jumladan 2007-yilda Indoneziya Xalq Vakillari palatasi Spikeri Agung Laksono O‘zbekistonga tashrif buyurdi. 2008-yilda esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri muovini Indoneziyaga safar uyushtirdi.

2013-yilda Indoneziya Xalq Vakillari palatasi Parlamentlararo hamkorlik qo‘mitasi Raisi S.Hidoyat O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

2015-yil aprel va may oylarida Indoneziya Respublikasi Milliy Konsultativ kongresi raisining o‘rinbosari Mahyudin hamda Indoneziya Respublikasi Mintaqalar vakillari kengashi Parlament yuqori palatasi raisi Irman Gusmanning O‘zbekistonga tashrifi bo‘lib o‘tdi.

2017-yil 20-25 avgust kunlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Z.T.Mirzaev boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi Indoneziyaga tashrifni amalga oshirdi. Muzokaralar davomida ikki davlat o‘rtasida baliqchilik, acchiq qalampir etishtirish va uning eksporti masalalarida kelishuvlarga erishildi. Jumladan, tashrif davomida Indonesia Respublikasi Prezidenti J.Widodo bilan uchrashev tashkil etildi.

O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotiga ko‘ra davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$35,6 mln.ni tashkil qilgan.

Hozirgi kunda Indoneziya kapitali ishirokida 4 ta korxonada faoliyat olib bormoqda.

Mamlakat xalqlari o‘rtasida do‘stlik rishtalari, hamkorlik aloqalari, hamda madaniy va ma‘rifiy sohadagi munosabatlarni rivojlantirish maqsadida 2002-yil sentabr oyida “O‘zbekiston-Indoneziya” do‘stlik jamiyati ta‘sis etildi.

1997-yil sentabr oyida Samarqand va Banda-Achex shaharlari o‘rtasida birodarlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish maqsadida bayonnoma imzolandi.

2001-yildan e‘tiboran Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qoshida indoneziya tilini o‘rgatish bo‘yicha markaz faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu markazda har yili 20 dan ortiq talabalar tahsil oladi. Samarqand Davlat chet tillar institutida indoneziya tili va madaniyati sinfi tashkil etilib, unda indoneziya tili dars sifatida o‘tilmoqda.

2013-yilda Toshkent Davlat Sharqshunoslik Institutida qoshida Indoneziya tili markazi ochildi.

O‘ZBEKISTON-MALAYZIYA MUNOSABATLARI

Malayziya O‘zbekiston mustaqilligini 1992-yil 1-yanvar kuni tan olgan. Ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 21-fevralda o‘rnatilgan.

Ikki tomonlama do‘stona va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishda tamal toshi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yilgi va Malayziya Bosh vaziri Moxatxir Moxammadning 1993-yilgi rasmiy tashriflari chogida qo‘yildi. 2003-yil esa O‘zbekistonga Malayziya qiroli Tuanku Sayyod Sirajuddin Jamalullayl tashrif buyurdi.

Ikki tomonlama munosabatlardagi so‘nggi muhim yangiliklar sifatida O‘zbekiston davlat Rahbarining 2005-yil oktabr oyidagi Malayziyaga va unga javoban 2008-yil noyabrda ushbu davlat Bosh vaziri Ahmad Badavining O‘zbekistonga davlat tashriflari qayd etildi va bu tadbirlar chog‘ida o‘zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarida bir necha hukumatlararo shartnomalar imzolangan.

2010-yilning aprelda esa Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri D.Tashmuhamedovanning Malayziyaga javob safari uyushtirildi.

Tomonlarning o‘zaro munosabatlarni jadallashtirishda ikki davlat tashqi siyosiy faoliyat idoralari o‘rtasida olib borilayotgan siyosiy maslahatlashuvlar katta turtki bo‘lmoqda. Ularning so‘nggisi 2012-yilning noyabrda Toshkentda o‘tkazilgan.

Davlat statistika qo‘mitasi bergan ma’lumotga ko‘ra davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$64,8 mln.ni tashkil qilgan (eksport-\$4,2 mln., import-\$60,6 mln.).

Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda 2005-yilda tashkil qilingan o‘zbek-malayziya savdo qo‘mitasi katta rol o‘ynamoqda. Qo‘mitaning ikkinchi yig‘ilishi 2009-yilning 20-oktabrida Toshkentda o‘tkazildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda Malayziya investitsiyasi ishtirokida 14 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ulardan beshtasi iqtisod, neft-gaz sohasi, to‘qimachilik, mebel, elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish, moliya xizmatlarini taqdim etish va boshqa yo‘nalishlarda 100% Malayziya kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Malayziya texnik hamkorlik dasturi (MTHD) doirasida tashkil etilayotgan qisqa muddatli o‘quv kurslarida respublika vazirlik va tashkilotlari vakillari doimiy tarzda ishtirok etib kelishmoqda. 2016-yilning mart oyiga qadar bo‘lgan davr oralig‘ida 557 nafar o‘zbek mutaxassislari MTHD seminarlarda ta‘lim olishdi.

Ikki davlat ilm-fan va madaniyat jamoatchiligi o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish maqsadida 1998-yil Toshkentda “O‘zbekiston-Malayziya” Do‘stlik jamiyati tashkil etildi.

2015-yil 23-27-aprel kunlari, madaniyat va turizm sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirish doirasida Malayziya Madaniyat va turizm vaziri Dato Seri Mohammed Nazri bin Abdul Aziz O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

O‘ZBEKISTON-SINGAPUR MUNOSABATLARI

Singapur Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini 1992-yilda tan olgan va 1997-yil 8-aprelda diplomatik aloqa o‘rnatgan.

2007-yildan Singapurda O‘zbekiston Respublikasi Elchixonasi faoliyat olib bormoqda. 2011-yildan boshlab Singapurning O‘zbekistondagi elchisi Zulkifli bin Baharuddin hisoblanadi.

Ikki tomonlama do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda tamal toshi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yil 24-26-yanvar kunlari Singapurga qilgan davlat tashrifi chog‘ida qo‘yildi.

Tomonlarning o‘zaro munosabatlarni jadallashtirishda ikki davlat tashqi siyosiy faoliyat idoralari o‘rtasida olib borilayotgan siyosiy maslahatlashuvlar katta turtki bo‘lmoqda. Ularning so‘nggisi, 2012-yilning aprelda Singapur Tashqi ishlar Davlat vaziri Masagos Zulkiflining O‘zbekistonga tashrifi davomida o‘tkazildi.

Davlat statistika qo‘mitasi bergan ma’lumotga ko‘ra, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari 2017-yil yakuni bo‘yicha \$66,4 mln.ni tashkil qilgan (eksport – \$56,1 mln., import – \$10,3 mln.).

O‘zbekistonda 32 ta Singapur sarmoyasi ishtirokida qo‘shma korxonalar elektrotexnika, tekstil, oziq-ovqat, ta‘lim, savdo hamda mashinasozlik sohalarida faoliyat olib borishmoqda. Ulardan 8 tasi 100% xorij sarmoyasi ishtirokida faoliyat yuritmoqda.

2007-yildan boshlab, har yili O‘zbekiston va Singapurda, Singapur Biznes Federatsiyasi bilan hamkorlikda qo‘shma biznes forumlar o‘tkazib kelinmoqda.

2008-yildan boshlab Toshkentda Singapur Menejmentni rivojlanish Instituti (MDIS) faoliyat yuritib kelmoqda. MDIS Singapur Menejmentni rivojlanish Instituti va O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi tomonidan tashkillashtirilgan oliy o‘quv muassasi bo‘lib, unda «Bank ishi», «Biznes boshqaruvi», «Turizm» va «Biznesda zamonaviy ITlar» yo‘nalishlari bo‘yicha darslar o‘tilmoqda.

Singapur texnik hamkorlik dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari vakillari turli qisqa muddatli kurslarda qatnashib kelishmoqda.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH DAVLATLARI VA GRUZIYA BILAN HAMKORIGI

O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlari izchil rivojlanmoqda. Qozog‘iston O‘zbekistonning muhim savdo sheriklaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi bilan O‘rta Osiyo davlatlari o‘rtasida ayirbosh qilinadigan mahsulotlarning sezilarli qismi uning hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo‘yicha qariyb 2 032,5 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Shunga qaramasdan, ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun ishga solinmagan ko'pgina imkoniyatlar mavjud.

Qozog'iston bilan ikki tomonlama hamkorlik, shubhasiz, mintaqada barqarorlikni ta'minlash va dolzarb masalalarni birgalikda va samarali hal etishga xizmat qiladi.

1991-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qozog'istonga 10 marotaba tashrifi amalga oshirilgan va Qozog'iston Prezidenti O'zbekistonga 11 marotaba tashrif buyurgan.

O'zbekiston-Qirg'iziston munosabatlari ikki tomonlama hamkorlik doirasida erishilgan kelishuvlarning o'zaro tenglik va manfaatdorlik tamoyillari asosida izchil amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlar o'zaro anglashuv va hurmatga asoslangan barqaror aloqalarga tayanadi. Bu munosabatlar ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga xizmat qiladi.

1991-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qirg'izistonga 2 marotaba (1994-yil 16-yanvar va 2000-yil 26-27 – sentabr), Qirg'iziston Prezidenti esa O'zbekistonga 4 marotaba (1992-yil sentabr, 1996-yil dekabr, 1998-yil noyabr va 2006-yil oktabr) tashrif buyurgan.

1996-yildan buyon Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Qirg'iziston hukumatlararo komissiyasi faoliyat olib bormoqda. Hozirgi kunga qadar ushbu komissiyaning 7 ta majlisi bo'lib o'tgan. Oxirgi yettinchi qo'shma majlis 2009-yil 28-dekabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tdi.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo'yicha qariyb 169,3 million AQSh dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasidagi yaqin qo'shniçilik va do'stona aloqalar qaror topgan bo'lib, davlatlararo munosabatlarining barcha jabhalarida hamkorlik darajasi yuksalmoqda.

O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlari yuqori darajadagi ikkitomonlama hamkorlik bilan izohlanadi. Oliy darajada qabul qilingan bitimlar, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va gumanitar hamkorlikka oid hujjatlar turli sohalarda ikki tomonlama o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

1991-yildan hozirgi paytga qadar ikki mamlakat rahbarlarining **21** marta oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi. O'zbekiston Prezidenti **10** marotaba Turkmanistonga tashrif buyurgan bo'lsa, Turkmaniston Prezidenti O'zbekistonga **11** marta kelgan.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi izchil o'sib bormoqda va 2016-yil yakunlari bo'yicha qariyb **213** million AQSh dollarini tashkil etdi.

Ikki mamlakatning neft va gaz sohasida yaqindan hamkorlik qilishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Muhim strategik xomashyoni eksport qilish yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish imkonini bergan «Turkmaniston-O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy» transmilliy gaz quvurining qurilishi bo'yicha yirik loyihaning amalga oshirilishi ikki mamlakatning ushbu sohadagi samarali hamkorligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Transport kommunikatsiyalari iqtisodiy hamkorlik borasidagi yana bir muhim yo'nalishdir. «O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon» yangi xalqaro transport-kommunikatsiya yo'lagini tashkil etish bo'yicha imzolangan ko'p tomonlama shartnomaning hayotga tadbiiq etilishi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratadi, tranzit yuklar oqimini ko'paytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning muhim omilidir. O'zbekiston va Turkmanistonning madaniyat va san'at namoyandalari ikki mamlakatda tashkil etiladigan festival, ko'rgazma va forumlarda muntazam ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi konstruktiv va ochiiq muloqot mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda hamda mintaqaning barqaror rivojlanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Tojikiston bilan savdo-iqtisodiy, gumanitar sohalarda, mintaqa barqarorligini ta'minlashda hamda mintaqa xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar bilan birgalikda kurashishda keng ko'lamlii hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdordir.

2000-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Tojikistonga davlat tashrifi amalga oshirildi.

1998-yil yanvarda va 2001-yil dekabr oyida esa Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrif uyushtirdi.

Ikki mamlakat o'rtasida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya tashkil qilingan. Shu kungacha qo'shma komissiyaning to'rtta majlisi bo'lib o'tgan. Majlislar Dushanbe shahrida 2002-yil 22-avgust kuni hamda 2009-yil 18-fevralda tashkil etilgan, Toshkent shahrida 2015-yil 23-iyun kuni hamda 2016-yil 28-dekabrda tashkil etilgan.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo'yicha 196,8 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston Respublikasini 1992-yil 20-mart kuni tan olgan. Shu kunning o'zida ikki mamlakat o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng ko'lamlı hamkorlik 2004-yil imzolangan Strategik hamkorlik va 2005-yil imzolangan Ittifoqdoshlik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar asosida rivojlanmoqda. 2013-yilning 14-15-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida 2013-2017-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo Dastur qabul qilindi.

2010-yil 12-13-noyabr kunlari O'zbekistonga Rossiyaning Federatsiya Kengashi Raisi V.Matvienko tashrif buyurdi. Tashrif doirasida V.Matvienko O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining raisi I.Sobirov va Qonunchilik palatasi spikeri D.Toshmuhamedovalar bilan muzokaralar o'tkazdi.

2014-yilning 10-dekabrda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning O'zbekistonga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi.

Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlar ja'dal sur'at bilan rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo hamkorlari orasida Rossiya Federatsiyasi birinchi o'rinda turadi.

2016-yil yakunlariga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash 4,2 mlrd. AQSh dollarni tashkil etdi.

Ozarbayjon Respublikasi bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan.

1991-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ozarbayjonga 3 marotaba va Ozarbayjon Prezidenti O'zbekistonga 3 marotaba tashrif buyurgan.

Mazkur tashriflar chog'ida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini sifat jihatdan yanada yuqori pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladigan muhim kelishuvlarga erishildi. Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish, informatsion va kommunikatsion texnologiyalar, temir yo'l transporti, soliq, maxfiy ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash sohalarida hamkorlikka oid, shuningdek, gumanitar, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishra doir qator hujjatlar imzolandi.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo'yicha 21,2 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Ukraina ham O'zbekiston Respublikasining yetakchi tashqi iqtisodiy sheriklaridan sanaladi. O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, turli sohalaridagi hamkorlikni tartibga soluvchi 142 shartnoma, bitim va boshqa hujjatlardan iborat.

1991-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ukrainaga 6 marotaba tashrif buyurgan va Ukraina Prezidenti O'zbekistonga 4 marotaba tashrif buyurgan.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo'yicha qariyb 254,1 million AQSh dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi **Belarus Respublikasi** bilan har tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi. Mamlakatlarimiz iqtisodiyoti bir-birini to'ldiradi. So'nggi ikki yilda Toshkent va Minskda Hukumatlararo komissiyaning (HK) ikkita yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi o'rtasida 2008-2017-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma va uning ijrosi yuzasidan Dastur imzolangan. O'zbekiston va Belarus hukumatlari o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash,

Favqulodda vaziyatlar vazirliklari o'rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda hamkorlik to'g'risidagi hujjatlar imzolangan.

1994-yil dekabrda Belarus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenkoning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirilgan.

2015-yil 11-12-mart kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi hamda Belarus Respublikasi o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo qo'shma komissiya uchinchi majlisi bo'lib o'tdi.

MDH mamlakatlari boshliqlari majlisi doirasida Minsk shahrida 2014-yil oktabrida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Belarus Respublikasi Prezidenti A.Lukashenko uchrashishdi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning asosiy masalalari muhokama qilindi.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo'yicha qariyb 113,4 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Armaniston, Moldova bilan MDH hamda mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

1995-yil 30-31-martda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Moldovaga davlat tashrifi va 1998-yil 17-18-dekabrda Moldova Prezidenti P.Luchinskiyning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirilgan.

Gruziya O'zbekistonning eng muhim tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat – 1995-yilning 4-sentabrda O'zbekiston va Gruziya o'rtasida imzolangan do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi kelishuv hisoblanadi.

Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarni iqtisodiy hamkorlik bo'yicha o'zbek-gruzin Qo'shma komissiyasi tartibga soladi. 2014-yilning 20-oktabrida Toshkent shahrida mazkur komissiyaning navbatdagi yetinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

2016-yil yakunlari bo'icha ikki davlat o'rtasidagi umumiy tovar aylanmasi hajmi 90,8 million AQSh dollarini tashkil etdi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGIDAGI ISHTIROKI

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrda MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21-dekabrda mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan.

Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.

MDH Ijroiya Qo'mitasi Hamdo'stlikning ijro etuvchi, ma'muriy va muvofiqlashtiruvchi idorasidir. Uning shtab-kvartirasi Minskda va bo'linmasi Moskvada joylashgan.

O'tgan yillar mobaynida MDH doirasida ishtirokchi davlatlar uchun savdo-iqtisodiy munosabatlar, kommunikatsiya va transport tarmoqlarini yanada rivojlantirish, xavfsizlikni ta'minlash hamda gumanitar aloqalarni mustahkamlash kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oluvchi qator hayotiy muhim yo'nalishlar bo'yicha keng ko'lamli huquqiy asos yaratildi va hamkorlikning vosita va mexanizmlari ishlab chiqildi.

Hamdo'stlik ishtirokchi davlatlarning barqaror ruvojlaniishi va xavfsizligiga to'sqinlik qiluvchi har qanday tahdid va xavf-xatarlarga o'z vaqtida munosib javob qaytarish borasida o'zaro maqbul yondoshuvlar va kelishilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, muammo va kelishmovchiliklarni hal qilish, MDH hududidagi fuqarolarning o'zaro muloqot yuritishlari uchun keng imkoniyat yaratdi.

O'zbekistonda MDHga ko'p rejali munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mexanizm va bevosita muloqotlar olib borish, davlatlararo muzokaralarni tashkil qilish, jumladan MDH formatida davlat rahbarlari va tegishli idoralar boshliqlari darajasida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazish maydoni, shuningdek, ko'p tomonlama hamkorlik shart-sharoitlarini yaratishda manfaatdor bo'lgan suveren davlatlarning birlashmasi sifatida qarashadi.

O'zbekiston Respublikasi MDHning asosiy nizomiy va tarmoq organlari faoliyatida ishtirok etadi. O'zbekiston Hamdo'stlik tashkil etilgandan boshlab uning doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va yangicha asosda xo'jalik aloqalarini jarayonlarga siyosiy tus bermagan holda amalga oshirish tarafdori bo'lgan davlatlar qatoriga kirgan.

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekiston tomoni jahondagi jadal o'zgarishlar sharoitida MDHni davlatlararo hamkorlik tizimi sifatida doimiy muzokaralar, oliy darajada siyosiy muloqotlar, vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kelishilgan yondoshuvlar ishlab chiqish, xalqaro xavfsizlikka oid ko'plab dolzarb masalalarni hal etishning muhim mexanizmi deb hisoblaydi.

Hamdo'stlik ko'p rejali hamkorlikni muvofiqlashtiruvchisi bo'lishi va barcha ishtirokchi davlatlarning maksimal ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishishlari maqsadida xo'jalik jarayonlarini tartibga soluvchi rolini o'ynaydi va uning faoliyati shunga yo'naltirilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI (SHHT) FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI

2001-yil 15-iyunda Shanxay shahrida Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Xitoy, Tojikiston va O'zbekiston davlatlari rahbarlari tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) tuzilishi haqida Deklaratsiya imzolandi.

Afg'oniston, Belarus, Eron va Mug'uliston Tashkilotda kuzatuvchi maqomiga ega. Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja, Nepal, Turkiya va Shri-Lanka davlatlari ShHTda "muloqot yo'lida hamkorlik" maqomiga ega. 2010-yil aprel oyida Toshkent shahrida ShHT va BMT kotibiyatlari hamkorligi to'g'risida Qo'shma deklaratsiya imzolandi. Shuningdek, BMTning Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi, Evrosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Mustaqil Davlatlari Hamdo'stligi kabi tashkilotlar bilan rasmiy aloqalar o'rnatilgan.

Tashkilot ikkita doimiy amaldagi organga, ya'ni Pekin shahrida ShHT Kotibiyati va Toshkent shahrida ShHT ning Mintaqaviy Aksilterror tuzilmalariga ega.

ShHT Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni o'rnatishda, o'zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda ko'p tomonlama hamkorlikning mexanizmi, ochiq va konstruktiv muloqot uchun maydon, shuningdek, turli yo'nalishlarda sherikchilikni rivojlantirish instrumenti hisoblanadi. ShHT faoliyati davrida, tashkilotni mustahkamlash borasida katta siyosiy va tashkiliy ishlar amalga oshirildi, uning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ko'p qirrali amaliy qadamlar qo'yildi.

ShHT Xartiyasiga muvofiq, a'zo davlatlar hamkorlik qilishda quyidagi prinsiplarga amal qilishadi:

- davlatlar suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yaxlitligini va davlatlar chegaralarining dahlsizligini o'zaro hurmat qilish, bostirib kirmaslik, ichki ishlariga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik yoki xalqaro munosabatlarda kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaradosh hududlarda bir tomonlama harbiy ustunlik qilishdan voz kechish;

- a'zo davlatlar teng huquqliligi, o'zaro tushunishga asoslangan holda qarashlar kesishuvchi nuqtalarni izlash, har bir a'zo davlatning fikrlarini hurmat qilish;

- umumiy manfaatlar mavjud yo'nalishlarda birgalikdagi harakatni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- a'zo davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni tinchlik yo'li bilan bartaraf etish;

- ShHTni boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlarga qarshi qo'ymaslik;

- ShHTning maanfatlariga qarshi qaratilgan har qanday noqonuniy harakatlarga yo'l qo'ymaslik;

- ShHT Xartiyasidan, tashkilot doirasida qabul qilingan hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni vijdonan bajarish.

ShHTda qarorlar qabul qiluvchi Oliy organ – a'zo davlatlar rahbarlarinig Kengashi (DRK) bo'lib, tashkilotning strategiyasini, ko'p qirrali hamkorlik va tashkilot faoliyatining istiqbollari hamda ustuvor yo'nalishini ko'rib chiqadi va belgilaydi. DRK bir yilda bir marta yig'iladi, yig'ilishga tashkilotchi davlat rahbari raislik qiladi.

Ahamiyati jihatidan ikkinchi organ – ShHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlari Kengashi (HRK) bo'lib, tashkilot doirasida ko'p tomonlama hamkorlik strategiyasini, uning ustivor yo'nalishiga oid masalalarni muhokama qilish, iqtisodiy hamkorlikning o'ta muhim va dolzarb vazifalarini hal qilish uchun bir yilda bir marotaba yig'iladi. Shuningdek Tashkilotning yillik budjetini tasdiqlaydi.

DRK va HRK yig'ilishlaridan tashqari, xavfsizlik kengashi kotiblari, tashqi ishlar, mudofaa, favqulodda vaziyatlar, iqtisodiyot, transport, madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash vazirlari, oliy sud, bosh prokurorlar, huquq-tartibot idoralari rahbarlari darajasida uchrashuvlar mexanizmi ham mavjud.

DRK, HRK, tashqi ishlar vazirlari va boshqa organlarni yig'ilishlarini tayyorlash bo'yicha zaruriy ish olib boruvchi milliy koordinatorlar Kengashi ShHTning joriy faoliyatini muvofiqlashtiradi va unga rahbarlik qiladi.

Iqtisodiy yo'nalishda Ishbilarmonlik Kengashi va ShHTning Banklararo uyushmasi mexanizmlari faoliyat yuritadi.

O'zbekiston ShHTning ta'sischi davlatlaridan biri hisoblanadi va boshqa a'zo davlatlar qatorida tashkilot doirasida kelajakdagi hamkorlik strategiyasini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi tashkilot doirasida mintaqaviy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlik, a'zo mamlakatlar muqarrar iqtisodiy o'sishi va aholi yashash darajasini oshirish kabi yo'nalishlarga e'tibor kuchaytirilishini zarur deb hisoblaydi.

O'zbekistonning tashkilotga raisligi doirasida 2004-yil Toshkentda bo'lib o'tgan sammitda «ShHTda kuzatuvchi maqomi to'g'risidagi Nizom» hamda «ShHTning kuzatuvchilar bilan o'zaro munosabatlari Tartibi to'g'risida» hujjatlar imzolandi. Kuzatuvchi davlat institutini joriy etilishi, ShHTning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu, shuningdek, ShHTning kelajagini mustahkamlash, tashkilot salohiyatini kengaytirish hamda jahon hamjamiyatida uning roli va obro'sini sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ldi.

2010-yil iyun oyida Toshkentda bo'lib o'tgan sammitda ShHTga yangi a'zolarini qabul qilish Nizomi hamda ShHTning protseduralar Qoidasi tasdiqlandi. Shuningdek, ShHTga a'zo-davlatlar hukumatlari o'rtasida qishloq xo'jaligi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar imzolandi.

2013-yil noyabr oyida Toshkentda ShHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlarining (bosh vazirlar) bo'lib o'tgan 12-yig'ilishida tomonlar jahon va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga oid keng qamrovli masalalar bo'yicha fikr almashdilar hamda ShHT doirasida savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik masalalarini muhokama qildilar.

ShHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlarining kelajakda transport sohasida hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi Qo'shma Bayonoti imzolandi hamda ShHTning Taraqqiyot Banki va Taraqqiyot Fondini tashkil qilish bo'yicha kelgusida qilinadigan ishlar bo'yicha qaror qabul qilindi.

2015-yil 9-10-iyulda Ufa shahrida ShHTning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi, mazkur sammit davomida mintaqaviy muammolar va xalqaro xavfsizlikka doir dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashilib, tashkilot faoliyatidagi ustivor yo'nalishlar va ShHT doirasida ko'p tomonlama hamkorlik rivojining istiqbollari muhokama qilindi.

ShHT sammiti yakunida davlat rahbarlari tomonidan Ufa deklaratsiyasi imzolandi, 2025-yilgacha ShHT rivojlanish strategiyasi, 2016-2018-yillarga mo'ljallangan ShHTga a'zo davlatlarining terrorizm, separatizm va ekstrimizmga qarshi kurashish uchun hamkorlik Dasturi tasdiqlandi, Hindiston va Pokistonning ShHT a'ziligiga qabul qilinishi jarayonining boshlanganligi haqida qaror qabul qilindi.

Davlat rahbarlari tomonidan Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 70 yilligi munosabati va narkotik tahdidlar muammosi yuzasidan bayonot qabul qilindi, shuningdek, ShHTga a'zo davlatlarning chegara masalalari bo'yicha hamkorligi haqida Bitimi imzolandi.

ShHTning Ufa sammiti yakunlanishi bilan 2015-2016-yillarda Tashkilotga raislik O'zbekiston Respublikasiga o'tdi.

O'zbekiston raislik qiluvchi davlat sifatida ShHTga a'zo davlatlarning manfaatlarini aks ettiruvchi o'zaro manfaatli rivojlanish, ShHTning xalqaro maydonda obro'yini ortib borishini ta'minlash kabi tamoyillarga rioya qilish niyatida.

Xalqaro, mintaqaviy xavfsizlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ShHT a'zolari bo'lgan barcha davlatlar gumanitar rivojlanishiga bo'lgan zamonaviy tahdidlarga munosib javob tayyorlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilikka qarshi birgalikda kurashishni kuchaytirish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mintaqada ShHTning taraqqiyot va barqarorlikning ishonchli kafolatchisi sifatidagi rolini mustahkamlash maqsadida a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish tadbirlariga, shuningdek BMT, boshqa xalqaro tashkilotlar va manfaatdor davlatlar bilan munosabatlarning keyingi rivojiga katta ahamiyat beriladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BMTNING TA'LIM, FAN VA MADANIYAT MASALALARI BO'YICHA TASHKILOTI (UNESCO) BILAN O'ZARO HAMKORLIK MUNOSABATLARI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) 1945-yil 16-noyabrda tashkil etilgan.

Tashkilotning asosiy maqsadi adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, hamda irqi, jinsi, tili va diniga qaramasdan barcha xalqlar uchun BMTning Nizomida mustahkamlangan asosiy inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlanishiga hissa qo'shishdir.

YUNESKOning Bosh qarorgohi Parij shaxrida joylashgan.

Tashkilotning Bosh rahbari – O'dri Azule (Fransiya). 2017-yil oktyabr oyida tashkilotning bosh anjumanining 39-sessiyasida ushbu lavozimga saylangan.

YUNESKO ilm-fan, madaniyat va ta'limni rivojlantirishga qaratilgan dasturlari orqali faoliyat yuritadi.

O'zbekiston YUNESKO bilan 1993-yil 26-oktabrdan buyon hamkorlik qilib keladi.

YUNESKOning O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi 1996-yil 23-apreldan boshlab faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston YUNESKO faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston YUNESKO Ijroiya kengashiga ikki marta saylangan (1997-2001 va 2009-2013 yy.).

O'zbekiston Respublikasining takliflariga binoan quyidagi tadbirlar YUNESKO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda nishonlangan:

- 1994-yil - Mirzo Ulug'bek tavvaludi 600 yilligi;
- 1996-yil - Amir Temur tavvaludi 660 yilligi;
- 1997-yil - Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi;
- 1998-yil - Imom Buxoriyning 1225 yilligi va Ahmad Farg'oniyning 1200 yilligi;
- 1999-yil - "Alpomish" eposining 1000 yilligi;
- 2000-yil - Kamoliddin Behzodning 545 yilligi;
- 2001-yil - "Avesto" ning 2700 yilligi;
- 2002-yil - Tezmiz shahrining 2500 yilligi va Shahrisabz shahrining 2700 yilligi;
- 2003-yil - Abduxoliq G'ijduvoniyning 900 yilligi;
- 2005-yil - Qarshi shahrining 2700 yilligi va Mamun akademiyasining 1000 yilligi;
- 2007-yil - Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg'ilon shahrining 2000 yilligi;
- 2009-yil - Toshkent shahrining 2200 yilligi.

O'zbekistonning YUNESKO bilan o'zaro hamkorligi chet elda o'zbek musiqa madaniyatini ommalashtirish imkoniyati bermocda.

Jumladan, Samarqand shahrida YUNESKO shafeligida muntazam o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali bunga yorqin misol bo'la oladi.

1995 yilda YUNESKO bilan hamkorlikda Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. Hozirgi kunda institutning 8 ta bo'linma va 10 markazi, shuningdek, 34 ta YUNESKoga birlashtirilgan maktablari O'zbekistonda faoliyat yuritmoqda.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BMTNING NARKOTIK VA JINOYATCHILIKKA
QARSHI KURASH TASHKILOTI (UNODC) BILAN O‘ZARO HAMKORLIK
MUNOSABATLARI

Xalqaro konvensiya va BMTning rezolyutsiyalariga binoan, BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining asosiy maqsadlari bu – a’zo davlatlarda narkotik moddalarni nazorat qilish, transmilliy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi konvensiyalarning bajarilishiga ko‘maklashish, shuningdek jinoyiy sud jarayonlarini isloh qilish, terrorizm va odam savdosi kabi illatlarni oldini olishdan iborat.

BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi Markaziy Osiyo davlatlariga noqonuniy giyohvand moddalarining savdosi va iste’molini kamaytirish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, shuningdek terrorizmga aloqador jinoyatlarga jazo berish va terrorizm haqida ogohlikka chaqirish sohasida ko‘maklashib kelmoqda. Ushbu tashkilotning mintaqaviy vakolatxonasi Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, uning mintaqaviy ofislari Bishkek (Qirg‘iziston), Dushanbe (Tojikiston), Ashxobod (Turkmaniston), Ostona va Olma-Ota (Qozog‘iston), shuningdek Boku (Ozarbayjon) shaharlarida ham mavjuddir.

O‘zbekiston o‘zining 30 millionlik aholisi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynab kelmoqda. BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi noqonuniy giyohvand moddalar aylanishi, jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish yo‘li bilan aholi, ayniqsa yoshlar salomatligini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha masalalarni hal etishda O‘zbekistonda 1993-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

Hozirgi kunda ushbu tashkilot bilan hamkorlikda quyidagi qo‘shma loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda:

1. “Giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi (CARICC)ni tashkil etish” Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 15,4 mln. AQSh doll.). Loyiha doirasida CARICC ni tashkil etish bo‘yicha shartnomaning ishtirokchi-davlatlari milliy koordinatorlari Kengashining bir qancha yig‘ilishlari o‘tkazilib, faoliyatning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi, yaqin 2 yildagi faoliyatning eng asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

2. “Treatment II – narkotik moddalarga qaramlikni oldini olish va uning sog‘liq uchun salbiy oqibatlari” Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 1 mln. 490 ming AQSh doll.). Sog‘likni saqlash, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirliklarining 7 ta mutahassislari loyiha doirasida 2009-yil 24-avgustdan 17-sentabrgacha Toshkent shahrida o‘tkazilgan mintaqaviy treninglarda o‘qitildi. 2010-2011 yillarda loyihani amalga oshirish dasturiga muvofiq o‘qitish treninglari tashkillashtirildi.

3. “Oilaviy hayot ko‘nikmalarini shakllantirish dasturi vositasida yoshlar o‘rtasida psixoaktiv moddalarning noqonuniy iste’mol qilinishi, OIV/OITS va jinoyatchilikni oldini olish” Mintaqaviy loyihasi. O‘zbekiston ushbu loyihada 2017-yilga qadar ishtirok etadi. Hozirgi kunda ushbu loyiha doirasida Toshkent shahri va respublikaning uch viloyatida maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar uchun “Oila va maktab birgalikda” dasturi amalga oshirilmoqda.

4. “Chegara punktlarini mustahkamlash orqali Afg‘onistonning shimoliy marshrutlari orqali o‘tuvchi noqonuniy opiatlarning aylanishiga qarshi kurashish” Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 1,3 mln. AQSh doll.).

O‘zbekiston Respublikasiga kiruvchi va tranzit orqali MDH mamlakatlari o‘tuvchi shaxslar va transport vositalarining asosiy oqimi o‘zbek-tojik chegarasidagi «Oybek-avtoyo‘l» o‘tkazuv punkti orqali amalga oshirilishi hisobga olingan holda, asosiy texnik hamkorlik oqimi ushbu nazorat-o‘tkazuv punktiga yo‘naltirilgan.

Bundan tashqari, 2011-yilda noqonuniy giyohvand moddalarga qarshi kurash sohasida yuqori natijalarga erishish bo‘yicha mintaqa davlatlari uchun kompleks tavsiyaviy hujjat hisoblangan 2011-2015-yillar uchun mo‘ljallangan Afg‘oniston va unga qo‘shni davlatlarda narkotik

moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashdagi xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash mintaqaviy dasturi yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu dasturning asosiy maqsadlaridan biri mintaqqa mamlakatlarining narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashdagi salohiyatini kuchaytirish, shuningdek xalqaro operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun mahsus manbalar ajratishdan iborat.

Mazkur dastur loyihasining umumiy qiymati 60 mln. AQSh dollarini tashkil qiladi. Asosiy donor-mamlakatlar Yaponiya, Rossiya, Shvetsiya, Norvegiya va Italiya hisoblanadi. Dastur ishtirokchilari : Afg‘oniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Eron, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston.

5. “BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) va Butunjahon bojxona tashkilotining konteyner tashilmalarini nazorat qilish bo‘yicha global dasturi”. Konteyner tashilmalarini nazorat qilish bo‘yicha global dastur (GPCT) 2004-yilda BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) va Butunjahon bojxona tashkiloti tomonidan bojxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini birlashtirish orqali bu kabi jinoyatchilik faoliyatiga chek qo‘yish maqsadida ishlab chiqilgan.

GPCTning o‘n yillik amalda bo‘lish davrida katta yutuqlarga erishildi. Faqatgina 2013-yilda 23 tonna kokain, 6 tonna kannabis, 1,2 tonna heroin, 60 tonna tramadola va 725 kg miqdorda fil suyaklari ushlab qolindi. 119 ta konteynerda kontrafakt mahsulotlar aniqlandi. O‘zining amaliyotga tadbiiq etilishidan so‘ng GPCT port nazorati bo‘yicha 30 dan ortiq tezkor bo‘linmalarni tashkil qildi, bu esa, o‘z navbatida, narkotik va boshqa taqiqlangan mahsulotlarning, xususan, 100 tonna kokain, 3 mln tonna heroin, 60 tonna kannabis va taqiqlangan narkotik moddalari ishlab chiqishda qo‘llaniluvchi 1273 tonna miqdoridagi kimyoviy modda-prekursorlar, shuningdek, sigaretalar, avtomobillar, dori vositalari, elektron chiqindilar, xavfli materiallar va yovvoyi hayvonlar kabi taqiqlangan tovarlar va narkotik moddalarni aniqlash va musodara qilishning sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi.

6. “Markaziy Osiyo mintaqasi va Ozarbayjondagi prekursorlar ustidan nazorat qilish” Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 6 mln. AQSh doll.). Ushbu loyiha doirasida 30 dan ortiq treninglar, turli uchrashuvlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularda mamlakatimizning turli tashkilotlaridan 220 dan ortiq vakillar ishtirok etdilar.

Vazirlik va idoralar kompyuter va laborator uskunalari, transport va texnik vositalar, materiallar, o‘quv qo‘llanmalari bilan ta‘minlandi.

Shuningdek, loyiha huquq-tartibot organlarining Afg‘onistonga kimyoviy prekursorlar noqonuniy olib o‘tilishini oldini olish bo‘yicha mintaqaviy va milliy operatsiyalarini moliyalashtiradi.

7. “Markaziy Osiyo va Afg‘oniston Islom Respublikasi davlatlari huquqni muhofaza qilish organlari shaxsiy tarkibini narkotik moddalarga qarshi kurash sohasida malakasini oshirish”, Rossiya-NATO Kengashi Mintaqaviy loyihasi (loyihaning umumiy qiymati – 2.140.000 AQSh doll.). Loyiha doirasida narkotik moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo‘yicha bo‘linmalar xodimlarini tayyorlashda Domodedovo xalqaro idoralararo markazida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi Oliy harbiy bojxona institutida, Bishkekda, Ashxobodda, Anqaradagi TADOK Akademiyasida 28 ta trening o‘tkazilib, ularda O‘zbekiston Respublikasining huquq-tartibot va boshqa mas‘ul organlarining 144 nafar vakillari ishtirok etdilar.

17 - avgust 2018

DAVLAT CHEGARALARINI RASMIYLASHTIRISHNI JADALLASHTIRISH – O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida Markaziy Osiyodagi yaqin qo‘shnilar bilan hamkorlikni rivojlantirishni O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berdi. Bu qo‘shni mamlakatlar bilan davlat chegarasini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish bo‘yicha muzokaralar jarayonini faollashtirishga qaratilgan muhim qadam edi.

Prezidentimizning 2018-yil 5-apreldagi farmoni bilan o‘rta muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasining asosiy xorijiy sheriklar bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari tasdiqlandi. Unga ko‘ra O‘zbekiston davlat chegarasini

delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini uzil-kesil nihoyasiga yetkazish tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Chegarani huquqiy jihatdan rasmiylashtirishni hal etish masalasini jadallashtirish O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida ham o'z aksini topgan.

Ma'lumki, mintaqa markazida joylashgan O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega. Uning uzunligi 7000 kilometrdan ziyod, jumladan, Qozog'iston bilan – 2356,31, Qirg'iziston bilan – 1476,12, Tojikiston bilan – 1296,9, Turkmaniston bilan – 1831,49, Afg'oniston bilan – 143 kilometrni tashkil etadi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan hamkorligi faollashishi barobarida, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo'yicha muzokaralar jarayoni muntazamlilik kasb etdi. 2016-yil avgust oyidan 2018-yil avgust oyiga qadar O'zbekiston hukumati delegatsiyasi qo'shni mamlakatlar hukumat delegatsiyalari bilan jami 65, jumladan, Qozog'iston bilan 18, Qirg'iziston bilan 28, Tojikiston bilan 9, Turkmaniston bilan 9, Afg'oniston bilan 1 uchrashuv o'tkazdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-sentabrdagi Qirg'iziston Respublikasiga, 2018-yil 9-martdagi Tojikiston Respublikasiga davlat tashriflari davomida o'zbek-qirg'iz davlat chegarasi haqidagi shartnomaning kelishilgan qismi va O'zbekiston – Tojikiston davlat chegarasining ayrim uchastkalari haqidagi shartnoma imzolanishi chegarani delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegaraoldi muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Pirovardida, O'zbekiston Prezidentining ochiq va pragmatik siyosati tufayli O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasidagi davlat chegaralarining tutashuv nuqtasini belgilab olish masalasida anglashuvga erishildi. 2017-yil noyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo bo'yicha yuksak darajadagi Xalqaro konferensiya doirasida bu borada tegishli shartnoma imzolandi.

Qozog'iston bilan davlat chegarasini delimitatsiya qilish nihoyasiga yetib, ayni paytda bu haqidagi shartnoma uchun zarur hujjatlarni tayyorlash bo'yicha muzokaralar o'tkazilmoqda.

Turkmaniston bilan Davlat chegarasi haqidagi shartnoma 2000-yil sentabr oyida Ashxobodda imzolanib, unda 10 ta uchastka bo'yicha ishlarni davom ettirishga kelishilgan edi. 2017-yil mart oyida mamlakatimiz Prezidentining Turkmanistonga davlat tashrifi chog'ida Ashxobodda erishilgan yuksak darajadagi kelishuvga muvofiq, uzoq yillik tanaffusdan so'ng chegara masalalari bo'yicha ishchi guruhlar muzokaralari tiklandi.

2018-yil fevral oyida Afg'oniston rasmiylari bilan bo'lgan uchrashuvda Amudaryo sohillari bo'yilab chegara chizig'ini mustahkamlash masalasi ko'rib chiqildi.

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan chegaralari masalasini tartibga solish nafaqat mintaqa va MDH mamlakatlari, balki butun dunyoda ijobiy e'tirofga sazovor bo'ldi. Xorijiy ekspertlarning bu haqdagi fikrlari e'tiborga loyiq.

Britaniyalik siyosatshunos Saypir Furstenberg: "Hukumat tepasiga kelganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, Shavkat Mirziyoyevning ezgu ishlari nafaqat so'zda, balki amalda ham o'z isbotini topmoqda. Uning Nyu-Yorkka tashrifi O'zbekiston rahbarining BMTga so'nggi 15 yildagi ilk tashrifi bo'ldi. Shu yo'sinda Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning ko'p yillar davom etgan o'z-o'zini yakka-latish jarayoniga nuqta qo'ydi. Bundan tashqari, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mamlakat kelajagiga oid ko'plab g'oyalar hayotga tatbiq etila boshladi. Xususan, Qirg'iziston bilan chegarani delimitatsiya qilish haqidagi shartnomaning tuzilishi O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar bilan sheriklik munosabatlarini tiklash yo'lidagi sa'y-harakatlarining amaliy natijasi bo'ldi. Ushbu muammo ikki tomonlama munosabatlarni yo'lga qo'yishda to'siq bo'lib kelayotgan edi".

AQSH Davlat kotibining Janubiy va Markaziy Osiyo ishlari bo'yicha yordamchisi o'rinbosari Ellis Uells: "Bugungi kundagi eng muhim yangiliklardan biri shuki, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada Markaziy Osiyo davlatlarining o'z salohiyatini to'liq namoyon qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shavkat Mirziyoyev davlatni tashqi dunyoga

ochmoqda, qo'shnilarga do'stlik qo'lini uzatmoqda, chegaralarga oid masalalarni hal etish choralari ko'rmoqda".

MDH davlatlari institutining Markaziy Osiyo bo'limi mudiri Andrey Grozin: "Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo siyosat maydonida paydo bo'lishi qo'shni mamlakatlar munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda rahbariyat o'zgargandan so'ng Markaziy Osiyoda davlatlararo munosabatlar tizimi shakllanmoqda. O'tgan yil mobaynida Toshkent turli yo'nalishlarda yuksak darajadagi faollikni namoyish qildi. Shavkat Mirziyoyevning Bishkekka tashrifi va chegaralarni qisman delimitatsiya va demarkatsiya qilish to'g'risidagi kelishuvning imzolanishi bunga yorqin misoldir".

Nashriyotning amerikalik kolumnisti va "Corsair LLC" konsalting kompaniyasi boshqaruvchi direktori Djeym Durso "O'zbekiston Qirg'iziston bilan chegarani delimitatsiya qilish to'g'risidagi kelishuvni imzoladi. Toshkent hatto Norin daryosida GES qurilishida yordam berishga rozi bo'ldi. Farg'ona vodiysida nazorat-o'tkazish punktlari ishining tiklanishi va aholining ikki mamlakat o'rtasida bordi-keldilarini yengillashtirish Shavkat Mirziyoyevning Bishkekka tashrifining muhim natijalaridan biri bo'ldi", deb yozadi.

Xorijiy siyosatshunos va ekspertlarning bunday izohlarini ko'plab keltirish mumkin. Ular Prezident Shavkat Mirziyoyevning yaxshi qo'shnilik va do'stlikka asoslangan ochiq siyosati O'zbekiston rahbari murosa qilish va yillar davomida to'planib, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirish yo'lida g'ov bo'lib kelayotgan eng murakkab masalalarga yechim topish qobiliyatiga ega ekanidan dalolat bermoqda, degan yakdil fikrda.

Darhaqiqat, Qirg'iziston va Tojikiston bilan imzolangan chegara haqidagi shartnomalar mamlakatimiz uchun zamonaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, chegaraoldi hududida savdo, tovar aylanishi hajmini oshirish yo'lida keng imkoniyatlarni ochib berdi va eng asosiysi, tarixiy ildizi tutash, qon-qarindosh xalqlar bordi-keldisi uchun qulay sharoitlar yaratdi.

Qirg'iziston bilan chegara punktlaridagi cheklovlarni olib tashlash, Tojikiston bilan chegara postlarining to'laqonli faoliyat yuritishi bo'yicha erishilgan kelishuvlar tufayli har kuni o'zbek-qirg'iz chegarasidan o'tuvchi fuqarolar soni 30 mingtani, o'zbek-tojik chegarasidan o'tuvchilar esa 20 mingtani tashkil etmoqda.

Qo'shni davlatlarga xizmat safari chog'ida biz ushbu mamlakatlarning rasmiy shaxslari va oddiy fuqarolari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga qo'shnilarga nisbatan ochiqlik va xayrixohlik siyosati uchun samimiy minnatdorlik bildirayotganining guvohi bo'lamiz. Qirg'iziston va Tojikistonning chegaraoldi hududlari aholisi davlatimiz rahbariga alohida minnatdorlik izhor etmoqda, chunki bu yerdagi ko'plab fuqarolar chegaraoldi hududidagi aholi punktlarida istiqomat qiluvchi o'zbek oilalari bilan yaqin qarindoshlik aloqalariga ega.

Mamlakatimizning qo'shnilar bilan chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini tartibga solishning ahamiyati va zaruratini yanada chuqurroq anglash uchun ularni hal etish tarixiga nazar solish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari bilan muzokaralar jarayoni 2000-yilda Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini belgilash va jihozlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq boshlangan.

Ushbu jarayon 2000-yil sentabrda Ashxobodda Turkmaniston bilan yuqorida qayd etilgan chegara to'g'risidagi kelishuv imzolanishiga qadar davom etdi. 2002-yil 5-oktabrda Dushanbeda o'zbek-tojik chegarasining kelishilgan qismi to'g'risidagi kelishuv imzolandi.

Qo'shni mamlakatlar bilan chegaralarni qat'iy tartibga solish bo'yicha 15 yildan buyon davom etayotgan muzokaralar natija bermagani hech kimga sir emas. Natijada barcha boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

To'g'ri yondashilganda oqilona yechim topish mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha olib borilgan ko'p yillik bahs-munozaralar va hattoki qarama-qarshiliklar ko'pincha kelishmovchiliklar va hatto chegarada to'qnashuvlar sodir bo'lishiga ham olib keldi.

Afsuski, buning natijasida chegaralarni delimitatsiya qilish jarayoni kechikibgina qolmay, O'zbekiston va mintaqqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish yo'lida sun'iy

to'siqlar paydo qildi va bundan asosan oddiy fuqarolar, ayniqsa, chegara yonidagi aholi aziyat chekdi.

O'zbekistonning qo'shni respublikalar bilan munosabatlarida yuzaga kelgan holat ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqish va chegaralarni delimitatsiya qilish masalalarini hal etish yondashuvlarini o'zgartirish, chegara o'tkazish punktlari faoliyatini yo'lga qo'yishni qat'iy talab etardi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti topshirig'iga ko'ra, chegaralarni uchta asosiy tamoyil asosida delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha qo'shni mamlakatlar bilan muzokaralar o'tkazishga qaror qilindi. Birinchisi – o'zaro manfaatlarni qat'iy hisobga olish, ikkinchisi – chuqur o'ylangan oqilona murosa, uchinchi – yer uchastkalari bilan teng almashinuv. Barcha tomonlar mazkur tamoyillarga rioya qilmasdan turib, chegaralarni tartibga solishning imkoni yo'q, degan fikrga kelishdi, chunki barcha Markaziy Osiyo mamlakatlariga avvalgi tizimdan mazkur muammo bo'yicha chalkashlik meros bo'lib qolgan edi.

Muzokaralar vahamkorlikda dala tadqiqotlarini olib borish, arxiv hujjatlari, kartografik materiallarni o'rganishyakuni bo'yicha qo'shni mamlakatlar bilan davlat chegara chiziqlarini murakkablashtirgan muammolar aniqlandi.

Birinchi va eng asosiy muammo – Markaziy Osiyoning deyarli barcha mamlakatlari bilan davlat chegaralarini delimitatsiya qilish bo'yicha huquqiy asosning yo'qligidadir.

Ikkinchi muammo – 1924-1927-yillar – O'rta Osiyo respublikalarini chegaralash davrida va 1930-yil va undan keyingi davrda qabul qilingan hujjatlar bo'yicha kelishmovchiliklar.

Uchinchi muammo – xaritalarda belgilangan chegara chiziqlarining amalda foydalanilayotgan yerlar, irrigatsiya tarmoqlari, ko'plab infratuzilma obyektlari, uy xo'jaliklari va qabristonlar joylashuvi bilan mos kelmasligi.

Ba'zan ommaviy axborot vositalarida yerlar almashinuvi, chekka hududlar va anklavlar bo'ylab chegara chiziqlarini belgilash masalalari bo'yicha unchalik aniq bo'lmagan ma'lumotlar tarqatilmoqda. Shu bois, noto'g'ri talqindan qochish maqsadida ushbu masalalar bo'yicha chegaralarni huquqiy rasmiylashtirish jarayonlari yakuniga qadar taxminiy xulosa chiqarishga shoshmaslik maqsadga muvofiq bo'lardi.

Chegaralarni huquqiy rasmiylashtirish tomonlar komissiyalarining ikki bosqichda olib boradigan muzokaralari orqali amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – bu delimitatsiya, ya'ni xaritalarda chegaralarni belgilash. Ikkinchi bosqich – demarkatsiya, ya'ni ustunlar o'rnatish va turli qurilish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy ishlardir.

Ishchi guruhlar muzokaralari yakuni bo'yicha imzolanadigan qarorlar tomonlar hukumatlarining ularni tasdiqlab, kelgusida Chegara to'g'risidagi shartnomaning davlat rahbarlari darajasida imzolanishi, ratifikatsiya qilinishi va ratifikatsiya yorliqlari bilan almashinuidan so'ng yuridik kuchga ega bo'ladi.

Ayni paytda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi va doimiy qo'llab-quvvatlashi tufayli qisqa vaqt ichida komissiyalar mamlakatimiz va qo'shni respublikalar chegara chiziqlarining eng murakkab va chigal hududlari bo'yicha o'zaro maqbul yechim topishga erishdi, deyin uchun to'la asoslar bor.

Shubhasiz, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-tojik chegaralari to'g'risidagi kelishuvlarning imzolanishi hamda O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonning tutash nuqtasi hududi to'g'risidagi kelishuvlar mamlakatimiz hayotida tarixiy voqea bo'ldi.

O'zbekistonning mintaqadagi qo'shni mamlakatlar bilan davlat chegaralarini huquqiy rasmiylashtirishni yakunlash ishlari davom ettirilmoqda.

O'zbekiston fuqarolari Markaziy Osiyoning qardosh xalqlar o'rtasidagi chegaralar tinchlik, do'stlik va hamkorlik chegarasi bo'lishiga ishonadilar.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida tashqi munosabatlarga a'lohida e'tibor qaratildi:

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish;
- fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;
- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;
- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;
- favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;
- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

2017 yilda soha oid quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

- ❖ O'zbekiston Respublikasining Konsullik yig'implari tarifiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, №PQ-3423, Qabul qilingan sana 04.12.2017, Kuchga kirish sanasi 04.12.2017
 - ❖ Konsul tomonidan hujjatlarni qonuniylashtirish to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining buyrug'i, reg. № MYu 313-1, Qabul qilingan sana 17.10.2017, Kuchga kirish sanasi 18.10.2017
 - ❖ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili faoliyatini tashkil etish to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, №PQ-3036, Qabul qilingan sana 06.06.2017, Kuchga kirish sanasi 06.06.2017
 - ❖ Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-5046, Qabul qilingan sana 19.05.2017, Kuchga kirish sanasi 23.05.2017
- 2017 yilda **21 ta oliy darajadagi** tashriflar amalga oshirildi, **60 dan ortiq** davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

- Natijada **400 dan** ortiq bitim va kelishuvlarga erishildi, qariyb **60 milliard AQSh dollari** hajmidagi savdo va sarmoyaviy shartnomalar imzolandi.
- Qabul qilingan hujjat va kelishuvlarni o‘z vaqtida to‘liq bajarish maqsadida **40 ta “yo‘l xaritasi”** ishlab chiqildi va xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.
- Turkmaniston va Qirg‘iziston bilan **strategik hamkorlik** o‘rnatildi.
- Qozog‘iston bilan strategik hamkorligimizni yanada chuqurlashtirish borasida bir qator muhim hujjatlar imzolandi, 2 milliard dollar miqdorida iqtisodiy bitimlar tuzildi. Tojikiston bilan hamkorligimiz har tomonlama mustahkamlanmoqda. Toshkent va Dushanbe shaharlari o‘rtasida aviaqatnov yo‘lga qo‘yildi.

Харакатлар стратегияси ўтган давр ичида қатор амалий ислохотларга замин яратди. Булар қаторида ташқи сиёсий фаолият алоҳида ўрин тутди.

Ўзбекистон ташқи сиёсати Президент Шавкат Мирзиёевнинг кун тартибида биринчи ойларида нўхоятда ёрқин, натижадор йўналишга айланди. Хусусан, 2016 йилнинг сўнгига қадар, қўшни мамлакатлар билан йиллар давомида ўз ечимини кутган қатор минтақавий аҳамиятга эга масалалар ҳал этила бошланди, улар билан аниқ ва истиқболли “йўл хариталар”и ишлаб чиқилди.

Харакатлар стратегиясининг амалга оширилишига йўналтирилган бу йилги Давлат дастурида ҳам қатор ташқи сиёсий ва шу жумладан, Ўзбекистоннинг халқаро ташаббусларини назарда тутувчи вазифалар ўз ўрнини топган. Булар қаторида, қўшни давлатлар билан ҳамкорликни изчил ривожлантириш, Марказий Осиё давлатларининг афғон можаросини ҳал этишга ва Афғонистон Ислом Республикасининг иқтисодий ва ижтимоий инфратузилмасини ривожлантириш ва қайта тиклашга қаратилган чоратadbirlарни амалга ошириш кабилардир.

Халқаро ҳамжамият томонидан Марказий Осиё хавфли минтақа эмас, балки стратегик, иқтисодий имкониятлар минтақаси сифатида қайд этилишидан худуддаги барча иштирокчилар манфаатдор. Шу ўринда, Тошкент конференциясининг очилиш маросимида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ўз нутқида таъкидлаганидек, Афғонистонда тинчликни ўрнатиш улкан худуд – Марказий ва Жанубий Осиё минтақасига сезиларли фойда келтиради – автомобиль ва темир йўллариининг қурилишидан тортиб, қувурларни ўтказиш, барча йўналишларда минтақавий ва трансминтақавий савдонинг ривожланишини рағбатлантирилишига олиб келади. Бунинг учун эса, даставвал, Афғонистонда тинчлик ва хавфсизликни ўрнатишнинг асосий масалалари юзасидан кенг халқаро консенсусга эришиш зарур.

“Афғон муаммоси”га бағишлаб ўтказилган Тошкент конференцияси айна шу мақсадни кўзлади ва у Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрь куни бўлиб ўтган БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқида БМТ тарихида илк бор “Афғонистонда тинчликка эришишнинг ягона йўли – марказий ҳукумат ва мамлакат ичидаги асосий сиёсий кучлар ўртасида олдиндан ҳеч қандай шарт қўймасдан, тўғридан-тўғри мулоқот олиб боришдир”, дея халқаро ҳамжамиятга қарата айтган мурожаатининг амалий нишонаси бўлди. Тадбирнинг бошқа эътиборли тарафлари бу илк бора, муаммога бевосита алоқадор мамлакатнинг қўшни минтақасида, чегарадош давлатда ўтказилаётганлиги ҳамда унда ўртада ўзаро у ёки бу муаммолари бўлса-да, қатор давлатларнинг бир доира анжуманида тўпланганидадир.

Маълумот учун, конференция иштирокчилари қаторидаги айрим давлатлар - Саудия Арабистони, Бирлашган Араб Амирликлари ҳамда Баҳрейн, Жазоир, Йемен ва Ливия ўтган 2017 йилнинг июнь ойида, “Толибон”ни молиялаштиришда ва уни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашда Қатар қироллигини айблаб, у билан дипломатик алоқаларни тўхтатганлар.

Вазият бир оз ғайритабиий ҳамдир. Гап шундаки, ушбу давлатларнинг айримлари “Толибон” ҳаракатининг штаби айнан уларнинг худудида очилиши устида бир қанча тортишув иштирокчилари бўлганлар.

Шу ўринда, қатор чегараорти кузатувчилар томонидан мазкур конференциянинг - унда қатнашиши зарур бўлган яна бир “афғон сиёсий кучи” деб қаралаётган “Толибон”нинг қатнашмаганлиги юзасидан бутун бошли конференциянинг натижадорлигига нисбатан билдирилаётган скепсисга бир оз тўхталсак.

“Толибон” манзилсиз тузилма эмас. 2016 йил Покистон Бош вазири ўринбосарининг миллий хавфсизлик масалалари бўйича маслаҳатчиси Вашингтонда бўлиб ўтган Халқаро масалалар бўйича Кенгашда - “Толибон” афғон ҳаракатининг раҳбарияти Покистон худудида жойлашганлиги ва покистонлик расмийлар уларга тўлақонли таъсир ўтказиш кучига эга эканликларини тан олган. Қолаверса, бугунги кунда мазкур ҳаракатнинг расмий ваколатхонаси Қатар пойтахти Доҳа шаҳрида ўз фаолиятини олиб бормоқда. Шундай қилиб, ушбу ҳаракат ўз расмий вакилларига эга ва қатор давлатлар (шу жумладан, унга “паноҳ” берган ва шунга истак билдирган қатор мамлакатлар) томонидан алоҳида сиёсий куч сифатида тан олинаётган қатлам, дейилса муболаға бўлмайди.

Шундай экан, бўлиб ўтган конференцияда “Толибон”нинг бошқарув қатлами, қарор қабул қилувчи шахслари вакиллари қўним топган давлатлар вакиллари, шу жумладан, Қатар қироллигининг Ташқи ишлар вазирлиги расмий вакили иштирок этганлиги ва унинг ўз чиқиши давомида толибонларнинг ҳам мазкур музокараларда иштирок этиши албатта зарурлиги ҳақида фикр билдирганлиги муҳим. Бунда, албатта, келгуси ўзаро амалий чоратадбирларга зарурият мавжуд.

Афғонистон можароси кўп йиллик можаро ва табиийки, унинг борасида қатор, турли форматдаги йиғилишлар шу кунга қадар шакллантирилган, ўз фаолиятини олиб борган. Таъкидлаш жоиз, Тошкент конференцияси илгариги “жараён”, “формат”ларнинг ўрнини босишни мақсад қилмаган. Конференция доирасида ўтказилган сессияларда қайд этилганидек, ушбу анжуман натижасида, ўн йилликлар давомида шаклланган ва чуқур илдиз отган муаммоларни бир ондаёқ ҳал этилишини кутишнинг ўзи нотўғри.

Тадбирда барча чиқиш қилган спикерлар томонидан қайд этилганидек, афғон халқи тинчлик ва барқарорликда яшашга ҳақли. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти айтганидек, афғон халқи урушдан чарчаган, унинг бўлгуси авлод учун янги тинч ҳаётни бошлашга кучи, жасорати ва оқилона ёндашуви етади. Ҳудди шу фикрни Европа Иттифоқининг олий мартабали иштирокчиси Федерика Могерини хоним ҳам ўз чиқиши давомида билдирди. Жумладан, Афғонистонда тинчлик жараёнини ўрнатишда афғонларнинг ўзидан бошқа ҳеч ким муайян ҳал қилувчи ролни ўйнай олмаслигини таъкидлади.

Шундай экан, ўтган ҳафта Тошкентда старт берилган мазкур тинчликни ўрнатиш жараёнига Афғонистоннинг қолган иштирокчилари ҳам қўшилишлари кўзда тутилади.

Ўзбекистон сиёсати очиклик ва тинчлик тарафдори. Шундай экан, вазиятдан тўғри фойдалана билиш учун бошқа иштирокчи тарафлар томонидан мазкур тинчлик жараёнига жасорат намойиш этган ҳолда қўшилишлари назарда тутилади. Ўзбекистон эса, Президент Шавкат Мирзиёев қайд этгани сингари, тарафларга қулай вақт ва жойда мазкур келишувлар жараёнини ҳар қандай босқичда ташкиллаштиришга ҳамиша тайёр. Зеро, айтилганидек, афғон муаммосини ҳал этиш учун барчамиз масъулмиз ва бунга барча ҳамиша ёдда тутмоғи лозим.

Қолаверса, Ўзбекистонда мулоқотлар майдони ташкил қилинибгина қолмай, шу билан бирга Президент Шавкат Мирзиёев ўз чиқишида Афғонистонни тинчлик ва барқарор тараққиёт йўлига ўтишининг аниқ йўналишли “йўл харитаси”ни ифодалаб берди ва бу Тошкент декларациясида ҳам ўз аксини топди. Жумладан, бутун ҳамжамиятни Афғонистоннинг, энг аввало, ижтимоий-иқтисодий ривожланишига ҳисса қўшиши аниқ фойда келтира олиши таъкидлаб ўтилди. Ўзбекистоннинг шу ўринда амалга ошираётган сиёсати, яъни ушбу қўшни мамлакатнинг иқтисодий ва ижтимоий инфраструктурасини ривожлантириш йўлидаги сайъ-ҳаракатлари, аввало, кўплаб йиллар давомида талофот кўраётган жафокаш афғон халқининг,

унинг ёш авлодининг онгида уруш ва зўравонлик мафкуриси ортик илдиз отмаслигига қаратилган.

Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга йўналтирилган бу йилги Давлат дастурида ҳам афғон муаммоси билан боғлиқ чора-тадбирлар алоҳида ўрин топганлиги бу Ўзбекистонинг мазкур масалага чинакамига нақадар юксак эътибор қаратаётганлигидан далолатдир.

Мамлакатимиз аҳолисининг барча миллий манфаатларини ўзида акс эттирган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси ўтган бир йилдаёқ қатор амалий ислохотларга замин яратди. Шу жумладан, ташқи сиёсий фаолият борасида ҳам.

Умуман олганда, ташқи сиёсат Президент Шавкат Мирзиёев фаолиятининг биринчи ойларидаёқ ниҳоятда ёрқин, натижадор йўналишига айланди. Ўтган қисқа даврда кўшни давлатлар билан нафақат янги истиқболли иқтисодий шартномалар, ва балки йиллар давомида ўз ечимини кутган қатор минтақавий аҳамиятга эга масалалар ҳам ҳал этила бошланганлиги бугунги кунимизнинг яққол воқелигидир.

Ҳаракатлар стратегиясининг амалга оширилишига йўналтирилган бу йилги Давлат дастурида ҳам қатор ташқи сиёсий ва шу жумладан, Ўзбекистоннинг халқаро ташаббусларини назарда тутувчи вазифалар ўз ўрнини топган. Булар қаторида, кўшни давлатлар билан ҳамкорликни изчил ривожлантириш, Марказий Осиё давлатларининг афғон можаросини ҳал этишга ва Афғонистон Ислом Республикасининг иқтисодий ва ижтимоий инфратузилмасини ривожлантириш ва қайта тиклашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш кабилардир.

Халқаро ҳамжамиятнинг Марказий Осиёни хавfli минтақа сифатида эмас, стратегик, шу жумладан, иқтисодий имкониятлар минтақасидек қайд этиши ушбу минтақа барча иштирокчиларининг манфаатидадир. Шу ўринда, Ўзбекистон ташқи ишлар вазири А.Комилов таъкидлаганидек, Афғонистонда тинчликни ўрнатиш кенгмиқёсли Евроосиё минтақасига сезиларли фойда келтиради – автомобил ва темир йўлларининг қурилишидан тортиб, қувурларни ўтказиш, барча йўналишларда минтақавий ва трансминтақавий савдосининг ривожланишини рағбатлантирилишига олиб келади. Бунинг учун эса, даставвал, Афғонистонда тинчлик ва хавфсизликни ўрнатишнинг асосий масалалари юзасидан кенг халқаро консенсусга эришиш зарур.

Эртага ўз ишини бошлайдиган Афғонистон бўйича “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” Тошкент конференцияси / #UzAfg2018 / айна шу мақсадни кўзлайди, ва у Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрь куни бўлиб ўтган БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқида БМТ тарихида илк бор

“Афғонистонда тинчликка эришишнинг ягона йўли – марказий ҳукумат ва мамлакат ичидаги асосий сиёсий кучлар ўртасида олдиндан ҳечқандай шарт қўймасдан, тўғридан-тўғри мулоқот олиб боришдир” дея халқаро ҳамжамиятга қарата айтган мурожаатининг амалий тимсолидир.

Қолаверса, конференция шу кунга қадар “афғон муаммоси” юзасидан ўтган йил давомида ўтказилган “Қобул жараёни” номли йиғилишларнинг мантикий давомидир.

Тошкент конференцияси эса турли даражадаги халқаро интилишларнинг натижаларини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Бунда, хусусан, Афғонистон марказий ҳукумати ҳамда қуролланган муҳолифат кучлари ўртасидаги музокараларнинг ўтказилиш механизмининг ва, умуман олганда, Афғонистондаги вазиятни тинчлик йўли билан ҳал қилишнинг тамойилларини ишлаб чиқиш каби стратегик мақсадлар кўзда тутилган.

Конференция яқунлари бўйича Тошкент декларацияси ишлаб чиқилиши режалаштирилмоқда.

MUHOQAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O‘zbekiston davlatining jahon hamjamiyati bilan aloqalari qanday huquqiy va amaliy prinsiplarga tayanadi?

2. Prezident Islom Karimovning mustaqil O'zbekistonni jahon hamjamiyati bilan tanitishda, hamkorlik aloqalarini o'rnatishda qanday roli bor deb bilasiz?
3. Demokratik tartibotlar va uning asosiy yo'nalishlarini gapirib bering?
4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-asoslarini bayon eting?
5. Mustaqil O'zbekiston dastlab va keyinchalik qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi?
6. O'zbekiston – AQSH strategik hamkorligining o'ziga xos tomonlari nimalarda?
7. Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarda demokratik institutlarning qanday roli va o'zni mavjud?
8. O'zbekiston – Rossiya munosabatlarini gapirib bering?
9. O'zbekistonning yaqin va o'rta SHarq, arab mamlakatlari bilan qanday o'zaro aloqalarni yo'lga qo'ygan?
10. Xalqaro terrorizmga birgalikda kurashda O'zbekistonning roli qanday?

MA'RUZANI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

<i>Talabalar soni -</i>	O'quv vaqti – 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli -</i>	“Klaser” organayzeridan foydalangan xolda, mavzu bo'yicha vizuallashgan ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy asoslari 2.O'zbekistonning chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari 3.O'zbekistonning, BMT va xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi, mintaqalararo va davlatlararo munosabatlari 4.O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrashuvi, xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun tashabbuslari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va tashqi siyosat haqida tasavvurga ega bo'lish, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan teng xuquqli siyosiy va iqtisodiy munosabatlarining asoslari haqida tushuncha xosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>
O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy qoidalari haqida gapirib, ma'lumot beradi;	Tashqi siyosatning asosiy vazifalari va jahon siyosati haqida gapirib bera oladi;
O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati tomonidan xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida tan olinishi va jahon hamjamiyatiga qo'shilishini tushuntirib, izohlab beradi;	Halqaro xuquq sub'ektlari va xalqaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yurita oladi
O'zbekiston tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlarning o'zni, jumladan BMT bilan munosabatlarining tashkiliy va huquqiy asoslarini tushuntirib beradi;	O'zbekistonning jahonning nufuzli tashkilotlariga a'ziligining siyosiy – iqtisodiy jihatlarini tahlil qiladi;
O'zbekiston va MDH: ikki va ko'p tomonlama hamkorlik borasida ma'lumot beradi;	O'zbekistonning MDH va qardosh davlatlar bilan hamkorligining asosiy jihatlarini asoslab beradi
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, B/B/B jadvali, debat va grafik organayzer, “Baliq skeleti” texnikasi

<i>O'qitish vositalari</i>	Slaydlar, sxemalar, tarqatma materiallar
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoaviy ishlash, guruhlarga bo'lib ishlash
<i>O'qitish nazorati</i>	Kompyuter, proektor mavjud auditoriyalar
<i>Manitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kursga va mavzuga kirish (20 minut)	1.1. Mavzuni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi	Yozib oladi
	1.2. O'quv mashg'uloti mavzusi bilan tanishtiradi. Uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini bayon etadi	Mavzu nomini yozib oladilar
	1.3. Mavzu yuzasidan blis-so'rov usulidan ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. Tayanch tushunchalarni namoyish qiladi (1-ilova)	Tushunchalarni sanab beradilar.
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tushunchalarga izoh beradi. Mavzuning 1-savoli O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy qoidalari haqida ma'lumot beradi. Mashg'ulotda vizual materiallardan foydalanadi (2-4- ilovalar) (1-2-3-slayd). 3- ilovadagi 1- o'quv topshiriq beriladi	Tinglaydilar. Yozib oladilar. Sxemalarni ko'chirib oladilar Topshiriqni bajaradilar
	2.2. O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida tan olinishi va jahon hamjamiyatiga qo'shilishini "Klaster" organiizeridan foydalangan xolda yoritib beradi(4-5-6 slaydlar).	Tinglaydilar. Yozib oladilar. Sxemalarni ko'chirib oladilar Topshiriqni bajaradilar
	2.3. O'zbekistonning tashqi aloqalarini kengayib borishi. 7-15 shakllar orqali yoritiladi	Tinglaydilar. Yozib oladilar. Sxemalarni ko'chirib oladilar
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa chiqaradi	Tinglaydi
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi	O'zini qiziqtirgan savollarni beradi
	3.3. "Baliq skeleti" texnikasini ishlash topshirig'i beriladi	Topshiriqni bajaradilar

Tayanch tushunchalar

1-ilova

- **Tashqi siyosat** – xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash bo'yicha davlatning faoliyat doirasi va tutgan yo'li.

- **Xalqaro munosabatlar** — xavfsizlik, barqarorlik va rivojlanishni ta'minlash maqsadida davlatlar, xalqlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi o'zaro qamkorlik shakl va metodlari, siyosiy, ququqiy, qarbiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar tizimi.
- **Milliy manfaat** – millat, xalq qayotini belgilaydigan, uning faoliyatini ma'lum maqsadlarga yo'naltiradigan ijtimoiy munosabatlar, milliy eqtiyojlar, tafakkur darajasi, ma'naviy saloqiyat, ruqiyati, an'ana va qadriyatlar tizimidir.
- **Integratsiya** (lot. - butun) – 1) ayrim qism va elementlarni bir butunga birlashtirish; 2) turli mamlakatlarning birlashmalari, tor doiradagi iqtisodiy-siyosiy guruqlar qo'shilishi.
- **Terrorizm** – zo'rlik va jaqolat mafkurasi; terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy qarakat.
- **Ekstremizm** (lot. – o'ta, so'nggi) – siyosatda ashaddiy, favqulodda tadbirlar va qarashlarga tarafdorlik ma'nolarini bildiradi.

Blis-so'rov

№	Savollar	Javoblar
1	Tashqi siyosat deganda nima tushunasiz?	
2	Ichki siyosat va tashqi siyosatning umuiylik xususiyati?	
3	Xalqaro munosabatlar tushunchasiga ta'rif bering?	
4	O'zbekistonda BMTning qanday ixtisoslashgan tashkilotlari faoliyat yuritadi?	
5	MDH qanday tashkilot?	
6	SHHT qisqartmasini izohlang?	

1-shakl

O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati:



O'z.R. Konstitutsiyasi 4-bob, 17-moddasida O'z.R. xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosatining **huquqiy (5 ta) prinsiplari** ishlab chiqildi va asoslab berildi:

1. Davlatlarning suvereniteti, tengligi.
2. Kuch ishlatmaslik yoki tahdid qilmaslik.
3. Chegaralarning daxlsizligi.
4. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish.
5. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.

1996 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi qonuni

O'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustuvorligi.

Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.


Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik.

Xalqaro huquq normalarining davlat ichki nomalaridan ustuvorligi.

Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.



I.A.Karimovning 1993 yil 28 sentyabrda tarixda birinchi marta davlat boshligi va Mustakil O'zbekiston vakili sifatida BMTning Bosh assambleyasi 48-sessiyasida suzga chikdi va yurtimizning kiska tarixi, madaniyati, demokratik davlat kurishdagi vazifalari, bozor iktisodiyotiga utish yuli xakida, tojik-afgon chegaralaridagi vaziyat, Orol muammosi, narkobiznesga va xar xil kimyoviy, bakteriologik kurollarning tarkalishi ustidan nazorat urnatish kabi dolzarb masalalarni kutarib chikdi, bu O'zbekistonning xorijiy davlatlar urtasidagi obrusini yanada oshirdi.



5-shakl

Xalqaro munosabatlar

xalqlar, davlatlar va ularning tizimli o`rtasidagi aloqalari o`zaro bog`liqliklarni yig`ndisi


Jahon hamjamiyatining barcha asosiy sub`ektlari o`rtasidagi siyosiy, xo`jalik – iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy, valyuta – moliyaviy, ijtimoiy, diplomatik, huquqiy, xarbiy, gumanitar va kommunikatsiya aloqalari va munosabatlarning tizimli yig`ndisi

1- o'quv topshiriq


3-ilova



Elchixonalar va konsulxonalarqanday vazifalarni bajaradi?

Toshkent shahridagi xorijiy davlatlar elchixonalaridan qaysilarini bilasiz?
Ular haqida ma'lumot bering?



6-shakl





O`zbekiston Respublikasi BMTning terrorizmga qarshi kurash bo`yicha barcha - 13 konvensiyasi ishtirokchisi bo`lib, ia?on hamjamiyatining ushbu xavfga yuzasidan ko`pl

O`zbekiston Respublikasi 100 dan ziyod xalqaro tashkilot a`zosi. Ular orasida ayniqsa BMT, SHHT, MDH, KXSHT nufuzli tashkilotlardir. Evropa Ittifoqi va NATO bilan yaqin hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda

O`zbekiston hozirgi kunda Jaxon pochta Ittifoqi, Jaxon soglikni saklash tashkiloti, Xalqaro elektr-aloka uyushmasi, Osiyo va Tinch okeani xavzasi buyicha iktisodiy va ijtimoiy okmissiya, Xalqaro Mexnat Tashkiloti, Ovrupo kayta tiklash va tarakkiyot banki, Jaxon Banki, Xalqaro valyuta jamgarmasi, Iktisodiy xamkorlik tashkiloti, Bojxona xamdustligi Kengashi, Atom energiyasini nazorat kilish xalqaro tashkiloti, Jaxon komp'yuter axboroti makoni, Xalqaro Trans-Osiyo-Ovrupo tola-optik aloka tarmogi kabi nufuzli tashkilotlar a`zosi.


2-o`quv topshiriq

4- ilova

8- Slaydda berilgan tashkilotlar qisqartmasini kengaytirib yozing va izohlang

10-shakl

O`zbekiston BMT Xavfsizlik Kengashining Kontrterroristik qo`mitasi faoliyatini ma`qullaydi va uning BMTga a`zo davlatlarning yovuzlikka qarshi turish imkoniyatlarini kuchaytirish borasidagi qarakatlarini to`la qo`llab-quvvatlaydi. Alohida ta`kidlash joizki, mazkur qo`mitaning tashkil etilishi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1999 yil Istanbul sha?rida bo`lib o`tgan EXHT sammitida Terrorizmga qarshi kurash markazi tuzish tashabbusining natijasi ham hisoblanadi.



O'quv vizual materiallar

BMT Bosh assambleyasining 2000 yil sentyabr oyida o'tgan "Mingyillik sammiti"da mamlakatimiz rahbari xalqaro terrorchilik va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurashga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, BMT faoliyati va uning tarkibiy tizimini isloh qilishga doir ko'plab muhim takliflarni bildirdi.

1999 yili Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istanbul sammitida Prezident Islom Karimov BMT huzurida terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Mazkur g'oya 2001 yil 28 sentyabrda BMT Xavfsizlik kengashi doirasida terrorchilikka qarshi kurash qo'mitasining tashkil etilishi bilan amalda o'z ifodasini topdi.

Ayni paytda O'zbekiston BMTning terrorchilikka qarshi 12 konvensiyasining barchasiga qo'shilgan.

MDH a'zolari tomonidan 1999 yil 4 iyunda imzolangan "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi shartnoma".

Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi 2001 yil 15 iyunda imzolangan Shanhay konvensiyasi.

Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi to'g'risidagi 2002 yil 7 iyunda SHHT a'zolari o'rtasida imzolangan kelishuv va boshqalar


O`zbekiston o`z davlat mustakilligiga erishgach mustakil tashqi siyosat olib borish imkoniyatiga va jaxon xamjamiyatiga kushilish imkoniyatiga ega buldi.

O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosati printsiplari Konstitutsiyamizning IV-bob 17-moddasida uz ifodasini topgan bulib, bu kuyidagicha ifodalangan: "O`zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning tula huquqli sub`ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan taxdid kilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yul bilan xal etish, boshka davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e`tirof etilgan boshka qoidalari va normalariga asoslanadi.

5-ilova

1- "Baliq skeleti" texnikasini tuzing .

Ushbu texnologiya katta muammolarning echimini topishga qaratilgan. YUqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa misollar bilan izohlanadi.



Ilovalar

"6+2"(1997-2000) va yangi "6+3" muuloqot guruhining shakllantiriliши.

"6+2" muuloqot guruhı 1997 йил БМТ котибияти биносида Ислам Каримов ташаббуси билан ташкил топди.

Бу гурух Афғонистондаги ҳарбий можароларни сиёсий йўл билан ҳал этишга қаратилган.

Мазкур гурухга Афғонистон билан бевосита чегарадош 6 та давлат, яъни Эрон, Хитой, Покистон, Тожикистон, Туркменистон, Ўзбекистон ҳамда АҚШ ва Россия кирган эди.

Унинг биринчи учрашуви 1997 йил 16 октябрда Нью-Йоркда бўлди.

1997 йил 19-20 июль кунлари "6+2" гуруҳининг Тошкентда дастлабки учрашуви бўлиб ўтди.




O'zbekiston Respublikasining Shanxay hamkorlik Tashkiloti (ShHT) faoliyatidagi ishtiroki



tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan xalqaro hukumatlararo tashkilot.

SHHT oltita davlatni – Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonni o'z ichiga oladi.



“Шанхай ҳамкорлиги ташкилоти” – тинчлик, хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш, ўзаро савдо-иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш мақсадида тuzилган.

SHHTga 8 ta davlat – Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston, Hindiston va Pokiston a'zodir.

Quzatuvchi davlatlar: Afg'oniston, Belarus, Eron va M'g'uliston

SHHTning 3 ta eng muhim vazifasi:

1. Terrorizmga qarshi birgalikda kurashish;
2. Separatizm (ayirmachilik) ga qarshi kurash;
3. Ekstremizmga qarshi kurash.

Quzatuvchilik maqomiga erishi uchun ariza bergan yana uch davlat bor: Suriya, Misr va Bangladesh.



Davlat boshliqlari sammitlariga taklifnoma olganlar: MDX, ASEAN, BMT, EvrazES, AQSH.

2017-2021 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI RIVOJLANTIRISHNING 5 TA USTUVOR YO'NALISHI

● - DAVLAT VA JAMIYAT
QURILISHI TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH;

● - QONUN USTUVORLIGINI
TA'MINLASH VA SUD-HUQUQ
TIZIMINI YANADA ISLOH
QILISH;

● - IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISH VA
LIBERALLASHTIRISH;



HARAKATLAR STRATEGIYASI
2017-2021

● - IJTIMOYIY SOHANI
RIVOJLANTIRISH;

● - XAVFSIZLIK,
MILLATLARARO TOTUVLIK
VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI
TA'MINLASH HAMDA
CHUQUR O'YLANGAN,
O'ZARO MANFAATLI VA
AMALIY TASHQI SIYOSAT

Хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш, вазмин, ўзаро фойдали ва конструктив ташқи сиёсатни амалга ошириш


- мамлакатимизнинг конституциявий тузумини, суверенитетини, ҳудудий яхлитлигини ҳимоя қилишга доир чора-тадбирларни рўёбга чиқариш;

- киберхавфсизлик соҳасида ахборот, норматив-ҳуқуқий асослар тизимини такомиллаштириш;

- киберхавфсизлик соҳасида ахборот, норматив-ҳуқуқий асослар тизимини такомиллаштириш;

- Орол фожиасининг оқибатларини юмшатиш;

- миллатлараро муносабатлар соҳасидаги сиёсатнинг устувор йўналишлари концепциясини ва диний соҳадаги давлат сиёсати концепциясини ишлаб чиқиш.



“O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI” FANINING PREDMETI, OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI
Amaliy mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 20-25 ta</i>	O‘quv soati 2 soat
<i>Mashg‘ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulot
<i>Amaliy mashg‘ulot rejasi</i>	<p>“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari</p> <p>Reja:</p> <p>1.“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining obyekti, predmeti, o‘ziga xos xususiyatlari</p> <p>2.“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsad va vazifasi</p> <p>3.“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining asosiy tushunchalari va qonuniyatlari</p> <p>4.“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o‘rganishni nazariy va amaliy ahamiyati</p>
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> talabalarda fan yuzasidan bilim va tushunchalar shakllanishini ta‘minlash mavjud bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari</i>
<ul style="list-style-type: none"> • «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining predmeti, ob‘ekti, uslubi hamda uning manbalari yuzasidan bilim berish; • fanning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va uning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida tutgan o‘rnini tushuntirish; • adolatlil jamiyat haqidagi g‘oya, qarashlarning vujudga kelishi, manbalari va rivojlanishini tushuntirish; • milliy mustaqillik va O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlari xususida tushunchalar berish. 	<ul style="list-style-type: none"> • «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining predmeti, ob‘ekti, uslubi hamda uning manbalari yuzasidan bilim va tushunchalarga ega bo‘ladilar; • fanning asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va uning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog‘liqligini o‘rganadi; • adolatlil jamiyat haqidagi g‘oya, qarashlarning vujudga kelishi, manbalari va rivojlanish bosqichlarini o‘rganib oladi; mustaqillik va O‘zbekistonning demokratik jamiyat sari harakat lari yuzasidan bilimga ega bo‘ladilar.
<i>O‘qitish usullari-texnikasi</i>	topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat
<i>O‘qitish vositalari</i>	tarqatma material, kompyuter, doska
<i>O‘qitish shakllari</i>	individual, guruhda ishlash
<i>Monitoring va baholash</i>	Test ,og‘zaki savollar,blits-so‘rov


Amaliy mashg‘ulotni texnologik kartasi

<i>Ish jarayon lari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	o‘qituvchi	Talaba
I-bosqich.	1.1. Amaliy mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va o‘quv faoliyati	Tinglaydilar.

Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	natijalarini aytadi. Dars jarayoni bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy mashg'ulot shaklida o'tilishini tushuntiradi	YOzib oladilar.
	1.2. «Klaster» texnikasidan foydalanilgan holda talabalarga, «Demokratik jamiyat» degan savol bilan murojaat qiladi. Talabalarni ushbu organayzer orqali faollashtiradi (1-ilova).	O'z fikrlari ni bildiradi. Tushunchalar bilan ishlaydi.
	1.3. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 2 ta kichik guruhlariga bo'ladi.	guruhlariga bo'linadi.
	1.4. Talabalarning mashg'ulotdagi faolligini baholash ko'rsatkichlari va me-zonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).	O'UM ga qaraydilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Guruhlarga topshiriqlar tarqatadi va ularga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Manbalardan foydalanishga imkon yaratadi. Har bir guruh qaysi mavzuni keng yoritib berishi va taqdim etishi kerakligini tushuntiradi (3-ilova).	Faol qatnashadilar.
	2.2. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, izohlaydi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor qaratadi. Topshiriqlarning bajari lishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Ishning taqdi motini o'tkaza dilar, xulosa chiqaradilar. Baholaydilar.
	2.4. Har bir guruh topshiriqlarni qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi. YAgona xulosa chiqarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.	G'olib guruhlarni aniqlab, baholaydi.
III-bosqich. YAkuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Talabalar bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi: (4-ilova).	O'UM ga qaraydi.

1- Ilova (1.2)

KLASTER «Demokratik jamiyat»



Klasterni tuzish qoidalari

1. Topshiriqni diqqat bilan o‘qib chiqing.
2. Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo‘lgan har bir fikrni yozing.
3. Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e‘tibor bermang.
4. Belgilangan vaqt tugamaguncha yozishni to‘xtatmang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
5. Fikrlarni chegaralamang, ular o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikka e‘tibor qaring.

2 Ilova (1.2)

Guruhlarning mashg‘ulotdagi faolligini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari

Topshiriqlar, baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari	1-guruh	2-guruh
1-topshiriq: (1,5 ball)		
- mavzu yoritib berildi (0,5 ball)		
- aniq va mantiqan to‘g‘ri bayon etildi (0,5 ball)		
- guruh faol qatnashdi (0,5 ball)		
2-topshiriq: (1,5 ball)		
- aniq xulosa chiqarildi (0,5 ball)		
- misollar keltirildi (0,5 ball)		
- reglamentga e‘tibor qaratildi (0,5 ball)		
Jami: (3 ball)		

0,5 ball – «a‘lo».

2,5 – 3 ball – «a‘lo».

0,4 ball – «yaxshi».

1,9 – 2,4 ball – «yaxshi».

0,3 ball – «qoniqarli».

1,3 – 1,8 ball – «qoniqarli».

3-Ilova (1.2)

Muammoli savol

Demokratiya O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixida tushunish qiyin bo‘lgan konsepsiyalaridan biridir. O‘zbekiston milliy davlatchiligi tarixida «demokratiya» tushunchasi uchramaydi. Lekin, 3000 yillik tarixga ega bo‘lgan bugungi O‘zbekiston uchun uning ko‘rinishlari, «Demokratiya tamoyillarining negizlari bo‘lmagan degan xulosa qilish mumkinmi»?

1-guruh. «Avesto» (e.o. VII-VI), Beruniy, Xorazmiy, «Siyosatnoma» (XI asr) «Qobusnoma», «Xidoya», «Qutadg‘u bilig», manbalardan foydalanib o‘z fikringizni asoslang.

2-guruh

“Temur tuzuklari”, «SHayboniynoma», «Xorazm shajarasi», A. Navoiy asarlari, M.Ulug‘bek, «To‘rt ulus tarixi»dan va h.k. manbalardan foydalanib o‘z fikringizni asoslang.

4-Ilova (1.2)

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. «Fuqaro – jamiyat-davlat» o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni bayon eting?

3. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosiy tushunchalari, uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang?
4. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning umumjahon e'tirof etgan qonuniyatlari va uning o'ziga xos taraqqiyot yo'li mavjudmi?
5. Demokratik jamiyatni barpo etishda siyosiy institutlarning qanday roli mavjud?

DEMOKRATIK JAMIYAT TO'G'RISIDAGI DASTLABKI QARASHLAR VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 20-25 ta</i>	O'quv soati 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	<p style="text-align: center;">Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari</p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>O'zbekiston zaminida demokratiya va adolatli jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va qadimgi manbalar. IX-XV asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyatga doir g'oyalar XV-XX asrlarda O'rta Osiyoda davlat va jamiyat qurilishini haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar Sobiq sho'rolar davrida markazlashgan ma'muriy boshqaruv va uning demokratik jamiyatga zidligi</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> talabalarda fan yuzasidan bilim va tushunchalar shakllanishini ta'minlash mavjud bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>
<ul style="list-style-type: none"> • adolatli jamiyat haqidagi g'oya, qarashlarning vujudga kelishi, manbalari va rivojlanishini tushuntirish; • milliy mustaqillik va O'zbekistonning demokratik o'zgarishlari xususida tushunchalar berish. 	<ul style="list-style-type: none"> • adolatli jamiyat haqidagi g'oya, qarashlarning vujudga kelishi, manbalari va rivojlanish bosqichlarini o'rganib oladilar; • mustaqillik va O'zbekistonning demokratik jamiyat sari harakatlari yuzasidan bilimga ega bo'ladilar.
<i>O'qitish usullari-texnikasi</i>	topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat
<i>O'qitish vositalari</i>	tarqatma material, kompyuter, doska
<i>O'qitish shakllari</i>	individual, guruhda ishlash
<i>Monitoring va baholash</i>	Test ,og'zaki savollar,blits-so'rov

Amaliy mashg'ulotni texnologik kartasi


<i>Ish jarayon lari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	o'qituvchi	Talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Dars jarayoni bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy mashg'ulot shaklida o'tilishini tushuntiradi	Tinglaydilar. YOzib oladilar.

	1.2. «Klaster» texnikasidan foydalanilgan holda talabalarga, «Turkiston jadidchilik maktabi» degan savol bilan murojaat qiladi. Talabalarni ushbu organayzer orqali faollashtiradi (1-ilova). 1.3. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 2 ta kichik guruhlariga bo‘ladi.	O‘z fikrlari ni bildiradi. Tushunchalar bilan ishlaydi. guruhlariga bo‘linadi.
	1.4. Talabalarning mashg‘ulotdagi faolligini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).	O‘UM ga qaraydilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Guruhlarga topshiriqlar tarqatadi va ularga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Manbalardan foydalanishga imkon yaratadi. Har bir guruh qaysi mavzuni keng yoritib berishi va taqdim etishi kerakligini tushuntiradi (3-ilova).	Faol qatnashadilar.
	2.2. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi, izohlaydi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e‘tibor qaratadi. Topshiriqlarning bajari lishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Ishning taqdimotini o‘tkazadilar, xulosa chiqaradilar. Baholaydilar.
	2.4. Har bir guruh topshiriqlarni qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishda yordam beradi. YAgona xulosa chiqarishga ko‘mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.	G‘olib guruhlarini aniqlab, baholaydi.
III-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag‘batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Talabalar bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi: (4-ilova).	O‘UM ga qaraydi.

1-IIova (2.2)

KLASTER

«Turkiston jadidchilik maktabi»



Klasterni tuzish qoidalari

1. Topshiriqni diqqat bilan o‘qib chiqing.
2. Fikrlarni tarmoqlantirish jarayonida paydo bo‘lgan har bir fikrni yozing.
3. Imlo xatolar va boshqa jihatlarga e‘tibor bermang.
4. Belgilangan vaqt tugamaguncha yozishni to‘xtatmang, fikringizni jamlashga harakat qiling.
5. Fikrlarni chegaralamang, ular o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikka e‘tibor qarating.

2-IIova (2.2)

Guruhlarning mashg‘ulotdagi faolligini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari

Topshiriqlar, baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari	1-guruh	2-guruh
1-topshiriq: (1,5 ball)		
- mavzu yoritib berildi (0,5 ball)		
- aniq va mantiqan to‘g‘ri bayon etildi (0,5 ball)		
- guruh faol qatnashdi (0,5 ball)		
2-topshiriq: (1,5 ball)		
- aniq xulosa chiqarildi (0,5 ball)		
- misollar keltirildi (0,5 ball)		
- reglamentga e‘tibor qaratildi (0,5 ball)		
Jami: (3 ball)		

0,5 ball – «a‘lo».

2,5 – 3 ball – «a‘lo».

0,4 ball – «yaxshi».

1,9 – 2,4 ball – «yaxshi».

0,3 ball – «qoniqarli».

1,3 – 1,8 ball – «qoniqarli».

3-IIova (2.2)

Muammoli savol

Demokratiya O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayoti tarixida tushunish qiyin bo‘lgan konsepsiyalaridan biridir. O‘zbekiston milliy davlatchiligi tarixida «demokratiya» tushunchasi uchramaydi. Lekin, 3000 yillik tarixga ega bo‘lgan bugungi O‘zbekiston uchun uning ko‘rinishlari, «Demokratiya tamoyillarining negizlari bo‘lmagan degan xulosa qilish mumkinmi?»

1-guruh. «Avesto» (e.o. VII-VI), Beruniy, Xorazmiy, «Siyosatnoma» (XI asr) «Qobusnoma», «Xidoya», «Qutadg‘u bilig», manbalardan foydalanib o‘z fikringizni asoslang.

2-guruh

“Temur tuzuklari”, «SHayboniynoma», «Xorazm shajarasi», A. Navoiy asarlari, M.Ulug‘bek, «To‘rt ulus tarixi»dan va h.k. manbalardan foydalanib o‘z fikringizni asoslang.

4-IIova (2.2)

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. «Avesto»da adolatli jamiyat to‘g‘risidagi dastlabki qarashlarni bayon eting.
2. To‘maris, SHiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro kabi ozodlik kurashchilarining bosqinchilarga qarshi mardona kurashi xaqida nimalarni bilasiz?
3. O‘tmishda milliy davlatchilik negizlaridan mahrum bo‘lishning sabablari nimalarda edi?
4. Markazlashgan ma‘muriy boshqaruv va totalitar tuzumning salbiy oqibatlarini haqida gapirib bering.

MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING “O‘ZBEK MODEL”

Amaliy mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talaba soni 20-25ta</i>	Vaqti 2 soat
<i>Mashg‘ulot shakli</i>	Anjuman - amaliy mashg‘ulot
<i>Ma’ruza rejas</i>	<p>Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “o‘zbek modeli”</p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>Demokratik jamiyat qurishning jahondagi turli xil milliy modellari O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o‘ziga xos xususiyatlari “O‘zbek modeli” uning asosiy tamoyillari va jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayot sohalarida namoyon bo‘lishi. “O‘zbek modeli” va mamlakatimiz taraqqiyoti strategiyasi</p>
<p><i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Talabalarga mustaqillik va demokratik jamiyat qurilishining «O‘zbek modeli», O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda turli xil modellarning va uning xususiyatlarini mukammal yoritib berish</p>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari to‘g‘risida batafsil ma’lumot berish; • “Dunyoviy davlat” qurishda “O‘zbek modeli”ning jamiyat ijtimoiy– siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi roli va ahamiyatini keng va atroflicha tushuntirish, bilimlarni mukammallashtirish; • o‘tish davrining asosiy yo‘llari, tadrijiy rivojlanish yo‘lining mohiyati va uning O‘zbekistonda o‘ziga xos tamoyillari xususida gi bilimlarni mustahkamlash; • O‘zbekistonda tadrijiy islohot yo‘lining hayotga tatbiqi va uning natijalari yuzasidan ma’lumotlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash. 	<ul style="list-style-type: none"> • Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari to‘g‘risida bilimlarni mustahkamlaydilar; • “Dunyoviy davlat” qurishda “O‘zbek modeli”ning jamiyat ijtimoiy– siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi roli bo‘yicha olgan bilimlarni chuqurlashtiradilar; • o‘tish davrining asosiy yo‘llari, tadrijiy rivojlanish yo‘lining mohiyati bo‘yicha olgan axborot-ma’lumotlarni taxlil qiladilar; • O‘zbekistonda tadrijiy islohot yo‘lining hayotga tatbiqi va uning natijalarini keng va atroflicha o‘rganadilar.
<i>O‘qitish usullari -texnikasi</i>	topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat
<i>O‘qitish vositalari</i>	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slydlar, proektor.
<i>O‘qitish shakllari</i>	Jamoat, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Amaliy mashg‘ulot texnologik karta

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
Tashkiliy bosqich. (3 daqiqa)	<p>1.1. Berilgan mavzularning fanni o‘zlashtirishdagi dolzarbligini tushuntiradi.</p> <p>1.2. Doklad mavzularini xamda xar bir mavzu bo‘yicha opponet va taqrizchilarning erkin tanlovini tashkil etadi. Dokladchi larga tanlangan referat bo‘yicha reja</p>	<p>Ma’ruzaga tayyorlanadi.</p> <p>Opponentlar va retsenzentlar</p>

	tuzish vazifasini beradi. 1.3. Guruhdagi qolgan talabalarga ma'ruza matnini o'rganib dokladchilar uchun savollar tuzishni vazifa qiladi (1-ilova). 1.7. Baholash tizimi bilan opponent va taqrizchilarni tanishtiradi. Dokladchilar bilan chiqish shakli va reglamentni muxokama qiladi (2,3-ilova). 1.8. Referatlar mazmuni bilan tanishadi.	dokladchilarga birikadi. Baholar tizi mi va reglament bilan tanishadi Javob berishga tayyorlanadi
1 bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (5 daqiqa)	1.1. Mavzuni va uning maqsadi, rejalashtirilgan o'quv natijalarni ko'rgazmali ravishda tanishtiradi. 1.2 Ma'ruza-anjumanni baxs-munozara shaklida o'tilishini e'lon qiladi va baholash mezonlarini ekranga chiqarib qo'yadi (4-ilova).	Tinglaydi Tinglaydi
2 bosqich Informatsion axborot (60 daqiqa)	2.1. Ma'ruzachilarning chiqishlarini tashkil etadi. 2.2. Ma'ruza mazmuni bo'yicha jamoaviy muhokamani tashkil etadi va ilg'or talabalar bilan kollektiv muxokama jarayonini yo'naltiradi. - savollar beradi -dokladning asosiy qismlarini aniqlashtiradi. -doklarda aytilgan gaplarga qiziqish uyg'otadi. -ma'ruza mazmuniga alohida e'tibor qaratadi. -dokladlarning e'tiborli joy-larida ularni to'xtatadi va jamoaviy muhokamani tashkil etadi.	2.1. Taqdimot qiladilar. Opponentlar o'z fikrlarini bildirib savollar beradi. 2.2. Talabalar jamoa bo'lib doklad mazmunini muhokama qiladilar, baholaydilar.
3 bosqich. YAkuniy bosqich (15daqiqa)	3.2. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi. 3.2. Talabalarga baholash natijasini e'lon qiladi. Natijalarga izoh beradi.	Ekspertlar: 1. faoliyatni baholaydilar.

1-ilova

Dokladlar mavzusi

1. Demokratik jamiyat qurilishida O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Prezident Islom Karimov - "O'zbek modeli", tub islohatlar asoschisi.
3. Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston— bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarida bayon etilgan asosiy tamoyillar.
4. Dunyoviy davlatning konstitutsiyaviy — huquqiy ta'rifi, milliy davlatchilik

2-ilova

Bahs-munozara savollari

1. Dunyoda demokratik jamiyat qurishning xilma-xil modellari mavjud. Masalan, «YAp on modeli», «SHved modeli», «Amerika modeli» va hokazo. Aytingchi ushbu modellarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. «O'zbek modeli» qanday tarixiy-milliy xususiyatlarga, demografik va geofafik shart-sharoitlarga asoslanadi?
3. Islom Karimov qaysi asarida Uzbekistonning o'ziga xos xususiyatlari keng nazariy asosda yoritilgan, ular xaqida qisqacha izoh bering?
4. O'zbekiston islomiy davlat qurish emas dunyoviy davlat qurishni tanladi. Buning ham o'ziga xos sabablari mavjudmi?

3-ilova

Reglament vaqti

Doklad uchun - 5 daqiqa Taqrizchilarga - 2 daqiqa
--

Opponentlarga - 3 daqiqa
Guruh muhokamasi - 5-10 daqiqa

4-ilova

Ma'ruza-anjumanining bahs-munozara shaklida o'tilishini baholash mezonlari

Baholashning ball tizimi	Qatnashchilar(F.I.SH)			
	1	2	3	4
Doklad mazmuni(2.5)				
Mavzuni daxildorligi(1.5)				
Ketma-ketligining aniq bayon etish(0.5)				
Aniq xulosa lash(0.5)				
Axborot vositalarni ishlatish usuli(0.9)				
Reglamentga amal qilish(0.6)				
Jami(4.0)				
Taqrizchilar (F.I.SH.)				
Dokladchiga tavsifnoma berish(3.0)				
Kuchli joylarini aniqlash(1.2)				
Kuchsiz joylarini aniqlash(1.2)				
Reglamentga amal qilish (0.6)				
Jami(3.0)				
Opponent (F.I.SH)				
Har bir savol uchun (0.3)				
Qo'shimcha savol uchun (0.2)				
Mazmuniga ko'ra				
Jami:3.0				

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA O'TISH DAVRI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

Talabalar soni	O'quv soati
Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza
Mashg'ulot rejasi	<p>O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari</p> <p>Reja:</p> <p>“O'tish davri” tushunchasi. O'tish davrining zarurligi, mohiyati va umumiy qonuniyatlari</p> <p>O'tish davrining klassik, inqilobiy va evolyusion yo'llari</p> <p>Mustaqil O'zbekistonda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari</p> <p>O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning nazariy, konseptual metodologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari</p>
<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarga mustaqillik va demokratik jamiyat qurilishining «O'zbek modeli», O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda o'tish davrining zarurligi va uning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berish.</p>	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:

demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari to'g'risida tushunchalar berish; “Dunyoviy davlat” qurishda “O‘zbek modeli”ning jamiyat ijtimoiy– siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi roli va ahamiyatini yoritib berish; o‘tish davrining asosiy yo‘llari, tadrijiy rivojlanish yo‘lining mohiyati va uning O‘zbekistonda o‘ziga xos tamoyillarini tushuntirib berish; O‘zbekistonda tadrijiy islohot yo‘lining hayotga tatbiqi va uning natijalarini atroflicha tushuntirib berish.	demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari to'g'risida tushunchalarga ega bo'ladilar; “Dunyoviy davlat” qurishda “O‘zbek modeli”ning jamiyat ijtimoiy– siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi roli va ahamiyatini tushunib oladilar; o‘tish davrining asosiy yo‘llari, tadrijiy rivojlanish yo‘lining mohiyati va uning O‘zbekistonda o‘ziga xos tamoyillarini o‘rganadilar; O‘zbekistonda tadrijiy islohot yo‘lining hayotga tatbiqi va uning natijalarini atroflicha o‘rganadilar.
O‘qitish usullari-texnikasi	ma’ruza, tushuntirish, instruksiya berish, namoyish, blits-so‘rov, paradokslar usuli
O‘qitish vositalari	ma’ruza matni, tarqatma material, kompyuter slaydlari, doska
O‘qitish shakllari	frontal, kollektiv ish
O‘qitish sharoiti	Jixozlangan xona
Monitoring va baholash	Test ,og‘zaki savollar,blits-so‘rov

Amaliy mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

Ish bosqichlari	faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Mavzugakir ish(10daqiq a)	O‘quv mashg‘uloti mavzusi savollarni va o‘quv faoliyati natijalarini aytadi. Blits-so‘rov usulida mavzu bo‘yicha ma’lum bo‘lgan tushunchalarni faollashtiradi. Blits-so‘rov natijasiga ko‘ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligini tahlil qiladi (<i>1-ilova</i>).	Mavzu nomini yozib oladilar Savollarga javob beradilar
2 –bosqich. Asosiy bo‘lim (60daqiq a)	2.1. Savollar yuzasidan mini ma’ruza qiladi. Tarqatma materiallar tarqatadi (<i>2-ilova</i>). 2.2.Ma’ruza rejasining 2-savoli bo‘yicha tushuncha beradi.Birinchi va ikkinchi savollar yuzasidan umumlashtiruvchi xulosa beradi. 2.3.Talabalar bilimlarini mustahkamlash maqsadida bahs-munozara savollari beradi (<i>3-ilova</i>).	Tinglaydilar. Tarqatma materiallarni tahlil qiladilar. Savollarga javob beradilar
3-bosqich. YAkunlovchi (10 daqiq a)	3.1. Mashg‘ulot bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni qaerda ishlatish mumkinligi ma’lum qiladi. 3.2. Mavzu bo‘yicha mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar beradi (<i>4-ilova</i>).	Savollar beradilar Topshiriqlar ni yozib oladilar

1-ilova(2.1)
Blits-so‘rov savollari

Har qanday davlat o'z jamiyatining tarixiy, madaniy va axloqiy merosi negizlari asosida rivojlanadi. Bunday ustunlik xalqni rivojlanishida yangi bosqichlarga ko'taradi, uning istiqbol omillarini kengaytiradi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ana shunday davlatchilik merosi insoniyat tarixi rivojiga ulkan xissa qo'shgan.

Ma'lumki O'zbekistonda milliy davlatchiligimiz to'g'risidagi eng qadimgi manba «Avesto»dir.

Aytingchi, «Avesto»da ilgari surilgan g'oyalar bugungi adolatparvar demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan g'oyalimiz bilan hamohangmi?

«Avesto»da inson erki, komilligi, ruxiy sog'lomligi masalalari.

IX va XIII asrlar o'z mazmuni, salmog'i jihatdan O'rta Osiyo uyg'onish davri deb tarixga kirgan. Nima uchun shunday?

Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida davlat qurilishi masalalari.

YUsof Xos Hojibning «qutadg'u bilig» dostonida, Nizomungulning «Siyosatnoma» asarlarida davlat qurilish masalalari.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivojining ma'naviy asoslarini o'rganishda tasavvufchilik oqimining ahamiyati.

Bahs-munozara savollari

Sobiq ittifoq parchalanishining asosiy sabablari nimada?
 O'zbekiston siyosiy mustaqilligiga erishgan paytda qanday hujjatlar qabul qilingan edi?
 O'tish davrining barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarini izohlang?
 O'tish davrining inqilobiy, tadrijiy, «SHok terapiyasi», islohot yo'llarining har birini bayon eting?

4-ilova(2.1)

Mustaqil ishlash uchun toshiriq

Venna diagrammasi qoidalarini o'rganib kelish.

Venna diagrammasida O'zbekiston Respublikasi va Germaniya va SHvetsiyaning bozor iqtisodiyotiga o'tish modelini tasvirlang

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY DEMOKRATIK TAMOYILLARI Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 20-25ta</i>		<i>Vaqt: 2 soat</i>	
<i>Mashg'ulot shakli</i>		Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot.	
<i>mashg'ulot rejasi</i>	<p style="text-align: center;">O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari</p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <p>Demokratik jamiyatning milliy va umumbashariy tamoyillari Milliy – ma'naviy o'zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi Milliy qadriyatlarining tiklanishi - demokratik jamiyat qurishning muhim sharti. Mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining insoniylik va ezgulik qonunlariga asoslanishi</p>		
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> talabalarga O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy umumbashariy tamoyillari va qadriyatlari yuzasidan bilim va tushunchalar beradi.			
<i>Pedagogik vazifalar:</i>		<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>	
• demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy tamoyillari va		• demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlari	

<p>qadriyatlarini mukammal tushuntirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> • milliy tamoyillar va qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishini keng va atroflicha yoritib berish; • O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi va uning tarixiy ahamiyati yuzasidan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish. 	<p>yuzasidan olgan bilimlarini kengaytiradilar;</p> <ul style="list-style-type: none"> • milliy tamoyillar va qadriyat larning demokratik jamiyat qurishda aks etishi yuzasidan atroflicha tushunchalarga ega bo‘la dilar va bilimlarni mustahkam laydilar; • O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umum bashariy qadriyatlarning uyg‘unla shuvi va uning tarixiy ahamiyati ni atroflicha o‘rganadilar.
<i>O‘qitish usullari va texnika</i>	Muammoli uslub, aqliy hujum, bahs-munozara, blits-so‘rov.
<i>O‘qitish vositalari:</i>	Ma‘ruza - matni, markerlar, qog‘ozlar, doska, bo‘r.
<i>O‘qitish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O‘qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta‘minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash.


Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Ish jarayon lari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o‘qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. O‘quv mashg‘uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Amaliy mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rib keladi.
	1.2. Ta‘lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e‘lon qiladi. Talabalarni doira yoki to‘rtburchak shaklida stollar atrofida ikki guruhga bo‘ladi.	Ixtiyoriy ravishda ikki guruhga bo‘linadi.
II-bosqich. Asosiy (60daqiqa)	2.1. “Diagramma Venna” texnikasidan foydalanilgan xolda har bir guruh o‘z topshirig‘ini oladi va bajaradi(1-ilova).	Topshiriqqa javob beradi.
	2.2 Topshiriqlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun 3 daqiqa, javob berish uchun esa 7 daqiqa beradi.	Relamentga rioya qiladi
	2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi, bahs-munozarani boshqarib boradi. Guruhlarda ishlash qoydalari bilan tanishtiradi. Zarur hollarda aralashadi va kerakli tomonga yo‘naltiradi (3, 4 - ilova)	Faol qatnashadilar.
	2.4. Guruhlarning javoblarini tinglab, ularni baholaydi.	Fikr bildiradilar
	2.5. Guruhlarga «Qanday?» texnikasidan foydalangan holda: «Demokratik jamiyat qurishga qadriyatlarning ta‘siri qanday?» deb savol bilan murojaat qiladi (2-ilova).	Mustaqil diagrammani har bir guruh to‘ldiradi.
	2.6. Topshiriqlarni vatman-qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi. YAgona xulosa chiqarishga ko‘mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.	Taqdimot o‘tkazadi. G‘olib guruhlarni baholaydi.

III-bosqich. YAkuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi. 3.2. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi (5-ilova).	Eshitadi. Aniqlaydi.
--	---	-------------------------


Mavzu mazmuni bo'yicha ko'rgazmali slaydlar.

1-slayd



2-slayd

Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy - axloqiy negizlari



3-slayd

Milliy va umuminsoniy tamoyillar.

Milliy tamoyillar	<ul style="list-style-type: none"> - Xalqimiz hayotida jamoa bo‘lib yashash ruhiningustunligi; - Jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi; - Ota-ona, mahalla-ko‘y, umuman jamoaga yuksakhurmat-e‘tibor; - Millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiligamuhabbat; - Kattaga - hurmat, kichikka - izzat; - Mehr-muxabbat, go‘zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi-ayol zotiga ehtirom; - Sabr-bardosh va mehnatsevarlik; - Halollik, mehr-oqibat va h.k.
--------------------------	---

Umuminsoniy tamoyillar	<p>Qonun ustuvorligi;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Inson haq-huquqlari va hurfikrlik; - Turli millat vakillariga hurmat va ularbilan bahamjihat yashash; - Diniy bag‘rikenglik; - Dunyoviy bilimlarga intilishma’rifatparvarlik; - O‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari vamadaniyatini o‘rganish va h.k.
-------------------------------	---


1 - ilova (5.2)

Mintaqaviy qadriyatlar qaerda va qanday sharoitlarda yuzaga keladi? O‘rta Osiyo xalqlarining Ahamgog‘rnyokga xos bo‘lgan ma’naviy fazilatlarini ayting?

Millat, ozod bo‘lmasligi,siyosiy jarayonlar natijasida biror imperiya yoki davlatga qaram bilishi mumkin , ammo unda o‘z milliy qadriyatlarini saqlash tuyg‘usi yo‘qolib ketmaydi. Siz ushbu fikrning taxlilini bering.

“Diagramma Venna”

1. Muammoli masalani tanlang va ularga tavsifnoma bering.
2. Aylana diagrammaga har biriga berilgan tavsifnomani yozing.
3. Taqqoslang va ularning umumiy tamonini toping.
4. Diagramma vena aylanasini biriktirishga harakat qiling.Aylana ichiga umumiy aspektini yozing.



2 - ilova (5.2)

<i>Talabalar soni: 20-25</i>		<i>Vaqt: 2 soat.</i>	
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>		Bilimlarni chuqurlashtirish va mustaxkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot	
Ma'ruza rejasini	<p>Qonun ustuvorligi – demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi</p> <p>“Qonun ustuvorligi” tushunchasi, mohiyat – mazmuni O'zbekistonda davlat xokimiyatining bo'linish tamoyili Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashi Jinoyat va jinoyat- prosessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvar tamoyiligi muvofiqligi</p>		
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash</i>			
<i>Pedagogik vazifalar:</i>		<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>	
<ul style="list-style-type: none"> O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilining mohiyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish; davlat hokimiyati tizimining bo'linish prinsipi va O'zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichini tushuntirish; 		<ul style="list-style-type: none"> O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilining mohiyati bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydilar; davlat hokimiyati tizimining bo'linish prinsipi va O'zbekistonda parlament taraqqiyoti bo'yicha keng bilim oladilar; 	
<i>O'qitish usullari va texnika</i>		Baxs-munozara, kichik Guruhlarda ishlash, "3x3 loyixasi" texnikasi, FSMU uslubi.	
<i>O'qitish vositalari</i>		Darslik, markerlar, vatman kog'ozi, doska, bo'r, komp'yuter texnologiyasi	
<i>O'qitish shakli</i>		Jamo'a va Guruhlarda ishlash	
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.		
<i>Monitoring va baholash</i>		Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.	

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, rejasini, maqsadini, o'tkazish tartibini e'lon qiladi.</p> <p>1.2 Talabalarni Guruhda ishlash bo'yicha baholash mezonlari va ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (1,2 - ilova).</p>	<p>Tinglaydi, yozadi</p> <p>Kichik Guruhlarga bo'linadi</p>

2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Talabalarga uyga vazifa qilib berilgan topshiriqni tekshiradi, baholaydi. 2.2 O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustivorligini “CHarxpalak” usulida yoritib beradi (3-ilova). Javoblarni tinglaydi, xatolarni to‘g‘rilaydi, to‘ldiradi, xulosalaydi. Faol Guruh rag‘batlantiradi. 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni tarqatadi, ularning muzokaralariga aralashadi, xulosa qtladi, javoblarni to‘g‘rilaydi. (4-ilova).	Uyga ma’ruza darsida berilgan vazifani topshiradi. Vazifalarni bajaradi. Javoblar taq-dim etiladi. Javoblar taqdim etiladi.
3 bosqich. YAkuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, aytilmagan tomonlari ustida ishlash lozimligini aytadi.	YOzib oladilar

1-ilova (3.2)

Guruh bo‘yicha baholash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi. HXar bir talab bo‘yicha – 3,5 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (1,5)	Ko‘rgazmalilik (1,0)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					
3.					

Hisob natijasi

Guruhlar №	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1.					
2.					
3.					
Umumiy hisob					
Ballari					
Baho					

Baho: 2,4 – 3,5 ball – a’lo baho

1,3 – 2,3 ball – yaxshi baho

0 – 1,2 ball – o‘rta baho

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqtajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida o‘goxlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘zfikringizni erkin namoyon eting.

“Charxpalak” uslubi qoidasi

3-4 guruxda talabalar ish olib boradi. Xar bir guruxga tugallanmagan fikrlardan iborat savollar yozilgan vatman qog‘ozi va to‘rt xil flamaster yoki marker beriladi. Savollar aylanib xar bir guruxdan o‘tadi, javoblar to‘ldiriladi va savol o‘z guruxiga kelgach o‘yin to‘xtatiladi. So‘ng javoblar yig‘ib olingach, doskaga yopishtiriladi va muxokama qilinadi. Xar bir guruxdan vakil chiqib yozlarining javoblarini o‘qib beradi. Eng asosli javob bergan gurux g‘olib xisoblanadi.

Munozara uchun savollar

1- guruh.

1. Demokratik huquqiy davlat qonun asosida faoliyat ko‘rsatadigan, qonun asosida nafas oladigan, qonun belgilab bergan chiziqdan har qanday holatda chiqmaydigan davlatdir. Demokratik huquqiy davlatning eng oliy so‘zi ham, obro‘ e‘tibori, ham qalbi, jon tani va tirikligi qonndir desak bo‘ladimi? YOKi unga boshvacha ta‘rif berish mumkinmi?

2 -guruh

2. O'zbekistonda huquqiy davlatni qurish tarixiy an'analar nuqtai nazardan zaminga ega emas. Balki, G'arbiy Evropa siyosiy tizimining rivojlanish tajribasi bizga to'g'ri kelmaydi? U holda...

FUQARO ERKINLIGI, HUQUQ VA MANFAATLARI USTUVORLIGINI TA'MINLASH

Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 20-25ta</i>		<i>Vaqt: 2 soat</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>		Baxs-munozarali amaliy mashg'ulot
<i>amaliyot rejasi</i>	<p>“Fuqaro erkinligi va huquq va manfaatlari” tushunchasi, mazmini va mohiyati Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash boyicha xalqaro va milliy huquqiy normalar va prinsplar Demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish zarurligi O'zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qimoya qilish bo'yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo'nalishlari inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi o'rni va apamiyati</p>	
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurish omili haqida bilimlarni shakllantirish		
<i>Pedagogik vazifalar:</i>		<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> ▪ fuqaro erkinligi va faolligining turlicha talqinlari. Forobiy komil inson va fozil jamoa to'g'risidagi karashlari bilan tanishtirish; ▪ inson faolligining asosiy mezonlari: hozirgi davrda inson, jamiyat va davlatlarning o'zaro munosabatlari bo'yicha bilim berish; ▪ fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish erkin va farovon hayotni barpo etishning zaruriy shartiligini tushuntirish. 		<ul style="list-style-type: none"> ▪ fuqaro erkinligi va faolligining turlicha talqinlari. Forobiy komil inson va fozil jamoa to'g'risidagi karashlari bilan tanishadilar; ▪ inson faolligining asosiy mezonlari: hozirgi davrda inson, jamiyat va davlatlarning o'zaro munosabatlari bo'yicha bilim oladilar; ▪ fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish erkin va farovon hayotni barpo etishning zaruriy shartiligini tushunadilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>		Topshiriqlar – amaliy ishlash uchun, bahs-munozara, «Qanday» texnikasi.
<i>O'qitish vositalari:</i>		Ma'ruza - matni, manbaalar, adabiyotlar, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari</i>		Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>		Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>		Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish,

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

<i>Ish jarayon lari vaqti</i>	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsad va vazifalarini aytadi (amaliy mash-g'ulotni o'tkazishda oldindan topshiriq va vazifalar beradi).	Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.
	1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali baxs-munozarali tarzda amalga oshirilishini e'lon qiladi. Talabalar ni doira shaklida stollar atrofida 3 guruhga bo'ladi.	Ixtiyoriy ravishda 3 guruhga bo'linadi.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Baxs-munozara qoidasi bilan tanishtiradi.	Tanishadilar.
	2.2. Topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish uchun 3 daqiqa, javob berish uchun esa 7 daqiqa beradi.	Reglamentga rioya qiladi.

	2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi, baxs-munozarani boshqarib boradi (2- <i>ilova</i>).	Faol qatnashadilar.
	2.4. Guruhlarning javoblarini tinglaydi, baholash mezonlari bilan tanish tiradi, ularni baholaydi (1- <i>ilova</i>)	O‘z fikrlarini er-kin bildiradilar.
	2.5. Guruhlarga «Qanday?» texnikasi-dan foydalanilgan holda: «Prezident I.A. Karimovning demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda inson faolligi haqidagi qarashlari qanday?» xususida savol bilan murojaat qiladi (3- <i>ilova</i>).	Mustaqil diagrammani har bir guruh to‘ldiradi.
	2.6. Topshiriqlarni vatman-qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi. YAgona xulosa chiqarishga ko‘mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.	Taqdimot o‘tkazadi. G‘olib guruhlarni aniqlab, baholaydi.
III-bosqich. YAkuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag‘batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.

Ko‘rgazmali slaydlar

1-slayd

Fuqorolar, jamoa tashkilotlari faoliyati vositasida yoki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilishi jarayonida ishtirok etar ekan, ularda ijtimoiy - siyosiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi kutiladi.

Fuqorolarning siyosiy qaror qabul qilishdagi ishtiroki ularning tabiiy siyosiy- ijtimoiy his- tuyg‘ularini uyg‘otadi, harakatga keltiradi, bu yo‘nalishga doir intilishlar ko‘payadi.
Qarorlar qabul qilishdagi faol siyosiy harakatlar, bu jarayonda oddiy fuqarolar manfaatlari, ehtiyojlari va intilishlarining xisobga olinishi ularga erkin insoniy qadr- qiymat bag‘ishlaydi.
Fuqorolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdaturli ijtimoiy guruxlarning manfaatlarini turli jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar vositasida ifodalanishidan qoniqishlari ularni yanada faollashiradi.
Bu ishtirok har bir fuqaroni o‘zligini anglashga, uning jamiyatdan o‘ziga munosib o‘rin egallashga shart-sharoit yaratadi. O‘z mamlakatiga egalik xissini ko‘paytiradi.
Davlat xokimiyati barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarini o‘z siyosiy qarorlarida ifodalanishiga erishildi; mazkur qarorlarni hayotda amalga oshishi natijasida siyosiy xokimiyat unda legitimlashadi

1-ilova

Guruhlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash mezonlari

<i>Topshiriqlar, baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari</i>	<i>I guruh</i>	<i>II guruh</i>
1-topshiriq: (1,5 ball)		
- savol yoritib berildi (0,5 ball)		
- reglamentga e‘tibor qaratildi (0,5 ball)		
- guruh faol qatnashdi (0,5 ball)		
2-topshiriq: (1,5 ball)		

- muammo aniq echimini topdi (0,5 ball)		
- mantiqan to'g'ri xulosa chiqarildi (0,5 ball)		
- misollar bilan umumlashtirildi (0,5 ball)		
Jami: (3 ball)		

0,5 ball – «a'lo»

2,5 – 3 ball – «a'lo»

0,4 ball – «yaxshi»

1,9 – 2,4 ball – «yaxshi»

0,3 ball – «qoniqarli»

1,3 – 1,8 ball – «qoniqarli».


2 ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masala larga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqtajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida ogoxlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni

3-ilova

2-o'quv topshiriq «Qanday» organayzerini to'ldiring



DEMOKRATIK BOZOR ISLOHOTLARI VA IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH

Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 20-50ta</i>		<i>Vaqt: 2 soat</i>	
<i>Mashg'ulot shakli</i>		Konferension amaliy mashg'ulot	
<i>Amaliyot rejasi</i>	Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish tushunchasi va mohiyati O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Bozor infrotuzulmasi Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizasiya qilishning ahamiyati		
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish xususida ma'lumot berish.			
<i>Pedagogik vazifalar:</i>		<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>	
<ul style="list-style-type: none"> ▪ iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasining mazmuni, totalitar tuzum iqtisodiyotidan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha tushunchalarni mustahkamlash; ▪ mulkchilikning xilma-xil shakllari. raqobatning demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rnini chuqur tushuntirish; ▪ O'zbekistonda bozor islohotlarini yanada chuqurlashuvi. erkin iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi xususida tushunchalarni mustahkamlash va chuqurlashtirish. 		<ul style="list-style-type: none"> ▪ iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasining mazmuni, totalitar tuzum iqtisodiyotidan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydilar; ▪ mulkchilikning xilma-xil shakllari. raqobatning demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rnini keng va atroflicha o'rganadilar; ▪ O'zbekistonda bozor islohotlarini yanada chuqurlashuvi. erkin iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi xususida tushunchalarga ega bo'ladilar. 	
<i>O'qitish usullari va texnika</i>		Aqliy hujum, bahs-munozara, blits-so'rov.	
<i>O'qitish vositalari:</i>		Ma'ruza - matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.	
<i>O'qitish shakllari</i>		Jamo'a va guruhlarda ishlash.	
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>		Texnik vosita bilan ta'minlangan xona.	
<i>Monitoring va baholash</i>		Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.	

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish jarayon lari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
Tashkiliy bosqich. (3 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi bo'yicha doklad larning mavzularini beradi (1-ilova). 1.2. Berilgan mavzularning fanni o'zlashtirishdagi dolzarbligini tushuntiradi. 1.3. Ma'ruzani o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qiladi. 1.4. Doklad mavzularini xamda xar bir mavzu bo'yicha opponent va taqrizchilar ning erkin tanlovini tashkil etadi. 1.5. Dokladchilarga tanlangan referat bo'yicha reja tuzish vazifasini beradi. Ularga maslahatlar o'tkazadi. 1.6. Guruhdagi qolgan talabalarga ma'ruza matnini	Ma'ruzaga tayyorlanadi. Opponent va retsenzentlar dokladchilarga birikadi. Ma'ruza matnini o'rganadi, savollar tuzadi.

	o'rganib dokladchilar uchun savollar tuzishni vazifa qiladi (2-ilova). 1.7. Baholash tizimi bilan opponent va taqrizchilarni tanishtiradi. Dokladchilar bilan chiqish shakli va reglamentni muxokama qiladi (3-ilova). 1.8. Referatlar mazmuni bilan tanishtiradi	Tanishadi
1 bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (5 daqiqa)	1.1 Mavzuni va uning maqsadi, rejalash tirilgan o'quv natijalarni ta'kidlaydi. 1.2 Ma'ruza-anjumanni baxs-munozara shaklida o'tilishini e'lon qiladi va baholash mezonlarini ekranga chiqarib qo'yadi (4-ilova).	Tinglaydi Tinglaydi
2 boskich. Informa sion (axborot) (60 daqiqa)	2.1. Dokladchilarning chiqishlarini tashkil etadi. 2.2. Doklad mazmuni bo'yicha kollektiv muxokamani tashkil etadi va ilg'or talabalar bilan kollektiv muxokama jarayonini yo'naltiradi. - savollar beradi (2-ilova) -dokladning asosiy qismlarini aniqlashtiradi. -dokladda aytilgan gaplarga qiziqish uyg'otadi. -doklad mazmuniga aloxida e'tibor qaratadi. -dokladlarning e'tiborli joylarida ularni to'xtatadi va kollektiv muxokamani tashkil etadi. -xar bir doklad qisqacha umum-lashtiriladi.	2.1. Talaba dokladini o'qiy di. Taqrizchi dokladning yutuq va kamchi liklarini aytadi. Opponentlar o'z fikrlarini bildirib sa vollar beradi. 2.2. Talabalar doklad mazmu nini muxokama qiladi, baxsla shadilar. 2.3 Munozara larni ekspert lar baholaydi.
3 bosqich. YAkuniy bosqich (12 daqiqa)	3.2. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi. 3.2. Talabalarga baholash natijasini e'lon qiladi. Natijalarga izox beradi. 3.3. O'zini-o'zi nazorat qilish uchun savollar beradi (5-ilova).	Ekspertlar: 1.Dokladchilar, opponentlar va retsenzentlarning faoliyatiga baho beradilar. O'UMga qarang

1-ilova (6.2)

Dokladlar mavzusi

1. I.A.Karimovning "O'zbekiston- bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarida bayon etilgan ilohot tamoyillari.
2. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilari.
3. Demokratik jamiyatda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tishunchasi va mazmuni.
4. Ma'muriy islohotlar va iqtisodiy taraqqiyot.
5. Tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi.

2-ilova (6.2)

Bahs munozara savollari

1. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirishning demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati nimalardan iborat?
2. Jamiyatning siyosiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini, iqtisodiyotini erkinlashtirishning bog'liqligini isbotlang.
3. Erkin iqtisodiyot tamoyillari nima va ular qanday joriy etiladi?
4. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirishning ustivor yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning iqtisodiy yo'nalishining mazmuni va vazifalarini tushuntirib bering.

3- ilova (6.2)

Reglament vaqti:

Doklad uchun – 5 daqiqa
 Taqrizchilarga – 2 daqiqa
 Opponentlarga – 1-3 daqiqa
 Kollektiv muxokama – 5-10 daqiqa

4- ilova (6.2)

Ma'ruza-anjumanining baxs-munozara shaklida o'tilishini baholash mezonlari

Baholashning ball tizimi	Ma'ruzachilar			
	1	2	3	4
1. Doklad mazmuni (2,5)				
Mavzuga mosligi (1,5)				
Javobning mantiqiy to'g'riligi (0,5)				
Xulosaning to'g'riligi (0,5)				
2. Ma'lumotning taqdim etilishi (0,5)				
Reglamentga amal qilish (0,5)				
Jami: (3,5)				
Taqrizchilar:				
	1	2	3	4
Dokladga ta'rif (3,0)				
Dokladning mazmunli jixati (1,2)				
Dokladning sayozligi (1,2)				
3. Reglamentga amal qilishi (0,6)				
Jami: (3,0)				
Opponent:				
	1	2	3	4
1. Savollar:				

Savollar soni (xar biriga 0,3)				
2. To'ldirish				
Soni (har biriga 0,2)				
Moxiyatiga ko'ra (0,3)				
Jami: (3,0)				

5- ilova (6.2)

Nazorat savollari

1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilarini bayon eting?
2. Demokratik jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish tushunchasi va mazmunini nimalar tashkil qiladi?
3. Prezident I.A.Karimovning "O'zbekiston- bozor munosabatlariga o'tishning o'ztga xos yo'li" asarida qanday prinsiplar izohlab berilgan?
4. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruvi qanday yo'llar bilan nomarkazlashtiriladi?
5. Raqobatning demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rni qanday?
6. Bozor infratuzilmasi qanday yo'llar bilan shakllantiriladi?
7. Jahon molyaviy-iqtisodiy inqirozining asosiy sabablari?

DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA KUCHLI IJTIMOY HIMOYA VA ADOLAT TAMOYILLARI

Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustah-kamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot.
<i>Amaliyot rejasi</i>	<p>O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda "kuchli ijtimoiy himoya" va "ijtimoiy adolat" tushunchalari, mazmun va mohiyati.</p> <p>O'zbekiston ijtimoiy xayotidagi o'zgarishlar va uning aholi farovonligini ta'minlashda namoyon bo'lishi</p> <p>O'zbekistonda kuchli ijtimoiy ximoya siyosati, uning bosqichlari, xususiyatlari va rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirilishi</p> <p>Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, oila institutining qollab-quvvatlash</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy himoya, va adolat tamoyillari bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>

<ul style="list-style-type: none"> ▪ O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat va ijtimoiy kafolat tushunchasi va tamoyillari bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash; ▪ O‘zbekistonda ijtimoiy adolat prinsiplari va ularning amal qilish xususiyatlari bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash; ▪ jamoatchilik fikrida adolat tuyg‘usi, ijtimoiy himoya tushunchasining turli qatlam, guruh manfaatlarida aks etish holatlari bo‘yicha atroflicha ma‘lumot berish. 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat va ijtimoiy kafolat tushunchasi va tamoyillari bo‘yicha bilimlarni mustahkamlaydilar; ▪ O‘zbekistonda ijtimoiy adolat prinsiplari va ularning amal qilish xususiyatlarini ochib beradilar; ▪ jamoatchilik fikrida adolat tuyg‘usi, ijtimoiy himoya tushunchasining turli qatlam, guruh manfaatlarida aks etish holatlari atroflicha va kengaytirilgan ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.
O‘qitish usullari-texnikasi	ma‘ruza, tushuntirish, instruksiya berish, namoyish, blits-so‘rov, paradokslar usuli
O‘qitish vositalari	ma‘ruza matni, kompyuter slaydlari, doska
O‘qitish shakllari	frontal, kollektiv ish
O‘qitish sharoiti	kompyuter, multimedia proektor (yoki proektor va LCD panel)
Monitoring va baxolash	Kuzatish, og‘zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so‘rov, o‘quv topshiriq.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Ish jarayon lari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va o‘quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta‘lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e‘lon qiladi (1-ilova).	Tinglaydilar. O‘UM ga qaraydilar.
	1.2. «Nima uchun» texnikasidan foydalanilgan holda talabalarga, «Ijtimoiy himoya tushunchasiga bo‘lgan kandy turdagi munosabatlar mavjud? degan savol bilan murojaat qiladi. Bajarilgan ishlarni ko‘zdan kechirib xulosalaydi (2-ilova).	O‘z fikrlarini erkin bildiradilar. Organayzerni to‘ldiradilar.
	1.3. Talabalar fikrini umumlashti rib, ularni 3 ta kichik guruhlarga bo‘ladi.	Guruhlarga bo‘linadi.
	1.4. Talabalar mashg‘ulotdagi faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (3-ilova).	O‘UM ga qaraydilar.
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Guruhlarga topshiriq beradi va ularni bajarishi uchun yordam beradi. Ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Qo‘shimcha ma‘lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. (4-ilova).	Faol qatnashadilar
	2.2. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e‘tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Ishning taqdimotini o‘tkazadilar, bahs-mu nozara yuritadilar, xulosa chiqaradilar. Baholaydilar.

	2.3. Har bir guruh topshiriqlarni qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o't-kazishda yordam beradi. YAgona xulosa chi-qarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi.	Taqdimot o'tka zadi. G'olib guruhlarni aniqlab, baholaydi.
III-bosqich. YAkuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag'batlantiradi.	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: Mavzuni Insert texnikasi yordamida tahlil qilish.	O'UM ga qaraydilar.


6-ilova (13.2)

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.

7-ilova (13.2)

«Nima uchun?» texnikasi



8-ilova (14.2)

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga echim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligini 0-5 ball	Jami ball

- 15 – 13 ball – «a'lo».
 12 – 10 ball – «yaxshi».
 9 – 6 ball – «qoniqarli».

9-ilova (13.2)

Ekspert qog'ozlari - topshiriqlar

1-guruh

1. Ijtimoiy adolatning makro (oilalar, mahalla, jamoalar) va mikro darajalari.

2-guruh

2. O'zbekistonda ijtimoiy adolat prinsiplari va ularning amal qilish xususiyatlari.

**MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLARNING O'ZINI- O'ZI
 BOSHQARISH INSTITUTLARINI DEMOKRATIYALASHUVI
 Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni 20-25ta</i>	Vaqt 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Individual topshiriqlarni bajarishga asoslangan amaliy mashg'ulot
<i>Amaliyot rejasi</i>	<p>Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish institutlarini demokratiyalashuvi</p> <p>Reja:</p> <p>O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining demokratiyalashuvi tushunchalari</p> <p>O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat hokimiyatining o'rni</p> <p>Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish</p> <p>Mahalla faoliyatining qonuniy va tashkiliy asoslari hamda funksiyalari, uning samaradorligini oshirish chora tadbirlar</p>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, demokratik jamiyatni barpo etishda nodavlat va jamoat birlashmalarining o'rni keng va atroflicha tushuntirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> ▪ Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish ning shakllari, huquqiy asoslari hamda ularning fuqarolik jamiyati qurishdagi rolini atroflicha tushuntirish; ▪ Mustaqillik yillarida O'zbekis tonda o'zini-o'zi boshqarish tizimining shakllanishi, uni bosqichma-bosqich isloh qilish yo'llari bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish; ▪ Nodavlat, notijorat, jamoat birlashmalari va ko'ppartiyaviy lik tushunchalarining ma'no-mazmuni hamda ular faoliyatlari huquqiy asoslarining yaratilishi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish ning shakllari, huquqiy asoslari hamda ularning fuqarolik jamiyati qurishdagi rolini keng va atroflicha tushunib oladilar; ▪ Mustaqillik yillarida O'zbekis tonda o'zini-o'zi boshqarish tizimining shakllanishi, uni bosqichma-bosqich isloh qilish yo'llari bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydilar va kengaytiradilar; ▪ Nodavlat, notijorat, jamoat birlashmalari va ko'ppartiyaviy lik tushunchalarining ma'no-mazmuni hamda ular faoliyatlari huquqiy asoslarining yaratilishi bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydilar va kengaytiradilar;

kengaytirish; ▪ Mamlakatimizda xalqaro va xorijiy nodavlat tashkilotlar faoliyati hamda O'zbekistonda «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» konsepsiyasi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish.	▪ Mamlakatimizda xalqaro va xorijiy nodavlat tashkilotlar faoliyati hamda O'zbekistonda «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» konsepsiyasi bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydilar va kengaytiradilar.
<i>O'qitish usullari -texnikasi</i>	topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat
<i>O'qitish vositalari</i>	tarqatma material, kompyuterlar, doska
<i>O'qitish shakllari</i>	individual, kollektiv
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan o'quv xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish bosqich-lar	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	O'quv mashg'uloti 1-2 savollar maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. 1.2.Tinglovchilarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (<i>1-ilova</i>).Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlar ni tarqatadi. Savollar berib suhbat tarzida tinglovchilar bilimlarini jonlantiriladi (<i>3-ilova</i>).	Mavzuni yozib oladi. YOzib oladilar. Tanishadilar
2 -bosqich. Asosiy bo'lim. (60 daqiqa)	2.1.Talabalarning tayyorlagan ma'ruza va ma'lu motlari bilan chiqishini tashkil qiladi: Material mazmunan rivojlanishini diqqat bilan kuzatib boradi; 2.2 Zarurat tug'ilganda mu'ruzachini bir necha daqiqa to'xtatib qo'yib, bayon etilgan materiallarni muhokama qiladi, ma'ruzani jamoaviy munozaraga aylantiradi. 2.3. Ma'ruza mazmunini jamoaviy tarzida muhokamasini uyushtiradi: <ul style="list-style-type: none"> • Aktiv muhokama jarayoniga talabalarni jalb qiladi; • savollar beradi; • nasihat beradi; • ma'ruza asosiy jihatini aniqlashtiradi; • aytilgan fikrlarga qiziqish orttiradi. Har bir ma'ruza muhokamasi qisqacha umum lashtiriladi va umumlashtirish natijasi ma'ruzachi va opponentlarga qo'yilgan ballarni hisobga olish orqali yakunlanadi.(<i>2-ilova</i>)	Individual tarzda o'z kompyuter larida bajaradilar Natijani tahlil qiladilar.

3-bosqich YAkunlovchi (10 daqiqa)	3.1. Seminar mashg'uloti mavzusi mazmuniga yakun yasaladi: <ul style="list-style-type: none"> • qisqacha asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi; • muhokama jarayonida savollarga berilgan javoblar mazmuniga xulosa qilinadi; • ma'ruzachi va opponentlarning tayyorgarlik darajasi, muhokama jarayonidagi aktivligi baholanadi; • ma'ruzachi va opponentlarga qo'yilgan ballar jamlanadi va e'lon qilinadi; • seminar mashg'uloti natijaviyligiga umumiy baho beriladi; • kelgusi seminar mashg'uloti maqsadi aniqlanadi. 	Savollar beradilar. YOzib oladilar. YOzib oladilar.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi. 3.3. Kurs bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish uchun adabiyotlar takdim etadi 3.4. Mavzu va kurs bo'yicha mustaqil bajarish uchun mavzular ro'yhati bilan tanishtiradi.	

1-ilova

Seminar mashg'ulotida o'quvchilar faoliyati ko'rsatkichini baholash mezon

Reyting bo'yicha seminar mashg'ulotlari:

86-100%/2 ball – a'lo.
63-85%/1,7 ball – yaxshi.
40-62%/1,2 ball – qoniq.

Ma'ruzachilarni baholash mezon jadvali

Baholar	Ma'ruzaning to'liqlik darajasi: yangiligi va aktualligi	Foydalanil gan texnik vositalar	Ma'lumot berishda foydalanil gan ma'lumot manbai	Vaqt	Jami
Ball hisobida	0,8	0,6	0,33	0,33	2
% da	40	30	15	15	100

Opponentlarni baholash mezon jadvali

FI SH	Baholar	Ma' ruzaga qo' shimcha	Munozarada ishtiroki	Ma' ruzani baholashda amaliy yondashuv (tanqidiy ko' z bilan qarash qobiliyati)	Savollar		Jami
					Soni	Sifati	
	Ball hisobida	0,4	0,2	0,6	0,8		2
	% da	20	10	30	40		100

Munozara qatnashchilari	Savollar (har biriga 0,1)	Amalda (0,3)	Qo'shimcha (har biriga 0,2)	Jami

Taqrizchilarni baholash mezon jadvali

Taqrizchi	Ma'lum qilingan ijobiy jihatlari soni (har bir to'g'ri javobga 1 balldan)	Jami ballar
F.I.SH.		
F.I.SH.		
F.I.SH.		
F.I.SH.		

Jadval yakunida ma'ruzachi va opponentlar yig'gan ballar bilan to'ldiriladi, umumlashtiriladi, mashg'ulot o'qituvchisi yoki taklif qilingan ekspertlari yordamida yakuniy natija e'lon qilinadi.

Ushbu mashg'ulot har bir o'quvchini, mustaqil tarzda o'quv jarayoniga tayyorlashga mo'ljallangan va shu tariqa bu tarzdagi mashg'ulotlarni o'tkazish unumdorligiga erishiladi

2- ilova

Munozara qatnashchisiga eslatma



- 1- Munozara munosabatni oydinlashtirishmas, balki muammoni echish usuli sanaladi.
- 2- Boshqalarga ham imkoniyat berish uchun juda ko'p uzoq so'zlamagin.
- 3- Fikrlaring maqsadga yo'nalishi uchun har bir so'zni o'ylab gapir, hayajoningni nazorat qil.
- 4- Opponent ahvolini tushunishga harakat qil va unga nisbatan hurmat nuqtai nazaridan munosabatda bo'l.
- 5- Opponent tomonidan aytilgan fikrga nisbatan aniqroq e'tiroz qil, uning fikrini o'zgartirma va chalkashtirma.

Munozarani o'tkazish tartibi va vaqti

Boshlovchi ma'ruza mavzuni e'lon qiladi va ma'ruzachiga so'z beradi.
 Ma'ruza 5 daqiqa davom etadi.
 Taqrizchi so'zga chiqadi – 2 min.
 Ma'ruza mavzusi bo'yicha opponent o'z fikrini ilgari suradi – 1-3 min.
 Jamoaviy munozara – 5-10 min.

3- ilova

Jonlantirish savollari

1. Mahalliy davlat hokimiyati ayrim vakolatlari o'zini-o'zi boshqarish organlariga qanday asosda o'tkazilmoqda?
2. Mahalla – demokratiya maktabi.

3. Mamlakatimizda qanday mahalliy o'zini- o'zi boshqarish shakllari mavjud?
4. Fuqarolik jamiyatini qurishda mahallaning roli.
5. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish organlarining o'rni qanday?
6. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Reja
Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi
O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari
Jamiyat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligini oshirish
Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti

1.1. MASHG'ULOTNI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

<i>Talabalar soni -</i>	O'quv vaqti – 2 soat
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1.Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi 2.O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari 3.Ko'ppartiyaviylik–demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Fuqarolik jamiyati haqida umumiy tasavvurni shakllantirish. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumotlar berish, O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida nodavlat, notijorat va jamoat birlashmalarining mohiyat- mazmuni va vazifalari, ko'ppartiyaviylik va "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilining mohiyatini tushuntirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari</i>
Jamiyat, fuqarolik jamiyati, nodavlat jamoat tashkilotlari hususida to'xtalib o'tiladi	Jamiyat va fuqarolik jamiyati mazmun-mohiyatini yoritib bera oladi;
Fuqarolik jamiyati asoslari, asosiy belgilari va xususiyatlari haqida tushuncha hosil qiladi	Fuqarolik jamiyatining demokratiya mahsuli ekanligini va unda yuksak ma'naviyatning roli muhim ekanligini aytib beradi
"Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari" tamoyilini tushuntirib beradi;	Davlat funksiyalarining fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga o'tib borishi haqida gapira oladi.
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, "Tushunchalar tahlili", "Veen diagrammasi", "SWOT tahlil", FSMU, "Muammoli vaziyat"
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma materiallar, sxemalar, slaydlar, doska
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoaviy ishlash, kichik guruhlarda ishlash
<i>Manitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

1.2.O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Mavzuga kirish (20 minut)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. Mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishtiradi	O'UM ga qaraydi
	1.2. Har bir talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi	Tarqatmalardan foydalanadi
2 – bosqich Asosiy bo'lim (50 minut)	2.1. Ekraniga tayanch ibora va tushunchalarini chiqaradi, “Tushunchalar tahlili” usuli yordamida asosiy tushunchalar umumiy muhokama asosida tahlil qilinadi (1-ilova)	Tinglaydilar. Muhokama qiladilar. Savollar bilan murojaat qiladi
	2.2. O'quv mashg'ulotining birinchi savoli bo'yicha ma'ruza qiladi. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi vizual materiallar asosida yoritib beradi (1-4-chizmalar) 2-ilovadagi topshiriq bajariladi	Tinglaydilar, yozadilar, savollarni muhokama qilib, ularga javob beradilar
	2.4. Nodavlat, notijorat va jamiyat birlashmalarining mazmun – mohiyati va vazifalari chizmalar orqali yoritib beradi (5-8- chizmalar) 3-4-ilovadagi topshiriqlar bajariladi	Tinglaydilar. Organayzerni to'ldiradilar, erkin fikr bildiradilar
	2.5. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari tamoyilining mohiyatini, ko'ppartiyaviylik 9-10–chizmalar orqali tushintirib beriladi	Tinglaydilar, yozadilar, fikr bildiradilar
	2.6. FSMU texnologiyasi asosida ko'ppartiyaviylik tahlil qilinadi (5-ilova) 2.7. “Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti” masalasi SWOT tahlil qilinadi (6- ilova)	FSMU jadvalining to'ldiradilar SWOT to'ldiriladi
3- bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1.Mashg'ulot bo'yicha umumiy, yakuniy xulosa chiqaradi	Eshitadi
	3.2. Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholaydi Uyga vazifalar beriladi – 7-ilova	O'zini qiziqtirgan savollar beradi


1-ilova

Mashg'ulotning dastlabki qismida talabalarning mavzu doirasidagi birlamchi bilimlarini aniqlashtirib olish, ularni mavzuga tegishli bilimlarni egallashlariga moslashtirish maqsadida “Blits-so'rov” va “Tushunchalar tahlili” usullaridan foydalaniladi:

BLIS-SO'ROV

№	Savollar	Javoblar
1	Jamiyat deganda nimani tushunasiz?	O'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi

2	Fuqarolik jamiyati?	Jamiyat hayoti faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan boshlang'ich nodavlat tizimlarni o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir
3	Siyosiy partiya?	Qarashlari, manfaatlari bir bo'lgan kishilar birligi bo'lib, o'zini o'zi boshqarish tashkiloti hisoblanadi
4	NNT larga misol keltiring?	Fuqarolik jamiyatini monitoring qilish mustaqil instituti
5	Jamoat tashkilotlari?




TUSHUNCHALAR TAHLILI	
Fuqarolik jamiyati	Fuqarolik jamiyati yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir
Fuqarolik jamiyati institutlari	fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoatchilik tashkilotlari hamda fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari
Nodavlat notijorat tashkilotlar	Nodavlat va jamoat tashkilotlari - davlatga qarashli bo'lmagan, lekin ma`lum qonunlar yoki me`yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanada.
Ko'ppartiyaviylik	Fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri siyosiy maydonda demokratik mamlakatlarga xos bo'lgan ko'ppartiyaviylik tizimini qaror toptirishdir. Faqat ko'ppartiyaviylikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar majmuasigina fuqarolik jamiyatini qurish uchun


	qulay shart-sharoitlar yaratadi. har bir mamlakatdagi davlat, hukumat va parlamentni shakllantirishda siyosiy partiyalarning qanday mavqega egaligi, bu jarayonlardagi ishtirokining qanday kechishi, xalqning partiyaviylik tizimi asosida kechgan saylovlardagi faollik darajasi hozirgi davrga kelib demokratiya me'yorlarini belgilab bormoqda.
Siyosiy partiya	Siyosiy partiya umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy manfaatlar, maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiruvchi turg'un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalaridan biri, hozirgi zamon demokratik davlati hayotining zurruriy omillaridan biridir.

Talabalarda "Fuqarolik jamiyati institutlari" tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi to'grisidagi bilimlar va tasavvurlarni shakllantirish, rivojlantirish uchun avvaldan tayyorlangan didaktik materiallar, chizmalardan foydalaniladi. Bunda taqdimotlar va tarqatma materiallarning zamonaviyligi va qisqa, aniqligiga e'tibor qaratiladi.

1-chizma



2-chizma



3-chizma

FUQAROLIK JAMIYATI

Fuqarolik jamiyati - teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini ta'minlashga ko'rmaklashadigan jamoat va nodavlat institutlarining tizimidir.

Bu jamiyat sharoitida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik hamda manfaatlarini aks ettiruvchi, muhofaza etuvchi turli-tuman uyushmalar, birlashmalar, nodavlat tashkilotlar va idoralar mavjud bo'ladi. Ular davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lib, o'zini o'zi boshqarish prinsipi asosida jadal faoliyat ko'rsatadi.


Fuqarolik jamiyati jamoat birlashmalarining yig'indisidagina iborat bo'lmay, balki ular faoliyatining natijasida paydo bo'ladigan munosabatlar tizimi hamdir. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini milliy va diniy an'analarsiz, odatlarsiz, odob-axloq normalarisiz va milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga katta ahamiyat beriladi. Uning maqsadlarini, hayotiy orzularini, niyatlarini shu jamiyatdagi tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Bu tashkilotlar, institutlar va guruhlar alohida shaxsga uning hokimiyat manbai ekanligini


Bu jamiyat iqtisodiy, kasbiy, madaniy, diniy va boshqa manfaatlarini shakllantirishga va ularni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy aloqalar tizimini ham qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir insonning ehtiyojlari, manfaatlarini, huquq va erkinliklarini amalga oshirishga qaratilgan.

**FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA ICHKI
TIZIMLARINI QUYIDAGICHA TASNIFLASH MUMKIN:**


**Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi
institutlar va tuzilmalar**



**Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi institutlar
va tuzilmalar:**




Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar:



Ijtimoiy–siyosiy ta’limotlarda “demokratik jamiyat” va “fuqarolik jamiyati” tushunchlari keng qo’llanilmoqda. Makur tushunchalar haqida yaxlit tushuncha hosil qilish maqsadida “Veen” diagrammasida yordamida tahlil qilish vazifasi birgalikda bajariladi.

2-ilova

VEEN DIAGRAMMASI



NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI TUSHUNCHASI

Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

- ❖ o‘z a‘zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;
- ❖ ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;
- ❖ davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;
- ❖ ommaviy axborot vositalarini ta‘sis etish hamda belgilangan
- ❖ o‘z ramziy belgilarini ta‘sis etish;
- ❖ Nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Jamoat birlashmalari o‘z faoliyat doiralariga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

8-chizma

Aholining muayyan yirik toifalari ijtimoiy manfaatlarini ko‘zlab ishlashga ixtisoslashgan hukumatga qarashli bo‘lmagan umummilliy tashkilotlar

Bunday tashkilotlar qatoriga «Mahalla» jamg‘armasi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Nogironlar uyushmasi, «Nuroniylar» faxriylar jamg‘armasi kiradi

Ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg'armalar

«Ekosan», «Sog'lom avlod uchun» va chet elda ta'lim olish uchun iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash «Iste'dod» jamg'armasi, Orolni qutqarish jamg'armasi, Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va fan arboblari

Hukumatga qarashli bo'lmagan huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar

Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi, huquqiy yordam ko'rsatish markazi va h.k

Ijodkor ziyolilarning milliy jamoat tashkilotlari

yozuvchilar, artistlar, rassomlar, bastakorlar, arxitektorlar, kinochilar, sudyalalar va advokatlarning jamoat tashkilotlari.

Madaniy markazlar

O'zbekistonda yashovchi milliy (ozchilikni tashkil etuvchi) jamoat vakillari madaniyati, urf-odatlarini saqlab qolish maqsadida birlashtirilgan madaniy markazlar

Umummiliy xayriya jamiyatlari va xilma-xil jamg'armalar

100 tadan ortiq:
bolalar jamg'armasi, bolalar uylarining tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish jamg'armasi; Respublika talabalar jamg'armasi;

Ijtimoiy ahamiyatli va ijodiy qiziqishlar bilan bog'liq




ekologiya masalalari bo'yicha mahalliy birlashmalar, sayyohlik va badiiy havaskorlik klublari, nogiron bolalar ota-onalarining birlashmalari;

Jamoatchilik birlashmalari

«Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, Samarqanddagi mushkul vaziyatlarda ayollar va o'smirlarga ruhiy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi «Sabr» ishonch markazi kabi hukumatga qarashli bo'lmagan mahalliy ijtimoiy muassasalar.


Nodavlat tashkilotlar mazmuni va mohiyati borasidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqilgach, talabalar bilan hamkorlikda quyidagi vazifa muhokama qilindi:

Savol: NNTlar nima uchun kerak?

Fikr	Izoh
Davlat xarajatlarini (byudjetini) iqtisod qiladi	Chunki, NNTlar davlat byudjetidan to'g'ridan to'g'ri mablag' olmaydi. NNTlar tomonidan grant va subsidiyalar shaklida olinadigan mablag'lar ijtimoiy muammolarni ancha arzon hal etish imkonini beradi;
Jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida aniqlaydi va barchani xabardor etadi	
Ijtimoiy muammolarni hal etish borasida tavsiyalar beradi, yangi tajribalarga ega bo'ladi, tatbiq etadi	
Jamiyatda yuzaga keladigan "bosh og'rig'idan" xalos etadi, ularning kamayishiga erishadi	

4-ilova

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI QUYIDAGI VAZIFA ASOSIDA TAHLIL QILINADI:



NTT,....



5-ilova

FSMU texnologiyasi asosida **“O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar faoliyati”** tahlil qilinadi. Natijada nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlash, asoslar ko‘rsatib berish, tizimli fikrlashga o‘rgatish kabi vazifalar hal qilinadi.

F	Mustaqillik yillarida mamlakatimizda davlat hokimiyati demokratik k‘oppartiyaviylik asosida shakllantirilmoqda
S	Chunki, siyosiy partiyalarning mavjudligi va hokimiyatning saylovlar asosida shakllanishi demokratik davlatning muhim belgisidir.
M	Masalan, O‘zbekistonda 4 ta siyosiy partiya saylovlarda ishtirok etishmoqda
U

9-chizma

O‘ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING ASOSIY FAQLARI




O‘zbekiston XDP	“Adolat” SDP	O‘zLiDeP	“Milliy tiklanish” DP
Mafkurasi			
Ijtimoiy davlat g‘oyasiga asoslangan xalq demokratiyasi	Sotsial demokratiya	Liberal demokratiya	Milliy tiklanish g‘oyasi, mo‘‘tadil konservatizm
Siyosiy maydondagi o‘rni			
So‘llar (parlamentdagi ko‘pchilikka nisbatan muxolifatda)	So‘l markaz (parlamentdagi ko‘pchilikka nisbatan muxolifatda)	O‘ng markaz (demokratik kuchlar blokiga kiradi)	O‘nglar (demokratik kuchlar blokiga kiradi)
Elektorat (Ijtimoiy tayanch)			
Davlat va jamiyat tomonidan manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyojmand insonlar, jumladan, pensionerlar va nogironlar, shuningdek ularni ijtimoiy muhofaza qilish bilan shug‘ullanadigan budjet tashkilotlari xodimlari, ijtimoiy soha vakillari	Muhandis-texnik xodimlar, o‘qituvchilar, shifokorlar, budjet sohasi xodimlari, xizmat ko‘rsatish sohasi ishchilari	Mulkdorlar o‘rta sinfi, tadbirkorlar va ishbiarmonlar, fermerlar, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasi vakillari	Ijodkor ziyolilar, madaniyat, san‘at va axborot sohasi xodimlari, vatanparvar yoshlar, hunarmandlar
Asosiy g‘oyalar mazmuni			

<p>Ijtimoiy tenglik, ijtimoiy himoya, aholining kam ta'minlangan va ijtimoiy zaif qatlamlari haqida g'amxo'rlik, ijtimoiy ziddiyat va mojarolarning oldini olish, davlatning iqtisodiyotdagi, hayotning turli sohalaridagi, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari muammolarini hal qilishdagi rolini saqlash va kuchaytirish</p>	<p>Ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlar tengligi, adolat va birdamlik. Adolatli fuqarolik jamiyati, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti g'oyalariga sodiqlik. Huquqiy davlat, dunyoviy demokratik fuqarolik jamiyati barpo etish</p>	<p>Shaxs huquq va manfaatlari ustuvorligi, hususiy mulk daxlsizligi, iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat va jamiyat hayotini demokratlashtirish va modernizatsiya qilish, mulkdorlar sinfi, fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan o'rta sinf shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish, raqobat va erkin iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash</p>	<p>Mo'tadil konservatizm, an'analar va taraqqiyot birligi, "yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", tarixan shakllangan milliy an'analarga mos davlat va jamiyat hayotini, uning millat, din, an'ana, oilada mujassam ma'naviy-huquqiy asoslarini saqlash va rivojlantirish, milliy birdamlik va mustaqillik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash</p>
---	---	---	--


6-ilova

“SWOT” (KKIT) tahlil

Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti

<p>S – Kuchli tomoni</p>	<p><i>Aholi barcha qatlamlari manfaatlarining yuzaga chiqishi</i></p>
<p>W – Kuchsiz tomoni (Salbiy ta'sirlar)</p>	<p></p>
<p>O - Imkoniyatlar</p>	<p></p>
<p>T - Tahdidlar</p>	<p></p>

MAVZU BO'YICHA MUSTAQIL TA'LIM VAZIFALARI
1. Kalster tuzish



2. Nilufar guli jadvalini to'ldiring
 Mavzu: Fuqarolik jamiyati institutlari

	B			Z			C	
			B	Z	C			
	D		D	A	F		F	
			G	H	Y			
	G			H			Y	

AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH, AXBOROT VA SO‘Z ERKINLIGINI TA‘MINLASH

Tarqatma materiallar papkasi berilgan ma‘lumotlar asosida “Kichik ma‘ruza” usulida tayyorlanish va muhokama qilish

“AXBOROT VA SO‘Z ERKINLIGI”

masalasida

KEYS-STADI

PEDAGOGIK ANNOTATSIYASI

O‘quv predmeti: “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani

Masala: Axborot va so‘z erkinligi.

Keysning asosiy maqsadi:

Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta‘minlash demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishidir. SHu sababli yurtimizda milliy matbuot rivoji, uni erkin fikr minbariga aylantirishga juda katta e‘tibor berilmoqda. Mustaqillikdan so‘ng inson huquqlarini ta‘minlash, uning erki va sha‘nini hurmat qilish, axborot olish va so‘z erkinligi uchun shart sharoit yaratish muhim vazifalardan biri bo‘ldi. Talabalarga mustaqillik yillari mazkur sohada amaga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlarni tushuntirish hamda tahlil qilish, globallashuv va bugungi axborot asrida axborotlar orqali jamiyatni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar borligini ko‘rsatib berish va ularning oldini olish bo‘yicha chora – tadbirlarni ishlab chiqish.

O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- Demokratik jamiyat qurish jarayonida axborot erkinligini ta‘minlash, so‘z va matbuot erkinligi uchun zarur sharoit yaratib berish islohatlarini yoritib berish;
- Fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida nodavlat OAV ga bo‘lgan e‘tiborning ortishi va shu bilan birga g‘arazli maqsadlarni ko‘zlaydigan nodavlat OAVning faoliyati va ta‘siriga tushishning oldini olish yo‘llarini ko‘rsatib berish;
- muammoli vazifalarni echishda nazariy bilimlarini qo‘llash;
- muammoni aniqlab, uni hal qilishda echim topish.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur:

Talaba bilishi kerak:

OAV va ularning turlari, so‘z va matbuot erkinligi, “ommaviy madaniyat”, ijtimoiy tarmoqlar va internet fenomeni, milliy mafkura, gegemonlik, mafkuraviy tahdid, mas‘uliyat, loqaydlik av beparvolik.

Talaba amalga oshirishi kerak:

- mavzuni mustaqil o‘rganadi; muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g‘oyalarni ilgari suradi; ma‘lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi; o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; o‘quv ma‘lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; ma‘lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

Talaba ega bo‘lmog‘i kerak:

- kommunikativ ko‘nikmalarga; taqdimot ko‘nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga; muammoli holatlar tahlil qilish ko‘nikmalariga.

Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. YUksak ma‘naviyat –engilmas kuch. –Toshkent: Ma‘naviyat. 2008.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. 2011.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.: «O‘zbekiston», 2012.
4. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi/I.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012 –yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqi. 19.01.2012 .Toshkent.

5. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferentsiya materiallari. – T.: “O‘zbekiston”, 2012.
6. Karimov I.A. Inson xotirasi – boqiy, qadr-qimmatini – ulug‘. 2012 yil 9 may kuni. Xotira maydonida ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusi // Xalq so‘zi, 2012 yil 10 may.
7. Ergashev I. va boshqalar. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Navro‘z”, 2005.
8. Aliev B., Hoshimov T. va boshqalar. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2007. – 240 b.
9. Mirzaev A. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDTU, 2000. – 328 b.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli bo‘lib, rasmiy ma‘lumotlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy ob‘ekti shaxsga yo‘naltirilgandir. Bu tashkiliy institutsional keys bo‘lib, rasmiy va ilmiy ma‘lumotlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o‘rtacha, tizimlashtirilgan bo‘lib, treningga mo‘ljallangan o‘quv mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko‘ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keysdan “Siyosatshunoslik va O‘ZDJQN va amaliyoti”, “Ma‘naviyat asoslari”, “Sotsiologiya” fanlarida hamda murabbiylik soatlarida foydalanish mumkin

KEYS: AXBOROT VA SO‘Z ERKINLIGI

Kirish. “Axborot va so‘z erkinligi” masalasi “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan muammoli vaziyatlarni hal etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotda “Keys stadi”ga asoslangan o‘qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan. Demokratik islohotlarni hayotga tadbiiq etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari (OXV)ning o‘rni va ahamiyati katta. Ma‘lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta‘minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o‘z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta‘bir joiz bo‘lsa, tamal toshi hisoblanadi. SHu bilan birga bugungi kunda OAV mafkuraviy ta‘sir o‘tkazishning muhim vositasiga ham aylanmoqda. SHuning uchun I.Karimov bu masalani alohida ta‘kidlaydi: «*Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zi bo‘larlilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha erda ma‘naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda xushyorlik va jonkuyarlik yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha erda ma‘naviyat qudratli kuchga aylanadi*»¹²². Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonning shiddat bilan tus olayotgan davrda turli g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish, siyosiy markazlar buyurtmalarini bajarish orqali davlatlar tinchligi, aholi farovonligiga bo‘lgan tahdidlar kuchayib borayotganligi fuqarolardan yanada ogoh va xushyorlikni talab qiladi. Turli yangicha “demokratik qalriyatlar”ni ilgari surish, millat va elatlarning milliy qadriyatlarini, mentaliteti, o‘ziga xos yashash tarzini hisobga olmaslikni davat qilayotgan kuchlar, taraflarning asl maqsad va muddaolari ayon bo‘lib bormoqda.. Aynan ana shu muammolarni oldini olish yo‘llarini ishlab chiqish “Keys stadi”ga asoslangan o‘qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy va o‘rganish qobiliyatlarini, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi.

Tavsiya etilgan keysni echish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;

¹²² Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Манавият, Т.: 2008

- muammoning hamda qabul qilingan echimning individual va guruhiy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

KEYS UCHUN MATERIAL - VAZIYAT

I.A. Karimov tomonidan taqdim etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" asosida AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH, AXBOROT VA SO'Z ERKINLIGINI TA'MINLASH

Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmashligini o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz.

Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida, ayniqsa oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

YUrtimizda avvalo ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

"Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda yangi tahrirdagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunga, shuningdek, "Telekommunikasiyalar to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta'minladi. SHu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi.

Nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O'z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiasiyasi, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

YUridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qo'llagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergan yangi tahrirdagi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizasiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonda keyingi yillarda sun'iy yo'ldosh aloqa tarmog'i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikasiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo'nalish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega.

YUrtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko'rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog'i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda.

Dunyodagi etakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o'zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko'payib, bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga etdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko'rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmogda.

YAna bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo'lmoqda. YUrtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormogda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz zarur, deb o'ylayman. YA'ni, bu o'rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarning ustuvor jihatlarini to'g'ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqqligini, shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormogda.

SHu boisdan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmogda:

Birinchi. "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" Qonun qabul qilish zarur. Bu o'z navbatida fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini yanada kengroq amalga oshirish imkoniyatini yaratib berish bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qabul qilinayotgan qarorlar sifatini oshirish borasidagi mas'uliyatini ham ko'p jihatdan kuchaytirgan bo'lur edi.

Ushbu qonun davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish tartiblarini aniq belgilab berishi, aholining, jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, avvalambor fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari bilan bog'liq qarorlar haqidagi axborotlardan keng xabardor bo'lib borishini ta'minlashi lozim.

Mazkur qonunning joriy etilishi ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqligi va oshkoraligini, mamlakatimiz va xorijda kechayotgan voqea-hodisalar xususida fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda, ta'minlashi zarur.

Ikkinchi. Demokratlashtirish jarayonlarida ahamiyati tobora ortib borayotgan axborot kommunikasiyalari sohasining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan teleradio tizimini rivojlantirishga qaratilgan "Teleradioeshittirishlar to'g'risida" Qonun qabul qilish haqida taklif kiritilmogda.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda ushbu sohadagi faoliyat ommaviy axborot vositalari, radiochastota spektri, telekommunikasiyalar, axborotlashtirish to'g'risidagi qonunlarning muayyan moddalari bilan tartibga solib kelinmogda.

SHu bilan birga, teleradioeshittirishlar sohasini mustaqil qudratli industriya sifatida qayta tashkil etish, teleradioeshittirishlarning yangi shakl va turlarining paydo bo'lishi teleradiodasturlarni tayyorlash va uzatish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tizimli va keng ko'lamli ravishda tartibga soladigan yaxlit qonunni kuchga kiritish zaruratini tug'dirmogda.

Ushbu qonunning qabul qilinishi teleradiodasturlarni tayyorlash va tarqatish sohasida raqobatni yanada kuchaytirish, teleradiodasturlarni uzatish borasida mobil va raqamli televidenie

kabi ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, teleindustriyaning istiqbolli yangi tarmoqlarini tashkil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Bu qonun milliy teleradioeshittirishlar tizimi faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini va moliyalashtirish manbalarining erkinligi va mustaqilligi kabi prinsiplarini belgilab berishga, radiochastotalarni olish uchun o'tkaziladigan tanlovlarning demokratik va oshkoraligini ta'minlash, teng raqobat va elektron media-bozor tarmoqlarining monopollashuviga yo'l qo'ymaslik uchun sharoit yaratish va boshqa bir qator muammolarni echishni nazarda tutadi.

Uchinchi. Ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun "Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish taklif etiladi. Bu qonunlar axborot bozori ishtirokchilari faoliyati samaradorligini kuchaytirish va ularning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, qo'shimcha iqtisodiy preferensiyalar yaratish va milliy axborot makonini izchil rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

To'rtinchi. Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash, hokimiyat va jamoatchilik o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish borasidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi.

Bunda, xususan, davlat va jamoat birlashmalari axborot xizmatlari, media-tuzilmalar ishini faollashtirish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlarni ko'zda tutish lozim. Ommaviy axborot vositalarining axborot olish yuzasidan murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish, axborot olish sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik va mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligini kuchaytirish va boshqa chora-tadbirlarni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar ustida ish olib borish zarur.

SHu bilan birga, siyosiy modernizasiya jarayonlarida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish lozim.

"Telekommunikasiyalar to'g'risida"gi Qonun normalarini yanada takomillashtirish, raqamli teleradioeshittirish tizimiga o'tish bo'yicha tadbirlar davlat dasturining ishlab chiqilishi ham ushbu vazifani hal etishga xizmat qiladi. Mazkur dastur raqamli teleradioeshittirishlar infratuzilmasini shakllantirish, bu boradagi faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga soladigan samarali tizimni yaratishga qaratilishi darkor.

Muxtasar aytganda, yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligi va tanlash erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

**Vazifa: Mustaqillik yillarida axborot va soʻz erkinligini taʼminlash nima uchun demokratik jamiyat qurishning muhim omili sifatida eʼtirof etildi.
NILUFAR GULI CHIZMASI ASOSIDA TAHLIL QILING?**

👉 **Misol. “Nilyufar guli” chizmasi - Muammoni echish uchun moʻljallangan choralarni ishlab chiqish (lavha)**

«Нилуфар гули» чизмаси

	B	

	Z	

	C	

	D	

B	Z	C
D	A	F
G	H	Y

	F	

	G	

	H	

	Y	

37

Vaziyat №2

Tarmoqmi yoki qarmoq

Qachonlardir gʻorlardagi tasvirlar koʻrinishidagi muloqot bilan cheklangan odamzod bugun oʻz kashfiyoti oldida ojiz qoldi. «Insoniyat ongi va tafakkurining kuchi bilan shu kungacha kashf etib kelingan barcha narsalar – samolyot, televizor, boringki, robotlar ham fantastik asarlarda, xayolparast olimlarning tasavvurlarida uchar gilam, oynai jahon yoki temir odamlar sifatida namoyon boʻlgan. Ammo kompʻyuter kashf etilgach, jahon sahnasini allaqanday xavotirli sukunat qamrab oldi. Eng buyuk olimlarning tadqiqotlari, qisqa axborotlar, hayotimiz aks etgan surʼatlar, orzu-intilishlarimiz – hamma-hammasini mana shu temir quti ichiga joylashtirish mumkin. Hatto baʼzi olimlar tomonidan bashorat qilingan texnikaning insoniyat ustidan hukmronlik qilish davri etib keldimikan degan xayolga boraman», – deydi psixolog Feruza Alimova.

Internetning salbiy va ijobiy xususiyatlari toʻgʻrisida bahs yurituvchilar ikkita katta guruhga boʻlinib, oʻz fikrining tasdigʻi uchun qanchalik koʻp dalil keltirmasin, bu haqda aniq bir fikrni aytish qiyin. Odamlar ushbu elektron OAVdan qanday maqsadda foydalanyapti? Hamma muammo shunda.

«Oʻrgimchak toʻri»ni faqat axborot manbai sifatida biladigan katta avlod uchun bu gaplar mubolagʻadek koʻrinishi mumkin. Biroq chat orqali oʻziga xos tarzda salomlashish maqsadida hosil

qilingan «slm», «sava», «kaleyka» soʻzlari bilan nutqimizni «boyitayotgan», «a» harfi oʻrniga @ belgisidan foydalanishni afzal biladigan yoshlar ham koʻpayib borayotgani mublagʻa emas.

Vazifa:

“Muammoli vaziyat” jadvalini toʻldiring

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

Vaziyat №3

Yolgʻon gapirishingiz mumkin!

Ingliz tilidan tarjima qilinganda «chat» mazmunsiz gaplar degan maʼnoni anglatadi. Vaqtini chatlarda oʻtkazayotgan odamlarning asosiy mashgʻulotini ana shunday gaplarni «muhokama» qilish tashkil etadi.

Internetga «oʻrgimchak toʻri» deb nom berilganining asl sababi nimada, bilmadim-u, lekin bu toʻrga ilingan «pashsha»larning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Achinarlisi, internetdan foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Undan ham achinarliroq tomoni, internet domiga tushib qolganlarning vaqti chatlarda qizlar bilan tanishish, yigitlarni «avrash», doʻstlar bilan chaqchaqlashish kabi «yumush»larga sarf boʻlyapti. Sabab sifatida odamlarning real hayotda muloqotga kirisha olmasligi, boʻsh vaqtning koʻpligi yoki shunchaki koʻngilxushlik qilish istagini koʻrsatish mumkin. Bundan tashqari, chat orqali suhbatlashishning oʻziga xos afzalliklari ham bor. Chatda istagan odam bilan istagan vaqtda istaganicha suhbatlashish mumkin. Yaʼni muloqot davomiyligini siz belgilaysiz. Agar suhbat sizni qiziqtirmasa, suhbatdoshingiz bilan muloqotni toʻxtatasiz-qoʻyasiz.

Internet orqali suhbatlasharkansiz, munosabatlar shunchaki bir oʻyin koʻrinishida boʻladi. U biz bilgan haqiqiy munosabatlarga umuman oʻxshamaydi. Bu qanday suhbat boʻldiki, sichqonchanning birgina harakati bilan yakunlash mumkin boʻlsa!?


Agar farzandingiz kuniga 5 soatdan ortiq vaqtini internetda oʻtkazayotgan boʻlsa, demak, xavotir olishga etarli asos bor. Shuningdek, tarmoqning ashaddiy muxlislarida real dunyodaoʻzini noqulay his qilish, unda qancha vaqt boʻlganini yashirishga urinish, shu bilan birga, yolgʻon gapirishga boʻlgan moyillikning ortishi va real hayotdagi sustlik kuzatiladi. Internetdan nima maqsadda foydalanish insonlarning tabiati, ularni oʻrab turgan muhitga ham bogʻliq. Tez asabiylashadigan, hissiyotlarga beriluvchan odamlar turli «otishmali oʻyinlar»ga qiziqib, oʻz gʻazablarini shu yoʻl orqali bosadi. Bunday odamlarning xatti-harakatida yuqori darajadagi agressivlik va tahlikaga tushish kuzatiladi. Oʻyinlarni, aslida, sotuvga chiqarishdan avval psixologik ekspertizadan oʻtkazish lozim.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, Janubiy Koreyada internetdan meʼyoridan ortiq darajada foydalanadigan maktab oʻquvchilari 40 foizni tashkil etadi. 15 foiz oʻquvchiga esa bimalol «internet kasalligi» degan tashxisni qoʻyaverish mumkin.

Xitoydagi koʻrsatkichlar ham shunday. Afsuski, bu antiqa kasallikni davolaydigan mutaxassislar juda kam. Hech qanday bogʻich va vaktsinalar esa kompʻyuter monitoriga tobora chuqurroq kirib borayotgan bolakaylarga yordam berolmaydi. Internet – juda arzon va qulay axborot manbai. Mobil aloqa vositalari orqali ham tarmoqqa ortiqcha qiyinchiliksiz ulanish mumkin. Texnika kundan-kunga rivojlanib boryapti, axir! Kursiga emaklab chiqadigan jajji bolakaylar ham xudi biz kabi axborot vositasidan erkin foydalanish imkoniyatiga ega. Butun masʼuliyat ota-onaning elkasida, chunki yarim yalangʻoch «xola»lar, zoʻravon «amaki»lar va yana boshqa har xil tushunarsiz tasvirlar koʻpgina saytlarning koʻrkiga koʻrk bagʻishlab turadi.

Vazifa: Nima uchun texnologiyasi asosida tahlil qiling.

«Nima uchun?» texnikasi



AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA – BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO‘YICHA TALABALARGA USLUBIY KO‘RSATMALAR

Talabalarga yo‘riqnomalar

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar.
1. Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. “Axborot va so‘z erkinligi” haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo‘lgan butun axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim. O‘qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma‘lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o‘tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o‘qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo‘ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: Axborot va so‘z erkinligi – demokratik jamiyat qurishning muhim omili. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling. 1. OAV deganda nimani tushunasiz? 2. So‘z erkinligining chegarasi nimada? 3. Xalqimizga xos bo‘lgan qanday insoniy fazilatlarni bilasiz? Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob‘ektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e‘tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling. Demokratik jamiyat qurilishi har bir jamiyat uchun o‘ziga xos bo‘lishi, har bir xalq, millat manfaatlari, yashash tarzi, orzu istaklarini o‘zida ifoda etishi, demokratiyani eksport qilib bo‘lmaslik, demokratlashuv jarayoni milliy qadriyatlar, ma‘naviy negizlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatib bering
4. Muammoli vaziyatni echish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan “Muammoli vaziyat”, Nima uchun, Nilufar guli chizmalari va jadvalini to‘ldirishga kirishing. Muammoni echish uchun barcha vaziyatlarni ko‘rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning echimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq echimini toping. Jadvalni to‘ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

(mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Talabalar Ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan mak. 6 b	Muammoli va- ziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 4 b	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari Aniq ko'rsatilgan mak. 10 b	Jami mak.20 b

**Auditoriyada bajarilgan ish uchun
baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

Guruhlar Ro'yxati	Guruh faol mak. 1 b	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi mak. 4 b	Javoblar to'liq va aniq berildi mak. 5 b	Jami mak. 10 b
1				

8-10 ball – a'lo, 6- 8 ball – yaxshi, 4- 6 ball – qoniqarli

**O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA
DEMOKRATIK TAMOYILLARGA ASOSLANISHI**

Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni: 20-50</i>		<i>Vaqt: 2 soat</i>	
<i>Mashg'ulot shakli</i>		Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot	
<i>Seminar rejasi</i>	<p style="text-align: center;">O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi</p> <p style="text-align: center;">Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy asoslari 2. O'zbekistonning Yevropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligi. O'zbekistonning BMT va xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi 3. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrashuvi 		
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi haqida bilim berish.			
<i>Pedagogik vazifalar:</i>		<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>	
<ul style="list-style-type: none"> ▪ O'zbekiston va jahon hamjamiyati. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga qo'shilishidagi demokratik tamoyillar haqida. Demokratik tartibotlar va uning asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumot berish; ▪ O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi. O'zbekistonning AQSH, Rossiya va boshqa Evropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligi to'g'risida ma'lumot berish; ▪ O'zbekistonning SHanxay Xamkorlik Tashkilotidagi o'rni.. Xalqaro terrorizm, 		<ul style="list-style-type: none"> ▪ O'zbekiston va jahon hamjamiyati. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga qo'shilishidagi demokratik tamoyillar haqida. Demokratik tartibotlar va uning asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; ▪ O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi. O'zbekistonning AQSH, Rossiya va boshqa Evropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligining funksiyalari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; ▪ O'zbekistonning SHanxay Xamkorlik Tashkilotidagi o'rni.. Xalqaro terrorizm, 	

<p>ekstremizm va separatizmga qarshi kurashda o'zaro hamkorlikning ahamiyati to'g'risida ma'lumot berish;</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik, hamjihatlik aloqalari bilan tanishtirish; ▪ Mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorligining istiqbollari xususida gapirish. 	<p>ekstremizm va separatizmga qarshi kurashda o'zaro hamkorlikning ahamiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar;</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik, hamjihatlik aloqalari bilan tanishadilar; ▪ Mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorligining istiqbollarini o'rganadilar.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, hamkorlikda o'qish, B.B.B. texnikasi.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor.
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va juft-juft bo'lib ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

<i>Ish jarayon lari vaqti</i>	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
I-bosqich. mavzuga kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Mashg'ulotning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalarini tushuntiradi.</p> <p>1.2. Har bir talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi.</p>	<p>O'UM ga qaraydilar</p> <p>Material larni ko'rib chiqadi.</p>
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	<p>2.1. Ekraniga BBB jadvali va u bilan ishlash qoidalari chiqariladi. Seminar rejasiga asoslangan holda ustunlarni to'ldirishni vazifa qilib beradi (2-ilova).</p>	<p>BBB jadvali ni chizib oladi, ustunlarni to'ldiradi.</p>
	<p>2.2. "Insert" texnikasidan foydalanilgan holda, ma'ruzada belgilangan belgilar asosida talabalarga quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi:</p> <p>1) Nimani ular bilishadi? (ya'ni mustaqil gapirib bera olishadi)</p> <p>2) Nima tushunarsiz bo'lib qoldi va o'zlashtirilmadi?</p> <p>3) Qanday qo'shimcha ma'lumot talab qilinadi?</p> <p>YUqoridagilardan kelib chiqib, uchinchi va to'rtinchi ustunni to'ldirish taklif etiladi, tayanch so'zlarning tartib raqamlari qo'yib chiqiladi (1-ilova)</p>	<p>Uchinchi va to'rtinchi ustun to'ldiriladi.</p>
	<p>2.3. Blits-so'rov orqali bir necha javoblar tinglanadi va juft-juft bo'lib ishlashni taklif qiladi.</p>	<p>Natijalarni o'qiydi.</p>
	<p>2.4. Talabalarning javoblarini umum-lashtirib, juft-juft bo'lib ishlash uchun topshiriqlar beradi:</p> <p>1) BBB jadvalining to'rtta ustunidagi javoblarni tahlil qiling;</p> <p>2) o'zlashtirilmagan savollarni umumlashtiring;</p> <p>3) birgalikda manbalardan javoblar izlab toping;</p> <p>4) javob berishga tayyorgarlik ko'ring;</p>	<p>Topshiriqni bajaradi. Javob beradi.</p>

	2.5. Javoblar tinglab bo‘lingach, slaydlar yordamida o‘quv mashg‘ulotining yoritilmagan qismlari tushuntiriladi (3-ilova).	Tinglaydilar. O‘UM ga qaraydilar
III-bosqich. YAkunlovchi. (10 min.)	3.1. Ma‘ruzaning har bir savoliga umumiy yakuniy xulosa beradi.	Eshitadi.
	3.2. Talabalarning faolligi baholash mezonlari orqali baholanadi.	Savollar beradi.
	3.3. Uyga vazifa beradi: “O‘zbekiston va MDH davlatlari: ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik alovalari” mavzusida esse yozib keling.	YOzib oladilar

1-ilova

<p>“Insert” texnikasining qoidasi</p> <p>1. Matnni o‘qib chiqing. 2. Olingan ma‘lumotlarni diqqat bilan o‘rganib, sohalarga ajrating. Qalam bilan har bir qatorga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing: V – bilaman; + – yangi ma‘lumot; – – bilganlarimga zid; ? – meni o‘ylantirmoqda.</p>

2-ilova

BBB jadvali

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1	2	3	4	5
1.	O‘zbekiston davlatining jahon hamjamiyati bilan aloqalari qanday huquqiy va amaliy prinsiplarga tayanadi?			
2.	Prezident I.A.Karimovning mustaqil O‘zbekistonni jahon hamjamiyati bilan tanitishda, hamkorlik aloqaarini o‘rnatishda qanday roli bor deb bilasiz?			
3.	Demokratik tartibotlar va uning asosiy yo‘nalishlari.			
4.	O‘zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy- siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy asoslari.			

Topshiriq – 1:

“O‘zbekiston va jahon hamjamiyati” mavzusida internet ma‘lumotlari tahlili.

Manba; WWW. MFA.UZ – Tashqi ishlar vazirligi sayti

Topshiriq – 2:

1- 2012 yil sentyabrdagi Qonun bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi” asosida taqdimot tayyorlash

2- Boshqa meyoriy hujjatlar bilan taqqoslash asosidagi tahlil tayyorlash

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

TAVSIYA ETILADIGAN MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI:

1. O'zbekistonda siyosi partiyalar va ijtimoiy harakatlarning vujudga kelishi va ularning dasturlarida insonparvarlik, milliy qadr-qimmat g'oyalarning vujudga kelishi.
2. O'zbekistonda milliy ongning o'sib borishi, o'zek tiliga davlat tili maqomini berilishi, mustaqillik yo'lidagi dastlabki qadamlar.
3. O'zbekistonda parlamentarizmning rivojlanishi.
4. Sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash masalalari.
5. Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari.
6. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi
7. O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'lida.
8. Demokratiya – O'zbekiston taraqqiyotning bosh yo'li.
9. O'zbekiston davlat ramzlarining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.
10. O'zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasi.
11. O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va uning siyosiy ahamiyati.
12. O'zbekistonda davlat hokimiyatining tashkil etilishi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari.
13. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi funksiyalari va faoliyati.
14. Demokratik jamiyat tushunchasi. Demokratiyaning xalqaro miqyosida e'tirof etilgan tamoyillari.
15. O'zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari, burchlari va ularning kafolatlari.
16. O'zbekistonda millatlar o'rtasida totuvlikning ta'minlanishi.
17. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotining o'tish zaruriyati, maqsadlari, shart-sharoitlari.
18. Respublikada bozor munosabatlarini shakllantirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish.
19. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishda davlatning roli.
20. O'zbekistonda Milliy istiqlol mafkurasining yaratilishi va uning demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati.
21. Ma'naviy merosni tiklash ma'naviy kamolotning muhim omili.
22. Demokratik jamiyatda fan taraqqiyotining o'ziga xos tamoyillari.
23. Diniy fundamentalizm ma'naviy kamolotning kushandasidir.
24. O'zbekistonning mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi va uning tamoyillari.
25. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi va xalqaro nufuzining ortishi.
26. O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabanning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

□ darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, seminar, ma'ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularini to'ldirishga harakat qilinishi lozim.

MUSTAQIL ISHNI TOPSHIRISH SHAKLLARI:

№	Mavzular	Mustaqil ish shakllari			
		Referat yozish (qo'lyozma)	Slaydlar tayyorlash	Test tuzish	Savol-javob tuzish
1		10 bet	15 ta	10 ta	14 ta
2		10 bet	15 ta	10 ta	14 ta
3		10 bet	15 ta	10 ta	14 ta
4		10 bet	15 ta	10 ta	14 ta
5		10 bet	15 ta	10 ta	14 ta

Ilova: 5 ta mustaqil ish mavzusi va uni bajarish shakllari 1 ta umumiy daftarga jamlangan bo'lishi kerak

GLOSSARIY

A

Abdikatsiya – lot. taxtdan, hokimiyatdan, lavozimdan voz kechish.

Abolitsionizm – (lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQSHda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolitsionist deb atalgan.

Absenteizm – (lot. qatnashmaslik) siyosiy ishtirokdan bosh tortish, siyosiy loqaydlik. U quyidagi sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin: shaxsda siyosiy madaniyat etarlicha shakllanmagani; guruxga mansublik xissining yo'qotilishi yoki umuman bo'lmaganligi; siyosiy institutlarga ishonchsizlikning nihoyatda kuchliligi; hokimiyatga ta'sir eta olmaslik xissi; hayotdan mamnunlik. YA'ni absenteizm hayotning ijtimoiy-siyosiy sharoitlaridan o'ta darajada qoniqmaslik yoki o'ta qoniqish natijasi bo'la oladi. SHunga ko'ra u hokimiyat ijtimoiy madaddan maxrumligini yoki siyosiy barqarorlikni anglatishi mumkin.

Avangard siyosiy – (fr. oldinda va qorovul) siyosiy hokimiyatga, uning mazmuniga, hamda maqsadlariga kuchli ta'sir ko'rsatish va siyosiy harakatga boshchilik qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning etakchi qismi.

Avangard partiyalar – partiyaning muayyan turi. U etakchilikka da'vo qiladi. Avangard partiyalar mamlakatdagi muammolarni hal qila olishi va jamiyatga samarali rahbarlik qila olishidan kelib chiqadi. Odatda, Avangard partiyalar uz mandatini inqiloblar, to'ntarishlar natijasida oladi va so'ngra, o'z faoliyatini legitimlashtirishga urinadi; davlat tuzilmalari bilan birlashishga harakat qiladi.

Avantyurizm - siyosiy bo'lmagan sohalarda shaxs va jamiyatning mustaqil rivojlanishiga imkon beruvchi, siyosat sohasida shaxs yoki guruxning yakka hukmronligi. Avtoritar siyosiy tizimda ayrim, asosan – siyosiy faoliyat turlari taqiqlanadi. Davlat shaxs erkinliklari, huquqlariga tajavuz qilmaydi, lekin ularning institutsional kafolatlari tizimini oxirigacha yaratmaydi. Bugungi kunda mavjud siyosiy tizim turlaridan eng qadimgisi. Bir kator afzalliklari va kamchiliklarga ega.

Avtarkiya – (gr. o'z-o'zini ta'minlamoq) ayrim davlatlar o'z xo'jaligini boshqa mamlakatlar ta'siridan ajratib mustaqil xo'jalik sifatida rivojlantirishga qaratilgan siyosat nomi. U mazkur mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xo'jalik aloqalarini o'z manfaatlariga bo'ysundirib, tovar importini cheklash va eksportni kuchaytirish kabilarni nazarda tutadi.

Avtonomiya – (gr. o'z-o'zini boshqarish, mustaqillik) – muxtoriyat; hokimiyatni mustaqil amalga oshirish yoki ma'lum xududda zich bo'lib yashayotgan alohida millat davlat ichida beriladigan keng o'z-o'zini boshqaruv.

Avtoritar – taabalik an'anasi – demokratik fuqarolik an'analardan farq qilib, fuqaro va davlat o'rtasida o'zaro mas'uliyatli munosabatlarni emas, fuqarolarning mas'uliyatini bir tomonlama o'z zimmasiga oluvchi munosabatlarni anglatadi.

Avtoritet siyosiy - (lot. qadr-qimmat, kuch) bir guruh ichida o'z a'zosining shaxsiy va ishbilarmonlik xislatlari tan olinishi darajasi. SHaxsning ijtimoiy guruh yoki jamiyatdagi ta'sirini, nufuzini aks ettiradi.

Aggregatsiya – (manfaatlar) siyosiy tizim funksiyasi. U xilma-xil talablar va manfaatlarni umumlashtirish, umumiy talablarni ishlab chiqish va ularni dolzarbligi, muhimligi nuqtai nazaridan pog'onalashtirish bilan bog'liq. Demokratik siyosiy tizimlarda bu vazifani manfaat guruhlar, jumladan, siyosiy partiyalar bajaradi.

Agrar – lot. erga oid, erga egalik qilishga, erdan foydalanishga taaluqli.

Agressiya – (lot. bosib olish) tajovuz, bosqinchilik, bir yoki bir necha davlatning biror davlat, xalq siyosiy mustaqilligi va suverenitetiga qarshi xarbiy kuchni noqonuniy tarzda qo'llashi. Agressiya to'g'ridan-to'g'ri, bivosita, qisman amalga oshirilishi mumkin. Har qanday vaziyatda u keskinlik ortishi, qurbonlar, siyosiy va. b. vaziyatlarning nobarkarorlashuviga olib kelishi mumkin. Xalqaro huquqda aggressiya uchun xalqaro huquqiy javobgarlik tamoyili amal qiladi.

Aralash tipdagi respublika – respublika boshqaruv shakllaridan biri. Unda prezidentlik va parlament respublikasi elementlari birgalikda mavjud: prezident umumxalq saylovida saylanadi; vakolatlari katta bo'ladi; hukumat parlament tomonidan tashkil etiladi. Ham prezident, ham parlament oldida hisobotli bo'ladi; oliy hokimiyatda uchinchi shaxs – premr-ministr, ya'ni hukumat boshlig'i ham mavjud bo'ladi.

Audiensiya – (lot. tinglash) davlat boshlig'i yoki yuqori lavozimli shaxslarning rasmiy qabul marosimi.

Axborot – o'zaro muloqat davomida odamlar bir-biriga beradigan yoki maxsus, hamda kommunikatsiya vositalari orqali tarqatiladigan ma'lumotlar. Tor ma'noda axborot-jamiyat hayotiga oid ahamiyatli, dolzarb faktlar haqidagi qisqa, sharxlanmaydigan ma'lumotlar. Keng ma'noda axborot-to'planadigan, saqlanadigan va qo'llanadigan xar qanday ma'lumotlar.

«**Axborot jamiyati**» **konsepsiyasi** – industrial va postindustrial jamiyat nazariyalarining davomi. Unga ko'ra ijtimoiy tizimlarni o'zgartirishning yangi omili sifatida informatika, kompyuterlar va elektronika chiqadi va ular negizida yangi sinflar va millatlardan yuqori ijtimoiy guruhlar (uyushmalar) vujudga keladi, ijtimoiy rivojlanish mexanizmlari o'zgaradi. Nazariyotchilari O.Tofler, J.Neysbit, E.Masuda va boshqalar. «Axborot jamiyati»da insonning barcha muammolari axborotdan global foydalanish hisobiga hal qilinadi.

Axborot agentliklari – matbuotda nashr etish, radio va televideniya orqali uzatish uchun axborotlarni to'plash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi tashkilot. Maqomiga ko'ra: hukumat agentliklari, kooperativ, xususiy, jamoatchilik agentliklari mavjud. Tarqatiladigan axborot xajmi va faoliyat ko'lamiga ko'ra- jahon Axborot agentligi (inglizlarning Reyter, fransuzlarning AFP); mintaqaviy va milliy Axborot agentliklari mavjud.

B

Baykot – ingl. iqtisodiy yoki siyosiy kurash vositasi bo‘lib, boshqa shaxslar, tashkilotlar, davlatlar bilan munosabatlardan to‘la yoki qisman voz kechish, qandaydir tashkilotlar ishida qatnashmaslik, qaysidir funktsiyani bajarmaslik yoki huquqdan foydalanmaslik, kimnidir xizmatidan voz kechish, munosabatni to‘xtatish, aloqani uzish.

Bashorat siyosiy – (ar. hushxabar) 1) siyosiy jarayon kelajagi to‘g‘risidagi siyosiy fikrlarning ishlab chiqilishi; 2) siyosiy hayot, uning jarayonlari, hodisalari rivojlanishining istiqbollari to‘g‘risidagi maxsus tadqiqot. Muvafaqiyatli siyosiy faoliyatning zarur sharti. Bashoratning boshqa turi (ijtimoiy, iqtisodiy, texnik v.h.) bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Hozirgi vaqtda fanning eng keyingi yutuqlari, zamonaviy usullariga asoslanadi.

Begonalashuv siyosiy – siyosiy sub‘ekt va uning biror funktsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikning, birlikning yo‘qolishi natijasida hosil bo‘ladigan munosabat. Begonalashuv sub‘ektga salbiy ta‘sir etadi, begonalashgan funktsiya buzilishi, salbiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Betaraflik – ikki tomondagi urushga aralashmaydigan va ular bilan tinch munosabatlarni saqlab qoladigan davlatning siyosiy-huquqiy holati.

Bikameralizm – parlamentning ikki palatali tizimi.

Biosiyosat – fiziologiya, genetika, biologiya, hulq, ekologiya va taraqqiyot falsafasi o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan zamonaviy nazariya. Biosiyosat inson va hayvonot dunyosi va tushunchalar umumiylikini tan olish asosiga quriladi. Biosiyosatning bosh ob‘ekti – inson hulqidir.

Bipatrid – ikki yoki bir nechta davlat fuqaroligiga ega shaxs.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, davlatlarning va millatlarning o‘zaro hamkorligini ta‘minlash maqsadida suveren davlatlar kuchlarini ixtiyoriy birlashtirish asosida ta‘sis etilgan universal xalqaro tashkilot. 1945 yilda Gitlerga qarshi koalitsiyaning etakchi davlatlari – SSSR, AQSH, xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya tomonidan tuzilgan.

BMTning asosiy maqsadi: «bo‘lajak avlodlarni urush ofatlaridan xalos etish» (BMT Ustavi). Asosiy tamoyillari: davlatlarning suveren tengligi, BMT Ustavi bo‘yicha majburiyatlarni vijdonan bajarilishi; xalqaro janjallarning tinch yo‘l bilan hal etilishi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va h.k.

BMTning bosh organlari: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Sotsial Kengash, Xalqaro sud va Kotibiyat (Bosh kotib Bosh Assambleya tomonidan Xavfsizlik Kengashi tavsiyasiga ko‘ra tayinlanadi). BMTning bosh shtab-kvartirasi – Nyu-York (AQSH)da, Evropa bo‘limlari – Jeneva (SHveysariya) va Vena (Avstriya)da.

BMT Bosh Assambleyasi (BMT BA) – BMTning bosh organlaridan biri. Uning tarkibiga BMTning barcha a‘zolari kiradi. U BMT Ustavi asosida barcha masalalarni muhokama qilishi va ular bo‘yicha tavsiyalar qabul qilishi mumkin. Bu tavsiyalar (tashkiliy va byudjetga taaluqlilaridan tashqari) majburiy tabiatga ega emas. BMT Nizomiga ko‘ra BA Xavfsizlik Kengashi hisobotlarni ko‘rib chiqadi, Iqtisodiy va Sotsial Kengash, Homiylik Kengashlariga muvaqqat a‘zolar tayinlaydi, Xalqaro sud sudyalari saylashda qatnashadi, BMT Bosh kotibini tayinlaydi, tashkilot byudjetini tasdiqlaydi.

BMT BA qarorlari ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Bixeviorizm – (ingl. hulq-atvor) Amerika ijtimoiy fanlaridagi yo‘nalish. U insonning hulq-atvori mativilarini, javob reaksiyalarini o‘rganish zarurligi, shu tariqa ijtimoiy fanlar o‘zlarining «gumanitar cheklanganligini» engib o‘tishi, hamda isbotlilik va aniqlik darajasiga ko‘ra tabiiy fanlarga yaqinlashuvi asoslanadi.

Blok siyosiy – ingl. davlatlar, siyosiy partiyalar, boshqa tashkilotlar birgalikda harakat qilish va qo‘yilgan maqsadlarga erishish tuzgan ittifoqi, bitimi; blok, ittifoq.

Boshqaruv – turli tizimlarning (biologik, ijtimoiy-siyosiy texnologik) funktsiyasi. U shu tizimlarning muayyan tuzilishini saqlab turadi, faoliyat tartibini ta‘minlaydi, dasturlar maqsadlarini amalga oshiradi.

Bumerang – ingl. biron narsa, tomon, shaxs va hakazoga qarshi qaratilgan dushmanona harakatning uni boshlagan narsa, tomon, shaxs va hakazoga qaytib kelishi.

Bundesrat – nem. GFRda erlar palatasi. Germaniya Erlari hukumatlarining uchdan beshtagacha vakillaridan iborat.

Bundestag – nem. GFR parlamenti. 1949 yilda tashkil etilgan. Aralash saylov tizimida 4 yillik muddatga saylanadi.

Buyuk davlatlar – siyosiy va xalqaro nutqqa 1814-1815 yillarda Vena Kongressidan so‘ng kirgan atama. U xalqaro siyosatda etakchi rol o‘ynaydigan davlatlarga nisbatan qo‘llanadi. Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng BMT Ustaviga ko‘ra SSSR (hozirgi Rossiya), AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy Buyuk davlatlar maqomiga ega va Xavfsizlik Kengashining doimiy a‘zolaridir. Bu mamlakatlarning o‘ziga xos maqomlari ularning tinchlik yo‘lidagi ma‘suliyatlaridan kelib chiqadi. O‘zbekiston Respublika Prezidenti I.A.Karimov Xavfsizlik Kengashining doimiy a‘zolari tarkibiga Germaniya va Yaponiyani kiritish tarkibi bilan chiqqan.

Byudjet – (ingl. sumka) davlatning muayyan bir davrdagi daromadlari va xarajatlarinig pul bilan ifodalangan rejasi. Davlat byudjeti mmlakatning oliy qonun chiqaruvchi organi tomonidan tasdiqlanadi.

Byurokratizm – (fr. devonxona hukmronligi) to‘rachilik, rasmiyatchilik; ishni cho‘zish, rasmiy talablarni bajarish bahonasida ishning mohiyatiga e‘tiborsizlik. Byurokratizm davlat boshqaruvi sohasida yorqin namoyon bo‘ladi. Hayotda u qog‘ozbozlik, san-salorlik, qo‘li ostidagilarga hurmatsizlikda ko‘rinadi. Byurokatiyani yo‘q qilishning sharti – boshqaruvga aloqador shaxslarning imtiyozli ijtimoiy mavqeiga barham berish, o‘z-o‘zini boshqaruvni rivojlantirish, hokimiyatni quyidan turib nazorat etish mexanizmlarini amaliyligiga erishish.

Byurokatiya – fr. o‘ziga xos funksiyalar va imtiyozlarga ega, boshqaruv bilan bog‘liq guruh, qatlam. M.Veber oqilona byurokatiya tushunchasini ishlab chiqdi: yuqori malakali, oqilona, qonunlar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi boshqaruv kadrlari tizimi.

V

Vazirlar Mahkamasi - mustaqil O‘zbekiston Respublikasi hukumati. 1992 yilda qabul qilingan konstitutsiyaga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi deyiladi. Uning a‘zolari Prezident tomonidan tavsiya etiladi va Oliy Majlis tomonidan besh yil muddatga tasdiqlanadi.

Vazirlik - O‘zbekiston xalq xo‘jaligining ijtimoiy,siyosiy va madaniy sohalaridagi tarmoqlarga rahbarlikni amalga oshiruvchi markaziy, davlat boshqaruvi organi.

Vakillik tizimi - jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini davlat boshqaruvi mexanizmlarini jalb qilish orqali hal qilishga qaratilgan maxsus siyosiy institutlar tizimi (siyosiy partiyalar, harakatlar v.h.).

Vakillik demokratiyasi - fuqarolarning davlatni boshqarishda, davlat va jamoat ishlarida o‘z vakillari orqali ishtirok etishi.

Vakillik hokimiyati - hokimiyatni amalga oshirishning bir turi. Vakillik hokimiyatini O‘zbekistonda Oliy Majlis va xalq deputatlari Kengashlari amalga oshiradi.

Valyuta – (lot. qiymat, baho) xalqaro iqtisodiy va boshqa pul hisobi bilan bog‘liq munosabatlarda ishtirok etuvchi mamlakatning pul birligi. Valyuta sifatida milliy pul birligi o‘zining xalqaro «bahosiga» ega va u valyuta kursida aks etadi. Valyuta kursini belgilash kotirovka deyiladi.

Vatan – (ar. ona-yurt) kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati.

Vatanparvarlik – kishining ahloqiy fazilati. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma‘naviy-ahloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. U vatan ravnaqi tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq.

Vatikan – lot. Rimda, Tibr daryosining o‘ng qirg‘og‘idagi tepalik nomi- papa boshqaruvi, rim papasi hokimiyati; katolik cherkovining hukmron qismi.

Verifikatsiya – (lot. haqiqiy qilmoq) guvohlik, haqiqiyilgining isboti. Respondent xabar beradigan ma‘lumotlarning aniqligini o‘lchash uchun zarur dalillarnei to‘plash, olish jarayoni.

Vesternlashuv – (ingl. g‘arblashuv) g‘arb qadriyatlari, institutlari va turmush tarzini aynan ko‘chirish, ularni tovarlar, madaniyat, axborot orqali butun dunyoga tarqatish.

Veto – (lot. taqiqlayman) davlat boshlig‘i yoki parlament oliy palatasining qonun chiqaruvchi tashkilot qabul qilgan qonunni kuchga kirishini bir muddatga to‘xtatib qo‘yish yoki uni kuchga kiritmaslik huquqi: mutloq veto, kechiktiruvchi veto.

Vijdon – insonning o‘z oldida, boshqa odamlar oldida, jamiyat va butun insoniyat oldida ma’suliyatni his etish, qadriyat.

G

Gangsterizm – (ingl. jinoyatchi, professional qotil) 1) uyushgan jinoyatchilik turi. U zo‘rluk, qotillik, qo‘rqitish, ta’magirlik, davlat amaldorlarini sotib olish va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Gangsterizm mafiya faoliyatiga bog‘liq; 2) gangsterlar siyosiy - har qanday vositalarni qo‘llayveradigan siyosatchilar.

Garant – (fr. kafil) kafolat beradigan va uning bajarilishini kuzatib turuvchi shaxs, tashkilot, davlat.

Gegemonlik – (gr. hukmronlik) rahbarlik, etakchilik, ustunlik; guruh, qatlam (sinf), davlat (davlatlar)ning boshqa guruh, qatlam(sinf), davlat (davlatlar) ustidan rahbarligi, hukmronligi, etakchiligi.

Genezis - gr. kelib chiqish, paydo bo‘lishi, rivojlanish jarayoni.

General-gubernator – (lot. asosiy, umumiy boshliq, boshliq) bir necha viloyat (guberna)ni o‘ziga birlashtirgan o‘lkaning harbiy va ma’muriy boshlig‘i. Angliya va Fransiyada 1960-yilga qadar podsho yoki prezident tomonidan mustamlaka mamlakatlarini boshqargan oliy mansabdor. Turk tilida shu ma’noda “beklarbegi” so‘zi qo‘llangan, ya’ni oliy bek. Temur zamonida(XIV-XV asrlarda) - oliy bosh qo‘mondon. XIX asrda Qo‘qon xonligida ham ushbu lavozim mavjud bo‘lgan.

Genotsid- (lot. o‘ldirmoq) xalqaro jinoyat turi. U aholining butun bir guruhlarini irqiy, milliy yoki diniy belgilariga ko‘ra jismonan yo‘q qilishdan iborat. Milliy-madaniy sohada millat, irq yoki diniy guruhning tili, dini, madaniyatini yo‘q qilish, shu jumladan ona tilidan kundalik muloqotda yoki maktabda foydalanish; ona tilida nashr tarqatish, kutubxona, muzey, maktab, tarixiy obidalar, diniy ahamiyatga ega binolarni yo‘q qilish. 1948-yilda BMT qabul qilgan Konvensiyaga binoan tinchlik yoki urush davrida sodir qilinishidan qat’iy nazar, xalqaro huquq qoidalarini buzuvchi jinoyat, deb hisoblangan.

Geografiya siyosiy – siyosiy kuchlarning joylashishi va hududiy uyg‘unligi, jamiyat siyosiy hayotiga geografik omillarning ta’siri to‘g‘risidagi fan.

Geosiyosat – davlat tashqi siyosati, xalqaro munosabatlarning geografik ahvol, iqlim, tabiiy resurslar, hudud, aholi soni va uning tarkibi bilan murakkab o‘zaro bog‘liqlikka egaligini tahlil qiluvchi siyosiy fan yo‘nalishi.

Geniy - daho. 1) Qadimgi Rim afsonasida - ruh, xudo, biror kishi yoki narsaga homiylik qiluvchi; 2) yuksak darajada iste’dodli kishi.

Gerb davlatniki – (nem. meros) davlatning rasmiy emblemasi, belgisi. Odatda, Konstitutsiyada qayd etiladi va bayroqlarda, pullarda, muhrlarda, ba’zi rasmiy xujjatlarda, bino v.h. tasvirlanadi.

Gildiya tizimi – (nem. korporatsiya) elitalarni shakllantirish tizimlaridan biri. Unga 1) epiklik, yuqori lavozimlarga elitaning quyi qatlamlaridan nomzod tanlash, yuqoriga siljishning pog‘onaviyligi; 2) lavozimlarni egallash uchun ko‘plab rasmiy shartlarning mavjudligi; 3) tanlovni alohida imtiyozli kichik guruh amalga oshirishi; 4) mavjud etakchi tipini tiklashga, yaratishga, saqlab qolishga harakat qilinishi.

Gipoteza – (gr. tahmin) ilmiy tadqiqot jarayonida biror hodisani tushuntirish uchun ilgari surilgan tahmin. Ilmiy nazariyaga aylanishi uchun qo‘shimcha tekshirishlar, tajriba, amaliyot natijalari bilan tasdiqlanishi kerak.

Gomogenlik – (gr. kelib chiqishi bir xil) asos e’tibori bilan, kelib chiqishi, hamda mohiyati jihatidan bir xil, bir turdagi, yagona.

Gumanizm - (lot. insonparvar) insonga muhxabat, uning qadr-qimmatini hurmat qilish, kishilar farovonligi va ularda yuksak ma’naviy sifatlarni rivojlantirish g‘oyalariga asoslanuvchi dunyoqarash.

Gumanitar - tabiiy fanlardan alohida, boshqa-boshqa ijtimoiy fanlar. Inson ongi, insonlar jamiyati, insonlar madaniyatiga taaluqli.

D

Davlat - (ar. komronlik, boylik, hokimyat) 1) keng ma'noda – muayyan hududda yashovchi va oliy hokimyat organi tomonidan taqdim etiluvchi va uyushtiriluvchi odamlar jamoasi. Bu ma'noda u mamlakat va xalqni ifodalaydi. Masalan, o'zbek davlati; 2) politologiyada, tor ma'noda - muayyan hududda oliy hokimyatga ega tashkilot, muassasalar tizimi. U boshqa siyosiy tashkilotlar bilan bir qatorda (masalan, siyosiy partiya, harakatlar) mavjud.

Davlat boshlig'i - davlatdagi ijro hokimyatining egasi va tashqi munosabatlarda oliy vakil.

Davlat organlari - davlat vazifalari, funksiyalarini amalga oshiruvchi muassasalar: boshqaruv organlari, sud va nazorat organlari, armiya.

Davlat ramzlari - har bir davlat konstitutsiyasi bilan belgilanadi. Ularga bayroq, gerb, madhiya, pul birligi kiradi.

Davlat funksiyalari - ichki va tashqi. *Ichki funksiyalariga*: iqtisodiy; ijtimoiy; xalq hokimyatini ta'minlash; konstitutsion tuzumni himoya qilish; qonunchilik va huquq tartibotni taminlash; jamiyatni birlashtirish ijtimoiy hakamlik; ekologik; madaniy-ma'rifiy. *Tashqi funksiyalarga*: global muammolarni hal etishda ishtirok etish; milliy xavfsizlikni ta'minlash; o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish; xalqaro munosabatlarda davlat munosabatlarini himoya qilish.

Davlat shakllari – davlatning ichki tuzilishiga oid uch tarkibiy qism birligi: boshqaruv shakli; davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi shakli; siyosiy rejim shakli.

Davlat hokimiyati - ijtimoiy hokimyat shakli. U maxsus kuch ishlatish apparatiga tayanadi va butun aholini qamraydi. Siyosiy hokimyatning oliy ko'rinishi. Belgilari: 1) ham tashkilot, ham shu tashkilot maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyat; 2) maxsus boshqaruv va zo'rlik apparatining mavjudligi.

Daosizm – (xit. yo'l) Xitoy falsafasidagi ikki asosiy oqimning biri. Eramizdan avvalgi 6-5 asrlarda shakllangan. Asoschisi Lao-Szo'. Tabiat bilan hamoxang yashashga undagan. U zulmga qarshi chiqadi, ibtidoiy munosabatlarga qaytishga undaydi.

Dauning strit - ingl. London markazidagi ko'cha nomi. Unda bosh vazir rezidensiyasi va Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirligi joylashgan. Ba'zan mamlakat hukumatini, Kabinetni nomlash uchun ham qullanadi.

Debatlar - fr. muhokama, tortishuv, fikr almashinuvi.

Parlament debatleri - deputatlar o'rtasida qonunchilik masalalari bo'yicha yoki hukumat faoliyati bo'yicha fikrlar almashinuvining rasmiy o'rnatilgan tartibi. Davlat hukumat faoliyatini matbuotda, namoyish va yig'inlarlarda jamoatchilik tomonidan muhokama qilingan holda ham qo'llanadi.

Devalvatsiya – (qiymatning pasayishi) milliy pul birligi qiymatining qonun bilan pasaytirilishi. U mamlaktlarning savdo va to'lov balanslari pasayib ketishi, valyuta zaxiralarining kamayib ketishi, milliy valyuta kursining tushib ketishi bilan bog'liq.

Dezinformatsiya – (fr. axborotni inkor etish) ijtimoiy fikrni chalg'itish maqsadida tarqatiladigan yolg'on ig'vo axborot.

Dendeologizatsiya – (lot. mafkurani bekor qilish) ijtimoiy qarama-qarshiliklar yo'q qilinishi bilan hozirgi dunyoda mafkuraning yo'q bo'lishini asoslovchi konsepsiya. Unga ko'ra ilmiy–texnik taraqqiyot muammolarni mafkura ta'siridan ham ilmiy va texnik vositalar bilan hal qilish imkonini beradi.

Deklaratsiya - (lot. bayon etuvchi, tushuntiruvchi) 1) xalqaro huquqda tomonlar tarafidan maqullangan umumiy tamoyillar va maqsadlar; 2) soliqqa tortiladigan fuqaroning daromadi haqidagi ma'lumotnomasi; 3) chegara orqali boylik yoki tovar olib o'tishda bojxonaga taqdim etiladigan bildirishnoma; 4) bayonot, davlat, hukumat bayonoti.

Deklarativ - umumiy, asoslanmagan, konkretlashtirilmagan bayonot.

Delimitlash – (lot. chegaralarni o'rnatish) davlat chegarasini, uning o'tish joylarini batafsil tavsiflash va boshqa davlat bilan bu haqida tuzilgan shartnomaga asosan uni xaritaga tushirish.

Demagog – (gr. xalqni ergashtiraman) o'z faoliyatida ko'pchilikni chalg'itadigan usullardan, demagogiyadan foydalanuvchi kishi; faqat o'z manfaatini ko'zlovchi siyosatchi.

Demagogiya - o‘zining siyosiy yoki boshqa g‘arazli maqsadlariga erishish uchun soxta va‘dalar berish, ko‘pchilikni jalb etuvchi shiorlarni o‘rtaga tashlash, xushomad qilish, faktlarni buzib ko‘rsatish orqali odamlarni sarosimaga solib ko‘yish maqsadida ularning hissiyoti va kayfiyatiga atayin ta‘sir qilish, prinspsiz siyosat yuritish.

Demarkatsiya – (fr. ajratib, cheklab qo‘yish) - chegaradosh davlatlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma va bitimlarga asosan davlat chegaralarini aniqlash va uni maxsus chegara belgilari bilan belgilash. Demarkatsiya chizig‘i - sulh tuzgan ikki dushman armiyasi o‘rtasidagi chiziq.

Demarsh – (fr. diplomatik chiqish) bir hukumat yoki uning idoralari boshqa hukumatga iltimos, norozilik, ogohlantirish va boshqa og‘zaki yoki yozma bayonotlar bilan murojot qilishi.

Demilitarizatsiya - (lot. harbiy... Q bekor qilinishi) biror davlat yoki uning ma‘lum bir hududining to‘la yoki qisman qurolsizlanishi. Davlatning qurolli kuchlarga, harbiy istehkom va bazalarga, harbiy sanoat va boshqalarga ega bo‘lishini to‘la yoki qisman taqiqlab qo‘yuvchi xalqaro shartnoma bilan belgilanadi.

Demiurg - (gr. bunyod etuvchi, yaratuvchi, faol, serg‘ayrat kuch) Qadimgi YUnonistonda oliy hukumat vakili.

Dilemma – (gr. ikki bor Q tahmin) 1) bir-birini inkor etadigan ikki yo‘nalishdagi fikr yoki xulosa; bunda uchinchi yo‘l bo‘lishi mumkun emas; 2) vaziyatlar, sharoitlar yig‘indisi bo‘lib, unda ikki qarordan bittasini tanlab olish kerak bo‘ladi.

Din - qadimgi somit va yahudiy tillaridan kelib chiqqan – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Ba‘zi dinlarning siyosiy mafkuraviy konsepsiyalari, ayrim davlatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida, xalqaro munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi.

Diniy e‘tiqod - dinning chinligiga iymon keltirish, diniy qoida, an‘ana, aqidalariga ishonish, “Narigi dunyoga” ga umid bog‘lash.

E

Evropotsentrizm - G‘arbiy Evropa madaniyati butun insoniyat uchun na‘muna, deb qarovchi konsepsiya. Unga ko‘ra G‘arbiy Evropa – jahon taraqqiyoti markazidir.

Etakchi siyosiy – xalq yoki biron ijtimoiy guruh manfaatlarini to‘la ifodalovchi va himoya qiluvchi, siyosiy arbobga zarur sifat, yig‘indisiga ega shaxs.

J

Jarayon siyosiy – jamiyat siyosiy tizimi shakllanishi, o‘zgarishi va faoliyat ko‘rsatishga bevosita ta‘sir etuvchi ijtimoiy sub‘ektlar faoliyatining uyg‘unligi.

Jamoatchilik fikri – bir tomondan, hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi siyosiy institut, ikkinchi tomondan, u yoki bu hodisalar, voqealar to‘g‘risida turli ijtimoiy guruh vakillarining o‘xshash fikr – mulohazalari.

Jamoa - (ar. hamma, umumiy, hammaga taaluqli) 1) kapitalizmga ishlab chiqarish vositalariga birgalikda egalik qiluvchi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariniham birgalikda ishlab chiqaruvchi ijtimoiy guruh, masalan: urug‘ jamoasi, qishloq jamoasi, oila jamoasi; 2)ba‘zi mamlakatlarda (masalan, Bolgariyada) - quyi ma‘muriy-hududiy birlik; 3) keng ma‘noda – har qanday ijtimoiy uyushma.

I

Ideal – (gr. tushuncha, tasavvur) barkamollik, u yoki bu sohadagi mukammallik; intilishlarning eng yuqori cho‘qqisi.

Ideal siyosiy – barkamol inson, jamiyat va boshqaruv haqidagi siyosiy qarashlar, tasavvurlar, g‘oyalar tizimi. U jamiyat oldiga qo‘yilgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vazifalarni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini va vositalarini aniqlash, hamda faoliyatning amaliy, to‘g‘ri yo‘nalishlarini topish ehtiyoji asosida vujudga keladi.

Identifikatsiya – (lot. o‘xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamoq) aniqlash, qiyosiy; tenglashtirish. Siyosiy identifikatsiya - u yoki bu siyosiy guruhga o‘zini boshqarishdan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

Ideokratiya – (gr. g‘oyalar hokimiyati) siyosiy qarorlar mafkuraviy tamoyillarga asosan qabul qilinuvchi, hamda siyosiy faoliyat mafkuraga asoslangan, ilohiylashgan siyosiy hokimiyat turi.

Ideologiya – (gr. g‘oya, ta‘limot) tasavvur va tushunchalar to‘g‘risidagi ta‘limot. Ijtimoiy ongning turli shakllarida (falsafa, siyosiy qarashlar, axloq, san‘at, din) ifodalangan tushuncha, tasavvur, g‘oyalar tizimi, mafkura.

Ideya – (gr. tushuncha, tasavvur, g‘oya) voqelikni kishi ongida aks etishi, ayni vaqtda insonni o‘zini o‘rab turgan predmet va hodisalarga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi tushuncha, g‘oya.

Idiografik fanlar – (gr. o‘ziga xos yozuv) hodisalarni, bo‘lib o‘tgan voqealarni, ya‘ni xususiy holatlarni har tomonlama o‘rganadi. Ideografik fanlar sirasiga tarix, geografiya, astronomiya singari fanlar kiradi.

Ierarxiya – gr. xizmat pog‘onasi quyidan yuqoriga qarab bir biriga qarab bir-biriga o‘tuvchi va ahamiyati ortib boruvchi mansab, unvonlar qatori.

Ijro etuvchi hokimiyat – davlat apparati ijro etuvchi organlari tizimi. Uning asosi – boshqaruv apparati va hukumat. Ushbu tizimning boshi – hukumat boshlig‘i. Ijro etuvchi hokimiyat bo‘linmalari siyosiy hokimiyatning tezkor, ixcham, samarali mexanizmidir. Lekin, uning haddan ortiq kuchayishi demokratiyaga putur etkazadi, byurokratiya hukmronligini oshirib yuboradi. Zamonaviy ijro etuvchi hokimiyat mohiyati – yagona umumiy davlat hokimiyatini bo‘lish zarurligidan kelib chiqadi. Bu tamoyil XVII-XVIII asrlarda Evropa, AKSH mutafakkirlari va siyosatchilari tomonidan nazariya va amaliyotda chuqur ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy vakolatlar tizimi – fuqarolar irodasining siyosiy qarorlar qabul qilish sohasiga o‘tishini ta‘minlovchi institut. U hokimiyat tizimi va boshqa uyushgan guruhlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq.

Ijtimoiy davlat – konstitutsiyaga binoan inson va fuqaroning iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari va erkinliklarini, hamda davlatning tegishli burchlarini kafolatlaydigan davlat.

Ijtimoiy (jamoatchilik) jamg‘armalar – a‘zoligi bo‘lmagan va o‘z mablag‘lari bo‘lmagan va o‘z mablag‘lari (mulk)ni ko‘ngilli badallar, qonunlar bilan taqiqlanmagan boshqa kirimlar hisobiga shakllantiruvchi, hamda ularni muayyan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltiruvchi tashkilot.

Ijtimoiy tashkilot – quyidan yuqoriga ichki tashkiliy tuzilmalarga ega, hamda qayd etiluvchi individual yoki guruhiy a‘zoligi mavjud fuqarolarning ko‘ngilli ittifoqi, uyushmasidir.

Ijtimoiy uyushmalar – fuqarolar manfaatlari umumiyligi va ixtiyoriylik asosida vujudga keluvchi, lekin o‘z faoliyati natijasida daromad olishni ko‘zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma‘rifiy, sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, jamg‘armalar, assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko‘ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir. Mavjud siyosiy hayotni o‘zgartirishiga yoki unga ta‘sir etishiga urinuvchi ijtimoiy uyushmalar siyosiy, deb qaraladi.

Ijtimoiy qatlamlashish – ma‘lumoti, daromadi, maishiy sharoiti, mashg‘uloti, psixologiyasi, diniy e‘tiqodi va h.k. belgilarga ko‘ra jamiyatning sinflar, qatlamlarga bo‘linish tizimi. Ijtimoiy qatlamlashish ijtimoiy tenglik va tengsizlik, jamiyatda mavjud ko‘plab ijtimoiy tuzilmalarning hokimiyatga moddiy boyliklar, imtiyozlar, huquqlar, maqomlarga egaligi va yoki ta‘siri turlichaligi bilan ajralib turuvchi munosabatlar tizimi. Bu tushuncha har bir muayyan jamiyatda doimo mavjud bo‘lgan va ijtimoiy munosabatlar ta‘sirida vujudga kelgan tengsizlik munosabatlarini aks ettiradi.

Ijtimoiy harakatlar – muayyan ijtimoiy maqsadlarga intiluvchi, lekin tugal tashkiliy tuzilmalarga va qayd etiluvchi a‘zolikka ega bo‘lmagan fuqarolarning birgalikdagi faoliyatidir. Partiyalar, jamg‘armalar va h.k. ijtimoiy tashkilotlardan farqli harakat rahbarlikning aniq tamoyillariga va faoliyatining kompleks dasturiga ega emas. Harakatning asosiy maqsadi – umumiy tushunchalar (masalan, erkinlik, tenglik, adolat, tiklanish, xavfsizlik singari) orqali ifodalanadi.

Ijtimoiylashuv agentlari – insonni siyosatga jalb etishni amalga oshiradigan ijtimoiy tuzilmalar.

Ijtimoiylashuv siyosiy – individ jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida faoliyat ko‘rsatishiga imkon beruvchi muayyan bilimlar, me‘yorlar, qadriyatlarni o‘zlashtirilishi jarayoni. Inson o‘z hayoti davomida jamiyatdagi o‘z maqomi va rolga ko‘ra hulk-atvorni, madaniy qadriyatlar va me‘yorlarni o‘zlashtiradi. Bu jarayon unda siyosiy tizimga moslashish va unda muayyan

funksiyalarni bajarishga doir sifatlar va ko'nikmalar shakllanishiga olib keladi. Ana shu jarayon ijtimoiy fanlarda siyosiy ijtimoiylashuv deyiladi.

Ikki partiyaviy tizim – partiyaviy tizim ko'rinishi. U hokimiyat uchun kurash ikki yirik partiya o'rtasida kechishi va ularning hukmron hamda muxolif partiya sifatida o'rin almashinib turishi bilan ajralib turadi. Ikki partiyaviy tizim yana boshqa partiyalar mavjudligini istisno qilmaydi, lekin kichik partiyalarning davlat boshqaruvida ishtiroki uchun imkon qoldirmaydi. Fransuz politologi J.L.Shabo turkumlashuviga ko'ra mukammal ikki partiyaviy tizim va nomukammal (ikki yarim) partiyaviy tizimlar ajratiladi.

Imperator – (lot. hukmdor) e. av. 510-530 yillarda, Rim respublikasida urushdan g'alaba bilan qaytib kelgan sarkardalarga askarlar tomonidan berilgan faxriy unvon; Aktavian Avgust davrida – davlat boshlig'i; yirik monarxik davlatlar: Xitoy, Rim imperiyasi, Vizantiya, Rossiya (1721 yildan), Fransiya va Germaniya (1771 yildan) boshliqlari shunday deb nomlagan. Imperator – davlatning butun ishlarini o'z qo'lida tutgan hokimi mutlaq bo'lgan.

Imperiya – (lot. hokimiyat) to'liq hokimiyat, davlat – tepasida imperator turgan yirik mustabid davlat.

Insonparvarlik – insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, qadr-qimmati, adolatli hayotini ta'min etishga intilish. Insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish, uning yashash, erkin rivojlanish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish va baxtga intilish huquqlarini e'tirof etishni nazarda tutadi. Insonparvarlik – universal tamoyil sifatida odamlarni kelib chiqishi, millati, dini v.b. sifatlariga ko'ra ajratmaydi, zaiflarga yordam ko'rsatishni talab etadi. Siyosatda insonparvarlik – siyosatning shakli, mazmuni, maqsad va vositalarida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda eng insonparvar siyosat shakli – demokratik siyosiy tizimdir.

Inson huquqlari – shaxsga o'z ixtiyoriga ko'ra faoliyat ko'rsatish (erkinliklar) yoki muayyan imtiyozlarga ega bo'lish (huquqlar) imkoniyatini beruvchi individ va davlat o'rtasidagi munosabatlar, tamoyillar, me'yorlardir.

Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1948 yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy xujjat.

Institut – lot. muassasa, qoida ijtimoiy agentlarning sistemalashgan, barchaga ma'lum, amalda qo'llanuvchi (va ba'zan rasman qayd etilgan bo'lsa-da) e'tirof etilgan o'zaro ta'sir aloqalar shakli. Institut o'zaro ta'sir-alloqalarni ushbu shakllarda belgilangan qoidalar va me'yorlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Ba'zan, lekin har doim emas, institutlar rasmiy tashkilotga aylanadi: moddiy belgilarga ega bo'ladi (bino, muhr, faoliyat tartibi, tashkilot nomidan so'zlash huquqiga ega shaxslar). Siyosiy va siyosiy bo'lmagan institutlar o'rtasida farq juda nisbiy. Ular mamalkatlar, davrlar, vaziyatga qarab o'zgaradi (davlat, din, armiya, ta'lim tizimi). Muayyan siyosiy institutlar rasmiy tashkilot sifatida jamiyat konstitutsiyasi bilan belgilanadi: masalan, O'zbekistonda Oliy Majlis, sud tizimi, siyosiy partiyalar; boshqalari, masalan, saylovlar, referendumlar davriy tabiatga ega bo'lib, lekin ular ham demokratiyaning eng muhim institutlaridir.

Institutsionallashuv – rasmiylashgan, barcha e'tirof etgan qoidalar, qonunlar, an'ana va marosimlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning barqaror na'munalarning shakllanishi.

Instansiya – (lot. nabatdagi) asosan davlat boshqaruvi (sud, ma'muriyat), shuningdek, partiyaviy va nisbiy muassasalarda yuqoridan itoat etuvchi organlar tizimidagi har bir bo'g'in.

Integratsiya siyosiy – (lot. yaxlit) qismlarni siyosiy birlik, tizimga o'zaro birlashtiradi, muvofiqlashtirish; ijtimoiy guruhlar tomonidan siyosiy elementlar muvozanatini, muayyan barqarorligini tutib turish shakli; siyosiy tizim va uning tarkibiy qismlarining ichki va tashqi emiruvchi omillar (vositalar)ga qarshi tura olish qobiliyati.

Inflyasiya – (lot. shishmoq) muomiladagi qog'oz pullar xajmining tovarlar xajmiga nisbatan ortib ketishi natijasida pulning qadrsizlanishi.

Infrastruktura – sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yordamchi xo'jalik tarmoqlari birligi.

Intriga – (lot. adashtirmoq) 1) kirdikor; xiyla-nayrang; g'arazli maqsad bilan yashirin qilinadigan harakat.

Insident – (lot. ro'y beruvchi) odatda ko'ngilsiz tabiatga ega voqea, hodisa, to'qnashuv.

Inqiroz – (gr. qaror, hukm, qat’iy yakun) 1) keskin o‘zgarish, burilish, og‘ir o‘tish holati; 2) siyosiy inqiroz – mamlakatdagi yalpi norozilik va g‘azab holati; siyosiy tizimning moslashishi funksiyasi bajarilmasligi bilan bog‘liq barqarorlik yo‘qotilishi holati.

K

«**Kamolot jamg‘armasi**» --- O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy harakati.

Kayfiyat siyosiy – siyosiy psixologiyaning o‘zgaruvchi, dinamik elementlaridan biri. U odamlarning emotsional-ruhiy holatini aks ettiradi. Mazmuniga ko‘ra u odamlarning ehtiyojlari bilan ularning amaliy imkoniyatlari, ish va hayot sharoitlari o‘rtasidagi nomutunosiblikning u yoki bu darajasini aks ettiradi va ijtimoiy siyosiy ahvoldan ruhiy qoniqish, qoniqmaslik, befarqlik tarzida nomoyon bo‘ladi. Siyosatda siyosiy kayfiyat muhim rol o‘ynaydi.

Kanton – fr. 1) SHveysariya respublikasi tarkibiga kiruvchi har bir alohida davlat; 2) Fransiya va Belgiyadagi kichik ma‘muriy birlik.

Kansler - nem. 1) O‘rta asrlarda Evropa davlatlarida qirol devonxonasi va arxivi boshlig‘i; 2) SHveysariyada kantonlar kengashi kotibi; 3) Buyuk Britaniyada lordlar palatasi raisi (lord-kansler) va moliya vaziri; 4) CHor Rossiyasida - oliy fuqorolik lavozimi; 5) 1945-yilgacha Germaniyada reyxkansler - bosh vazir.

Kapitan siyosiy – (fr-ingl. bosh) shaxs, partiya, ijtimoiy harakatning siyosiy faoliyat tajribasi, siyosiy obro‘-e‘tiborli va avvalgi muvafaqiyatlari birligi.

Kategoriya - (gr. hukm, ta‘rif) so‘zlashuv tilida tur, sinf, daraja, ma‘nolarida. Eng umumiy mantiqiy tushuncha, borliqning asosiy shakllari va munosabatlarini aks ettiradi.

Kategoriyalashtirish - bir xil hodisalarga tegishli tushunchalarni guruhlash jarayoni kategoriyalashtirish konseptual ahamiyatga ega, negaki ular o‘z atrofida boshqa tushunchalar guruhlarini yoki subkategoriyalarni birlashtira oladilar.

Kauzallik – lot. sabab bilan belgilanganlik, sabab va faoliyatning qonuniy aloqasi. Tamoyil (yoki qonun) sifatida kauzallik quyidagilarni anglatadi: har bir hodisa sababga ega (biror sabab bilan sodir bo‘lgan) va ayni vaqtda, boshqa hodisaning sababidir; sababsiz hech narsa paydo bo‘lmaydi.

Kvazi... – lot. turli so‘zlar boshiga qo‘yiluvchi va «go‘yo», «sohta» ma‘nolarini beruvchi qo‘shimcha. Masalan, kvazidemokratiya.

Kvalifikatsion ko‘pchilik – eng muhim masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish uchun belgilanuvchi, ishtirokchilarning 23 yoki 34 qismining bergan ovozlari.

Kvota – (lot. qancha) qism, ulush, me‘yor; Saylov kvotasi – bir saylov okrugida bir nomzod saylanishi uchun zarur bo‘lgan ovozlar miqdori.

Klan-kelt - SHatlandiyada urug‘ jamoasi; keng ma‘noda - urug‘ yoki maishiy ma‘noda - jipstlashgan qarindoshlar guruhi, urug‘ning sinonimi.

Klassifikatsiya – (lot. tasnif) predmetlar, hodisalar va tushunchalarni sinflar, bo‘limlar, darajalar bo‘yicha, ularning umumiy belgilari, xususiyatlariga ko‘ra taqsimlash (tur, bo‘limlarga kiritmoq). Klassifikatsiya bir xillik va o‘xshashlikka quriladi.

Klerikkal partiyalar – lot. XIX asrda shakllangan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida din va cherkov ta‘sirini kuchaytirishga intiluvchi siyosiy partiyalar.

Koalitsiya – (lot. birlashgan) muayyan maqsadlarga erishish uchun davlatlar, siyosiy partiyalar yoki boshqa tashkilotlar birlashuvi, ittifoqi.

Koalitsion hukumat - parlamentar davlatlarda parlament deputatlari o‘rni turli partiyalar o‘rtasida bo‘linib ketganda, biror partiyaning yakka partiyaviy hukumat tuzish imkoniyati bo‘lmaganda bir necha hukumatdagi o‘rinni partiyalar ichida taqsimlanishi asosida vujudga keluvchi hukumat.

Komissiya - muayyan masala yuzasidan tuzilgan muvaqqat yoki doimiy tashkilot.

Kommunikatsiya – lot. xabar, aloqa, xabar berish yo‘li.

Kompaniya – fr. qandaydir maqsadga qaratilgan ishchilar tadbirkorlar harakatlari.

Kompaniyasi (saylov) - 1) saylov jarayonlarini bevosita ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy, siyosiy, axborot, tashviqot tadbirlari biriligi; 2) muayyan nomzod partiya g‘alabasini ta‘minlashga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Kompendium – (lot, qisqartirish) biror fan, tadqiqot v.h. ning asosiy mazmunining qisqacha bayoni.

Kompetentlik siyosiy faoliyatda – (lot. qobiliyati bor) siyosiy rahbar, jamoat arbobi yoki hokimiyat organlarining muayyan sifatleri uyg'unligi. Bunday sifatlarga odamlarning siyosiy qiziqishlari, amal qilayotgan siyosiy vaziyatni keltirib chiqargan sabablarni bilish, siyosiy munosabatlar tizimi, siyosiy tashkilotlar o'zaro aloqadorligini tahlil qila olish, u yoki bu harakatlar oqibatini oldindan ko'ra olish kabilar kiradi.

Konstitutsiya - asosiy qonun, eng yuqori kuchga ega xujjat. U mamlakatning ijtimoiy va davlat tizimini, saylov tizimini, davlat hokimiyati organlarining tuzilishi va faoliyat prinsiplarini, boshqarish usullarini, fuqorolarning asosiy huquq va burchlarini belgilab beradi.

Konstitutsion burch - fuqorolarning konstitutsiyada belgilab qo'yilgan, fuqorolar bajarishlari shart bo'lgan majburiyatlari.

Konstitutsionalizm - Konsitutsiya asosida faoliyat ko'rsatadigan siyosiy tizim.

Konstitutsiyaviy monarxiya - boshqaruv shakllaridan biri. Unda mutloq hokimiyat konstitutsiya bilan cheklangan bo'ladi, saylanadigan parlament va mustaqil sud amal qiladi.

Konfederatsiya - lot. 1) ittifoq, hamjamiyat, qandaydir tashkilotlar birlashuvi; 2) mustaqil (suveren) davlatlar ittifoqi, ular bir yoki bir nechta organ tomonidan birlashtiriladi.

Konfessional – (lot. iqror) diniy. Masalan, dunyoviydan farq qiluvchi konfessional maktab.

Konformizm – (lot. o'xshash) moslashuv; mavjud tartib, hukumon g'oyalar v.h. larni sust qabul qilish; o'z nuqtai nazariga ega bo'lmaslik.

Konfidensial – fr. bir siyosiy kuch ikkinchisiga qarama-qarshi turgan vaziyatda siyosat borasidagi qarshi turish, keskinlikning kuchayishi.

Konsepsiya – (lot. idrok etish) 1)u yoki bu hodisaga nisbatan qarashlar tizimi; hodisalarni o'rganish, anglash usuli; 2)olim, san'atkor, yozuvchining umumiy maqsadi.

Konseptuallashtirish – ma'lumotlarni, har bir alohida holat, g'oya, hodisa, uning orqasida turgan narsani, mazmunini nomlash.

Konsorsium – (lot. birga ishtirok etish) muayyan qo'shma tadbirlar o'tkazish, maqsadida sanoat firmalari yoki banklari o'rtasida tuziladigan bitim. Monopoliya shakllaridan biri.

Kooptatsiya – (lot. saylash, tanlov, qo'shimcha tanlov) saylanadigan organ tarkibini qo'shimcha saylov o'tkazmasdan to'ldirish.

Korporatsiya – (lot. hamjamiyat) ittifoq, birlashma, jamiyat. Xususiy, guruhiy, kasbiy manfaatlar asosida birlashish.

Korporativlik – jamiyatni tashkil etishning shunday modeliki, uning birlamchi elementlari sifatida individlar emas, iqtisodiy va funksional guruhlar chiqadi. Markaziy hokimiyat korporatsiyalarga birlashgan ana shu guruhlar vakillaridan tuziladi.

Ko'p partiyaviylik – partiyaviy tizim turlaridan biri. Odatda ikki ko'rinishi ajratiladi: 1)kuchli etakchi partiyasi mavjud ko'ppartiyaviy tizim (YAponiya, Skandinaviya davlatlari) – unga bir etakchi partiyaning muntazam ravishda saylovchilarning ko'pchiligini ovozini olish xos va qolgan partiyalar unga samarali qarshi turishlari uchun koalitsiyaga birlashishlari zarur (ammo bu koalitsiyalar, odatda, qisqa muddatli) va 2)partiyalar soni ikkitadan ko'p tizim.

L

Legallashtirish - faoliyatiga ruxsat berish, uni qonunlashtirish.

Legitimlik – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimiyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo'ladi.

Liberalizm – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o'tuvchi hokimiyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o'zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilari I.Bentam, J.Mill, A.Smit, G.Spenser).

Liga – (fr. bog'lamoq) ittifoq, birlashma.

Lider - ingl. rahbar, etakchi, yo'l boshlovchi.

Lobbizm – (ingl. kuloaro‘) parlament a‘zolariga shaxsan yoki bivosita (maktublar, OAV, reklama, ommaviy chiqishlar, bayonotlar) orqali tazyiq, bosim o‘tkazish.

Loyyal – (ingl. sodiq) 1) qonunga amal qiluvchi; 2) kimgadir yoki nimagadir vijdonan munosabatda bo‘lish.

Lokallashtirish – (lot. mahalliy) biror hodisa, harakat va hakazolarni ma‘lum joy bilan cheklash, uning muayyan hududdan, joydan chetga chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Longitied tadqiqot – (ingl. uzoqlik) bir xil shaxslar, guruh yoki ob‘ektlarni uzoq vaqt kuzatish va ma‘lum bir davr o‘tgach ular orasidagi so‘rovni qayta o‘tkazish, natijalarni avvalgilari bilan qiyoslashga asoslangan tadqiqod usuli.

Liberallashuv - qiyosiy politologiyada davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarini qamrovchi, hukmron elita nazorati ostidagi avtoritar tizimning qisman “ochilishi”. U demokratlashuv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi sifatida qaraladi.

Libertarizm - davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga aralashmasligi, bu bozor munosabatlari sohasi ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani targ‘ib qiluvchi konsepsiya. ”CHikago maktabi” vakillari (O.Fridman, G.Bekker, A.Laffer, P.K.Robertelar) tomonidan faol qo‘llanadi.

M

Madaniyat (siyosiy) - inson siyosiy hokimiyat to‘g‘risidagi qadriyat (tub) tasavvurlari negizida shakllanuvchi davlat bilan munosabatlari, amaliy faoliyati barqaror shakllari, ya‘ni siyosiy hokimiyat sohasidagi inson faoliyati uslubidir.

Majoritar saylov tizimi – (lot. ko‘pchilik) saylov okrugi bo‘yicha ko‘pchilik ovoz olgan nomzodning g‘olib deb hisoblanishi faqat ko‘pchilik ovoz olgan nomzod uchun berilgan ovozlar hisobga olinuvchi saylov turi. Mutloq (50% □ 1) va nisbiy majoritar saylov tizimlari ajratiladi.

Makiavellizm – Makiavelli (1469-1527) ismidan kelib chiqqan; o‘z maqsadlariga erishish uchun har qanday makkor vositalardan qaytmaydigan siyosat.

Maksimalizm – (lot. eng ko‘p) talablarni haddan oshirib yuborish.

Makkartizm – (amer. senator Makkarti nomidan olingan) kommunistmga qarshi, xususan, AQSH komunistlariga qarshi ”sovuq urush yillarida” qo‘rqitish, tahdid, sud jazosi kabi usullarni qo‘llash bilan bog‘liq siyosat.

Maltuschilik – Maltus (1766-1834) nomidan olingan nazariya. Unga ko‘ra yashash uchun zarur manbalar aholi soniga nisbatan (geometrik progressiya) sekinroq o‘sishi (arifmetik progressiya) tufayli ochlik, qashshoqlik vujudga kelishini asoslaydi. Urushlar va epidemiyalar bu muammolarni hal qilish vositalari sifatida oqlanadi.

Manipulyasiya – (fr. ustalik bilan ishlatilgan hiyla; nayrang ishlatish) odamlarning tafakkurini ularning manfaatlariga zid ravishda o‘zgartirishning mafkuraviy, ruhiy usullari tizimi.

Manifest – (lot. oshkora) 1) muhim siyosiy voqea munosabati bilan aholiga oliy hokimiyatning tantanali, yozma murojati; 2) siyosiy partiya, jamoat tashkiloti, va hokazolarning o‘z qarashlari, dasturlari, qarorlarini bayon qilib yozgan murojaati.

Manifestatsiya – (lot. namoyon bo‘lish) ommaviy ravishda birdamlik, norzilik yoki madadni ifoda qilish.

Manfaat guruhlari – fuqarolar o‘zlarining davlat bilan munosabatlarida hokimiyatga doir manfaatlarini bayon etish yoki himoya qilishi uchun ihtiyoriy tarzda birlashgan maxsus yoki moslashtirilgan tashkilotlari. Ular siyosiy partiyalardan maqsadlari, faoliyat usullari, hokimiyatga ta‘sir resurslari va boshqa belgilariga ko‘ra farq qiladi.

Manfaat siyosiy - hokimiyat bilan bog‘liq, sub‘ekt (ob‘ekt) hayotining ijtimoiy (moddiy, milliy siyosiy) sharoitlarini o‘zgartirish (saqlab qolish) asosidagi ongli (anglangan) ehtiyoj.

Marginal – (lot. chet, chekka) shaxs, ijtimoiy qatlam yoki guruh muayyan jamiyat uchun xos tuzilmalar, ijtimoiy-madaniy me‘yorlar, siyosiy an‘analar, xususiyatlarining ayrimlarini yoki barchasini yo‘qotish. U aholi va indvidlarning jamiyat tarkibida gorizont va vertikal ko‘chishi imkonyatlari kengayishi bilan bog‘liq.

Marketing – (ingl. bozor) bozor qoidalarini bilish, ularga moslashish va unga ta‘sir qilishning zamonaviy usullarini qo‘llash.

Marketing siyosiy – siyosatni siyosatchi va xalq, nomzod va saylovchi o‘rtasidagi ratsional munosabatlar tarzida tushunishdan kelib chiqib, etakchilikka da’vogar shaxsning sifatleri va fazilatlarini saylovchilarga (fuqarolarga) ma’qul tarzda ko‘rsatish.

Markazlashuv – mahalliy bo‘g‘imlarning oliy hokimiyat organlariga bo‘ysunishiga asoslangan boshqaruv tizimi. Butun tizim yagona markazdan boshqariladi. Hokimiyatdagi doimiy tendensiyalardan biri.

Matematik modellashirish – ijtimoiy borliq xususiyatlarini matematik tilda bayon etish imkonini beruvchi empirik tadqiqod usullaridan biri. Borliqning tadqiqodchi uchun ahamiyatli tomonlarini lo‘nda va abstrakt shaklda aks ettiradi; tadqiq qilinayotgan masalaning asosiy muammolarini aniq tasavvur etish; sifatiy usullar yordamida olib bo‘lmaydigan xulosalarga kelish imkonini beradi; tahlil uchun elektron texnikasidan faol foydalanishga asoslanadi.

Mafkura – (ar. qarash, fikr) jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy fikrlar, qarashlar, fikrlar, g‘oyalar majmui.

Ma‘muriyat – 1)ijro etuvchi hokimiyat boshqaruv organlari; 2)muassasa, korxonaning lavozimli kishisi, rahbarlari.

Ma‘muriyatchilik – buyruqbozlik, rasmiyatchilik, byurakratlaracha rahbarlik qilish, boshqarish.

Maqom siyosiy – insonning jamiyat siyosiy tizimidagi o‘rni, uning ajralmas siyosiy huquqlar va erkinliklari birligi.

Memorandum – (lot. nimani yodda tutish lozim) xalqaro munosabatlarda – diplomatik suhbat chog‘ida ko‘riluvchi masalalar yozilgan varoq. Memorandum nota mazmunini asoslash uchun unga ilova qilinadi yoki mustaqil xujjat sifatida imzosiz va muhrsiz taqdim qilinadi.

Mentalitet – (lot. tafkkur, fikrlash tarzi) dunyoni muayyan tarzda qabul qilish, his etish, fikrlash, faoliyat ko‘rsatishga shaxs, guruh, jamoa, millat, jamiyatning tayyorligi, moyilligi. U an‘analalar, rasm-rusum, diniy e‘tiqod va irimlarni ham qamrab oladi.

Meritokratiya – (lot. munosib va gr. hokimiyat) shaxsiy xizmatlariga ko‘ra saylanuvchi hukumat boshqaradigan jamiyat. 1958 yilda ingliz sotsiologi M.YAng tomonidan kiritilgan, 1973 yilda D.Bellning ”postindustrial jamiyat shakllanishi” asaridan so‘ng byurakratiya va texnokratiyani yo‘q qilish, shuningdek, jamiyatning sinfiy tarkibini o‘zgartirish imkonini beruvchi jamiyatni boshqarishning yangi tamoyili sifatida qarala boshlandi.

Metodologiya – (gr. tadqiqod va ta‘limot usullari to‘g‘risida ta‘limot) bilishning qurollari, vositalari, yo‘llari bo‘lib, ilmiy tadqiqotning umumiy strategiyasini tashkil etadi. Metodologiya turli metodlarni tadqiqotda qo‘llash, ilmiy muammoni to‘g‘ri qo‘ya bilish, uni to‘g‘ri bayon etish; ushbu muammoga to‘g‘ri yondoshuvlarni to‘g‘ri tanlay bilish kabi masalalar bilan bog‘liqdir.

Migratsiya – lot. joyini o‘zgartirish, ko‘chish (aholi, jonzotlarning) siljishi, harakati.

Millat – ar. ma‘lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib kelgan, kishilarning ma‘naviy-ruhiy birligi.

Millatlararo ziddiyatlar – ijtimoiy ziddiyatlarning o‘ziga xos, etnik ko‘rinishi.

Millat siyosiy – siyosiy tizim rivojlanishi, ustivor qadriyatlari, me‘yorlari, maqsadlariga doir yakdil bo‘lgan fuqarolar birligi.

Millatchilik – umumiy madaniy an‘analarga asoslangan yagona til (yoki yaqin dialektlar), urf-odatlar, manfaatlar, milliy ramzlar, institutsional birdamlik (yagona hukumat, davlat yoki millat suvereniteti, hududiy yaxlitlik), odamlar ongida millatga mansublik bilan bog‘liq loyallik va umumiy hislar yoki iroda tamoyili, mafkura. Millatchilikning vujudga kelishi Fransuz Inqilobi va Evropada Napoleon ekspansiyasi bilan bog‘lanadi. Politologiyada millatchilik va rivojlanish tushunchalari o‘zaro bog‘liq holda keladi.

Milliy mafkura – fuqarolarning o‘z ijtimoiy maqomini oshirish bilan bog‘liq manfaatlari milliy mansublik bilan bog‘lanadigan mafkuralar.

Milliy siyosat – davlatning muayyan siyosiy xujjatlari va huquqiy qoidalarida aks ettirilgan, millatlar va elatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi maqsadli faoliyat.

Milliy xavfsizlik – davlatlarning qadriyatlari va manfaatlari, bu manfaat va qadriyatlarga solinayotgan tahdidlar, hamda ana shu qadriyat va manfaatlarni amalda mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflardan himoya qilish usullari borasida rasmiy qabul qilingan qarorlar tizimi.

Milliy xavfsizlik konsepsiyasi – davlatning qadriyatlari va manfaatlari, bu qadriyatlar va manfaatlar uchun mavjud tahdidlar, hamda ularni amalda mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflardan himoya qilish usullari borasida rasmiy qabul qilingan qarorlar tizimi.

Miting - qandaydir masalani hal etish, echimini topish uchun chaqirilgan yig‘in. Uning maqsadi munozara emas, odamlarni amaliy harakatga o‘tishlari uchun ruhan tayyorlash.

Muhojirlar – (ar. ko‘chib kelganlar) o‘z vatanidan butunlay yoki ma‘lum muddatga iqtisodiy, siyosiy, boshqa sabablarga ko‘ra ihtiyoriy yoki majburiy chiqib ketgan fuqarolar.

N

Nazariya – ilmiy tadqiqot sohasida amaliyot bilan deb hisoblanuvchi umumlashuvlar tamoyillar birligi. Uning qirralarini konsepsiyalar, umulashmalar, turlar va darajalar, yondashuvlar, modellar, paradegmalar tashkil etadi.

NATO – SHimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti, harbiy-siyosiy ittifoq, 1949 yil 4 aprelda tuzilgan. Oliy organ - NATO sessiyasi, shtab-kvartirasi Bryussel (Belgiya)da joylashgan.

Natsizm – Gitler rejimining mafkurasi va amaliyoti nomi. 1919 yilda vujudga kelgan natsional-sotsialistik partiya nomidan olingan.

Negativ – lot. salbiy.

Negativ huquqlar (erkinliklar) – davlat va boshqa odamlarning shaxsga nisbatan biror harakatni cheklaydi. Ular tub, asosiy, deb hisoblanadi. Ularning amalga oshishi davlat resurslariga bog‘liq emas.

Neytralitet – (lot. unga ham, bunga ham tegishli bo‘lmagan) davlatning xalqaro huquqiy holati. Doimiy va urush vaqtidagi neytralitet ajratiladi. Davlat bilan tinch-totuv yashash va uning mojarolariga aralashmaslik siyosatini anglatadi.

Neoliberalizm – yangi liberalizm – mumtoz liberalizm negizida XX asrning 50-60 yillarida rivojlandi. Neoliberal davlatning ijtimoiy funksiyalari kengayishini zarur, deb bildi. Siyosiy rollar aniq taqsimlanishi to‘g‘risidagi tezis barcha siyosiy kuchlar konsensusi to‘g‘risidagi qoida bilan almashindi. Adolat, davlatni huquq bilan cheklash, hukumatning axloqiy qadriyat va tamoyillarga suyanishi, ommaning siyosiy jarayonda ishtiroki, elitalar raqobati zarurligi tan olindi. Neoliberalizmning mohiyatini qisqacha shunday ifodalash mumkin: davlat shaxsni bozor tizimining salbiy okibatlaridan himoyalashi zarur.

Nigilizm – lot. har qanday me‘yorlar, tamoyillarni inkor etish.

Nolegal – qonunsiz, qonun taqiqlab qo‘ygan qonunni cheklab qilingan yashirin.

Nomenklatura – (lot. ismlar yozuvi) 1) bilim yoki faoliyatning biror maxsus sohasida qo‘llaniladigan terminlarning majmui, nomi; 2) yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadigan lavozimlar ro‘yxati. Sobiq Sovet elitasining nomi.

Nota – (lot. belgi) bir hukumatning ikkinchi bir hukumatga rasmiy, yozma, diplomatik murojaati.

O

Obstruksiya – (lot. to‘siq) norozilik bildirish usuli, asosan parlamentlar faoliyatida noma‘qul qonun loyihasini muhokama qilish va qabul qilishga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan parlament kurashi usullaridan biri. SHovqin solish, ishga aloqasi bo‘lmagan uzundan-uzoq nutqlar so‘zlash va h.k. lar obstruksiya shakllaridan biri.

Ob‘ekt – (lot. predmet) 1) tashqi dunyo, vokelik, kishi, sub‘ekt ongidan tashqarida va undan mustaqil mavjud bo‘lgan narsa; 2) kishi bilishga intilgan va o‘uz faoliyatini shunga qaratgan hodisa.

Oligarxiya – (lot. kamchilik hokimiyati) kichik guruhining siyosiy va iqtisodiy hukmronligiga asoslangan boshqaruv shakli (hozirga ayrim Lotin Amerikasi mamlakatlarida bir necha oilaning hukmronligi kuzatiladi).

Oliy Majlis – O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqarish oliy organ.

Ombudsman – inson huquqlari bo‘yicha vakil; maxsus saylab yoki tayinlab qo‘yiladigan lavozim. O‘zbekistonda Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili.

Omil – ro‘y berayotgan jarayonning sababi, harakatlantiruvchi kuchi yoki uning asosiy shartlaridan biri.

Ommaviy – 1) ommabop, hama uchun tushunarli, oddiy bayon qilish; 2) keng xalq ichida tanilgan muhabbat va muvaffaqiyat qozongan.

Opponent - (lot. e'tiroz bildiruvchi) bahsda biror kishining fikriga, mulohazasiga e'tiroz bildirib, uni qisman yoki to'la rad etuvchi kishi.

Optatsiya – (lot. istak, tanlov) bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tayotgan hududda yashayotgan aholiga fuqarolikni tanlash huquqini berilishi.

Optimizm – (lot. eng yaxshi) hayotga, rivojlanish, kelajakka ishonch bilan sug'orilgan dunyoqarash. **Orientalizm** – SHarqqa o'xshashlikga intilish, siyosat va madaniyatda SHarqqa xos elementlarning kuchayishi.

Orientatsiya – (lot. sharh) 1) vaziyatni, ro'y berayotgan voqealarni aniqlash; 2) siyosatdagi faoliyat yo'nalishini aniqlab olish.

Ortodoksal – gr. qandaydir sohada belgilangan qoida va tamoyillarga hech ikkilanmay ergashish.

Ostrakizm– (gr. sopol parchasi) mamlakat uchun xavfli shaxslarning nomini sopol parchalariga yozish va yashirish ovoz berish yo'li bilan quvg'in qilishning qadimiy Gretsiyadagi odati; quvg'in, ta'qib, xaydash.

Oxlokratiya – (gr. «qora»lar hokimiyati) olomon hukmronligi.

P

Paychi – (ingl. pay-mayda tangani anglatadi) biror tashkilot, shirkat, kooperativ ulushiga ega bo'lgan a'zo.

Pakt – (lot. bitim) xalqaro shartnoma nomlaridan biri.

Paleo... – (gr. qadimiy) qo'shma so'zlarda «qadimgi» ma'nosini bildiradi.

Palliativ – (lot. yashirmok) qo'yilgan masalani to'liq hal qilmaydigan yarim chora.

Panelli tadqiqot – (ingl. ruyxat) qayta (ikkilamchi) sotsiologik tadqiqot ko'rinishi bo'lib, bir xil ijtimoiy ob'ektni bir xil dastur va metodika bo'yicha ma'lum bir vaqt intervalida o'rganishni nazarda tutadi. Panelli tadqiqotning bosh maqsadi ijtimoiy jarayon yoki hodisaning rivojlanishi va dinamikasi tendensiyasini muayyan vaqt oralig'ida tadqiq etish. Uning longityud tadqiqotlaridan farqi shundaki, keyingisida ob'ekt o'zgarishi vaqt funksiyasi sifatida qaraladi. Panelli tadqiqotlarda esa ob'ekt o'zgarishi nazarda tutilgani holda, ular tashqi sharoitlar natijasi sifatida qaraladi.

Paradigma – (gr. na'muna) ilmiy tafakkur uslubi. Ayni vaqtda tan olingan va muayyan ilmiy tadqiqot (bilim)ni belgilovchi omillar birligi. Pozitivist G.Berman tomonidan kiritilgan va amerikalik fizik T.Kun tomonidan tabiiy fanlar uchun keng asoslangan tushuncha. Ilmda muayyan davrda qabul qilingan e'tiqodlar, qadriyatlar, texnik vositalar birligini anglatadi va ilmiy an'analar saqlanishini ta'minlandi. Paradigma nazariyadan kengroq tushuncha, uning almashinuvi fandagi inqilobni anglatadi. Siyosatni tushuntirishdagi asosiy paradigmalari: 1) Teologik - siyosat va hokimiyatni ilohiy talqini. 2) Tabiiy – a) siyosat tashqi tabiiy muhit ta'siri orqali ta'riflanadi - geografik paradigma; b) siyosat jonli tabiat xususiyatlari orqali ta'riflanadi - biologik paradigma. v) siyosat inson xususiyatlaridan keltirib chiqariladi - psixologik paradigma. 3) Ijtimoiy - siyosat ijtimoiy hayotning boshqa sohalari orqali talqin qilinadi. 4) Oqilona-tanqidiy - siyosat uning omillari, masalan, konflikt-konsensus orqali ta'riflanadi.

Paradoks – (gr. kutilmagan) 1) barcha e'tirof etgan fikrga o'xshamaydigan, mantiqqa zid bo'lib ko'rinuvchi fikr; 2) odatdagi tasavvurlarga mos kelmaydigan kutilmagan hodisa.

Parametr – (gr. o'lchovchi) harf bilan belgilanuvchi va faqat muayyan kontekstda o'z mazmunini saqlab qoluvchi doimiy kattalik.

Paritet – (lot. tenglik) teng munosabatlar, bir xil vaziyatda bo'lishlik; tomonlarning teng vakolatlilik prinsipi.

Parlament – (fr. so'zlamok) oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organ nomi.

Parlamentarizm - davlat organlari tizimida parlament etakchi mavqeni egallaydigan boshqaruv tizimi. Unda qonun chiqaruvchi va ijro vazifalari aniq belgilangan bo'ladi, parlament boshqa davlat hokimiyati organlaridan rasman ustun hisoblanadi.

Parlamentar respublik - respublika ko‘rinishlaridan biri. Unda parlament siyosiy jihatdan o‘ziga hisob beradigan hukumatni tuzadi; davlat rahbari bo‘lgan, lekin ijro etuvchi hokimiyat huquqiga ega bo‘lmagan prezidentni saylaydi va h.k.

Parlamentyor - urushayotgan tomonlardan birining ikkinchisi bilan muzokaralar olib borish uchun vakil qilingan shaxs.

Parlament dahlsizligi - parlament deputatlarining dahlsizligi. Unga ko‘ra deputatning harakatlari uchun qamoqqa olish, sudga tortish man etiladi.

Parlament huquqi - parlament a‘zolari amal qiladigan me‘yorlar.

Parlament tekshiruvi - davlat hokimiyati organlari, shu jumladan, hukumat va uning ayrim a‘zolari faoliyati ustidan parlamentning nazorat vakolatini amalga oshirish.

Parlament tipidagi partiya - vakolatli organlar, shu jumladan, parlamentga saylovlarda ishtirok etish bilan o‘zining bosh maqsadi – hokimiyatga erishishni amalga oshiruvchi partiyalar. U hokimiyat organlaridagi faoliyatini o‘z vakillari orqali olib boradi va konstitutsion me‘yorlarga amal qiladi, boshqa partiyalar bilan qonun doirasida raqobatlashadi.

Partiya – (lot. qism) ijtimoiy tabaqa, sinf, qatlam vakillari tomonidan o‘z manfaatlarini siyosiy vositalar yordamida himoya qilish uchun tuziladigan siyosiy tashkilot.

Partiyaviy tizim - mamlakatda mavjud partiyalar miqdori va belgilari asosida aniqlanuvchi tushuncha. Bir partiyaviy tizim (yagona va hukmron partiya boshqa partiyalar mavjudligiga yo‘l qo‘ymaydi yoki ularni qattiq nazorat etadi); ikki partiyaviy tizim (mukammal ikki partiyaviy tizim - umummilliy saylovlarda etakchi ikki partiya raqobatlashuvi va birining g‘olib chiqishi, boshqa partiyalarga imkon qoldirmasligi bilan xarakterlanadi; ikki yarim partiyaviy tizim - «uchinchi» partiya saylovchilarning 25% gacha ovozini olishga yo‘l qo‘yadi); ko‘p partiyaviy tizim (mukammal ko‘ppartiyaviy tizim - bir partiyaning uzoq muddatli saylovlarda g‘olib chiqib yakka tartibda yoki koalitsiyada hukumat tuzishi, muholif partiyalar mavjudligi; koalitsion ko‘p partiyaviy tizim - muholif partiyalarning hech biri yakka tartibda saylovda g‘olib chiqishining imkoniyati bo‘lmaganligi sababli kichik partiyalarning koalitsiyalarga birlashishi).

Partokratiya - partiya hukmronligi bilan tavsiflanuvchi hokimiyat shakli.

Passiv saylov huquqi – (lot. befarq, faol emas) saylab qo‘yiladigan davlat organlari va hokimiyatning mahalliy vakillik organlariga saylanish huquqi.

Paternalizm – (lot. ota) otalarcha homiylik (g‘amxo‘rlik) tamoyilining butun jamiyatga ko‘chirilishi. Bunda hokimiyat xalqning ezgu niyatli homiysi sifatida qaraladi va jamiyatdagi munosabatlar pog‘onaviy tus oladi.

Patrimonial - lot. avloddan o‘tgan, urug‘ga tegishli.

Pauperizm – (lot. kambag‘al) ommaviy qashshoqlanish, aholining kambag‘allashuvi; yashash uchun eng zarur narsalardan mahrumlik.

Patsifizm – lot. urushga qarshi siyosiy harakat, qurbonlarga olib keluvchi kurashning har qanday shakllarini qoralaydi. Ishontirish, e‘tiqod yordamida urushlarning oldini olish mumkinligiga ishonadi.

Pedantizm - fr. puxtalik, ishdagi sinchkovlik, o‘rnatilgan tartib, qoida va instruktsiyalarga rioya qilishni qattiq talab qilish, ikir-chikirlarga e‘tibor berish.

hukumati uning qolishini istagan, chiqib ketishini talab qilgan diplomatik xodim.

Petitsiya – (lot. iltimosnoma, arznoma) hukumatning yuqori vakillariga, davlat boshlig‘iga ko‘pchilik tomonidan berilgan iltimosnoma.

Piket - fr. 1) soqchilarning kichik otryadi; 2) ish tashlash vaqtida korxonaga kiritmaslik uchun korxonani qo‘riqlaydigan ishchilar guruhi; 3) talablar bayon etilgan shiorlarni navbatma-navbat ko‘tarib, navbatchilik qilib turuvchi odamlar guruhi.

Pilotaj – (ingl. ma‘nolaridan biri - tajriba qurilmasi) muayyan metodikalarning (anketalar, rejalar, intervyu va hakazolarning) validligini aniqlash, tadqiqot tadbirlarini tekshirib olish maqsadida o‘tkaziladigan sinov tadqiqoti.

Plutokratiya – (lot. boylik Q hokimiyat) hokimiyat jamiyatining eng boy qismi vakillari qo‘lida to‘planadigan boshqaruv shakli.

Plyuralizm siyosiy – (lot. ko‘plik) siyosatda qarashlar, g‘oyalar, munosabatlar, tashkilotlar xilma-xilligi.

Plyuralistik demokratiya - demokratiya modellaridan biri. U iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, guruhiy, hududiy, v.h. manfaatlarining hamda ularni bayon etish shakllarining (siyosiy partiyalar, jamiyatlar, ittifoqlar, ijtimoiy harakatlar, fuqarolik tashabbuslari) xilma-xilligiga asoslanadi. Plyuralistik demokratiyada siyosatning bosh harakatlantiruvchi kuchi shaxs yoki xalq emas, guruh ekanligi asoslanadi. Plyuralistik demokratiya xilma-xil ijtimoiy guruhlarga o‘z manfaatlarini bayon etish va raqobatli kurashda ularning muvozanatini aks ettiruvchi kompromissli qarorlarni topishga imkon beruvchi boshqaruv shaklidir.

Pozitiv – (lot. ijobiy) ijobiy tajribaga, faktlarga, real vokelikka asoslangan. Teskarisi - negativ.

R

Radikal – lot. tub, asosiy, keskin.

Radikalizm – 1) biror masalani hal qilishda keskin harakat va tadbirlarni qo‘llash, murasasizlik; 2) so‘l qarashlarni ifodalovchi oqim, harakat.

Ratifikatsiya – (lot. tasdiqlamoq) ahdlashuvchi davlatlarning muxtor vakillari tomonidan tuzilgan xalqaro shartnoma yoki bitimning oliy davlat hokimiyati tomonidan tasdiqlanishi. Ratifikatsiya shartnomaga (bitimga) yuridik kuch beradi.

Ratsional – lot. oqil, maqsadga muvofiq, asosli.

Ratsional-tanqidiy paradigma – siyosatni tushuntirishdagi asosiy paradigmalardan biri. U siyosatni uning ichki xususiyatlari orqali tushuntiradi.

Raqobat siyosiy – biror maqsadga erishishdan manfaatdor shaxslar, guruhlar, partiyalar o‘rtasidagi siyosatning qandaydir sohasi bo‘yicha musobaqa, bellashuv, to‘qnashuv.

Rahbarlik siyosty – hokimiyatni amalga oshirish mexanizmlaridan biri. Jamiyat uchun muhim qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish, uning maqsadlari, vazifalari, istiqbollarini aniqlash bilan bog‘liq faoliyat.

Reabilitatsiya – lot. 1) noto‘g‘ri ayblangan yoki qoralangan kishining pok nomini, obro‘-e‘tiborini qayta tiklash; 2) sud orqali yoki ma‘muriy tartibda avvalgi huquqlarni tiklash.

Reaksiyon – (lot. qarshi faoliyat) eski tartiblarga qaytish tarafdori, barcha ilg‘or, progressiv narsalarga qarshi.

Revansh – (fr. qasos) mag‘lubiyat uchun o‘ch olish; avvalgi mag‘lubiyat o‘rnini bosuvchi yutuq.

Revanshizm – urushda engilgan davlat yoki undagi muayyan guruhlarning o‘z mag‘lubiyatlari uchun o‘ch olish va boy bergan mavqeni qaytarib olish uchun yangi urushni tayyorlashga qaratilgan siyosat.

Region – lot. viloyat-mintaqa.

Regional (mintaqaviy) **ihtiloflar** – mamlakatlar o‘rtasidagi ihtiloflarning mintaqaviy darajada keskin shaklda namoyon bo‘lishi. Ochiq qurolli to‘qnashuvlarda, urush xavfi mavjudligida namoyon bo‘ladi.

Reglament – (lot. qoida) 1) hukumat ichki tuzilishi va tartibini belgilaydigan qoidalar to‘plami; 2) parlament ichki tuzilishi va faoliyati shaklini belgilaydigan qoidalar to‘plami; 3) turli majlislar, konferensiyalar tartibi.

Redemarkatsiya chegaralarning – davlat chegarasini joyda tekshirish va tiklash, hamda u erga qabul qilingan hujjatlar asosida chegara belgilarini o‘rnatish.

Rejim siyosiy – (lot. boshqarish) tartib, davlat tizimi, boshqaruv tartibi. Muayyan davlat va jamiyatda siyosiy hokimiyatning real taqsimlanishini aks ettiruvchi politologiya kategoriyasi. U muayyan bir jamiyatda muayyan bir vaqtda mavjud siyosiy hokimiyat qiyofasini aks ettiradi. Agar «boshqaruv shakli» kategoriyasi davlatning konstitutsiya va qonunlarda aks etgan belgilarga asoslanib, asosan siyosiy hayotning rasmiy-huquqiy tomonini yoritadi va nisbatan statik tushuncha bo‘lsa, «siyosiy rejim» ushbu jamiyatda siyosiy hokimiyat amalida kimga tegishligi, u qanday vositalar bilan amalga oshirilishi, davlat va fuqarolik jamiyati unda qay tarzda o‘fzaro ta‘sir etishi, shaxs, ijtimoiy guruhlar huquq va erkinliklar ko‘lami va ularni amalga oshirish imkoniyatlari to‘g‘risidagi savollarga, masalalarga oydinlik kiritadi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy rejim – bu

davlat tartibi bo‘lib, u davlat va fuqarolik jamiyati o‘zaro munosabatlari, davlat hokimiyatining, jamiyat hayotining boshqa sohalariga «kirib» borish darajasini aks ettiradi. Demokratik, avtoritar, totalitar siyosiy rejim turlari ajratiladi.

Reprezentativ demokratiya – xalq oldida ma’sul va malakali vakolatli boshqaruv. U demokratiyaning elitar modellaridan biri sifatida qaralishi mumkin, negaki representativ demokratiya – xalq roziligibilan amalga oshadigan elitar boshqaruvdir. Unga ko‘ra demokratiyaning rivojlanishi ommaning boshqaruvda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirokini kengaytirish bilan emas, balki xalq nazoratidagi, samarali elitani tanlashning mukammal mexanizmini yaratish bilan bog‘liq.

Reprezentativlik – (fr. vakillik) tadqiqot qilinayotgan birlikning xususiyatlarini aks ettiruvchi tanlov belgisi. Masalan, mamlakat o‘quvchi yoshlari o‘rganilayotgan bo‘lsa, uning representativligini ta’minlash uchun tanlovda ishtirok etuvchilar sarasiga shu guruh nisbatidan kelib chiqib, o‘quvchilardan tortib aspirantlargaacha kiritish va o‘rganish kerak.

Respondent – (ingl. javob berish) anketa savollariga javob berayotgan, intervyu berayotgan shaxs.

Respublika – (lot. jamoatchilik ishi, davlat) davlat boshqaruvi shakli. Unda oliy hokiiyat monarxiyadan farqlicha, muayyan muddatga saylanadi yoki umummilliy vakillik muassasalari tomonidan tayinlanadi, fuqarolar shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo‘ladi. Prezidentlik, parlament, aralash turdagi respublikalar mavjud.

Hokimiyat resurslari – keng ma’noda – individ yoki guruh, boshqalarga ta’sir etish uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan barcha narsa (R. Dal); tor ma’noda – sub’ektning hokimiyat ob’ektiga ta’sirini ta’minlovchi barcha vositalar. Utilitar, majburiy va me’yoriy resurslar ajratiladi. Hayotning muhim sohalariga ko‘ra – iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy - axborot, majburiy resurslar mavjud..

Referendum – (lot. xabar qilinishi lozim bo‘lgan narsa) umumxalq so‘rovi, xalqning fikrini ovoz berish yo‘li bilan aniqlash. Eng muhim masalalar bo‘yicha o‘tkaziladi. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya instituti. Insoniyat tarixidagi birinchi referendum 1439 yilda SHveysariyada o‘tkazilgan. XX asr boshida bu institut faqat SHveysariya, AQSH, Avstraliyada amal qilgan. II jahon urushidan keyin u barcha rivojlangan davlatlarda qo‘llanila boshlandi. O‘zbekistonda ham «O‘zbekiston Respublikasi referendumini to‘g‘risida» qonun qabul qilingan (1991 yil 18 noyabr) va faol qo‘llaniladi. Referendumlarning konstitutsion, qonunchilikka doir va maslahat maqomidagi; o‘tkazish usuliga ko‘ra – majburiy va fakultativ; qo‘llanish sohasiga ko‘ra – umummilliy va mahalliy turlarga ajratiladi.

S

Sabotaj – (fr. poyafzalni bir-biriga urish) biror ishni atayin bajarmaslik yoki pala-partish, yuzaki bajarish; biror narsaning amalga oshishiga zimdan qarshilik ko‘rsatiish.

Sadizm - fr. yozuvchisi Markiz De Sad (1740-1814) ismidan olingan-boshqalarning azob chekishidan rohatlanish.

Saylov – davlat, partiyalar, tashkilotlari v.h. rahbar organlarini shakllantirish, ular tarkibiga vakillar yuborish, shuningdek, vakolatli majlislar, anjumanlarga vakillar tanlash bo‘yicha o‘tkaziladigan, odatda, tegishli qonunlar bilan tasdiqlangan tadbirlar majmuidir.

Saylov kampaniyasi - muayan vaqt oralig‘ida maxsus ijtimoiy- siyosiy vazifani amalga oshirish uchun (parlamentda vakillik o‘rinlarini egallash va hakazo) uyushtiriladigan va olib boriladigan ish, kurash.

Saylov tizimi - siyosiy hokimiyatning vakillik organlarini legitm tarzda shakllanishini ta’minlovchi va tartibga soluvchi qoidalar, vositalar, harakatlar birligi. Saylov tizimi - saylov jarayonini tartibga soladi, u qonunchilik asosida amal qiladi. Qonunlarda nomzodlarni ilgari surish tartibi, ularga qo‘yiladigan talablar, ovoz berish va ularni hisoblash, OAV laridan foydalanish tartibi, moliyalashtirish manbalari aks etadi. Vakolatli demokratiyada saylovlarning uch turi mavjud: majaritar, proparsianal, aralash saylov tizimlari mavjud.

Saylovchi - saylov huquqiga ega, u yoki bu nomzod uchun, yoki biror masala yuzasidan saylovda, referendumda ovoz berishda ishtirok etuvchi fuqaro.

Saylovchilar senzi - Konstitutsiya yoki saylov haqidagi qonunlarga ko‘ra har bir davlatda fuqaro saylov huquqiga ega bo‘lishi uchun zarur shartlar.

Saylov huquqi - fuqarolarning davlatning vakolatli organlariga saylash va saylanish huquqlari. U saylov huquqining umumiyligi, tengligi va to'g'ridan-to'g'riligi tamoyillariga tayanadi.

Sanksiya – (lot. bekor qilinmaydigan qaror) 1) oliy instansiya tamonidan biror akti tasdiqlanishi bilan unga qonun kuchining berilishi; 2) ma'qullash; 3) huquqga oid: biror qonunni buzushning huquqiy oqibatlari; 4) zamonaviy halqaro huquqda: halqaro shartnomalar buzilganda qo'llanuvchi (iqtisodiy, moliyaviy, harbiy) choralar.

Satellit – (lot. yo'ldosh, davlat) satellit boshqa yirik davlatga to'la qaram, lekin formal jihatdan to'la mustaqil davlat.

Segregatsiya – (lot. ajratish, chetlatish) irqiy kamsitishning bir turi. Unga ko'ra biror irq vakillariga bashqalar bilan shaharning bir qismida yashash, bir maktabda o'qish, teatr, restoranlarga kirish va hakazolar taqiqlangan. Tarixda yahudiylar, negrlarga nisbatan faol qo'llangan.

Sekulyar – (lot. dunyoviy) ijtimoiy, siyosiy sohalarning diniy ta'siridan xalos bo'lishi, dunyoviyliigi.

Separatizm – (lot. ajralgan) ajralishga, bo'linishga intilish. Kichik millatlarning mustaqil davlat tuzishga intilishida namoyon bo'ladi.

Separat shartnoma - dushman bilan unga qarshi kaolitsiyadagi o'z ittifoqchilaridan alohida tuziluvchi shartnoma.

Siyosat - siyosiy hokimiyatni egallash, qo'lda tutib turish va undan foydalanish maqsadida katta ijtimoiy guruhlarining, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlarning davlat munosabatlari sohasidagi faoliyati. Siyosat, shuningdek, jamiyatdagi umumiy manfaatlarini aniqlash, butun jamiyat uchun majburiy bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish va ularni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat.

Siyosat ichki - ushbu jamiyatdagi odamlarning o'zaro munosabatlarini tartibga solish bo'yicha davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamraydi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy siyosat ajratiladi. Bu sohalarning har biri ichida yana torroq siyosat yo'nalishlariga bo'linadi: masalan, sanoat, agrar, moliya, ilmiy texnik, ijtimoiy ta'minot, ta'lim va hakazolar siyosati. Bundan tashqari jamiyat hayoti uchun muhim faoliyat yo'nalishlarini tartibga soluvchi siyosat turlari ham mavjud: harbiy, milliy, ekologik, demografik siyosat va hakazolar.

Siyosatda sog'lom fikrlilik - siyosiy jarayonlarni xushyorlik bilan, siyosiy faoliyatda to'plangan tajribaga suyanib, mulohaza bilan baholash. Siyosiy hissiyotlardan ustun turgan holda siyosiy qarorlar qabul qilish va siyosiy faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati. Siyosatda sog'lom fikrlilik - siyosiy maqsad va vazifalarni umuminsoniy qadriyatlar bilan muvofiqlashtira olish qobiliyati, siyosiy murosa yo'lini topa bilish, pirovard siyosiy muvaffaqiyat yo'lida kelishuvlarga bora olishdir.

Siyosat sub'ektlari - siyosiy faoliyatda bevosita va u yoki bu darajada ongli ishtirok etuvchi shaxslar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, tashkilotlar.

Siyosiy kuchlar va manfaatlarini muvozanati - birgalikda faoliyat ko'rsatuvchi siyosat sub'ektlarining ijobiy va salbiy sifatlarini belgilovchi, shuningdek, ular faoliyatining maqsadlari va vazifalari mos kelishi yoki kelmasligini aks etiruvchi ko'rsatgich tizimi. Siyosiy kuchlar muvozanati tahlili siyosiy jarayon uning rivojlanishi va taraqqiyot yo'nalishlarini hamma yo'nalishlarda tadqiq etishning muhim shartidir.

Siyosiy munosabatlarning sub'ekti - ongli va shunga ko'ra anglangan, maqsadli faoliyatga qodir amaliy faoliyat egasi. YA'ni sub'ekt belgilariga qo'yidagilar kiradi: onglilik, shu jumladan o'z-o'zini anglaganlik, aniq maqsadga va uni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish. Siyosatda sub'ekt sifatida alohida individlar ham, turli guruhlar, tashkilotlar ham qaraladi.

Siyosiy sotsiologiya - siyosat bilan chegaradosh fanlardan biri. U siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning o'zaro bir-biriga o'tishi va aloqadorligini o'rganadi.

Siyosiy soha - muayan jamiyatning barcha munosabatlarini qamrab oluvchi ijtimoiy hayot bo'limi. Siyosiy sohani sinflar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar, millatlarning davlat hokimiyatini egallash, qo'llash, unga ta'sir etish munosabatlari tashkil etadi.

Siyosiy tizim - 1) Sun'iy hosil qilingan nazariy-fikriy hosila bo'lib, turli siyosiy hodisalarning tizimga oid xususiyatlarini aniqlash va tavsiflash imkonini beradi; kategoriya siyosiy voqelikni aks

etirmaydi, balki siyosatning tizimli tahlili vositasidir; 2) jamiyatda hokimiyat shakllanishi, amal qilishning real va murakkab mexanizmi.

Sintez – (gr. birlashish, uyg'unlik) predmetni bir butunlikda, qismlarining o'zaro aloqadorligi va yaxlitligida o'rganish usuli, tahlil bilan bog'liq.

Sinf - tahminan bir xil hayotiy imkoniyatlarga, manfaatlarga va qadriyatiy yo'nalishlarga ega odamlar guruhi bo'lib, iqtisodiy ahvolining umumiyligi ularni bir-biridan farqlaydi va sinfiy ihtiloflar imkonini yaratadi.

Sionizm - mafkura va amaldagi harakat. Unga ko'ra butun dunyo yahudiylari jahon millatini tashkil etadi, unga tarixiy va ilohiylik xos va hakazo.

T

Tabiiy huquqlar – liberalizm vakillari asoslangan va insonning yashashga, erkinlikka, mulkka, istibdodga qarshilik ko'rsatishga yo'naltirilgan huquqlarini tabiiy, begonalashmaydigan va muqaddas, deb biluvchi huquqlar tizimi. Bunda tabiiylik – ular insonga tug'ilishidan tegishlilikini, begonalashmaslik – ularsiz inson o'z sifatlarini namoyon qila olmasligini, muqaddasligi – inson huquqlari oliy qadriyat ekanligini anglatadi.

Tabu – polinez. 1) biror narsa, harakat, so'z va boshqaga solinadigan diniy taqiq. Uni buzish go'yo falokatga olib kelishi mumkin; 2) taqiqlangan narsalar, savollar, fikrlar, so'zlar va h.k.

Tavtologiya – (gr. o'sha so'zning o'zi) avval aytilganlarni boshqa tarzda ifodalagan ta'rif yoki tushunchani yana shu tushuncha orqali ta'riflash. Masalan, siyosat – siyosiy munosabatlar tug'risidagi fan, ta'rifi – tavtologiyadir.

Tadbiqiy politologiya – politologik fanning yo'nalishlaridan biri. U bevosita siyosiy jarayonlarni o'rganish, ular to'g'risida hukm yuritish va aniq xulosalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Tadbiqiy politologiya bixevioristik yo'nalish asosida Ikkinchi Jahon urushidan so'ng vujudga keldi va u asosan siyosiy tahlilning empirik usullariga tayanadi.

Tashkilot siyosiy - qat'iy belgilangan tuzilishga, tarkibiy qismlar vazifalarining aniqligiga, faoliyatning yaxlit tizim sifatida qurilishiga asoslanuvchi, odamlar, ihtiyoriy ravishda, o'z maqsadlariga erishishlari uchun tuzgan ittifoqlari.

Tashqi siyosat – davlat faoliyatining xalqaro maydonda yo'nalishi. U shu davlatning boshqa davlatlar va xalqlar bilan munosabatini uning tamoyillari va maqsadlariga muvofiq amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda turli usullar qo'llanadi. Eng muhim usul – diplomatiya. Har qanday davlatning tashqi siyosati uning ichki siyosatining davomi bo'lib, o'zida shu davlat va jamiyat belgilarini mujassam etadi.

Tahlil siyosiy – ilmiy usul. U butunni qismlarga bo'lish va ularni sifat yoki miqdor jihatidan jiddiy o'rganishga asoslanadi. Tahlil aniqlik kiritish va talqinni nazarda tutishi mumkin. Masalan, muayyan siyosiy kuchlar rivojlanishi, tarkibi, faoliyati, talablari va harakatlarini bilish maqsadida ularni tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish.

Tahlil tarkibiy – funksional. E.Dyurkgeym, V.Pareto va boshqalar tomonidan bayon etilgan yondoshuv. U ikki qismdan iborat: 1) tarkibiy – turli tuzilmalar tahlilidan ular bajarayotgan funksiyalarni aniqlashga o'tuvchi; 2) funksional – funksional talablarning muayyan birligidan kelib chiqib, bu funksiyalarni bajaruvchi muayyan tuzilmalarni aniqlashga o'tadigan yondoshuvlar. Ularning barchasi uchun me'yoriylik, ya'ni ijtimoiy muhit va inson hulq-atvorining me'yoriy ko'rsatmalari va qadriyatlar bilan belgilanganligidan kelib chiqish xos.

Tezis – gr. muallif yoki notiq himoya qilishi lozim bo'lgan ehtimol, fikr.

Teleologiya – (gr. maqsad Q ta'limot) dunyoda maqsadga muvofiqlik va insonga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv maqsadlar borligi haqidagi ta'limot.

Tenglik – 1) ijtimoiy tenglik – jamiyatda odamlarning ijtimoiy ahvoli tengligini anglatuvchi tushuncha. Liberal talqinda – «imkoniyatlar tengligi»; 2) siyosiy tenglik – barcha fuqarolar huquqlar va erkinliklar jihatidan tengligi (garchand ular o'zlari ega siyosiy va boshqa resurslarga ko'ra farqlansalarda) va ularning kafolatlanganligi.

Tendensiya – (lot. yo'naltirish, intilish) 1) biror narsaga intilish, moyillik; 2) biror holat, hodisa rivojlanishi yo'nalishi.

Tender – (ingl. xizmat ko‘rsatmoq) buyurtmalarni joylashtirishning tanlov shakli. U buyurtmachi tomonidan turli ob‘ektlarni qurish, har xil xizmatlarni bajarishga pudratchilarni jalb qilish va boshqa tadbirlar uchun uyushtiriladi.

Teokratiya – (yun. ilohiy hokimiyat) siyosiy hokimiyat din peshvolariga tegishli bo‘lgan davlat boshqaruvi usullaridan biri.

Terror – (lot. qo‘rquv, daxshat) qo‘rqitish siyosati, siyosatda zo‘ravonlik.

Terrorizm – siyosiy motivlarga ko‘ra alohida shaxslar joniga suiqasd, ommaviy jismoniy qurbonlar bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etishga qaratilgan faoliyat. Davlatlar, tashkilotlar, guruhlar tomonidan sodir etilishi mumkin.

Terroristik harakat – konstitutsion tuzum asoslariga, davlat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat.

Test – (ingl. sinov, tadqiqot) to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatib bo‘lmaydigan murakkab xususiyatlarni va sifatlarni o‘rganish, o‘lchash usuli, texnikasi. Avval psixologiyada ishlab chiqilgan.

Texnokratiya – (gr. mahorat, hunar Q hokimiyat) amerikalik iqtisodchilar G.Skott, T.Veblenlar XX asrning 20- yillarida ishlab chiqqat ta‘limot. Unga ko‘ra zamonaviy jamiyatlarni menejerlar boshqaradi. D.Belning «yangi sinf» nazariyasi ham shularga yaqin bo‘lib, unga ko‘ra zamonaviy jamiyatlarni qobiliyatli va munosib insonlar boshqaradi (meritokratiya). SHu ta‘limot doirasida qaraluvchi «kibernetik elita» nazariyasiga ko‘ra (K.SHTaynbux) zamonaviy jamiyatlarda hokimiyat ekonomistlar, matematiklar, programmistlarga tegishli bo‘lishi lozim. «Kompyuter demokratiyasi» nazariyasiga ko‘ra zamonaviy jamiyatlarda shaxsiy kompyuterlar, kabel televideniya, yangi axborot kanallarining tarqalishi ziddiyatlarni elektronika yordamida hal qilish imkonini beradi.

Texnologik determinizm – ijtimoiy rivojlanishning asosini ishlab chiqarishning texnik va

U

Uzurpatsiya – (lot. egallab olish) hokimiyatni zo‘rlik bilan egallab olish va qo‘lda tutib turish.

Ultimatum – (lot. eng ohirgi) diplomatik aloqalarni uzish yoki boshqa choralar ko‘rish bilan ogohlantirib, bir davlatning ikkinchi davlatdan ko‘rsatilgan muddatda qo‘yilgan shartlarni bajarilishini qat‘iy talab etishi.

Umumiy saylov huquqi - qonun belgilangan yoshga etgan barcha fuqarolarning davlat hokimiyati organlarini saylashda ishtirok etish huquqi.

Umumlashma – bir xillik va doimiylikning umumiy qaydi. U tushuntirishning eng oddiy shakli bo‘lib predmetni aniq bilishni talab etadi. Universal, ehtimol qiluvchi (mulohaza) va tendensial I qonun
II ehtiyoj.

Unitarizm – (fr. yagona) davlat birliklariga markazlashgan boshqaruvning mavjudligi va tarkibida mustaqil davlatlarning yo‘qligi bilan belgilanuvchi davlat tuzilishi. Unitar davlat – yagona, bo‘linmas bir yaxlitlikni tashkil etuchi davlat shakli.

Unitar davlat – Unitar davlatda hudud, konstitutsiya, fuqarolik, oliy davlat hokimiyati yagona bo‘ladi. Bir butunni tashkil qiluvchi qismlari davlat maqomiga ega bo‘lmaydi. Unitar davlat ma‘muriy– hududiy birliklarining chegaralari markaziy organlar tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida o‘zgartiriladi.

Urbanizatsiya – (lot. shahar) jamiyatda shaharlar nufuzining ortib borishi bilan bog‘liq tarixiy jarayon. SHahar aholisi sonining ko‘payishi.

Urf-odat va rasm-rusmlar – kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan hatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko‘nikmalar.

Uslublar siyosiy - ishontirish, dalillar bilan isbotlash, jamoat fikrini, sinflar, millatlar, aholining turli ijtimoiy, demografik guruhlar fikri, manfaatlarini hisobga olishning demokratik usullari.

Utilitarizm – (lot. foyda) inson faoliyatining asosida foydaga erishish, oqillik yotishini asoslovchi nazariyalar. Asoschisi U.Bentam.

F

Faktor–tahlil – (lot. ishlab chiqaruvchi) ko‘p o‘lchovli matematik statistika usuli. U ijtimoiy ob‘ektlar belgilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘lchash va belgilarni ana shu o‘zaro aloqalar asosida turkumlashga asoslanadi. Juft korrelyasiyalar asosida faktor tahlilda yangi, yirikroq belgilar olinadi. Ana shular faktor deb ataladi.

Falsafa siyosiy – siyosatni yaxlit holda, uning tabiati, inson uchun ahamiyati nuqtai nazaridan o‘rganuvchi, siyosiy hayotning ideallari, me‘yoriy tuzilishini ishlab chiquvchi, siyosatni baholashning umumiy mezonlarini belgilab beruvchi bilim sohasi. Siyosiy falsafa predmetini uch toifa hodisalar tashkil etadi: 1) siyosatni axloq, yirik ijtimoiy guruhlar va insoniyat nuqtai nazaridan baholash mezonlari, siyosiy qadriyatlar; 2) tarixiy tajriba, umumlashmalar asosida siyosatning tub asoslarini o‘rganish; 3) siyosatni bilish usullari va vositalarini tahlil qilish, siyosiy kategoriyalar ma‘nsini aniqlash

Falsifikatsiya – (lot. sohtalashtirish) haqiqiy qalbakiga, aslga sohtaga almashtirish, real borliqni buzib ko‘rsatish.

Fanatizm – (lot. juda asabiylashgan mutaassiblik) o‘z e‘tiqodiga sodiqlikning boshqalarning e‘tiqodlariga toqatsizlik bilan uyg‘unlashuvi.

Faollik siyosiy – muayyan siyosiy va boshqa maqsadlarga erishishga qaratilgan ongli harakat darajasi. SHaxs, guruh, partiyalar, xalq ommasi faoliyatining eng muhim sifatlaridan, xususiyatlaridan biri.

Faoliyat siyosiy – odamlar aniq maqsad yo‘lida ongli ravishda o‘z hayotlari, maqomlari, o‘zlarini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladigan harakalar uyg‘unligi. Siyosiy faoliyat aniq maqsadlar, nuqtai nazarlar, qarashlar, hissiyotlar va kayfiyatlar asosida amalga oshadi. Siyosiy faoliyatning asosini tashkilotlar, birinchi navbatda, partiyalar tashkil etadi. Siyosiy faoliyat turlariga boshqaruv, huquqiy, tashkiliy axborot, tashviqot-tarbiyaviy faoliyat sohalari kiradi; shakllariga hokimiyat organlarini tuzishda itirok etish - saylovlar; qarorlar qabul qilishda ishtirok etish – umumxalq muhokamasi, namoyishlar, petitsiyalar, ekspert xizmatlari; absentizm; muholifat va h.k. kiradi; usullarini kelishuv, ihtilof, yosh bosish, bitimlar tashkil etadi.

Farmon – ayrim mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda, prezident qabul qiladigan xujjatning nomi. Farmon, qonundan keyingi, yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan huquqiy xujjatdir.

Fashizm – (ital. bog‘lam, birlashma) totalitar tipdagi ijtimoiy-siyosiy oqimlar, mafkuralar va davlat tartiblari.

Federalizm – (lot. ittifoq orqali mustahkamlash) federativ asoslarga ko‘ra birlashgan davlat tuzilishi tizimi.

Federatsiya – muayyan yuridik va siyosiy mustaqilligi bo‘lgan davlat tuzilmalari (respublika, shtat) tashkil topgan ittifoq-davlat. Unda davlat oliy hokimiyati organlarining ikki tizimi: markaziy va federatsiya sub‘ekti darajasida mavjud. Odatda parlamenti ham ikki palatali bo‘ladi. Federatsiya odatda, ko‘p millatli bo‘ladi, hududi uning tarkibiga kirgan davlatlar hududidan iborat bo‘ladi. Har bir tarkibiy qismi o‘zining Konstitutsiyasi, huquqiy va sud tizimi va yagona iqtisodiyotiga ega bo‘ladi.

Feminizm – XVIII asrda vujudga kelgan va erkak, ayollar o‘rtasida tenglik o‘rnatish uchun harakat. I bosqichda XIX - XX asrning birinchi yarmida huquqiy tenglik uchun, XX asr o‘rtalaridan – amaliy tenglik uchun (II bosqich) kurash olib borgan. Hozirgi davrning eng kuchli ijtimoiy-siyosiy harakatlaridan biri.

Frankfurt maktabi – XX asrning 30- yillarida Germaniyada, Frankfurt-Mayndagi sotsial tadqiqotlar instituti negizida vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy maktab. U fashizmga, shuningdek, texnokratik ommaviy iste‘mol jamiyatiga intellektual muholifatni tashkil etgan.

Fraksiya – (lot. buzish) 1) siyosiy partiyaning uning yo‘nalishi, uslublariga qo‘shilmaydigan, u bilan kurashadigan, lekin tarkibidan chiqib ketmaydigan o‘z qarashlari, ichki intizomiga ega qismi; 2) o‘z partiyalari siyosatini amalga oshirish uchun parlament, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organi yoki biror ijtimoiy guruh tarkibiga saylangan deputatlar yoki a‘zolar guruhi.

Funksiya – (lot. faoliyat) faoliyat, burch, ish, vazifa.

Fuqarolik – shaxsning muayyan davlatga huquqiy mansubligi.

Fuqarolik jamiyati – bozor va demokratik huquqiy davlatchilik sharoitida erkin va teng huquqli individlar o‘zaro munosabatlari tizimi. U davlatning aralashuvisiz kechishi, gorizontaal munosabatlarni – raqobat va birdamlik asosida - qamrashi bilan ajralib turadi.

Futurologiya – (lot. kelajak to‘g‘risida ta‘limot) ijtimoiy jarayonlar, insoniyat tahlil qiluvchi ilmiy nazariyalar. Sinonimi-prognoz.

X

Xavfsizlik – hech qanday xavfning mavjud bo‘lmasligi, daxlsizlik, ishonchlilik. To‘rt asosiy turi ajratiladi: xalqaro; jamiyat; davlat; shaxs xavfsizligi. Ushbu kategoriya davlatlar, harbiy-siyosiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar ahvoliga taaluqli rasmiy qarorlarga asosan sharxlanadi. Hozirgi kunda u xalqaro vaziyatni sog‘lomlashtirish, ommaviy qirg‘in qurollari va qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish yoki yo‘qotishga qaratilgan. Bunda tenglik, barobar xavfsizlik, uchinchi davlatlarga ziyon etkazmaslik aqidalarga amal qilinadi, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatishga nisbatan siyosiy vositalar ustivorligiga amal qilinadi, davlatlararo munosabatlar beqarorligiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xalq - 1) umumiy tarixiy taqdir, o‘xshash turmush tarzi belgilari va axloqiy qadriyatlar, shuningdek, yagona tarixiy jamoaga mansublik hissi asosida birlashuvchi ijtimoiy guruhlar birligi; 2) mamlakat, davlat aholisi.

Xalqaro valyuta fondi – BMTning ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega valyuta tashkiloti. Vazifasi – tashqi savdo va xalqaro valyuta – moliya hamkorliklarini rivojlantirishga yordam berishdan iborat. Resurslari unga uyushgan mamlakatlarning a‘zolik badallari (kvota)dan tashkil topadi.

Xalqaro munosabatlar – dunyo hamjamiyatining barcha sub‘ektlari o‘rtasidagi siyosiy, xo‘jalik-iqtisodiy, ilmiy-texnik, valyuta-moliyaviy, ijtimoiy, diplomatik, huquqiy, harbiy, gumanitar, kommunikatsion aloqalar va munosabatlarning tizimli birligi (yaxlitligi)dir.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi – siyosiy tadqiqotlar sohasi bo‘lib, uning predmetini xalqaro tashkilotlar va uyushmalar (BMT, NATO, OBSE va h.k.), davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati, xalqaro munosabatlar tashkil etadi. U shuningdek urush va tinchlik, xalqaro ihtiloflarni oldini olish va ularni boshqarish, yangi xalqaro tartibni shakllantirish masalalarini ham o‘rganadi.

Xalqaro siyosat – xalqaro munosabatlar sub‘ektlarining birgalikdagi, maqsadli siyosiy faoliyati; BMT va dunyo hamjamiyatining boshqa qonuniy va e‘tirof etilgan organlari va tashkilotlari faoliyatida namoyon bo‘luvchi birlashgan manfaat.

Xalqaro tashkilotlar – mustaqil davlatlar yoki milliy jamiyatlar (assotsiatsiyalar)ning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tuzgan birlashmalari. Bu - BMT, YUNESKO, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi va boshqalar.

Xalqaro tillar – hozirgi zamon xalqlari orasidagi munosabatlarda eng ko‘p ishlatiladigan tillar. BMTning rasmiy tillari – ingliz, fransuz, ispan, rus va xitoy tillaridir.

Xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi prinsipi – xalqaro huquqning eng qat‘iy, asos tamoyillaridan biri.

Xalq deputatlari Kengashi – O‘zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari.

Xalq hokimiyati – o‘z-o‘zini boshqaruvchi davlat. Unda har bir shaxsning erkinlik darajasi uning boshqaruvda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita ishtiroki bilan belgilanadi. Xalq o‘z hokimiyatini o‘zi saylaydigan yoki tuzadigan organlar orqali ro‘yobga chiqaradi.

Xarizma – (gr. ilohiy qobiliyat) katoliklarda xudo tomonidan cherkov manfaati yo‘lida qo‘llash uchun biron shaxsga berilgan ruhiy– ma‘naviy fazilat. Sotsiologiyaga Grelch tomonidan kiritilib, M.Veber uni hukmronlikning ideal turlari to‘g‘risidagi qarashlarida tahlil qilgan. Xarizmatik hukmronlik, M.Veberga ko‘ra, etakchiga xos alohida sifatlarga asoslanadi. Uni payg‘ambar, ulkan tarixiy shaxs, deb hisoblashadi. Etakchi va omma munosabatlari hissiy darajada, to‘liq o‘zligidan kechish, ko‘r-ko‘rona ishonch asosiga quriladi.

Xartiya – (yun. qog‘oz, yorliq) o‘rta asrlarda ommaviy huquqiy siyosiy xarakterdagi xujjat bo‘lgan. Hozirgi xalqaro huquqda deklaratsiyaning sinonimi. U – majburiy kuchga ega bo‘lmagan, umumiy tamoyillar va maqsadlarni ifoda etuvchi xujjat.

Xartlend – ingl. geosiyosatda «markaziy er», kurrai zaminning bosh, asosiy qit’asi tushunchasi. Unga egalik qilish – dunyoga egalik qilish imkonini beradi.

Xronologiya – (gr. vaqt to’g’risidagi ta’limot) voqealarni ularning tarixiy ketma-ketligidagi tartibi; hodisalar vaqtini, xujjatlar paydo bo’lgan vaqtni aniqlash.

Xunta – (isp. majlis, birlashma) 1) ispan tilli mamlakatlarda davlat hokimiyatining oliy kollegial organi nomi; 2) davlat to’ntarishi yoki boshqa nokonstitutsion yo’l bilan hokimiyat tepasiga kelgan harbiy (aralash) guruhlar nomi.

Xaos – qad. yun. tartibsizlik, mavhumlik.

Xususiy mulk – ishlab chiqarish vositalari, iste’mol buyumlari va h.k. ga egalik qilish, ularni o’zlashtirish shakli. Xususiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish (sotish, ijara berish v.h.) mumkin.

S

Senz – (lot. ro’yxat qilaman) cheklash; shaxslarga muayyan siyosiy (avvalo saylov) huquqlaridan foydalanish qo’yiladigan cheklovchi shartlar.

Saylov senzi – Konstitutsiya yoki saylov to’g’risidagi qonun bilan belgilangan saylov huquqini olish yoki amalga oshirish shartlari. Turli mamlakatlarning amaliyotida yosh, fuqarolik, savodlilik, ma’lumot, mulk, turg’unlik, til va boshqa saylov senzlari mavjud.

Sentrizm – o’ng va so’l radikalizmdan qochib, turli siyosiy kuchlarning qarashlarini mo’tadil islohotchilik asosida birlashtirishga harakat qiluvchi siyosiy yo’nalish.

Sivilizatsion yondoshuvning - mohiyati shundaki, u insoniyatning tarixiy taraqqiyotini – o’ziga xos milliy madaniyatlar rivojlanishi va almashinishi jarayoni tarzida aks ettiradi. Unga ko’ra tarixiy jarayon – sivilizatsiyalar almashinuvi jarayonidir. Bir sivilizatsiyaning ikkinchisidan farqi o’ziga xos qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi. Har bir sivilizatsiyaga muayyan falsafa, ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatlar, dunyo haqidagi tasavvurlar, muayyan turmush tarzi va muayyan hayotiy tamoyillar xos. SHu bilan birga «... jamiyatlar madaniyatlarini institutlashtirgani tufayli ular boshqa madaniyatlar bilan muloqot uchun tashqi ta’sirlarga ochiq, yopiq (biologik) tur genetik tarkibidan farqlicha... turli madaniyatlar muayyan sharoitlarda samarali o’zaro aloqaga kirisha oladi».¹

Sivilizatsiya – (lot. fuqarolik, ijtimoiy) jamiyat rivojlanganligi darajasi, pog’onasi. O’zbek tilida madaniy taraqqiyot darajasi atamasi qo’llanishi mumkin.

Sinizm – gr. behayolik, surbetlik bilan umumiy axloqiy qoidalarni rad eti, ularga nafrat bilan qarash.

Sirkulyasiya – lot. aylanma harakat.

SH

SHariat – islom davlat siyosatining mazmunini tashkil etuvchi davlatlarda amal qiluvchi, Qur’onga asoslangan diniy va huquqiy qoidalar majmui.

SHaxs – (ar. odam) sub’ekt, individ. Ijtimoiy mavjud va individual sifatlarga ega inson.

SHaxsga sig’inish – bir kishi rolini oshirib ko’rsatish orqali, unga g’ayritabiiy fazilatlarining berilishi va tarixiy jarayon rivojlanishiga o’sha shaxs ta’sirini belgilovchi deb hisoblash.

SHovinizm – fr. millatchilikning eng keskin, reaksion shakli. Napoleon Bonapartning bosqinchilik siyosatini ma’qullagan fransuz askari SHavin ismidan olingan. Uchiga chiqqan millatchilik; boshqa millatlarni taxqirlash, ezish, bir millatni ikkinchisiga gij-gijlash siyosati. AQSH va Angliyada **jingoizm** deb nomlanadi.

E

Evolyusiya – (lot. ochilmoq) asta-sekinlik bilan boruvchi miqdor o’zgarishlarining muayyan sharoitdan yangi sifatga sakrash, inqilob orqali o’tishiga olib keluvchi harakat shakli.

Egalitraizm – (fr. tenglik) faoliyat almashunivining o’ziga xos turi. U tenglashtirishga tashabbusni ishbilarmolikni yoqotishga, ishchilarni sarf qilingan mehnat sifati va miqdoridan qat’iy nazar mukofotlayverishga asoslanadi.

Ekologik tanglik – insonlar jamiyatining tabiatni o‘zgartirishdagi ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lishi bilan ekosferadagi barqarorligini qayta ta‘minlash jarayonlar o‘rtasidagi ziddiyatning namoyon bo‘lishi.

Ekosiyosat – ekologik o‘zaro bog‘liqliklarni tartibga solish vositasi. U yalpi tusda bo‘lib siyosiy jarayonning boshqa tarkibiy qismlari va ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan yaqindan bog‘liq. Siyosatda ekologiya muammolarning keng o‘rin olishi unda umum insoniy qadriyatlarning birinchi o‘ringa chiqayotganligini ko‘rsatib turuvchi olmdir.

Elitalarni tanlash, saralashning anteprennerlik tizimi – gildiyalar tizimining aksi. Uni a) ochiqqligi, etakchi o‘rinlarni egallashda barcha ijtimoiy guruh vakillarining keng imkoniyatlarga egaligi; b) rasmiy talablar, institutsional filtrlarning kam miqdori; v) elitalarni saralovchi doirasining kengligi, hatto mamlakatning barcha saylovchilari bo‘lishi mumkinligi; g) rahbarlik o‘rinlarini egallash uchun kurashning o‘tkirliqi saralashning raqobatlilikligi; d) shaxsiy fazilatlar, faollikning, keng tinglovchilar hayrihoxligiga erisha olishning birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi. Bu tizim demokratik davlatlar uchun xos.

Elita siyosiy – (fr. eng yaxshi, saralangan) ancha mustaqil, oliy, nisbatan imtiyozli, kamchilikni tashkil etuvchi guruh. Bu guruh vakillari yuqori ruxiy, ijtimoiy va siyosiy sifatlarga ega va hokimiyatni qo‘llash yoki unga ta‘sir etish bilan bog‘liq qaraorlarni qabul qilish, hamda amalga oshirishda ishtrok etadi. Siyosiy elita yorqin siyosiy raxbarlik sifatlari bilan ajralib turadi.

Emansipatsiya – lot. qaramlikdan, zulumdan, sarqitlardan ozod bo‘lish.

Embargo – (isp. qamash) mamlakatga boshqa davlatdan mahsulot, valyuta, yuklar olib kirish yoki olib chiqib ketishni ta‘qiqlash.

Emigratsiya – (lot. ko‘chish, ko‘chib ketish) ma‘lum iqtisodiy, ijtimoiy (ko‘pincha diniy) va siyosiy sababga ko‘ra bir mamlakatdan ikkinchisiga ommaviy ko‘chib ketish holati.

Empirik tadqiqot – (gr. tajriba) mavjud hodisalar, holatlar, hulq-atvor, faoliyat natijalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita qayd etish yo‘li bilan ijtimoiy faktlarni umumlashtirish va aniqlash. Nazariy tadqiqotdan farq qiladi.

Ensiklopediya – fr. ma‘lum qoidalar asosida tartibga solingan bilimlar to‘plami, ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashr.

Erkinlik demokratiyasi – fransuz siyosatchi va mutafakkiri A.Tokvilga ko‘ra feodalizm bosqichidan o‘tgan va tabaqaviy chegaralar emirilgan barcha davlatlar demokratik hisoblanadi. Lekin bu davlatlarning ba‘zilari – bozor, raqobat, tengsizlik yo‘lidan ketgan bo‘lsa, ba‘zilari – tenglik demokratiyasi yo‘ldan bordi.

Eskalatsiya – (ingl. kuchayish) ziddiyatni kengayishi, o‘ssishi, kuchayishi.

Etatizm – (fr. davlat) davlatning jamiyat hayotiga faol aralashuvi.

Etnik jamoa – millat.

Etnos – (gr. xalq) odamning biron millatga mansubligi. Etnos doimo rivojlanishda bo‘lib, unga xos hech bir belgini doimiy xoslik deb qarash kerak emas.

E‘tiqod erkinligi – insonning shaxsiy xuquq va erkinliklari ichida markaziy o‘rinda bo‘lib, insonni ma‘naviy olamini, qarashlarinibelgilovchi, shakllantiruvchi omil.

Q

Qadriyatlar – borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma‘naviy boyliklarning ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha.

Qaramlik – mamlakat va hududlarni bosib olish yoki boshqa xil usullar bilan ularning ustidan boshqa davlat va guruhlarning hukmronligi o‘rnatilishi. Qaramlikning huquqiy shakllari ikki asosiy guruhdan iborat: 1) xalqaro-huquqiy, bog‘liqlik-protektorat (xomiylik), vasiylik, kondonium va mandatli hudud; 2) davlat huquqiy aloqalari.

Qiyosiy tahlil – 1) tarixiy rivojlanishning turli davrlarida; 2) turli ijtimoiy tizimlar (institutlar, guruhlar, hududlar va h.k.) da; 3) turli mualliflar va tadqiqotchi jamoalarda; 4) turi o‘lchovlarda va to‘plash usullarida olingan axborot qiyoslanadi. Qiyosiy tahlilda o‘xshashlik va farqni aniqlash va tavsiflash yoki analitik, ya‘ni tushuntirish, bashorat, tavsiyalar ishlab chiqish vazifalarini hal qilish mumkin.

Qiyosiy-tarixiy usul – tarixiy usul ko‘rinishlaridan biri. Qiyosiy va tarixiy usullarni birlashtirish ijtimoiy hodisa rivojlanishidagi turli davrlar to‘g‘risida ma‘lumot olish va uni qiyoslash; undagi o‘zgarishlarni aniqlash; rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilish imkonini beradi. Bu usuldan o‘z vaqtida Arastu ham keng foydalangan.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat – muayyan hudud uchun, biron faoliyat sohasi uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qonunlar chiqarish, qonun o‘rnatish vakolatiga ega hokimiyat. Qonunlarni qabul qilish huquqiga ega va uni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi.

Qochoqlar – irqi, e‘tiqodi, millati, muayyan siyosiy guruh yoki siyosiy g‘oyalari uchun ta‘qiblarning qurboni bo‘lish xavfi tufayli o‘z fuqaroliklariga ko‘ra yashashlari, lozim bo‘lgan mamlakat tashqarisida hayot kechirayotgan shaxslar. Qochoqlarning xalqaro-huquqiy mavqei 1951 yilda qabul qilingan. Qochoqlar maqomi haqidagi Konvensiya bilan tartibga solinadi. U dunyodagi 107 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.

H

Hayot siyosiy - odamlarning hokimiyatga doir, o‘zaro aloqalari shakllari, faoliyati sifatida namoyon bo‘ladi. U doimo moddiy va ijtimoiy–ma‘naviy asoslar bilan belgilanadi va muayyan tarixiy shaklda naoyon bo‘ladi. Siyosiy hayot o‘z ichiga siyosat sub‘ektlarini, ularning ehtiyoj va manfaatlarini, munosabat va faoliyatlarini, siyosiy institutlarni, qoida, ong va madaniyatni, siyosiy hokimiyatga doir aloqaloqarni oladi.

Hamkorlik siyosiy – xalqaro siyosat sub‘ektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko‘ra tomonlar o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko‘rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

Harakat siyosiy - siyosiy faoliyat shakli. U siyosiy manfaatlarni amalga oshirish va siyosiy munosabatlarni unga muvofiqlashtirishni maqsad qilib qo‘yadi. U tugal tashkilot tuzilmalariga va qayd etiluvchi a‘zolikka ega bo‘lmasligi, aniq dasturga asoslanmasligi, rahbar organlarining nihoyatda demokratikligiga asoslanishi mumkin.

Harbiy holat – favqulotda holatlarda (urush, tabiiy ofat, v.h.) butun mamlakat yoki uning ayrim hududlarida kiritilgan alohida davlat – huquqiy tartibi. Harbiy holatning belgilari: joylarda harbiy hokimiyat vakolatlarining kengayishi; davlat organlarining mudofaa, jamoatchilik tartibi va davlat xavfsizligi borasidagi funksiyalarning oliy harbiy qo‘mondonlik qo‘liga o‘tishi; fuqarolar zimmasiga mamlakat mudafaasi borasida qo‘shimcha majburiyatlarning yuklanishi; aholi uchun ba‘zi cheklashlarning kiritilishi (masalan, komendantlik soati); muayyan hududlarga borish (va u erdan chiqish) ning taqiqlanishi.

Hokim – (ar. hukm yurituvchi boshliq) markaziy hukumat tomonidan viloyatlarga tayinlangan hukmdor (gubernator); qozi (hokimi adolat); O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, hokimlik instituti tiklandi. Hokim, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, viloyat, tuman va shahar vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi, hamda tegishli xalq deputatlari kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Hokimiyat – 1) biror shaxs, narsa ustidan ustunlik qobiliyati, huquqi, imkoniyati; 2) odamlar ustidan siyosiy hukmronlik; 3) davlat organlari tizimi; 4) tegishli davlat, ma‘muriy vakolatlarga ega shaxslar, muassasalar.

Hokimiyat davlatniki - siyosiy hokimiyat shakli. U butun aholi rioya qilishi shart bo‘lgan qonunlar chiqarishning mutlaq huquqiga ega va shu qonun va ko‘rsatmalar bajarilishini ta‘minlash vositasidan biri sifatida maxsus bo‘ysundirish apparatiga suyanadi.

Hokimiyat tangligi – davlat hokimiyati organlarining faoliyati keskin yomonlashuvi, bu - shashishida o‘z aksini topadigan jamiyatdagi yoki uning biron ma‘muriy – hududiy birligidagi tanglik vaziyati. U yangi hokimiyat markazlarining vujudga kelishi bilan ham xarakterlanadi.

Hokimiyatlar bo‘linishi – siyosiy hokimiyatning markazlashuviga yo‘l qo‘ymaslikka, uni cheklash va nazorat etishga qaratilgan tamoyil. G‘arbiy Evropa siyosatchilari va olimlari tomonidan ishlab

chiqilgan va amalda qo'llaniladi. U ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarining bir-biridan mustaqilligi, bir-biriga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarining mavjudligi (veto huquqi, impichment, hukumatning amalda kimga tobeligi v.h.) hamda nazorat mexanizmlari borligi bilan xarakterlanadi. Hokimiyatlar bo'linishi – konstitutsiyaviy, huquqiy davlatning bosh belgilaridan biri.

Hukmronlik – hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi. U ijtimoiy institutar shakliga ega bo'ladi, hukmron hamda itoat etuvchi ijtimoiy guruhlar o'rtasida pog'onalashuv, muayyan ijtimoiy masofa mavjudligini, alohida boshqaruv apparatining ajralib chiqishini nazarda tutadi. Hokimiyat hukmronlik tushunchasini qamraydi, ammo doim ham hukmronlik belgilariga ega bo'lmaydi.

Hukumat boshlig'i – hokimiyatning oliy ijro organi rahbari (parlament boshqaruvi mamlakatlarida – premer-ministr, kansler; prezident respublikalarida - prezident). Parlament boshqaruvi amal qiluvchi mamlakatlarda hukumat boshlig'i davlat boshlig'i tomonidan tayinlanadi. Odatda bu - g'olib partiya etakchisi yoki hukumat koalitsiyasi tarkibidagi partiya etakchisi.

Hukumat – mamlakatning oliy ijro organi. Uning tarkibi turli boshqaruv tizimlarida turli usullar bilan aniqlanadi: prezidentlik respublikasida hukumat prezident tomonidan va uning oldida mas'ul; parlament respublikasida – hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning oldida mas'ul; aralash turdagi respublikalarda hukumat boshlig'i (premer-ministr) hukumatni tuzadi va u ham prezident, ham parlamentga hisobotlidir. Hukumat bir partiyaviy yoki koalitsion bo'lishi mumkin. O'zbekiston hukumati – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidir.

Huquq - ijtimoiy munosabatlarda odamlarning rasman tengligini bayon etishning qoidaviy shakli. Me'yorlar, qoidalar tizimi tarzida amal qiladi, davlat hokimiyati tomonidan belgilanadi va bajarilishi davlat hokimiyatining zo'rlikka qonuniy yakka egali bilan ta'minlanadi.

Huquqiy davlat - o'z faoliyatida huquq tomonidan cheklangan davlat. U shaxs erkinligi, xavfsizligi va sha'nini himoya qiladi, xalq irodasiga itoat etadi. Inson va davlat munosabatlari konstitutsiya bilan belgilanadi va ular bir-birlariga nisbatan mas'uldirlar. U rivojlangan fuqarolik jamiyati mavjudligini, qonun ustivorligi, shaxs erkinligi, huquqlarning kafolatlanishi; hokimiyatlar bo'linishi; qonunlar bajarilishini nazorat mexanizmlari va konstitutsiyaviy nazoratning mavjudligiga asoslanadi. Hozirgi kunda etishish lozim bo'lgan maqsad tarzida qaraladi.

III BO'LIM - ILOVALAR

FAN DASTURI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

Рўйхатга олинди

№ БД-1.10-1

2011 йил "8" 11

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
махсус таълим вазирлигининг 2011 йил
17 сентябрдаги 392-сон буйруғи билан
тасдиқланган

TAJRIBA-SINOV

**O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH
NAZARIYASI VA AMALIYOTI
FANIDAN NAMUNAVIY
DASTUR**

(bakalavr yo'nalishi uchun)

Toshkent - 2011

Mazkur namunaviy dastur Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma'qullangan.

Ushbu dastur "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanidan bakalavrning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo'yiladigan talablar asosida tayyorlangan.

Tajribaviy dasturni kelgusida to'ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib, fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz:

Toshkent shahar, 2-Chimboy ko'chasi 96-uy, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
"Ma'naviy-axloqiy tarbiya" boshqarmasi, tel.: 246-10-58, 246-10-54.

Fanning o'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Ergashev I.	- siyosiy fanlari doktori, professor (DJQA)
Quronboev Q.	- siyosiy fanlari doktori (O'zMU)
Otamurotov S	- falsafa fanlari doktori, professor (TKTI)
O'tamurodov A.	- falsafa fanlari nomzodi, dotsent (O'zMU)
Xabibullaeva D.	- tarix fanlari nomzodi, dotsent (O'zMU)
Musaev O.	- tarix fanlari nomzodi, dotsent (O'zMU)
Ro'zimetova D.	- falsafa fanlari nomzodi, dotsent (O'zMU)
SHerniyozova G.	- siyosiy fanlari nomzodi, dotsent (QQDU)
Xolov A.	- katta o'qituvchi (DJQA)
Nishanbaeva E.	- katta o'qituvchi (O'zMU)

Taqrizchilar:

YAkubov B.	- tarix fanlari nomzodi (O'zR Oliy Majlisi o'rinbosari)
Nazarov N.	- siyosiy fanlar doktori, professori (MRDI)

Fanning o'quv dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan (2011 yil 19 avgustdagi 1-son bayonnoma).

Kirish

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng o'z oldiga demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. SHu yo'nalishda jamiyatning va davlat qurilishining barcha sohalarida demokratik talablarga mos ko'plab islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Mustaqil taraqqiyot yo'li davomida mamlakatimizda yangi fanlar shakllanishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ana shu imkoniyat va zaruriyatdan kelib chiqqan holda O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani shakllanib, rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda fanning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo'lib, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida yangi tarixiy davrning boshlanishi; Prezident Islom Karimov tomonidan demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga tadbiiq etilishi, demokratiyani shakllantirishda jahon tajribalariga tayanilishi, demokratiyani anglash va uni shakllantirish, erkin jamiyat taraqqiyoti, demokratiyaning mazmun-mohiyatini belgilovchi mezonlarni yoritishga qaratilgan. Zero, Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir»¹²³¹.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - talaba yoshlar ongiga demokratiyaning nazariy asoslari va qadriyatlarini singdirish, demokratik jamiyatda yashash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari:

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalarini tushuntirish;

Demokratiyaning asosiy tushunchalari va qonuniyatlarini o'rgatish, uning hayotimizda tutgan o'rni va ahamiyatini ko'rsatish

«O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li», «demokratiya», «dunyoviy davlat», «demokratik jamiyat», «demokratik ong», «demokratik tafakkur» kabi tushunchalar mazmun-mohiyatini talabalar ongiga singdir

Demokratik jamiyatning umumbashariy qadriyatlari va tamoyil-larini yoritish;

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining ustuvor yo'nalishlarini tushuntirish;

Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatish;

Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tish davrida "o'tish davri"ning tabiiyligi haqida talabalarga tushunchalar berish;

Qonun ustuvorligi demokratik, fuqarolik jamiyati qurishning asosi ekanligini ko'rsatish;

Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlashning demokratik jamiyat qurishdagi rolini e'tirof etish;

Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirishning o'zaro aloqadorligini izohlash;

Demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining rolini yoritish;

Demokratik jamiyatni barpo etishda nodavlat notijorat va jamoat birlashmalarining o'rni va ahamiyatini ochib berish;

Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya tizimining zarurligini ilmiy asoslash;

¹²³ Каримов И. А. Хозирги даврда демократик ислохотларни чуқурлаштиришнинг долзарб вазибалари. Т.5. — Т.: «Ўзбекистон», 1997.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishini ko'rsatib berishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- demokratik jamiyat to'g'risida nazariy bilimlar va ularning O'zbekistonda qo'llanilishi to'g'risida;

- O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayoni haqida;
- jamiyatning sotsial madaniy taraqqiyoti to'g'risida;
- xalqda madaniy, ijtimoiy, siyosiy tasavvurlar shakllanishi va taraqqiyoti to'g'risida;
- demokratik boshqaruv strategiyasi va etikasi haqida;
- demokratik taraqqiyotning o'zbek modeli haqida;
- o'tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda siyosiy-tarixiy tajribalardan foydalanish;

- demokratik davlat boshqaruv nazariyasi bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi;
- davlat hokimiyati organlari tizimini bilishi;
- demokratik davlat boshqaruvi tuzilmasini;

demokratik davlat qurilishi nazariyasi mohiyatini bilishi va foydalana olishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani o'quv rejasidagi “Siyosatshunoslik”, “Sotsiologiya”, “O'zbekiston tarixi”, “Huquqshunoslik”, “Falsafa”, “Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” kabi fanlar bilan o'zaro bog'liq. Mazkur fanlar shaxsning siyosiy-intellektual kamolotida, ijtimoiy munosabatlarda demokratik, umuminsoniy qadriyatlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani sohasida egallangan bilimlar insonning maqsadini aniqlashda, demokratik jamiyatda yashash ko'nikmasini shakllantirishda, huquqiy tenglikka amal qilishga, ijodiy faoliyati jarayonida burch va mas'uliyatni his qilishga ijobiy ta'sir qiladi. Insonning dunyoda o'z o'rnini anglashda, maqsadli faoliyat yuritishda, demokratik jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishda namoyon bo'ladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillariga amal qilingani holda an'anaviy usullar, davra suhbat, klaster, bahs-munozara, aqliy hujum, matbuot konferensiyasi, taqdimot kabi zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Fanni o'zlashtirish mobaynida interfaol usullarning turli shakllaridan, zamonaviy elektron texnika vositalaridan, ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi.

1.3.Moddiy texnik va o'quv – metodik ta'minotiga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston milliy taraqqiyotning eng ma'suliyatli bosqichi -ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning keskin burilish davrini boshidan kechirmoqda. Jamiyatimiz har bir fuqarosi XXI asri ibtidosida, ortda qolgan yillarni sarhisob qilish va kelajak hayotning turli jabhalari rejasini belgilab olish muammosiga duch kelishi ijtimoiy fan olimlari zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yukori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni echimini topib ularni amalda keng ko'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada

takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratining emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon Bilim ob'ektiv borlikdagi voqea-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladiga tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beoadigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustakil o'kiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo'ladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifati belgilovchi holatlar quyidagilar: yukori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'kish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmuani loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ga'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bogliq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini rzida mujassam etmogi lozim: jaryonning mantiqiyliigi, uning barcha eo'g'inlarini o'zaro boglanganligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va shtensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning yuixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini shldiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratlilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda xamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baxolashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborn qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda takdik Kilish orkali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv karama-karshiligi va uni xal etish usullarini, dialektik mushoxadani shakllantirish va rivojlantirishni amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda ko'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarin qo'llash — yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'kuv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid; vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullarii, amaliy ishlash usuli.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, **muloqot** hamkorlik va o'zaro o'rganishga asolangan frontal, kollektiv va guruhlarda ishlash.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari; tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, **oraliq** va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarin belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarin rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchinin birgalikdagi harakati, nafakat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashkari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baxolash: o'quv mashg'ulotida ham butun fan davomid ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Fan oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

1.4. AXBOROT –USLUBIY TA'MINOT RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364-b.
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T. 2.- T.: O'zbekiston. 1996. – 380-b.
3. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6.- T.: O'zbekiston. 1998. – 429-b.
4. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11.- T.: O'zbekiston, 2003. – 320-b.
5. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13.- T.: O'zbekiston, 2005. – 448-b.
6. Karimov I. A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2007. – 48-b.
7. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 48-b.
8. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: “O'zbekiston”, 2007. -b.251
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008,
10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. 2011.
11. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.: «O'zbekiston», 2012.
12. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi/I.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012 –yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqi. 19.01.2012 .Toshkent.
13. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy yettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – T.: “O'zbekiston”, 2012.
14. Karimov I.A. “O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash – bizning farzandlik burchimizdir”//Xalq so'zi gazetasi 11 may, 2015 yil
15. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqbolli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T., O'zbekiston, 2015 .
16. Karimov I.A. Ozodlik havosidan to'yib nafas olgan xalq o'z yo'lidan heh qachon qaytmaydi. T., O'zbekiston, 2016
17. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim

- ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
18. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir. O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasining VIII s‘ezdidagi ma‘ruzasi. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining rasmiy sayti.
 19. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48
 20. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
 21. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b
 22. Mirziyoyev Sh.M. Ilm fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // “Xalq so‘zi”, 2016 yil 31 dekabr.
 23. Mirziyoyev Sh. Ensuring social stability, safeguarding purity of our sacred religion is an imperative of time. Cambridge, 2017.
 24. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi// <http://president.uz/uz/lists/view/1328>. 7.12.2017 yil
 25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// <http://president.uz/uz/lists/view/1371>. 22.12.2017 yil.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Qirg‘izboyev M. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Andijon, 2014,- 360 b
2. Aliyev B va boshqalar O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2012. – 280 b.
3. Aliyev B., Hoshimov T. va boshqalar. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2007. – 240 b.
4. Do‘stjonov T., Mirhamidov M., Hasanov S. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2007. – 540 b.
5. Aliyev B., Hoshimov T. va boshqalar. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma (yangi pedagogik texnologiyalar asosida). – T.: TDIU, 2007. – 167 b.
6. Aliyev B., Hoshimov T. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2006.
7. Ergashev I. va boshqalar. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Navro‘z”, 2005.
8. Aliyev B., Hoshimov T. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti., 2005. – 160 b.
9. Sulstonov T., Hayitov A. Demokratik jamiyat sari: parlament saylovlari va siyosiy partiyalar. – T.: TDIU, 2004. – 64 b.
10. Azizxonov A.T. va boshqalar. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Ma‘ruzalar matni. – T.: O‘AJBNT markazi, 2001. – 336 b.

11. Mirzayev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: TDTU, 2000. – 328 b.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2010. – 187b.;
2. Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va siyosiy partiyalar. – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2010. – 142b.;
3. Huseynova A. Ayollar faolligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarning o'rni // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2010. – №3. – B.46-50.;
4. Huseynova A. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va genezisi // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2009. – №4. – B.27-31.
5. Nazarov Sh.N. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli (nazariy va huquqiy masalalar): Avtoref.dis. ...yurid.fan nom..-Toshkent, 2009.-25b.;
6. Tolibov I. Fuqarolik jamiyati: tushunchasi, institutlari, asosiy prinsiplari va funksiyalari. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 239 b.;
7. Qirg'izboyev B. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba.-T.: "Yangi avlodi". 2006. – 204 b.
8. Odilqoriyev X.T. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik jarayoni.- T.: - "O'zbekiston"-2005. 40 b.
9. Sharifxujayev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati.-T.: - "Sharq" 2005.- 40 b.
10. Quronov M. O'zbek xarakteri va milliy g'oya. – T.: "Ma'naviyat", 2005. – 96 b.
11. Sulstonov T., Hayitov A. Demokratik jamiyat sari: parlament saylovlari va siyosiy partiyalar. – T.: TDIU, 2004. – 64 b.
12. Odilqoriyev X.T., G'oyibnazarov Sh. G'. Siyosiy madaniyat. – T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2004. – 304 b.
13. Jalilov Sh.I. Fuqarolik jamiyatining poydevori. – T.: "O'zbekiston", 2003. 208 b.
14. Jo'rayev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. – T.: TDS'HI, 2003. – 364 b.

ILMIY JURNALLAR

15. Murodov S. Nodavlat sektorni modernizatsiyalash va erkinlashtirish // Jamiyat va boshqaruv. – 2009. – №3. – B.22-24.;
16. Kenjayev E. Fuqarolik institutlari tushunchasi: ma'no va mohiyati // Jamiyat va boshqaruv. – 2008. – №3.- B.77.;
17. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.-270b.;
18. Zunnunov G'. Fuqarolik jamiyati sari // Demokratlashtirish va inson huquqlari. –2006. – №4.-B.35-37.;
19. Murodov S. Davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi // Jamiyat va boshqaruv. – 2006. – №4. – B.75.;
20. Sharifxo'jayev M.O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – Toshkent: Sharq, 2003.-508b.;

XORIJIY ADABIYOTLAR:

21. Diamond L., Morlino L. The quality of democracy. In Search of Democracy. London: Routledge, 2016.
22. Diamond Larry. Timeline: Democracy in Recession. The New York Times. Retrieved, 25 January 2016.
23. Kopstein Jeffrey, Lichbach Mark, Hanson Stephen E. Comparative Politics: Interests, Identities, and Institutions in a Changing Global Order (4, revised ed.). Cambridge University Press, 2014. – pp. 37–9.
24. Volk Kyle G. Moral Minorities and the Making of American Democracy. New York: Oxford University Press, 2014.

25. Emerson Peter. Defining Democracy. Springer, 2012.
26. Jan Aart Scholte. Building Global Democracy?: Civil Society and Accountable Global Governance Paperback. – May 16, 2011.
27. Barak Aharon. Judge in a democracy, Princeton, New Jersey: Princeton University Press, 2006. - p. 27.
28. The Judge in a Democracy. Princeton University Press, 2006. - p. 26.
29. Dworkin Ronald. Is Democracy Possible Here? Princeton: Princeton University Press, 2006. - p. 134.
30. Held David. Models of Democracy. Stanford University Press, 2006.
31. Diamond, Larry & Leonardo Morlino. Assessing the Quality of Democracy. JHU Press, 2005.
32. Dahl Robert A., Shapiro Ian, Cheibub Jose Antenio. The democracy sourcebook. Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 2003.
33. Tocqueville Alexis de. Democracy in America. USA: Barnes & Noble, 2003. - pp. 11, 18-19. 230-3.
34. Khan L. Ali. A Theory of Universal Democracy: Beyond the End of History. Martinus Nijhoff Publishers, 2003.
35. Henaff Marcel, Tracy B. Public space and democracy. Minneapolis: University of Minnesota Press, 2001.
36. Diamond Larry & Richard Gunther Political Parties and Democracy. JHU Press, 2001.
37. Gabardi Wayne. Contemporary Models of Democracy. Polity, 2001.
38. Dahl Robert A. On Democracy. Yale University Press, 2000.
39. Plattner Marc F. & Aleksander Smolar. Globalisation, Power and Democracy. JHU Press, 2000.
40. Birch Anthony H. The Concepts and Theories of Modern Democracy. London: Routledge, 1993.
41. Michael McFaul. Advancing Democracy Abroad. Rowman & Littlefield. 2010

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. Xalq so'zi gazetasi – www.infoXS.Uz
2. Turkiston gazetasi – www.turkistonsarkor.uz
3. Ma'rifat jurnali – www.ma'rifat-inform.uz
4. Qonunchilik - www.lez.uz
5. Moziydan sado jurnali – www.moziy.dostlink.net
6. Tashqi ishlar vazirligi – www.mfa.uz
7. Ziyonet – www.ziyonet.uz
8. Vazirlar mahkamasi sayti - www.gov.uz
9. Prezident matbuot markazi - www.press-service.uz
10. Senat - www.senat.uz
11. www.politnauka.org

ISHCHI DASTUR - SILLABUS
«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining
2018/2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan
SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti		Sh.Rashidov ko'chasi, 4 - uy
Kafedra:	"Ijtimoiy fanlar"		"Tarix" fakulteti tarkibida
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	100000 – Gumanitar	110000 O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Bakalaviriya yo'nalishi: <i>barcha yo'nalishlar uchun</i>	
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	To'rayev Abror Saloxiddinovich	e-mail:	Ijtimoiy2017@mail.ru
Dars vaqti va joyi:	__-bino __ auditoriya	Kursning davomiyligi:	05.09.2018-20.06.2019
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	dushanba, payshanba va shanba kunlari 14.00 dan 18.00 gacha		
Fanga ajratilgan soatlar	Ma'ruza soatlari		
	Ma'ruza:	28	Amaliyot
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	Sotsiologiya, madaniyatshunoslik, ijtimoiy falsafa, iqtisodiyot nazariyasi		

Fanning mazmuni

Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<p>Mustaqil taraqqiyot yo'li davomida mamlakatimizda yangi fanlar shakllanishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ana shu imkoniyat va zaruriyatdan kelib chiqqan holda O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani shakllanib, rivojlanib bormoqda.</p> <p>O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda fanning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo'lib, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida yangi tarixiy davrning boshlanishi; Islom Karimov tomonidan demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga tadbiiq etilishi, demokratiyani shakllantirishda jahon tajribalariga tayanilishi, demokratiyani anglash va uni shakllantirish, erkin jamiyat taraqqiyoti, demokratiyaning mazmun-mohiyatini belgilovchi mezonlarni yoritishga qaratilgan. Zero, Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanamog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir».</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talaba yoshlar ongiga demokratiyaning nazariy asoslari va qadriyatlarini singdirish, demokratik jamiyatda yashash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari:</p>
---	---

	<p>O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, ob’ekti, maqsadi va vazifalarini tushuntirish;</p> <p>Demokratiyaning asosiy tushunchalari va qonuniyatlarini o‘rgatish, uning hayotimizda tutgan o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish</p> <p>«O‘zbekistonning o‘ziga xos va mos taraqqiyot yo‘li», «demokratiya», «dunyoviy davlat», «demokratik jamiyat», «demokratik ong», «demokratik tafakkur» kabi tushunchalar mazmun-mohiyatini talabalar ongiga singdirish;</p> <p>Demokratik jamiyatning umumbashariy qadriyatlari va tamoyil-larini yoritish;</p> <p>O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining ustuvor yo‘na-lishlarini tushuntirish;</p> <p>Demokratik jamiyat to‘g‘risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatish;</p> <p>Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o‘tish davrida “o‘tish davri”ning tabiiyligi haqida talabalarga tushunchalar berish;</p> <p>Qonun ustuvorligi demokratik, fuqarolik jamiyati qurishning asosi ekanligini ko‘rsatish;</p> <p>Fuqaro erkinligi va faolligini ta‘minlashning demokratik jamiyat qurishdagi rolini e‘tirof etish;</p> <p>Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashti-rishning o‘zaro aloqadorligini izohlash;</p> <p>Demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining rolini yoritish;</p> <p>Demokratik jamiyatni barpo etishda nodavlat notijorat va jamoat birlashmalarining o‘rni va ahamiyatini ochib berish;</p> <p>Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya tizimining zarurligini ilmiy asoslash;</p> <p>O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishini ko‘rsatib berishdan iborat.</p>
<p>Talabalar uchun talablar</p>	<p>“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> - demokratik jamiyat to‘g‘risida nazariy bilimlar va ularning O‘zbekistonda qo‘llanilishi to‘g‘risida; - O‘zbekistonda ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayoni xaqida; - jamiyatning sotsial madaniy taraqqiyoti to‘g‘risida; - xalqda madaniy, ijtimoiy, siyosiy tasavvurlar shakllanishi va taraqqiyoti to‘g‘risida; - demokratik boshqaruv strategiyasi va etikasi haqida; - demokratik taraqqiyotning o‘zbek modeli haqida; - o‘tmish, bugun va kelajak voqealarini baholashda siyosiy-tarixiy tajribalardan foydalanish; - demokratik davlat boshqaruv nazariyasi bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lishi; - davlat hokimiyati organlari tizimini bilishi; - demokratik davlat boshqaruvi tuzilmasini; <p>demokratik davlat qurilishi nazariyasi mohiyatini bilishi va foydalana olishi kerak.</p>
<p>Elektron pochta orqali munosabatlar</p>	<p>Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va</p>

tartibi

dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha

Fan mavzulari va unga ajratilgan saotlar taqsimoti:

t /r	Ma'ruza mavzulari	Soat
1	2	3
7-semestr		
1-mavzu. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmeti, ob'ekti, maqsad va vazifalari		2
1.	"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining obyekt, predmeti, o'ziga xos xususiyatlari	
2.	"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining maqsad va vazifasi	
3.	"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining asosiy tushunchalari va qonuniyatlari	
4.	"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanini o'rganishni nazariy va amaliy ahamiyati	
2-mavzu. Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari		2
1.	O'zbekiston zaminida demokratiya va adolatli jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va qadimgi manbalar.	
2.	IX-XV asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyatga doir g'oyalar	
3.	XV-XX asrlarda O'rta Osiyoda davlat va jamiyat qurilishini haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar	
4.	Sobiq sho'rolar davrida markazlashgan ma'muriy boshqaruv va uning demokratik jamiyatga zidligi	
3-mavzu. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning "O'zbek modeli"		2
1	Demokratik jamiyat qurishning jahondagi turli xil milliy modellari	
2	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari	
3	"O'zbek modeli" uning asosiy tamoyillari va jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot sohalarida namoyon bo'lishi.	
4	"O'zbek modeli" va mamlakatimiz taraqqiyoti strategiyasi	
4-mavzu. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari		2
1.	"O'tish davri" tushunchasi. O'tish davrining zarurligi, mohiyati va umumiy qonuniyatlari	
2.	O'tish davrining klassik, inqilobiy va evolyusion yo'llari	
3.	Mustaqil O'zbekistonda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari	
3.	O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning nazariy, konseptual metodologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	
5-mavzu. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari		2

1.	Demokratik jamiyatning milliy va umumbashariy tamoyillari	
2.	Milliy – ma’naviy o’zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi	
3.	Milliy qadriyatlarning tiklanishi - demokratik jamiyat qurishning muhim sharti.	
4.	Mustaqil O’zbekiston davlat siyosatining insoniylik va ezgulik qonunlariga asoslanishi	
6-mavzu. Qonun ustuvorligi –huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi		2
1.	“Qonun ustuvorligi” tushunchasi, mohiyat – mazmuni	
2.	O’zbekistonda davlat xokimiyatining bo’linish tamoyili	
3.	Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlashi	
4.	Jinoyat va jinoyat- prosessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvar tamoyiliga muvofiqligi	
7-mavzu. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish		2
1.	Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, unga oid qonunlar va me`yoriy hujjatlarning mazmun mohiyati	
2.	Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar	
3.	Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis rolini yanada kuchaytirish	
4.	O’zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlanishi va saylov qonunchiligini rivojlanishi	
8-mavzu. Fuqaro erkinligi, huquq va manfaatlar ustuvorligini ta’minlash		2
1.	“Fuqaro erkinligi va huquq va manfaatlar” tushunchasi, mazmini va mohiyati	
2.	Inson huquqlari va erkinliklarini ta`minlash boyicha xalqaro va milliy huquqiy normalar va prinsplar	
3.	Demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish zarurligi	
4.	O`zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qimoya qilish bo`yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo`nalishlari	
9 - mavzu. Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish		2
	Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish tushunchasi va mohiyati	
	O’zbekistonda iqtisodiy xayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o’ziga xos xususiyatlari	
	O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Bozor infrotuzulmasi	
	Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishning axamiyati	
8-semestr		
10- mavzu. Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat		2

tamoyillari		
1	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda "kuchli ijtimoiy himoya" va "ijtimoiy adolat" tushunchalari, mazmun va mohiyati.	
2.	O'zbekiston ijtimoiy xayotidagi o'zgarishlar va uning aholi farovonligini ta'minlashda namoyon bo'lishi	
3.	O'zbekistonda kuchli ijtimoiy ximoya siyosati, uning bosqichlari, xususiyatlari va rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirilishi	
4	Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, oila institutining qollab-quvvatlash	
	11- mavzu. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlarini demokratiyalashuvi	2
1	O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining demokratiyalashuvi tushunchalari	
2	O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat hokimiyatining o'rni	
3	Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish	
4	Mahalla faoliyatining qonuniy va tashkiliy asoslari hamda funksiyalari, uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari	
	12- mavzu. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish	2
1	Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi	
2	O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari	
3	Jamiyat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligini oshirish	
4	Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti	
	13- mavzu. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash	2
1	Axborot erkinligini ta'minlash tushunchasi, mazmun-mohiyati	
2	Ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlar va axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini rivojlatirilishi	
3	Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash	
4	Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklari	
	14- mavzu. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi	2
1	O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy asoslari	
2	O'zbekistonning chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari	
3	O'zbekistonning, BMT va xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi, mintaqalararo va davlatlararo munosabatlari	
4	O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrashuvi, xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun tashabbuslari	

Jami		28
t /r	SEMINAR MAVZULARI	Soat
1	2	3
7-semestr		
1-mavzu. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari		2
1.	“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining obyekti, predmeti, o‘ziga xos xususiyatlari	
2.	“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsad va vazifasi	
3.	“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining asosiy tushunchalari va qonuniyatlari	
4.	“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o‘rganishni nazariy va amaliy ahamiyati	
2-mavzu. Demokratik jamiyat to‘g‘risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari		2
1.	O‘zbekiston zaminida demokratiya va adolatli jamiyat to‘g‘risidagi dastlabki qarashlar va qadimgi manbalar.	
2.	IX-XV asrlarda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyatga doir g‘oyalar	
3.	XV-XX asrlarda O‘rta Osiyoda davlat va jamiyat qurilishini haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar	
4.	Sobiq sho‘rolar davrida markazlashgan ma‘muriy boshqaruv va uning demokratik jamiyatga zidligi	
3-mavzu. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “O‘zbek modeli”		2
1	Demokratik jamiyat qurishning jahondagi turli xil milliy modellari	
2	O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o‘ziga xos xususiyatlari	
3	“O‘zbek modeli” uning asosiy tamoyillari va jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayot sohalarida namoyon bo‘lishi.	
4	“O‘zbek modeli” va mamlakatimiz taraqqiyoti strategiyasi	
4-mavzu. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda o‘tish davri va taraqqiyot bosqichlari		2
1.	“O‘tish davri” tushunchasi. O‘tish davrining zarurligi, mohiyati va umumiy qonuniyatlari	
2	O‘tish davrining klassik, inqilobiy va evolyusion yo‘llari	
3	Mustaqil O‘zbekistonda o‘tish davri va taraqqiyot bosqichlari	
4	O‘zbekistonda demokratik jamiyatga o‘tishning nazariy, konseptual metodologiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari	
5-mavzu. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari		2
1	Demokratik jamiyatning milliy va umumbashariy tamoyillari	
2	Milliy – ma‘naviy o‘zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi	
3	Milliy qadriyatlarning tiklanishi - demokratik jamiyat qurishning muhim sharti.	
	Mustaqil O‘zbekiston davlat siyosatining insoniylik va ezgulik	

4.	qonunlariga asoslanishi	
6-mavzu. Qonun ustuvorligi –huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi		2
1.	“Qonun ustuvorligi” tushunchasi, mohiyat – mazmuni	
2.	O‘zbekistonda davlat xokimiyatining bo‘linish tamoyili	
3.	Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashi	
4.	Jinoyat va jinoyat- prosessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvar tamoyiligi muvofiqligi	
7-mavzu. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish		2
1.	Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, unga oid qonunlar va me`yoriy hujjatlarning mazmun mohiyati	
2.	Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar	
3.	Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis rolini yanada kuchaytirish	
4.	O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta‘minlanishi va saylov qonunchiligini rivojlanishi	
8-mavzu. Fuqaro erkinligi, huquq va manfaatlar ustuvorligini ta‘minlash		2
1.	“Fuqaro erkinligi va huquq va manfaatlar” tushunchasi, mazmini va mohiyati	
2.	Inson huquqlari va erkinliklarini ta`minlash boyicha xalqaro va milliy huquqiy normalar va prinsplar	
3.	Demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish zarurligi	
4.	O‘zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qimoya qilish bo`yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo`nalishlari	
9 - mavzu. Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish		2
	Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish tushunchasi va mohiyati	
	O‘zbekistonda iqtisodiy xayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	
	O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Bozor infrotuzulmasi	
	Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizasiya qilishning axamiyati	
8-semestr		
10- mavzu. Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari		2
1	O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda “kuchli ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy adolat” tushunchalari, mazmun va mohiyati.	
2.	O‘zbekiston ijtimoiy xayotidagi o‘zgarishlar va uning aholi farovonligini ta`minlashda namoyon bo`lishi	

3.	O'zbekistonda kuchli ijtimoiy ximoya siyosati, uning bosqichlari, xususiyatlari va rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirilishi	
3.	Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, oila institutining qollab-quvvatlash	
	11- mavzu. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlarini demokratiyalashuvi	2
1	O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining demokratiyalashuvi tushunchalari	
2	O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat hokimiyatining o'rni	
3	Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish	
4	Mahalla faoliyatining qonuniy va tashkiliy asoslari hamda funksiyalari, uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari	
	12- mavzu. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish	2
1	Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzulishi va tarkibi	
2	O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari	
3	Jamiyat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligini oshirish	
4	Ko'ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti	
	13- mavzu. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash	2
1	Axborot erkinligini ta'minlash tushunchasi, mazmun-mohiyati	
2	Ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlar va axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini rivojlatirishi	
3	Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash	
4	Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklari	
	14- mavzu. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi	2
1	O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy asoslari	
2	O'zbekistonnong chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari	

3	O'zbekistonning, BMT va xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi, mintaqalararo va davlatlararo munosabatlari	
4	O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrashuvi, xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun tashabbuslari	
Jami		28

“ O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzular nomi	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta'lim	Jami
		jami	shu jumladan:			
			ma'ruza	amaliy (seminar)		
1	2	3	4	5	6	7
7-semestr						
1	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari	4	2	2	2	
2.	Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari	4	2	2	2	
3.	Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “O'zbek modeli”	4	2	2	2	
4.	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari	4	2	2		
5.	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy tamoyillari	4	2	2	2	
6.	Qonun ustuvorligi – demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi	4	2	2	2	
7.	Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish	4	2	2	2	
8.	Fuqaro erkinligi, huquq va manfaatlar ustuvorligini ta'minlash	4	2	2		
9.	Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish	4	2	4	2	
8-semestr						
10.	O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari	4	2	2	8	
11.	Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlarini demokratiyalashuvi	4	2	2	8	
12.	Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish	4	2	2	10	

13.	Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash	4	2	-	8	
14.	O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi	4	2	2	8	
Jami		56	28	28	56	112

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani o'quv rejasidagi “Siyosatshunoslik”, “Sotsiologiya”, “O'zbekiston tarixi”, “Huquqshunoslik”, “Falsafa”, “Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” kabi fanlar bilan o'zaro bog'liq. Mazkur fanlar shaxsning siyosiy-intellektual kamolotida, ijtimoiy munosabatlarda demokratik, umuminsoniy qadriyatlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani sohasida egallangan bilimlar insonning maqsadini aniqlashda, demokratik jamiyatda yashash ko'nikmasini shakllantirishda, huquqiy tenglikka amal qilishga, ijodiy faoliyati jarayonida burch va mas'uliyatni his qilishga ijobiy ta'sir qiladi. Insonning dunyoda o'z o'rnini anglashda, maqsadli faoliyat yuritishda, demokratik jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishda namoyon bo'ladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o'qitish jarayonida ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillariga amal qilingani holda an'anaviy usullar, davra suhbat, klaster, bahs-munozara, aqliy hujum, matbuot konferensiyasi, taqdimot kabi zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Fanni o'zlashtirish mobaynida interfaol usullarning turli shakllaridan, zamonaviy elektron texnika vositalaridan, ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi.

I- BO'LIM. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA RIVOJLANISHI

“O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI” FANINING PREDMETI, OB'EKTI, MAQSAD VA VAZIFALARI

“O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining ob'ekti va predmeti. O'zbekistonning siyosiy hayoti va undagi o'zgarishlar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish shart-sharoitlari, omillari va amal qilish qonuniyatlarini o'rganish. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi va vazifalari. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining maqsadi – yoshlarda O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari hamda umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar va uni amalga oshirish shart-sharoitlari to'g'risida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish. O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi va amal qilish qonuniyatlari. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning o'ziga xos xususiyatlari. Yoshlarni demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga to'g'risidagi g'oyalari, qarashlar, nazariya va ta'limotlar bilan tanishtirishning ahamiyati. Fanning asosiy tushunchalari va uning qonuniyatlari. Demokratik jamiyatga doir bo'lgan umumiy tushunchalar. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini bilan bevosita bog'liq tushunchalar. “O'zbekistonning o'ziga xos va mos mustaqil taraqqiyot yo'li”, “demokratiya”, “huquqiy davlat”, “fuqarolik jamiyati”, “demokratik jamiyat”, “demokratik ong”, “demokratik tafakkur”, “demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari”, “milliy davlatchilik”, “demokratik jamiyatga o'tish davri” va

“o‘zbek modeli”, “demokratik jamiyatning umumbashariy qadriyatlari va tamoyillari”, “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining ustuvor yo‘nalishlari”. Demokratik jamiyat qurishning umumjahon e‘tirof etgan qonuniyatlari va uning O‘zbekistonda o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lining mavjudligi, O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy-madaniy merosga tayanish. Milliy davlatchilik negizlarini hisobga olish. Uning amaliy jihatlari. Mamlakatimizda demokratik jamiyatni barpo etishda siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishi. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanini o‘rganishning ahamiyati.

DEMOKRATIK JAMIYAT TO‘G‘RISIDAGI DASTLABKI QARASHLAR VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

O‘zbekiston zaminida demokratiya va adolatli jamiyat to‘g‘risidagi dastlabki qarashlar. Uning manbalari va rivojlanishi. «Avesto»da ezgulik, insoniy va adolatli jamiyat boshqaruviga doir qarashlar. O‘zbekiston hududida milliy davlatchilik negizlari. Hokimlik institutining vujudga kelishi.

IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlatni boshqarish va adolatli jamiyatga doir g‘oyalar. Amir Temurning davlat va jamiyat ishlarini tashkil etish tuzuklari. Uning adolatli saltanat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligiga doir qarashlari. Yusuf Xos Xojib, Nizomulmulk, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va boshqalarning adolatli davlat, odil jamiyat, inson erkinligi, ezgulik, ma‘rifat to‘g‘risidagi g‘oyalari. XV-XIX asrlarda davlat va jamiyat qurilishining ijtimoiy-siyosiy holati. Milliy davlatchilik negizlaridan mahrum bo‘lish sabablari va uning oqibatlari. Uni tiklashga bo‘lgan urinishlar. Jadidlarning milliy davlatchilik va adolatli jamiya qurilishiga doir ma‘rifatparvarlik g‘oyalari. Sobiq sho‘rolar davrida O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining o‘ziga xos xususiyatlari. Yagona partiya va davlat manfaatlarining ustuvorligi. Markazlashgan ma‘muriy boshqaruv. Demokratiyani sinfiy tushunish. Totalitarizm va uning oqibatlari. Uning demokratik jamiyatga zidligi. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Milliy mustaqillik va demokratik o‘zgarishlar sari yo‘l tutilishi. O‘zbekistonda prezidentlik institutining joriy etilishi. Mustaqillik deklaratsiyasi bilan bog‘liq g‘oyalar va qarashlar. Islom Karimov — yangi, mustaqil O‘zbekistonning birinchi Prezidenti. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilishining ahamiyati.

MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING “O‘ZBEK MODEL”

Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellarining mavjudligi. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o‘ziga xos xususiyatlari va “o‘zbek modeli”. Uning mohiyatan o‘zaro mushtarakligi. Islom Karimov tomonidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish va “o‘zbek modeli”da demokratik jamiyat qurishga doir tamoyillarning asoslanishi. Iqtisodning siyosatdan ustuvorligi. Davlat bosh islohotchi. Qonun ustuvorligi. Kuchli ijtimoiy himoya. Bosqichma-bosqich rivojlanish. “Dunyoviy davlat” va “milliy davlatchilik” tushunchalari. “O‘zbek modeli”ning jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayot sohalarida namoyon bo‘lishi. Uning O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish xususiyatlariga mosligi. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonlarida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi. “O‘zbek modeli”ni halqaro jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilishi va uning ahamiyati.

Demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti. Ochiq demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”ning demokratik o‘zgarishlarni yanada boyitishdagi ahamiyati.

O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA O‘TISH DAVRI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

“O‘tish davri” tushunchasi. Mustaqillikni qo‘lga kiritgan barcha mamlakatlar uchun uning zarurligi va mohiyati, umumiy qonuniyatlari. Uning har bir davlat uchun xos bo‘lgan xususiyatlarining mavjudligi. O‘tish davrining: “klassik”, “inqilobiy”, “evolyusion” yo‘llari.

Demokratik jamiyat qurishda o'tish davrini "an'anaviy" va "inqilobiy" tushunishning cheklanganligi. O'zbekistonda "o'tish davri"ga yondashishning o'ziga xos jihatlari. Evolyusion, tadrijiy rivojlanish yo'lining mohiyati. Unda har bir mamlakat va xalqlarning o'ziga xos mentaliteti, turmush tarzini hisobga olish zarurligi. Demokratik jamiyat qurish vazifalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi. Islom Karimov tomonidan demokratik jamiyatga o'tishga doir nazariy va konseptual asoslarining ishlab chiqilishi. Islom Karimov o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari to'g'risida. O'zbekistonning totalitar rejim va mustamlaka mamlakatdan demokratik jamiyatga o'tishda o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlari, urf-odat, an'ana va qadriyatlariga tayanishi. O'tish davrida erishilgan yutuqlar va afzalliklarining jamiyatimiz hayotida ko'rinishlari. O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq islohot va o'zgarishlar. Ma'muriy islohotlar amalga oshirilishi. Markazlashgan rejalashtirish va taqsimlash tizimini tugatilishi. Milliy davlatchilik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati negizlarining tiklanishi. Mustaqil taraqqiyot bosqichlari. Faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilinishi. Axborot sohasidagi huquq va erkinliklarni ta'minlanishi. Demokratik saylov tizimining shakllantirilishi. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning ahamiyati

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY DEMOKRATIK TAMOYILLARI

Demokratik jamiyatning milliy va umumbashariy tamoyillari. Demokratiya – milliy va umuminsoniy qadriyat ekanligi. Qadriyat tushunchasi va uning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident Islom Karimov O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy va umumbashariy tamoyillarga tayanish to'g'risida. Milliy madaniy meros va qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi. Uning tarixiyligi va zamonaviyligi. Demokratik jamiyat barpo etishda illiy qadriyatlarni tiklashga bo'lgan zarurat. Demokratiyani milliy manfaatlariga zid "zo'rma-zo'rakilik" bilan joriy qilib bo'lmasligi. Milliy qadriyatlar va demokratik tamoyillar o'rtasida mutanosiblikka erishishning jahon tajribasi. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi. Demokratik tamoyillarga amal qilish shart-sharoitlari. Qonun ustuvorligi. Demokratiya va shaxs erkinligi. Fuqarolarning huquq va manfaatlarining ustuvorligi oliy demokratik qadriyat ekanligi. Demokratik taraqqiyotning xilma-xilligi. Dunyoda turli xalqlar, turli madaniyatlar bor joyda demokratiya o'ziga xos milliy xususiyatlarga, qadriyatlarga tayansa, o'zining amaliy samarasini berishi mumkinligi. Uning mahalliy, milliy, mintaqaviy va muminsoniy qadriyatlarda namoyon bo'lishi. Terrorizmning demokratik jamiyat qurishga qarshi qaratilgan xavf-xatar ekanligi. Mustaqillik va O'zbekiston jamiyati ma'naviy negizlarining o'zgarishi. "Ma'naviy tiklanish" va "ma'naviy yangilanish" tushunchalari. Ularning zarurligi. Ularga yangicha munosabat. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishda milliy-ma'naviy merosning yangicha ma'no va mazmun kasb etishi. "Milliy-ma'naviy me'ros" tushunchasi. Uning mazmun va mohiyati. Milliy-ma'naviy negizlarga tayanish va ularni tiklashga bo'lgan zaruratning sabablari. Demokratik jamiyat qurishda xalqimizning ko'p asrlik davlatchilik va jamiyat qurishdagi an'analarning hisobga olinishi. Agressiv millatchilik, milliy ayirmachilik, buyuk davlatchilik shovinizmi, ekstremizm va terrorizmning demokratiya va milliy-ma'naviy negizlarga zidligi. Ma'naviyat va ilm-ma'rifatning bosh mezoni — insoniylik, uning asosiy maqsadi Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish. Milliy ma'naviy negizlarning demokratik jamiyat, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdagi o'rni. Demokratiya, milliy-ma'naviy tiklanish va arqarorlik. Ma'naviy tiklanish va yangilanishning demokratik jamiyat qurilishidagi ahamiyati. Barkamol shaxs – barqaror taraqqiyot va demokratik jamiyat mezoni. Milliy-ma'naviy o'zgarishlarning davlat va jamiyat qurilishida aks etishi. O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning ma'naviy

yangilanish bilan bog'liqligi. Uning demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati va istiqbollari. O'zbekistonda adolatli, demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlar va umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilishining ahamiyati. Jamiyat hayotini demokratik yangilanishda milliy xususiyatlarni hisobga olish. Mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining insoniylik va ezgulik qonunlariga asoslanishi.

II- BO'LIM. O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI, DEMOKRATIK ASOSLARI VA AMALIYOTI

QONUN USTUVORLIGI –HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI QURISHNING ASOSI

O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi. "Qonun ustuvorligi" tushunchasi. O'zbekistonda davlat xokimiyatining bo'linish tamoyili. Prezidentlik instituti. Qonun chiqaruvchi. Qonunchilik palatasi va Senat. Vazirlar Mahkamasi. Ijro etuvchi va sud hokimiyati. Sud mustaqilligi. Davlat organlarining vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi. Davlat hokimiyati organlari mustaqilligining amal qilishi va mas'uliyati. Konstitutsiya va qonunlarda adolat hamda inson manfaatlarining ustuvorligi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga amal qilishining umumiy tamoyil ekanligi.

Konstitutsiyaga va demokratiyaga zid bo'lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning bekor qilinishi lozimligi tamoyili. Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati. O'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish. Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri - qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish zaruriyati. Qonun ustuvorligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqilishi. Fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishi.

Demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasining yaratilishi.

Bozor iqtisodiyoti asoslarining qonunchilik bazasini shakllantirilishi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

Sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish;

Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash.

DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVINI DEMOKRATLASHTIRISH

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish tushunchasi, ma'no-mazmuni. Hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipi. Hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish. Sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash. Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, ikki palatali milliy parlamentning vujudga kelishi. «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarning mazmun-mohiyati. Ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi. Davlat hokimiyatining uchta subekti, ya'ni davlat boshlig'i - Prezident,

qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning mutanosib taqsimlanishining ta'minlashi. Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiyaning Bosh vazir nomzodining ko'rsatishi va uning parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi.

Siyosiy tizimni modernizatsiya qilishni takomillashtirish jarayoni. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan konstitutsiyaviy o'zgarishlar va uning ahamiyati.

Davlat boshqaruvini takomillashtirishda eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada kuchaytirish: Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish: Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayoni.

FUQARO ERKINLIGI, HUQUQ VA MANFAATLARI USTUVORLIGINI TA'MINLASH

"Fuqaro erkinligi va faolligi" tushunchasi. Uning ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarixidagi talqinlari. Abu Nasr Forobiy komil inson va fozil jamoa to'g'risida.

Inson faolligining asosiy mezonlari. Inson salohiyati demokratik o'zgarishlarning eng faol va bunyodkor omili ekanligi. Inson va jamiyat.

Hozirgi davr demokratik qadriyatlar tizimida inson, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlari.

Islom Karimov demokratik jamiyat qurishda inson va shaxs erkinligi, faolligini yuksaltirish konsepsiyasi. O'zbekistonda inson faolligini oshirish demokratik jamiyat qurishning asosiy omili ekanligi. Fuqarolar faolligi va masuliyatini oshirishning barqaror jamiyat va farovon hayot barpo etishdagi o'rni. Fuqarolar erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurishning bosh maqsadi.

Yoshlarning demokratik jamiyat qurishda ishtiroki, ularning faolligini oshirish yo'llari va omillari.

Demokratiya – fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirish, erkin va farovon hayotni barpo etishning zaruriy sharti. Insonning siyosiy ijtimoiylashuvi va faollashuv jarayonlari. O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirishda fuqarolarning qonun va qarorlar qabul qilishdagi faol ishtiroki. Uning fuqaro erkinligi va faolligini oshirishdagi ahamiyati. Xalq fikri – oliy mezon ekanligi. Ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlarini, huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida.

Sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari himoyasini ta'minlash.

Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutlarining inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati.

O'zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo'nalishlari. Inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan qonunchilik xujjatlari ijrosini ta'minlash. Inson huquqlari sohasidagi huquqiy asosni takomillashtirish bo'yicha zarur choralar ko'rish; inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlarning axvolini doimiy va kompleks monitoringini olib borish; fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish. xalqaro inson huquqlari sohasidagi organlari va tuzilmalari bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish.

DEMOKRATIK BOZOR ISLOHOTLARI VA IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH

Demokratik jamiyatda "iqtisodiy hayotni erkinlashtirish" tushunchasi va mazmuni. Totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi iqtisodiyotidan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish – demokratik jamiyat qurishning asosiy sharti ekanligi. Erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat tamoyillarining o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruv vakolatlarini cheklash va nomarkazlashtirish. Siyosiy islohotlarni takomillashtirish va iqtisodiy taraqqiyot. Islom Karimovning ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi to'g'risidagi konsepsiyasi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Mulkchilikning xilma-xil shakllari. Xususiy mulk va mulkdor. Iste'molchilar huquqlari va tanlash erkinligining ustunligi. Tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi. Raqobatning demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rni.

O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish.

Bozor infratuzilmasini rivojlantirish Xususiy sektor miqyoslarini kengaytirish Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish Tadbirkorlik tizimida oilaviy biznesning o'rni

Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta bozori O'rta mulkdorlar qatlamini Tadbirkorlik va iqtisodiy rivojlantirish faoliyat erkinligini ta'minlash – demokratik jamiyat barqaror rivojining zaruriy sharti

Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilish

Xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlash Mulkdorlar huquqlarining kafolatlari ta'minlanishni takomillashtirish Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish Bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning qonunchilik baza sini shakllantirish «Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida», «Garov reestri to'g'risida» «Rieltorlik faoliyati to'g'risida», «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida» «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida» gi qonunlarni qabul qilinishi Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturi mazmun-mohiyati Iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olish demokratik jamiyat qurishning sharti ekanligi

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish: Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish: Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish: Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish: Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish muhim jarayon ekanligi.

DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA KUCHLI IJTIMOY HIMOYA VA ADOLAT TAMOYILLARI

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda "kuchli ijtimoiy himoya" va "ijtimoiy adolat tamoyillari" tushunchalari. Ularning mazmun va mohiyati. "Adolat" va "tenglik"ning umuminsoniy demokratik qadriyatlar ekanligi. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy adolat va himoya haqidagi g'oyalari va qarashlari. O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoyani jamiyatda tartib, uyg'unlik va barqaror taraqqiyotini ta'minlash omili sifatida qaralishining asoslari. Prezident Islom Karimovning mamlakatimizda huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish to'g'risidagi konsepsiyasi. Ijtimoiy himoya g'oyasining adolat va liberal demokratiya g'oyalari bilan bog'liqligi. Himoyaga muhtoj sotsial guruhlarning ijtimoiy holati. Ijtimoiy adolat va bozor munosabatlari. Demokratik jamiyatda adolat va ijtimoiy himoyaning mushtarakligi. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya siyosati: uning maqsadi, bosqichlari, xususiyatlari, rivojlanishi. Demokratik jamiyatda turli qatlamlar, guruhlar manfaatlarini uyg'unlashtirishda ijtimoiy adolat mezonlari va ijtimoiy himoyani amalga oshirishning barqaror taraqqiyotni ta'minlashdagi ahamiyati. Demokratik jamiyatda oila institutining o'ziga xosligi. Oilada demokratik ong, tafakkur va hayotning dastlabki shakllarining qaror topishi. Oilaning huquqiy demokratik asoslari. Aholini ijtimoiy himoya

qilish uchun yo‘naltirilgan davlat xarajatlarining o‘tib borishi. Sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, yoshlarni ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlarini amalga oshirilishi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishda aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish: aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish: aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta‘minlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish: ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish: yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlarining ahamiyati

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLARNING O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH INSTITUTLARINI DEMOKRATIYALASHUVI

O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda mahalliy xokimiyat va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘rni. Mahalliy davlat hokimiyatining asoslari. Mamlakatimizda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishning shakllari. Ularning fuqarolik jamiyati qurishdagi roli. Mahalla – fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish negizi sifatida. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o‘zini-o‘zi boshqarish tizimining tiklanishi va rivojlanishi. Boshqaruvni nomarkazlashtirishni takomillashtirish. Prezident Islom Karimov O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida. Mahallaning fuqarolarni demokratik qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta‘minlash va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o‘rni. Mahalliy davlat hokimiyati ayrim vakolatlarini o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tib borish jarayoni. Uning demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati. Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish. «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishining ahamiyati. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta‘minlash. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratish demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish va mustahkamlash, hududlarni kompleks rivojlantirishni ta‘minlash, hududlarning salohiyatidan oqilona foydalanish, aholi bilan muloqot qilish, ularning manfaatlarini himoya qilish uchun ehtiyoj va talablarini o‘rganish asosida turmush darajasi va sifatini izchil oshirib borishdagi chora-tadbirlarini kuchaytirish.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro‘yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirishning ahamiyati.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Fuqarolik jamiyatini qurish O‘zbekistonning pirovard strategik maqsadi. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi, uning tuzilishi va tarkibi. “Nodavlat notijorat” va “jamoat birlashmalari” tushunchalari. Ularning ma‘no va mazmuni. O‘zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni rivojlantirish jarayonida nodavlat-notijorat tashkilotlarning o‘rni. O‘zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari. Ko‘ppartiyaviylik – demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, O‘zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston

Liberal-demokratik partiyasi. O'zbekistonda "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" konsepsiyasining amalga oshirilishi fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti. Mamlakatimizda xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati rolini oshib borishi.

Mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va hamiyatini kuchaytirilishi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishni takomillashtirishning fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratishning muhimligi

AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH, AXBOROT VA SO'Z ERKINLIGINI TA'MINLASH

Axborot erkinligini ta'minlash tushunchasi, mazmun-mohiyati. Ommaviy axborot vositalarining to'rtinchi hokimiyat sifatida davlat hokimiyatidagi o'rni. Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash. Ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasini takomillashtirish zaruriyati. Axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash. Ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish. Nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta'minlashning zaruriyati. Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi faoliyatini takomillashtirish. Axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish. Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlashni takomillashtirish. Axborot kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish.

Ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlashda mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish.

Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash, hokimiyat va jamoatchilik o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish borasidagi rolini kuchaytirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat va jamiyat qurilishi tizimida keng foydalanish. Ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlash.

Axborot sohasiga bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini joriy etish, raqobat muhitini kuchaytirish, OAVlarning iqtisodiy erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, jamoatchilikni tezkor, xolis axborot bilan ta'minlash, demokratik prinsiplarga asoslangan holda OAVni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlarni yaratish muhimligi

O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA DEMOKRATIK TAMOYILLARGA ASOSLANISHI

O'zbekiston va jahon hamjamiyati. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekistonning Xalqaro hamjamiyatga qo'shilishidagi demokratik tamoyillari konsepsiyasi. O'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy,

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy asoslari. Jahon hamjamiyati va demokratik jarayonlar. BMT va O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston - AQSh strategik hamkorligi. O'zbekistonning Yevropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligi. Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari demokratik institutlarni rivojlantirish MDH davlatlaridagi demokratik islohotlarning rivojlanish jarayoni. O'zbekiston-Rossiya munosabatlari. O'zbekiston Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkilotidagi o'rni. Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashida o'zaro hamkorlikning ahamiyati. Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik. Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligini rivojlantirish zaruriyatini ko'chayishi. Demokratiyaning umuminsoniy tamoyilarni rivojlantirishda davlatlararo hamkorlik. Fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirishda hamkorlik. Jahon hamjamiyati bilan hamkorligi tizimida milliy manfaatlarining ustuvorligi. Xalqaro terrorizmning demokratiyaga, jahon hamjamiyati hamkorligiga tahdid soluvchi kuch ekanligi. Uni bartaraf etishda jahon hamjamiyati hamkorligining o'rni. Mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning rivojlanishi istiqbolari. O'zbekistonning jahonhamjamiyatida munosib o'rin egallashi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekiston mavqeining oshib borishi.

Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash, xorijiy hamkorlar bilan siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga doir "Yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, O'zbekistonning xorijiy hamkorlar bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirishning muhimligi.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarida ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, fan bo'yicha olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va bilish qobiliyatlarini o'stirish, nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotga tadbiiq etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Seminar mashg'ulotlari davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida ikki tomonlama yaqin aloqa o'rnatiladi, jonli suhbat olib boriladi, o'zaro fikr almashish va turlicha qarashlarni ifoda etish jarayonida fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini amalga oshiradi. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyaning interfaol usullari qo'l keladi.

Bu usullar yordamida o'tkazilgan seminar mashg'ulotlaridan asosiy maqsad – talabalarning faol ishlashi va mustaqil fikrlashi, o'z-o'zini baholash va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish, mustaqil ishlash hamda guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

TAVSIYA ETILADIGAN SEMINAR MASHG'ULOTLARINING TAXMINIY MAVZULARI

1. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmeti va uning qonuniyatlari.
2. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining maqsadi va vazifalari.
3. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining siyosiy-huquqiy fanlar bilan bog'liqligi va ularning farqlanishi.
4. Mamlakatimizda demokratik jamiyatni barpo etishda siyosiy institutlarning roli.
5. Jaxon siyosiy tizimida demokratiyaning rivojlanish bosqichlari.

6. Demokratik jamiyat tushunchasi va uning asosiy tamoyillari.
7. Demokratiyani shakllantirishda «Temur tuzuklari»ning ahamiyati.
8. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining adolatli jamiyat to'g'risidagi qarashlari.
9. O'zbekistonda Prezidentlik institutining joriy etilishi.
10. Dunyoviy davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari.
11. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi.
12. O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari va konstitutsiyasining qabul qilinishi.
13. Jamiyatimizda barkamol avlod tarbiyasida davlat e'tiborining kuchayishi.
14. O'zbekiston boy imkoniyatlar mamlakati.
15. Davlat shakllari va ularning ahamiyati.
16. Huquqiy demokratik davlatni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.
17. Turli madaniyatlar mavjud demokratik jamiyatlarda fuqarolik tushunchasi.
18. O'zbekistonda demokratiyani shakllantirishda terrorizm tahdidi.
19. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi.
20. Qonun ustuvorligi tushunchasi va uning ahamiyati.
21. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi.
22. Respublikada sud mustaqilligining taminlanishida amalga oshirilgan islohotlar.
23. Istiqlol yillarida milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi va ularning yangi jamiyatni shakllantirishdagi o'rni.
24. Agressiv millatchilik ko'rinishlari va ularning salbiy oqibatlari.
25. Demokratik davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar.
26. Dunyoviy dinlarda ezgulik g'oyalari.
27. Fuqaro erkinligi va faolligi tushunchasi.
28. Komil inson tushunchasi va uni tarbiyalash omillari.
29. Fuqarolarda ijtimoiy faollik va uning demokratik jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati.
30. Fuqarolarning burchlari va majburiyatlari.
31. Bozor iqtisodiyoti tushunchasi va unga o'tish yo'llari.
32. Demokratik O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishidagi o'ziga xos yo'li va uning asosiy tamoyillari.
33. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi.
34. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va mulkdorlar sinfining shakllanishi.
35. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni va imkoniyatlari.
36. Parlament tushunchasi, uning mohiyati. O'zbekistonda parlamentarizmning rivojlanishi.
37. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi: huquqiy maqomi, tuzilishi va vakolatlari.
38. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi: qonun ijodkorligi va parlament nazorati.
39. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni.

40. Mahalla millatlararo totuvlik maskani.
41. Mahalla demokratiya instituti.
42. Rivojlangan demokratik davlatlarda nodavlat va jamoat birlashmalarining faoliyati.
43. Mustaqil O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning demokratiyani rivojlantirishdagi roli.
44. Demokratik saylovlarda siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining o'rni. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik asosida parlamentning shakllanishi.
45. Kuchli ijtimoiy himoya tushunchasi va uning mohiyati.
46. Bozor munosabatlari sharoitida kuchli ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati.
47. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan o'zaro aloqalari.
48. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi.
49. O'zbekistonning AQSh va Yevropa davlatlari bilan o'zaro hamkorligi.
50. O'zbekistonning sharq davlatlari bilan ikki tomonlama aloqalari.

MAVZULARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN NAZORAT VA TEST SAVOLLARI

NAZORAT SAVOLLARI

1. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining o'quv tizimida o'qitishdan ko'zlangan maqsad nima?
2. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining asosiy vazifasi va uning o'ziga xos tomoni qanday?
3. Milliy mafkuraviy salohiyatning rolini ilmiy va amaliy jihatdan asoslash fanning asosiy vazifasi deb aytsak to'g'ri bo'ladimi?
4. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'lining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
5. O'zbek modelining asoslarini belgilaydigan tamoyillar qaysilar?
6. O'zbek modeli jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot sohalarida qanday namoyon bo'ladi?
7. "O'zbek modeli"ning demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati qanday?
8. Qonun ustuvorligi nima?
9. Qonun ustuvorligi konstitutsiyaning qaysi moddalarida mustahkamlab qo'yilgan?
10. Qonun ustuvorligini belgilovchi asosiy shartlar nimalardan iborat?
11. Qonun ustuvorligini ta'minlashning fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi roli qanday?
12. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy tamoyillari nimadan iborat?
13. Demokratik jamiyat barpo etishning umumbashariy tamoyillari nima?
14. Qadriyat nima?
15. Ma'naviy meros deganda nimani tushunasiz?
16. Milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat barpo etishdagi ahamiyati nimalardan iborat?
17. Demokratiyaning milliy va umumbashariy qadriyat sifatida mohiyati nimadan iborat?
18. Mustaqillik yillarida ma'naviy merosni tiklash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
19. Ma'naviy etuk oila majora va ziddiyatlardan holimi?
20. Oilani mustahkamlashning hal qiluvchi omili nima?
21. Fuqarolik jamiyati qurishda oila institutining o'rni qanday?
22. Oilaning qanday ijtimoiy vazifalari mavjud?
23. Jamiyatimiz oldida turgan vazifalarni hal etishda oilaning rolini kuchaytirishga qaratilgan chora tadbirlarning mohiyati nimada?
24. Nodavlat va jamoat tashkilotlarining fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantirishdagi roli qanday?

25. Nodavlat va jamoat tashkilotlari turli -tuman bo'lishiga sabab nima, ular qanday asosda tashkil etiladi?
26. Qanday tashkilotlarni jamoat tashkilotlari deymiz? Ular ko'proq qanday vazifalarni bajaradilar?
27. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish kontseptsiyasining amalda joriy etish qanday sodir etiladi?
28. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish jarayonida davlat qaysi sohalarda faoliyat ko'rsatishi lozim bo'ladi?
29. Xalqaro munosabatlarda davlatlar tashqi siyosatining qaysi jihatlari ko'prog' ahamiyat kasb etadi?
30. Xalqaro munosabatlarda "bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan o'zoqlashmaslik" deganda nima tushuniladi?
31. Sobiq SSSR dan ajralib davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan respublikalar yana nima uchun MDH ni tuzdilar? Ularning har biri o'z xo'jaligini o'zi mustaqil yuritaversa bo'lmasmidi?
32. Nega MDH mamlakatlari bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustivor vazifasi hisoblanadi?

TEST SAVOLLARI

1. O'zDJQN va amaliyoti fanining o'rganadigan sohalarini ko'rsating.

- A) Konstitutsiya va qonunning ustunligi, inson huquqlari bilan bog'liq umumiy qoidalar, jinoiy va ma'muriy javobgarlik asoslari, xususiy mulkni muhofaza qilishning xuquqiy tizimi
- B) Konstitutsiya va qonunning ustunligi, inson huquqlari bilan bog'liq umumiy qoidalar, demokratik tamoyillar, davlat hokimiyatining tashkil etilishi
- V) Inson huquqlari bilan bog'liq umumiy qoidalar, demokratik tamoyillar, xususiy mulkni muhofaza qilishning xuquqiy tizimi
- G) Konstitutsiya va qonunning ustunligi, davlat hokimiyatining tashkil etilishi, ijtimoiy tizim va stratifikatsion jarayonlar

2. O'zDJQN va amaliyoti fanini o'rganishining o'ziga xos zarurati nimada?

- A) Dunyoda demokratiya to'g'risida muayyan mo'tadillashgan konsepsiyalarning ishlab chiqilganligi va ularni o'rganishga bo'lgan zaruriyat, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat, uning o'ziga xos xususiyatlarini anglash
- B) O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganligi, milliy davlatchilik tarixini o'rganish va milliy g'oya mazmuni anglash
- V) O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat va uning o'ziga xos xususiyatlarini anglash, bozor munosabatlari va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganish
- G) O'zbekistonning davlat boshqaruvi tizimi va qonunchiligi asoslarini o'rganish, milliy g'oya mazmunini anglash

3. O'zDJQN va amaliyoti fanning asosiy vazifalaridan birini ko'rsating.

- A) YOshlarda huquqiy savodxonlikni oshirish, ijtimoiy-siyosiy faol qatlamni shakllantirish
- B) YOshlarda demokratik ong va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish
- V) YOshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va iqtisodiy madaniyatini yuksaltirish
- G) Jamiyat a'zolarining faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va huquqiy demokratik davlat barpo etish

4. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmetini aniqlang?

- A) Jahondagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni tahlil etish, ilmiy xulosalar ishlab chiqish
- B) Xalqaro munosabatlarni o'rganish, diplomatik munosabatlar
- V) Tashqi iqtisodiy va moliyaviy masalalarni tahlil etish
- G) Siyosat, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish
- D) O'zbekistonda demokratik jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini

o'rganish.

5. O'zbekistonda milliy davlatchiligimiz to'g'risidagi eng qadimgi manba "Avesto"da zamonaviy demokratik tamoyillar uchun asos bo'luvchi qanday g'oyalar ilgari surilgan?

- A) Ezgulik, adolat va tabiatni asrash, xokimiyatning bo'linishi
- B) Inson huquqi, erkak va ayolning tengligi, shartnomalarning majburiyligi
- V) Qonunning ustuvorligi, ezgu amal, saylov, demokratik boshqaruv
- G) Jazolarning liberallashtirilishi, erkin saylovlar, adolat va qonuniylik

6. Insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi muayyan tabiiy-davlatga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishi, unda adolat va axloqning shakllanishi qonuniyatlarining nazariy tamoyillarini yaratgan mutafakkir?

- A) Forobiy
- B) Ibn Sino
- V) Beruniy
- G) Al Xorazmiy

7. Taraqqiyotning milliy modellaridan biri – AQSH modelining eng asosiy o'ziga xos jihatida nimada?

- A) Davlatning iqtisodiyotdagi o'rining yuqori ekanligi
- B) Erkin bozor munosabatlari
- V) Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi
- G) Iqtisodiyot asosida xizmat ko'rsatish sohasi turadi

8. "O'zbek modeli" ning asosini nima tashkil etadi?

- A) Jamiyatning isloh etishning besh tamoyilish
- B) Ijtimoiy adolat va milliy tamoyillar
- V) Jamoaviylik va milliy mentalitet
- G) Milliy va umumbashariy tamoyillar

9. Nima uchun har bir mustaqil davlat, xususan, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini tanlashi, o'z modelini yaratib olishi kerak bo'ldi?

- A) Dunyoning rivojlangan davlatlari taklif etgan modellar mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga to'g'ri kelmas edi
- B) Dunyoda rivojlanishning barcha davlatlarga mos keladigan tayyor andozasining yo'qligi
- V) Milliy mustaqillikni saqlab qolishimizga bo'lgan ishonchsizlik natijasida hech bir davlat amaliy yordam ko'rsatishni istamadi
- G) Rivojlangan davlatlar qatoriga kirishga bo'lgan intilishi zaruriyati

10. "O'tish davri"ga berilgan ta'riflarning qaysi biri aniq ifodalangan?

- A) O'tish davri ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy tuzum esam, balki mamlakatlarning demokratik tizimga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq vaqtdir.
- B) O'tish davri demokratik tizimlardan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun talab qilinadigan oraliq vaqtdir
- V) O'tish davri ijtimoiy-siyosiy tuzum bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati tizimning borgan sari demokratlashib borishidir.
- G) to'g'ri javob berilmagan

11. Demokratik jamiyatga ztishning o'ziga xos xususiyati nimada?

- A) Siyosiy tizim tubdan o'zgaradi, xalqning hokimiyati bevosita yoki bilvosita ishtirokida boshqaruvi amalga oshadi va omma davlat uchun emas, balki davlat omma uchun, degan tamoyil asosida davlat boshqariladi

- B) Davlat xokimiyati tubdan o'zgartiriladi, iqtisodiy asoslar mustahkamlanadi, yagona milliy mafkura o'rnatiladi
- V) Avtoritar tartibga xos xususiyatlar saqlanib qoladi, ijtimoiy hayot demokratlashtirida, tolerantlikka yo'l qo'yilmaydi.
- G) Hokimiyatning bo'linish tamoyiliga barham beriladi, siyosiy plyuralizm ta'minlanadi, majoritar saylov tizimi joriy qilinadi

12. O'zbekistonda o'tish davrining evolyusion yo'lini tanlanganligining o'ziga xos sabablari nimada?

- A) Recpublikada vujudga kelgan iqtisodiy vaziyat, oilalar aksariyat ko'pchiligining turmush darajasining pastligi, eski tuzumga moslashganligi, ularning dunyoqarashi, moddiy boyliklarni yaratishga bo'lgan munosabati, siyosiy madaniyati etarli darajada emasligi
- B) Tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy-kredit tizmlarini o'zgartirish, tegishli huquqiy asosni, bozorning infratuzilmasini barpo etish, xodimlarni tayyorlash uchun vaqt kerak. Ishlab chiqarishni tayyorlash va qayta jihozlash uchun talab qilinadigan texnologik vaqt olinishini ham hisobga olish kerak.
- V) Kishilarning tafakkurini odat tusiga kirgan qoidalarni o'zgartirish uchun muhimdir. Har bir bosqichda kishilarning tafakkurini o'zgarishlarni qabul qilishga tayorlab, ularni amaliy ishlar bilan yangi tuzumning afzalligiga ishonitirib borish zarur.
- G) Barcha javoblar to'g'ri

13. Demokratik jamiyat qurishning milliy tamoyillarini ko'rsating.

- A) Demokratik jarayonlarning uzviyligi, asta –sekinligi, xalqimiz xayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi
- B) Inson xaq-xuquqlari va xurfikrlilik, qonun ustuvorligi.
- V) Dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik, qonun ustuvorligi.
- G) Diniy bag'rikenglik, xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi.

14. Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida belgilab qo'yilgan.

- A) 4 bob, 17 –18 moddalar
- B) 3 bob, 15-16 moddalar
- V) 5 bob, 25-29 moddalar
- G) 6 bob, 125-128 moddalar

15. O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi qaysi?

- A) Oliy Majlis
- B) Vazirlar Mahkamasi
- V) Sud hokimiyati
- G) Mahalliy kengashlar

16. O'zbekistonda davlat hokimiyati qaysi asosiy tamoyil asosida tashkil etiladi?

- A) Saylovlar orqali shakllanish
- B) Hokimiyatning bo'linish tamoyili
- V) Hokimiyatning uzviyligi va bo'linmasli
- G) Siyosiy hokimiyatning avtoritetligi

17. O'zbekiston Respublika Oliy Majlisi qonunchilik palatasi to'g'risidagi ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri?

- A) Qonunchilik palatasi 150 deputatdan iborat bo'lib, ularning 135 tasi siyosiy partiyalardan saylanadi.
- B) Qonunchilik palatasi 135 deputatdan iborat bo'lib, ulardan 16 tasi prezident tomonidan tayinlanadi.

- V) Qonunchilik palatasi 150 deputatdan iborat bo‘lib, ulardan barchasi siyosiy partiyalardan saylanadi.
G) Qonunchilik palatasi 135 deputatdan iborat bo‘lib, ulardan barchasi tayinlanadi.

18. Ikki palatali parlamentning bir palatali parlamentdan farqini izohlovchi to‘g‘ri fikrni toping.

- A) Ikki palatali parlamentda maxalliy hokimiyat tavsiyasi bilan saylangan deputatlar uchun ham o‘rin ajratiladi
B) Ikki palatali parlamentda yuqori palata – senat shakllantirilgan
B) Ikki palatali parlamentda deputatlar doimiy ishlashmaydi.
G) Ikki palatali parlamentga Bosh vazir rahbarlik qiladi

19. Qaysi javobda O‘zbekistonda qonunchilik tashabbusiga ega bo‘lgan organlar keltirilgan?

- A) Qonunchilik palatasi, Oliy Sud, MXX, Viloyat hokimliklari
B) Prezident, Bosh Vazir, Oliy Majlis va uning palatalari, Oliy Sud
V) Prezident, Qonunchilik xokimiyati, MXX
G) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar mahkamasi, Prezident, Bosh prokuror

20. Fraksiya bu –To‘g‘ri javobni toping.

- A) Fraksiya siyosiy partiyadan ko‘rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan deputatlar birlashmasidir
B) Fraksiya – bu siyosiy partiyalarning saylov oldi dasturini o‘zida ifodalaydigan platformasidir
V) Fraksiya siyosiy partiyadan saylangan senatorlarning qonunchiliu palatasidagi birlashmasidir
G) Fraksiyalar Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakilini shakllantiruvchi maxsus organdir

21. Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun..... lar tuziladi. To‘g‘ri javobni toping.

- A) Fraksiyalar
B) Qo‘mitalar
V) Komissiyalar
G) Palatalar

22. Asosiy Qonun – Konstitutsiyamizda demokratik jamiyatning muhim sharti bo‘lgan inson huquq va manfaatlarining ta‘minlanishi qanday aks ettirilgan?

- A) Konstitutsiyaning 3 bobi 15-16 moddalarida
B) Kosntitutsiyaning 2-bo‘limi – “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” da bayon qilinadi
V) Konstitutsiyaning 1-bo‘limi asosiy prinsiplarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda inson huquqlari bayon qilinadi
G) Konstitutsiyaning 5-bo‘limi, 76-78-moddalarida inson huquqlarini ta‘minlash masalalariga bag‘ishlangan

23. Erkin ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi qanday?

- A) iqtisodiy plyuralizm
B) Ijtimoiy adolat
V) Iqtisodiy notenglik
G) Iqtisodiy barqarorlik

24. Demokratik jamiyatga monand demokratik iqtisodiy tamoyillar erkin bozor iqtisodiyotining tub belgilari ko'rsatilgan javobni toping.

- A) Mulk shakllarining xilma-xilligi, erkin raqobat, ijtimoiy adolat
- B) hususiy mulk, tadbirkorlik va tanlov erkinligi, shahsiy manfaatning inson xatti-harakatining bosh motivi ekanligi, raqobat,erkin narh tizimi**
- V) Raqobat, fikrlar xilma-xilligi, erkin narx tizimi
- G) Xususiy mulk, erkin raqobat, ijtimoiy adolat

25. Respublikamizdagi ma'muriy-hududiy birliklarning mulklari, er va er osti, ichki suvlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi, respublika hududi doirasidagi havo havzasi, Respublika byudjeti vositalari, oliy o'quv yurtlari qaysi mulk turiga kiradi?

- A) Davlat mulki
- B) Xususiy mulk
- V) Jamoa mulki
- G) Aralash mulk

26..... – bu bozor aloqalarini o'rnatishga va samarali yuritishga xizmat qiluvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning majmuasidir.

- A) Bozor iqtisodiyoti
- B) Bozor infratuzilmasi**
- V) Bozor strukturasi
- G) Bozor turlari

27. «Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega...». Bu huquq fuqrolarning qaysi huquq va erkinliklari guruhiga kiradi?

- A) demokratik;
- B) ijtimoiy;
- V) siyosiy;
- G) shaxsiy;**

28. O'zbekiston Respublikasi inson va fuqarolarining asosiy huquqlari, erkinliklari qanday guruhlarga bo'linadi?

- A) shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy erkinliklar;
- B) tabiiy va shaxsiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy;
- V) iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar;
- G) shaxsiy, iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy huquq va erkinliklar;**

29. Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod qanday lavozimni egallaydi?

- A) Senat a'zosi lavozimini.
- B) Oliy Bosh qumondonlikni.
- V) Qonunchilik palatasi deputatligini.
- G) Konstitusion sud a'zolikini.

30. Konstitusiyaga ko'ra bilim olish huquqi qanday huquqlar guruhiga kiradi?

- A) Iqtisodiy va ijtimoiy.
- B) Iqtisodiy.
- V) Ma'naviy va shaxsiy.
- G) SHaxsiy.

2-variant

1. «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani nimani o‘rgatadi?

- A) Bu fan ijtimoiy voqelikning o‘ziga xos qonunlarini kashf etadi;
- B) Jamiyatimizdagi jarayon va hodisalarni ta’riflash va tushuntirish ishlarini o‘rganadi;
- V) Ilmiy xulosalar chiqarish bilan birgalikda, u barcha fanlarning ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash, ularning dunyoqarashini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shishini o‘rganadi;
- G) to‘g‘ri javob B, V;

2. «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani qanday fan?

- A) nazariy
- B) amaliy
- V) nazariy-amaliy
- G) uslubiy

3. «O‘zbekistonda demokratik jamiyat kurish nazariyasi va amaliyoti» fani qachondan boshlab Respublika ta’lim tizimiga joriy etilgan?

- A) 1991 yildan
- B) 1998 yildan
- V) 1999 yildan
- G) 2000 yildan

4. «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining predmetini aniqlang?

- A) jahondagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni tahlil etish, ilmiy xulosalar ishlab chiqish
- B) xalqaro munosabatlarni o‘rganish, diplomatik munosabatlar
- V) siyosat, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish
- G) O‘zbekistonda demokratik jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini o‘rganish.

5. Demokratiya rivojlanish jihatlarini baholashning asosiy mezonlarini ko‘rsating.

- A) Xalqning qarorlar qabul qilish jarayonidan xabardorligi
- B) Hukumat qarorlari xalq tomonidan nazorat qilinishi
- V) Oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishi
- G) A, B, V

6. «Siyosatnoma» asarining muallifi kim va bu asarda qanday masalalar ko‘tarilgan?

- A) Forobiy, asarda fozil shahar aholisi va uni boshqarish masalalari ilgari surilgan
- B) Nizomulmuluk, asarda amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish masalalari yoritilgan
- V) A. Temur, asarda o‘z tuzuklarini ifodalagan bo‘lib, davlatni boshqarishda uluslarga ajratish masalasi yoritilgan
- G) M. Qoshg‘ariy, asarda adolatli jamiyat va boshqaruvning demokratik tashkil qilinishi bayon qilinadi.

7. Qaysi tarixiy xujjatda 1 sentyabr – Respublika mustaqilligi kuni, umumxalq bayrami deb e‘lon qilindi?

- A) «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonun
- B) Oliy Kengashning «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida»gi Qarori
- V) Oliy Kengashning «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Bayonoti
- G) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

8. Iqtisodiy taraqqiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi....kabi xususitlar qaysi global taraqqiyot modeliga xos?

- A) Amerika qit'asi modeli
- B) Osiyo taraqqiyot modeli
- V) Lotin Amerikasi modeli
- G) Evropa modeli

9.Nima uchun taraqqiyotning O'zbek modeli muallifi va asoschisi sifatida O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov e'tirof etiladi?

- A) Chunki, I.A.Karimov o'zining 1992 yilda yozgan "Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar" hamda "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarlarida ilmiy jihatdan asoslab bergan.
- B) Chunki, I.A.Karimov O'zbekistonni mustaqillikka olib chiqdi, o'zi bosh islohatchilik qildi
- V) Chunki, I.A.Karimov "O'zbek modeli" ga bag'ishlab qitob yozgan
- G) Chunki, I.A.Karimov Konstitutsiyamizni yaratishga bosh-qosh bo'ldi, mustahkam qonunchilik yaratildi

10. O'tish davrining Klassik modeli uchun xos xususiyatlar nimada?

- A) Tashqi kuchlar aralashuvisiz, o'z ichki imkoniyatlariga tayaniladi, asosiy islohatlar iqtisodiy sohada ro'y beradi.
- B) Siyosiy tizim birdaniga o'zgaradi, keskin iqtisodiy choralar ko'riladi
- V) Narxlar erkinlashtiriladi, avtoritar tartiblar saqlanib qoladi
- G) Tashqi kuchlar ta'sir asosida iqtisodiy va siyosiy islohatlarga urg'u beriladi

11. Inqilobiy o'tish yo'lining samarali bo'lishini ta'minlashi mumkin bo'lgan omillar qaysilar?

- A) Sobiq tuzum sharoitida xususiy mulk kurtaklarining saqlanib qolishi, demokratik qadriyatlar kurtaklarining mavjudligi, aholi katta qismining moyilligi
- B) Odamlarning tuzumga nisbatan keskin munosabati, erkin bozor munosabatlarining shakllanganligi, sanoatlashuvning yuqori ekanligi
- V) Xususiy mulk kurtaklarining mavjudligi, avtoritar tartiblarni saqlab qolishga bo'lgan moyillik
- G) Kuchli markazlashgan davlat, kuchishlatish vositalarining samarali ishlashi, kuchli fuqarolik potsiziyasi

12. O'zbekistonda o'tish davrida qaysi model asosida islohatlar olib borildi?

- A) SHok terapiyasi – Falaj qilib davolash
- B) Evelyusion – bosqichma-bochqichlilik
- V) Revolyusion-inqilobiy
- G) Klassik –an'anaviy

13. O'zbekistonning Birinchi prezidenti I.A.Karimovning qaysi asarlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning "O'zbek modeli" va uning nazariy masalalari yoritilgan.

- A) O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li bizdan ozod va obod Vatan qolsin, O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.
- B) "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz", yangicha fikrlash va ishlash davr talabi
- V) Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar, O'zbekistonni o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li, O'zbekiston bozor munsabatlarga o'tishning o'ziga xos yo'li.
- G)O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari

14. Taraqqiyotning "O'zbek modelini" ishlab chiqishda nimalar hisobga olingan?

- A) Mustaqil davlatchilikning tarixiy tajribasi va milliy tiklanishning takomil bosqichlari.
- B)Jahon tajribasi, O'zbekistonning milliy xususiyatlari va shart-sharoitlari.

- V) O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasi
- G) Barchasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimovning 5 ta tamoyil deb ataluvchi dasturi nimani aks ettiradi.

- A) MDX doirasidagi munosabatlarda Respublika prinsiplarini
- B) Respublika bozor iqtisoidiyotiga o‘tish yo‘lini
- V) Respublika tashqi siyosati asosiy yo‘nalishlarini
- D) Etakchi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarining asosiy tamoyillarini

16. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi konstitutsiyaning qaysi moddasida bayon etilgan.

- A) 11-moddasida
- B) 23-moddasida
- V) 46-moddasida
- G) 8-moddasida

17. Bugungi kunda O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimida tugatilgan lavozimni ko‘rsating.

- A) Bosh vazir
- B) Vazirlar Mahkamasi kengashi kotibi
- V) Oliy Majlis spikeri
- G) Vazirlar Mahkamasi raisi

18. O‘zbekistonning Birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma‘naviy tiklanish konsepsiyasi ilk bor qachon va qaysi asarda keltirilgan?

- A) “Biz qurish va yaratish yo‘lidan boraveramiz” 1995 yil
- B) “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” 1992 yil
- V) “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” 1998 yil
- G) “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” 1999 yil.

19. Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma‘naviy-axloqiy negizlarini aniqlang?

- A) umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
- B) xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish.
- V) insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish va vatanparvarlik.
- G) yuqoridagilarni barchasi to‘g‘ri.

20. Qaysi javobda kadrlar tayyorlashning milliy modeli to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

- A) shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta‘lim, fan, ishlab chiqarish.
- B) shaxs, oila, uzluksiz ta‘lim, fan, madaniyat ishlab chiqarish.
- V) shaxs, uzluksiz ta‘lim, fan, ishlab chiqarish, ma‘naviyat.
- G) shaxs, davlat va jamiyat, o‘zliksiz ta‘lim, fan, madaniyat.

21. O‘zbekiston o‘zi uchun eng maqbul deb tanlagan rivojlanishning...

- A) Evolyusion (tadrijiy) yo‘lidan bormoqda.
- B) Revolyusion (inqilobiy) yo‘lidan bormoqda
- V) Suveren demokratiya yo‘lidan bormoqda.
- G) Dunyoda yagona deb tan olingan yo‘lidan bormoqda.

22. O‘zbekiston Oliy Majlisiga bo‘lib o‘tgan birinchi saylovda ishtirok qilgan partiyalarni aniqlang?

- A) O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi va «vatan taraqqiyoti» partiyasi.
- B) «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi va O‘zbekiston «Fidokorlar» milliy demokrtaik partiyasi
- V) O‘zbekiston liberal demokratik partiyasi va O‘zbekiston «Fidokorlar» milliy demokrtaik partiyasi
- G) «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi va O‘zbekiston «Milliy tiklanish demokratik» partiyasi.

23. O‘zbekiston Ekologik harakatidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qancha deputat saylanadi?

- A) 25 ta
- B) 15 ta
- V) 120 ta
- G) 84 ta

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z lavozimini ijro etishga kirishishi chog‘ida qaysi organ tashkilotda qasamyod qiladi?

- A) BMT da
- B) Hokimlar oldida
- V) Oliy Majlisda
- G) Vazirlar Maxkamasida
- D) Konstitutsion sudda

25. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi tamoyili nimani anglatadi?

- A) Jamiyat va davlatni faqat iqtisodchilar boshqarishini;
- B) Jamiyatdan siyosiy tushunchalarni siqib chiqarishni;
- V) Iqtisodiy sohalarni erkinlashtirish, uni siyosiy tazyiqlar iskanjasida tutib turmaslik;
- G) Jamiyat taraqqiyotini moddiylik va iqtisodiy taraqqiyot belgilash.
- D) V va G javoblar to‘g‘ri.

26. Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash tamoyili qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

- A) Monopollashgan iqtisodiyotdan erkin iqtisodga o‘tish tushuniladi;
- B) Mustaqillik fikrini kengroq anglash tushuniladi;
- V) Davlat va jamiyat boshqaruvida qonunning ustuvorligi tushuniladi;
- G) to‘g‘ri javob yo‘q.

27. «Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi» tamoyili...

- A) Davlatning bosh islohotchi bo‘lishi lozimligini bildi-radi;
- B) qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo‘lishi zarurligini bildiradi;
- V) Ham ichki ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarurligini bildiradi;
- G) Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish lozimligini bildiradi;
- D) Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligini bildiradi.

28. Bozor munosabatlariga asoslangan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini nima tashkil etadi?

- A) xilma-xil shakldagi mulk
- B) xususiy mulk
- V) shaxsiy mulk
- G) davlat mulki

29. Quyidagi qonunlardan qaysi biri O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklariga tegishli

- A) «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»
- B) «Soliq kodeksi»
- V) «O‘zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to‘g‘risida»

G) «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»

30 .O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko'p partiyaviylik asosida dastlabki saylovlar qachon o'tkazilgan edi?

- A) 1993 yil dekabrda.
- B) 1994 yil dekabrda.
- V) 1995 yil martda.
- G) 1995 yil yanvarda

“O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI” FANIDAN TALABALAR BILIMINI REYTING TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH MEZONI

“O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarining bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabani fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabani nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "YOzma ish" yoki test shaklida o‘tkaziladi.

Talabani bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabani fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Fan bo‘yicha talabalarining semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi, shundan: Ya.N.-30 ball, J.N.-40 ball va O.N.-30 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarining bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik

- Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabani saralash balldan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarining o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabani fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = V * O / 100$,

bu erda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik reja muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr davomida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) nafardan kam bo'lmagan tarkibda appelyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Appelyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda monitoring va ichki nazorat bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

7-8-semestrlar uchun

Fakultet	Mashg'ulotlar	Auditoriya soati	Mustaqil ish	Umumiy vaqt sarfi
barcha fakultetlar uchun	Ma'ruza	28	28	56
	Seminar	28	28	56
	Mustaqil ish	-	-	-
	Jami	56	56	112

REYTING

7 - semestr uchun

Joriy nazorat 37	Oraliq nazorat 33	Yak.nazorat 30
32 -37 "5" (3,2-3,7 bal)	28 -33 "5"	26 – 30 "5"
26 -31 "4" (2,6-3,1 bal)	23 -27 "4"	21 – 25 "4"
20– 25 "3" (2,0-2,5 bal)	18 - 22 "3"	16 – 21 "3"

8 - semestr uchun

Joriy nazorat 33	Oraliq nazorat 37	Yak.nazorat 30
28 -33 "5"	32 -37 "5"	26 – 30 "5"
23 -27 "4"	26 -31 "4"	21 – 25 "4"
18 - 22 "3"	20– 25 "3"	16 – 21 "3"

Bir semestrda o'tiladigan yo'nalishlar uchun:

Joriy nazorat 35	Oraliq nazorat 35	Yak.nazorat 30
30 -35 "5" 2.1-2.5	30 -35 "5"	26 – 30 "5"
25 -29 "4" 1.8-2.0	25 -29 "4"	21 – 25 "4"
19 - 24 "3" 1.3-1.7	19 - 24 "3"	16 – 21 "3"

JORIY NAZORAT TURIDA BAHOLASH MEZONLARI

Seminar mashg'ulotlarini baholash jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

- a) seminar mavzusi doirasida ko'rsatilgan savollar bo'yicha konspektning mavjudligi;
- b) mashg'ulotga tayyorgarlik jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanganligi;
- v) tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (darslik, davriy matbuot, internet manbalari) foydalanganmi;
- g) seminar rejasida qo'yilgan savollarga javoblarning aniq ilmiy asoslanganligi;
- d) har bir savol bo'yicha xulosalarning to'g'riligi.

Izox: Muayyan seminar mashg'ulotlarni baholash jarayonida seminarga ajratilgan mustaqil ish soatlari hisobga olinadi.

ORALIQ NAZORAT TURIDA BAHOLASH MEZONLARI

- 1.Fanning ON uchun belgilangan bo'limi yoki qismi bo'yicha nazariy bilimlarni to'la o'zlashtirganlik darajasi;
- 2.Olingan nazariy bilimlarni qo'llay bilish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi;
- 3.Qo'yilgan savollarga berilgan javoblarning ilmiy asoslanganligi;
- 4.O'tilgan mavzular bo'yicha mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etganligi.
- 5.Tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari, boshqa davriy matbuot, va h.k. manbalardan foydalanilganlik.

ORALIQ NAZORAT MAVZULARI (7 – semestr) :

1. "O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li", "demokratiya", "dunyoviy davlat", "demokratik jamiyat", "demokratik ong", "demokratik tafakkur" kabi tushunchalar mazmun-mohiyati.
2. Demokratiyaning nazariy asoslari va qadriyatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilishi hamda amaliyotga tadbiiq etilishi.
4. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar.

ORALIQ NAZORAT MAVZULARI (8 – semestr) :

1. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti asoslarining qonunchilik bazasini shakllantirilishi.
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishda aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirishi.
3. O'zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo'nalishlari.